

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI*



O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

**“FILOLOGIYANING DOLZARB
MASALALARI”**

mavzusidagi

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY ANJUMANI

MATERIALLARI

(2020-yil 25-aprel)

1-kitob

QO'QON-2020

**“Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika
ilmiy-uslubiy anjumani materiallari to‘plami**

Mas’ul muharrir:

ATADJANOV M.Y. – Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori

Tahrir hay’ati:

XODJAYEVA D.SH. – ilmiy va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

QOBILOVA Z.B. – o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

AKRAMOV SH.T. – o‘zbek tili kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ABDURAHMONOVA B.M. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

HASANOV A.A. – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

USMONOVA S.A. – o‘zbek tili kafedrasi o‘qituvchisi

To‘plovchilar:

HASANOVA B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

HASANOVA D. – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nashrga tayyorlovchi:

SOLIYEVA O. – o‘zbek adabiyoti kafedrasi doktoranti

Taqrizchilar:

ISKANDAROVA SH. – filologiya fanlari doktori, professor

BOZOROV O. – filologiya fanlari doktori, professor v.b.

To‘plam Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining aprel oyidagi navbatdan tashqari yig‘ilish bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

Eslatma: To‘plamga kiritilgan maqolalar shakli va mazmuniga shaxsan mualliflarning o‘zlari javobgardirlar.

ИЛМ-МАЪРИФАТ – КЕЛАЖАК ПОЙДЕВОРИ

М.Атаджанов, Қўқон ДПИ ректори

Аввало, бугунги анжуман кутилмаганда бутун жаҳон инсониятига хавф солаётган касалликнинг тарқалишини олдини олиш бўйича чора-тадбирлар ташкил этилган кунларга тўғри келганлиги бизни ҳижолатга қўймоқда. Лекин бу борада давлатимиз томонидан белгиланган режа ва чора-тадбирлар асносида илм олишга, маънавиятни юксалтиришга томон собитқадамлик билан борилаётгани ҳам ҳеч кимга сир эмас. Республикамиз Президенти томонидан 2020 йилнинг “Илм-маърифат ва рақамли иктисодиёт йили” - деб номланганининг ўзи ҳам бу борада, айниқса, педагог-ходимлар олдига катта ва масъулиятли вазифалар юклайди. Ҳар қандай хавф-хатарни илм билан, маърифат билан чекинишга мажбур этиш мумкин.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан таълим жараёнига, илмий фаолиятни янада чуқур ривожлантиришга доир чиқарилган ўндан ортиқ фармон ва қарорлари ҳам келажагимиз бўлган ёшларнинг илм олишига, уни амалда қўллай билишига ва жаҳон тан олган буюк аждодларимиз каби оламшумул кашфиётлар билан лол қолдиришга қаратилган жуда катта имкониятлар калити десак, муболаға қилмаган бўламиз. Зеро, буюк мутафаккир Юсуф Хос Ҳожиб “Инсоннинг буюклиги ва бебаҳолиги унинг ақл-идрок ва тафаккур соҳибни эканлигида, айнан шу шуурий қудрат барча воқеа-ҳодисалар замирида туб моҳиятларни англаш калитидир”¹,—деган бўлса, Аҳмад Югнакий илмни қадри ўта юксак эканлиги хусусида “Илм қадрини кишига илмнинг ўзи беради, нодон, жоҳил илмнинг қадрига етмайди. Илмсизга ҳар сўз маъносиздир, ундай кишига панд-насиҳат фойдасиздир”², - дейиши ҳам илмга олишга, илм-маърифатли бўлишга ундовчи пурҳикмат сўзлар саналади.

Шу ўринда бир нарсани алоҳида таъкидлаш керак деб ҳисоблайман, яъни илм олишнинг бош калити ва илмнинг онаси она тили ва адабиёт – филологик фанлардир. Шоира Зулфиянинг бир ҳикматомуз гапи бор: “Ўз она тилини яхши билмаган инсон она юрти юрагини яхши билмайди”.

Сўз мулкининг султони Алишер Навоий даврида 120 000 дан ортиқ туркий сўз бўлган экан. Лекин ўтган давр мобайнида бу сўзларнинг кўпини йўқотдик. Агар биз она тилимизнинг ривожи учун бугун қайғурмасак, бора –

¹ Юсуф хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. Т.1990.45-б.

² Ўрта Осиё педагогик фикрлар тараққиётидан лавҳалар.Т.Фан.1996.91-б.

бора уни йўқотамиз. Шукурки, Ўзбекистон янгиланди, ғоялар ва мақсадлар янгиланди. Сўнгги йилларда миллийликка эътибор кучайди.

Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашига аъзо бўлганимиз бир қувонтирса, мухтарам Президентимизнинг “Ўзбек тили байрами кунини белгилаш тўғрисидаги” қонунга имзо чекканликлари чексиз қувонтирди.

Инсон дунёга келибоқ математик, химик ёки биолог бўлмайди. У, аввало, тилчи, адабиётчи бўлади. Дастлаб унинг тили чиқади, она алласи орқали вужудига тил ва адабиёт, маънавият сингиб боради. Мактабгача ва мактаб таълимига қадар боланинг келажаги, ким бўлиши, ва ҳатто, касби ҳақидаги айрим хусусиятлар шаклланиши сезила бошлайди. Юртбошимиз томонидан мактабгача таълим муассасалари фаолиятини янада яхшилаш, таълимнинг узвийлиги ва узлуксизлигини йўлга қўйиш, оналарнинг бола тарбиясига, ҳам ақл ва жисмонан баркамол бўлишига қарата чиқарган кўрсатма ва йўл-йўриқлари, алоҳида вазирлик ҳамда муассасаларнинг ташкил этилиши ҳам келажагимизнинг бунданда ривожланган ва фаровон бўлишини таъминловчи омиллар сирасига киради. Келажакнинг янада тараққий этган бўлиши, инсониятнинг нафақат ер юзидаги, балки бошқа коинотни забт этишдаги ютуқлари илм-маърифат билан амалга оширилиши айтиш ҳақиқатдир. Туркистон жадид маърифатпарварлари “Нажот - илму урфонда”, деб бежиз ёзмаганлар.

Шахс интеллект, ақл-заковатининг куч-қудрати ҳозирги кунда, глобаллашув жараёнида ўзаро техник воситалар орқали гаплашиши, юзлашиши ва ҳатто халқаро масофавий таълим сифатини оширишида ҳам кўринади. Бу жараён бугунги кунда дунё мамлакатлари тараққиёт эволюциясига, унга бевосита таъсир этувчи технологик, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-мафкуравий алоқасига айланиб бормоқда.

Таълим жараёни, илм-фан тараққиёти бевосита инсониятга, шахсларга хизмат қилиши зарур. Айтиш шунинг учун ҳам замонавий таълим соҳасидаги ислохотлар келажагимиз пойдевори бўлган ёшларнинг илм-маърифат бобида рақобатбардош, етук шахс сифатида камол топишига қаратилган тадбирлардир.

Мазкур анжуман иштирокчилари томонидан илгари сурилган илмий ғоя ва фаразлар, уларнинг амалий ифодаланиши ҳам, албатта, юқоридаги айтилган фикрларимизни тасдиқлайди. Анжумандаги ўзаро фикр алмашувлар, материалларда берилган янгича қараш ҳамда интилишлар ёшларимизнинг илм-маърифатли етук кадрлар бўлиб шаклланиши учун хизмат қилишига ишонамиз.

ФАЛСАФИЙ МЕТОДОЛОГИЯ ВА ТИЛ НАЗАРИЯСИННИНГ ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

О.Бозоров, филология фанлари доктори, ҚДПИ

Ўзининг тафаккур кудрати, ҳайратомуз илмий янгиликлари билан жаҳон аҳлини лол қолдирган Эйнштейн фалсафани барча фанларнинг онасидир деган эди. Олим ўзининг ушбу афоризми билан ҳар қандай хусусий фаннинг шаклланиши ва тараққиётида фалсафанинг, фалсафий методологиянинг ўрни бекиёс, фундаментал аҳамиятга эга эканлигини кўрсатмоқчи бўлган.

Методология сўзи асли грекча бўлиб, унинг маъноси “нарсa (ҳодиса)ни билиш йўли ҳақидаги таълимот”³ демакдир. Бу сўз ўзининг асосий (“методлар ҳақида таълимот”) ва ёрдамчи (“методлар йиғиндиси”) маъноларидан ташқари, “бош метод” ёки “энг умумий метод” маъноларини ҳам касб этганки, ушбу мақолада қўлланилаётган *методология* сўзи шу маънога тўғри келади. Биз бу ўринда объектив борлик, жамият, тафаккур оламларини ўрганувчи фалсафанинг умумий қонун, категорияларини хусусий фан соҳиблари учун кўрсатадиган билиш йўл (усул)и методология (фалсафий методология)си сифатида тушунамиз.

Ўз-ўзидан савол туғилади: фалсафанинг (фалсафий қонун, категория, тамойилларнинг) бошқа хусусий фанлар учун методологик ёки йўл кўрсатувчилик қилишининг бош сабаби нимада? Бунинг сабаби фалсафанинг хусусий фанлар оралиғида вужудга келганлиги, бу фанларнинг натижа, хулосаларини умумлаштирувчи, хулосалардан хулосалар чиқарувчи дедуктив фан эканлигидир. Фалсафа методологиясининг объектив асоси объектив олам (табиат), жамият ва тафаккур оламлари, нарсa (ҳодиса)лари тузилишидаги изоморфизм (нисбий ўхшашлик)дир. Нарса (кенг маънода) қайси олам турига мансуб бўлишидан қатъий назар унда муайян ташкил этувчилар, муносабатлар, структура, вазифадорлик (функция бажариш) каби умумий (инвариант) элемент (константа) лар мавжуд бўлиб, улар ҳар бир олам турли нарсаларида ўзига хос хусусиятларга эга. Илғор фанлардан бирининг (физика, химия каби) ўз олами нарсаси тузилишини ўрганиши бошқа олам турлари нарсасини ўрганувчи фанларни ҳам ўз олами нарсасини шундай ўрганишга чорлайди. Бунга хусусий фанлар натижаларини умумлаштириб, янги муаммолар қўяётган фалсафа раҳбарлик қилиб беради. Фалсафа оддий ҳисобот бериш, умумлаштириб бориш билан чекланиб қолмайди, балки хулосаларни хулосалар билан эҳтимолий қарашларни

³ Словарь иностранных слов. Издание 14-е, исправленное. – Москва, 1987. – С.308

илгари суради ва буни исбот ёки рад этиш учун хусусий фанларга тавсия этади. Шу асосда фалсафа билан хусусий фан оралигида устоз-шогирдлик, йўл бошловчилик (методистлик, методологик) ва унга эргашувчилик муносабати таркиб топади.

Шуни эътироф этишимиз жоизки, фалсафа моҳиятан ҳар бир фаннинг ташида эмас, унинг ичида, борлигида мавжуддир. Хусусан, тилшунослик ўрганиш предмети бўлган фонетика (нутқ товушлари тузуми)нинг ўзига хос миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига айланиши, инкорни инкор, қарама-қаршиликлар бирлиги ва кураши (бир-бирини ўзгартириши) каби ҳодисалари (қонунлари) бор. Шуниси афсусланарлики, ҳозирга қадар олий ўқув юртларида ўқитилаётган фалсафа фани буни ҳисобга олмади ва ўта умумийликка берилди. Хусусан, филология факультетида тил фалсафаси ва бадий асар фалсафаси ўқитилиши лозим. Бунда фалсафий муаммо хусусийлантирилиб, фонетикада ёки романда миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши қандай юз беради, қарама-қаршиликлар бирлиги қай тарзда воқеланади, инкорни инкор қонуни қандай намоён бўлади каби муаммолар филологик фалсафада бўлиши лозим эди. Бунинг учун фалсафа хусусий фанлар бўйича ихтисослашиши, файласуф ўз фанидан ташқари муайян хусусий фанни чуқур билиши талаб қилинар эди. Ана шу сабабларга кўра, фалсафанинг хусусий фанлар ҳодисалари моҳиятини очишга ёрдам берган самараси яхши бўлмади.

Шуни алоҳида таъкидлашимиз лозимки, ҳар қандай тадқиқотчи, магистр, докторант, услубчи (методист) ўқитувчи умумий фалсафани жиддий ўрганиши, уни ўз фани предметида ҳис қилиши, шу фан предмети моҳиятини фалсафий тушунчалар асосида англаши лозим. Шундагина улар оригинал янгиликка бой илмий ишлар, долзарб муаммоли филологик таълимни йўлга қўя олишади.

Биз тил тадқиқотчиларига фалсафага оид монографиялар, қўлланмалар, фанларнинг фалсафий асосларига бағишланган асарларни⁴ ўқиб чиқишни ва фалсафа методологияси бўйича қуйидаги муаммоларга эътибор беришни сўраймиз:

Тил объектив оламнинг инъикоси натижасида вужудга келган. Шунинг учун тилни унинг инъикос этилувчи ифодаланмишига (субстанциясига, объектив борлиққа) хос бўлган категория ва қонунлар асосида ўрганиш лозим.

⁴ Туленов Ж. Борлик фалсафаси. Маърузалар матни. Учинчи бўлим. – Тошкент, 2001; Шу муаллиф. Билиш назарияси. Маърузалар матни. Бешинчи бўлим. – Тошкент, 2001; Фалсафа. М.Аҳмедова таҳрири остида. Дарслик. – Тошкент, 2006. Фалсафа. Ўқув қўлланма. Акад. Юсупов В. раҳбарлиги остида. – Тошкент, 2005; панфилов В.З. Философские проблемы языкознания аспекты. – Москва, 1977. Готт В.С. Материальное единство мира единство научного знания // Вопросы философии. – М., 1977, №12; Рахимов И., Ўтамуродов А. Фанларнинг фалсафий масалалари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2005 ва бошқалар.

Тил абстракт (лисоний) ва конкрет (нутқий) бирликлардан ташкил топган бир система, бутунлик, нисбий мустақил воқелик (фалсафий “нарса”) сифатида объективлик, реаллик, бутун-қисмлик, айнанлик-фарқлилик, миқдор ва сифат, шакл ва мазмун, моҳият ва ҳодиса, муносабатлар мажмуи, қарама-қаршиликлар бирлиги ва кураши, миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши, инкорни инкор каби белгиларга эгаки, булар тадқиқ этилмоғи лозим.

Тил лисон ҳолатида киши хотирасидаги абстракт ҳодисадир. Тилнинг абстрактлик жиҳати фалсафанинг умумийлик, моҳият, мазмун, асос, ички зарурият, сокинлик каби мавҳумликлар билан боғлиқ категориялари методологияси асосида чуқур ўрганилиши мумкин. Шунингдек, тилнинг моддий ёки нутқий ҳолатини фалсафанинг ташқи, шакл, объективлик, конкретлилик, натижа, тасодиф, воқелик, ҳодиса, ҳаракат каби категориялари назариялари асосида тадқиқ этилса яхши натижаларга эришиш мумкин.

Тилни тадқиқ этишда бутун ва қисм категорияларининг аҳамияти ниҳоятда катта. Маълумки, тилни тадқиқ этиш унинг воқелиги бўлган нутқдан бошланади. Нутқ эса муайян коммуникатив мақсад учун тил бирликларидан ҳосил қилинган оҳанг-мазмун (интонацион-семантик) бутунлиқдир. Тил бирликларини ўрганиш шу бутунликни (масалан, жумлани) бўлақларга ёки сўзларга ажратиш, ажратилган сўзларни турли белгилари бўйича таққослаш, ўхшашлик ва фарқлиликларни аниқлаш ва шулар асосида категория ҳамда парадигмаларни белгилаш каби йўналишларда олиб борилади. Анализ усули ёрдамида бутунни қисмларга ажратиб, уларга тавсиф берувчи нисбий мустақил тилшунослик анализ тилшунослиги ёки аналитик лингвистика сифатида эътироф этилади. Шунингдек, нисбий ўрганилган қисмларни синтез усули асосида бириктириб, бутунликлар ёки системаларни, уларнинг қисмларидан фарқ қилувчи сифат ва миқдор, вазифа хусусиятларини ўрганувчи, синтез усули етакчи бўлган тилшунослик синтез тилшунослиги ёки системавий (систем-структур, структур) лингвистика сифатида тан олинади.

Тилнинг ички, ифодаланмиш томони, мазмуни, моҳиятини тушунишда хусусийлик ва умумийлик категориялари бирламчи аҳамиятга эга. Буни тилшунослик фанлари тизимида хусусий, масалан, (ўзбек) ва умумий тилшунослик, лингвистик типология каби фанларнинг мавжудлиги яққол кўрсатиб туради.

Инсон онгининг олами инъикос эттиришида хусусийликдан умумийликка ўта бориши ва бу узлуксиз жараёндаги мантиқий шаклланишларнинг (тушунча, ҳукм) тилда, тил бирликларида ифодаланиши ҳамда умумийлик мақомидаги лисоний бирликларнинг чексиз яққаликлар,

алоҳидаликлар, хусусийликлар (нутқий контекстлар) учун қўллана олиш имкониятларини атрофлича ва чуқур тадқиқ этиш мантиқ ва тилшуносликнинг ҳамкорликдаги вазифаларидир. Умумийлик ва хусусийлик категориялари когнитив (тилга оламни билиш инструменти сифатида қараш) лингвистиканинг назарий асоси ҳисобланади.

Айнанлик ва фарқлилик категорияларининг муҳимлиги шундаки, улар тил бирликларининг қандай изчил ўзгаришлар, фарқланишлар ёрдамида ҳосил бўлиши, фарқланишлар учун асос бўлувчи умумий (бир хил, айнан) белгилар, умумий (ўхшаш) белгилар асосида тил бирликларининг микро- ва макрогуруҳларига (категорияларга, парадигмаларга) бирлашиши каби масалаларнинг ўрганилиши учун кўрсатмалар беради.

Тил хотирада сақланувчи тизим ёки системадир. Шунинг учун унинг тадқиқини фалсафанинг система ҳақидаги таълимотлари асосида очиб бериш яхши натижалар беради. Систем категорияси ўзининг нисбий мустақил таркибий қисмлари ёки микрокатегорияларига эга. Булар субстанция, элемент, муносабат ва структура категорияларидир. Ўз-ўзидан тушуниладиги, бу категориялар ҳам ўзларининг методологик қийматларига эга. Хусусан, субстанция тилнинг ясалиш ашёси, элемент ташкил этувчи, муносабат ташкил этувчиларнинг боғланиши, структура боғланишлар асосида вужудга келувчи тузилмалар ва, ниҳоят, система барча тузилмалар асосида ҳосил бўлган бир бутун тил ҳодисасининг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этиш учун фалсафий йўлланмалар беради.

Тил объектив ва субъектив оламни ўзида акс эттирувчи ҳодисадир. Шунинг учун унинг инъикос ёки ифодаланмиш томони (борлиғи, тузилиши) ниҳоятда мураккаб ва кўп қирралидир. Тилнинг ушбу жиҳатини фалсафанинг мазмун, сифат, моҳият, имконият, асос, сабаб, зарурият каби категориялар методологияси асосидагина ҳақиқатга мос равишда ўрганиш мумкин.

Табиат ва жамиятга хос бўлган қарама-қаршиликлар бирлиги ва кураши, микдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши ва инкорни инкор қонунлари тилда инъикос этади ва улар лисоний қонунлар (масалан, лисоний градуонимия ёки даражаланиш қонуни каби) мақомида зухур этади. Тил воқелигида намоён бўлган бу хусусий лисоний қонунлар ва уларнинг фаолияти билан боғлиқ бўлган тилнинг пайдо бўлиши, ўзгариши ва тараққиёти, турли сатҳ бирликларининг тадрижий ҳосил бўла бориши, нисбий турғун ҳолатдаги тилда лисоний бирликлар ва муносабатларнинг система сифатида мавжуд бўлиб тура олиш омиллари, лисоний бирликлардан нутқ ҳосил қилиш жараёнлари, умуман, мураккаб ва кўп қиррали тилнинг бутун механизмини унинг ўзгариши, тараққиёти ва вазифалар бажариш ҳолатларида атрофлича ва чуқур ўрганиш учун фалсафа қонунлари

методологияси билан қуролланиш, диалектик фикрлаш қобилиятига эга бўлиш лозим.

Тил шартли белгилар системаси бўлганлиги учун унинг моҳиятини ўрганишда фалсафий фан бўлган семиотиканинг асосий тушунчалари методологияси билан ҳам қуролланиш катта аҳамият касб этади.

Тил кишиларнинг оламни билиш йўллари, билимларни ўз мазмунида (айниқса терминлар семантикасида) акс эттириб, тўплаб, тараққий эттириб боради. Ҳозирги даврда ушбу масалалар шаклланиб бораётган когнитив лингвистикада долзарб ҳисобланади. Когнитив лингвистика, анъанавий тилшуослқдан фарқли ўлароқ, фалсафа ва логика фанлари билан бевосита ҳамкорлик қилмоқда, уларнинг таянч тушунчаларига асосланмоқда.

Диалектик қонун ва категориялар, фалсафий методология ва методлар билан қуролланган тилшунос ўз соҳасининг донишманди (файласуфи) бўлади ва у тилдаги ҳақиқатлар силсиласини аниқлаб, анъанавий қарашларни янгиликлар билан бойитиб, лисоний моҳият сари олға бораверади.

Фалсафий методология глобализация, фанлар интеграцияси даврида бошқа турдаги (мантик, табиий фанлар каби) методологиялар билан муносабатда бўлиши, янада бойиши заруриятдир.

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ «ШАХС» АРХИСЕМАЛИ СПОРТГА ОИД БИРЛИКЛАР

Ш.Искандарова, М.Шокирова (ФарДУ)

Яқин йилларга қадар ўзбек тилшунослигида “шахс” семали луғавий бирликлар кўплаб тадқиқотларнинг объектига айланган⁵. Спорт айнан инсоннинг жамиятдаги ўрнини белгиловчи ижтимоий кўрсаткичлардан биридир. Шунинг учун ҳам “спорт” семемали лексемаларни “шахс” тушунчаси билан боғлиқ ҳолда таҳлил этиш ўзига хос самара беради.

Ҳар қандай сўз шакл ва мазмуннинг диалектик муносабатидан ташкил топган мураккаб тузилма бўлиб, унинг семантик тузилишида бир қанча таркибий қисмлар ўзаро бирлашади. Масалан, айрим сўзлар умумий, кенг миқёсли, семантик таркиби жиҳатидан «шахс оти» семасига эга бўлиб, шу архисема асосида «от туркумига мансублик» категориал семаси вужудга келади. “Спорт” семемали шахс отларига тўхталганимизда, уларда ҳам худди шу ҳолат кузатилишини кўрдик. Улар орасида *спортчи, курашчи,*

⁵ Данияров Р. Заимствование русско-интернациональных личных имен узбекским языком: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967; Абдиев М. Аффиксальный способ образования названий лиц в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991; Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фанлари докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Зайниддинова Н. Машғуллик семасига эга бўлган шахс отларининг лексикографик талқини: Филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004 ва бошқалар.

гимнастикачи, футболлист, рақиб, чемпион, мураббий, сардор, спорт устаси, ҳакам (судья) каби бирликлар умумий номни билдиради.

Спорт турларининг йўналишлар ва категорияларидан келиб чиқиб, улар яна бир қанча лексемаларни ўзида бирлаштиради: *спринтерчи* (пойга мусобақаларида), *панчер* (бокста), *ярим ҳимоячи* (футболда), *грегар* (велопойгада), *лайнсмен* (футболда) тарзидаги бирликлар “тур” семасига кўра, *сардор, мураббий, спорт устаси* кабилар “мавқе” семасига кўра, *рақиб* “муҳолифлик” семасига кўра, *чемпион, голиб* кабилар. “Спорт” семемали шахс отлари орасида *спортчи, курашчи, гимнастикачи, футболлист, рақиб, чемпион, мураббий, сардор, спорт устаси, ҳакам(судья)* тарзидаги бирликлар ажратилади. Айримлари маълум спорт турига тегишли бўлса, айримлари умумий хусусиятга эга бўлади. Масалан, муайян спорт турига тегишли шахс номи сифатида *курашчи, футболлист, гимнастикачи* сингарилар, етакчилик белгиси билан *сардор, мураббий, спорт устаси* кабилар, *рақиб* лексемаси “муҳолифлик” семасига кўра, *чемпион, голиб, мағлуб, аутсайдер, пешқадам* кабилар “ғолиблик” семасига кўра, *кедди* (гольфда ёрдамчи), *захирадаги ўйинчи* (футбол), *дублёр, напарник, спарринг шерик* кабилар “бевосита иштирок” семасига кўра ўзаро зидликка киришади.

Спорт микросистемасида “шахс” семали бирликларни “туруҳ” белгисига кўра икки гуруҳга бўлиб олишимиз лозим: 1) жамоани билдирувчи бирликлар; 2) якка шахсни билдирувчи бирликлар. Шуни ҳам қайд этиш зарурки, айрим спорт турлари номларида “яккалик” ва “жамоавийлик” семалари жамланган бўлади.

Жамоани ифодаловчи бирликларга қуйидагилар киритилади: *жамоа, коллегия, ҳакамлар ҳайъати, иккилик, учлик, кватет (тўртлик), гуруҳ, қатор, саф* кабилар. Якка шахсни билдирувчи бирликлар асосий қатламни ташкил қилади. Уларга ҳар бир спорт тури билан шуғулланувчи шахсни билдирувчи лексемалар мансуб.

Спорт турлари ичида *бадий гимнастика, синхрон сузиш* кабилар тўлик ҳолда “аёл” семасига эга бўлса, *футбол, бокс, теннис, қўл тўпи, волейбол* кабиларда ҳар икки жинс вакиллари иштирок этиши маълум ҳолатдир. Тадқиқотчилар шахс отларини “жинс” дифференциал семаси асосида таснифлаганларида шахс отларининг асосий қисми “эркак” семали эканлигига гувоҳ бўлишган⁶.

Жамият ҳаётида янги бир ўзгариш юз берар экан, бу аввало, субъект – тил эгаларининг менталитети, маънавий қиёфаси чиғириғи – призмасидан ўтади. Миллий-маданий иммунитетнинг кучлилиги сўзларнинг ўзлашишида

⁶ Зайниддинова Н. Машғуллик семасига эга бўлган шахс отларининг лексикографик талқини: Филол. фанл. номз. ... дис.авторреф. – Тошкент, 2004. Б.5.

ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Субъект феълнинг бир валентлиги ҳисобланса ҳам, феълга нисбатан субъектнинг ўзгариши мажбурий валентлик актантларининг ўзгаришига олиб келади. Ўхшатиш сифатида олсак, мураббий янги командага ўз шахсий таркиби билан келади.

Велосипед мусобақаларида мусобақа турларига кўра шахс номларининг қуйидаги турлари ажратилади:

1. Классик пойгачилар (бир кунлик босқичга мосланган иштирокчи)
2. Спринтерчилар. (финиш чизигида бирдан фаоллашувчи пойгачилар)
3. Яккакурашчилар. (Алоҳида пойгада фаол, жамоавий курашда енгилиши мумкин бўлган иштирокчилар)
4. Тоғ пойгачилари.
5. Тез эниш усталари (юқоридан қуйига).
6. Универсал пойгачилар.
7. Генералчилар (кўп кунлик беллашувда умумий ҳисобни кўзлайдиган пойгачилар)
8. Грегларлар (жамоа сардори, ҳимоячиси вазифасини бажарувчи)

Бундан ташқари, велоспортда турли унвонлар ҳам мавжуд. Улар *тоғ қироли, энг агрессив спортчи* кабилардир.

Ҳаракат тезлигига кўра норасмий велоспорт иштирокчисини билдирувчи лексемалар қуйидаги гуруҳларга ажратилади: *ўзиб кетувчилар, пелотон, қолдиқ гуруҳ, группетто*.

Ўзиб кетувчилар. Айрим велоспортчилар турли мақсадларни кўзлаб пелотондан ўзиб кетадилар. Улар, одатда, турли жамоа аъзоларидан иборат бўлади ва келишган ҳолатда бир киши етакчилик қилади, финиш яқинлашгач асосий беллашув бошланади.

Велосипед пойгаси спорт турида барча иштирокчиларнинг умумий ҳаракатланиш тўдаси “пелотон” деб номланади. Пелотонда юришнинг устунлик томони шундаки, спортчи ҳаво оқими ва шамолдан панада бўлади, 40 фоизгача энергия тежайди. Сардорлар жамоанинг олдинги қисмида ҳаракатланиб, йўл танлаш вазифасини бажариб беради. Унинг атрофида грегларлар ҳаракатланиб, сардорга бошқа жамоа вакиллари халал беришига йўл қўймайдилар, шунингдек, ўзлари ҳам “ҳужум”га ўтиб турадилар.

Қолдиқ гуруҳ пелотондан ортда қолган гуруҳ ҳисобланиб, бу гуруҳнинг асосий мақсади, пелотонга етиб олиш ҳисобланади. Агар бирор гуруҳ сардори қолдиқ гуруҳга тушиб қолса, пелотондан грегларлар ажраб чиқиб, уни яна олдинга олиб чиқиш учун куч сарфлайдилар.

Группетто вакиллари эса вақт чегарасидан ортда қолиб кетмасликка интиладилар, кучни тежайдилар ва финиш яқинида катта тезлик олиб

олдинга интиладилар. Группеттога спринтерчилар, жароҳатли ва кучдан қолган спортчилар жамланган бўлади⁷.

Бокс билан шуғулланувчиларнинг асосий касбига кўра “спортчи” гуруҳидаги лексемалар икки гуруҳга бўлинади:

1. Профессионал спортчилар.
2. Ҳаваскор спортчилар.

Мазкур тасниф спортнинг барча турларига ҳам хос эмас. Бокс, учувчилик, аэроконструкторлик, ўқ отиш кабиларда кузатилади. Шунингдек, боксда “ярим профессионал” белгили шахс отлари ҳам ажратилади.

Умуман, спорт турлари номлари доирасида “шахс” семали бирликлар ҳам алоҳида ўрин тутади. Спортга оид лексемалар маълум бир халқнинг ўзига хослигини намоён этиши билан бирга, умум эътироф этган халқаро бирликлар сифатида катта аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР:

1. Данияров Р. Заимствование русско-интернациональных личных имен узбекским языком: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967.
2. Абдиев М. Аффиксальный способ образования названий лиц в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991.
3. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фанлари докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.
4. Зайниддинова Н. Машғуллик семасига эга бўлган шахс отларининг лексикографик талқини: Филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Шоссейный_велоспорт.

РОБИДДИН ИСҲОҚОВ ШЕЪРЛАРИНИНГ АЙРИМ ФОНОСТИЛИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Улуков Носиржон,

НамДУ профессори, филология фанлари доктори

Наманганлик шоир Робиддин Исҳоқов шеърляти ҳам ўрганишга арзирли ижод мактабидир. Шоир шеърларининг бадий гўзаллиги ва оҳангдорлигида поэтик фонетиканинг ўрни беқиёс. Шоир шеърнинг товуш томонига алоҳида эътибор қаратиб, шеър оҳангдорлиги, эмоционлиги ва бадийлигини оширишда фонетик бирлик ҳамда усуллардан моҳирона фойдаланади.

Шоир шеърляти учун поэтик фонетиканинг асосан, аллитерация

⁷ https://ru.wikipedia.org/wiki/Шоссейный_велоспорт

(ундошлар такрори), ассонанс (унлилар такрори) каби усуллари характерлидир.

Аллитерация термини грекча бўлиб, нутқда товушларнинг мос келишидир.⁸ “Аллитерация кўзга унчалик ҳам яққол ташланмаслиги мумкин, бироқ улар яққол эшитилади”:⁹

Аллитерация шеърини нутқда мисралар, ундаги сўзлар ҳамда бўғинлар бошида ёки охирида бир хил ундош товушларнинг такрор қўлланиши асосида вужудга келади. Аллитерация шеърининг мусикийлигини оширади, хушоҳанглик орқали эстетик таъсирни кучайтиради:

*Олатов қирғизининг қимизи бор,
Қимизи бор қирғизнинг бир қизи бор.
Ўтган-кетган йигитнинг кўзи шунда,
Манглайи порлаган юлдузи бор.*

(“Қирғиз кизига”, 54-б.)¹⁰

Ушбу мисралардаги “қ” ундошлари такрорига асосланган аллитерация лексик маъно устига қўшимча шеърини “бўёқ”, тегишли оҳанг, жозиба бериш вазифасини бажарган.

*Хизмат айлаб юртга кеча-кунузи,
Ватаним – бахтимнинг порлоқ юлдузи,
Рубобига жойланур элимнинг сўзи,—
Жон аро жойлаб сўзинг, жоним Ватан,
Ботир ўглинг жонисан, жоним Ватан*

(“Ватан меҳри”, 86-б.)

Мазкур шеърда эса аллитерация қофиядош сўзлар таркибидаги “з” ҳамда “ж” ундошлари такроридан юзага чиқмоқда. Мисралардаги товушлар такрори кучли таъкид, чексиз ҳурмат каби маъноларнинг ифодалаши баробарида, қаҳрамонимиз дилида ватанпарварлик туйғулари нечоғли бебаҳо ва беқиёс эканлигини кўрсатмоқда.

*Куйлашиб боғим тўрида булбул шўх овоз ўйнасин,
Ишқ ўтин дил торида сайратиб соз ўйнасин.
Бахтим офтоби чарақлаб изласин гул гунчасин.
Ғунча янлиг жилмайиб, пардали юз ўйнасин.*

(“Ўйнасин”, 96-б.)

Бу ғазалда ҳам “шўх овоз ўйнасин”, “соз ўйнасин”, “ноз ўйнасин” каби қофиядош сўзлар таркибидаги “з” ундош товушига асосланган аллитерация

⁸ Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 51 б.

⁹ Куронов Д., Мамажонов Ж., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.27.

¹⁰ Исҳоқов Р. Шоирнинг барча шеърлари шу манбадан олинганлиги боис, шеър номи ва саҳифасигина кўрсатилди.

лексик маънога қўшимча оҳанг бермоқда.

Айрим мисраларда аллитерация шоир дилида кечаётган ишқ туйғуларининг бекиёс эканлигини ифодалашга хизмат қилган:

*Оқ ҳарир гуллар сочадур ниҳол новдалар **оппоқ**,
Айланур ошиқ болалар, оқ шоҳи гулга **муштоқ**.
Севги сепин ёнганигда дардкашинг бўлсами ёр,
Ҳар қатим жилосида гул, япроқ гул-гул **япроқ**.
Ишқ вафо гулшанида зоғу булбул сайр этар,
Сайр этиб сайёду тил бири булбул, бири **зоғ**.
Янги ерда ер очадур, ризқ очадур ёр қўли,
Ёр пойидан унди райхон, унди сунбул, унди **боғ**.
Кўз меҳр булогиким, қайнаб чиқадур томчи дард,
Дард чекиб, ёрга етишган робиддиннинг кўнгли **тоғ**.¹¹*

Ушбу мисраларда аллитерацияга асосланган *оппоқ*, *муштоқ*, *япроқ*, *зоғ*, *боғ*, *тоғ* каби қофиядош сўзлар оҳангдорлигини кузатиш мумкин.

*Лолагинам
Юрагингни оч,
Марвариддай **ишқинг оширма**,
Сенга етмоқ
Қасдида бошим –
Тошга тегса, элга **оширма**.*

Мазкур сатрларда шоир яширин аллитерация қўллаган. Сатрларда қўлланган сўзлар талаффузида товушларнинг оҳангдорлигидан хайратга тушамиз. Мисрадаги *ишқинг оширма* бирикмасида **ш**, *сенга етмоқ қасдида* бирикмасида **қ**, *бошим тошга тегса, элга оширма* гапида **ш** товуши такрорланиб нутқнинг бадийлигини оширган.

*Зарраси олтин баҳоси, жон **тупрогим азиз**,
Ризқу рўзим, бахтим унган нон **тупрогим азиз**.
Ер очиб сочган уруғ, деҳқон бобом қадрига ет,
Кафтига олганда зар, деҳқон **тупрогим азиз**.
Дил қушим парвоз этур, ташна гулга қўнгани,
Ташна дилни обод этган боғбон, **тупрогим азиз**.
Ҳар кўнгли хатиға битсам, заршунос эл мадҳини,
Соз чалиб боғимда қушлар, меҳмон **тупрогим азиз**.
Меҳнати шавқида хушнуд Робиддин ҳам эл аро,
Эл адо ёнган чироғи достон, **тупрогим азиз**.*

Албатта, шеърда бир қанча услубий бадий воситалардан фойдаланилади. Ғазални ўқиб, унда метафора, ўхшатиш ва такрор каби

¹¹ Исақов Р. Юз ғазал. (Мухаррир: О.Носиров) – Наманган, 1999.

воситаларни кўришимиз мумкин. Шеърда шоир Деҳқон образини гавдалантиради. Унда *тупроқ зарраси нон, дил қуши, заршунос, сўз чалиб, ёнган чироқ* каби ўхшатишларни ишлатади. Қофияланишда *тупроғим азиз* жумласи мисраларда такрорланади. Бу билан шоир *она тупроқ, содиқ фарзанд* образларини гавдалантиради. Ҳар бир мисра ўқувчида эстетик завқ уйғотади. Зеро, шоир ўқувчида эстетик ҳис-туйғу уйғота олмаса, у юксак даражага кўтарила олмайди.

Шоир шеъриятида куйидаги каби аллитерациянинг гўзал намуналари кузатилади:

*Қариндошдан қиз олсанг, қийлаб қочар,
Қийиқ сўзинг кўтаролмай, сиринг очар.*

(Фардлар, 22-б.)

*Қаридошни ёмонлаган – қадри йўқ,
Қадри йўқнинг бегонадан фарқи йўқ.*

(Фардлар, 22-б.)

*Тан бирла жонингни туташтирар тил,
Тил билан жаҳонни тинчитар оқил.*

(Фардлар, 25-б.)

Робиддин Исҳоқов шеъриятида унли товушлар такрорига асосланган ассонанслар ҳам ўзига хос аҳамиятга эга.

Ассонанс (лот. *ассонар* – уйғун жаранглаш; фр. *Ассонанс* – оҳангдошлик) шеърини нутқда бир хил унли товушлар такрорига асосланган ифодавийликни кучайтирувчи восита, такрорнинг фонетик сатҳдаги хусусий кўриниши; шеърга хушоҳанглик бахш этади, мусиқийликни кучайтиради. Масалан, шоирнинг оила ҳақидаги фарди *о* унлисининг такрори ассонансни юзага келтиради:

*Оила – одобнинг ойнаси эрур,
Ойна тиниқ бўлса, нур устига нур.* (18-б.)

Шоир шеърларида ассонанс икки усулда қўлланилади:

1. Мисрада, бандда, жумлада бир хил унли товушларнинг оҳангдорлиги асосида:

*Она сўзин олтини бор, териб ол,
Олтинга тенг одбидан ўрнак ол.* (29-б.)

Ушбу бандлардаги **о** унлисининг такрорланиши мисралар ҳамоҳанглигини, шунингдек, шоирнинг онага, унинг одоб бобидаги ибратига доир қарашлари таъкид билан ифодалашга хизмат қилган.

Шоир шеъриятида асосан, **о**, **и**, **у** унли товушларига асосланган ассонансларни кузатиш мумкин:

Она сочларига оралаган оқ,

Йўлингни ёритгай мисоли чироқ. (Фардлар, 18-б.)

Бу шеъррий парчада, о унли товушининг кетма-кет такрорланиб келиши, шеърнинг жарангдорлигини, таъсирчан-лигини оширган.

2. Қуйидаги мисраларда эса ассонанс қофиядош сўзлар таркибида – келиб, шеъррий нутққа кўтаринки руҳ ва ўзига хос муסיқийлик бахш этган:

Орзуйим, аламим, бахтим, фирогим,

Шам янглиг юракда ёнган чирогим... (54-б.)

Ёки:

Гўзаллик бахш этай десанг дилиннга,

Эзгулик уругин сочгил элиннга. (Фардлар, 25-б.)

Мисоллардан кўринадики, шоир товушлардан турли услубий мақсадларда фойдаланишни удда этган.

Унинг шеърларида товушлар такрори мисраларнинг қайси ўрнида такрорланишидан қатъи назар шеърга ўзгача жило, жозиба ва оҳангдорлик берган.

ЎЗБЕК ТИЛИДА УНДОШЛАР ЗИДЛАНИШИНING МЎЪТАДИЛЛАШУВИГА СИНЕРГЕТИК ЁНДАШУВ

Д.Набиева, АДУ ф.ф.д., профессор,

Д.Нурманова, АДУ ф.ф.н. доцент

Табиатдаги ҳар бир нарса, ҳодиса доимо ўсишда ва ўзгаришда. Баъзан бундай ўзгаришлар кузатувчининг сезгисига берилмайди. У яшириш тарзда амалга ошади. Охир-оқибат ўзи мансуб система структурасига таъсир этади ва янги структуранинг ташкил топишига туртки бўлади. Нарса-ҳодисаларга ўз-ўзини ташкил этиш нуктаи назардан қараш янги парадигманинг – синергетиканинг майдонга келишига туртки бўлди. Ҳозирги кунда тилнинг ҳам табиат ҳодисалари каби ўз-ўзини ташкил қилувчи, тадрижий тарзда янги структураларни ўзида намоён этувчи мураккаб тизим эканлиги синергетик парадигмалар асосида эътироф этилмоқда. Бунинг сабаби тил-нутқ дихотомиясида тилнинг ўзгармас, нисбий барқарор, тартибли бўлгани ҳолда, нутқнинг ўзгарувчанлиги, беқарорлиги ва тартибсизлиги билан изоҳланмоқда. Дарҳақиқат, нутқдаги айрим “тартибсизликлар” даврлар ўтиши билан тил системасидан жой олиши ва ундаги тартибни ўзгартириб янги тартибнинг ўрнатилишига олиб келши мумкин. Масалан, айрим окказионал бирликларнинг узуал бирликлар сифатида тил системасида ўринлашиши ёки ўзбек тили тарихида саккизта унлининг маълум сабабларга кўра олтига унли ҳолига келиши таъкидлашимиз мумкин.

Тил системасидаги фонемаларнинг нутқ жараёнида фарқловчи белгиларининг мўтадиллашиши натижасида фарқланиш хусусиятининг йўқотишини ҳам нутқдаги “тартибсизликлар” билан изоҳлаш мумкин. Бу ҳолатни ундош фонемалар фарқловчи белгиларининг инлаутда, яъни сўз ўртасидаги позицияда мўтадиллашуви асосида батафсилроқ кўриб чиқамиз.

Ундошлар зидланишининг мўтадиллашуви кўпроқ икки унли оралиғида интервокал ҳолат билан боғлиқ ҳолда рўй беради. Бундай ҳолатда ундошларнинг кўпроқ портловчилик-сирғалувчилик, жаранглилик-жарангсизлик белгиларига кўра зидланишларининг мўтадиллашуви кузатилади.

Г-й ундошлари жарангли-жарангсизлик белгисига кўра умумийликка эга бўлиб, пайдо бўлиш ўрни ва усулига кўра ўзаро фарқланади. Фонологик системадаги бу зидланиш нутқ жараёнида, синтагматикада мўтадиллашиши мумкин. Бундай вақтда бир хил фонетик шароитда бири ўрнида иккинчиси эркин алмашиниб, маънога таъсир этмайди. Бир маъноли бирликнинг икки вариантини вужудга келтиради. Масалан, *кейин-кегин, тугун-туйун* ва бошқалар.

Ғ-в ундошлари портловчилик-сирғалувчилик, жарангли-жарангсизлик белгиларига кўра умумий бўлиб, пайдо бўлиш ўрнига кўра фарқланади. Бу зидланиш бир қатор желовчи ўзбек шеваларида инлаутда интервокал ҳолатда мўтадиллашади. Масалан, *огиз-овуз, қовурма-қўгурма, қовурмоч-қўгурмоч* ва бошқалар.

Қизиғи шундаки, ҳар икки аъзо мўтадиллашувчи восита ҳамда мўтадиллашма бўлиши мумкин. Жумладан, биринчи мисолда ғ-в зидлиги ўртасидаги мўтадиллашув тил ўрталик белгисининг йўқолиши ва лаб ундошига ўтиш ҳисобига бўлса, кейинги мисолларда, аксинча, адабий тилда в ундоши желовчи шеваларда синтагматикада лабланиш хусусиятини йўқотиб, тилорқа сирғалувчи, жарангли ундошга айланади.

Б-в ундошлари портловчилик-сирғалувчилик белгисига кўра ўзаро зидланади. Жонли нутқда бу ундошлар зидланиши йўқолади. Мўтадиллашув кўпроқ сирғалувчи ундош ҳисобига бўлади. Масалан, *обод-овот, бобо-бува, табиб-товун, юбор-ювор, кабоб-кавоп* каби.

П-б ундошлари жарангли-жарангсизлик белгисига кўра зидланади. Сўз ўртасида интервокал ҳолатда бу зидланувчилар ўртасида зидланиш белгисининг йўқолиши, мўтадиллашуви мумкин. Бундай хусусият ўзбек тили диахрониясида кузатилади. Тарихий этимологик б ундоши п ундошига ва аксинча, п ундоши б ундошига ўтганлиги кузатилади. Масалан, *шўбон-чўпон, қапоқ-қабоқ-қовоқ* ва бошқалар.

Б-м ундошлари лаб ундошилик, портловчилик жаранглилик белгилари бирлаштирувчилик, сонорлик-сонор эмаслик белгилари фарқловчилик вазифасини бажаради. Ўзбек тилининг тарихий тараққиёти натижасида бу ундошлар фарқланиши айрим жуфтликларда йўқолганлиги кузатилади. Масалан, қабал (БН) - қамал (ҳозирги ўзбек тили), қаба (БН) - қама (ҳозирги ўзбек тили) каби. Бу ундошларнинг мўътадиллашуви ҳозирги желовчи шеваларда ҳам учрайди. Масалан, сомон-сабан. Бу эса диахрониядаги мўътадиллашувнинг ҳозирги ўзбек тилидаги реликтидир.

Инлаутда ундошлар зидланишлари ўртасида мўътадиллашув фақат интервокал ҳолат билангина чекланмайди. Кўпинча ундошолди позициясида ҳам зидланувчи ундошлар ўртасидаги зидланиш белгиси йўқолиши мумкин.

Г-й ундошлари ўртасидаги пайдо бўлиш ўрнига кўра зидланиш баъзи ўзбек шеваларида инлаутда сонор ундошлари олдида мўътадиллашуви кузатилади. Масалан, *игна-ийна*.

Ғ-в ундошлари ўртасидаги зидлик белгиси айрим ўзбек шеваларида сонор ундошларидан сўнг ёки тил олди ундошларидан олдин мўътадиллашуви мумкин. Масалан, *тарвуз-торғуз, бугдой-бувдай* каби.

Б-в ундошлари ўртасидаги портловчилик-сирғалувчилик белгисига кўра зидлик инлаутда сонор ундошларидан олдин йўқолиши кузатилади. Масалан, *жабр-жавр, сабр-савр*.

Ж-й ундошлари ўртасидаги портловчилик-сирғалувчилик, тилолдилик-тилўрталик, шовқинлилик-сонорлик белгиларига кўра зидланишнинг белгилари инлаутда сонор ундошлари олдида мўътадиллашуви кузатилади. Масалан, *мажлис-майлис*.

Ф-п ундошлари ўртасидаги портловчилик-сирғалувчилик белгиларига кўра зидланиш инлаутда сонор ундошларидан сўнг мўътадиллашуви мумкин. Масалан, *кулфат-кулпат, улфат-улпат* каби.

Ғ-й ундошлари ўртасидаги чуқур тилорқалик-тил ўрталик белгисига кўра зидланиш желовчи ўзбек шеваларида д ундошидан олдинги позицияда мўътадиллашади. Масалан, *бугдой-бийдай (желовчи шеваларда)*.

Р-д ундошлари ўртасидаги портловчилик-титроқлик, сонорлик-шовқинлилик белгиларига кўра зидланиш д ундошидан олдинги позицияда мўътадиллашади. Сонор ундош сонорлик, шовқинлилик белгиларини йўқотади. Масалан, *харидор-хардор-хаддор (Наманган)*.

Р-т ундошлари ўртасидаги жаранглилик-жарангсизлик белгисига кўра зидланишнинг тил олди, жарангсиз портловчи ундош олдида мўътадиллашуви, сонор ундош сонорлик белгисини йўқотиши мумкин. Масалан, *марта-матта (Наманган, Андижон), кекиртак-кекиттэг (Наманган)* каби.

Р-ң ундошлари титроқлик-портловчилик белгисига кўра зидланишнинг инлаутда н ундоши олдида мўътадиллашуви, титроқ зид аъзо титроқлик белгисини йўқотиши кузатилади. Масалан, *тирноқ-тинноқ, тирна-тинна* каби.

Н-д ундошлари ўртасидаги сонорлик-жаранглилик белгисига кўра зидланиш сонор ундошдан сўнг келган иккинчи сонор ундоши сонорлик белгисини йўқотиши ва тил олди, жарангли, портловчи ундош билан бир хил бўлиб қолиши мумкин. Масалан, *тирноқ-тиннақ-тиндақ* каби.

Х-в ундошлари ўртасидаги пайдо бўлиш ўрнига кўра бўғиз ундошиликлан ундошилик белгисига кўра зидланиш жарангли, лаблашган ундошлар ёки сонор ундошлар олдидан мўътадиллашиши мумкин. Масалан, *суҳбат-суббат (желовчи), таҳлика-тавлика (желовчи)* каби.

Х-й ундошлари ўртасидаги бўғиз ундошилик-тил ўрталик, сонорлик-сонор эмаслик белгиларига кўра зидланиш инлаутда и унлисидан сўнг мўътадиллашуви кузатилади. Бунда бўғиз ундоши ўз белгисини йўқотиб, зид аъзоси белгилари билан бир хиллашади. Масалан, *деҳқон-дийқон, зехн-зийн (желовчи), меҳр-мийр (желовчи), меҳнат-мийнат (желовчи), меҳмон-миймон (желовчи)* каби.

Т-д ундошлари ўртасида жарангсизлик-сонорлик, портловчилик-ёнлик белгиларига кўра зидланиш синтагматикада тил олди, сонор ён ундоши олдидан мўътадиллашади. Мўътадиллашув тил олди, жарангсиз, портловчи ундошнинг ўз фарқловчи белгиларини йўқотиб, д ундоши билан бир хил бўлиб қолиши сабабли рўй беради. Масалан, *атлас-аллас* каби.

Й-т ундошлари жарангли-жарангсизлик, тил ўрталик-тил олдилик, сирғалувчилик-портловчилик белгиларига кўра зидланади. Демак, улар максимал зидланишдаги аъзолар саналади. Шундай бўлишига қарамасдан, айрим ўзбек шеваларида бу ундошларнинг маънога таъсир этмаган ҳолда бири ўрнида иккинчиси алмашилиши ҳоллари кузатилади. Масалан, *кейин-кетин* каби.

Шундай қилиб, инлаутда ундошлар ўртасидаги хилма-хил зидланишлар ҳам сигнификатив, ҳам перцептив жиҳатдан мўътадиллашуви мумкин. Мўътадиллашув интервокал ҳолатда, шунингдек, маълум ундошлар олдида ҳамда айрим унлилардан сўнг уларнинг таъсирида рўй беради. Демак, нутқ тасодифларга, тартибсизликларга бой бўлган беқарор ҳодисадир. Ундаги рўй бераётган ўзгаришларни тадқиқ этиш нутқ лингвистикасини ривожлантириш билан бир қаторда тил системасидаги содир бўлаётган ўзгаришларнинг моҳиятини тушунтиришга асос бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
2. Абдуллаев Ф.А. Фонетика Хорезмских говоров. –Ташкент: Фан, 1967.
3. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1969.
4. Истрин В.А. Возникновение и развитие письма. – М.: Наука, 1965.
5. Нурмонов А.Н. Нейтрализация оппозиций лингвистических единиц по признаку утвердительности-отрицательности.//Советская тюркология. 1984. №3.
6. Нурмонов А., Рахимов А. Лингвосинергетикага кириш. Тошкент: Академнашр, 2013.
7. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. -Москва: Издательство иностранной литературы. 1960.
8. Реформатский А.А. Из истории отечественной фонологии. – М.: Просвещение, 1970.
9. Щербак А.М.Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л.: Наука, 1970.

ҲОЗИРГИ ЎЗБЕК ТИЛИДА ТАРИХИЙ ЎЗАККА АЙЛАНГАН АЙРИМ ЛУҒАВИЙ БИРЛИКЛАР ҲАҚИДА

*Бердиалиев А., филология фанлари доктори,
профессор (академик Б.Ғафуров номидаги
Хужанд давлат университети)*

Маълумки, сўз ҳам ифода, ҳам мазмун жабҳаларига эга ва уларнинг диалектик алоқасидан таркиб топувчи мураккаб лисоний ҳодисадир. Сўз ифода томонига кўра лексема, мазмун томонига кўра эса, семема деб аталади. Лексема ҳам, семема ҳам ўзига хос таркибий қисмлар ва улар муносабатидан таркиб топади. Сўзнинг лексемалик бир бутунлигини товуш ва морфемалар ташкил қилади. Фанда морфеманинг ўзак ва аффикс каби турлари муштарак тан олинган лисоний ҳодисалардир.

Мазкур мақолада ўзбек тилининг морфемалар тизимида “тарихий ўзак” деб аталувчи ҳодисалар ҳақида фикр юритиш мақсад этилган.

Ўзак морфема тил амалининг муайян даврига кўра, икки хил бўлади: а) тарихий (ёки диахрон) ўзак; б) ҳозирги (ёки синхрон) ўзак.

Умумлингвистик атамалар тизимида **синхрон**, яъни ҳозирги ўзак тушунчасининг терминологик эквонимиди**ахрон ўзак** деб аталади. Диахрон ўзак тилнинг ҳозирги даврида мустақил сўзлик шакли ва мақомидан “ажраганлиги” учун **т а р и х и й ў з а к** деб ҳам юритилади. Бу ўзак аслида

мустақил ишлатиладиган бошқа бирор-бир ўзакнинг фонетик жиҳатдан ўзгарган дастлабки шакли ҳисобланади. Масалан, **суюнмоқ** сўзи ўзбек тилининг ҳозирга даври нуқтаи назаридан қараганда, «суюн-» ва «-моқ» унсурларига ажралади: «суюн» - ўзак морфема; «-моқ» - аффикс морфема. «Суюн» ҳам, аслида, икки морфемадан иборат бўлган: «суй-//сев» ва «-ин». «Суй» ҳозирги адабий тилда «сев» шаклида расмийлашган луғавий бирликнинг фонетик вариантыдир: **Онам суюқ таомларни суйиб ейди.** Бу фонетик вариант, яъни «суй» шеваларда фаол ишлатилади. У «суюнчи» («севинчи») сўзининг таркибида ўзак морфема сифатида ҳам мавжуд.

«Суй-» унсури иштирок этган бу сўз, яъни «суюнмоқ» морфем таҳлилда дастлаб, уч морфемага ажратилган бўлса (*суй-* -- *ўзак морфема*; *-ин//ун*, *-моқ* –аффикс морфемалар), эндиликда у, юқоридагидек, икки морфемага ажралади: *суюн-* ва *-моқ*. Тилнинг ҳозирги ҳолатига кўра, бу сўзнинг дастлаб ўзак морфема характерида ажратиладиган унсури («*-суй//сев*») эндиликда лисоний-вазифавий мақомидан “четлашган”. У шу сўз, яъни «суюнмоқ» таркибида тарихий ўзак сифатида иштирок этади.

Тарихий ўзак «ички форма»си унутилган ёки хиралашган сўзлар таркибида бўлади. Масалан, **суюқ** сўзи аслида «суйлик» шаклида («суй» -- «сув» сўзининг фонетик муқобили) пайдо бўлган. Бу шаклда «сув-» ўзак, «-лик» аффикс морфемадир. Юқоридаги мисолда (сув//суй) бўлганидек, «суй»унсури ҳозир тилимизда лисоний жиҳатдан расмийлашган «сув» сўзининг фонетик вариантыдир. **Суюқлик** (суюқ+лик) сўзининг морфем таркибида тарихан мустақил ўзак мақомида иштирок этган «суй» морфемаси шаклан ўзгарган. Бироқ айна шу («суй//сув») морфеманинг луғавий маъноси билан боғлиқ «ҳисса» сақланган: «суюқ» сўзининг семантик қурилишида «сувлик», «сувга эгалик» асосий (дифференциал) сема сифатида мавжуд. Ёки «**туйнук**» сўзини олсак, бу сўз дастлаб «**дуд-ун-лик**» шаклида пайдо бўлган. Эндиликда бу сўзнинг дастлабки ўзак шакли (-*дуд*) лисоний жиҳатдан хиралашган, «ички форма»си унутилган.

Хуллас, тарихий ўзак этимологик таҳлилга муҳтож сўзларда мавжуд бўлади. Бундай сўзлар дастлаб сўз бирикмаси ва унинг қўшма ёки содда сўзга айланган муқобили характериани касб этган бўлиши ҳам мумкин. Морфем таркиби ҳозирги тил нуқтаи назаридан хиралашган **сузмоқ** (сувни узмоқ), **ёноқ** (ёнёқ), **қирзоқ** (қурукёқ), **этак** (чет ёқ), **ойдин** (ойли тун), **куёв** (*куйав қудагу қуда ўғил*), **қайни**(қайини), **қайна** (*қай она*: қадимги туркий тилда «*қа//ка//қу//қу*» «яқин» маъносида ишлатилган) сингари жуда кўп сўзларда тарихий ўзак мавжуд. Тарихий ўзак мавжуд сўзларнинг таркибида морфем қайта бўлиниш жараёни юз беради: дастлаб икки ёки уч морфемали сўзлар, вақтлар ўтиши билан, бир ёки икки морфемали луғавий

бирлик тусини олади. Масалан, *тиниқлик*: *тин-иқ-лик* --- *тиниқ-лик*; *қишлоқ*: *қиш-ла-қ* --- *қиш-лоқ*; *яшнамоқ*: *ёш-ин-а-моқ* – *-яшна-моқ*. **Чайла** (**йай-ла**), **яйлов** (**йай-ла-в**), **туйнук** (**тутун-лик**), **бўйин** (**бўй-ин**), **биқин** (**биқ-ин**), **юрак**(**юр-гак**), **чўмич** (**чўм-иғ-ич**), **илгари** (**ил-га-ру**), **ёстик**(**ёт-си-қ**) типигаги бир қатор сўзлар таркиби ҳам ҳозир морфем қисмларга ажралмайди. Сўз таркибига хос бу хусусият тил илмида **содаллашиш** деб аталади. «Содаллашган» сўзлар шу фонетик қиёфада бир морфемали ўзак (яъни: ҳозирги ўзак) характерини касб этган. Улар таркибининг **чай** (**йай-**), **тутун-**, **бўй-**, **биқ-**, **юр-**, **чўм-**, **ил-**, **ёт-** сингари унсурлари эса, тарихий ўзак ҳисобланади.

Тарихий ўзакли сўзлар баъзан маънодош бошқа бир муқобилига эга бўлади. Бундай луғавий бирликлар таркибида унга маънодош сўз ўзагининг «тарихий»лигини тасдиқловчи ҳозирги ўзак мавжуд бўлади. Масалан, «*сескан--сезкан*», «*чирик—ириган/иримоқ/йиринг (йиринг-ла-моқ)*», «*суюн—севин*», «*ажрат—айир*» сингари бир қатор сўзлар ана шундай характерга эга. Ҳозирги тилимиздаги *қайир*, *буюр*, *айир*, *огир* сингари бир қатор сўзларда ҳам тарихий ўзак мавжуд. Бироқ уларнинг ўзак қисми сўз таркибига ажралмас даражада сингишиб кетган. Бу сўзлардаги тарихий ўзакларни *ган-ир*, *кўк-ар*, *эски-р*, *оқ-ар*, *қиз-ар* сингари сўзлар таркибига қиёслаш йўли билан тасаввур этиш мумкин.

Хуллас, тарихий ўзак ҳозирги тил нуқтаи назаридан морфем қисмларга аниқ ажратиб бўлмайдиган сўзларда мавжуд. Улар сирасига, юқорида айтилганлардан ташқари, *исирға*, *тақа*, *қовурға*, *қопқоқ*, *тебрат*, *юпан*, *қурпа*, *кўприк*, *киприк*, *яхши*, *яшил*, *ўпқон*, *қулан*, *ўрдак*, *балиқ*, *тариқ*, *илгари*, *юлон*, *балчиқ*, *талқон*, *қора*, *қўноқ*, *қирғай*, *эчки*, *бақир*, *чақир*, *бўрдоқи*, *кўмир*, *ёлвор(моқ)*, *хотин*, *қийна(моқ)*, *сайла(моқ)*, *алда(моқ)*, *алла*, *алдов*, *ёрқин*, *чайла*, *яйлов*, *қашла(моқ)*, *чиқ(моқ)* сингари жуда кўплаб луғавий бирликлар киради. Буларни ўрганиш, улар таркибини аниқлаш фан олдидаги долзарб муаммолардан бири саналади.

Гарчанд морфем қисмлари ҳозирги тил нуқтаи назаридан ёрқин сезилиб турган бўлса-да, ***ипак* (*ип+ак*)**, ***ичак* (*ич+ак*)**, ***қишлоқ* (*қиш+ла+қ*)**, ***бўйин* (*бўй+ин*)**, ***тиқин* (*тиқ+ин*)** сўзларининг ***ип-***, ***ич-***, ***қиш-***, ***биқ-***, ***бўй-***, ***тиқ-*** сингари ўзаклари ҳам тарихий ўзак ҳисобланади. Чунки бу сўзларда ўзак морфеманинг фонетик шакли ҳозиргидек сезилиб турса ҳам (***ип-ипни***, ***ич-ички***, ***қиш—қишда***, ***бўй-бўйига***, ***тиқ-тиқмоқ*** ва б.), уларда аффикс ва ўзак морфемалари аро лисоний-вазифавий муносабат (алоқа) сўниб бораётир. Тарихий ўзаклар синхрон сўз ясалишида ҳамма вақт ҳозирги ўзак таркибида иштирок этади. Масалан, «*яхши*» сўзи аслида **«ёқ-иш-и»** (3-шахс эгалик кўшимчасини олган ҳаракат номи) шаклида пайдо бўлган. Бунда «***ёқ***»(моқ)

феъли шу шаклнинг ўзак қисми саналган. Бу қисм ҳозирги «**яхшилик**» сўзининг таркибида асл шаклини ўзгартирган ҳолда мавжуд.

«**Яхшилик**» сўзи таркибида «**яхши**» ўзак мақомига эга. Энди бу қисм (**яхши**) **ҳозирги ўзак** сифатида қаралади. Унинг таркибида «ёқ» шаклида амал қилган тарихий ўзак ҳам мавжуд.

Энди «қишлоқ» сўзи таркибига алоҳида тўхтасак, тарихий ўзак бу сўзнинг таркибида ҳам мавжуд. У «**қиш**-»дир. «Қишлоқ» сўзи, юқорида ҳам эслатилганидек, дастлаб «**қиш+ла+қ**» шаклида пайдо бўлган. «Қиш фаслини ўтказиш, яъни қишлаш» маъносини билдирган. Бу қисм ҳозир «**қишлоқ+и**», «**қишлоқ+лик**» сўзлари таркибида ҳозирги ўзакка айланган «**қишлоқ**» таркибига сингишган.

«Тарихийлик» «**қишлоқ**» сўзининг ҳозирги-синхрон аффикс мақомига кирган «**-лоқ**» қўшимчаси учун ҳам хос. Бу аффикс аслида феъл ясовчи «**-ла**» ва ўрин-жой оти ясовчи «**-қ**» аффиксларининг бирикувидан ташкил топган. «**-лоқ**» эндиликда ҳозирги (синхрон) аффиксга айланган.

Тарихий ўзак мавжуд сўзларнинг таркибида «соддалашиш», «морфем қайта бўлиниш» жараёнлари юз беради (булар ҳақида алоҳида мақолада маълумот берилади).

АДАБИЁТЛАР

1. Бердиалиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфемика. Сўз ясалиши, Морфонология. Хужанд. 63-б.
2. Бердиалиев А. “Подшо”ликка чек қўйган “почча”лар. Хужанд, 2018.

НОМЛАР – ХАЛҚ ТИЛИНИНГ ЭНГ ҚАДИМГИ ЁДГОРЛИКЛАРИ СИФАТИДА

Зариббой Дўсимов, ф.ф.д., Урганч ДУпрофессори

Тилимиздаги жуда кўп номлар халқимизнинг улкан маданий ҳамда маънавий бойлигидир. Ҳар бир халқнинг кўҳна тарихи бўлгани каби атоқли отларнинг ҳам турли даврларда, хилма-хил шароитлар асосида вужудга келган ва ривожланиб борадиган тарихи бордир. Маълумки, ном қўйиш (аташ) бирор предмет ёки ҳодисани ўзгалардан фарқлаш, ажратиш эҳтиёжи туфайли пайдо бўлган. Тилимизда вужудга келган атоқли отлар (исмлар, жой номлари, уруғ, қабила, халқ номлари, тоғу дарёлар номлари ва бошқалар) луғат таркибининг катта бир қисмини ташкил қилади. Чунки улар таъкидланган эҳтиёжнинг маҳсулидир.

Номларнинг турли хусусиятларини кузатиш шуни кўрсатадики, уларнинг пайдо бўлиши халқнинг моддий ва маънавий қарашига мос равишда шакллана боради. Давр ўтиши билан мазкур тилда ном қўйиш

одатлари, расм-русумлари ва маълум аташ қоидалари шакллана боради. Шунга кўра ҳар бир тарихий даврнинг ўзига хос аташ усулларига мос атоқли отлар йиғиндиси бўлган. Бу номлар ўша даврнинг ҳаётий талабларини, интилиш ва орзуларини, шунингдек, фалсафий ҳамда диний қарашларини, ақидаларини ўзида ифода этган. Айниқса, бу киши номларида ёрқинроқ намоён бўлади. Ҳар қайси тарихий давр ўзининг моддий ҳамда маънавий эҳтиёжлари, талабларига кўра болани номлаш одатларига таъсир кўрсатган, унга ўзгартиришлар киритган ва ном бериш усулларини яратган ҳамда кишилардан буларга амал қилишни талаб этган. Буни, айниқса, Ўрта Осиё халқларининг араблар истилосидан кейинги даврда юз берган исм бериш одатларида яққол кузатиш мумкин.

Араб истилосига қадар қўйилган номларда кўпроқ ботирлик, жасурлик рамзи бўлган тушунчалар ифодаланган. Уларда қаҳрамонлик, абжирлик тушунчалари, турли илоҳийлаштирилган тасаввурлар акс этган: *Ойкун* (*Ойдин кун*), *Ойариғ* (*нурли ой*), *Ойқанот* (*ой қаноти*), *Кучбарс*, *Алп ая*, *Алп Эр Тунга*, *Бўри*, *Чуглан* ва б.

Ислонинг Ўрта Осиёга кенг тарқалиши сабабли ўзбек ономастик тизимидаги такибий қисмларда диний маъноли асли арабча бўлган номлар вужудга келди. Ислон дини чақалоқни номлашга оид баъзи аниқ қоида ва кўрсатмаларни жорий қилган бўлиб, унга амал қилиш мусулмонлар учун фарз ҳисобланган. “Муашарот одоби” китобида шундай ёзилган: Бола дунёга келганда энг аввал эшитган товуши Аллоҳ Таолонинг исми бўлиши лозим. Шунинг учун унинг қулоғига азон айтилади. Еттинчи кунда болага исм берадилар. Бўлажак ном таъсирли ва яхши бўлиши лозим. Шунинг учун болага бериладиган исмни чол-камбирлар эмас, олим-имомлар сайлаб қўядилар¹². Ислонинг исм қўйиш борасида ҳам ўз йўли ва кўрсатмалари бор. Пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссалом 300 та иш ва ҳаракатдан мусулмонларни қайтарган, яъни бу ишларни макруҳ деб ҳисоблаган. Булардан иккитаси исм қўйиш билан боғиқ: “Фарзандга маъносиз ва нафратли номлар қўйиш”, “Фарзандга ортиқча мақтовни эслатадиган исм қўйиш”.¹³

Ислон одамлар исмининг гўзал ва кўркам бўлиши ҳақида гапирар экан, кишиларнинг бир-бирига лақаблар, ҳақоратли номлар қўйишини ва одамни ўша лақаб билан аташини ниҳоятда қоралайди. Масалан, “Ҳадис”да “Кимки бировнинг ўз номи ўрнига бошқа лақаб билан чақирса, уни фаришталар лаънатлайдилар”¹⁴

¹²Муашарот одоби.– Тошкент, 1991. –Б. 17-18.

¹³Шаръий ҳукмлар тўплами. – Тошкент, 1990. –Б. 30.

¹⁴Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент, 1990. –Б.148.

Ислом дини инсон номининг нафосати ҳақида гапирар экан, энг аввало, Аллоҳнинг ўзи гўзал исмлар соҳиби эканини таъкидлайди. “Ҳадис”да шундай қайд этилади: Абу Ҳурайра ривоят қиладилар. Аллоҳ таолонинг бир кам юз, яъни, тўқсон тўққизта исми бўлиб, кимки уни ёддан билса, жаннатга киргайдир. У тоқ сонни яхши кўргувчи бўлиб, ўзи ҳам тоқ (ягона)дир.¹⁵

Ҳозирги ўзбек тилида Аллоҳнинг гўзал номлари заминида ясалган кўпгина исмлар мавжуд ва улар ўзбек кишиларининг атоқли отларидир: ал-Раҳмон (ўта меҳрибон), ал-Воҳид (ягона, бир), ал-Қодир (қудратли), ар-Разоқ (барча тирик мавжудот ризқини етказиб берувчи), ал-Азиз (иззат ва қудрат соҳиби) ва ҳ.к.

Халқимизда Оллоҳнинг номлари негизида ҳосил қилинган исмлар катта кўпчиликни ташкил қилади. Улар, асосан, таркибида абд (қул): Абдулла, Абдуқодир, Абдиразоқ; -уллоҳ, -аллоҳ, форсча ғулом (қул) каби компонентларни сақлаган.

Диний руҳдаги ўзбекча исмларнинг иккинчи манбаи бу пайғамбарларнинг номларидир. Маълумки, тарихий манбаларда ёзилишича, жуда кўплаб пайғамбарлар ўтган. Айрим диний манбаларда уларнинг сони 24 минг деб тилга олинади.

“Қуръони Карим”да 25та пайғамбарнинг номи аниқ кўрсатилган: Одам, Идрис, Нух, Ҳуд, Солих, Иброҳим, Исмоил, Исъҳок, Яъқуб, Юсуф, Лут, Аюб, Зулқафл, Юнус, Мусо, Ҳорун, Шуайб, Илёс, ал-Ясаъ, Довуд, Сулаймон, Закарийё, Яҳё, Исо ва Муҳаммад.

Юқорида сўз юритганимиз - ономастик бирликларнинг антропонимлар деб юритилувчи киши исмларини кузатишнинг ўзиёқ тилимиздаги бу элементлар халқ тарихи, маданияти, ҳаёт тарзи билан қанчалик зич боғланганини яққол кўрсатиб турибди. Дарҳақиқат, инсон тилининг жуда кўплаб қирралари мавжудки, улар ҳали тўлиқ таҳлил қилинмаган. Халқ тарихини ўрганишда бой материал бериши мумкин бўлган бу хилқат халқнинг маданий-тарихий тараққиёти маҳсулидир. Олмон тилшуноси Якоб Гримм ҳали XVIII асрдаёқ тарихни ўрганишда тилни археология ва антропологиянинг далилларида юқори кўяди. Унинг ёзишича, халқлар ҳақида суяклар, қуроллар ва мозорларга қараганда жонлироқ бўлган гувоҳ бор. Бу – уларнинг тилидир. Тил – инсон руҳининг нафасидир.¹⁶

Шундай қилиб, атоқли отлар халқ тилининг энг қадимги ёдгорликлари бўлиб, халқ тарихи ва унинг ривожланиш босқичлари ҳақида бой маълумот берувчи дурдоналардир. Шунинг учун ҳам уларни номоддий маданий

¹⁵ Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис, IV. – Тошкент, 1992. –Б.197.

¹⁶ Немис тили тарихи. – Тошкент, 1848. –Б. 61.

бойликларимиз сирасига киритганмиз. Улар маънавий бойлик бўлиши билан бирга муҳим тарбиявий воситадир.

НУТҚИЙ АКТ СТРУКТУРАСИ

Ҳакимов М. Х., Ф.ф. д., профессор в.б.,
Газиева М. М., (PhD) доктори, ФарДУ

Илмий адабиётларда таъкидланишича, нутқий актлар уч компонентли структур бирликлардан иборат ҳодиса саналади. Ифоданинг бу уч томони локутив, иллокутив ва перлокутив актлардан иборатдир. Бошқа илмий адабиётларда нутқий актларнинг яхлит структурадан иборат бу турлари тўртга бўлинади: "...сўзлаш ёки талаффуз акти локутив акт деб юритилади, гап ёки ифода орқали ифодаланган асосий ахборот пропозиция ёки пропозиционал акт деб номланади, сўзловчининг коммуникатив нияти ёки мақсади иллокутив акт саналади, гап ёки ифода орқали тингловчига нутқий таъсир этиш перлокутив акт ҳисобланади"¹⁷. Дж.Остинда эса нутқий актнинг бу мазмуний тузилиши фақат сўзлаш акти (локутив), сўзловчи нияти (иллокутив) ва нутқий таъсир этиш (перлокутив) актидан иборат деб кўрсатилади¹⁸. Пропозиционал акт эса эътибордан четда қолади. Нутқий актнинг бу тури Дж.Серль томонидан илмий муомалага киритилган. Бизнингча, ҳар қандай ифода структурасида пропозиция мавжуд бўлиб, нутқий актлар уларнинг таркибида сўзловчининг муносабатини ифодаловчи структура сифатида юзага келади. Шунинг учун ҳам нутқий актларга хос локутив, иллокутив ва перлокутив актларни ажратиш ва уларни ифоданинг яхлит структур бирлиги сифатида илмий асослаш пропозиция орқали амалга ошишини унутмаслик зарур.

Маълум тилнинг грамматик ва синтактик қоидалари асосида тузилган гап ёки нутқ талаффузи локутив акт саналади. Локутив актга берилган мазкур таъриф тилнинг фонетик сатҳи қоидаларини ҳам ўз таркибига қамраб олади. Бу фонетик қоидалар маълум тилда сўзлашувчи шахсларнинг талаффузга асосланган умумий нормаси билан белгиланади. Тилнинг товушлар системаси ўша тилга хос акустик-артикуляция билан ва кўникмалар сифатида коммуникантлар тасаввурида шаклланган бўлади. Ана шу шаклланган билан ва кўникмалар асосида нутқ коммуникатив ният ва нутқ вазиятига мувофиқ тарзда сўзловчи томонидан талаффуз қилинади. Демак, ҳар қандай ифода ёки нутқ сўзловчи томонидан талаффуз қилинар

¹⁷ Дорошенко А.В. Побудительные речевые акты в косвенных контекстах. В кн.: Логический анализ языка. М., 1989. с.77.

¹⁸ Шу асар, 83-91-бетлар.

экан, у мавжуд грамматик ва синтактик қоидалар билан бирга талаффуз қилинаётган тилнинг фонетик хусусиятларига мос тарзда локутив актни ҳосил қилади. Бунда талаффуз қилинаётган тил сегмент ва суперсегмент бирликлар системаси ўзига хос артикуляция-акустик хусусиятлари билан намоён бўлади ҳамда нутқ вазияти билан боғлиқ турли-туман оттенкалар билан тўйинади. Мазкур талаффуз жараёни ёки прагматик тил билан айтилганда, нутқий актларнинг талаффузланувчи қисми локутив акт деб юритилади. Локутив акт бошқа нутқий актлар сингари бир пайтда юз берувчи ҳодиса сифатида эътироф этилади. Талаффуз (локутив) акти ўзининг қатор хусусиятлари билан бошқа актлардан ажралиб туради. Талаффуз акти локутив актнинг намоён бўлишидир. Масалан:

- *Хатини ҳам ололдингизми?* - *деди ва сабрсизланиб Содиқнинг оғзига тикилди. Содиқ юзига мағрур бир тус ва **овозига музаффарият оҳанги бериб**, “хатини ҳам олдим” жавобини айтди.* (А.Қодирӣ, 142-бет).

Юқорида келтирилган нутқ парчасида нутқий актларнинг локутив, иллокутив ва перлокутив турлари гап таркибидаги пропозиция асосида намоён бўлган. Нутқий актлар таркибида локутив акт сўзловчи томонидан ўзбек тили орфоэпик нормаларига мос тарзда матнни талаффуз қилиш билан амалга оширилган. Нутқ талаффузида сегмент ва суперсегмент бирликлар сўзловчининг коммуникатив мақсадини амалга ошириш учун «**овозига музаффарият оҳанги бериб**» маъносидаги оттенка билан тўйинтирилган. Шунинг учун ҳам нутқнинг мазкур парчасида сўзловчи коммуникатив ният ва таъсир этишни назарда тутиб, талаффуз жараёни – локутив акт босқичидаёқ унга қатъий амал қилади.

Локутив актида ифодаланиши керак бўлган ахборот ва турли-туман модус компонентлари иккинчи даражали ҳодиса бўлиб, сўзловчи нутқида, асосан, нутқ вазияти ва сўзловчининг коммуникатив ниятига мос талаффуз акти ҳисобга олинади. Локутив акт конкрет тилнинг талаффуз қоидаларига алоқадор фаолият кўринишлари билан узвий боғланади. Жумладан, сўзловчи бирор товуш, сўз ёки қурилмаларни талаффуз қилиш жараёнида тилга хос акустик-артикуляция нормаларга қатъий риоя қилади. Шунинг учун ҳам нутқнинг локутив актида фонетик, лексик ва синтактик бирликлар тилнинг орфоэпик нормалари асосида талаффуз қилинади. Акс ҳолда нутқий актлар структурасида акцентуал қисмлар ҳам акс этиши мумкин. Демак, локутив актга берилган таъриф моҳиятида нутқ тилнинг маълум грамматик, синтактик ва фонетик қоидалари асосида талаффуз қилиниши билан характерланади. Юқоридаги “*хатини ҳам олдим*” жумласи талаффузи локутив акт сифатида хатини, ҳам, олдим сўзларининг маълум маъно ва референцияга эга эканлиги билан локутив актга хос белгилар ифодасидир.

Кўринадикки, локутив акт талаффузланувчи акт сифатида лисоний воситаларни маълум маъно ва оттенкалар билан таъминлаш учун хизмат қилади. Сўзловчи матнни талаффуз қилар экан, талаффуз акти маълум ахборотни тингловчига етказиш эмас, уни тўғри талаффуз қилиш вазифасини бажаради. Шунинг учун ҳам нутқий актнинг локутив аспекти фақат товуш, сўз ва қурилмаларни маълум фонетик, лексик ва грамматик қоидалар асосида тўғри талаффуз қилиш билан чегараланади. Шу нуқтаи назардан қараладиган бўлса, Дж.Остин локутив актни ички фарқланиш белгиси асосида фонетик, фатик, ретик актларга ажратади. У сўзловчи учун маълум бўлган товушлар талаффузи фонетик акт ҳисобланади”¹⁹ деб таъкидлайди.

Локутив акт ўзининг ички структурасига кўра фонетик, фатик ва ретик актларга ажратилар экан, унга берилган таърифни қанчалик даражада тўғри эканлигини исботлаш учун локутив актнинг ҳар бир турига алоҳида изоҳ бериш жоиздир. Шу маънода фонетик акт сўзлашувчилар учун маълум бўлган товушлар системаси ҳисобланиб, улар конкрет тил муҳитида шаклланган товушларга хос билим ва кўникмалардан иборат системадир. Шундан келиб чиқиладиган бўлса, юқорида локутив актга берилган таърифга зид равишда нотаниш товушлар системаси талаффузида локутив актнинг фонетик тури қоидаси бузилади. Бу эса нутқнинг локутив актида фонетик структурани ноаниқ ифодасини юзага чиқаради. Талаффузнинг бундай анормал шакли коммуникатив ниятнинг ифодаланишига таъсир кўрсатмасида, нутқнинг таъсир этиш даражаси пасаяди. Шунинг учун ҳам локутив актнинг фонетик тури товушлар талаффузида бир жиҳатдан юзага келаётган сўз маъноларининг тўғри ифодаланиши ва англанишида муҳим ўрин тутаяди. Иккинчи жиҳатдан эса товушларнинг маълум акцент билан талаффуз қилиниши нутқда прагматик тўсиқ (шум) тушунчасини юзага келтиради. Бадиий адабиётда ёзувчи ўз қахрамонларини характерини очиқ бериш учун локутив актни фонетик структурасини маълум мақсад асосида эътибордан четда қолдиради. Бундай талаффуз услуби, кўпинча, нутқ субъектига хос нутқий индивидуалликни ифодалаш учун хизмат қилади. Бу эса пропозиционал актнинг тўғри англаниши учун тўсиқ бўлади. Баъзи ҳолатларда ёзувчининг индивидуал услуби билан боғлиқ равишда ёки образнинг эмоционал ҳолатини кўрсатиш мақсадида товушлар талаффузи меъёрий ҳолатдан чиқарилади. Бундай усул образнинг руҳий ҳолатини аниқ тасвирлаш мақсади учун қўлланади. Масалан:

Отабек мастларча қулди:

- Ммменга зарурати бўлмаса, кккимга зарурати бор?!

¹⁹ Дж.Остин. Слово как действие. НЗЛ. Вып. XVII. с.84.

- Нима бўлганда ҳам мен бу ишингиздан рози эмасман! - деди Ҳасанали... (А.Қодирий).

Талаффуз актининг иккинчи тури фатик акт деб номланади. Локутив актнинг бу турида нутқ талаффузи муайян тилнинг фонетик, лексик ҳамда грамматик қоидаларига риоя қилинади. Илмий адабиётларда бунга алоҳида эътибор қаратилади. Хусусан, “Фатик акт эса товуш бирикмалари ва сўзларни маълум грамматик қоидалар ёрдамида талаффуз этишдир” деб таъкидланади. Фатик акт турида маълум сўз ёки бирикмалар талаффузи фикр ифодаси учун муҳим саналади. Ифода таркибида назарда тутилган фикр ва уни ифодаловчи воситалар тилнинг аниқлигини баён қилиш учун хизмат қилади. Фатик актда сўзловчи нутқига хос грамматик қоидаларнинг намоён бўлиши ички маъно имкониятлари учун йўл очади. Дж.Остиннинг таъкидлашича, У “*Мен эртага ўша ерда бўламан*” - деди жумласи фатик акт саналади.

Локутив актнинг учинчи тури ретик акт деб номланади. Ретик акт фонетик ва фатик актлар парадигматик қаторидаги бирликлардан бири сифатида талаффуз жараёнида ўзига хос функция бажариши билан ажралиб туради. Фонетик акт муайян тилнинг конкрет сегмент ва суперсегмент бирликлар системасини шаклланганлик кўникмасидан иборат бўлса, фатик акт конкрет тилнинг фонетик, лексик ҳамда грамматик структурасига тегишли қоидалардан ташкил топган парадигмадир. Ретик акт эса тил ва нутқ ҳодисалари бирлигидан иборат бўлган олам ва олам элементларини англаш билан боғлиқ семантик структура саналади. Сўзловчи нутқий жараёнда тафаккурдаги билим ва кўникмалари ёрдамида лисоний воситалар орқали талаффуз қилинаётган нарса ва ҳодисалар орқали уларнинг маъносини акс эттирадилар. Ретик акт тушунчаси контекстуал ҳодисалар сирасига мансуб бўлиб, талаффуз жараёнида локуцияланаётган сўз ва ифодани референция билан таъминлаш учун хизмат қилади. Шунинг учун ҳам ретик акт фонетик ва фатик актлар билан яхлит ҳолда нутқнинг локутив структурасини ташкил қилади. Ретик актда сўзловчи сўзлардан фойдаланиш жараёнида уларни маълум маъно ва референция билан таъминлайди. Нутқий актлар талаффузининг локутив босқичида гап ёки нутқда пропозиция шакллана бошлайди. Ретик акт иллокутив акт учун маҳсулот беради. Прагматик структуранинг асоси локутив акт турларининг яхлитлигида кўринади. Локутив акт уч компонентдан иборат яхлит система сифатида нутқий актлар моҳиятини ташкил қилади. Паралингвистик воситалар ҳам локутив актларга мувофиқ тарзда ретик структурага ҳамоҳанг тарзда шакллантирилади. Ретик актлар кишилар ўртасидаги алоқа-аралашув жараёнида билиш, ифодалаш ва англаш каби тушунчаларни ўз таркибига

камраб олади. “У эртага ўша ерда бўлишини айтди” жумласи ретик акт ҳисобланади. У: “Кет” – деди жумласи фатик акт саналади, чунки бу жумла талаффузида маълум грамматик қоидалардан тўғри фойдаланилган, кўлланган тиниш белгилари ҳам фатик акт талаффузида грамматик қоидаларга қатъий амал қилинганини кўрсатиб турибди. “У менга кетишим учун бақирди”²⁰ жумласи эса ретик акт саналади, чунки бу жумлани талаффуз қилиш жараёнида сўзловчи уни аниқ мазмун ва референция билан таъминлаган. Бу прагматик фактор билан боғлиқ равишда суҳбатдошларнинг билим фондларини ифодаловчи референция кўринишининг фарқланишидир. Бу мисол мазмунига кўра сўз фақат сўзловчи учун маълум нутқ предмети ҳақида боради.

Кўринадики, фатик акт учун сўзловчи томонидан маълум сўз ва ибораларни грамматик қоидалар ёрдамида талаффуз этилиши асос деб қаралса, ана шу грамматик қоидалар асосида талаффуз қилинган ифодани маълум мазмун ва референция билан таъминлаш ва тингловчи томонидан уни тўғри англаниши ретик акт деб ҳисобланади. Бу мураккаб жараённинг дастлабки қисми ифода ёки талаффуз акти деб номланади. Ифода акти орқали сўзловчи маълум товушларни нутқ аъзолари ёрдамида талаффуз қилиб, ана шу талаффуз жараёнида сўз ва гапларни ҳосил қилиш учун маълум грамматик қоидалардан фойдаланади.

Хуллас, нутқий актлар талаффузланувчи ҳар қандай нутқ ёки нутқ парчасида мавжуд бўлиб, улар талаффуз, пропозиционал, иллокутив ва перлокутив актлардан иборат бўлади. Нутқий актлар назариясига оид масалалар прагмалингвистика ҳамда услубшунослик соҳасидаги маълум бўшлиқларни ҳам тўлдиришга хизмат қилади.

ХОРАЗМИЙ «МУҲАББАТНОМА» АСАРИНИНГ ТИЛИ ХУСУСИДА

Ёқуб Саидов, БухДУ, ф. ф. д., профессор

Хоразмий XIV асрда яшаб, туркий ва форсий тилда ижод этган шоирдир. Унинг, асосан, ўзбек, қисман тожик тилида битилган биргина «Муҳаббатнома» асари бизгача етиб келган, холос. Асарнинг кириш қисмида келтирилишича, Олтин Ўрда ҳудудида хукмронлик қилган Муҳаммад Хўжабек шоирга қарата “форсий тилда ёзган ва қалбларни ром этган кўп асарларинг бор, сен муҳаббат мавзусини ёзишда кўплардан ўтдинг, “шакартек тил”нинг билан оламни эгалладинг, бу қиш менинг ёнимда бўлиб, бизнинг тилда бир китоб ёзсанг», деб айтади. Ушбу фикрлардан

²⁰ Дж.Остин. Слово как действие. НЗЛ. Вып. XVII. М., 1986. с.84.

англашиладики, Хоразмий ўз даврида форсий тилдаги асарлари билан машҳурлик даражасига кўтарилган, ишқ мавзусини мазкур тилда ёзишда шоирга тенг келадигани бўлмаган, шу сабабларга кўра Муҳаммад Хўжабек шоирни муҳаббат мавзусида туркий тилда ҳам асар ёзишга ундаган. Хоразмий «Муҳаббатнома» асарини шу тарих ҳижрий 754, милодий 1353 йилда ёзади [4, 160-176].

Хоразмий асарининг майдонга келишида Авҳадий Мароғавий (1274-75; 1337-38)нинг форсча ёзилган «Муҳаббатнома» достонининг таъсири кучли бўлган. Авҳадий ва Хоразмий асарларининг шаклий тузилишидаги ўзаро фарқ шундаки, Авҳадий асарида номалар ошиқ ва маъшуқа номидан ёзилган бўлса, Хоразмий асарида эса номалар, асосан, ошиқнинг маҳбубасига йўллаган шеърий мактубларидан ташкил топган.

«Муҳаббатнома»нинг иккита қўлёзма нусхаси (уйғур ва араб ёзувларида) маълум. Шулардан эскиси уйғур ёзувидаги нусха бўлиб, Британия музейида (инв. № 8193) сақланади. Нусха Шоҳрухнинг Ҳиротдаги саркардаси Мир Жалолиддин топшириғи билан Бакир Мансур томонидан 1432 йилнинг мартада Язд (Эрон) шаҳрида кўчирилган. У ўнта номадан иборат. Асар 364 байтдан таркиб топган. Асарнинг араб ёзувидаги иккинчи нусхаси ҳам Британия музейида сақланади. У 1508-1509 йилларда кўчирилган бўлиб, 474 байтдан таркиб топган [3,223].

Хоразмий мазкур асари билан ўзбек адабиётида муҳаббатнома жанри (нома жанрининг мумтоз адабиётдаги бир тури)га асос солди. Алишер Навоий «Муҳокамат-ул луғатайн» асарида ўзбек тилида катта ҳолни ифодаловчи махсус *менг* сўзи борлигини айтиб, «Муҳаббатнома»дан қуйидаги байтни келтиради: *Анингким, ол энгинда менг яратти, Бўйи бирла сочини тенг яратти.* “Муҳаббатнома” асари тун бошланиб, “байрам ойи” кўринганда Муҳаммад Хўжабек базм қилишни буюрганлиги, қадаҳ ва май келтирилганлиги, базм бошланиб, созанда “Хусайний” куйини чалганлиги, ашулачи эса бир ғазални куйга солиб, айтиб берганлиги билан бошланади: *Хусайний пардаси узра тузуб соз, Муганний бу ғазални қилди оғоз* [4,160]. Шоир асари тилида “Шашмақом” таркибига кирувчи куй номи – “Хусайний”нинг алоҳида қайд этилиши шундан далолат берадики, шоир яшаган даврда мазкур куй кенг оммалашган куйлардан бири бўлган.

“Муҳаббатнома” асарининг тили халқ тилига анча яқин ва услуби раво, унинг яратилганига неча асрлар ўтганлигига қарамай ҳозир ҳам уни ўқиб тушуниш мумкин. Асар тилидаги кўпгина сўзлар ҳозирги ўзбек адабий тилида фаол қўлланилади. Бундай сўзлар жумласига умумтуркий *тун, ой, кўнгул* (кўнгил), *тил, эшик, сув, киши, арслон, ов, тонг* каби; форсий *парда, бахт, жамол, ҳусн, чехра, дард, дилбар* каби; арабий *ишқ, газал, қибла,*

муҳаббат, вафо, умр, меҳнат, фотиҳа, саодат кабиларни айтиб ўтиш мумкин. Асарда қадимги туркий сўзлардан *очун* (дунё, олам), *қамуқ* (хамма, барча, жами), *дағи* (яна, тағин), *эв* (уй, хона), *учмоқ* (жаннат), *қамуқ* (дўзах, жаҳаннам) кабилар қўлланган. Бироқ бу каби изоҳталаб қадимги туркий сўзларнинг миқдори кўп эмас. Асар тилида жой номлари – топонимлардан *Кашимир, Сарой, Чин-Мочин, Сир, Миср, Ироқ, Рум* кабилар учрайди. Ҳозир Сирдарё деб аталадиган дарё номи асарда *Сир* деб берилган.

Хоразмий асарида маънодош сўзлардан маҳорат билан фойдаланган. У умумтуркий *кўрк* ва форсий *ҳусн*, арабий *жамол* ва форсий *чеҳра*, арабий *саодат* ва форсий *бахт* сўзларини маънодош сўзлар сифатида қўллаб, асарининг таъсирчанлигини оширган. Шоир диний сиғиниш ва эътиқод қилишнинг объекти сифатида намоён бўладиган илоҳий кучни арабий *Ҳақ*, форсий *Худо*, *Яздон* ва умумтуркий *Тангри*, *Яратувчи* каби синоним сўзлар билан атаган. Асарда айрим сўзлар кўчма маънолари билан синонимик муносабатда қўлланган. Масалан, арабий *давлат* сўзи кўчма маъносида форсий *бахт* сўзи билан синоним сифатида қўлланган. Асар тилида умумтуркий *ўлум* (ўлим) ва арабий *ҳаёт*, қадимги туркий *учмоқ* ва форсий *дўзах*, форсий *дард* ва *дармон*, арабий *жафо* ва *вафо* сўзлари ўзаро қаршилантирилиб, тазод бадий санъати воқелантирилган. Асар тилида айрим матний антонимлар ҳам мавжуд. Масалан, *подшо* сўзи билан *гадо* сўзлари ўзаро матний зидлантирилган: *Сенингдек подшонинг марҳабоси, Менингтеки минг гадонинг хун баҳоси*. Байтда *подшо* сўзи маъшуқани, *гадо* сўзи эса *ошиқни* мажозий маънода ифодалаб келган. Асар тилида сингармонизм ҳодисаси намоён бўлган. Унда нафақат унлилар, балки ундошлар оҳангдошлиги ҳам ўз ифодасини топган. Қўшимчалар сўзнинг ўзак қисмига кўра мослашган: *сўзунг* (сўзинг), *қўлум* (қўлим), *вафолиқ* (вафолик) каби.

Асар тилида энг фаол сўз ясовчи қўшимчалар сифатида *-лиқ//*-*лук* ва *-чи* қўшимчасини айтиш мумкин. *-лиқ//*-*лук* қўшимчаси воситасида *вафолиқ*, *йироқлиқ*, *кўрклук* каби мавҳум белгини ифодаловчи отлар ясалган. Мисол: *Яратқонким, тан ичра жон яратти, Сени кўрклуклар узра хон яратти*. Асарда *-чи* қўшимчаси билан ясалган айрим сўзлар жумласига эса *барбатчи*, *уйқучи* кабиларни айтиш мумкин. Аёнки, *барбат* сўзи икки қисмдан, яъни форсий *бар* ва арабий *бат* сўзларидан таркиб топган бўлиб, унинг луғавий маъноси ўрдак шаклида ясалган қадимги чолғу асбобидир. Асарда бу сўз билан боғлиқ “барбатчи Ноҳид” бирикмаси келтирилган. *Ноҳид* форсий сўз бўлиб, у Зуҳра (Венера) планетаси маъносини ифодалайди (2,471). *-чи* қўшимчаси от (*барбат*)га қўшилиб, касб, ҳунар маъносини ифодаловчи от ясалган, яъни мазкур чолғу асбобини чалувчи созанда маъноси ҳосил бўлган.

Уйқучи сўзида эса *-чи* аффикси *уйқу* феълига қўшилиб, уйқу ҳаракатини билдирувчи шахс оти ясалган.

Асар тилида тарихий шахслар (*Муҳаммад Хўжа, Ҳотами Той, Жамшид, Афлотун* (Платон) каби); мумтоз адабиётда анъанавий тарзда қўлланилиб келинган бадиий асар қаҳрамонлари (*Лайли, Мажнун, Ширин, Фарҳод, Хисрав, Рустам* каби); пайғамбар ва фаришта (*Сулаймон, Юсуф, Ҳорут* (афсонага кўра кўкдан ер юзига ҳайдалган икки фариштанинг бири) каби) номлари кенг қўлланган. Шоир мазкур тарихий шахслар, бадиий асар қаҳрамонлари, пайғамбар ва фаришта номлари – антономазияларни мажозий маънода қўллаб, улар воситасида талмеҳ бадиий санъатини воқелантиришга ҳаракат қилган. Мисол: *Ўғон Юсуф жамолин сизга берди, Муҳаббат кимёсин бизга берди* [4,166]. Мазкур байтдан англашиладики, лирик қаҳрамон маъшуқасига қарата шундай дейди: “Ўғон, яъни Яратган сенга гўзалликда оламда тенгсиз Юсуф жамолини берди, менга эса муҳаббат кимёсини, яъни муҳаббат олтинини, муҳаббатдек нодир туйғуни берди”. Маълумки, мумтоз адабиётда Юсуф пайғамбар номи гўзаллик рамзи сифатида ифодаланган. Хоразмий асарида ҳам у гўзаллик мажозий маъносига келган.

Алоҳида эътироф этиш ўринлики, шоир киши исмларини кўчма маънода қўллаб, ёрқин, эса қоладиган таъсирли лавҳалар ярата олган. Асар тилида аксарият киши исмлари маълум бир тимсол вазифасини бажарган. Бунга мисол сифатида Ҳотами Той номини айтиш мумкин. Мисол: *Кел, эй, соқи кетурғил лолагун май, Ким ул май қилди кўпни Ҳотами Тай* [4,171]. Аёнки, шоир ва лашкарбоши Ҳотам тахминан VI-VII асрларда Яманда яшаган, сахийлиги ва яхшилиги билан Шарқ мамлакатларида донг таратган шахс. Бу ном бадиий адабиётда, асосан, мажозий маънода, яъни яхшилик, сахийлик ва олижаноблик рамзи бўлиб, яшаб келмоқда.

Асар тилида айрим юлдуз ва сайёра номлари, чунончи, форсий *Зухра* (Венера, Чўлпон), арабий *Аторуд* (Меркури) кабилар ифодаланган. Маълумки, мумтоз адабиётда Зухра юлдузини шоирлар осмон созандаси, чолғучиси сифатида тасвирлаганлар. Аторуд сайёраси эса шоирлар ҳомийси ҳисобланган. “Муҳаббатнома” асарида ҳам ушбу юлдуз ва сайёра номлари мазкур мажозий маъноларда қўлланган. Мисол: *Бу Хоразмий “Муҳаббатнома” сини, Аторуд кўрди, солди хомасини*. Шоир айтмоқчи, мен ушбу асаримни бошлаганимда, шоирлар ҳомийси ҳисобланган Аторуд “хомаси”, яъни қаламини ёзишга тайёрлаб, шай қилиб қўйди. Шоир ёр гўзаллиги, васли ва ошиқ кечинмаларини тасвирлашда хилма-хил бадиий тил воситаларидан моҳирлик билан фойдаланган. У маъшуқани ифодалаш учун *жон, жонона, подшоҳ//подшо//шоҳ, кўркабой* (жуда чиройли, ҳуснли), *султон, гул, ой, қуёш, дилситон* (дилни олувчи, кўнгилни ўзига асир этувчи,

дилбар), *жону жаҳон, санам* каби сўзлардан метафора сифатида фойдаланган. Ошиқ тушунчасини ифодалаш учун эса *мискин, гадо, қул* каби истиоравий сўзларни қўллаган. Асар тилида энг кўп қўлланилган бадий санъатлардан бири ташбихдир. Мисол: *Бўйунг сарву санубартек, белинг қил, Вафо қилгон кишиларга вафо қил.*

Маълумки, *сарв* сўзи форсий бўлиб, у мумтоз адабиётда *гўзал севгилининг қадди-қомати; гўзал севгилининг ўзи; гўзал ёр; хушқомат севгили* каби мажозий маъноларда қўлланган [2,547]. Мазкур байтда *сарв* сўзи билан ёнма-ён келган *санубар* (санобар) сўзи эса Шарқ адабиётида юқоридаги кўчма маънога яқинроқ, яъни қадди-қомати келишган, хушқомат мажозий маънода ифодаланган. Англашиладики, шоир *сарв* ва *санубар* сўзларининг кўчма маъноларини маънодош сўзлар сифатида қўллаган, маъшуканинг бўйини *сарв* ва *санобар* дарахтига ўхшатиб, ташбих санъатини яратган. Шоирнинг маҳоратли ва истеъдодли эканлиги шундан билинадики, у мазкур байтнинг ўзида ҳам ташбих, ҳам *қил* омолексемаси воситасида тажнис бадий санъатини воқелантирган. Аёнки, *қил* сўзи умумтуркий бўлиб, у *от ва баъзан бошқа ҳайвонлар думи ёки ёлининг ҳар бир толаси* маъносини ифодалайди. Байтнинг биринчи мисрасида *қил* сўзи ушбу маънода, яъни *соч, ёл, дум толаси* маъносида қўлланилган. Иккинчи мисрада эса *қил* сўзи *бажармоқ, амалга оширмоқ* каби ҳаракат маъноларида келган. Шоир асарида маъшуканинг юзини умумтуркий *қуёш, ой, чечак*, арабий *қамар* (ой) ва форсий *гул, хуришд* (қуёш, офтоб) ва *суман* (ёсмин, оқ, сариқ рангли хуш ис гул)га, ҳуснини умумтуркий *тонг ёғдуси ва форсий фирдавс* (жаннат боғи)га, тили (сўзи)ни форсий *шакарга* қиёслайди.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, «Муҳаббатнома» ўзбек номачилик жанри таракқиётига кучли таъсир кўрсатган асардир. Унинг бевосита таъсирида Саййид Аҳмаднинг «Таашшукнома», Хўжандийнинг «Латофатнома», Юсуф Амирийнинг «Дахнома» каби асарлар яратилган. Асарнинг ўзбек адабий тили таракқиётидаги ўрни ҳам аҳамиятлидир. Унда юксак маҳорат билан истифода этилган бадий санъатлар бир неча асрлардан бери кишилар қалбига бадий-эстетик нуқтаи назардан гўзаллик ва нафислик туйғуларини экиб келмоқда.

Адабиётлар

1. Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. -676 с.
2. Навоий асарлари луғати. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. -791-б.
3. Хоразмий. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 томли. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. -8 том. –Б. 223.
4. Хоразмий. Ўзбек адабиёти. 4 томлик. (Воҳид Зоҳидов таҳрири остида). -Т.: Бадий адабиёт, 1959. -I том. –Б. 160-176.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. I. 2006. -680 б.;Т. II. 2006. -672 б.; Т. III. 2007. -688 б.; Т. IV. 2008. -608 б.; Т. V. 2008. -592 б.

SIFAT ANTONIMLAR

Rashid Shukurov, Q DPI dotsenti

Sifat antonimlarni ma'no turlariga ajratishda turkologiyada J.Musinning ilmiy ishi diqqatga sazovordir. O'zbek tilidagi antonimlarni leksik ma'no jihatdan asosan 5 turga bo'lish mumkin: 1) kishilarga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar; 2) hayvonlarga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar; 3) narsalarga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar; 4) kishi va narsalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar; 5) kishi, hayvon va narsalar uchun umumiy bo'lgan belgilarni ifodalovchi sifat antonimlar.

Bu turlar o'z navbatida bir necha guruhlariga bo'linib, ularning umumiy miqdori 14 dan oshdi.

1. Kishilarga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlarni 6 guruhga ajratamiz:

a) kishilarning xarakter-xususiyatini ifodalovchi sifat antonimlar: **saxiy-xasis, tanti-nokas, oqko'ngil-ichi qora, sodda-ayyor, muloyim-qo'pol, beozor-dilozor, dono-nodon** va sh.k.;

v) kishilarning psixologik holatini ifodalovchi sifat antonimlar: **xursand-xafa, dilxush-dilxun** va sh.k.;

g) kishilarda tabiiy ravishda yuz beradigan belgilarni ifodalovchi sifat antonimlar: **yosh-qari, navqiron-mo'ysafid, novcha-pakana, barvasta-pachoq, semiz-oriq** va sh.k.;

d) kishilarning ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini ifodalovchi sifat antonimlar: **g'olib-mag'lub, hokim-mazlum, ozod-asir, boy-kambag'al** va sh.k.;

e) kishilarning o'zaro munosabatini ifodalovchi sifat antonimlar: **do'st-dushman, ahil-noahil, ittifoq-noittifoq, totuv-it-mushuk** va sh.k.;

yo) kishilarning fiziologik holati bilan bog'liq bo'lgan sifat antonimlar: **zabardast-zaif, kuchli-kuchsiz, sog'lom-kasalmand** va sh.k.;

2. Hayvonlarga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalovchi antonimlarni ham bir necha guruhga bo'lish mumkin:

a) hayvonlarning xarakter-xususiyatini bildiruvchi sifat antonimlar: **xo'ra-chimxo'r, yuvosh-asov(ot), yuvosh-qopag'on(it)** va sh.k.;

b) hayvonlarning yashash sharoiti va fiziologiyasini bildiruvchi sifat antonimlar: **yovvoyi-xonaki, qisir-bo'g'oz, shoxdor-to'qol** va sh.k.;

3. Narsalarga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalovchi antonimlarni 3 guruhga bo'lish mumkin:

a) hajm, og'irlik bilan bog'liq bo'lgan sifat antonimlar: **katta-kichik, keng-tor, uzun-qisqa** va sh.k.;

b) narsalarning xususiyat va holatini bildiruvchi sifat antonimlar: **o'tkir-o'tmas, qalin-yupqa, chuqur-sayoz** va sh.k.;

v) maza-ta'm bildiruvchi sifat antonimlar: **shirin-achchiq, mazali-bemaza** va sh.k.;

4. Kishi va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni ifodalovchi sifat antonimlar 2 guruhga bo'linadi:

a) kishi va hayvonlarning xususiyati, belgisi, o'zaro munosabatini bildiruvchi sifat antonimlar: **yuvosh-sho'x, epchil-noshud, soda-ayyor** va sh.k.;

b) kishi va hayvonlarning fiziologik holatini bildiruvchi sifat antonimlar: **semiz-oriq, kuchli-kuchsiz, sog'-kasal** va sh.k.;

5. Kishi, hayvon hamda narsalar uchun umumiy bo'lgan belgilarni bildiruvchi sifat antonimlar: **katta-kichik, og'ir-engil, yaxshi-yomon** va sh.k.;

1. Kishilar haqida: **Chiroyli** qiz – ko'zning nuriga nur qo'shadi (Oybek). Elmurod eshonning **xunuk** basharasini ko'z oldiga keltirib: “Obbo muttaham-ey!” – dedi (P.Tursun).

2. Hayvonlar haqida ...manglayiga tumorcha va munchoqlar osilgan semiz, chiroyli qora toychani etaklab “kichkina chavandoz” kirib keldi. Bu Tantiboyvachchaning o'g'li Obidjon edi (Oybek). – Qo'qonboy aka bozordan junlari o'sgan xunuk bir sigirni etaklab keldi (So'zlashuvdan).

3. Narsalar haqida: (Nuri)...g'oyat **chiroyli**, mo'jaz qopqog'ida brilliantlar yongan oltin soatni olib, tomosha qildi (Oybek). Yaxshi – xunuk **libos** bilan ham yaxshi (Maqol).

Adabiyotlar:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили, II том, Тошкент, 1966, 230-232, 340-342-бетлар.
2. Ж.Мусин, Антонимы в казахском языке, АҚД, Алма-Ата, 1970.
3. Р.Шукуров, Антонимларнинг ясалишига доир, Ўзбек тилшунослигининг баъзи масалалари, Тошкент, “Фан” нашриёти, 1969, 15-16 бетлар.

ЛИНГВИСТИК ҲОДИСАЛАР ТАЛҚИНИГА ДОИР

И.Мадрахимов, Кўкон ДПИ (доцент)

Замонавий тилшуносликда кўпроқ куйидаги тил бирликлари ажратилади: фонема, морфема, сўз ва сўз бирикмаси.

Фонема – товуш материалдан иборат бўлиб, бошқа тил бирликларидан тил моҳияти ташувчиси эмаслиги билан ажралиб туради. Қолган тил бирликлари тил моҳияти ва товуш материали бирлиги билан

намоён бўлса ҳам, бир-биридан фарқ қилади: морфема – бу тилнинг минимал аҳамиятли бирлиги; сўз – морфемалардан ташкил топган мураккаброк конструкция (қурилма). Сўз бирикмаси эса энг катта тил бирлиги ҳисобланади. Тил birlikлари орасида маълум иерархик муносабатлар ўрнатилган: морфемалар сўз ташкил этса, сўзлар сўз бирикмаларини ташкил қилади.

И.А.Бодуэн де Куртенэ Қозон тилшунослик мактабининг асосчиси бўлиб, унинг тилшунослик олдидаги хизматларидан бири тилшуносликка фонема атамасини ва фонема назариясини олиб кирганидир. У биринчилардан бўлиб товушдан фарқ қиладиган фонетик birlikни ажратиш зарурлигини англади.

Илмий фаолияти давомида унинг фонема ҳақидаги қарашлари ўзгариб борди. Шунинг учун тилшунос асарларида фонеманинг хилма-хил талқини кўзга ташланади.

1881 йили ёзилган «Славян тиллари қиёсий грамматикасининг айрим бўлимлари» номли асаридаёқ фонеманинг икки талқини намоён бўлади. Бир ўринда «фонема сўз товуш томонининг антропофоник хусусиятлар умумлашмаси» деб қаралса, бошқа бир ўринда « антропофоник белгилар умумлашмаси», «товуш типи», «бевосита сезги аъзоларимизга таъсир қилувчи реал товушларнинг «қўшимча белгиларидан тозаланган умумлашмаси» сифатида баҳоланади.

И.А.Бодуэн де Куртенэнинг фонема ҳақидаги қарашларида унинг куйидаги муҳим белгиларига эътибор қаратгани маълум бўлади: 1) фонеманинг мураккаб birlik экани; 2) унинг энг кичик birlikлардан (хусусиятлардан) ташкил топиши; 3) энг кичик birlikлардан ташкил топган бутунлик сифатида тилда яхлит ҳолда функциялашиши; 4) энг кичик birlikлардан ташкил топган фонеманинг тил системасида муносабатлар (корреляция) аъзоси сифатида яшаши; 5) фонеманинг бевосита кузатишда берилган товушларнинг лингвистик умумлашмаси, абстракцияси экани; 6) фонеманинг реал кўриниши унинг антропофоник (артикуляцион-физиологик) намоён бўлиши экани.

Шундай қилиб, И.А.Бодуэн де Куртенэ илмий фаолиятининг Қозон даврида фонема реал талаффуз қилинувчи товушларнинг абстракцияси, модели, инварианти, қурилмаси (конструкти) сифатида баҳоланади.

Морфема атамасини ҳам тилшунослик фанига И.А.Бодуэн де Куртенэ киритган. Морфема тушунчаси фонема тушунчаси изоҳи унинг 1881 йилдаги «Славян тилларининг қиёсий грамматикаси» номли тадқиқотида учрайди. Бу борада И.А.Бодуэн де Куртенэнинг ўзи тилнинг бўлиниши борасида: «агар

унинг аҳамиятидан келиб чиқадиган бўлсак, унда бу бўлинма «морфологик бирлик»да ёки «морфемада» тугайди»²¹, -- деб ёзади.

И.А.Бодуэн де Куртенэ морфемага қуйидагича таъриф беради: «Морфема – тилнинг ортиқ бўлинмайдиган, бошқа таркибларга ажратилмайдиган морфологик элементи. Бу асос атама бўлиб, ўзак, олдқўшимча, суффикс, қўшимча каби турдош тушунча ва қисмларни бирлаштирувчи атама (термин)дир. Бу атамани ортиқча (кераксиз) деб ҳисоблаш, бу «дарахт» умумлаштирувчи атамасини (кераксиз) ортиқча ҳисоблаб, «эман», «қайин», «арча», «тол» каби хусусий атамалар билан мамнун бўлиш билан баробардир»²².

Юқорида айтилганлардан кўриниб турибдики, И.А.Бодуэн де Куртенэ тилшуносликка морфема тушунчасини ўзак ва қўшимчаларни белгиловчи умумлашма атама сифатида олиб кирди. Морфема тушунчаси замонавий тилшуносликнинг турли йўналишларида эътироф этилди ва кенг қўлланилди (француз социологик, Прага лингвистика (глоссематика), Америка дескриптив лингвистик мактаблари кабиларда).

Морфема атамаси мазмуни борасида тилшуносликнинг турли йўналишлари тарафдорлари томонидан турлича фикрлар билдирилган. Масалан, Ж.Вандриес иборадаги икки турдаги элементни ажратиб, ғояларни ифодаловчи муносабатни англатувчи тушунчалар, деб, шундан келиб чиққан ҳолда семантема ва морфемаларни бир-бири билан таққослайди, семантемаларнинг шу ғоялар орасидаги муносабатларни ифодаловчи тил элементи эканлигини таъкидлайди²³.

Ж.Вандриеснинг фикрича, морфема тилдаги муносабатларни ифодалашнинг ихтиёрий услуби бўлганлиги боис фонетик элементлар саналувчи унлилар, урғулар, сўз тартибининг гапда алмашилиб турадиган турлича ҳодисаларини ўз ичига олади. Ж.Вандриес, шунингдек, зидланиш воситасида ажратиладиган ноль морфемани ҳам алоҳида кўрсатиб ўтиб, мусикада пауза қандай зарур бўлса, нолли морфема ҳам шундай зарурлигини уқтиради²⁴.

Сўз грамматикада, анъаналарга кўра, етакчи ўринни эгаллайди. Кўпгина тилшунослар сўзни тилшуносликнинг асосий тушунчаси деб ҳисоблаб, ўз назарияларида шунга таянадилар (А.Мейе, Н.С.Трубецкой, Й.Вахек, Б.Трнка, А.Мартине, В.В.Виноградов, В.М.Жирмунский, А.А.Реформатский, А.Н.Смирницкий ва б.)²⁵. Шунга қарамай, сўзга боғлиқ

²¹ Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. - М., 1963. Т.1. - с.183.

²² Ўша асар. -б.253.

²³ Вандриес Ж. Язык. Лингвистическое введение в историю. -М., 1937. -с.89.

²⁴ Ўша асар. -с. 116.

²⁵ Қаранг: Реформатский А.А. К вопросу о фоно-морфологической делимитации слова. - В сб. Морфологическая структура слова в языках различных типов. -М.-А., 1963. -с.75.

бўлган назарий масалалар етарлича ишлаб чиқилмаган. Айрим муаллифлар тил бирликлари масаласини муҳокама қилганларида сўзни тадқиқ қилмай, уни қолдириб кетишса, қолган тилшунослар эса сўз – тилнинг асосий бирлиги эмас деб таъкидлайдилар. Бу ўзига хос сабабларга эга. Булардан бири сўзнинг мураккаблиги ва кўп тармоқлилигидир. Сўз – бир неча ўлчовларга эга (жарангдорлиги, тузилиши, аҳамияти) ва бу нарса сўзнинг аниқ белгиланишида қийинчилик туғдиради. Бундан ташқари, турли тилларда сўз тузилиши турличадир. Шу сабабли барча тиллар учун қўл келадиган тилнинг умумий тузилмавий аниқлигини топиш қийин. Балки шунинг учун айрим тилшунослар барча тилларда сўзлар мавжудлигини инкор қилишаётгандир. Улар ҳинд-европа тилларида сўз бор, аммо америкалик ҳиндулар тилида сўз йўқ, деб ҳисоблайдилар. Масалан, Т.Милевский²⁶нинг таъкидлашича, бир қатор америкалик ҳиндулар тили (на – дене, тлингит, хайда гуруҳлари, атабас тиллари, пенута оиласига мансуб майду ва такелма тиллари, хопи тил ва сью диалектлари) сўзга эга эмас.

Бунга зид фикрлар ҳам мавжуд. Яъни сўз тилнинг универсал тушунчаси бўлиб, тилшунослик шу кунга қадар сўзсиз тилни билмайди.

Маълумки, сўз ўзида лексик-грамматик хусусиятларни ифода этади. Унинг грамматик тузилмаси турли тилларда турлича, лекин айрим тилларда сўз тузилишининг ўта мураккаблиги сабабли ушбу мураккаб тузилма (комплекслар)нинг ўта оддий сўзларга зид қўйилишига асос бўла олмайди, чунки айрим сўзларнинг семантик мураккаблиги туфайли биз уларни гап ва сўз бирикмаларига тенглаштира олмаймиз, гарчи шу сўзлар маъно жиҳатидан тенг бўлса ҳам.

Сўз ўз тузилиши ва характери жиҳатидан ўта хусусий ҳодисани ифодалайди. Сўзни бошқача талқин этадиган бўлсак, бу – тилнинг миниатюраси. Шубҳасиз, сўз илмий жиҳатдан ҳам лингвистикада марказий ўрин эгаллайди. Агар тилда сўз бўлмаганда, Иоганн Апостолдан В.Шекспиргача, Секст Эмпирикдан А.И.Смирницкийгача сўз борасида узок давр мобайнида бундай илмий муҳоқасалар юритилмаган бўлар эди²⁷.

АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ТАРИХИЙ АСАРЛАРИДА ҚўЛЛАНГАН ФОРСЧА-ТОЖИКЧА СўЗЛАР

Д.А.Абдувалиева, ЖДПИ, ф.ф.б.ф.д.(PhD)

“Тарихи мулуки Ажам”²⁸ лексикасидаги форсча-тожикча сўзларнинг асосий қисми эски ўзбек адабий тилига хос маъноларда қўлланган бўлиб,

²⁶ Milewski T. The conception of the word in the languages of North American nations *Lingua Postanien-sis*. III, 1951. -p.193.

²⁷Қ аранг: Реформатский А.А. К вопросу о фоно-морфологической делимитации слова. - В сб. Морфологическая структура слова в языках различных типов. -М.-А., 1963. -с.77.

²⁸ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн олтинчи том. – Тошкент, 2000. (Кейинги фойдаланилган ўринлар саҳифаси қавс ичида кўрсатилган.)

уларнинг кўзда тутилган даврда қай тарзда ишлатилганлигини қуйидаги гуруҳ сўзларининг семантик таҳлили орқали кузатиш мумкин.

а) *Шахс маъносидаги форсча-тожикча ўзлашмалар*. Шахс маъносини ифодаловчи айнан “катта ер эгаси, заминдор, қишлоқ ҳоқими” луғавий маъносини ифода этувчи *деҳқон* (222) сўздан асар матнида “қишлоқ бошлиғи, бадавлат киши, деҳқон” (АНАТИЛ, I, 483)²⁹ маъносида истифода этилган. Бугун мазкур сўз семантикасида муайян ўзгариш рўй берди, яъни бу ўзлашма ҳозирда “асосий касби ерга ишлов бериш, экин экишдан иборат бўлган киши” маъносини (ЎТИЛ, 1, 603)³⁰ ифода этишга хизмат қилади. Шахс маъносини ифодаловчи лексемалардан бири *пайгамбар* ўзлашмаси бўлиб, “хабар” маъносини англатадиган *пайгам* отига “келтир=” маъносидаги *бурдон* феълининг *бар* ҳозирги замон асосини қўшиб ҳосил қилинган. Бу от таркибидаги *o(a)* товуши форсча-тожикчада *a* товушига алмаштирилган (ЎТЭЛ, III, 252)³¹. Бу лексема “худонинг хоҳиш иродасини бандаларига етказувчи илоҳий вакили, наби, расул” маъносини англатади (ЎТИЛ, 3, 205). “Савдогар, тижоратчи” луғавий маъносидаги *бозургон* ўзлашмаси эски ўзбек адабий тилида фаол қўлланган. Асар матнида “бозорчи, савдогар” (АНАТИЛ, I, 298) маъносида (195) қўлланган. Ҳозирда ушбу истилоҳ эскирган сўзлар сирасига киради. Асар матнида “уй эгаси, меҳмон кутувчи” маъносида *мизбон* (222) лексемаси қўлланган. Бу от “дастурхон ёзишда ишлатиладиган курси” маъносини англатувчи *миз* отига “қарамоқ” маъносини ифодаладиган *-бон* қўшимчасини қўшиб ҳосил қилинган (ЎТЭЛ, III, 136). Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида унинг “меҳмон кутувчи, зиёфат, тўй эгаси” маъносидаги *мезбон* фонетик варианты қўлланади (ЎТИЛ, 3, 578). Бевосита шахс маъносини ифода этувчи *гумашта* (194) ўзлашмаси “биров томонидан махсус топшириқ билан қўйилган шахс” маъносида (АНАТИЛ, I, 423) қўлланган. Ушбу сўз “ишончли кишини вакил қилиб белгиламоқ” маъносини англатадиган *гумаштан* феълининг ўтган замон сифатдоши шакли бўлиб, ўзбек тилида иккинчи бўғиндаги *o(a)* товуши *a* товушига алмаштирилган (ЎТЭЛ, III, 70). Ҳозирги ўзбек адабий тилида икки маънода қўлланиши қайд этилган (ЎТИЛ, 1, 523). *Дабир* (202) (“мирза, котиб”) истилоҳи асарда “ёзишни ўргатувчи шахс, устоз” (ЎТИЛ, 1, 523) маъносида ифодаланган.

²⁹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, I-IV жилдлар. – Тошкент: Фан, 1983-1985. I жилд, 483 - б. (Кейинги фойдаланилган ўринлар саҳифаси қавс ичида кўрсатилган.)

³⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, 1 жилд, 603-б. 2006-2008. (Кейинги фойдаланилган ўринлар саҳифаси қавс ичида кўрсатилган.)

³¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (Форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009. 252-б. (Кейинги фойдаланилган ўринлар саҳифаси қавс ичида кўрсатилган.)

б) *Нарса-буюм маъносини ифода этувчи форсча-тожикча ўзлашмалар.* “Ёғоч, металл, тош ва шу каби нарсаларни қирқиш, кесиш учун ишлатиладиган қирра тишли асбоб” (ЎТИЛ, 1, 100) маъносидаги *арра* истилоҳи асарда тубандагича қўлланган: ...*то ани тутуб арра била ики бўлуб, жисмин пора-пора қилди (188).* Нарса-буюм маъносидаги яна бир ўзлашма *паргор* истилоҳи бўлиб, бу сўз асли “пат” маъносини англатиб, кейинчалик “ручканинг пероси” маъносини ифодалаган *пар* отига асли “айланмоқ” маъносини англатадиган *гардидан* феълининг *гард* ҳозирги замон асосини қўшиб ҳосил қилинган: лекин луғатда *гард* асоси эмас, *-гар* қўшимчаси қўшилган шакли келтирилган; форс-тожик тилларида бу қўшимчанинг *-гор* шаклидан, ўзбек тилида *-гар* шаклидан фойдаланилган (ЎТЭЛ, III, 183). Ҳозирги ўзбек тилида ушбу ўзлашманинг *паргар* шаклида 1. “циркуль” ҳамда 2. “атрофида айланувчи, айлана ҳосил қилувчи” маъноларида қўлланиши аниқланган (ЎТИЛ, 3, 220). Асар матнида ўзлашма *паргор (216)* фонетик вариантыда қўлланган. Шунингдек, асар матнида *барг (214), бут (223), дебо (229), дор (198), жом (186), занжир (225), кўс (213), шабчароғ (229)* каби нарса-буюм маъносидаги форсча-тожикча ўзлашмалар қўлланишда бўлган.

в) *Мавҳум маъно ифода этувчи ўзлашмалар.* Айнан “айланмоқ” луғавий маъносидаги *гардун (217)* сўзи асар матнида “дунё, олам, жаҳон, фалак, тақдир” маъносида *чарх (194)* ўзлашмаси билан маънодошликни юзага келтирган. *Чарх* сўзи асли “айлана гардиши” маъносини англатган. Мазкур истилоҳ асар лексикасида форс тилига хос изофий бирикманинг компоненти сифатида фаол қўлланишда бўлган: *чархи бебок (203)* – “бепарво, золим дунё” Шунингдек, ушбу сўз арабча ўзлашмалар билан ҳам синтагматик алоқага киришиб, тубандаги изофий бирикмаларни ҳосил қилади. *Чархи мухолифсияр (193)* – “доим хилоф иш қилувчи фалак, тескари тақдир”, *чархи дажам (210)* – “ситамагар чарх”, *чархи дун (233)* – “тескари айланувчи пасткаш фалак”. Ушбу ўзлашманинг маъно мундарижаси ҳозирги ўзбек адабий тилида бирмунча кенгайгани билан характерланади, яъни эски ўзбек адабий тилида, асосан, 1) “гардиш, чарх”; 2) “осмон, фалак”; 3) “давр, замон”; 4) “бахт, толеъ” (АНАТИЛ, III, 452) каби мавҳум тушунчаларни ифодалаган ушбу ўзлашма ҳозирда “ип йигирадиган дукли қўл асбоби”, “ҳар хил асбобларнинг, қурилмаларнинг айланадиган қисми, парраги” ҳамда “кесувчи асбобларнинг тиғини ўткирлайдиган, қайрайдиган асбоб”³² каби

³² Abbosali Vafoiy, Sherali Avezmetov. O‘zbek tiliga o‘zlashgan forscha so‘zlar. — Tehron — Toshkent :“Ал Худо” халқаро нашриёти, Мовароуннаҳр нашриёти , 2005. — Б. 216-217.

аниқ маънолар қатори “гардиш, айлана” каби кўчма маънони ҳам англатмоқда (ЎТИЛ, 4, 462).

“Қаттиқ хафа бўлиш, қайғуриш, алам чекиш туфайли юз берадиган йиғи-сиғи, нола-фарёд” маъносидаги *фигон* (ЎТИЛ,4,351) ўзлашмаси асарда “шовқин-сурон, тўполон, ғавғо” маъносидаги яна бир форсча-тожикча *гирев* (АНАТИЛ, 4,113) сўзи билан боғланиб келган: ... *халойиқ фигон ва гиреви ул ҳазратнинг қулогига етишди* (219). Ҳозирги ўзбек адабий тилида *гирев* ўзлашмаси эскирган сўз сифатида истеъмолдан чиққан. Асарда *фигон* сўзига маънодош бўлган *нола* (214) ўзлашмаси туркийча *қил*= феъли билан бирикиб “фигон қилмоқ, нола чекмоқ, оху-воҳ қилмоқ” маъноларини ифодалашга хизмат қилган. “Ор номус, уят” маъносидаги ҳозирда маъноси архаиклашган *нанг* (234) ўзлашмаси арабча *ор* ўзлашмаси билан боғланиб маънодошликни ҳосил қилган. *Нишон/нишона* сўзининг эски ўзбек адабий тилида беш маънода қўллангани аниқланган (АНАТИЛ, II, 463). Асар матнида *а)* “белги, из, асар”(187); *б)* “хат, мактуб, нома, ёзма хабар” (204) маъноларида ишлатилган. Ушбу ўзлашма ҳозирги ўзбек адабий тилида истеъмолда бўлиб, етти маънони ифода этишга хизмат қилади (ЎТИЛ, 3, 42-43). Улар орасида “хат, ёзма хабар, мактуб” маъноси мавжуд эмас. Асар матнида ушбу сўзга маънодош сифатида арабча *аломат* (226), *асар* (226) ўзлашмалари ҳам қўлланган.

г) Белги-хусусият маъносидаги форсча-тожикча ўзлашмалар. “Ранг-баранг, хилма-хил, турли-туман” маъносидаги *гуногун* ўзлашмаси (АНАТИЛ, I, 426) асар матнида қуйидагидек ифода этилган: *Ёшил дебо ва гуногун жавоҳир сабза ва раёҳин ўрнига қайишим, бу нималар йўқтур* (229). Бевосита белги-хусусият маъносидаги *паришон* ўзлашмаси асарда *а)* “пароканда, тартибсиз” (219); *б)* “хаёли паришон ҳолда”(234) каби маъноларни ифодалашга хизмат қилган. Шунингдек, ушбу сўз туркийча *қил*= феъли билан бирикиб, “адаштирмоқ, нотўғри хулосага келмоқ” маъносини ифодалаган (204). Шунингдек, асар матнида *хирадпеша* (222), *бахравар* (238), *нигунсор* (235), *гирифтор* (229), *бузургвор* (202), *хоксор* (215) каби бир қанча белги-хусусият ифодаловчи форсча-тожикча ўзлашмалар қўлланган.

Асарда форсча-тожикча изофали конструкциялар кўп учрайди. “Бахтли, омадли, саодатли” маъносидаги *бахти баланд* (228) изофали бирикмасига антоним сифатида асар матнида “бахти қаро, бахтсиз” маъносидаги *баргашта бахт* (231) бирикмаси қўлланган. Шунингдек, асарда *даврони дун* (186), *чархи баланд* (216), *савдои хом* (188), *чашмаи сабз* (218), *соҳиби Гузида* (211), *суруди Каёний* (193), *ганжи бодовард* (229) каби изофали бирикмалар кенг қўлланган.

FILOLOGIK FANLAR VA OLIY TA'LIM: MAQSADLAR UYG'UNLIGI

S.I. Mahmudova, O'zDSM instituti dotsenti, f.f.n

Filologik fanlarning oliy ta'limdagi o'rni uning ma'rifiy, tarbiyaviy, kommunikativ jihatlariga bog'liq, chunki nutq va yozuv faqat ma'lumot berib qolmay shaxsni insoniylashtiradi, ijtimoiylashtiradi, qo'pol qilib aytganda hayvonot dunyosidan farqli ravishda uni madaniylashtiradi. Afsuski, bugungi kunga kelib, kitobxonlikning pasayishi, madaniyatsizlik, ma'naviyatning susayishi kabilar kishini tashvishga solmoqda.

Filologik ta'limning asosiy vazifalaridan biri faqat mutolaa va matn tuzish emas, balki ularni tahlil va tavsif qilishdir. Bugun biz bu ko'nikmalarning susayganligini, buning sababi yangi texnologiyalar ekanligini bilamiz. Bilamizki, ular tafakkur qilishga o'rgatmay, ma'lumotni qabul qilish, saqlash, uzatishga mo'ljallangan. Bugun buni kuzatish mumkin: o'qib chiqib, fikr bildirib, qayta jo'natamiz, vassalom, chunki uni fikrlab, tushunishga vaqtimiz yo'q. Demak, shuning uchun qisqa, ma'lumot shaklida yozamiz, ensiklopediyalar ham shu sababli ommalashib bormoqda. Mutolaa madaniyatini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim rejasiga "Mutolaa va nutq madaniyati" fani kiritildi. Yangi fan qo'yilgani yaxshiku, lekin 2020-2021 o'quv yilida barcha ta'lim yo'nalishlarida o'qitilishi ko'zda tutilgan bu fanni qanday o'qitilishi va qanday natijalar berishi kishini o'ylantiradi xolos.

Bugungi kunda, aynan karantin holatida faoliyat yuritar ekanmiz, oliy ta'limda masofaviy ta'lim platformasi ishga tushirilar ekan, internet texnologiyalarning tarbiyaviy jihatlariga ham e'tibor beraylik. Filologik fanlarga oid qanday bilimlarni berish bilan biz talabalarni nafaqat ishlab chiqarishdagi ishga tayyorlash, balki oilaviy hayot, kollektiv, jamiyatdagi turmushga tayyorlashimiz mumkin. Fikrimizcha, ta'limda Ijtimoiy-sotsial pedagogikani rivojlantirish lozim. Bunday pedagogika asosan maktab va bog'chada mavjud, chunki bog'chada maktabga, maktabda kolejga, kolejda universitetga tayyorlanadi. Maktab institut sifatida sotsial kodlashtirish uchun yetarli bo'lmaydi. Afsuski, bugun oliy ta'lim o'zining asosiy vazifasini, yurt taqdiri uchun mas'ul bo'luvchi ziyolilarni tarbiyalay olmayapti.

Ko'pgina oliy o'quv yurtlarida asosan yaxshi mutaxassislarni tayyorlashga e'tibor beriladiyu, lekin bitiruvchilarning qanday ijtimoiy jihatlariga ega bo'lishi haqida kam o'ylanadi. G'arbda ham bugungi kunda endigina ijtimoiy yo'naltirilgan mutaxassis tayyorlashga e'tibor berilmoqda. Asosiy qiyinchilik, qanday texnologiyalar yordamida kishilardan ijtimoiy foydali shaxslarni shakllantirishdir. Rivojlangan jamiyatlarda tug'ilish bilan birga ota-onalarning bolalariga ko'rsatadigan g'amxo'rliklari, tarbiyalari ham kamayib

bormoqda. Shunga qaramay, o'z-o'zini nazorat qilish, kommunikabellik, hissiyotlar va istaklarni namoyon qilishning madaniy kodlarini egallash, boshqalar bilan birga turmush kechirish ko'nikmasi, mehnatsevarlik, sabr, bardoshlilik, did, sog'lom fikr, jismoniy baquvvatlik bularning bari ta'limning an'anaviy unsurlari bo'lib, ularning barchasi madaniyatlar, hatto uning virtual shakllarida ham saqlanib qolishi shart. Afsuski, hozir hayotning an'anaviy jihatlari degradatsiyaga uchramoqda. Shu sababli oilaviy tarbiyaning unsurlari maktab tomonidan singdirilmoqda. Ko'pgina ota-onalarning tarbiya uchun na vaqti, na tajribasi bo'lib, tarbiyalanishni maxsus muassasalarga topshirilmoqda. Bu tashkilotlar esa davlat tomonidan boshqarilib kelinadi. Mutaxassislar esa bo'lajak kadrlardir. Natijada, tarbiyalanuvchilar ham, tarbiyalovchilar ham murakkab mexanizmning vinti sifatida shakllanmoqdalar. Ular muayyan vazifalarni mexanik ravishda bajarmoqdalar.

Xo'sh, farzandlarimizni kim va qanday qilib tarbiyalaydi? Bu nafaqat ahloqiy muammo, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash jamiyat evolyusiyasining asosiy qonuniyatidir. Internet qaramligiga qarshi qanday kurashish, shaxslararo muloqotda haqqoniylik tanqisligini qanday to'ldirish zamonaviy ta'limning yana bir muammosidir. Yangi media texnologiyalar bizning iste'dodimizni faqat kuchaytiruvchi vosita emas, ular tashqi dunyodan uzoqlashtirib, real voqeikka yaqinlashtirmaydi. Holbuki, texnika erkinlik beradi. Til va adabiyot esa kishilarga ehtiros va istaklarni meyorlashtirishga, ma'naviy qadriyatlarni singdirishga yordam beradi. Shu o'rinda Rossiyadagi "Mir PK" jurnali bosh redaktori G. Ruzaykinning fikrlarini keltiramiz: "Informatsiyaning ko'pligi uni qadrsizlantiradi. Haqiqatdan kerakli ma'lumotlarni topish tobora qiyinlashib bormoqda. Inson internetdan qabul qilishi mumkin bo'lgandan ko'ra ko'proq hajmdagi ma'lumotni qabul qilmoqda. Buni "Laokon sindromi" deb atadim. Vatikanda shunday haykal bor: miflarga ko'ra kohin Laokoonga ma'budlar ilonlarni yuborishadi va ular bilan kurashayotgani tasvirlangan unda. Men bizning ustimizga yog'ilib kelayotgan ma'lumotlar oqimini shu ilonlarga o'xshataman. Biz bu oqimga bas kela olmayapmiz, o'zimizni ojiz his etayapmiz ularning oldida." [1, B 4] Haqiqatan ham, informatsiya oqimi ostida qolib ketgan kishida o'ziga bo'lgan ishonch kamayadi, emotsional tushkunlik, xavotir hissini paydo bo'ladi.

Oliy ta'limda filologik fanlarni o'qitish yoshlarni ma'rifatli, bilimli, savodli qilishi bilan birga ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashi, o'ziga ishongan, oq-qorani, halol haromni farqlaydigan, internet asrida turli ko'chalarga adashib kirib qolmaydigan, jamiyatga, millatiga foydasiga tegadigan mutaxassisni tayorlashga xizmat qilishi kerak. Shu jihatdan respublika oliy ta'lim tizimi va filologik fanlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari hamohangdir.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” qarorida oliy ta’lim muassasalarida o’quv mashg’ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo’naltiradigan o’qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e’tiborni talabalarning mustaqil ta’lim olishi bilan bog’liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish ham belgilab berilgan edi [2: 2019] Qo’yilgan bu vazifalarga oliy ta’limda ona tili va adabiyot fanlarini o’qitishda ham e’tibor qaratishimiz lozim. Filologik fanlarni o’qitishda katta tajribaga ega bo’lishimiz qatorida biz dunyodagi mazkur yo’nalishlar o’qitish tizimiga oid tajribalar va yangi yutuqlarni muttasil o’zlashtirib borishimiz zarur. Hozirgi vaqtda dunyo ilmida sotsial antropologiya, ya’ni ijtimoiy antropologiya, jamiyatdagi insonning o’rnini o’rganish va buning markaziga insonni qo’yishga katta e’tibor qaratilmoqda. Filologik fanlarni o’rganish va o’rgatishning xorij namunlari ham ayni shu yo’nalishda ekanligi bilan ajralib turadi.

Badiiy adabiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikning ijtimoiy hayot bilan bog’lanishida ham bu sohalarning o’ziga xosligidan tashqari sotsial, xususan, madaniy antropologiya bilan yaqinlashib borishi bejiz emas. Chunki sotsial va madaniy antropologiyaga doir ma’lumotlarni badiiy adabiyot ko’proq bera oladi. Dunyo filologiya ilmi ham aynan mana shunday yo’nalishlarda bormoqda. Shu bilan birga mana shu yo’nalishlarni o’qitishda kompyuter va internet texnologiyalarining zamonaviy uslublaridan keng foydalanish ham aynan xorij ilmiga xos bo’lib, ularning kerakli jihatlaridan biz ham foydalanishimiz lozim. Ta’lim jarayonidagi muammolarning yuzaga kelishida o’rganilayotgan fanlarni tizimlashgan shaklda emas, balki fragment shaklida o’rganilayotgani ham sabab bo’lmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun ta’limida integrativ yondashuvni tashkil etish kerak.

O’quv mashg’ulotlarida talabalarni fikrlashga yo’naltiradigan yangi texnologiyalarni joriy etish uchun bu fanlarning rivojlangan mamlakatlarda qanday o’qitilishi, undagi muammolar haqida o’rganishimizni taqozo etadi. Bir misol, rus olimasi M.Chudakovaning o’rta ta’limda adabiyot o’qitish muammolari haqida yozilgan “Literatura v shkole: chitayem ili proxodim” kitobida maktabda olima yozuvchilar biografiyasini o’rganishni kamaytirib asosan badiiy asarlarni mashg’ulotlarda ovoz chiqarib o’qishni, bevosita matn ustida ishlashni tavsiya qilsa, fransuz pedagogi Daniyel Pennak esa “Roman kabi” essesinde badiiy adabiyotga effektiv yondashuvning qonuniyatlarini bayon qiladi va bu qoidalar “Kitobxon xuquqlari deklaratsiyasi” nomini oladi.[3:B 22] D.Pennak ham adabiyot darslarining 80 foizi badiiy asarni o’qishga ajratilishi lozim deb hisoblaydi.

O‘zbekiston respublikasi san’at arbobi, mohir tarjimon Ibrohim G‘afurov esa adabiyot haqidagi bir suhbatda “O‘qituvchi adabiyot nafosatining notig‘i va oshig‘i bo‘lmasa uning o‘quvchisi qayerdan kasb etadi So‘z va Adabiyotga muhabbatni! Adabiyot va uning so‘zi esa boshdan oyoq muhabbatdir.....O‘qituvchining vazifasi faqat bilim berishgina emas, balki did-farosatni tarbiyalash, o‘qigan kitobiga to‘g‘ri baho berishga qodir va qobil bo‘lmoqlikka o‘rgatish. Tarix, adabiyot, til darslari, avvalo, did -farosat darslaridir” degan fikrni bildirgandilar.[4. B.13]Zero, ta’limda adabiyot fani o‘qituvchilari oldiga talabalarda ijodkor iqtidorini tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan.Bu esa talabalarda badiiy so‘zga bo‘lgan ishtiyoqni, ijodiy ruhni uyg‘otishning uddasidan chiqish uchun ularni ta’limda yangi yo‘llarni izlash va izlanishini taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ruzaykin G. Kuda idyot pokoleniye Z?. «Argumenti i fakti. 2012.№4, str 4.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, 2019 yil 1 fevral.
3. Чудакова М.О. “Литература в школе: читаем или проходим”.-М.: 2009 стр 22; Пеннак Д. «Как роман».Издательство «Самокат»,- М.: 2005.
4. G‘afurov I. Nega adabiyotsiz yashab bo‘lmaydi. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2017 yil 10-soni, 13-bet.

МИҚДОР ЎЗГАРИШЛАРИНИНГ СИФАТ ЎЗГАРИШЛАРИГА АЙЛАНИШИ АСОСИДА ТИЛ ТОВУШЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

О.О.Бозоров, ф.ф.н., Кўкон ДПИ

Диалектик таълимотга кўра, жамият ва тафаккурда миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига айланиши натижасида шу соҳаларнинг нарса (ҳодисалари) шаклланиши³³. Шу нуқтаи назардан ўзбек адабий тили фонологик сатҳининг бирликлари³⁴ ҳисобланувчи фонемалар (нутқ товушлари)нинг ҳосил бўлишини ўрганиш ўринлидир.

Тил ифодаловчилари ёки номемаларнинг (сўзлар товуш томонларининг) шаклланишида овоз ва шовқин иштирок этади. Бунда овоздан унлилар, шовқиннинг ўзидан ва унинг овоз билан муайян нисбатлардаги қоришмаларидан ундошлар ҳосил қилинган. Тил товушларининг, фонемаларнинг ҳосил қилинишида субстанциянинг (одам товушининг), нутқ аппарати тузилиши ва фаолиятининг ўзига хос

³³ Философский энциклопедический словарь. – Москва, 1983. – С. 488

³⁴ А.Абдуазизов. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1992

хусусиятлари ҳисобга олинган ҳолда қарама-қаршилик бирлиги ва кураши (таъсири), миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши ҳамда инкорни инкор қонунларининг ҳамкорликдаги фаолиятларидан ўзига хос йўсинларда фойдаланилган. Маълумки, сўзнинг ифодаловчи томони шартли белги бўлиб, белгилар ўзаро фарқликларга (одам сезгилари учун) эга бўлишлари лозим. Ушбу ўринда бу фарқликларнинг бош манбаи тил товушини ташкил этувчи овоз ва шовқиннинг ўзаро акустик қарама-қаршиликка, фарқликка, зидликка эгалигидир. Ана шу асосда ҳар бир тилда аввало унлилар (соф овоздан ҳосил қилинган) ва ундошлар (шовқиндан, овоз ва шовқин кўшилишидан) ҳосил қилинади ва улар ўзаро фарқланади, зидланади.

Тил учун сўзлар товуш томонларининг (номемалар) ясалиши талаби овоз субстанциясидан (физик моддийликдан) ҳар хил акустик белгилар ҳосил қилиш эҳтиёжини келтириб чиқаради. Бу зарурият нутқ соҳиби олдида қайси воситалар, усуллар асосида бир жинсдаги артикуляцион ёхуд фонетик ҳодисадан кўп сонли ҳар хил акустик белгилар ҳосил қилиш ва улардан ўзаро фарқли бўлган товуш турларини (фонемаларни) вужудга келтириш вазифасини қўяди.

Умуман, унлиларнинг ҳосил бўлишида оғизнинг очилиб бориши ва лабларнинг ўзаро яқинлашиш-узоқлашиш (лабланганлик-лабланмаганлик) хусусиятлари муҳим (фонологик) артикуляцион белгилар ҳисобланади. Худди ана шу, оғизнинг қуйи даражадан юқорига, лабларнинг лабланганликдан лабланмаганликка томон бўлган артикуляцион ҳаракатлар йўналишларида миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши ва инкорни инкор (бир унлидан узвий равишда иккинчи унлининг ҳосил бўлиши) амалга ошади. Хусусан, оғизнинг икки четга тортилиб, эллипсимон айтилиш ҳолатда очилиб бориши ва лабларнинг бир-биридан юқори-қуйи йўналишларда узоқлашиб бориши жараёнида *и* – *а* – *э* шаклланишлар вужудга келади. Бунда *и* тор, *э* ўрта кенг ва *а* нинг кенг очилиш даражаларига тўғри келади. Бошқача айтганда, оғизнинг бу ҳолатдаги очилиб боришидан тордан ўрта кенгга, ўрта кенгдан кенгга ўтиб борилган сари и товуши *э* га, *э* товуши *а* га айлана боради. Буни А.Маҳмудовнинг экспериментал фонетик тадқиқоти³⁵ ҳам тасдиқлайди. Унинг кўрсатишича, оғизнинг эллипсимон ҳолатдаги очилиб боришида устки ва пастки лабларнинг 8мм гача очилиши *и* га, 10 мм гача очилиши *э* га ва 12 мм гача очилиши *а* га тўғри келади. Ушбу жараёндаги миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтишида миқдор оғизнинг очилиш даражаларига, меъёр торлик, ўрта кенглик ва кенгликларнинг бошланғич ва туташ нуқталарига (*и* учун 1-8мм, *э* учун 8-10

³⁵ Маҳмудов А. Гласные узбекского языка. – Ташкент, 1968

мм, а учун 10-12 мм), инкорни инкор эса *и* дан *э* га, *э* дан *а* га ўтилишига тўғри келади.

Ўзбек тилидаги қолган уч унли товушнинг (*о,ў,у*) ҳосил қилиниши оғизнинг энди икки четга, яъни ён ёқларига эмас, балки олдинга думалоқлашиб кенгая бориш, лабларнинг эллипс ҳолатдаги жипс лабланганлигидан (бир-бирига тегиб туришидан) кучсиз лабланишлар томон ўтиб бориши жараёнида ҳосил қилинган: *у – ў – о*. А. Махмудов фонетик тажрибаларининг кўрсатишича, бунда думалоқланган лабларнинг оралиғи *у* талаффузида 18 мм гача, *ў* талаффузида 19 мм гача ва *о* талаффузида 27 мм гача тўғри келади. Кўриниб турибдики, *у – ў – о* йўналишдаги миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўта боришида думалоқланган лабларнинг оралиқ даражалари миқдорни, ҳар бир унлининг намоён бўлиб туриш кўлами меъёрга (*у* учун 1-18 мм, *ў* учун 18-19 мм, *о* учун 19-27 мм) унинг *ў* га, *ў* нинг *о* га бориши эса инкорни инкор ёки бир товуш туридан иккинчисининг ҳосил бўла боришига тўғри келади. Хуллас, аслида, унли товушларнинг ҳосил бўлиши учун нутқ аппаратининг икки имконияти, яъни оғизнинг очилиб бориши ва олдинга кенгайиб очилиб бориши мавжуд эди. Маълум бўлдики, ана шу икки йўналишда оғиз ва лабларнинг ўзаро мутаносибликда амалга оширган ҳаракатлардаги миқдор ўзгаришларидан сифат ўзгаришларига ўтиши ва инкорни инкор натижасида *и, э, у, ў, о* унли фонемалари вужудга келган.

Ундош товушлар ўзаро артикуляцион ўрни, усули ва акустик белгилари бўйича фарқланади. Демак, бу товушларнинг ҳосил бўлишида миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши ва инкорни инкор ана шу жинс (род) мақомидаги уч белги бўйича амалга ошади.

Ундош товушларнинг талаффуз ўрнига кўра маълум изчилликка, даражаланишга эгаллиги адабиётларда эслатиб ўтилади: бўғиз – тил орқа – тил ўрта – тил олди; чуқур тил орқа – ўрта чуқур тил орқа – саёз тил орқа; тил/танглай – тил/милк – тил/тиш; лаб/бурун – тил олди/бурун – тил орқа/бурун каби. Хусусан, тил орқа – тил ўрта – тил олди даражаланиши бўйича ундошларнинг тизими: *х-ғ-қ-к-г-нг-й-л-н-р-з-т-д-с-ж-д-ж-ш-ч*; лаб/бурун – тил олди/бурун – тил орқа/бурун бўйича ундошларининг тизими: *м-н-нг* ва ҳоказо. Албатта, артикуляция ўрнининг соф ўзи товуш ҳосил қила олмайди. Лекин муайян товуш артикуляция ўрнининг қаерда жойлашганлиги шу товуш таркибидаги овоз ва шовқиннинг миқдорига таъсир этади. Масалан, чуқур тил орқа шовқиннинг кўпроқ бўлишига, саёз тил орқа овознинг кўпроқ бўлишига каби. Аслида, чуқур тил орқадан тил учига борилгани сари товушнинг ўз шовқинини йўқотиб, майинлашиб, мусиқийлашиб, оҳангдорлашиб бориши маълум. Шунини ҳисобга олсак,

артикуляция ўринларининг ҳам миқдор ўзгаришларидан сифат ўзгаришларига ўтиши ва инкорни инкорда (камайиб бораётган шовқин ва кучайиб бораётган овознинг турли нисбатлардаги ўлчамларидан янги ундошларнинг шаклланиб боришида) билвосита хизматлари бор.

Артикуляция усули белгиси бевосита тўсиқ билан боғлиқдир. Тўсиққа учраш ҳаракатида (белгисида) ҳам миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига учраши содир бўлади: тўлиқ тўсиққа учраш – нотўлиқ тўсиққа учраш – учрамаслик ёки аксинча (тўсиқсизлик – нотўлиқ тўсиқлилиқ – тўлиқ тўсиқлилиқ). Бу жараёнда инкорни инкор натижасида унлилар (тўсиқсизлик) – сонорлар – (нотўлиқ тўсиқсизлик) – жарангсизлар (тўлиқ тўсиқлилиқ) ҳосил бўлган.

Артикуляция усули ҳаракатида ҳам даражалилик, тадрижий босқичлилиқ каби миқдор ўзгаришлари учрайди: портловчи – портловчи/сирғалувчи – сирғалувчи. Бунда портловчилиқ камайиб, сирғалувчилиқ кучайиб (ёки аксинча) боради ва шу асосда сифат ўзгаришлари – портловчи ундошлар (б,п каби) – портловчи/сирғалувчи ундошлар (м,н каби) – сирғалувчи ундошлар (з,ш каби) тизими ҳосил бўлган.

Товуш ҳосил бўлишидаги акустик белгиларни овоз ва шовқин ташкил этади. ундош товушлар аслида шовқиннинг ўзидан ёки овоз ва шовқиннинг турли нисбатлардаги қоришмаларидан ҳосил қилинган. Бунда ҳам миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши асосга олинган. Аввало, овоз ва шовқиннинг ўзаро миқдорий нисбатлари, қоришиш даражалари ҳисобга олинса, миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши сонор – жарангли – жарангиз тарзида намоён бўлади. Бунда овознинг камайиб, шовқиннинг кучайиши (ёки аксинча) амалда бўлади. Шу йўл билан сонорлар (м, н, нг, л, р) жаранглилар (б, в, г, д, ж, з, ғ) ва жарангсизлар (н,с,т,ч,қ) гуруҳлари пайдо бўлган. Дикқат қилинса, ҳар бир гуруҳнинг ичи ҳам овоз ёки шовқиннинг миқдори бўйича даражаланишини, демак, миқдор ўзгаришларидан сифат ўзгаришларига ўтиш ва инкорнинг инкорини (масалан, сонор товушларнинг овоз миқдорига кўра ўзаро фарқланиши ва шу асосда мустақил сонор товушлиқ мақомига эга бўлишини) кўриш мумкин.

Хуллас, фонемаларнинг қай йўсинларда бирлашиб, система ҳосил этишларини, шунингдек, муайян фонологик фарқлилиқларнинг айнанлиқлардан (умумийлиқлардан) қандай ҳосил этганлигини, фонема ва фонемалар системасининг ўзаро муносабатини фонетикадаги миқдор ўзгаришларининг сифат ўзгаришларига ўтиши ва инкорни инкор конунларининг атрофлича ва чуқур ўрганибгина англаш мумкин.

ОККАЗИОНАЛ СЎЗЛАР ВА УНГА ЁНДОШ ХОДИСАЛАР ХУСУСИДА

О.Ю.Тўхтасинова, Қўқон ДПИ доценти

Мавжуд илмий адабиётларни ўрганиш шуни кўрсатдики, окказионализм пайдо бўлиш хусусияти, неологизм ифодаладиган тушунчасига кўра маълум маънода алоқадорликка эгадек туюлади. Лекин бу лисоний ходисалар бир-биридан фарқ қилади. Қуйида ушбу масала ҳақида ўз фикримизни билдирамиз.

Янги сўз (неологизм) ва окказионализмнинг ўзаро муносабати ҳамда фарқини қуйидаги тўрт мезон асосида таҳлил қилиш мумкин:

1. Муаллифнинг (яратувчининг) бор ёки йўқлиги. Бу мезон янги сўзни таърифлаш учун муҳим эмас. Янги сўз – тил факти. Окказионал сўзлар эса нутқ факти ҳисобланади. Окказионал сўзларнинг муҳим белгиларидан бири унинг бирор муаллифга тааллуқлилигидир. Улар бирор шахс томонидан биринчи бор яратилади. Бир сўз билан айтганда, окказионал сўзлар принципиал равишда аниқ шахсга – ана шу окказионал сўзнинг яратувчисига тааллуқлидир. Тилда эса унинг ҳар бир факти, шу жумладан, янги сўзлар ҳам фақат ижтимоий жиҳатдангина, яъни мазкур тил эгалари бўлган барча кишилар жамоасига қарашли мутлақ эгасиз бирлик сифатида аҳамиятлидир.

2. Сўзнинг янгилик ўлчови муҳим, лекин барча янги сўзлар учун абсолют ва мажбурий эмас. Мазкур ўлчов ҳозирги замон янги сўзлари, сўзнинг янгилиги сезилиб турадиган долзарб (фаол) янги сўзлар учунгина мажбурийдир. Масалан, тижоратчи, жамоа хўжалиги, вазирлик ва шу кабилар 90 - йилларда қўллана бошлади, ҳозирги кунда уларнинг янгилик бўёғи йўқолди.

Янги сўзлар бевосита тилдаги тарихий ўзгаришлар умумий занжирига киради ва шунинг учун ўзи ҳам ана шу ўзгаришларга учрайди. Неологизм тушунчасининг принципиал шартлари ва белгиларидан бири бўлган бундай ҳол тарихий вақт мезони туфайли лингвистик жиҳатдан киритилган, алоҳида нутқ факти сифатидаги окказионал сўзларга ётдир.

3. Янги ва окказионал сўзлар тил луғат таркибига кириш ёки кирмаслик мезони жиҳатидан ҳам жуда турличадир. Янги сўзларнинг тил луғат таркибига кириши (аниқроғи, тилнинг бир қисми эканлиги) ҳеч қандай шубҳа туғдирмайди. Адабий тилнинг тарихи шундан далолат беради. Окказионал сўзлар соф нутқ маҳсулидир. Фақат тил факти бўлиб, окказионаллик мақомидан ажралган (ёки бундай мақомга умуман эга бўлмаган) тақдирдагина юзага келган сўз янги сўз деб аталиши мумкин.

4. Маълумки, сўзнинг пайдо бўлишидаги тарихий вақт омили неологизм тушунчасини таърифлашда асосий белгилардан бири ҳисобланади. Вақт ва ҳаёт жараёнида эскириб қолиши мумкин бўлган, ўз янгилик сифатини камайтириб бора оладиган сўзларгина янги сўз бўлиши мумкин. Тилда янги сўзнинг вужудга келиши унинг тарихий шаклланиши давомида амалга ошиб келган. Шунинг учун неологизмни аниқлаш чоғида қайси тарихий даврга тааллуқли сўз назарда тутилаётганлигига қараб, неологизмнинг нисбий ўзгарувчанлик характери ҳисобга олинади.

Окказионал сўзлар хотирланмайдиган хоссагагина эмас, балки қўлланиш жиҳатидан бир марталик ва синхрон-диахрон қоришиқлик хоссасига ҳам эгадир³⁶. Демак, улар тарихий вақтга нисбатан тааллуқсиздирлар. Шунинг учун бундай сўзлар неологизм деб атала олмайди.

Шундай қилиб, янги сўзни таърифлашда вақт мезони зарур, лекин юқорида кўрсатилганидек, у абсолют эмас, унга нисбийлик жиҳатидан қаралади.

Юқорида келтирилган далилларга асосланиб, янги сўзга шундай таъриф бериш мумкин: Янги сўз тилда ўз тарихий ҳаётининг дастлабки босқичини ўтаётган, янгилик бўёғига эга бўлган сўздир.

Шундай қилиб, **янги сўз** терминини окказионал сўзларга нисбатан уларнинг алоҳида хоссалари туфайли қўллаб бўлмайди. Янги сўз у ёки бу далилни (мазкур ҳолда янги сўзнинг ифодаланиш далилини) муайян фактга боғлайдиган тамомила диахрон тушунчадир. Окказионал сўзлар ўз “ички” тарихидан маҳрум бўлганлигидан принципиал жиҳатдан “нотарихийдир”, чунки бир марта қўлланиши, аксариятининг хотирада қайта тикланмаслиги ва синхрон - диахрон қоришиқлиги туфайли улар тилда узоқ вақт яшашдан маҳрумдир. Окказионал сўзларнинг пайдо бўлиши ҳар ҳолда унга нисбатан ташқи белги бўлган тарихий фактлар билан боғлиқ. Масалан, окказионал сўз ўзи юзага келган аниқ тарихий санага эга бўлиши, ўз аниқ тарихий шахси, ўз муаллифи билан, шунингдек, унинг пайдо бўлишига олиб келган сабаблар ва вазиятлар билан алоқадор бўлиши мумкин. Бундай сўзларга, барқарор (узуал) сўзлардан фарқли равишда, чинакам тарих ётдир. У вақти-вақти билан ўзгариб турадиган хусусиятлардан маҳрумдир, яъни лексик аҳамият, стилистик бўёқ, экспрессивлик, сўз ясовчи структура ва ҳоказолар соҳасидаги ички ривожланишдан маҳрумдир.

Окказионал сўзнинг тарихий ҳаёти нуқтали характерга эга, чунки унинг ишлатилиши принципга кўра диахрон жиҳатдан узоққа чўзилмайди.

³⁶ Қаранг: А.Г.Лыков. Современная русская лексикология (русское окказиональное слово). М.: Наука,– 1976. –С 12-14, 18-19.

Окказионал сўзларнинг ана шу биз кўрсатган хусусиятлари, яъни уларнинг принципиал жиҳатдан “эскирмаслиги” улар тўғрисида “доимий янги сўзлар” ёки “абдий янги сўзлар” деган анча кенг тарқалган фикрларнинг келиб чиқишига сабаб бўлди.

Хулоса қилиб айтганда, окказионал сўзларни янги сўзлар қаторига қўшиш тўғри ҳам, мақсадга мувофиқ ҳам эмасдир. Улар нутқнинг ўзига хос хусусиятга эга бўлган индивидуал бирлигидир.

КЕСИМ – ГАП ва УНИНГ ТАШКИЛ ЭТУВЧИЛАРИ ХУСУСИДА

Ш.Акрамов, ҚДПИ доценти

Гапнинг тузилиш асосини ташкил этган гап бўлаклари бош бўлақлар ҳисобланади. Бу баъзи дарслик ва қўлланмаларда гапнинг грамматик асоси деган атама остида ҳам ёритилади. Демак, гапнинг тузилиш асосини эга ва кесим ташкил этади. Лекин бу икки бўлак ҳақида тилшуносликда турлича фикрлар борлиги кўпчиликка сир эмас. Буларни умумлаштирган ҳолда содда қилиб 3 гуруҳга бўлиш мумкин.


Биринчи гуруҳ тилшунослар эгани ҳоким бўлак сифатида эътироф этадилар ва ўзи ҳоким бўлиш билан бирга кесим таркибига ҳам ҳокимлик қилади, дейдилар. Бу нуқтаи назар гапнинг номинатив томонини акс эттиради. Бунга мувофиқ эга фикр предметини, абсолют аниқланмиш саналувчи гап бўлагини билдиради. Кесим эганинг предикатив белгисини, аниқловчи эса нопредикатив белгисини ифода этади. Иккинчи қарашга мувофиқ эса эга ва кесим тенг ҳуқуқли тарзда талқин қилинади. Бу гапга нисбатан субъект-предикат тузилма сифатида қарайдиган мантикий йўналиш назариясига мансубдир. Бу назарияга мувофиқ ҳукмнинг икки асосий аъзоси - субъект ва предикат эга ва кесимга мувофиқ келади. Улар бир-бирини ўзаро тўлдирди. Улардан бири иштирок этмаса, гап тўлиқсиз бўлиб қолади. Учинчи қараш намоёндалари эса гапнинг абсолют ҳоким бўлаги сифатида кесимни тан оладилар. Эга ҳам унга бўйсунди деб талқин этилади. Бу йўналиш вакиллариининг фикрлари, айниқса, туркий тиллар учун энг муҳим. Бироқ бу йўналишни дастлаб француз тилшуноси Л.Теньер ўз назарияси орқали ишлаб чиққан эди. Унга кўра кесим предикативлик категориясини ташувчи бўлак, яъни уюштирувчи марказ(ядро) ҳисобланади. Бу назария бир чўққили назария номи билан машҳур бўлган ҳамда у муносабат мантиғига таянади, дейиш мумкин. Кесимдан бошқа бўлақлар аргументлар сифатида марказнинг қуршови бўлиб хизмат қилади. Эганинг бош бўлак дейилишига асосий сабаб фикр ифодасида, гап тизимида алоҳида ўрин тутишидир. Чунки баъзан биргина эганинг ўзи ҳам тўлиқсиз гап

сифатида нутқда қўлланади. У гапнинг нима ҳақида айтилганини, фикрнинг нима тўғрисида баён этишини кўрсатади. Демак, фикр объектини, нутқ предметини билдиради. Бунда предмет кенг маънода тушунилиб, унга нарса, шахс, воқеа-ҳодиса, белги-хусусият, ҳаракат-ҳолат, сон-миқдор ва ҳоказоларнинг номи ҳам кириши мумкин. Ота қизини тугал мол-дунёси билан узатди. Оқ – рангларнинг аълоси. Эга кесим билан мустаҳкам алоқада. Унинг маъноси, функцияси, ўрни кесим орқали реаллашади. Худди шунингдек, кесимнинг моҳияти, формаси эга ёрдамида белгиланади. Эга нутқ предметини, фикр объектини, гапнинг темасини билдирса, кесим шу тема ҳақидаги янгиликни, нутқ предмети, фикр объекти тўғрисидаги баённи билдиради: *Навоий газални аввал ичида ўқиди. Турмуш гўзал ва ажойибдир. Навоий мавзесида янги мактаб биноси қурилди* каби гапларнинг биринчисида эга — Навоий ҳаракатни бажарувчи шахс, иккинчи гапда эга - турмуш кесимдан англашилган белги қарашли бўлган предмет, учинчи гапдаги эга - мактаб биноси кесим билан ифодаланган ишни ўзига қабул қилган объект маъноларини билдиради. Эга, одатда, бош келишик шаклида қўлланади. Бироқ баъзан чиқиш келишик шаклини олган сўзлар ҳам эга вазифасини бажариши мумкин: *Унда турли кўкатлардан бор.* Бунда бутун бўлак муносабатини ифодаладиган синтактик конструкциянинг бўлакни билдирувчи компоненти айтилмай қолган. Унинг умумий мазмуни эса буни яққол тасдиқлаб турибди. Бўлакни билдирувчи сўз қайта тикланса, ҳақиқий эга келиб чиқади ва унинг бош келишикда эканлиги маълум бўлади: *Унда турли кўкатлардан намуналар бор.* Демак, бош келишик эганинг асосий грамматик формасидир. Эга вазифасида келган сўз эгалик ва кўплик аффиксларини қабул қила олади. Баъзан бу сўз -ники қўшимчасини олган бўлади: *Бирисиники авжига минганда, иккинчиси бошлайди.* Бу ҳодиса аслида қаратувчи ва қаралмиш муносабатини ифодаладиган синтактик конструкциянинг қисқаришидан туғилган. Бунда қаралмиш вазифасидаги сўз туширилиб, унинг вазифасини ҳам қаратувчи ўз устига олган: *Бирисининг газаби авжига минганда, иккинчиси бошлайди* каби.

Шундай бўлса-да, “Ҳозирги ўзбек тилшунослигида бу борада етакчи бўлган иккита йўналишни яққол ажратиш мумкин. Бу йўналишлардан иккинчиси борган сари кенгроқ тарқалиб, ривожланиб бораётган бўлса-да, ўзига хос ички муаммолардан холи эмас. Шунингдек, биринчи йўналиш ҳам ўзига хос ютуқли томонларга эгаки, бундан асло кўз юмиб бўлмайди: биринчи йўналиш анча қадимги бўлиб, унинг мантиқий асоси атрибутив

логикадир”³⁷, - деб қайд этган эди профессорлар А.Нурмонов ва Ш.Шаҳобиддинова.

Кўринадики, кесим эганинг хусусиятини билдирувчи бўлак бўлганлигидан, у асосан, белги билдирувчи сўз билан ифодаланеди. Бу жиҳатдан у аниқловчига ўхшаб кетади, бироқ белгини қандай ифода этишига кўра фарқ қилади. Аниқловчида белги предмет тасавури билан яхлит бир бутун тушунча ҳолида атрибутив алоқа йўли билан ифодаланса, кесимда у шу белгининг эгадан англашилган предметда мавжуд ёки мавжуд эмаслиги нуқтаи назаридан тасдиқлаш тарзида – ҳукм шаклида, предикатив алоқа йўли билан ифодаланеди. Масалан, *кучли шамол* (атрибутив алоқа), *Шамол кучли*(гап: эга - кесим). Кесимнинг ҳаракат доираси кенг: у эгага боғланади, шу билан бирга ўзига тобе бошқа бўлаklar билан ҳам муносабатга кириша олади. Демак, кесим бир томондан эганинг белгисини ифодаладиган, иккинчи томондан эса қайсидир жиҳатдан маъноси тўлдириладиган, аниқланадиган актив бўлак ҳисобланади. Шунини эътиборга олиб, мақола муаллифлари “кесим гапнинг ўзидир. У муайян бўлаklar билан кенгайиши ёки кенгаймаслиги мумкин, бу унинг моҳиятига таъсир этмайди”³⁸- деб уқтиради. Бундан келиб чиқиб шуни таъкидлаш жоизки, гапнинг асосий моҳиятини акс эттирувчи кесим гап саналиб унинг синтактик муносабати кириш ва киритма конструкциялар, ундалмалар, гапнинг таркибий қисмга кирувчи сўзнинг маъновий валентлигини ҳосил қила олмайдиган детерминантлар орқали амалга оширилишини алоҳида таъкидлаш зарур.



Бундай талқиннинг ўзига хос жиҳатлари ҳам борки, у бир томондан, тилшунослигимизда бир пайтлар тилшунос Р.Сайфуллаев томонидан эътироф этилган гапнинг учинчи даражали бўлаklари³⁹ масаласидаги талқинини ҳам гап доирасига тортиб унинг ташкил этувчилари сифатида бирлаштиради. Иккинчи томондан эса тилшунос А.Аҳмедовнинг синтактик алоқа ва муносабатлар масаласида уларни фақат сўз бирикмаси доирасида юз бериши ҳақидаги қарашларини ҳам рад этиш фикрини қувватлайди. Унингча,

³⁷ А.Нурмонов.Ш.Шаҳобиддинова.Гап бўлаklари категорияси ва унинг ташкил этувчилари хусусида.ЎТА журн.1-сон.2006 й.50-53-б.

³⁸ А.Нурмонов.Ш.Шаҳобиддинова.Гап бўлаklари категорияси ва унинг ташкил этувчилари хусусида.ЎТА журн.1-сон.2006 й.50-53-б.

³⁹ Р.Сайфуллаев. Гапнинг учинчи даражали бўлаklари тўғрисида. Педагогика фанлари илмий текшириш институтининг конференция тезислари, Тошкент. 1964.

У уялганидан секин гапирди жумласи таркибидаги мустақил сўзларни юзаки караганда уялганидан сўзи гапирди билан синтактик муносабатга киришгандек кўринади, аммо сўзлар ўзаро мантиқан боғланмайди, - деган фикрни илгари сурган эди. Чунки гапириш учун уялиш сабаб бўлган эмас, балки секин гапириш учун уялиш сабаб бўлган⁴⁰- дея таъкидлагани каби таҳлиллар учун кенг йўл очади. Шунингдек, ф.ф.н.доцент М.Бошмоновнинг “детерминант бўлаклар объект, субъект, ҳол маънолари билан характерланиши”⁴¹га доир назарий қарашларини ривожлантиришга ҳамда таҳлиллар жараёнида амалий қўлланишига хизмат қилади. Умуман олганда, тилшунослигимизда кесим-гап- |WPrm|(АБКк)нинг ядро сифатидаги ифодаси унинг ташкил этувчилари билан кенгайиш имкониятларига таянади.

БОРЛИҚНИ ЭСТЕТИК ИДРОК ЭТИШ МАҲОРАТИ

Д.С.Турдалиева, ФарПИ (PhD) доктори

Бадиий нутқ бошқа нутқ турларидан борлиқни образли идрок этишининг энг маҳсулдор воситаси, эстетик таъсирининг ўта юқори даражада эканлиги билан ажралиб туради. Шу боисдан бадиий асар тасвири инсон хотирасида узоқ сақланиб қолади. Фарзандларимизда миллий психологияни шакллантириб, унга сайқал бериб боради. Шу боисдан бадиий нутқни, қайси аспектдан туриб ёндашилмасин, илмий тадқиқ қилиш фақат тавсифий характерга эга бўлиб қолмасдан, биринчи навбатда, уни такомиллаштиришга, қолаверса, сир-синоатларини очиш ва ўқувчининг борлиқни эстетик образларда тўғри ва равшан идрок этишига, бадиий-эстетик дидининг ўсишига кўмаклашиши лозим.

Сўз қўллашни ўрганиш, лингвистик ва адабиётшунослик, эстетик ва маданиятшунослик, лингвопоэтик ва когнитив каби аспектларда олиб борилмоқда. Айниқса, бугунги кунда бадиий образ ва сўзга концептуал ёндашувнинг кучайиб бораётганлиги, бир томондан, тадқиқ кўламининг кенгайиши ва чуқурлашишига, иккинчи томондан, фанлараро интеграциянинг кучайишига олиб келмоқда. Демак, борлиқни эстетик идрок этиш синоатлари ва сўз қўллаш санъатига лингвокогнитив ҳамда когнитопсихологик ёндашувлар бадиий тафаккурнинг хусусиятларини очиш, бадиий нутқнинг шаклланиши ва унинг бадиий ҳамда лингвоэстетик таъсир даражасини очиб бериш назарияси ва амалиётининг янги сифат босқичига кўтарилаётганлигини кўрсатмоқда.

⁴⁰ А.Аҳмедов.Синтактик алоқа ва синтактик муносабат.Ўзбек тили грамматикаси .2-том. Т.1976.

⁴¹ М.Бошмонов.Ҳозирги ўзбек тилида гап детерминацияси..Хўжанд.1995.й.

Бадиий нутқни, унинг лингво-бадиий-эстетик сифати ва таъсир даражасини ўрганишнинг илк кўринишлари сифатида кейинги вақтларда лингвопоэтик талқинлар учун асос вазифасини ўтаган соф лингвистик ҳамда лингвостилистик талқинларни олишимиз мумкин. Бу йўналишлар ўз олдига давр талаби ва ижтимоий эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда илмий мақсадларни қўйган эди. Шу билан бирга, уларнинг зиммасида тилнинг маълум бир даврдаги синхроник ҳолатини бадиий асарлар мисолида тавсифлаш, тил имкониятларидан сўз санъаткорларининг қай даражада фойдаланишгани каби эмпирик вазифаларни адо этиш туради. Шу тарзда бадиий нутқда адибнинг бадиий-эстетик мақсади дунёқараши, борлиққа ва ўз фикрига муносабати, ижтимоий психологиянинг парчаси сифатидаги шахсий менталитети грамматик ва мантиқий омиллар билан уйғунлашиб кетади.

Тил – серқирра ҳодиса. Шу боисдан унга турли аспектларда элликка яқин таърифлар берилган. Ҳар бир таъриф тилнинг муайян қирраларини ўзида ифодалайди, кўп ҳолларда улар ўзаро зид ҳам келадики, бу объектив борлиқ мавжудлиги ва ижтимоий онгда акс этишининг мантиқийлигидан далолат беради. Даврлар ўтиши билан тилнинг тавсифидаги коммуникативлик, экспрессивлик, конструктивлик, аккумулятивлик кабилар сираси миллий яхлитликни, аждодлар ва авлодлар узвийлиги ҳамда узлуксизлигини таъминлаш каби кўплаб хусусиятлар билан ҳам бойиб бормоқдаки, бу жараён ушбу қаторнинг чексиз бардавомлигига ишора қилади. Тил муттасил ривожланар экан, ҳар бир ижтимоий давр ва муҳитда унинг янги-янги сифатлари очилиб бораверади. Албатта, “янги” сифатларнинг аксарияти тил пайдо бўлгандан буён амалда бўлиб келмоқда, фақат илмий тафаккур уни англаш ва идрок этиш даражасига энди киришган бўлади. Шу билан бирга, айрим прагматик муҳит ва шароитда кўплаб қирраларнинг бири бошқасига нисбатан устуворлик касб этади, бу ҳолат эса функционал иллюзияни келтириб чиқариши мумкин. Масалан, бадиий нутқнинг эстетик вазифаси ҳақида шундай дейиш мумкин. Тўғри, бадиий нутқ объектив борлиқни оддий эмас, балки эстетик тафаккур қилишнинг муҳим воситаси. Шу боисдан бадиийлик ва эстетиклик муштарак ҳамда диалектик яхлитликда идрок этилади. Лекин бадиийлик ва эстетиклик яхлит бўлиш билан бирга, улар алоҳида-алоҳида мавжуд ҳамдир. Агар шундай бўлмаганда, турли кишилар томонидан улар тенг идрок этилган бўлар эди. Лекин битта сўз санъати намунаси баъзилар томонидан бадиийликнинг, бошқалар томонидан эстетикликнинг намунаси сифатида баҳоланган бўлар эди.

“Тилни ўрганиш ҳар қандай алоҳида олинган нутқий ҳодисада лисоний вазифа ҳамда уларнинг намоён бўлиш кўринишларининг ранг-баранглигини катъий инобатга олишни тақозо этади. Агар ҳодисага объектив ёндашилмас экан, унинг хусусиятлари талқини сохталикдан холи бўлолмайди. Лисоний фаолият ижтимоий хусусият касб этар экан, бу ўзига хослик борлиққа муносабат жиҳатидан айрича ҳолатларни намоён қилади. Борлиққа муносабат шахснинг ақлидан руҳиятига, руҳиятидан ақлига кўчиши билан фарқланади. Муносабатнинг фақат ақлий тури намоён бўлса, коммуникатив вазифа, руҳий муносабат ҳам унга ёндошлик касб этса, эстетик вазифа юзага чиқади”.

Тил ўзининг ҳар бир вазифасини айрича шакл ва бирликларда намоён қилса эди, унда тадқиқ ва талқинлар, уларнинг иллюстрацияси таъминоти жўн ва содда тусга эга бўлган бўлар эди. Ҳолбуки, тилнинг маълум бир вазифаси учун мутлақ хосланган шакл ва воситалар йўқ. Бир шакл турли вазият ва конструкция таркибида муайян қиррасини намоён қилади, холос.

Коммуникатив ва эстетик вазифа, коммуникатив ва эстетик мақсадни фарқлаш бу борада ҳодиса талқини ҳамда унинг тушунилишини бирмунча енгиллаштиради. Масалан, насрий асарларда коммуникатив мақсад замирида эстетик вазифалар ҳам ётади. Ёзувчи Абдулла Қодирий ўтмиш воқелигини янги бадий шаклда тавсифлашни бош мақсад қилиб қўйганлигини ўзи эътироф этади. Лекин, албатта, бу коммуникатив мақсадни эстетик вазифасиз амалга оширишга уриниш бадий ниятни тавсифий ният билан алмаштиришга олиб келган бўлар эди. Ёки Эркин Воҳидовнинг “Ўзбегим” қасидаси, Абдулла Ориповнинг “Ўзбекистон – Ватаним маним” шеърисида коммуникатив вазифа эстетик мақсад замирида юзага чиққан. Бунда воқеликни бериш орқали ўқувчининг эстетик туйғуларига таъсир қилиш бадий ниятни юзага чиқарган.

Маълум бўладики, бадийлик ва эстетикликни фарқлаш ёки уларни айнанлаштириш шаклларнинг муайян вазифани бажариш учун мутлақ хосланганлиги/хосланмаганлиги билан белгиланмаганлиги каби коммуникативлик ва эстетиклик ҳам мақсад ёки вазифа эканлигини ойдинлаштириш билан аниқланади. “Бадий матн ҳар қандай бошқа матндан фарқли равишда коммуникатив вазифа билан муштаракликда амал қиладиган ҳамда унда белгиловчи фактор бўлган эстетик вазифани бажаради” деган тезисни, албатта, барча бадий матнлар эстетик вазифа билан йўғрилган деган мазмунда тушуниш лозим. Бадий матн бошқа матнлар билан “эстетик вазифа бажариш” таснифий белгиси асосида ўзига хос муносабатда бўлади. Лекин бадий матн ўзида эстетикликнинг муқаррарлиги билан аниқ аъзо сифатида юзага чиқади. Бу фикрни коммуникатив вазифага нисбатан

кўлланганда бошқача манзара намоён бўлади. Бадиий матнда коммуникативлик анча сусайган ҳолатларда эстетиклик кучайиб кетади.

Ҳар қандай бадиий матн турли табиатли унсурларнинг яхлитлигидан иборат ўта мураккаб қурилма – системадир. Унда бадиий, лисоний, шахсий, ижтимоий, прагматик, этик, эстетик элементлар ўзаро уйғунлашган ҳолда бирлашиб, шу даражадаги структурани ҳосил қиладики, уларни бир-биридан айри ҳолда тасаввур, тафаккур ва таҳлил қилиш мутлақо имконсиз.

Фойдаланилган адабиётлар

Милейко Е.В., Рус-Брюшнина И.В. Художественный концепт как объект лингвистического исследования // Филологические науки. Вопросы теории и практики Тамбов: Грамота, 2016. – № 11(65): в 3-х ч. – Ч.3. –С.128-130;

Тарасова И.А. Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2010. – № 4(2)/ С.742–745;

Грунина Л.П., Долбина И.А. Художественный концепт как особая эстетическая категория

Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М., 1991. – С.35. изучения функциональной

Аврутин В.А. Проблемы стороны языка. – Л.,1975. – С.44.

Пражский лингвистический кружок. – М., 1967. – С. 24

Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М: Русский язык, 1989. – С.5.

ГРАММАТИК ШАКЛЛАР ВА МАЗМУНИЙ СИНКРЕТИЗМ

Д.Ганиева, ТАТУ, ф.ф.н., доцент

Маълумки, бир грамматик шаклнинг мазмуний мундарижаси икки ва ундан ортиқ грамматик семалар мундарижасидан ташкил топган бутунлик саналади. Масалан, қатор илмий манбаларда таъкидланишича, жўналиш келишигининг *-га* шакли йўналиш семаси билан бирга, аташ, эваз, сабаб сингари семаларга эга.⁴² Грамматик бирликларнинг шакл ва мазмуни ўртасидаги ана шундай муносабатга эътибор қаратган Д.Арутюнова грамматик бирликларнинг шакли ва мазмуни ўртасида кўпинча асимметрик муносабат мавжуд деган хулосага келади. Бундай асимметрик муносабат бир шакл остида ифодаланган семик мураккаблик натижасида майдонга келади.

⁴² Ҳозирги ўзбек адабий тили / Ш.Шоабдурахмонов, М.Асқарова, А.Ҳожиёв, И.Расулов, Х.Дониёров – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. - Б. 238-239; Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. I том. Тошкент: Фан, 1975. – Б. 240-241.

Грамматик шаклларнинг шакл ва мазмуни ўртасидаги асимметрик муносабат семантик синкретизмнинг ҳосиласи сифатида феълларнинг функционал шаклларида ҳам яққол намоён бўлади. Грамматик шаклларнинг шакл ва мазмуни ўртасидаги асимметрик муносабатни феълнинг равишдош, сифатдош, отдош шаклларида кузатиш мумкин.

Грамматик шаклнинг кўпмаънолилиги кўпдан бери тилшунослар диққатини жалб қилиб келади. Чунки грамматиканинг энг муҳим муаммоларидан бири грамматик шаклнинг кўпмаънолилигидир. Гарчи тилшуносликда грамматик шаклнинг кўпмаънолилиги юзасидан қатор тадқиқотлар олиб борилган бўлса ҳам, лекин бу тадқиқотларда грамматик шаклларнинг у ёки бу маъноси автоном ҳолда, эмпирик тарзда талқин қилинади. Равишга хос синтактик позицияга хосланган дефинитив шакл (равишдош), сифатга хос синтактик позицияга хосланган дефинитив шакл (сифатдош), отга хос синтактик позицияга хосланган дефинитив шакл (отдош) каби.

Юқоридаги дефинитив шаклларнинг барчаси лексик маъноси нуқтаи назаридан феъл доирасидан чиқиб кетмайди. Умумий ҳаракат, ҳолат маъноларини ифодалайди. Демак, дефинитив шакллар умумий феъл сўз туркумининг финит шаклли феъллар қисмига зидланувчи бир кутбидир.

Грамматик маъно, яъни сўзнинг асосий лексик маъносига нутқ жараёнида ҳамроҳлик қилувчи маъно морфология ва синтаксис ўртасидаги муносабатни талқин қилиш билан боғлиқдир.

С.Н.Иванов таъкидлаганидек, морфология грамматик шаклларнинг оддий йиғиндиси, “индекси” бўлиши мумкин эмас, чунки грамматик шакл маънодан ажралган ҳолда мавжуд бўлмайди. Шу билан бирга, алоҳида шаклнинг маъноси грамматик категория доирасида бошқа алоҳида шаклнинг маъносига зидланганда аниқланади. Алоҳида грамматик шаклнинг маъноси ғоятда хилма-хил бўлиши мумкин. Бундай вақтда табиий равишда савол туғилади: бу маънолар қай даражада бир хилликка эга, улар бир-бири билан боғлиқми, агар боғлиқ бўлса, қандай боғлиқ, бу маънолар ўзаро қандай муносабатда, улар ўзаро боғлиқ маънолар системасини ташкил қиладими, ёки бир шаклда бир неча бошқа-бошқа маънолар мавжудми? Бу масалалар айти пайтда грамматик маънони талқин қилиш тамойиллари ҳақидаги масала ҳамдир⁴³.

С.Н.Ивановнинг фикрича, маънони оддийгина санаб бериш ҳеч нарсани тушунтириб бермайди. Эмпирик нуқтаи назардан ёндашганда, маълум бир шаклнинг муайян бир маъносининг узоқлиги зарурият эмас, балки гўё тилнинг “сеҳрлилиги”, сирли “нарса ўзида” бўлиб кўринади.

⁴³ Иванов С.Н. Родословное древо тюрок Абулгази-хана. – Ташкент, 1969. – С. 9.

Хусусан, у ёки бу келишик ёки замон шаклларининг маъноларини оддий санаш фан учун ҳеч нарса бермайди. Бундай эмпирик талқинга грамматик тавсифнинг тор “морфологизми”, ўзига хос “номинализм” ҳам яқинлашади. Яна шундай “ғовак” тавсифга –ган аффикси сифатдош грамматик маъносига ҳам эга қабилдаги ҳукмларни киритиш мумкин.

Тор морфологизмнинг яна бир кўриниши муайян бир шаклнинг “яқин” маъноси билан чегаралаб қўйишдир. Масалан, эгалик категориясини конкрет, реал эгалик маъноси орқали тушунтириш ана шундай ҳолатнинг кўриниши саналади.

С.Н.Иванов тўғри таъкидлаганидек, ҳар қандай тилнинг грамматик тузилишида тартибсизлик, тасодифийликнинг бўлиши мумкин эмас. Ҳар қандай тил системасининг ўз “рационалиги” мавжуд. Ана шу рационалликни очиш ҳар бир тадқиқотчининг вазифасига айланиши лозим. Демак, ҳар қандай илмий тушунчада, шу жумладан грамматик категория ёки алоҳида грамматик шакл ҳақидаги тушунчада узоқ ва тарқоқликда умумийликни, мураккабликда эса соддаликни кўра билиш керак⁴⁴.

Шундай қилиб, ҳар қандай кўп маъноли грамматик шаклнинг таркибидаги маънолар шу грамматик маъноларга хос ўзаро алоқа ва муносабатларда очилиши лозим. Системавийлик нуқтаи назаридан, ҳар бир ўрганилаётган объект бошқа объектлар билан муносабатда. Муносабатдан ташқари ҳеч нарса мавжуд эмас. Демак, ўрганилаётган объектнинг моҳияти унинг муносабатларида намоён бўлади. Шунинг учун ҳам структур лингвистика эмпирик лингвистикадан фарқли равишда, ҳар қандай лингвистик бирлик муносабатлар мажмуаси ёки муносабатларнинг келишув нуқтаси сифатида баҳоланади. Ҳар қандай грамматик тушунча ўзининг шакл, маъно ва вазифа бирлигига эга. Бу тушунчалар ўртасидаги муносабатни нарса, хосса ва муносабат диалектик категориялари асосида тушунтириш мумкин. Мавжуд нарсаларни субстанционал тушунувчи диалектик таълимот объектга маълум хоссалар ва муносабатлар йиғиндиси сифатида қарайди. Бу нуқтаи назардан ҳар қандай нарса ўзининг хоссаларисиз мавжуд бўлмайди. Нарсанинг хоссалари эса унинг муносабатларида ҳосил бўлмайди, балки муносабатлари орқали аниқланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили / Ш.Шоабдурахмонов, М.Асқарова, А.Ҳожиёв, И.Расулов, Х.Дониёров – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
2. Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. I том. Тошкент: Фан, 1975
3. Иванов С.Н. Родословное древо тюрк Абулгази-хана. – Ташкент, 1969.

⁴⁴ Иванов С.Н. Ўша асар, С. 10.

ТЕРМИНОЛОГИЯ ТИЗИМИДА ДУБЛЕТЛИК МУНОСАБАТИ ҲАҚИДА

И. Р. Эрматов, ГулДУ, (PhD) доктори

Сўзлараро лисоний муносабатларнинг зид маъноли бўлмаган гуруҳи шакл ва маъно номуносаблигига асосланади. Уларда шаклий бирликлар маъновий бирликларга нисбатан кўп бўлади.

Ушбу гуруҳ луғавий-мазмуний медиоқурилмаларни ҳосил қилувчи лексемаларнинг денотацияси муносабатига кўра, икки ички таггуруҳга бўлинади: 1) денотатив асоси умумий бўлган луғавий бирликлар ва уларнинг гуруҳи; 2) денотатив асоси ҳар хил, фарқлануви луғавий гуруҳлар ва уларнинг гуруҳи.

Денотатив асоси умумий бўлган луғавий бирликлар гуруҳи уч ички таггуруҳга ажралади: а) синонимлар; б) градуонимлар; в) дублетлар. Синонимлар ҳам, градуонимлар ҳам, дублетлар ҳам зид маъноли бўлмаган лексик бирликларнинг денотатив асоси бир хил ёки ўзаро яқин турига киради.

Лексик бирликлар луғавий маънонинг даражаси, услубий бўёғи, нутқнинг барча вазифавий услубларида бир хил қиймат касб этса, улар мутлақ маънодошлар сифатида алоҳида ажралади⁴⁵. Масалан, *тилишунослик* ва *лингвистика*, *асос* ва *ўзак*, *лузатишунослик* ва *лексикография*, *шакл* ва *форма*, *атама* ва *термин*, *мавзу* ва *тема*, *автор* ва *муаллиф*, *терминология* ва *атамашунослик*, *мимема* ва *тақлид сўз*, *пауза* ва *тўхтам*, *аффикс* ва *қўшимча*, *феъл нисбатлари* ва *феъл даражалари*, *морфемика* ва *сўз таркиби*, *ибора* ва *фразеологизм* ва бошқалар.

Синонимларнинг бу тури *дублетлар* деб аталади. Мутлақ маънодош муқобилларини бирлаштирувчи бундай синонимик қатор одатда икки аъзодан ташкил топади. Дублет (маънодош), яъни абсолют маънодош луғавий бирликлар: *префикс* ва *олдқўшимча*, *суффикс* ва *ортқўшимча*, *нисбат* ва *даража*, *гап* ва *жумла*, *сўз* ва *лексема*, *унлилар* ва *вокализмлар*, *ундошлар* ва *консонантизмлар* каби.

Терминология махсуслашган маъноли бирликлардан иборат алоҳида тизим сифатида тилнинг бошқа сатҳларидан фарқ қилади. Термин сифатида намоён бўлувчи сўзнинг алоҳида, махсус вазифаси аташдир⁴⁶. Аслини олганда, тилдаги бошқа бирликлар сингари сўз ёки бирикма шаклида бўлган терминлар ҳам тил луғат таркибининг ажралмас бирликлари саналади. Аммо

⁴⁵Бердиалиев А., Хидиров Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Хужанд: Раҳим Жалил, 2013. – Б. 17.

⁴⁶Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования и русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – М.: 1939. – С. 6.

тушунчаларни аниқ, қатъий чегаралаш жиҳатига кўра унда синонимлик, вариантлик ёки дублетликнинг бўлиши мақбул ҳолат ҳисобланмайди. Лекин терминологик тизимда ҳали-ҳануз синонимлик, дублетлик муаммолари мавжуд. Мазкур муаммолар даврий изчилликда янги терминларнинг қабул қилиниши ёки ўзлашма терминни тилнинг ички имкониятлари асосида миллийлаштириш натижасида юзага келади.

Мутлақ маънодошлик семантик ва вазифавий кўламда фарқ қилмайдиган бир хил луғавий birlikлардан иборат бўлади. Мутлақ маънодошлик парадигмасида бирлашувчи муқобил аъзолардан бири нутқда фаол ишлатилиб, бошқасининг истеъмолига монелик қилади, уни чеклайди. Истеъмоли чекланиб, инкор этилган луғавий birlik тил лексикасининг нофаол қатламидан жой олади. Натижада, даврлар ўтиши билан бундай луғавий birlikлардан таркиб топган парадигматик қатор унутилиб, барҳам топади. Ўзбек тилидаги тилшунослик терминларини даврий кетма-кетликда ўрганишдан шу маълум бўлдики, терминлар ўртасидаги синонимия икки даврга мансубликда юзага келган. Масалан, *қўшимча* термини тилнинг диахрон ҳолатида *ҳарф, олмош излари, ёпишиқ олмошлар, ишловчи, турлов белгилари, сунот белгилари, сунотлама, ўхшатқич, тугаллик, феъллама, дуркум турламалари, одот* тарзида, кейинроқ *префикс, аффикс, суффикс* деб ишлатилган. Ҳозирги кунга келиб эса, асосан, *қўшимча* ва *аффикс*⁴⁷ шаклида меъёрлашди, қолганлари эса тил луғат таркибидан четлашган. Шунингдек, бу луғавий birlikлар иштирокида ҳосил бўлган *суффикс – қўшимча, фонема – товуш, логик урғу – сўз урғуси, ўзак – асос, негиз – асосдош, турловчи суффикслар – сўз ўзгартувчи қўшимчалар, эгалик келишиги – қаратқич келишиги, инфинтив – феълнинг ноаниқ формаси, точка – нуқта, алфавит – алифбе, апостроф – тутуқ белгиси, улуш сон – тақсим сон* сингари вазифавий-мазмуний микрогуруҳлар (парадигмалар) ҳам луғавий-мазмуний медиоқурилмалар тизимидан узоклашган.

Мутлоқ маънодошлик қаторидаги қайси аъзонинг истеъмоли оммавий тус олиб, расмийлашиши ва қай бирининг пассивлашиб, унутилиши тил қарашли бўлган жамиятнинг ижтимоий-сиёсий тузуми ва унинг мафкураси билан боғланади. Масалан, шўролар даврининг 40-йилларида ўзбек тилида *скобка, кавичка, кўп точка, точка вергул*⁴⁸, *точка, суффикс, фонема, алфавит*⁴⁹ ва шу каби луғавий birlikлар фаол ишлатилган, уларнинг *қавс, қўштирноқ, кўп нуқта, нуқтали вергул, нуқта, қўшимча, товуш, алифбе* сингари муқобиллари истеъмоли чекланган эди. Кейинчалик эса, аксинча,

⁴⁷Маҳкамов Н., Ерматов И. Тилшунослик терминларининг изохли луғ'ати. – Т.: Fan, 2013. – 144 б.

⁴⁸Ғозиев Ҳ. Ўзбек тили грамматикаси. II бўлим. Синтаксис. – Т.: Ўқувпеддавнашр, 1941. – 196 б.

⁴⁹Усмон О., Авилов Б. Ўзбек тили грамматикаси дарслиги. I қисм. – Т., Ўқувпеддавнашр, 1941. – 256 б.

*қавс, қўштирноқ, кўп нуқта, нуқтали вергул, нуқта, қўшимча, товуш, алифбе*⁵⁰ каби муқобилларининг истеъмоли фаоллашиб ва оммалашиб, уларнинг ўтган асрнинг 40-йилларида фаол бўлган муқобиллари истеъмолига чек қўйилди. Лексик birlikларда бўлгани каби атамаларда ҳам мутлак маънодошлик ва унинг парадигмаси тилнинг ўткинчи ҳодисаларига кирар экан.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, синоним ва дублет характеридаги терминлар луғавий тизимнинг луғавий-мазмуний медиокурулмалари тавсифидаги кўринишларидан бири саналади. Бундай хусусиятга эга бўлган терминларнинг ифода ва мазмун жабҳаларида мувофиқлик, мутаносиблик бўлмайди.

Булар шакл ва мазмун номутаносиблигининг (асимметриясининг) парадигматик деб аталувчи турига мансуб бўлади. Бу ҳодисаларда шакл ва мазмун номутаносиблиги шаклий birlikлар микдорининг маъновий birlikлар микдорига нисбатан кўплигига асосланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.
2. Бердиалиев А., Хидиров Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Хужанд: Раҳим Жалил, 2013. 207 б.
3. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования и русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – М.: 1939. – С. 6.
4. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Т.: Fan, 2013. – 144 б.
5. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Вопросы терминологии. – М.: Изд. АН СССР, 1961. – С. 46-54.
6. Fitrat. O‘zbek tili qaydalar to‘g‘rusida bir ta‘criba, Birinci kitab. Sarf. Samarqand – Ta‘skent: O‘zdavnashr, 1930. – 42-b.
7. Fitrat. O‘zbek tili qaydalar to‘g‘rusida bir ta‘criba, Ikkinchi kitab. Nohv. Samarqand – Ta‘skent: O‘zdavnashr, 1930. – 38-b.
8. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Т.: Фан, 1975. – 612- б.
9. Ғозиев Ҳ. Ўзбек тили грамматикаси. II бўлим. Синтаксис. – Т.: Ўқувпеддавнашр, 1941. – 196-б.
10. Усмон О., Авизов Б. Ўзбек тили грамматикаси дарслиги. I қисм. – Т., Ўқувпеддавнашр, 1941. – 256-б.

⁵⁰ Fitrat. O‘zbek tili qaydalar to‘g‘rusida bir ta‘criba, Birinci kitab. Sarf. Samarqand – Ta‘skent: O‘zdavnashr, 1930. – 42 b. O‘zbek tili qaydalar to‘g‘rusida bir ta‘criba, Ikkinchi kitab. Nohv. Samarqand – Ta‘skent: O‘zdavnashr, 1930. – 38 b.

11. Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослик терминологиясининг ҳозирги аҳволи ҳақида / Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. I-Республика терминология конференцияси материаллари. – Т.: Фан, 1986. – Б. 7.

СЎЗНИНГ БЕЛГИЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ

М.Раҳимова, (PhD) доктори, Қўқон ДПИ

Лингвистика ўз тараққиётининг ҳозирги босқичида тилни система сифатида ўрганишдан уни антропоцентриқ усулда тадқиқ этишга ўтмоқда⁵¹. Энди тилга ёпиқ система сифатида эмас, балки шу системани зарурият қилиб қўйган сўзловчи, тингловчи, нутқ жараёни (дискурс), мазмунни етказиш ва қабул қилиб олиш воситалари каби экстралингвистик омилларга асосий эътибор берилган бошлади. Шу муносабат билан тилнинг белгилиги ҳақидаги қарашлар⁵² баҳоланди. Биз ушбу муаммо бўйича олиб борган кўп йиллик тадқиқотларимиз⁵³ юзасидан қуйидаги умумий қарашларимизни баён қиламиз:

семантик таҳлил асосида ўрганиш зарурлигини кўрсатса, иккинчи томондан ҳар бир миллат, халқ ҳаётидаги оламнинг лисоний манзараси, миллат лисоний тақомилидаги лингвомаданий хусусиятларнинг тил бирликларида акс этишини ўрганиш, тилларнинг бир-бирига таъсири ва фарқли жиҳатларини тадқиқ қилиш лисоний бирликларни назарий томондан тадқиқ қилиш заруриятини далолатлайди.

Шу маънода аксар қисми туркий тилларнинг ўз қатламига мансуб бўлган туб феълларни ҳар томонлама тадқиқ қилиш туркийшунослик, умумий тилшунослик олдида турган долзарб масалалардан биридир.

Қолмоқ/ қалыў/ galmak феъли умумтуркий асосга эга бўлиб, туркий тилларда маъносига кўра давомли ҳолат феъли луғавий-мавзувий гуруҳига киради. Шуни таъкидлаш керакки, феъл луғавий-мавзувий гуруҳлари таянч маъноси билан барча туркий тилларда бир хил гуруҳга бирлашса ҳам, хусусий маънолари билан алоҳида ЛМГ мансуб бўлади, шунингдек, баъзи семалар бошқа шакллар (феъллар) ёрдамида ҳосил қилинади. Бу ҳолни туркий тилларнинг қадимги даврлари, туркий диалектларнинг дифференциацияга учраган даврларидан буён алоҳида диалектларга хосланганлиги билан далиллаш мумкин. Мазкур жараён нафақат феъл сўз туркуми, балки от, сифат, равиш каби сўзлар семаларида ҳам учрайди. Ушбу жараён айниқса феъл семалари тараққиёти билан боғлиқ ҳолда ҳаракат, ҳолат, нутқ маъноларининг ҳар қайси тилда турли феъллар билан юзага чиқишига асос бўлди: соч олдирмоқ (ўзб.), шаш қийдырмақ (ққал.), saç surdurmak (турк.) каби.

Қадимги туркий тилда **qal (қол)** феълнинг 1) «қолмоқ (йўқ бўлмоқ)»; 2) «жойида, ўрнида қолмоқ»; 3) «вақт, масофа (макон ва замон) нуқтаи назаридан мавжуд, бор бўлиш ёки йўқ бўлиш»; 4) «бирор нарса, хусусият, ҳоссанинг ўзида сақланиши, қолиши»; 5) «ўйинда ютқазмоқ, бой бермоқ»; 6) кўмакчи феъл вазифасида келиб, турли хил маъно муносабатларини юзага чиқаради ва ҳ. [ДС, 1969: 448].

Замонавий туркий тилларда **қа:л** феъли қуйидаги умумтуркий маъноларга эга: 1) «бирор жойдан жилмаслик, қўзғалмаслик»; 2) «бирор ҳолатга тушмоқ»; 3) «мерос тариқасида қолмоқ», «ворисийлик»; 4) «орқада қолмоқ»; 5) «бирор ҳуқуқдан, нарсадан, хусусиятдан бенасиб бўлиш»; 6) «ўтказиб юбормоқ (иш, ўқиш)»; 7) «тўхтаб, тиниб, тугаб қолмоқ»; 8) «ўйинда ютқазмоқ»; 9) «бошқа муддатга қолдирилмоқ»; 10) «тиқилиб қолмоқ (суяк ҳақида)»; 11) «эскирмоқ (кийим ҳақида)»; 12) «ҳалок бўлмоқ», «ўлмоқ» [ЭСТЯ, 1997: 224]. Ушбу маънолар туркий тилларнинг барчаси учун хос эмас, балки ҳар бир туркий тилда алоҳида маъноларга эга.

Туркий тилларда *қолмоқ/ қалыў/ galmak* феъли мустақил феъл, кўмакчи феъл вазифаларида, шунингдек, кўмакчи феълли бирикмалар таркибида келиб, турли хил маъно қирраларини намоён қилади. Шу билан бирга турғун боғланмалар таркибида келиб, ўзига хос маъно муносабатларни ҳосил қилади. Изоҳли луғатларда кўрсатилишича, ўзбек тилида *қолмоқ* феъли 16 хил, қорақалпоқ тилида *қалыў* феъли 4 хил сема эга (аммо мазкур феъл семалари қорақалпоқ тилининг изоҳли луғатида тўлиқ камраб олинмаган, бизнингча), туркман тилида *galmak* феъли омонимик муносабат ҳосил қилиб, икки хил шакл орқали жами 18 та маъноларни ифодалайди. Туркман тилида туркий тилларнинг диалектик гуруҳлари орасидаги, аниқроғи, ўғуз гуруҳи тилларидаги умумтуркий жарангсиз ундошларнинг сўз бошида жаранглилашуви сифатида $m < d$ га ўтган.

Қуйида *қолмоқ/ қалыў/ galmak* феълининг туркий тиллардаги семаларининг ўхшаш ва фарқли жиҳатларини таҳлилга тортамыз.

Ўзбек тилида *қолмоқ* феълининг қуйидаги семалари мавжуд: 1) «бошқа жойга кетмай, бормай, жилмай, қўзғалмай, ўз жойида бўлмоқ», «жойини тарк этмаслик» семаларини ифодалайди (*уйида қолмоқ, кутубхонада қолди*); 2) «бор, мавжуд ҳолатда бўлмоқ; бор (инкор шаклида йўқ ҳолатни, йўқ эканликни билдиради)» тарзида изоҳланади (Ёнимда юз сўм қолди. Уйда кўк чой қолмабди); 3) «бирор ҳолат, вазият, макон (жой) ва ш.к.да мавжуд бўлмоқ» маъносини ифодаловчи бирикмаларни ҳосил қилади (ёлғиз қолмоқ; жим қолмоқ; виждон азобида қолмоқ; оч қолмоқ; иш чала қолди; қуршовда қолмоқ) [ЎТИЛ, 2008: 326].

Қорақалпоқ тилининг изоҳли луғатида *қалыў* феълининг маънолари қуйидагича изоҳланади: 1) кўчма маъноли (аўыс.) белгиси билан «қатнашмаслик, бормаслик» (*Бүгин Жумагүл оқыўдан қалды*); 2) «ўйинда ютқизмоқ», «енгилмоқ» (*Жуўырыспада Марат қалды*) [ҚТТС, 1988: 112].

Туркман тилида *galmak* феълининг қуйидаги семалари мавжуд: 1) «бир жойдан иккинчи жойга кетмай қолиш ёки олиб кетилмаслик, олдинги жойида қолиш» (*Arwananyň ýüki galmaz, Ýola girseň ner biläni*); 2) «сарflanган, ишлатилган бутундан маълум бир қисми қолиши» (*100 müň manatdan 50 müň manat galdy*); 3) «мусобақада охирида келмоқ», «иш-фаолиятта ва ш.к.ларда орқада қолмоқ, қолақ бўлиш» (*Atlaryň hemmesi birinji aýlawda gyr atdan galdy*) [ТДДС, 2015: 356].

Шунингдек, *қол*= феъли туркий тилларда кўмакчи феълли сўз кўшилмалари ва иборалар таркибида келиб, турли хил маъно муносабатини юзага келтиради.

Умуман, феълларни қиёсий-тарихий усулда ўрганиш туркийшунослик, хусусан, ўзбек тилшунослиги учун катта материал беради. Туркий тиллар

тарихий тараққийетида юзага келган феъл семантикасидаги маъно торайиши, маъно кенгайиши, эскириш-янгилиниш каби жараёнларга аниқлик киритади.

Адабиётлар

1. ДС – Древнетюркский словарь. -Ленинград: «Наука», 1969. С.475.
2. ЭСТЯ – Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские лексические основы на буквы К, Қ). М.: «Языки русской культуры», 1997. С.224.
3. ЎТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, V жилд. -Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008, Б.362.
4. ҚТТС – Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 4 томлык, III том. - Нукус: «Қарақалпақстан», 1988. ББ.97-98.
5. ТДДС – Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi. Iki tomluk. I tom. – Aşgabat: Ýlym, 2016 ý. –486-493 s.

ХОРАЗМ ШЕВАЛАРИ ЛЕКСИКАСИДА ЎЗЛАШМА ҚАТЛАМ БОСҚИЧЛАРИ

Норбаева Ш., PhD, Урганч ДУ доценти

Хоразм шевалари лексик фондини луғавий қатламлар нуқтаи назаридан таҳлил қилиш жараёнида масала бир қадар мураккаблиги боис уни дастлаб икки катта гуруҳга ажратиш маъкул кўрилади: I. Ўз қатлам. II. Ўз қатламдан ташқари қатлам.

Ўз қатламдан ташқари қатлам ўз навбатида бир неча босқични ташкил қилиши кўзга ташланади. 1. Субстрат луғавий бирликлар. 2. Қадимги туркий тилда мавжуд ўзлашмалар. 3. Эроний тиллардан ўзлашмалар. 4. Араб тилидан ўзлашмалар. 5. Бошқа хорижий Шарқ тилларидан ўзлашмалар. 6. Рус тили орқали ўзлашмалар.

Мазкур таснифга асосланиб, ушбу мақола субстрат луғавий бирликлар, қадимги тилда мавжуд ўзлашмалар ҳамда рус тили орқали ўзлашмаларнинг дастлабки даври ҳақида қисқача тўхталамиз.

Субстрат лексикани белгилашда “таянч нуқта” вазифасини бажарувчи атоқли отлар тизимини эътиборга олмаганда, хоразмийдан “мерос” сўзлар кўлами Хоразм шеваларида деҳқончилик: *далдарга* (бўғот) , *таләк, дәрс* (гўнг); суғориш тизими: *раш, йап*; фитонимлар: *исвәнт, адрасман, гавуш, замча, гашир, кәды*; кийим-кечак номлари тизими: *ла:с, нах, паравъз, пешкъл, ро:пак, гудәри* (пўстиннинг бир тури), *сәвсәни* (чопоннинг бир тури); ипакчилик: *да:* (ипак қуртининг пилла ўрашидан олдинги ўн кунлик уйқуси), *пәриш* (ипак қурти ўраётган пилланинг дастлабки ҳолати), *навхан // ноқан* (ипак қурти); маиший лексика: *мина* (вешалка), *тирвәнт* (илгич), *дийр*

(тегирмон тоши), *комәк* (хашар); маърифий-маданий лексика: *ахун* (охунд), *сәдри гусфәнт* (қўй номи, шўъбалардан бири), *дуга:* , *сега:* (мақомлар номи); касб-ҳунар лексикаси. *зәвәрда* (бурувнинг тури); *дукан* (иш столи), *зерәнда* (ранданинг тури); этнографик лексика: *пәчиш* (қадимий ўйин тури), *пәчаз* (пачиздаги ҳолат), *си* (пачизда уч билан боғлиқ вазият), *апчын* (мурдани ювадиган латта); дарёбўйи турмуш тарзи билан боғлиқ лексика: *лабыр*, *дарға*, *баржа*; ижтимоий-сиёсий лексика: *кәхуда*, *кәйвәны* ва бошқалар соҳаларга оид сўзларда яққолроқ кўзга ташланади.

Масала кўлами ҳамда субстрат бирликларни белгилаш тамойилларини тасаввур қилишимиз учун “куч-қувват” маъносидаги *бād* сўзини олайлик. *Бād* “шамол” маъносида пахлавийда *vāt* шаклига эга бўлган. “Авесто”да *vāta* бўлган бу сўз турдош от сифатида “шамол”, атоқли от сифатида шамол тангриси номини ифодалаган⁵⁸. Абу Райҳон Беруний “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” асарида эронийларнинг ой ва кун номлари рўйхатида “бод”; сўғдлар ва хоразмликлар ой ва кун номлари рўйхатида “воз” шаклида қайд этади⁵⁹. Осетин тилидаги “руҳ”, “жон” маъноларидаги *ūd // od* сўзлари таҳлилида В.Абаев унинг илдизлари қадимги эроний *wād* – “шамол”га тақалишини таъкидлайди. Олим шамол, ел; жон; куч-қувват тушунчалари ўртасида мантиқий боғлиқлик борлигини *wāt* – “жон” ва *w'tθ'r* – “мавжудот”; арабча *нәфс* – “жон” ва *нәфәс* – “нафас”; парфиян тилида *wād* – “жон”, “руҳ” сўзларини қиёслаш, шунингдек, лотинча *animus* (жон) юнонча *ἀνεμος* (шамол)га алоқадорлиги каби кўплаб мисоллар билан асослайди⁶⁰. *Бод* сўзининг хоразмий тилида *воз* (хоразмий тили фонетик тизимига кўра “з” интердентал) ишлатилганини эътиборга олсак, Хоразм шеваларида *бад* (Хоразм-қипчоқ лаҳжасида *пат*) сўзи ўзлашма эмас, субстрат элемент экани ойдинлашади. Бу сўз Хоразм шеваларида қуйидаги маъно қирраларига эгаки, улар В.Абаевнинг қайд этилган фикрлари асосли эканини кўрсатади: 1) куч, зарб. *Бад* билән урды – кучли зарб билан урди; 2) тез, елиб. *Бад билән галды* – тез, елиб келди. Шунингдек, *бадлы // патлы* сўзи қипчоқ лаҳжасига мансуб шеваларда “кучли”, “бақувват”, кўчма маънода “бой”, “ўзига тўқ” мазмунларида ишлатилади.

Юқорида қайд этилган фикрлардан хоразмий тилига оид деб ҳисобланадиган сўзларнинг эроний тилларда ҳам учрашини бу тилларнинг бир оилага мансублиги билан изоҳлаш кераклиги, Хоразм шеваларидаги форс-тожикча сўзлар қатлами бирикмаси ўрнида хоразмий элементлар

⁵⁸ Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи. (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида): Филол. фанл.номз. дисс. автореф. –Тошкент, 2006. – Б. 13.

⁵⁹ Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Араб тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 273.

⁶⁰ Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Том IV. – Л.: Наука, 1989. – С. 6-7.

бирикмасини ишлатиш кўпроқ тўғри бўлиши, ўзбек тили, хусусан, Хоразм шеваларидаги хоразмий қатламга оид сўзларни аниқлаш учун, биринчи навбатда, бу заминда яратилган қадимги ёзма ёдгорликлар тилини, қолаверса, Ўзбекистон худудидаги ўзбек шевалари таркибидаги форс-тожикча сўзларни ўзаро қиёсий ўрганиш зарурлиги, субстрат қатламга алоқадор деб ҳисобланадиган сўзларни эроний тиллар грамматикаси, улар бўйича тузилган луғатлар ёрдамида типологик қиёслаш асосида тадқиқ қилиш бу масалага кўпгина ойдинликлар киритиши мумкинлиги, шунингдек, тилшунослик фанида кам ўрганилган бу долзарб мавзуни ҳар томонлама тадқиқ этишга киришишни ёш тадқиқотчилар олдида турган муҳим вазифадир, деган хулосалар чиқариш мумкин.

Қадимги туркий тилда мавжуд ўзлашмалар мисолида *балта* (ад. орф. *Болта*) сўзини кўришимиз мумкин. Тадқиқотларда таъкидланишича, *baltu* // *balta* (русча топор, секира) 1-мингйилликнинг 2-ярмидан *baltu* шаклида⁶¹, шунингдек, булғор тилининг айрим шеваларида *balta* шаклида қўлланган. XI асрдан *baldu* шаклида қўллангани аниқланган. Замоनावий тилларда сўнги товуши *a* шаклини олгани кенг тарқалган. Сўнги товуши *u* шаклиси уйғур тилида ҳамон сақланиб қолган ва кенг истеъмолда. Сўзнинг қадимийлигини венгер тилидаги *balta* // *bolta* (русча *топор*) тасдиқлайди. Мазкур сўзнинг тарихий этимологик тавсифи анча мунозарали. Жумладан, В.И.Абаев ушбу сўзни туркий тилларидаги эроний ўзлашмалар қаторида кўради⁶². Лекин кўрилаётган сўзнинг умумэроний шакли, ўзаги *parasu*, тахмин қилинаётган қадимги эроний шакли *palasu* (осетинча *farset*, тохорча *peret* (*porat*), финугор шакллари тохар-чувашда *porte*)дир. Туркий *baltu* эроний *palatu*-нинг сўнги ундоши ривожланиши ва инлаут (-l)нинг сақланиб қолишидан юзага келганлиги эҳтимоли кучли. Бу ҳолда бу сўз ҳинд-европа тиллари билан боғлиқ ҳолда шаклланганлиги англашилса-да, хануз бу борада аниқ манба мавжуд эмас. Ҳинд-европа тилларидаги *peleku* – ойболта, табар (секира, топор)нинг манбаси семит тилларидир. Г.Рамстедт таъкидича, *Balag*, *balya* аслида ойболта шаклидаги узун (энли) пичоқдир. Бу сўз санскритда *parasu*, *parsu*, оссурийда *pilaqqu*, шумер тилида *balaq* (болта), юнончада *pelexoc* тарзида қўлланади. Бу юқоридаги фикрнинг далили бўла олади. Унинг фикрини маълум даражада давом эттирган К.Менгес *balqa* турли тарихий даврларда турли шаклларга эга бўлган ва анлаутда ўз ўрнини умумтуркий *balta* шаклида кўрсатди, дейди. Унинг квалификацияси бўйича, *болта* сўзи *balag* (шумер) ва *pilaqqu* (оссур-вавилон.), юнонча *pelexoc*, санскритда *parasuh*, *parsuh* (болта) ўзагига боғланади. Сибирь туркий тилларида бу

⁶¹ Древнетюркский словарь. – М.-Л., 1969. – С. 81.

⁶² Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. (А-К) – М.-Л., 1958. – С. 451.

бошқа антик месопотамия сўзи билан ифодаланади (*balta, balta* – болта (топор)). Г.Рамстедт ва К.Менгес фикрига яқин ҳолда М.Ресенен *balkани*, мўғулча *aluqa* (молот)ни умумтуркий *balta* (топор)ни *baska*– катта болға (большой молот) билан таққослайди. Бу каби ишлар Г.Дёрфер, Н.Поппе ишларида ҳам мавжуд. Бу рўйхатга Б.Коллиндер ишини ҳам қўшиш мумкин. У фин тилидаги *petkel, petkele* – катта бўлмаган лопата – мотиға, морд. *petkel, petkol* – ўғир дастачаси, янги форс тилидаги *putk* (молоток), шугнончадаги *pulk* ва туркий *болгаларни* таққослайди ҳамда булар бир умумий ўзак *balдан* ҳосил бўлганлигини таъкидлайди⁶³. Ушбу келтирилган барча сўзларни (*balta* – топор, секира каби) тўлиқ изоҳлаш зарур бўлади. Чунки *bal* ўзакли бу каби сўзлар чуқур таҳлилга муҳтож.

Рус тили орқали ўзлашмаларнинг ўзи бир неча тарихий жараёни ташкил қилади. Шулардан бири рус босқини арафаси бўлиб, бунинг яққол мисолини Муҳаммад Ризо Огаҳий тарихий асарларида кўраимиз. Уларда тилимизга кириб келган русча ўзлашмаларнинг илк шакллари учрайди. Масалан, *болюз* – полиция; *закун* – қонун; *имперотўр* – император ва ҳаказо: “Бу ҳолдин ўрус *болюзи* ва инглиз *болюзи* хабар топиб, иттифоқ била Шукруллоҳ оқанинг олдиға киши йибориб дедиларким: “Бизларнинг *закунимизда* ҳеч кишини зарарда қўймоқ раво эрмастур...” (“Гулшани давлат”, Абу Райҳон Беруний номли Шарқшунослик институти асосий фонди, №.7572. 253^а) Бу сўзлар ҳали ўқувчиларга яхши таниш бўлмагани учун Огаҳийнинг ўзи уларга изоҳ бериб ўтади: “Маълум бўлсунким, “болюз” деб ҳар мамлакат подшоҳининг тужжор ва ўзга мусофирнинг аҳволидин хабардор бўлмоқ учун учан чиқатурған ёқишларда таъйин этиб қўйған кишини айтурлар.” (“Гулшани давлат”, Абу Райҳон Беруний номли Шарқшунослик институти асосий фонди, №.7572. 253^б); “Ва Ўрус подшоҳининг отиғаким, насоро луғатида “императўр” дерлар...” (“Гулшани давлат”, Абу Райҳон Беруний номли Шарқшунослик институти асосий фонди, №.7572. 109^б)

Албатта, тил тарихи халқ тарихи инъикоси саналар экан, ундаги ҳар бир луғавий бирлик халқ тарихининг қайсидир нуқтасини ўзида акс эттириши билан муҳимдир. Хусусан, ўзлашмалар ҳам асл манбадан қатъи назар ўзи кириб келган тил мулки сифатида унинг соҳиблари томонидан чуқур тадқиқ қилиниши зарур.

⁶³ Шервашидзе И. Н. Фрагмент общетюркской лексики. Заимствованный фонд // Вопросы языкознания. 1989. №2 – С.85.

ЎЗБЕК ТИЛИДА "ШАХС ТИЛИ" ТУШУНЧАСИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Д.О Ҳасанова, Қўқон ДПИ доценти

“Шахс тили” тушунчаси фанга Н.Караулов томонидан киритилган бўлиб, у қуйидаги қобилиятларга эга бўлган шахсга тегишли эканлигини таъкидлайди: тил тизими мураккаблиги даражаси, ҳақиқатни акс эттиришнинг чуқурлиги ва аниқлиги, муайян мақсадли йўналишли матнларни яратувчи шахс. Унинг фикрича, шахс тили учта тизимли даражага эга. Биринчи даража оғзаки ва семантик бўлиб, кундалик тилни билиш даражасини акс эттиради. Иккинчи даража унинг билими, яъни бу даража инсон дунёсининг тил моделини, унинг маданиятини акс эттиради ва учинчи, энг юқори даражаси – бу прагматик салоҳияти. Бу тил шахснинг ривожланишига олиб келадиган мотивлар ва мақсадларни аниқлаш ва тавсифлашни ўз ичига олади⁶⁴.

Бу иборанинг ишлатиш асосига эътибор берсак, у XX асрнинг 30-йилларида пайдо бўлиб, Й.Л. Вайсгербер ва В.В. Виноградовларнинг илмий ишларида ҳам учрайди.

Й.Л. Вайсгербер «Родной язык и формирование духа» (1927) асарида “... тил умуммаданий бойлик бўлиб, ҳеч ким бирор бир тилни фақат ўзининг шахсий тили сифатида гапирмайди, аксинча тил жамоатчилик асосида ўсади”, - деб ёзади. Шу жумладан, В.В. Виноградов ҳам ўз асарларида “шахс тили” иборасидан бир неча марта фойдаланса ҳам, унинг моҳиятини очиб бермаган. “Шахс тили” иборасини тушуниш фақат ярим асрдан кейин пайдо бўлиб, ҳозирги кунда термин мақомини олган. XX асрнинг 80-йилларидагина унинг бир қатор таърифлари пайдо бўлди.

1980 йилда Г.И. Богин «Современная лингводидактика» (“Замонавий лингводидактика”) китобида биринчи бўлиб шундай таъриф берди: “Лингводидактиканинг асосий тушунчаси – бу шахс тили бўлиб, тилшунослик нуқтаи назаридан шахснинг нутқий ҳаракатлар қилиши, шахс тили – бу кимнингдир нутқи бўлиб, тилни ассимиляция қилишидир”⁶⁵.

Шахс тилининг белгилари:

1. Шахс тили ривожланишини аниқлайдиган хусусиятлар: ташқи (яшаш жойи, умумий ижтимоий вазияти, оила, мулоқот доираси, оммавий ахборот

⁶⁴https://studopedia.ru/19_53843_tipi-yazikovih-lichnostey

⁶⁵ Иванцова Е.В. Отермине «языковая личность»: истоки, проблемы, перспективы использования // <https://cyberleninka.ru>

воситалари, оммавий маданият) ва ички (жинс, ёш, темперамент ва бошқа психологик хусусиятлар – доминантлик, ҳаракатчанлик ва ҳ.к.)

2. Шахс тилининг коммуникатив эҳтиёжлари. Шахс тилининг лингвистик компетенциялари (ваколатлари): адабий, саводли нутқ меъёрларига риоя қилиш, фонетик хусусиятлар (оғзаки аниқлик, интонация хусусиятлари, нутқ тезлиги ва баландлиги, орфоэпик меъёрларга мувофиқлиги); лексик хусусиятлар (фаол ва пассив луғатнинг бойлиги ва хилма-хиллиги, сўзлардан фойдаланишнинг тўғрилиги, стилистик аҳамиятлилик, оғзаки ифода воситаларидан фойдаланиш), грамматик хусусиятлар (ишлатиладиган синтактик тузилмаларнинг хилма-хиллиги, уларни қуриш ва грамматик шакллардан фойдаланишнинг тўғрилиги).

3. Шахс тилининг тил ва нутқ рефлексии (унинг ривожланиш даражаси ва намоён бўлиш усуллари). Шахс тилининг тил таъми (В.Г.Костомаров).

4. Шахс тилининг нутқида умумий тил, гуруҳ ва индивидуалликнинг нисбати (шахс тилининг семантик ва сўз шаклларининг янгидан ясалиши, унинг лингвистик ижодкорлиги ва ҳ.к.).

Шахс тилининг миллий лингвистик-маданий ҳамжамиятга, профессионал, ижтимоий, ҳудудий ёки бошқа чекланган нутқ сўзловчиларига тегишли эканлигини англаш, ўз нутқининг ўзига хослигини ҳис қилишдир. Нутқ ижодкорлиги, адабий ижод, нутқ импровизациясига тайёр бўлиш истаги⁶⁶.

Инсоннинг ақлий ҳолати турли хил бўлиб, ўз навбатида, у ҳис-туйғулар орқали ифодаланади. Ҳар бир индивиднинг психикаси ўзига хос мураккаблиги туфайли, тил, онг ва фикрлаш, ҳис-туйғулар хусусиятларини ўрганиш қийин бўлиб, тилшуносликда бу борада аниқ бир тўхтам, классификация йўқ.

Хулоса қилиб айтганда, шахс-мураккаб яратик. Унинг социал белгилари ижтимоий келиб чиқиши, ёши, маълумоти, миллати, жинси билан бевосита ва билвосита алоқада.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
2. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. -М., 1989.
3. Кассирер Э. Опыт о человеке. – М., 1998. – С.571.
4. Коробов В.К. Теоретико-методологические основы стереотипов образа жизни // Образ жизни в условиях перестройки. – М., 1992.

⁶⁶https://studopedia.su › 19_53843_tipi-yazikovih-lichnostey

5. Расулов Р. Нарзиева М. Лексикологияни ўрганиш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
6. Красных, В.В. Когнитивная база vs культурное пространство в аспекте изучения языковой личности (к вопросу о русской концептосфере) / В.В. Красных // Язык, сознание, коммуникация. – М., 1997. – Вып. 1. – С. 128–144.
7. Локк Дж. Опыт о человеческом разуме [Электронная версия] // Избранные философские произведения в двух томах. Т. I. – М., 1960. – С. 153-162 / пер. с англ. А.Н. Савина. – Режим доступа: publ.lib.ru/Archives/.../LOKK_Djon/_Lokk_Dj..html.
8. Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика: Пособие для студентов гуманитарных вузов и учащихся лицеев. — 2-е изд., испр. — М.: Аспект Пресс, 2000. – 58 с.

“ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ МИЛЛИЙ КОРПУС”НИ ЯРАТИШНИНГ ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНИ ХУСУСИДА

Тоирова Гули Ибрагимовна, БухДУ (PhD) доктори, доцент

Компьютер технологиялари воситасида ахборотни қайта ишлаш, машина таржимаси, электрон луғатшуносликни ривожлантириш, тезауруслар тузиш, тил корпусини яратиш ишларини дунё лингвистикаси цивилизациясига эришган тиллар аллақачон амалга оширди. Инглиз, рус, араб, француз, немис, испан, тожик каби тиллар шулар жумласидандир. Мазкур тилларда интернет тизимида тил корпусини яратиш масаласининг илмий-назарий жиҳатлари ҳам ишлаб чиқилганки, бу ўзбек тилини ҳам интернет “тушунадиган” тилга айлантириш (яъни тил корпусини яратиш) саъй-ҳаракатларини жадаллаштириш заруратини кун тартибига қўймоқда.

Бу борада тилшунос олимлар тилни ва у билан боғлиқ бўлган ҳамда илгари маълум бўлмаган соҳаларни ўрганишда жуда муҳим тадқиқот имкониятига эга бўлдилар [2,3,7,11,12]. Чунончи, “WordNet компьютер лексикографиясида эришилган инновацион ютуқлардан биридир. Чунки унга илова этилган сўзликлар машина ўқиши учун мумкин бўлган ҳолатга мослаштирилган. Одатий луғатларда киритилган сўзликларнинг талаффузи, грамматик шаклланиши, ясалиши, этимологияси, изоҳи ҳамда синоним, антоним каби яна бир нечта лингвистик хусусиятлар сингдирилади” [1].

Илк корпуслар компьютер технологияларисиз ҳам мавжуд бўлган ва изланишлар олиб борилган. Кейинчалик фан ривожини қидирув методи(конкорданс)ни электрон форматдаги матнларда ўтказишни тақозо этди ва компьютер лингвистикаси билан соҳалараро муносабатга эҳтиёж туғилди” [3]. Корпус учун қуйидагилар муҳим омил саналади: тўпланган

материалларни, албатта, машина сақловчиларига (компьютерларга) жойлаштириш; электрон қидирувга (морфологик, синтактик қидирувлар) имкон берадиган ўзига хос белги; якуний ўлчов бирлигига эга ва репрезентативлик (тилдаги кўплаб жанрларнинг асл ҳолида тўлиқ акс этиш).

Корпус яратишнинг технологик жараёни тўғрисида В. В. Рыков қуйидаги асосий талабларни санаб ўтади: “Корпус фойдаланувчиси (якка шахс, гуруҳ, лингвистик жамият); корпус кўзлаган мантикий мақсад; корпус тузишда ишланадиган маълумотлар базаси ҳажми ҳамда бунинг реал, зарурлик даражаси; мантидан фойдаланиш усули (парча, тўлиқ кўриниш ёки ҳар иккиси)” [9]. Муаллифлик корпусини яратиш бўйича Ш.Ҳамроева корпус яратишнинг технологик жараёни тўғрисида қуйидаги таклифни беради: “Тил материални тадқиқ этиш; матнни сканерлаш; тўлиқ шакллантириш, корпусни тузиш” [12]. Корпус яратишнинг технологик жараёни хусусида, чунончи, “Рус тили миллий корпуси” матнлари устида иш олиб борган олим С.О.Савчук қуйидаги жараёнга ажратади: “Матнларни қайта киритиш; электрон шаклда мавжуд матнлардан фойдаланиш; босма матнни сканерлаш (лекин бунда кўплаб хатони тузитиш керак бўлади)” [10].

Бизнингча, “Ўзбек тилининг миллий корпус”ни яратишнинг технологик жараёни қуйидаги босқичлар ёки қадамлар шаклида намойиш этилиши мумкин:

- 1) манбалар рўйхатини аниқлаш;
- 2) матнларни рақамлаштириш (компьютер шаклига ўтказиш).

Мутахассислар С.Ф.Мейер ва И.А. Мельчук [4,5]ларнинг технологик жараён босқичларини қўллаб-қувватлаган ҳолда қуйида “Ўзбек тили миллий корпуси”нинг технологик босқичларни таклиф этамиз:

1.Матнни олдиндан қайта ишлаш босқичи. Ушбу босқичда турли манбалардан олинган барча матнлар имловий тузатилади ва таҳрир қилинади. Шунингдек, матннинг библиографик ва экстралингвистик тавсифи тайёрланади.

2.Матнни белгилаш босқичи. Корпус матнларига хос маълумот элементларини: библиографик маълумотлар, матннинг жанри ва услуб хусусиятларини тавсифловчи белгилар, муаллиф ҳақидаги маълумотлар қўлда киритилади. Параграфлар, жумлалар, сўзларни танлаш каби ҳақиқий лингвистик белгилар одатда автоматик равишда амалга оширилади.

3.Кейинги босқичда автоматик маркировка натижаларини тўғирлаш амалга оширилади: хатоларни тузатиш ва ажратиш (қўлда ёки ярим автоматик).

4. *Якуний босқич* - тегли матнларни тез кўп қиррали қидириш ва статистик ишлов беришни таъминлайдиган ихтисослаштирилган лингвистик маълумот олиш тизимининг таркибига ўзгартириш (корпус менежери).

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, миллий корпус технологик жараёни кўйидагилардан иборатдир: танланган матнлар асосида лексема ва сўз шакллариининг такрорланиши луғатини яратиш; олинган такрорланиш луғатининг ҳар қандай бирлиги учун матнни кўриб чиқиш; графикли сўзни бўғинга ажратиш ва бўғинларнинг такрорланиш луғатини тузиш; сўз захираларини саралаш; бир вақтнинг ўзида чекланмаган файлларни қайта ишлаш; ташқи белгиларга эга бўлган матнлар корпусларини яратиш; яратиладиган матнлар корпуслари ҳамда корпусга кирувчи алоҳида матнлар учун статистик маълумотларни ҳисоблаб чиқиш; дастлабки матнлар билан txt, doc и rtf форматда ишлаш, кодлаштиришни автоматик тарзда белгилаш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдурахмонова Н.З., Ҳайдаров М.Р. Ўзбек тилида WORDNET яратиш масалаларига доир // Ўзбекистонда хорижий тиллар (электрон илмий-методик журнал). № 4 (27) / 2019, –Б.19-28 <https://journal.fledu.uz/uz/issue/4-27-2019>

2. Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дис. афтореф. – Фарона, 2019.

3. Атабоев Н.Б. Корпус лингвистикасининг асосий хусусиятлари. // Ўзбекистонда хорижий тиллар (электрон илмий-методик журнал). № 2 (25) / 2019, –Б. 37-45. <https://journal.fledu.uz/uz/issue/2-25-2019/>

4. Мельчук И.А. Порядок слов при автоматическом синтезе русского слова (предварительные сообщения) / Научно-техническая информация. 1985, № 12. – С.12-36.

5. Meyer C.F. English Corpus Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – URL:// <https://pdfs.semanticscholar.org/c775/4bfab1d0f770e26c0fc7c603e8cf38793be8.pdf>

6. Поляков А. Е. Технология подготовки информации в Национальном корпусе русского языка Текст. / А.Е. Поляков // Национальный корпус русского языка: 2003-2005. Результаты и перспективы. М., 2005. - С. 192

7. Toirova G. Importance of Interface in Creating Corpus. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019

8. Toirova G. The Role Of Setting In Linguistic Modeling. International Multilingual Journal of Science and Technology. ISSN: 2528-9810 Vol. 4 Issue 9, September – 2019, -P.722-723

9. Рыков В.В. Курс лекций по корпусной лингвистике. URL: <http://rykov-cl.narod.ru/c.html>.

10. Савчук С.О. Корпус современной русской прессы: из опыта создания и использования // Труды Международной конференции «Корпусная лингвистика — 2011». СПб: Санкт-Петербургский государственный университет, 2011. С. 149–154

11. Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дис. афтореф. – Қарши, 2019.

12. Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дис. афтореф. – Қарши, 2018, –Б.45

Одатда, ҳар бир ота-она фарзандига эзгу ниятлар билан исм қўяди. Шу боис ҳар қандай исм ижобий орзу-ниятлар, мақсадлар маҳсулидир, бироқ бадий асарларда салбий маъноли исмлар ҳам учрайдики, улар услубий вазифа бажаради. Бадий тимсолларга характер-хусусияти, асарнинг мавзуси ва ғоясига мувофиқ исм, фамилия, лақаб танлайдилар. Бу анъана қадимий бўлиб, халқ оғзаки ижоди намуналарида ҳам ёрқин кузатилади. *Ултонтоз* исми ҳам ана шундай поэтонимлар гуруҳига мансубдир.

Ултонтоз – “Алпомиш” достонидаги салбий тимсоллардан бири, Алпомишнинг ўғай укаси: *Бойбўрининг Бодом чўридан бўлган Ултонтоз деган ўғли бор эди.* (1.277-б.)

Ултонтоз ултон ва *тоз* апеллятивларидан таркиб топган, тузилишига кўра қўшма антропоним. Исмнинг маъноси ҳам унга луғавий асос бўлган ана шу сўзларнинг маъно-мундарижасига асосланади.

“Ултон“ сўзи қадимий туркий сўз. Ҳозирда бу сўз шеваларда кузатилади. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да “ултон” сўзига шундай изоҳ берилди: “*қорамол терисидан тайёрланган, пишиқ, қалин чарм, тагчарм*”. *Асов от бизни судраб кетарди. Ерга тиралаверганимиздан этигимизнинг ултони тарс-тарс айрилиб кетарди.* С.Муродбеков, Ёвshan иси.⁶⁷

Халқимизда “*Нафсини тийган киши султон бўлур, Хом терини ийласанг, ултон бўлур*”, деган мақол ҳам бор.

Бизнингча, *ултон* сўзи асл маъносидан ташқари, “*тубан, пасткаш*” кўчма маъноларига ҳам эга. Антропонимга сўзнинг ана шу кўчма маъноси луғавий асос бўлган.

Тоз сўзи эса куйидаги маъноларни англатади: 1. Бошнинг сочсиз тақир ёки кал ери. 2. Шундай бош ва шундай бошли одам.⁶⁸

Тилимизда “*Тоз тарангунча, тўй тарқалар*”, “*Бошим – тоз, кўнглим – ноз*”, “*Танлаганим – тоз, Тоз қилади ноз*” каби *тоз* таркибли мақоллар ҳам мажуд. Мазкур мазмунан уйғун вариантли мақолларни ўзининг катта айби, нуқсонли бўлатуриб, бировнинг арзимаган нуқсонидан кулувчи, масхара қилувчи, менсимовчи такаббур одамларга нисбатан қўллайдилар.⁶⁹

Ултонтоз “*ёмонотлиқ, хулқи ёмон, пасткаш, тубан кал одам*” деган антропонимик маънога эга. Достондаги Ултонтоз салбий тимсолининг ташқи

⁶⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-ж. – Б. 280.

⁶⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-ж. – Б. 132..

⁶⁹ Қаранг. Шомаксудов Ш., Шораҳимов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – Б.167.

киёфаси, салбий амаллари, отаси Бойбўри, акаси Алпомиш ва янгаси Барчин ҳамда ўз халқига, хизматкорларига муносабати бунинг ёркин далилидир.

Эшқобил Шукур таъкидлаганидек, “Минг йилдан бери Ултонтознинг номи эл оғзида юради. Алпомишга душман бўлиб, ёмонотликқа чиққан. Оти ёмон Одина деб Ултонтозни айтса бўлади.

Бахшилар севимли қаҳрамон Алпомишнинг душманига шундай ном топишлари керак эдики, то бу исм жисмига монанд бўлсин, асрлар бўйи қоралансин, унга паст назар билан қарасинлар, ҳатто тилга олганларида ҳам ижирғаниб қўйсинлар. Шу мақсадда бу одамчага улар Ултонтоз деб от қўйиб, муродига етдилар. Ултонтоз ултонга ўхшаган дегани, яъни у ҳатто оёқ кийми ҳам эмас, оёқ киймининг ҳам ости, таг қисми, шунчалар паст, шунчалар тубан”.⁷⁰ Адибнинг бу мулоҳазалари ҳам бизнинг фикримизни тасдиқлайди.

Ёзувчининг эслашича, унинг юртида ёмон хулқли, ёмонотликқа чиққан одамни Ултонтоз деб аташган. Бунинг далили сифатида ёзувчи қуйидаги ҳаётий воқеани келтиради: “Ҳовлида безовталаниб ит ҳурди. Кимдир товуш берди. Отам ўрнидан ирғиб туриб, ташқарига юрди. Елган одам биздан беш уй наридаги Улаш ака экан. У ичкарига кираётиб, устидаги қорни қоқди-да: “Э-э, қуриб кетсин”, – деди. Ҳаммамиз гап нимадалигига қизиқиб турардик. “Бир ёмонни қувиб келаяпман. Ҳамсоянғиз Болта акмни...”, – деб гапида давом этди. Болта ака Улаш аканинг туғишган акаси эди. Отам ундан нима бўлганини сўради. Улаш ака куйиниб гапирди: “Бизникидан хашак ўғирлаб келаётганда ушлаб олдим. Қочиб кетди. Орсиз”.

Ўша йили қиш қаттиқ келиб, хашак кўп танқис бўлиб қолганди. Болта ака ўз укасинининг уйдан хашак ўғирлагани тушибди. Шунда онам:

– Ўлсин, бу **Ултонтоз** одам бўлмади, – деди.

Кейин Болта акани қаерда кўрсам, у менга Ултонтоз бўлиб кўринадиган бўлди.”⁷¹

Достондаги Бодом чўри билан “Қултой” киёфасидаги Алпомишнинг айтишувида ҳам Ултонтознинг киёфаси яна бир бора намоён бўлади:

“Қултой”:

Сари кўсам саркалар қўйни бошлар, ёр-ёр,

Қалам қошли енгалар ўлан бошлар, ёр-ёр.

Қизиқ-қизиқ айтманглар, қиз-келинлар, ёр-ёр,

*Алпомишдан қолган молни **Ултонтоз** кимга ташлар, ёр-ёр. (1.438-б.)*

Аввалига “Қариганда келинли бўла қопсан” дея пичинг қилса-да, ҳар

⁷⁰ Эшқобил Шукур. Ултонтознинг оти нега Ултонтоз // Бобосўз изидан (Сўзлар била сўзлашув). – Тошкент: Sharq, 2018. – Б.10.

⁷¹ Эшқобил Шукур. Ултонтознинг оти нега Ултонтоз // Бобосўз изидан (Сўзлар била сўзлашув). – Тошкент: Sharq, 2018. – Б.10.

калай, “Қуллуқ бўлсин, янгажон, тўйинг, Бодом” дея тўйни гўё олқишлаган “Қултой” кейин бировнинг моли ҳисобига қилинадиган саховат аслида саховат эмаслигини дангал айтишга ўтади. Бу аччиққина ҳақ гапи учун, ҳаттоки, Алпомиш номини тилга олгани учун бошқа пайтда Ултонтоз “Қултой”ни ўлимга ҳукм қилиши муқаррар эди, албатта.

Антропоним дostonда *Ултонтоз Ултонбек, Ултон, Ултонхон* каби фонетик вариантларда қўлланган:

«Бектемир бойбачча Алпомиш билан, қирқ йигит билан бирга бориб, у юртда ўлиб кетди, энди ҳамма Ултонтозга тобе булибди». (1. 278-бет).

*Ҳаво ёгса чиқар ернинг мияси,
Карвонни ҳоритар йўлнинг қияси,
Бедавлатнинг бошга урар кияси,
Ёри ўлган қизнинг чиқар чияси,
Бузилмасин азаматнинг уяси,
Нори-норча Ултонбекнинг туяси.* (1.368-б.)

Ултон деган элга катта бўлами,
Алпомиш беклигин шунга берामी,
Шу гапинг ақлга тўғри келами,
Хеч замонда *Ултон* катта бўлами?!». (1. 369-б.)

«Қултой хам кимдики, узимиздики, Хали хозир Ултонхондай бийдики». (4. 382-бет)

Таҳлиллардан кўринадики, *Ултонтоз* антропоними “гапирувчи номлар” сирасига мансуб бўлиб, ўзи атаётган шахс ва унинг ташқи қиёфаси, ички дунёси ҳақида “гапириб” туради. Хуллас, антропоним халқимиз томонидан зукколик билан шахс ва ном уйғунлиги тамойили асосида ҳосил қилинган бўлиб, дostonда бош тимсол Алпомишга қарши қўйилган салбий тимсолнинг аташдан ташқари, унга хос салбий иллатларни ифодалаш билан эксперссив-эмоционал, яъни услубий вазифа ҳам бажарган.

Лисоний тараққиёт давомида тил луғат таркибида мавжуд сўз буткул йўқолиб кетмайди, у фаол, нофаол қўлланса-да, яшайди. Бу жараён ултон, тоз апеллятивлари, Ултонтоз антропоними мисолида ҳам кузатилади. Фикримизга бир далил. Сурхондарёлик ёзувчи Олим Тошбоев “*Ултонтоз*” номли роман ҳам ёзди. Албатта, “*Ултонтоз*” библионимига ҳам *ултон* ва *тоз* луғавий бирликларининг, қолаверсв, Ултонтоз антропонимининг салбий маъно оттенкалари асос бўлган.

“Ултонтоз” романида шўролар тузуми юртимизнинг жанубида, хусусан, Бойсунда қандай ўрнатилгани, бунда “алпомишлар” бир четда қолиб, “ултонтозлар” ҳукм юритгани юқори бадият билан ёритилган.⁷²

⁷² Қаранг. Тошбоев О. Ултонтоз. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2019.

Асарда XX аср “ултонтозлари” – мансабу амал учун ўз халқига хиёнат қилиш эвазига юртни бошқарган кишилар образи гавдаланади.

Хуллас, миллий маънавиятимиз ривожда муҳим ўрин тутган “Алпомиш” достонида қадим халқимизнинг миллийлиги, хусусан, исм кўйиш билан боғлиқ ишонч-эътиқодлари, анъаналари, қадриятлари борича акс этган. Достон қадриятларимизни асраб-авайлашга, эзгулик ва яхшиликка, ота-она, ака-ука ҳамда дўстларга садоқатга чорлайверади.

СИРОЖИДДИН САЙЙИДНИНГ МЕТАФОРЛАРДАН ҲОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ

**Д.Абдувалиева, ф.ф.ф. (PhD),
Холдорова Ш., ЖДПИ магистранти**

Ҳеч кимга сир эмаски, метафора лингвопоэтик восита сифатида кўчма маъно асосида юзага келиб, тилимизда нарса–буюм, воқеа ва ҳодисалар ўртасидаги ўзаро ўхшашликка асосланган маъно кўчишига метафора дейилади. Сирожиддин Саййиднинг шеърларида метафоралардан унумли фойдаланган. Шоир томонидан метафора сифатида танланган поэтик образ реал воқеликни бадий бўёқларда акс эттиради, китобхонга бадий–эстетик таъсир кўрсатади.

Энди метафорага билдирилган антик дунё мутафаккирлари муносабатларига тўхталсак, “Аристотель кўчма маънода қўлланган ҳар қандай сўзни метафора деб қараган ва уни умуман троплар билан тенглаштириб қўйган. Квинтилиан эса уни ҳамма бирдай фойдаланаверадиган табиат эҳсони, дейди. Унингча, метафора нутққа алоҳида жило берадиган, бойитадиган қисқарган ўхшатишдир ва таваккал қилиб, дадил қўлланган метафораларгина нутққа алоҳида кўтаринкилик бағишлаши мумкин. Цицерон ҳам метафораларни қисқартирилган ўхшатиш деб қарайди ва айтадики, олинган икки объект ўртасида ўзаро мослик бўлмаса, тил бундай метафораларни инкор қилади. Бу хусусида Деметрийнинг фикри диққатга сазовордир: Метафора нутққа ёқимлилик ва улуғворлик бағишлайди, аммо ундан ҳадеб фойдаланавериш керак эмас, акс ҳолда ёзилган нарса прозага эмас, мадҳия (дифирамб)га айланиб қолади”⁷³.

Тилшуносликка доир адабиётларда метафоралар лингвистик ва бадий метафораларга ажратилади. Тилшунос Б.Умуркуловнинг кўрсатишича, “...тил метафораси бадий метафорадан ўхшашликнинг формасига кўра фарқланади: тил метафораси икки предмет орасидаги бевосита ёки очик ўхшашликка асосланган кўчимдир. Масалан: бош сўзининг асосий лексик

⁷³ Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода–таъсир воситалари. – Самарқанд, 1994. –Б.16–17

маъноси “бош қисм” бўлиб, тоғнинг боши, йўлнинг боши, иш боши, жўрабоши каби кўчма маъноларга эга. Бадиий метафорада предметлар орасидаги ўхшашлик асосида бадиий бўёқ, образлилик ётади. Демак, бадиий метафора тил метафорасидан, дастлаб, фикрни образли ифодалаши билан ажралиб туради. Бадиий метафорада ўхшашлик яширинган ҳолда бўлади⁷⁴.

Лингвистик ва бадиий метафора вазифасига кўра фарқланиб туради: “Бадиий адабиётда метафора ўхшатишнинг қисқарган формаси бўлиб, предметнинг номи вазифасини бажармайди. Чунки бунда сўз шу нутқий парчада илгари ҳеч қандай англамаган предмет ёки ҳодисани англатади. Метафора предметнинг доимий номи бўлиб қолгандагина тилшунослик фани текширадиган ҳодиса ҳисобланади. Чунки бундай метафора умумхалқ тилига хос, бадиий метафора эса, ёзувчининг индивидуал приёмига хосдир”⁷⁵.

Метафоралар Сирожиддин Саййид шеъриятида турли кўринишда намоён бўладики, бу ижодкорнинг тафаккури доираси кенг эканлигидан далолат беради:

Менинг шоирлигим — орзу,
фалакдин гар талаб қўйса,
Сочиб кўнглимга ой нурин,
қуёш ҳам ўт қалаб қўйса⁷⁶.

Шеърдан кўриниб турибдики, шоир қўлланилган метафоралар танланишига кўра матн мазмунига тўла мос келади, образлилик, жозибадорлик, таъсирчанлик ва оҳангдорлик каби хусусиятларини намоён қилади.

Чаман ичра ўзи ҳам бир
атиргулдай бўлиб қолгай,
Дилимнинг қонига булбул
қанотин гар булаб қўйса(5– бет).

Метафоралар китобхонни лирик қаҳрамоннинг ички олами ҳис–туйғулари, қувонч–у умидлари билан таништиради, унинг ўзини ҳам ўйлашга мажбур қилади, шу билан бирга унга чексиз завқ бағишлайди. Шу сабабдан, С.Саййид ижодида қўлланилган метафоралар бадиий пардоз бўлиб қолмай, шоирнинг ижодий тафаккури, тил бирликларидан фойдаланиш маҳорати тўғрисида ҳам маълумот беради. Шоир тилимиздаги мавжуд метафоралардан фойдаланиш баробарида ўзи ҳам янги метафоралар яратади. Бундай индивидуал метафоралар ўзига хослиги билан ажралиб туради:

⁷⁴ Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Т.: Фан, 1990. –Б.109.

⁷⁵ Усмонов С. Метафора.– Т.: “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1964, № 4. –Б.34–35.

⁷⁶ Саййид С. Дил фасли. – Т.: Sharq, 2007. –Б.5 (Бундан кейинги иқтибослар шу нашрдан олинади ва бети қавс ичида кўрсатилади).

Олам иморатдир азал,
одам иморатдир азал,
Бу кўхна икки уй аро
девор билан том гуллади(20– бет).

Кўришиб турибдики, поэтик матнда С.Саййид томонидан назарда тутилган маънонинг воқеликдаги маълум бир ўхшашлик асосида кўчиши метафоранинг асосий, муҳим белгиларидандир. Шунингдек, метафорани ҳосил қилишда образлик ҳосил қилишдан ташқари матнда бўёқдорлик ва таъсирчанликни юзага келтириш кўзда тутилади:

Бугун *чай ўрнига хотира дамлаб*,
Яшарсиз *гоҳ шодон*(20– бет).

Хуллас, С.Саййид шеърларида қўлланилган метафоралар мавзу моҳиятини очиб беришда, шоир томонидан тасвирга олинган нутқ объектини таърифлаш ва китобхон тасавурида муаллиф истагандай гавдаланишида муҳим аҳамият касб этади.

BADIIY MATNNING ASSOTSIATIV MAYDONI

(Abdulla Qahhor hikoyasi misolida)

A.Hasanov, QDPI dots.,

M.Artikova (magistrant)


Bugungi kunda barcha fanlar qatori tilshunoslik ilmida ham inson omili bilan bog'liq jarayonlarni tadbiq etish asosiy tadqiqotlar obyektiga aylanib bormoqda. Tilning antroposentrik paradigmasi zamonaviy tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik sohasining shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Shaxs omilini matnlar vositasida tahlil qilishda badiiy matnlar alohida ahamiyatda kasb etadi, chunki ma'lum bir badiiy matn tahlil qilinganda matnning muallif tafakkuri bilan bog'liq qirralari ham ochib boriladi. Nazarimizda, muallif badiiy matn yaratish jarayonida qanday lisoniy va nolisoniy omillarga tayanganini assotsiativ tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali yaxshiroq tushunish mumkin. Ushbu maqolada A. Qahhor hikoyalaridan biri assotsiativ tahlil qilindi.

Badiiy matnning assotsiativ tahlilida matnning assotsiativ maydoni masalasini muhi mo'rintutadi. *Matnning assotsiativ maydoni* tushunchasini tilshunoslikkarustilshunosi Y.N. Karaulov kiritgan. U matndagi so'z va so'z birikmalari ketma-ketligi orqali assotsiativ maydonni belgilash tartibi hamda ushbu assotsiativ maydon asosida matn yaratish metodikasini ishlab chiqqan.⁷⁷ Assotsiativ maydon matnning assotsiativ strukturasi belgilaydi. Matnning assotsiativ strukturasi asosida matn,

⁷⁷D.E.Lutfullayeva, "Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi", Monografiya, T. "Meriyus", 2017-y. 73-bet


uning muallifi hamda ushbu matnning kitobxon tomonidan idrok etilishi jihatlari haqida yangi bilimlarga ega bo'lish mumkin.

Matnning assotsiativ maydoni tahlilida unda qo'llangan geterogen birliklarning denotative va konnotativ ma'nolari chegarasini belgilash, bu ikki ma'noning o'zaro munosabatini aniqlash, matnda aks etgan muallif bahosi, bahoning modallikka tegoriyasi bilan chegarasi, matnning assotsiativ maydoni qismlari kabi masalalarga oydinlik kiritish mumkin. Badiiy matnda assotsiativ tarzda bir-biri bilan bog'langan til birliklari assotsiativ maydonni hosil qiladi. Bunda assotsiativ munosabatdagi birliklar ham lingvistik, ham ekstralingvistik omil ta'sirida bo'lishi mumkin. Assotsiativ holatda bir-biri bilan bog'langan bunday birliklar ijodkor ifoda etmoqchi bo'lgan asosiy g'oya atrofida birlashadi. Ijodkorlar asosiy g'oyani ko'pincha matn sarlavhasi orqali berishga harakat qiladilar. Shuning uchun badiiy matnning assotsiativ maydonini hosil qilishda matn sarlavhasi stimuly so'z sifatida olinib, maydon yadrosi sifatida qaraladi. Agar matn, jumladan, she'r sarlavhasiz bo'lsa, assotsiativ maydon yadrosi she'rning ifoda obyekti yoki lirik qahramonini anglatgan birlik bo'lishi mumkin, chunki she'rdagi barcha leksik birliklar ular bilan ham semantic jihatdan, ham assotsiativ jihatdan bog'lanadi, bu esa assotsiativ maydon yadrosi mavjudligining asosiy shartidir.⁷⁸ Tahlil uchun Abdulla Qahhorning hajman kattaroq bo'lgan "Xotinlar"⁷⁹ hikoyasini olamiz. Hikoya tarkibidan ajratib olingan assotsiativlar "Xotinlar" leksemasi atrofida quyidagi holatdagi maydonni hosil qiladi:



⁷⁸D.E.Lutfullayeva, "Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi", Monografiya, T. "M"

⁷⁹A. Qahhor, "Dahshat", T. "Umid uchqulari", 2018-y. 56-bet



1. Xotinlar leksemasi assotsiativ maydoni tarkibi.

Maydonda qo'llanish doirasi keng, faol leksik birliklar, ko'p miqdordagi so'z birikmalari (*Juvonning oti, Juvonning ot chopishi, Muhtaram xotinlar, Rahbar o'rnidagi xotinlar, Traktorchi juvon, Hurmatli juvon, Boshqa xotinlar, Ikki xotin, Shuncha xotin, Qirq yoshlardagi bir xotin, Qanaqa xotin, Nimjongina bir xotin, Norg'ul bir juvon, Xotinlar suhbat, Xotinlarning nimadan iborat ekanligi, Dunyoda muhabbatni har qanday qulfga tushadigan kalitga aylantirib olgan xotinlar*), sodda va qo'shma gaplar (*O'z qadrini bilgan xotinga erkak kishi yomon ko'z bilan qaragani botinolmaydi. Oqsoqol qishloq kengashining raisi edi. Qishlog'imizda Umri, Umriniso degan bir xotin bor edi. Men ham bu xotinning nomini yana bir kishi eshitishini xohlamas edim. Asqar otaning kutganiga qarshi Sobiraxon so'zida davom etmadi, aftidan, u xotin haqida endi gapirmoqchi emas edi.*) mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga, assotsiativ maydon tarkibida paremiyalar (*Yolg'izlik kor qilibdi-da, o'z eriga vafo qilmagan xotindan vafo kutma*) ham kuzatildi.

2. Xotinlar leksemasi assotsiativ maydoni birliklarining leksik-semantik tahlili:

Xotinlar leksemasining lug'aviy ma'nosini reallashtiruvchi assotsiativ birliklar quyidagilar:

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da *Xotin* leksemasining quyidagi ma'nolari berilgan:

1. Jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid, farzand ko'rish, emizish qobiliyatiga ega odam, ayol.

2. Biror erkak nikohidagi ayol.

Xotinlarleksemasining “jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid,farzand ko`rish, emizish qobiliyatiga ega odam,ayol” ma`nosi quyidagi assotsiatsiyalarda reallashgan:*Juvon, Ayol, Beshik, Kundosh, Kelin.*

Xotinlar leksemasining ko`chma ma`nolarini reallashtiruvchi birliklar qiyidagilar:

Xotinlar leksemasining ko`chma ma`nosi “*Yolg`izlik kor qilibdi-da.*” va “*O`z eriga vafo qilmagan xotindan vafo kutma*” paremiyalari orqali reallashgan.Bu paremiyalarning birinchisida yolg`izlik kor qilib,to`g`ri yo`lga kirganligi haqida, ikkinchisida esa vafosizlik ma`nosi voqelangan.

Xotinlar leksemasining leksik-semantik paradigmalari.Xotinlar leksemasining antonimik,omonimik, paronimik qatorlariyuzaga kelmagan.Xotinlar leksemasining assotsiativ maydonida o`zaro sinonimik munosabatdagi assotsiatsiyalari ham aniqlandi.Bular *JuvonvaAyol* leksemalari. Quyidagi assotsiatsiyalar uyadoshlik qatorlariga birlashadi:*Qiz, Juvon, Ayol, Opa va Xola.*

3. Xotinlar leksemasi assotsiativ maydoni birliklarining grammatik tahlili: Assotsiativ birliklarning morfologik shakli: ot (*Juvon, Qiz, Xola, Beshik, Rais, Mudir, Direktor, Xotin-xalaj, Yor-u do`stlar, O`rtoqlar, Asqar ota, Kundosh, Xotin-qizlar, Kelin*), sifat(*Munglig`, Mushtipar*) qayd etilgan.

Sintaktik birliklar tarkibida stimol so`zning quyidagi morfologik shakllari aniqlandi:*Xotinlardan, Xotinning, Xotinga, Xotindan.*

4. Assotsiativ birliklarning sintaktik tuzilishi. Assotsiativ maydonda xotinlar leksemasi bilan bog`liq bir qator predikativ va nopredikativ qurilmalar uchraydi.

Nopredikativ qurilmalar:*O`zbek ayollari, Juvonning ot chopishi, Juvonning oti, Hurmatli juvon, Muhtaram xotinlar, Rahbarlik o`rindagi xotinlar, Traktorchi juvon, Ikki xotin, Shuncha xotin, Qirq yoshlardagi bir xotin, Ma`rifatxon opaning qabri, Ayollardan ikki kishi, Nimjongina bir xotin, Norg`ul bir juvon, Xotinlar suhbat, Dovruqlik Umriniso degan bir qiz, Xotin kishi, Dunyoda muhabbatni har qanday qulfga tushadigan kalitga aylantirib olgan xotinlar, O`sha vaqtda askarlar kiygan qalpoq, Ma`rifatxon otib o`ldirgan Sangin qo`rboshining go`ri.*

Predikativ qurilmalar: *Oqsoqol qishloq kengashining raisi edi. O`z qadrini bilgan xotinga erkak kishi yomon ko`z bilan qaragani botinolmaydi. Qishlog`imizda Umri, Umriniso degan bir xotin bor edi. Men ham bu xotinning nomini yana bir kishi eshetishini xohlamas edim. Asqar otaning kutganiga qarshi Sobiraxon so`zida davom etmadi, aftidan u xotin haqida endi gapirmoqchi emas edi.*

5. Xotinlar leksemasi assotsiativ maydoni birliklarining uslubiy xususiyatlari.Xotinlar leksemasi assotsiatsiyalarida uslubiy xoslangan quyidagi assotsiatsiyalar aniqlandi:

Badiiy uslub: “*Yolg`izlik kor qilibdi-da*”, “*O`z eriga vafo qilmagan xotindan vafo kutma*”.

Publitsistik uslub: *Muhtaram xotinlar, O`z qadrini bilgan xotinga erkak kishi yomon ko`z bilan qaragani botinolmaydi, Dunyoda muhabbatni har qanday qulfga tushadigan kalitga aylantirib olgan xotinlar.*

6. *Xotinlar* leksemasi assotsiativ maydoni birliklarining pragmatik xususiyatlari:

Konnotatsion belgilari. *Xotinlar* leksemasi assotsiativ maydonidan o`rin olgan *Otajan, Qizim, Opajon, Nimjongina* leksik assotsiatsiyalarida *-jon, -im, -gina* qo`shimchalari orqali konnotativ ma`no hosil qilingan.

7. *Xotinlar* leksemasi assotsiativ birliklarining milliy-madaniylik belgisi. *Xotinlar* leksemasining quyidagi assotsiatsiyalarida milliy-madaniy sema yuzaga chiqadi: *Kelin, Juvon, Beshik, Erga xiyonat qilish, Ko`ngil xushligi*. Ushbu berilgan so`zlardan *Juvon* so`zi o`zbeklargagina xos bo`lgan so`z bo`lib, turmushga chiqqan, farzand ko`rgan ayollarga nisbatan ishlatiladi. *Beshik* leksemasi ham *Kelin* leksemasi ham o`zbeklardagi milliylikni ifodalovchi leksemalar hisoblanadi.

8. *Xotinlar* leksemasining assotsiativ maydoni birliklarining iltimoiylik belgisi. *Xotinlar* leksemasi assotsiatsiyalarining ijtimoiylik belgisi quyidagi birliklarda yaqqol ko`zga tashlanadi: *Dunyoda muhabbatni har qanday qulfga tushadigan kalitga aylantirub olgan xotinlar, Rais, Mudir, Direktor, Rahbarlik o`rindagi xotinlar, Traktorchi juvon, Oqsoqol*.

Ushbu berilgan assotsiatsiyalardan *Dunyoda muhabbatni har qanday qulfga tushadigan kalitga aylantirib olgan xotinlar* assotsiati barcha zamonlarda, davrlarda ham bunday toifa ayollar mavjud ekanligini ko`rsatadi. Guruch kurmaksiz bo`lmaganidek urush davri qiyinchilik yillarida ham hayotni yengil tarafdin ko`radigan ayollar ham borligini ko`rsatadi. *Rais, Mudir, Direktor, Oqsoqol, Traktorchi juvon, Rahbarlik o`rinlari* assotsiatlari orqali urush davrida ayollar hatto erkaklar bajaradigan vazifalarni ham bajarganligini ko`rsatadi. Bulardan *Mudir, Direktor, Rais, Rahbarlik o`rinlari* assotsiatlari hozirgi kunda ayollarga ham xos bo`lgan, ya`ni ayollar ham ishlaydigan lavozimlarni bildirsa, *Traktorchi juvon* assotsiati hozirgi kunda uchramaydigan, o`sha davrda, hatto, shunday ishlarni ham ayollar qilganligini ko`rsatadi. Shunday qiyinchiliklarga bardosh berib mas`ul vazifalarni ham ayollar bajarib turgan bir zamonda, *Dunyoda muhabbatni har qanday qulfga tushadigan kalitga aylantirib olgan xotinlar* assotsiati orqali shunday mardonavor ayollarning nomiga dog` tushirib turgan ayollar ham mavjudligini ko`rsatadi. Bundan tashqari, *Ayollarning nimadan iborat ekanliklari* assotsiati orqali ayollarga qanday qarash, ayollarning nimalarga qodir ekanliklari, endi ular *Munglig`, Mushtipar* emasliklari ochib beriladi. *Ma`rifatxon otib o`ldirgan Sangin qo`rboshining go`ri* assotsiati orqali ayollarni shunchalik vaxshiylikkacha bordi deb emas, balki qahramonliklari, erkaklarga xos dovyurakliklari ko`rsatib berilgan. Yana bir assotsiat - *Erga xiyonat qilish, Ko`ngil*

xushligi. Bu assotsiatlar orqali urush davrida urushga bormagan, urushdan qaytib kelgan erkaklar ham ko'p edi, ammo bizning o'zbek ayollari o'z ko'nglining xushligi deb emas, o'z jufti haloliga sodiqligi, vafodorligi, o'z erlariga xiyonat qilish ularning hayollariga ham kelmasdan, o'z erlari uchun, farzandlari uchun yashash, sabr-qanoat chidamlilik kabi xislatlar ochib berilgan.

ORFOGRAFIYA XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

S.M. Zokirova, (PhD) doktori

O.J. Usmonova, FarDU talabasi

Hozirgi globallashuv davrida ta'limning barcha bosqichlaridagi muhim vazifalardan biri jamiyatimizning savodxonligini oshirishdir. Aholining har bir qatlamidan savodli va ravon nutqli bo'lishlari talab qilinadi. "Adabiy tilning ikki shakli bo'lib, ulardan biri yozma nutqdir. Bu nutq orfografiya qonun-qoidalariga asoslanadi"⁸⁰.

Orfografiya so'zi yunonchadan olingan bo'lib, orphos – "to'g'ri", grapho – "yozaman" so'zlaridan olingan bo'lib, to'g'ri yozmoq degan ma'noni anglatadi. Bu so'z tor va keng ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda orfografiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, unda to'g'ri yozish me'yorlari o'rganiladi. Keng ma'noda esa "adabiy yozish qoidalari to'plami"⁸¹ga nisbatan orfografiya (imlo qoidalari) ishlatiladi.

Orfografiya bo'limi tilshunoslikning orfoepiya, fonetika, morfemika va boshqa bo'limlari bilan bog'lab o'rganiladi. Uning orfoepiya bilan bog'liqligi imlo qoidalarini belgilashda talaffuzga nisbatan olinishida kuzatiladi. Fonetika bilan bog'liqligi tovush o'zgarishi hodisalari orqali ko'rinadi. Shuningdek, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya kabi bo'limlar bilan bog'liqligini asos va qo'shimchalarga, qo'shma so'zlarga oid imlo qoidalarida ko'rish mumkin.

Orfografiya va grafika ko'plab adabiyotlarda birgalikda o'rganiladi. Orfografiya grafikadan quyidagi belgilari bilan farqlanadi: grafika qoidalari grafemalarning mazmun planini (referentini) kodlashtirishga, orfografiya qoidalari esa ma'lum prinsiplar asosida orfogrammarni tanlashga asoslanadi⁸².

Orfografik qoidalarni tuzishda tilning ma'lum bir taraqqiyot bosqichi inobatga olinadi. Imlo qoidalari tilning taraqqiyoti davomidagi rivojlanishi natijasida o'zgarishlarga uchraydi. Shavkat Rahmatullayevning ko'rsatishicha, "Hozirgi o'zbek adabiy tilining yozma ko'inishi tartibga tushib qolgan.

⁸⁰ Hamroyev M., Mahammedova D. va b. Ona tili (darslik) – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – B. 42.

⁸¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 451.

⁸² Jamolxonov H. Hozirgi O'zbek adabiy tili (darslik). – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 101.

So‘zlashuv nutqidagi rang-baranglikni bir xillikka keltirishda, shular orasidan birini adabiy me‘yor darajasiga ko‘tarishda, so‘zlashuv nutqiga va adabiy nutqqa xos talaffuz bilan yozish orasidagi munosabatni to‘g‘ri belgilashda imlo qoidalarining ahamiyati katta⁸³”.

Hozirga qadar tilimizning imlo qoidalari bir necha marta qabul qilinganligi bu fikrlarga asos bo‘la oladi. Arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida ham imlo ustida bir qancha ishlar olib borilgan.

Ilg‘or o‘zbek ziyolilari 1905-1907 yillardan (matbuot va so‘z erkinligiga erishilgandan so‘ng) ayrim arabcha harflarning shakliga, ba‘zi imlo qoidalariga isloh kiritish to‘g‘risida matbuotda yoza boshlaganlar. Bu bosqichda asosiy e‘tibor savod chiqarish, o‘qish va o‘rgatish ishlarni tashkil etish masalalariga qaratilgan va shu maqsadda qator o‘quv – uslubiy kitoblar yaratilgan. «Ustodi avval» (Saidrasul Saidazizov. 1902), «Birinchi muallim» (Abdulla Avloniy, 1911), «Ikkinchi muallim» (Abdulla Avloniy, 1912), «Turkcha qoida» (M.M. Faxriddinov, 1913), «Rahbarisoni» (Abdullaxo‘ja Saidmuhammad-Xo‘jayev, 1916) kabi qo‘llanmalar shular jumlasidandir⁸⁴.

Biroq bu jarayonga hokimiyat qarshi chiqqan. Ular davlat tili rus tili ekanligini, mahalliy tillar imlosi esa ahamiyatsiz ekanligini ta‘kidlashgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan urinishlar davom etaverdi. Natijada esa “1923 yil 3–9 oktyabrda O‘rta Osiyo o‘zbeklari yozuvi va imlosini isloh qilish yuzasidan Buxoro shahrida alifbo-imlo konferensiyasi o‘tadi. Unda 1922 yildagi qaror asosida isloh qilingan yangi arab alifbosi qabul qilinadi. Alifboga unlilar uchun 6 belgi kiritiladi. Konferensiyada yangi alifbo bilan birga birinchi imlo qoidalari ham qabul qilinadi. 1929- yilning 10-avgustida O‘zbekiston Xalq Maorifi Komissarligi kollegiyasining yig‘ilishi bo‘lib, unda may oyida bo‘lib o‘tgan til-imlo konferensiyasi tavsiya qilgan yangi imlo qoidalari tasdiqlanadi”. «Qoidalar» 29 moddadan iborat bo‘lib, ularda singarmonizmli sheva xususiyatlarini yozuvda ifodalashga ko‘proq o‘rin beriladi⁸⁵.

Maktablarda 1927-1928 yildan boshlanib 1940-yil 8-maygacha lotin yozuvi asosida ish olib borilgan. 1940-yil 8-maydan kirill alifbosi asosidagi yangi alifboga o‘tish to‘g‘risida qonun qabul qilindi.

1953-1955- yillarda matbuotda bildirilgan tanqidiy fikrlar va takliflar asosida «O‘zbek orfografiyasi asosiy qoidalari||ning bir necha yangi loyihalari yaratiladi, ulardan so‘nggisi O‘zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumiga topshiriladi. 1956-yilning 4-aprelida «O‘zbek orfografiyasi asosiy qoidalari||ning (qayta ishlangan va takomillashtirilgan varianti) O‘zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan tasdiqlanadi⁸⁶.

⁸³ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 451.

⁸⁴ To‘raxo‘jaeva A. O‘zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi (ma‘ruza matni) – Qo‘qon, 2010. – B. 9.

⁸⁵ To‘raxo‘jaeva A. O‘zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi (ma‘ruza matni) – Qo‘qon, 2010. – B. 9.

⁸⁶ To‘raxo‘jaeva A. O‘zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi (ma‘ruza matni) – Qo‘qon, 2010. – B. 10.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, yozuv masalasiga to'xtalindi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tildi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori bilan „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ ni tasdiqladi.

Hozirgi adabiy o'zbek tili uchun imlo qoidalarini ishlab chiqishga yetmish besh yil ilgari kirishilgan bo'lib, bugungi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" ko'p yillik kuzatishlar natijasida bir necha marta takomillashtirilgan. Amaliyotga joriy qilingan imlo qoidalari to'g'ri nazariy asoslarga suyangan bo'lib, savodxonlik uchun kurashda ishonchli qo'llanma vazifasini bajara oladi⁸⁷. Savodli bo'lish uchun imlo qoidalarini bilish shart.

Imlo qoidalari ma'lum me'yorlarga asoslanadi. Bu me'yorlar tamoyil deb ham yuritiladi. Biroq ilmiy adabiyotlarda imlo tamoyillari turlicha talqin qilinadi. Ra'no Sayfullayeva⁸⁸ bugungi o'zbek imlosi uchun fonetik, morfologik, tarixiy-an'anaviy, farqlovchi (differensial) va shakliy (grafik) yozuv tamoyillarga tayanadi deb ko'rsatsa, Shavkat Rahmatullayev⁸⁹ fonetik, morfologik me'yorlarga to'xtaladi. Jamolxonov⁹⁰ orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan prinsiplar sifatida fonetik, fonematik (fonologik), morfologik prinsip (analogiya prinsipi), grafik prinsip, tarixiy-an'anaviy, differentsiatsiya prinsipi (simvolik prinsip), shakliy-an'anaviy yozuv, semantik-uslubiy prinsiplarga to'xtalib, amaldagi (kirillcha va lotincha) o'zbek yozuvlari imlo qoidalarining shakllantirilishida fonetik, fonematik va morfologik prinsiplarga ko'proq amal qilinganligini ko'rsatadi. Madrim Hamroyev⁹¹ imlo qoidalari orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy, an'anaviy, differentsiya tamoyillar asosida ishlab chiqilganligiga tayanadi. S. Otamirzaeva⁹² o'zbek orfografiyasining asosini fonetik, morfologik va tarixiy-an'anaviy tamoyillar tashkil qilishini aytadi.

Adabiy tilning og'zaki shaklida so'z tanlash, gap tuzish va to'g'ri talaffuz me'yorlariga amal qilish qanchalik ahamiyatli bo'lsa, uning yozma shaklida orfografiya me'yorlariga (imlo qoidalariga) amal qilish shunchalik muhimdir. Bunday me'yorlarga amal qilish yozma nutq mazmunining to'g'ri va aniq idrok qilinishiga yordam beradi, yozma nutqda anarxiyaning (boshboshdoqlikning) avj olishiga yo'l qo'ymaydi⁹³. Adabiy tilning, xususan, yozma nutqning ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy rolini mustahkamlashda buning o'ziga yarasha ahamiyati bor.

⁸⁷ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 451.

⁸⁸ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili (darslik) – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2010. – B. 74.

⁸⁹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 451.

⁹⁰ Jamolxonov H. Hozirgi O'zbek adabiy tili (darslik). – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 102-108.

⁹¹ Hamroyev M., Mahammedova D. va b. Ona tili (darslik) – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – B. 42.

⁹² Otamirzaeva S., Yusupova M. O'zbek tili. Toshkent: O'AJBNT Markazi, 2004. – B..

⁹³ Jamolxonov H. Hozirgi O'zbek adabiy tili (darslik). – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 101

INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM METODI YORDAMIDA TASHKIL ETILGAN DARSLARDA FOYDALANILADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI

T.Yusupova, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, p.f.n.

Akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini integratsiyalashgan ta'lim metodi asosida tashkil etishda topshiriq va mashqlar tizimini ishlab shiqish va undan samarali foydalanish, umuman ona tili darslarida topshiriq va mashqlardan foydalanish muammolari bir qator metodist olimlar T.G'aniyev⁹⁴, A.Bobomurodova⁹⁵, M.Saidov⁹⁶, Sh.Yusupova⁹⁷, T.Ziyodova⁹⁸, T.Yusupova⁹⁹lar tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy ishlarida rekonstruktiv, reproduktiv hamda ijodiy mashqlar haqida ma'lumot berishgan, tasnif qilishgan.

Akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash hissini tarbiyalash masalalarini ona tili ta'limi mazmuniga tayangan holda samarali tashkil etish masalasi, birinchi navbatda, o'quvchiga bajartiladigan mashq va topshiriqlar mazmuni bilan belgilansa, ikkinchidan esa, shu jarayonni qanday tashkil qilish bilan ham bog'liq. Ta'lim samaradorligini oshirish, hamkorlikda ishlash texnologiyalari, darsni integratsiyalashgan ta'lim metodi asosida tashkil etish masalalarini to'liq hal etishda mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni lozim topdik.

⁹⁴. Ганиев Т.Т. Активизация познавательной деятельности учащихся в процессе выполнения упражнений по родному (узбекскому) языку. Авт-т дисс... канд.пед.наук. – Ташкент. 1991. 23 стр.

⁹⁵. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.

Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.номзоди ... дисс. - Тошкент, 2005. - 157 б. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстириш. – Тошкент, “Fan va texnologiyalar”, 2006. – 87 . Юсупова Т. Синтаксисни морфологияни такрорлаш билан боғлаб ўрганиш методикаси (5- ва 8-синфлар мисолида). Монография. – Тошкент. “Fan va texnologiyalar”, 2009. –176 б.

⁹⁶. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед.фан. номзоди ...дисс.- Тошкент, 2000. - 128 б.

⁹⁷. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дarsларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида). Пед.фан.докт...дисс. автореферати. –Тошкент. 2005. 45-бет.

⁹⁸. Зиёдова Т. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. – Тошкент, 2000. – 163 б. Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. - Т., 1995. - 141 б. Зиёдова Т. Тилсим топишмоқлари – нутқий фаолиятни шакллантириш омили: Она тили ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Тошкент: РТМ, 1999. – 73 б.

Biz ilmiy adabiyotlarni o‘rganib va tahlil qilib chiqib, akademik litseylarda hozirgi o‘zbek adabiy tili fanidan mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalaniladigan mashq va topshiriqlarning turlarini shartli ravishda katta 3 guruhga ajratdik:

1. Xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlar;
2. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlar;
3. Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar.

Bunday tasniflashdan asosiy maqsad – akademik litseyda tashkil qilinadigan hozirgi o‘zbek adabiy tili darslariga yangi mavzuni o‘rganish va uni mustahkamlash jarayonida integratsiyalshgan ta’lim metodiga asoslangan o‘qitilayotgan boshqa umumta’lim fanlari bilan bog‘liq mashq va topshiqalar tizimini ishlab chiqishdan iboratdir.

Qayta xotirlash xarateridagi mashq va topshiqalar. Qayta xotirlashga xarakteridagi mashq va topshiriqlar o‘quvchiga muayyan qiyinchilik tug‘dir-maydi, uni bajarishda tayyor o‘quv material sifatida ish ko‘radi. O‘rganilgan til hodisalarini xotirada tiklash, topshiriqni to‘lig‘icha muayyan andaza yoki namunaga qarab bajarish kabilar shunday mashq va topshiriqlar sirasiga kiradi.

Akademik litseylarda o‘qitiladigan hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida bajariladigan bir qator ish turlari (mashq va topshiriqlar), jumladan, ko‘chirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant, muayyan andazaga qarab bajariladigan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik tahlillar, berilgan she’riy matn mazmunini nasriy yo‘l bilan bayon qilish kabi topshiriqlar o‘quvchilardan bilimlarni xotirada tiklashni talab qiladi. Lekin unga, albatta, shu mashq va topshiriqlar matnida ifodalangan integratsiyalshgan ta’lim metodini tatbiq etuvchi vazifalar ham yuklanishi zarur. Masalan, shakldosh so‘zlarni o‘rganish jarayonida bajariladigan mashqlarni bajartirishda shakldosh ya’ni omonim so‘zlarning adabiyotda qanday janrning yuzaga kelishida xizmat qilishini eslatuvchi savollar ham berilishi lozim. Bunda o‘quvchilar adabiyot darslarida olgan bilimlariga tayangan holda tuyuq janri haqida qo‘shimcha ma’lumotni eslaydilar va javob berishga harakat qiladilar.

Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiqalar. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashqlar tarkibini ko‘proq qayta xotirlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar egallaydi. Chunki o‘quvchi ona tilidan egallangan bilimlarga tayanmay turib, uni yangi sharoitda qo‘llay olmaydi. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlar sirasiga quyidagi mustaqil ish turlarini: a) nuqtalar o‘rniga zarur harflar, kelishik qo‘shimchalri, so‘zlarni topib qo‘yish; b) ma’lum bir so‘zni uning ma’nodoshi, uyadoshi, qarama-qarshi ma’noli so‘z bilan almashtirish; d) berilgan gaplar yoki matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zlashtirish; d) berilgan tayanch so‘zlar yoki so‘z birikmalaridan foydalanib, gaplar mantlar tuzish kabilarni kiritish mumkin. Bu kabi mashq va topshiriqlar o‘quvchidan qisman izlanuvchanlikni talab qiladi. Chunki bu topshiriqlarni bajarish

jarayonida o‘quvchi ma’lum darajada yordam oladi. Berilgan so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplar o‘quvchiga mashq va topshiriqni bajarishi uchun ko‘maklashadi¹⁰⁰.

Bunday mashq va topshiriqlardan integratsiyalshgan ta’lim metodi asosida tashkil qilingan darslarda ham foydalanish yaxshi samara beradi. Buning uchun yuqorida berilgan shakldosh so‘zlar bilan bog‘liq topshiriqlarimizning mazmunini qisman izlanishga qaratilgan tadbirlar bilan almashtiramiz. Masalan, o‘quvchilar endi nafaqat janrni, balki shu janrga keng qo‘llaniladigan she’riy san’atlar ustida ham bosh qotirishadi. Bu o‘rinda tajnis san’ati yodga olinadi. Adabiyot darslarida o‘rganilgan shoirlarning asarlaridan parchalar o‘qib beriladi va undagi tajnislar aniqlanadi.

Tajnis (yoki jinos) she’r baytida ma’no jihatidan har xil, ammo shaklan bir-biriga yaqin ikki so‘zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta’sirchan ifodalsh san’atidir. Lutfiyning

Ulkim ko‘ngul oldi zulfi xoli,

Ko‘ngludin emas xayoli xoli

Baytidagi qofiyadosh **xoli** so‘zlari shaklan bir xil bo‘lsa-da, lekin ikki xil ma’noni ifodalaydi: birinchi misrada mahbuba yuzidagi **xol**ni bildirsa, ikkinchi misrada “xoli emas” iborasidagi ma’noni bildiradi¹⁰¹.

Demak bunday qisman bo‘lsa-da izlanishga qaratilgan mashq va topshiriqlar orqali “Leksikologiya” bo‘limiga oid nazariy bilimlarni o‘rganishda va mustahkamlovchi mashqlarni bajarishda unumli foydalanish fanning o‘qitilishining samaradorligini ta’minlaydi.

Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar. Izlanish til materiallarini ijodiy faoliyat bilan o‘rganish demakdir. Shubhasiz, o‘quvchi maktab akademik litsey hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida ma’lum bir yangilik kashf etmaydi, balki berilgan ma’lumot mazmunini ijodiy yo‘l bilan o‘rganadi. Bunday ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar o‘quvchilardan oldin o‘rganilganlarni tamoman yangi sharoitda qo‘llashni talab qiladi. Akademik litsey hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida yoziladigan insholar, o‘qilgan badiiy asarga taqriz yozish, maqola yozish, ilmiy ma’ruzalar tayyorlash o‘quvchidan hach qanday andaza yoki tashqi yordam olmasdan bajariladigan asosiy ishlar sanaladi. Demak, akademik litsey hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida izlanishga asoslangan ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlardan foydalanish, birinchidan, o‘quvchilarning til hodisalariga qiziqishini oshiradi, ikkinchidan, til hodisalarini mustaqil tahlil qilishga o‘rgatish orqali ularda ijodiylik rivojlanib boradi.

¹⁰⁰ G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alautdinova N., Karimjonova V. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: – “Fan va texnologiyalar” – 2012.

¹⁰¹ Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati. 1998, 160 bet

O'qituvchi mashq va topshiriqlarni tayyorlashda uning o'rganilayotgan til materiali mazmuniga muvofiq kelishi, mavzuning murakkablik darajasi, o'rganilayotgan o'quv materiali yuzasidan o'quvchilarda tushunchalarning mavjudligi, o'quv materialining hajmi kabilarni to'liq inobatga olishi lozim. Chunki mashq va topshiriqlarning turlari va ularning mazmun-mohiyati shuni talab qiladi. Masalan, qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlarni tanlash va uni ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchining oldin o'tilganlar yuzasidan ayrim tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishini talab qiladi. Andaza yoki namunaga qarab bajarilish talab qilinadigan qayta xotirlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar uyga berilgan vazifani so'rash jarayonida qo'llanilgani maqsadga muvofiq. Bu jarayonda qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanish o'quvchining o'tgan darsdagi o'rganganlarini xotiraga tushirishiga va o'qituvchi ham ularni baholay olishiga imkon beradi. Yangi mavzuni mustahkamlashda esa qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanilsa, ham o'tilgan yangi mavzu o'quvchi xotirasida yaxshi saqlanadi, ham o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Bu esa uchinchi turdagi mashq va topshiriqlarning dars jarayoniga tatbiq etilishiga zamin yaratadi.

Endi yuqorida tasnif qilingan mashq va topshiriqlarning har bir turiga amaliy nuqtai nazardan yondashamiz va hozirgi o'zbek adabiy tili mavzulari bo'yicha misollar keltiramiz:

Qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar:

Qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanish jaroni aynan integratsiyalshgan ta'lim metodi asosida tashkil qilingan darslarda til materiallarini umumta'lim fanlari bilan bog'liqlikda o'rganish jarayonida juda ham yaxshi samara beradi. Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida boshqa umumta'lim fanlari bilan bog'lab til hodisasini bayon qilish amali ko'proq o'qituvchi zimmasiga tushadi. Mavzuni mustahkamlshga qaratilgan mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida esa asosan o'quvchilar faol harakat qiladilar. Qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlarga misol sifatida darslikda berilgan mashq va topshiriqlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, akademik litseylar uchun yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi¹⁰²dagi 224-225-betlarida keltirilgan mashqlarga murojaat qilamiz. Omonimlar mavzusini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar matnining aksariyat qismini askiyalar va terma gaplat tashkil qiladi. Bu bir xillikdan qochish maqsadida integratsiyalshgan ta'limni yuzaga keltiruvchi

¹⁰². Nurmonov A, Ne'matov H., Sobirov A va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy ili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: "Ilm Ziyo" nashriyoti, 2010, 590-bet.

qo'shimch topshiriqlar ishlab chiqish zarur. Aynan shu o'rinda ona tilini adabiyot darslari bilan bog'lab tashkil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Masalan, shakldosh so'zlarni o'rganish jarayonida bajariladigan mashqlarni bajartirishda shakldosh ya'ni omonim so'zlarning adabiyotda qanday janrning yuzaga kelishida xizmat qilishini eslatuvchi savollar ham berilishi lozim. Bunda o'quvchilar adabiyot darslarida olgan bilimlariga tayangan holda tuyuq janri haqida qo'shimcha ma'lumotni eslaydilar va javob berishga harakat qiladilar.

Ularning diqqatini adabiyot darslarida o'tilgan mavzularga murojaat qilgan holda quyidagi topshiriqlarni bajarishi mumkin:

1. She'rni o'qing. Gul bilan bog'liq harakatlarga diqqat qiling. O'zingiz ham shunga o'xshash misollar toping.

Gul bag'rini nasim tildi-to'kildi,

Saboga hikoyat qildi-to'kildi.

Falak ishiga boq: bir nuqtada gul

Chiqdi, g'unchaladi, kuldi-to'kildi... (Umar Xayyom)

2. Adabiyot darslarida yod olgan tuyuqlardan yod olib, ularni ifodali o'qing. Matnda qatnashgan omonim so'zlarni aniqlab, ularning ma'nosini izohlang.

3. Yod olgan she'rlaringizdagi omonim so'zlarning qaysi she'riy san'atga mansub ekanligini ham ayting.

Bulardan tashqari, darslikning 221-sahifasida berilgan 113-mashqni ham umumta'lim fanlaridan biri – geografiya fani bilan bog'lab integratsiyani hosil qilish mumkin. 113-mashq. *Gidronimlarni quyidagi turlarga ajratib yozing.*

Buni tashkil etishda guruhdagi o'quvchilar 13ta guruhga taqsimlanadilar va ular 13 viloyat nomlari ostida nomlanadi. Demak, kichik guruhlarning har birida bor-yo'g'i 2-3 o'quvchi bo'ladi. Ular o'zlariga tushgan savollar asosida mustaqil ishlaydilar. Masalan, 1-guruhga "Dunyodagi ko'llardan qaysilarini bilasiz? Ular haqida ma'lumot ayting", 2-guruhga "Xaritadan dunyodagi eng yirik shaharlaridan 10tasini ko'rsating. Ular haqida ma'lumot bering", 3-guruhga "Yer yuzida nechta okean bor? Ular haqida ma'lumot bering. Ularning imlosi haqida ham tushuntiring" kabi.... Natijada ona tili va geografiya fanlari integratsiyasi vujudga keladi. Demak, o'qituvchi o'z darsida fanlararo integratsiyani qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Xarita va geografik nomlar bilan ishlash o'quvchida ham qiziqish va o'z bilimlarini taqdim qila olish hissini paydo qiladi. Bu esa o'quvchida ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, yurtboshimiz I.A.Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga

etkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi lozim..., deya ta’kidlaydi¹⁰³.

Qayta xotirlash xarakteridagi bu kabi ishlarni akademik litseyning hozirgi o’zbek adabiy tili darslarida ham o’rta umumta’lim maktablari ona tili darslaridagi uzoq o’tilganlarni xotirlash tarzida davom ettirish mumkin. Mas: “Hozirgi o’zbek adabiy tili” (akademik litsey II bosqich) darsligining (4-dars. Bir ma’noli va ko’p ma’noli so’zlar. Ko’chma ma’nolar va ularning turlari) 191- betida berilgan 1- va 2-topshiriq¹⁰⁴larini bajartirish jarayonida ham quyidagicha davom ettirish mumkin:

Guruhdagi o’quvchilar 4ta guruhga bo’linadi. Guruhlardan ikkitasi asal va xom so’zlarining to’g’ri ma’nolari ustida ishlaydi, qolgan ikkitasi esa shu so’zlarning ko’ma ma’nolari ustida ish olib boradi. Bunda o’quvchilar izohli lug’atlar bilan ishlaydi. Izohli lug’at bilan ta’minlashning iloji bo’lmaganda o’qituvchi shu so’zlar aks etgan qismining nusxasi bilan guruhni ta’minlashi juda zarur.

Qisman izlanuvchanlik xarateridagi mashq va topshiqarlardan foydalanish bo’yicha tavsiyalar:

Bu turdagi mashq va topshiriqlarni ham, dastavval, darslik asosida tashkil qilish lozim. Chunki o’qituvchi o’quvchilarni doskada ishlashga o’rgatmog’i, darslik va qo’shimcha manbalar bilan ishlash malakalarini shakllantirib bor-mog’i ustuvor masala sanaladi. Darsliklarni tahlil qilish natijasida shunga amin bo’ldikki, akademik litsey “Hozirgi o’zber adabiy tili” darsligrida ham qisman izlanuvchanlikka asoslangan mashq va topshiriqlarni tashkil qilishga imkoniyat mavjud.

Akademik litsey darsliklarida ham qisman izlanuvchanlikka doir topshiriq va mashqlar talaygina. Masalan, akademik litseyning II bosqichi uchun yaratilgan “Hozirgi o’zbek adabiy tili” darsligida ham “10-dars. Omonim va sinonimlar hamda ularning uslubiy xususiyatlari” mavzusini mustahkamlashga doir mashqlarni ayni shu ta’lim usuli bilan tashkil etib, qayta xotirlashga qaratilgan topshiriq mazmunini davom ettirib, undan faqatgina qaysi janrda uchrashi mumkinligi bilan chegaralanib qolmasdan, uni qisman izlanishga qaratilgan tadbirlar bilan almashtiramiz. Masalan, o’quvchilar endi nafaqat janrni, balki shu janrga keng qo’llaniladigan she’riy san’atlar ustida ham bosh qotirishadi. Bu o’rinda tajnis san’ati yodga olinadi. Adabiyot darslarida o’rganilgan shoirlarning asarlaridan parchalar o’qib beriladi va undagi tajnislar aniqlanadi.

Tajnis (yoki jinos) she’r baytida ma’no jihatidan har xil, ammo shaklan bir-biriga yaqin ikki so’zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta’sirchan ifodalsh san’atidir. Lutfiyning

¹⁰³.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.–Тошкент:Маънавият, 2008.–176 б.

¹⁰⁴. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I, II, III talabalari uchun darslik. II kitob. – Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyot uyi, 2013. – 592 bet.


Ulkim ko 'ngul oldi zulfi xoli,

Ko 'ngludin emas xayoli xoli

Baytidagi qofiyadosh **xoli** so'zlari shaklan bir xil bo'lsa-da, lekin ikki xil ma'noni ifodalaydi: birinchi misrada mahbuba yuzidagi **xol**ni bildirsa, ikkinchi misrada "xoli emas" iborasidagi ma'noni bildiradi¹⁰⁵.

Ayni shu ma'lumotga o'xshagan tajnis san'ati ifodalangan janrda yozilgan ya'ni tuyuq janridan o'zlari mustaqil ravishda she'riy parchalar keltirishadi.

Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar: Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlarni ham o'qituvchi akademik litsey "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida berilgan o'quv materiallari asosida tashkil qilinishi mumkin. Masalan, omonimlar ya'ni shakldosh so'zlar haqidagi ma'lumotni o'rganishda ona tili materiallaridan adabiyot materiallariga siljish ishini amalga oshirish orqali tajnis san'atning boshqa turlariga oid ma'lumotlarga ham diqqatni qaratish va shu orqali integratsiyalshgan ta'limni o'quv jarayoniga tatbiq etish mumkin. Demak, siljishni quyidagi yo'nalish orqali aks ettiramiz:



Bu siljish yordamida omonimlar ya'ni shakldosh so'zlar yordamida adabiyot qoidalarida o'rganilgan yoki o'rganilayotgan tuyuq janri va tanis she'riy san'ati haqida chuqurroq ma'lumotga ega bo'ladilar. Qo'shimcha manbalardan bu she'riy san'at haqida o'qib-o'rganib har ikkala fanni omuxta o'zlashtiradilar.

Quyida shu she'riy san'atlarga misollar keltiramiz.

Tajnisi tommga:

¹⁰⁵ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati. 1998, 160 bet.

*Menga sensiz, begim, kunduz kechadur,
Dareg 'o, sensizin umrum kechadur. (Xo 'jandiy)*

Tajnisi murakkabga:

*Kitobat qilmadim behuda so 'zlar,
So 'zumni bilmagan behuda so 'zlar. (Xo 'jandiy)*

Tajnisi xattiga:

*Tilar bo 'lsang jahon ichra imorat,
Faqirlar ko 'ngluni qilg 'il imorat.*

Xullas, bu siljish orqali olib borilgan dars ikkala fanning integratsiyasini izlanuvchanlik xarakteridagi topshiriqlar asosida amalga oshirishga to'raligicha yordam beradi. Ko'rinib turganidek, samaradorlikka erishish uchun texnologiyalarni to'g'ri tanlash va uni darslikda berilgan nazariy ma'lumotlar hamda amaliy mashq va topshiriqlar bilan uyg'unlashtira olish muhim ahamiyat ega. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, akademik litsey ona tili ta'limida qo'llaniladigan qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlarning mazmuni va mohiyati, tatbiq etish yo'l-yo'riqlari integratsiyalshgan ta'lim metodiga moslashtirilsa, albatta, samaradorlikka erishish imkoniga muvaffaq bo'lish mumkin. Bajariladigan har bir mashq va topshiriq kichik guruhlarning a'zolari tomonidan hamkorlida amalga oshirilsa, o'z-o'zidan darsda o'quvchilar faolligi yuzaga keladi va bu darsning yanada samarador bo'lishini ta'minlaydi.

SINONIMLAR VA ANTONIMLAR USLUBIYATI

Boboxonova D. A., NamDU dots., f.f.n.,
Yoqubjonov M.R., 2-kurs talabasi

Til jamiyat uchun xizmat qiladi, jamiyat a'zolari muloqotini ta'minlaydi. Sinonimlar va antonimlar muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Sinonimlar ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar bo'lib, o'zaro nozik ottenka bilan farqlanib turadi. Shuning uchun ham ayrim hollarda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash ma'noga kuchli ta'sir etmaydi, ammo ayrim hollarda bunday almashtirish mumkin emas. Masalan, boshiga urdi-kallasiga urdi, deyish mumkin bo'lgani holda «boshim osmonga yetdi» ni «kallam osmonga yetdi» deb qo'llab bo'lmaydi.

Bir qator sinonimlar o'rtasidagi farq sezilmas holga kelib qolganki, buni aniqlash, tushunish va tasavvur etish hamisha mumkin bo'la bermaydi¹⁰⁶.

¹⁰⁶ Qarang: Xolmonova Z.T. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2019, 5-bet

Masalan, **isqirt, irkit, isliqi, iqna; majol, mador, hol; bo'ron, dovul; ishq, sevgi, muhabbat; asal, bol; totli, mazali** kabilarning nozik ma`no ottenkalarini izohlash kimlar uchundir qiyin.

Sinonimlar nutqni ravon qiladi, voqea-hodisalarni nozik nuqtalarigacha aniq va mufassal ifodalash imkonini beradi, shuning uchun ham sinonimlar va ulardan to'g'ri, o'z o'rnida foydalanish stilistikaning bosh masalasidir. Stilist sinonimlar o'rtasidagi ottenkani aniq ochib berishga intilishi lozim.

Sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar ma'nosi va qo'llanishiga ko'ra o'zaro farq qilishi mumkin. Masalan, **oraz, chehra, jamol, sabo, tabassum, dudoq, kokil** kabi so'zlar, asosan, poetik (badiiy) nutqqa xosligi bilan; **xasta, betob** kabilar eskirganligi va jonli nutqda, **bemor** so'zi badiiy nutqda ko'p ishlatishi bilan ajralib turadi.

Sinonim so'zlarning bir guruhi salbiy yoki ijobiy munosabat bildiradi: ular jonli so'zlashuv va badiiy uslubda munosabat ifodalashga xizmat qiladi: **chehra, jamol** so'zlari ijobiy; **aft, bashara** so'zlari salbiy munosabat ifodalaydi, **diydor** so'zi esa qanday so'z bilan birikishiga ko'ra ham ijobiy (diydoriga to'ymoq) ham salbiy (diydoring qursin) munosabat ifodalashi mumkin.

Sinonimlar quyidagi xususiyatlarga ega:

a) so'zlovchining shaxs, predmet va voqelikka munosabatini qo'shimcha izohsiz aks ettiradi;

b) nutqni ravon, jozibali, ta'sirchan qiladi;

v) voqelikning nafis nuqtalarigacha (nozik ottenkalar) ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi;

g) gap ichida o'rinsiz takrorga chek qo'yadi (aks ettiradi, tasvirleydi, bayon qiladi, ifodalaydi kabi);

d) juftlashib kelganda ma'noni kuchaytiradi, umumlashtiradi;

ye) biri ikkinchisiga aniqlovchi bo'lib kelib, fikrni obrazli ifodalaydi: Saida damo-dam iljayib kulayotibdi, (A.Q.);

yo) birini ikkinchisiga zid qo'yish orqali vaziyatni yumshatishga intilishni ko'rsatadi: Bunisi oq mum . . . shimisa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'ladi. (A.Q.);

Ba'zan esa bunday zid qo'yish orqali ma'no kuchaytiriladi: Yig'latti meni demaki, siqtatti meni. (N.);

j) ikki sintaktik butunlik tarkibida qo'llanib, biri ikkinchisining ma'nosini xarakterleydi, aniqlaydi, ajratadi: ... yana kuldi, yosh boladay o'zini tutolmay qiqirlar edi. (A.Q.)

Alisher Navoiy «Muhokamatul-lug'atayn» asarida sinonimlar, ularning qo'llanishi va ma'nodagi farqlarini o'z vaqtida juda keng va aniq bayon qilib berganki, bu zamonlar osha ham o'z qiymatini yo'qotmay kelmoqda.

Antonimlar (gr. anti-qarshi va onuma-nom) qarama - qarshi ma'noli so'zlar bo'lib, biri ikkinchisini inkor etadi, lekin bu inkor yangi tushuncha bilan bog'liq bo'ladi. Bu tushuncha esa voqea-hodisalarda tabiiy manfiy va musbat tomonlarning mavjudligini hamda ularning o'zaro nisbiy aloqadorligini aks ettiradi. Masalan: katta borligi uchun kichik bor, keng borligi uchun tor bor, kecha borligi uchun kunduz bor, yaxshi borligi uchun yomon bor, demak, antonim qarama-qarshi ikki qutbdir.

Antonimdagi inkor umuman inkor etish emas, biror narsa-hodisaning qarshi tomoni (ikki argumentdan biri) ni tasdiqlash orqali inkor etishdir. Masalan: «uzun» so'zining inkori «kalta» («qisqa»)dir. Lekin bu antonimlik inkordir. Uni «uzun emas» deb inkor etish ham mumkin, lekin bunda «uzun»lik inkor etilsa ham, «kalta»lik tasdiqlanmaydi. Shu sababli «uzun» va «uzun emas» antonim bo'la olmaydi.

Antonim tushunchasi antonim so'zlarining birga (juft) kelishi yoki bir gap tarkibida qo'llanishi bilan bog'liq. Ayrim gap tarkibida qo'llangan antonim fikr ifodasidagi zarur so'z sifatida xizmat qiladi, xolos. Masalan, Uzoq yo'l bosib keldi, gapida antonim yo'q, uzoq so'zi shu gapda tasvir uchun zarur bo'lgan xolos.

Matniy antonimlar deb yuritiluvchi hodisalar mohiyat e'tibori bilan antonim emas, masalan, iliq qarash qildi - yov qarash qildi kabilarda antonimik munosabat aks etsa ham, bu yerda hech qanday antonim yo'q. Demak, leksik jihatdan so'zlar ayrim olinganda bir-birini tasdiq yo'li bilan inkor etsagina antonim bo'la oladi.

Antonimlar fikrni lo'nda, aniq va ta'sirli ifodalashda, badiiy tasvirda turli usullarni qo'llashda muhim uslubiy vositadir. Ular so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslubda keng qo'llanadi, rasmiy–ish va ilmiy uslubda esa kam ishlatiladi.

Antonimlarning uslubiy xususiyatlari quyidagicha:

a) narsa-hodisalarni umumlashtiradi, jamlaydi (juft holda), bu juftlik ifodalagan mazmun-tushunchani boshqa so'z, ibora, gap bilan berish mutlaqo mumkin emas. Majlisga **katta-yu kichik** to'plandi. Mana shu umumlashtirish orqali fikr kuchli, ta'sirli va obrazli ifodalanadi;

b) antonimik juftlikdan foydalanib, birining ma'nosi kuchaytiriladi, alohida ta'kidlanadi, tinglovchiga ta'sir etiladi. Kuchaytirish ko'pincha keyingisiga nisbatan bo'ladi: **yuraging yumshoq, irodang qattiq**;

v) real voqelikni tasviriy ifodalashga xizmat qiladi: Saida goh boshqalardan **oldin**, goh boshqalardan **keyin** boychechak aytar edi. (A.Q.) **Tashqarisi** boshqayu, **ichi** boshqa (A.Q.) – kontrast, antiteza hodisasi; «Sevimli yozuvchimiz Oybek antonimlarning bu xususiyatidan juda ustalik bilan foydalangan».¹⁰⁷

¹⁰⁷ Samadov Q., Oybekning «Bolalik» asari va uning tili haqida. O'TA, – Toshkent, 1964, 6, 34-bet

g) ma'noni bo'rttiradi, vaziyatning oxirgi chegara-imkoniyat darajasida ekanini ko'rsatadi: Qalandarov kechani **kecha**, kunduzni **kunduz** demay, o`z ishiga juda qattiq yopishdi. (A.Q.)

Nutqda sinonimlar va antonimlardan o'ylab va o'rinli foydalanish zarur, aks holda fikriy xiralik, chalkashlik kelib chiqadi. Agar sinonimlar va antonimlar nutqda o'rinli foydalanilsa, nutqiy ta'sirchanlikka erishiladi.

НУТҚИЙ МУЛОҚОТНИНГ ЯКУНИЙ БОСҚИЧИ ҲАҚИДА

Тоирова Гули Ибрагимовна, БухДУ доценти,
Зарипова Азиза, БухДУ талабаси

Нутқий мулоқот ўз навбатида бир неча босқичларга бўлинади. Булар: нутқий мулоқотнинг бошланиши(саломлашиш), нутқий мулоқотни сақлаш(сухбат жараёни) ва нутқий мулоқот якуни(хайрлашиш). Хайрлашиш — маънавий тамойилларга асосланадиган хатти-ҳаракат шакли, нутқ одоби унсури. Ҳар қандай нутқий мулоқот тури хайрлашиш билан якунланади. Худди саломлашишдаги сингари хонани тарк этадиган ёки ким учун мақбул бўлса, у биринчи бўлиб хайрлашади. Худди шундай талаб қўл бериб Хайрлашишга ҳам тааллуқли: катта биринчи бўлиб кичикка қўл узатади. Ташриф буюрувчининг хизмат хонасидан бирор ишга алоқадор масала ҳал этилгандан кейин чиқиб кетиши олдидан сухбатдошига стол устидан қўл узатиши ножоиз ҳисобланди. Ёши ўзидан катта шахс ёки аёл билан сухбатлашган ижтимоий ходим учун энг яхши йўл қуйидагилар ҳисобланади: ташриф буюрган, хайрлашиш учун ўрнидан туриб кетишга чоғланганда ўриндан туриш. Кексайган, айникса, ногирон киши кетаётганда уни эшиккача кузатиш одобдан бўлади. Сухбатнинг якуни сифатида хайрлашиш бир қатор ўзига хос вазифани ўтайди: биринчидан, бу одатдаги одобга риоя этиш; иккинчидан, коммуникатив алоқани якунловчи бир ҳаракат.

Нутқий мулоқотнинг ҳар бир босқичи вербал ёки новербал шаклда ўз ифодасини топади. Шу ўринда хайрлашиш ҳам вербал ва новербал кўринишларга эга бўла олади.

Масалан, («хайр», «кўришгунча», «яхши қолинг», «хайр, кўришгунча») ва новербал — айтилган сўзга қўшимча тарзда енгил таъзим, қўл ҳаракати ва ҳ. орқали намоён бўлиши мумкин. Чунончи, *Одамлар соддалиги! Одамларнинг софлиги... азиз армонлари. Йўқ, булар мени бу дунёга сиздирмайди. Мен қаёққа боришим керак? Қора ерда мен ётсам бўлмасмиди!- Акбарали қабр тошидан бошини кўтарди. – Мен яна ўзимни ўйлаяпман. Наҳотки, шундан бошқага ярамасам? Бирзумлик хато... Бир нафас тубанлик... уни энди бутун ҳаётни бериб ҳам тузатиб бўлмайди. –*

Акбарали ўзининг ҳайкалига қаради. – Хайр... Бектемир ака ...
(А.Мухтор. Чинор).

Кеча мазор бошига бориб, дадангни мазорини суваб келдим. Раҳматли орзу-ҳавасингни кўролмай кетди. Тунов куни Собиржондан хат келган экан, сени сўрабди. Яхши, дедим. ишқилиб, қаерда бўлсанг ҳам омон бўл
(Ў.Умарбеков. Совға).

Ёки: Иброҳимбий: Буйругингиз қайтармоқ қўлимдан келмайдир, қабул этаман. Бироқ бир кун менинг ҳам ўлимимга ҳукм чиқарарсиз, хоқоним!

Хон: Қабул этдингми?

Иброҳимбий: Қабул этдим.

Хон: Эмди чиқиб, сақловда ётингиз. Эрта билан ёрлиқларингиз чиқар. Иккаласи ҳам дуо қилиб, енгил тазим ила чиқиб кетарлар
(А.Фитрат. Абулфайзхон).

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, нутқий мулоқотнинг якуний босқичи – хайрлашувдир. У нутқий мулоқотнинг таркибий қисми ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1977. – С. 52.
2. Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // Звегинцев В.А. История языкознания в очерках и извлечениях. Ч. II. – Москва: Просвещение, 1965. – 85 с.
3. Почепцов Г.Г. О месте прагматического элемента в лингвистическом описании // Прагматические и семантические аспекты синтаксиса. – Калинин: КГУ, 1985. – С. 12-18.
4. Султон И. Асарлар. Тўрт томлик. 1-том. Драматургия. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 440 б.
5. Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 358 б.
6. Тоғай Мурод. От кишнаган оқшом. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 365 б.
7. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 270 б.
8. Тоғай Мурод. Бу дунёда ўлиб бўлмайдим. – Тошкент, 2001. – 102 б.

AFORIZMLARNING LUG'AVIY-QIYOSIY TAHLILI

Yuldashev Farxod Karimbayevich, O'zDJTU katta o'qituvchisi

Alisher Navoiyning adabiy merosi shu qadar sarmazmun va badiiy barkamolki, bu ma'naviy qadriyatlardan har bir avlod o'z zamonasi taqozosiga ko'ra bahramand bo'laveradi.

Mavlono Mir Alisher Navoiyning adabiy me'rosini o'rganish bilan bir qatorda uning she'riyatini, xususan u tomonidan aytilgan xikmatli so'zlarini turli tizim tillarida qiyosiy o'rganish juda muhimdir, sababi ular avvalo tarbiyaviy ahamiyatga egadir, chunki ular kishilarni axloq – odobga, ma'rifatga, sabr-qanoatga chaqiradi, hamda odamlarga pand-nasihah berishga undaydi.

Alisher Navoiy hikmatli so'zlarining chet el tarjimalari kam. Jumladan, 1960 yillarda Hamid Sulaymon nashrida Navoiyning hikmatli so'zlari asliyatda, ruscha, nemischa, inglizcha, fransuzcha, forsha va yaponcha tarjimalari bilan; S.Mutalliboyev nashri hozirgi tildagi bayoni bilan berilgan. Shundan so'ng ko'p yillar davomida bu tarjima jarayoni to'xtab qolganini ko'ramiz.

Oxirgi paytlarda Alisher Navoiy aforizmlari, umuman Navoiy ijodi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi va bu sohaga katta e'tibor berilayotganligining guvohi bo'layapmiz. Jumladan, iste'dodli tarjimonlarimizdan Yo'ldosh Parada tomonidan 2000 yilda ikki – ingliz va nemis tillariga o'girilgan Alisher Navoiy hikmatlari bu sohadagi yana bir yangi tadqiqot asliyatdan dalolatdir.

Ushbu maqola o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan Alisher Navoiy aforizmlarining lug'aviy tavsifini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, tahlil jarayonida tarjima natijasida so'z tartibining o'zgarishi, so'z tanlashda xatolikka yo'l qo'yilgan xolatlarni uchratishimiz mumkin.

O'zbek tilida inversiya, ya'ni so'z tartibining o'zgarishi hodisasi ko'p uchrasa-da, ingliz tilida aksincha, so'z tartibiga qat'iy rioya qilinadi. Ingliz tili sistemasida quyidagicha so'z tartibi SVO [subject-verb-object] kuzatilsa, o'zbek tili sistemasida esa SOV [ega-to'ldiruvchi-kesim] kuzatiladi. Ushbu o'zgarishlarni Alisher Navoiy aforizmlari tarjimalarida namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Masalan:

* Har kishikim birovga qazigay choh,

Tushkay ul choh uza o'zi nogoh [Sulaymonov va boshqalar, 1968, 18 b.]

* He who digs a hole for others as a share,

Himself will find entombment there [Sulaymonov va boshqalar, 1968, 96 b.]

Navoiy aforizmlarida tarjimon tilshunos ko'proq misra oxiridagi so'zlarning mos kelishi (qofiyadosh)ga e'tibor bergan. O'zbek tilidagi *har kishikim* belgilash olmoshi ingliz variantida *He who [u kim]* shaklida berilgan. Shuningdek o'zbek tilida jo'nalish kelishigi shakli berilgan bo'lsa, ingliz tilida uning o'rniga *for [uchun]* ko'makchisi ishlatilgan. Keyingi qatorda esa *choh uza* so'z shakli o'rnida *there [o'sha yerda]* so'zi shakli qo'llanilgan. O'zbek tilidagi *tushkay* fe'li o'rnida ingliz tilida *find [topadi]* fe'li qo'llanilgan. Huddi shunday o'zgarish birovga so'z

shaklining ingliz tilida *others [boshqalarga]* soʻz shakli bilan almashtirilganini ham koʻrish mumkin.

Yana shuni aytish joizki, badiiylik nuqtai nazaridan qaralsa, aforizmning asosiy mazmuni oʻz ifodasini topgan boʻlsa ham, ayrim soʻzlarni toʻgʻri tanlay olmaslik natijasida, maʼlum darajada badiiylikka putur yetgandek tuyuladi. Misol uchun, Alisher Navoiy *choh* soʻzini ikki marta, har ikki qatorda qoʻllash orqali taʼkidni ancha kuchaytirgan, ohangdorlik boshqacharoq tarzda, yoqimli, kuchli ifodalangan.

Baʼzan ingliz tilida oʻzbek tiliga, aynan oʻzbek millatiga xos soʻz shakllari uchrab turadiki, ularni tarjima qilib boʻlmaydi, balki tarjima qilinayotgan tildagi shunga yaqinroq soʻz shakli yoki ibora tanlanadi. Bu esa tarjimondan xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini chuqur bilishni talab etadi.

Bilmaganni soʻrab oʻrgangan olim,

Va orlanib soʻramagan oʻziga zolim. [Sulaymonov va boshqalar, 1968, 36 b.]

He be a scholar who ask what he knows not,

He be on evil doer for himself if of shame he asks. [Sulaymonov va boshqalar, 1968, 133 b.]

Endi soʻz tanlashda xatolikka yoʻl qoʻyilganligi holatlarini koʻrib chiqamiz.

* *Ushoq qand oq tuzga monand erur.*

Va leki biri tuz, biri and erur. [Sulaymonov va boshqalar, 1968, 17 b.]

* *Sugar is to salt as brother is to brother.*

But was to him woe takes one for the other.

Bu aforizmning inglizcha variantida soʻzlar mutanosibligiga duch kelamiz. Eʼtibor beraylik-a, Alisher Navoiy nima demoqchi? Ushoq qand (shakar) bilan tuz ham shaklan, ham rangining oqligi bilan bir-biriga oʻxshaydi, lekin ulardan birining taʼmi shoʻr, biri esa shirin, yaʼni bu xalqimizdagi bir maqolga teng keladi: “Hamma yaltirab koʻringan narsa ham oltin boʻlavermaydi”. Ingliz tili variantida “ushoq qand” va “shakar”ni oʻxshatishganligini huddi aka-uka singari “as brother is to brother” deb olingan. Qanday qilib, “qand” bilan “tuz” bir-biriga shau darajada yaqin qondosh boʻla olsin?

Endi ikkinchi misraga eʼtibor beramiz:

But was to him woe takes one for the other. – kimki biridan boshqasi oʻrniga foydalansa holiga voydir.

Birinchi misradagi oʻxshatish shunday kuchliki, natijada bu ikki jism bir turkumga mansub, birini biridan ajratish mushkul. Biroq ikkinchi misra buning tamoman aksi, soʻz tanlashda qandaydir mantiqiy xatolikka yoʻl qoʻyilganki, natijada soʻzning goʻzalligiga, aforizm mazmuniga putur yetgan. Agar “aka-uka” oʻrniga boshqa “togʻa jiyan” yoki shunga oʻxshash qarindosh olinganida edi, bu oʻxshatiluvchi soʻzlar ikkinchi misradagi soʻz maʼnolariga zid kelmas edi.

Tahlil jarayonida tilshunoslikda uchrab turadigan bunday til muammolariga Alisher Navoiy asarlarida ko'p ekanligiga guvohi bo'ldim. Sababi, birinchidan, Alisher Navoiy asarlarining yozilishi davri, Sharq an'alarining o'ziga xosligi, ikkinchidan Islom dinining kuchli ta'siri ekanligidan dalolatdir. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy asarlarini ochilmagan qirralari, ufqlari ziyolilarni ilm-fan va yangi tadqiqotlar sari chorlayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Alisher Navoiy tilining Grammatik xususiyatlari. – T.: Fan nashriyoti, 1984.
2. Rustamov A. Alisher Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
3. Sulaymonov X., Sulaymonova F., Mutaliboyev C. va b. Alisher Navoiy hikmatli so'zlari. – T.: 1968.
4. https://ziyo.uz/hikmatlar/aforizmlar/alisher_navoiy_hikmatlari

A.ORIPOV DOSTONLARI TILIDA ESKIRGAN LEKSEMELAR

M. Ergashova, QDPI, f.f.n., dotsent,
M. Mamatqulova, magistrant

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham boshqa qator fanlar singari tizimli asosda yondashish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga kirishildi. Buning natijasida badiiy asarda adabiy tilning barcha sath birliklari uchun xos bo'lgan xususiyatlar tavsifiy yondashuvdan tahliliy, ya'ni yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

Tarixiy janrda qalam tebratgan adib tasvir etilayotgan davr hayotining manzarasini to'la gavdalantirish, ya'ni asarning haqqoniyligini ta'minlash uchun o'sha davrning tiliga oid xususiyatlarni ham saqlashga majbur. Albatta, o'tmishning, ayniqsa, uzoq o'tmishning kishilari tilidagi xususiyatlarni tasvirlashda ma'lum me'yorni saqlash zarur, chunki hozirgi zamon adabiyotida tasvirlangan o'tmish kishilari to'la-to'kis ravishda o'z zamonining tili bilan gaplashsalar, ularning tili bugungi o'quvchi uchun tushunilmasligi mumkin.

Shunday ekan, badiiy asardagi har bir so'z va shular qatorida kam iste'mol doirasida bo'lgan tarixiy so'zlar ham badiiy asarning yaratilishida, uning estetik qimmat va ta'sir ko'lamida muhim ahamiyatga ega. Badiiy ijodda boshqa so'zlar singari tarixiy so'zlarning ham o'ziga xos o'rni bor. Tarixiy so'zlarning o'ziga xos funksiyalari aniqlanib, tadqiq etilishi bu sohada yangi fikrlar paydo bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Tarixiy so'zlar arxaizm va istorizmlardan iborat bo'lib, ularning qaysi janrda qo'llanishi ham uslubiy o'ziga xoslikni namoyon qiladi.

“Ma’lumki, eskilik buyog‘iga ega bo‘lgan, bugungi kunda ham ma’nodosh-sinonimi mavjud so‘zlar - arxaizmlarning leksik, semantik, grammatik arxaizmlar kabi ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, badiiy asarning to‘laqonligini ta’minlovchi omillardan biri sifatida o‘z o‘rniga ega.

“O‘zi anglatgan narsa va hodisalarning yagona atamasi bo‘lib, hozirgi hayotda uchramaydigan faqat tarixiy narsa, yoki voqea hodisalarning nomini bildiruvchi istorizmlardan (istorizm- yunoncha so‘z bulib, historia - «tekshirish», «tadqiqot» demakdir)¹⁰⁸ esa tarixchilar, olim va yozuvchilar tarixiy voqea va hodisalarning real tasvirini berish, badiiy asarga tarixiy ruh berish uchun foydalanadilar”¹⁰⁹. “Arxaik so‘zlar tarixiy voqea, hodisalarni real tasvirlashda uslubiy vosita bo‘lib, badiiy asarlarda, ba’ziijtimoiy-siyosiy uslubda yozilgan tanqidiy maqolalarda nutqqa kinoya, piching, mazax-masxara ruhi va hajv ottenkasini berish uchun ham ishlatiladi”¹¹⁰. H.Abdurahmonov va N.Mahmudov “Arxaizmlarning stilistik imkoniyatlaridan biri uning badiiy nutqqa nazokatli, “yumshoq” ruh berishidir”¹¹¹, deya ta’riflaydilar.

Istorizmlar kam iste’mol doirasida bo‘lishiga qaramay, “Sohibqiron” tarixiy she’riy dramasida ahamiyatli o‘rin egallaydi va uning estetik qimmatini oshirishda etarlicha xizmat qiladi. Arxaik so‘zlar asardagi tarixiy voqealarni haqqoniy, ishonchli qilib tasvirlashda muhim uslubiy va estetik vosita vazifasini o‘taydi.

Xoja Yusuf! Samarqandning siz dorug‘asi,
Tantana-yu to‘ylar uchun shahar tayyormu?
Konigilda bazm bo‘lg‘ay qirq kecha kunduz²

Ushbu badiiy ifodadagi “*dorug‘a*” so‘zi ham dostonga muayyan ohangdorlik bag‘ishlaydi. Ijodkor dostonning ta’sirchanligini kuchaytirish maqsadida “*hokim, ish boshqaruvchi*” leksemalari o‘rnida “*dorug‘a*” leksemasini o‘rinli qo‘llaydi. Bu erda “*dorug‘a*” leksemasidagi “obro‘li”, “mo‘tabar”, “tabarruk”, “martabali”, “hurmatli” kabi ichki ma’nolari matnda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ushbu ifodada o‘zbeklarga xos o‘zbekona milliy an’analarimiz, milliy qadriyatlarimizga nisbatan yuksak hurmat va ehtirom tuyg‘ulari o‘ziga xos ifodasini topadi. “Dorug‘a” so‘zi yordamida yuqoridagi yashirin ma’nolar yuzaga chiqib, ajratilib, bo‘rttiribroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Olampanoh nomidagi u masjid esa

*Biznikidan sal mo‘jazroq,
Xijolatdaman.¹*

¹⁰⁸Ўзбек тили практикуми 1- қисм [Фонетика. Лексикология. Фразеология. Морфемика. Сўз ясалиши]

¹⁰⁹Шомақсудов А., Расулов И., Қўчқоров Р.Ўзбек тили стилистикаси.Т.:Ўқитувчи.1983.-Б.52.

¹¹⁰Ўша китоб.-Б.51.

¹¹¹Абдурахмонов Х.,Маҳмудов Н.Ўша китоб.-Б.19.

² Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Иккинчи жилд.Т.,2001. -Б.411.

¹ Абдулла Орипов.Ўша китоб.-Б.396.

Bu erda ijodkor shoh, xon leksemalari o‘rnida “*olampanoh*” leksemasini qo‘llaydi. *Olampanoh* arxaizmi, dostonga birinchi o‘rinda tantanavorlik ruhini bag‘ishlasa, ikkinchidan u voqelik, tuyg‘u va shaxsning o‘ziga xos tomonlarini, sifatlarini aniqlab, ajratib, bo‘rttirib ko‘rsatish xususiyati bilan epitet, ya‘ni sifatlash “badiiy aniqlovchi” vazifasini bajaradi. Ma‘lumki, shoh, xon, olampanoh leksemalarining birlashtiruvchi umumiy belgisi ular tarkibida “muayyan hududni boshqaruvchi”, “mansabdorlik”, “mansabdor shaxs“, “ulug‘ mansab egasi” semalarining mavjudligidir. Shoir doston voqealari davriga xos haqqoniylikni ko‘rsatish, sub‘ektiv munosabatni aniq va ravshan ifodalash maqsadida “*olampanoh*” leksemasidan o‘rinli foydalangan.

*Yer yuzining adadi yo‘q barcha boyligi
Samarqandga oqib turgan shunday zamonda
Raiyatga siz ortiqcha soliq solibsiz.*¹¹²

Ushbu she‘riy parchada qo‘llangan raiyat leksemasiga e‘tibor qaratar ekanmiz, uning arxaikligi, hozirda iste‘mol doirasida emasligi, shuningdek, dostonga ta‘sirchanlik va tantanavorlik baxsh etishini kuzatamiz. Bunda shoir raiyat leksemasini qo‘llash bilan “xalq”, “fuqaro” semasiga ishora qiladi va dostonning tarixiyligini ta‘minlash bilan birga estetik qimmatini oshirishga erishadi.

*Ana, maydon to‘layotir xaloyiq bilan
Samarqand xo‘b sog‘inibdur valine‘matin.*¹¹³

Taking considering as example of *moslashmoq* in Uzbek anybody finds a lot of words in English like *to adapt, to affirm, to assent, to borrow, to embrace* and etc. Some of them are used in different situations or have the same meaning but differ in minor ways or in emotional and stylistic connotation. Obviously, Uzbek language is renowned with its rich unique vocabulary. Uzbek linguistics has a great deal of experience in dealing with synonyms, and there is a wide range of research in this regard. The first insights on the synonymy phenomenon in the Uzbek language and the interrelationship between the language units that occur during this event are devoted to the lexicology of the Uzbek language and are intended for use in various stages of learning area. There are various types of dictionaries in lexicography in Uzbek language such as the Uzbek language

explanatory dictionary, Uzbek language active words dictionary, the synonymy and antonym dictionaries and etc. The Uzbek language synonymy dictionary, as an example, is seen by Azim Khodjiyev. This dictionary has more than 5000 words. These words are ordered by alphabetically and it has no any concepts or textual connections. In this dictionary, the words are given with some synonymies. The pro side of this dictionary is to be given examples to each word from literary books, for instance: *avvalgi, oldingi, ilgarigi, burungi, qadimgi, sobiq*. They mean the former, the past; *avvalgi, oldingi* – they are used for actions of recent past in uzbek (*Boboxo‘ja domla mudirligni topshirishi bilan avvalgi ahvoliga tushib qoldi* (P.Tursun)), *oldingi* is used for simple conversation (*Oldingi vaqtlarda kishilar buning sababiga tushunmagan edilar(so‘zlashuvdan)*), *ilgarigi* is used for a long past actions rather than words *avvalgi, oldingi* (*Azamatning yolg‘iz o‘zi!-deb usta Olim ilgarigi so‘zini qaytaladi* (A. Qodiriy)). The words *burungi, qadimgi* are used more longer past actions and strong meaning than others (*Burungi vaqtda erlarga cho‘ri bo‘lgan xotinlar hozir erlar bilan teng* (A.Qahhor)). The word *sobiq* is for literary book style and used to the former person or things (*Abdurasul Matholiqov Olaxo‘janing sobiq qaroli bo‘lib, ilgari ikkovlario‘rtasida ko‘pgina janjalham bo‘lgan* (P.Tursun)) [4].

When we come to the sphere of creation Uzbek language thesaurus, firstly, we should form the Uzbek language base lexically. In this way, we can use the commercial corpus management software program Sketch Engine. This software checks to see which words occur with the same collocates as other words, and on the basis of this data it generates a "distributional thesaurus". A distributional thesaurus is an automatically produced "thesaurus" which finds words that tend to occur in similar contexts as the target word. The thesaurus function lists, for any given adjective, noun or verb, the other words most similar to it in terms of grammatical and collocational behavior. Uzbek language base is also added to this software. Unfortunately, it does not show the power of Uzbek language vocabulary. Because it was not included Uzbek archaic words, jargons, slangs and neologisms. As an example, the word *motivation* we can take and there are more than 40 words as synonymy. The words are given as synonymy to motivation at the figure below.



Motivation as *motivatsiya* is new word for Uzbek language, instead of it usually used another words such as *turtki*, *omil*. If we give to find synonymies of *motivatsiya*, totally different words are come to the screen. However, the word *turtki* is given instead of motivation, partially synonymic words are appeared in collocation list as well. Based on above-mentioned information, before creation thesaurus all words should be classified according to the concepts. So the list of concept should be made and all words are distributed to them.

Our purpose to create the synonymy for thesaurus to compile all synonyms by Sketch engine as corpus based approach and to list them as dataset for machine learning and natural language processing. However, it is useful for collect as synonymy human aided technology to identify what omitted and what are misused set of lemmas. After that to compare and analyze translation for each pair of languages English and Uzbek.

Literature

1. Gerd A. S. Databases and applied linguistics. Reports of the scientific conference "Corpus linguistics and linguistic databases" / Pod. Ed. A. S. Gerda. - St. Petersburg.: Publishing house S.-Petersburg. University, 2002. - 168 p.
2. Jarmasz, Szpakowicz, Roget thesaurus and similar structure. 2003
3. Sedelow, S.Y., Sedelow, W.A. (1994). Thesauri and Concept-Lattice Semantic Nets, Knowledge Organization and Quality Management.
4. A.Khodjiyev Uzbek language synonymy dictionary. Tashkent, 1974.

АБУ АБДУЛЛОҲ РУДАКИЙ ШЕЪРИЯТИНИНГ ЎЗБЕКЧА ТАРЖИМАСИДА ҚАРИНДОШЛИК ВА ЯҚИНЛИК МАЪНОСИДАГИ ЛУҒАВИЙ БИРЛИКЛАР ҲАҚИДА

Расулова Ш.Х., Носир Хисрав номидаги
Бохтар ДУ ўқитувчиси, (Тожикистон.)

Абу Абдуллоҳ Рудакий Х1 аср тожик-форс мумтоз адабиётининг йирик асосчиларидан биридир. Унинг бой назмий меросидан бизгача 1000 мисра атрофида «улуш» етиб келган. Бу мерос Шоислом Шомухамедов томонидан

Ўзбек тилига таржима қилиниб, 1994-йили Тошкентнинг «Шарқ» матбааси томонидан нашр этилган [1].

Қариндошлик ва яқинлик маъносидаги сўзлар ўзбек ва бошқа туркий халқлар тилшунослигида қиёсий-типологик режада атрофлича ўрганилган [2]. Бироқ бадиий адабиётда, хусусан, айрим ижодкорлар асарларн тилида ишлатилган қариндошлик ва яқинлик маъноларини билдирувчи сўз-атамалар, уланинг лисоний хусусиятлари ўрганилмаган.

Мазкур илмий ахборотда Абу Абдуллоҳ Рудакий бадиий ижодининг ўзбек тилига таржима қилинган вариантида учровчи қариндошлик ва яқинлик маъносини билдирувчи луғавий бирликлар ва уларнинг айрим лисоний хусусиятлари хусусида сўз юритиш мақсад этилган.

Ҳар бир тил луғат таркибининг салмоқли қисмини қариндошлик ва яқинлик маъноларини ифодаловчи сўз ва атамалар ташкил қилади. Бундай сўзлар, оғзаки нутқда бўлганидек, адабий тилнинг бадиий услубида ҳам фаол ишлатилади.

Қариндошлик ва яқинлик маъноларини билдирувчи сўз ва атамалар тизими тил луғат таркибига нисбатан ўзига хос макроқурилма характерини касб этади. Бу гуруҳ луғавий бирликлари мажмуаси ҳам, луғат таркибининг бошқа макроқурилмалари каби, бир қатор ички, гомоген тагтизимлардан ташкил топади..

1. Қариндошлик маъносини билдирувчи сўзлар.

Қариндошлик маъносини билдирувчи сўзлар тизими дастлаб: а) вертикал чизик тавсифида қариндошлик маънолари; б) горизонтал чизик тавсифида қариндошлик маъноларини билдирувчи гуруҳларга бўлинади. Сўнгра ҳар икки гуруҳ ҳам эр жинсидаги қариндошликни билдирувчи, аёл жинсидаги қариндошликни билдирувчи сўзлар сингари таггуруҳларга ажралади. Қариндошлик маъносидаги сўзлар тизимида эр ва аёл жинси фарқланмайдиган, яъни умумжинсни билдирувчи алоҳида таггуруҳ ҳам мавжуд. Буларга *набира, эвара, чевара, жиян, амакивачча, тогавачча, холавачча* сингари сўз-номлар киради.

.Вертикал чизик тавсифида қариндошлик маъносини билдирувчи сўзлар гуруҳининг биринчи тагуруҳига *бобо (отанинг отаси, онанинг отаси), ота, ўғил* сўзлари мансубдир. Бу тизимнинг иккинчи таггуруҳини *буви (отав а онанинг онаси), она, қиз* сингари сўз-номлар ташкил қилади. Бироқ бу сўз-номлар Рудакий шеъриятининг ўзбек тилига ўгирилган вариантида учрамайди.

Рудакий шеъриятида мазкур тизимга мансуб *ота, она, фарзанд, ўғил* каби сўз-номлар фаол ишлатилган:. Мисолларга эътибор беринг:

1. Отада одоб-у, билим бўлса ҳам, Ундан нсибасиз қолибдир фарзанд.

2. **Отанг** гўнг таширди, мисоли эшак, **Онанг** ўйин тушар, бозорда қарсак.
 3. **Онага** топширди жонсиз танани, Азиз **отасига** сипор этиб жон.
 4. Қадаҳ узатади гўзал бир санам, **Онаси**—хотин-у, **отаси**—ҳоқон.
 5. **Ота**, **она** унга солишар қулок, Танбал-у, ёлгончи, расво, у бироқ.
 6. Фарзоналик, афсус, наслдан ўтмас, **Отанинг билими** ўглига етмас.
 7. Раво эмаски ўз **онасидан** Ажратиб олинса ҳали ёш ўғлон.
8. Ўғли ҳам эмассан Хуросон шоҳин, Ул кутиб ўлтирар, не берса жаббор.

Рудакийнинг бадий ижоддаги теран маҳорати шундаки, у *она*, бола сўзларини уларга умумтилда расмийлашмаган кўчма маъноларда ҳам ишлатиб, «*шароб кучи ва унинг салбий, нохуш оқибати*»ни кўрсатмоқчи бўлган:

Шаробнинг онаси килинар қурбон, Сўнг унинг боласи қилинар зиндон.

11. Яқинлик маъносини билдирувчи сўзлар..

Яқинлик маъносини билдирувчи сўзлар нолисоний (экстралингвистик) жиҳатдан қариндошлик маъносидаги сўзлардан фарқ қилади. Қариндошлик маъносини билдирувчи сўзларнинг семантик қурилишида «қондошлик», яъни «туғишганлик» семаси асосий ва дифференциал ҳисобланади. Яқинлик маъносини билдирувчи сўзлар семантик қурилишида бу сема, яъни «қондошлик» («туғишганлик») семаси мавжуд бўлмайди. Яқинлик маъносидаги сўзларнинг семантик қурилишида «никоҳ жиҳатдан ёки бирор-бир хусусият асосидаги яқинлик» семаси устувор, дифференциал сема тавсифида бўлади. Бундай сўзларга *қуёв, келин, қайнота, қайнона, кундош, овсин, божа, қайни, қайинсингил* ва ҳ.к. сўзлар киради. Рудакий ижодида *кундош, қайнона, эр, хотин* сўзлари иштирок этган мисралар мавжуд:

1. *Кундош кундошига бир кун деди зор: «Қачонгача қилар қайнонамиз хор?»*.

2. *Эр хотинига деди: «Ёмонлик Қилсанг, топмайсан сен ҳам омонлик»*

3. *Хотин, бола, таги рўзгор, - бу хилда ташвиш кам...*

Яқинлик маъносидаги сўзлар тизими ҳам, қариндошлик маъносидаги сўзлар тизимида бўлганидек, эрлар жинсига хос, аёллар жинсига хос ва умумжинсга хос яқинлик маъноларидаги гуруҳларга ажралади. Рудакий шеърлятида **умумжинс** маъносини билдирувчи *ошиқ, ёр* сўзлари ишлатилган:

Ошиққа бошланур лайлатулқадр, Тунда юз кўрсатсанг, эй соҳибжамол.

Май ичиб энди бўлинг шодмон, Олур насиба ўз ёридан ёр.

111. Матн таркибидагина яқинлик маъносини билдирувчи лугавий бирликлар.

Турли тавсифдаги яқинлик маънолари одатан яқинлик маъноси учун расмийлашмаган айрим сўз-номлар ёрдамида ҳам ифодаланади. Бундай сўз-

номларнинг яқинлик маъносини ифодалашди матний, яъни контекстуал характер касб этади. Рудакий ижодининг ўзбек тилига ўтирилган вариантида ҳам бундай сўз-номлар учрайди. Уларга *худойим*, *парвардигор*, *эгам*, *яратган*, *хожа*, *гулом*, *чопар(им)* сингари сўз-номлар мансубдир. Мисоллар.

1. *Номозни ёқтирмас менинг худойим,
Унга мақбул тушар севги жанжали.*
2. *Сени деб ганимлар мазаҳ қилишар,
Қанийди, қутқарса парвардигорим.*
3. *Яратган олдида муҳайё бўлди,
Ул покиза жонни дилида пинҳон.*
4. *Эй хожа, дунёда нимаики кўрсам,
Бодом-у, шароб-у егулик газак.*
5. *Гуломинг бўлса гар Рудакий,
Унга ҳавас-ла ўтар минг Доро.*
6. *Мадхиям—чопарим, умрим етказар,
Қадрига етажак Амир сухандон ва б.*

Абу Абдуллоҳ Рудакийнинг ўзбек тилига таржима қилинган бадиий ижоди билан танишиш шундай хулосага олиб келадики, адиб ўз шеъриятида ўша давр тожик-форс тили лексикасининг барча қатлам луғавий бирликларидан моҳирона фойдаланган. Уларнинг адабий тилда расмий оммалашмаган маъноларини аниқлаган. Бу жиҳат унинг ўзбек тилига ўтирилган ижоди тилида ҳам ўз аксини топган.

АДАБИЁТЛАР

1. Абу Абдуллоҳ Рудакий. Бобо Тохир. Сайланма. –Тошкент: «Шарқ» нашриёти. 2017.
2. Қариндошлик ва яқинлик маъносидаги сўз-номлар ўзбек тилшунослигида ва бошқа туркий халқлар тилшунослигида турли хил режаларда ўрганилган: 3. Бердиалиев А. Сўзлар оламига саёхат. Хужанд, 2011. 90 б.;
4. Бердиалиев А. Машрабов А. Семантическое строение функционально-семантических микросистем терминов родства с инвариантным значением "тетя-племянник", "тетя-племянница" в кыргызском и узбекском языках. // Туркий тилшунослик масалалари. Илмий мақолалар тўплами. 12-китоб. Хужанд. 1998.;
5. Джабаров Б.А. Номинации значений свойства в таджикском и узбекском языках. АКД. – Хужанд, 2009. 26 с.

USLUBIY ME'YORLAR - NUTQ MADANIYATINING AJRALMAS BO'LAGI SIFATIDA

H. Ahmedova, Q'oqonDPI katta o'qituvchisi

Uslubiy me'yorlar nutq madaniyatining cho'qqisi hisoblanadi, bu me'yorlarni mukammal bilish va ulardan erkin foydalana olish madaniy nutq tarbiyasining pirovard maqsadlaridandir.

Til qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning uslubiy me'yorlari ham shunchalik barqarorlashgan, ranginlashgan, boyigan bo'ladi. O'zbek tili dunyodagi eng

qadimiy va taraqqiy etgan tillardan biri sifatida o'zining tarang uslubiy me'yorlariga ega.

Kishilarning ijtimoiy faoliyatini nutqsiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu faoliyatning turli sohalarida turli sharoitlarda, turli maqsadlar bilan nutq o'ziga xos tarzda ishtirok etadi. Aytaylik, tajribali o'qituvchining darsdagi nutqi va tanaffus paytida ikki-uch o'quvchi bilan suxbatidagi nutqi farqli bo'lishi tabiiy. Darsda ilmiy-ta'limiy maqsad asosiy bo'lsa, shunchaki suxbatda bu maqsad asosiy bo'lmaydi. Yoki rasmiy yozishmalarda qo'llanadigan nutq bilan ilmiy bayonda ishlatiladigan nutq ham aynan bir xil bo'lmaydi. Ijtimoiy faoliyatning ana shunday turli sohalarida qo'llanadigan xilma-xil nutq ko'rinishlari nutq uslublari deb yuritiladi.

Uzbek tilida quyidagi nutq uslublari farqlanadi: 1)so'zlashuv uslubi, 2)rasmiy uslub, 3)ilmiy uslub, 4) publisistik uslub, 5) badiiy uslub.

Bu uslublarning har biriga xoslangan grammatik shakllar, so'z, so'z birikmasi, gap va intonasion vositalar mavjud. Ana shu xoslanish o'zbek adabiy tili uslubiy me'yorlarining asosidir. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, uslubiy me'yorlar muayyan sohadagi aloqani ta'minlaydigan nutqning mazmuni, maqsadi va vazifasi uchun mos keladigan til birliklarini tanlash qoidalaridir.

Har bir uslubning o'ziga xos til xususiyatlarini, demakki, uslubiy me'yorlarini bilmasdan turib tuzilgan har qanday nutq tom ma'nodagi madaniy nutq bo'la olmaydi.

Albatta, tilda biron-bir uslubga xoslanmagan, uslub jihatidan neytral birliklar, ya'ni barcha uslublarda qo'llanadigan birliklar katta miqdorni tashkil etadi. Tabiiyki, ana shunday birliklar uslublarni yagona bir adabiy tilga birlashtiradi. Bir uslubga xoslangan til birligining boshqa uslubda qo'llanishi, tabiiyki, uslubiy me'yorning buzilishi hisoblanadi. Masalan, tashrif buyurmoq so'zidagi tashrifning lug'aviy ma'nosi "sharaflash" bo'lib, yaxlit so'z sifatida, asosan, rasmiy-publisistik uslubga xoslangan, unda ko'tarinkilik, tantanavorlik ta'kidi bor. Ana shuning uchun ham quyidagi jumlada uslubiy me'yor buzilgan: fojia yuz bergan joyga (samolyot halokatga uchragan) mamlakat prezidenti Ilhom Aliev tashrif buyurdi ("O'zbekiston ovozi", 2015 yil 27 dekabr). Bu uslub xabar mazmunidagi neytral uslub bo'lganligi uchun ham tashrif buyurmoq so'zi uchun tamomila yotdir.

Nutqda adabiy til me'yorlarining buzilishi, asosan, ikki sababga ko'ra sodir bo'ladi. Avvalo, so'zlovchi mansub bo'lgan xududdagi sheva, shuningdek, o'sha xududda muomalada bo'lgan boshqa sistemadagi tilning kuchli ta'siri adabiy me'yorlarning u yoki bu darajada buzilishiga olib kelishi mumkinki, bu omilni obyektiv sabab deb qarash maqsadga muvofiq. Masalan, buxorolik so'zlovchi o'z shevasi va tojik tilining ta'sirida talaffuz me'yorlarini g'ayriixtiyoriy buzishi yoki

tojikcha soʻz va grammatik shakllarni nutqqa olib kirishi mumkin. Adabiy til meʼyorlari buzilishining subʼektiv sababi esa bevosita nutq tuzuvchining oʻzi bilan aloqadordir, yaʼni tilni etarli darajada bilmaslik, til qoidalarini yaxshi egallamaganlik, nutq tuzishga eʼtiborsizlik, nutqiy koʻnikmalarning zaiflashganligi kabilar. Toʻgʻri nutq tuzish malakalarini shakllantirish boʻyicha ish olib borilar ekan, eng avvalo, ana shu subyektiv sabablarni bartaraf etishga asosiy eʼtibor qaratilmogʻi kerak.

Adabiy til meʼyorlari buzilishining ikki turini farqlash lozim. Birinchisi shuki, soʻzlovchi yoki yozuvchi adabiy til meʼyorlarini bilmaganligi uchun bunday nuqsonga yoʻl qoʻyadi va u tuzgan nutq notoʻgʻri deb qaraladi. Ikkinchi holatda esa soʻzlovchi yoki yozuvchi adabiy til meʼyorlarini mukammal biladi, lekin turli, masalan, estetik maqsad bilan muayyan qonuniyatlar asosida bu meʼyorlarini buzadi va uning nutqi notoʻgʻri deb hisoblanmaydi. Ayni paytda bunday holatlar buzilish deb emas, balki adabiy meʼyordan chekinish tarzida baholanadi. Bu oʻrinda, tabiiyki, badiiy nutq nazarda tutilmoqda.

Adabiy til meʼyorlariga amal qilish badiiy nutqda oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. XX asr fransuz adabiyotining yirik vakillaridan biri Pol Valeri badiiy prozani piyoda yurishga (qadimgi yunonlar "piyoda soʻz" deydilar), poeziyani esa raqsga oʻxshatgan, tadqiqotchi N.I.Balashov bu oʻxshatishni esga olib, estetik maʼnoda badiiy prozada ham soʻzlar poeziyadagi kabi qimmatga egaligini taʼkidlaydi. Aytish mumkinki, haqiqatan ham, badiiy nutqda soʻzlar kutilmagan va koʻrilmagan, odatiy va gʻayriodatiy harakatlar, turfa oxanglar va ovozlar bilan raqsga tushadi. Soʻzlar, qoʻshimchalar, xatto gaplar meʼyorlar degan qatʼiy qoidalarning chizgan chizigʻidan osonlik va ustalik bilan chiqib ketadi. Shu tarzda nutq badiiy degan sifatga sazovor boʻladi.

Grammatik meʼyorlar soʻzlarning oʻzaro birikishi uchun tegishli sharoitlarni taqozo etadi. Avvalo, maʼnolarda mushtaraklik boʻlmasa, soʻzlar bogʻlana olmaydi. Aytaylik, yashil oʻtloq birikmasi mantiqan toʻgʻri, ammo yashil navo birikmasi mantiqan notoʻgʻri yoki baqirgan odam — mantiqan toʻgʻri birikma, baqirgan sukunat esa mantiqan toʻgʻri emas. Tabiiy, ularning grammatik tabiatida ham uygʻunlik yoʻq. Nihoyat, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishiga ularning har biriga xos leksik-uslubiy xususiyatlari ham monelik qilishi mumkin. Masalan, yutuqqa erishmoq, muvaffaqiyatga erishmoq deb ishlatish mumkin, biroq kamchilikka erishmoq, muvaffaqiyatsizlikka erishmoq deb boʻlmaydi.

Uslubiy meʼyorlarni puxta egallash, ularga ziyraklik bilan muntazam amal qilish malakalariga ega boʻlmoq uchun koʻp oʻqish, oʻrganish, qisqasi, koʻp ter toʻkishga toʻgʻri keladi. Ayniqsa, oʻqituvchi va asosiy quroli soʻz boʻlgan boshqa kasb egalari bu meʼyorlar boʻyicha malakalarini oshirish borasida muttasil shugʻullanishlari lozim.

**ЎРТА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ДАРСЛИК-ҚЎЛЛАНМАЛАРИДА
ФОНЕТИКАГА ОИД АТАМАЛАРНИНГ СИНХРОН-ҚИЁСИЙ
ТАҲЛИЛИ**

*(Ўзбек ва тожик тиллари фонетик тизимиغا мансуб
атамалар мисолида)*

Юнусова З. У., Тадқиқотчи (Тожикистон)

Маълумки, терминлар ҳам, умумхалқ тилига мансуб одатдаги сўзлар каби, тил луғат таркибининг асосий бирликлари ҳисобланади. Улар умумхалқ тилига мансуб одатдаги сўзлардан халқ хўжалиги, фан ва техниканинг муайян соҳаларига қарашлилиги ва шу жиҳатдан луғат таркибининг пассив қатламига мансублиги жиҳатидан фарқ қилади.

Шуниси муҳимки, умумхалқ тилининг лисоний бойлиги луғат таркибидаги фаол сўзлар миқдори билан ўлчангани каби, муайян касб-корга, фан ва техникага оид “луғавий қатлам”да термин шу “қатлам”га дахлдор лексик бирликлар саналиб, улар миқдори мазкур “луғавий қатлам”нинг лисоний бойлиги ҳисобланади.

Терминологик тизимнинг лисоний аҳамияти шундаки, бу тизим халқ хўжалиги, фан ва техниканинг муайян соҳасига қарашли тушунчаларни аташ, номлаш билан бир қаторда, улар англаган денотатларни мазкур соҳа билан шуғулланувчи шахслар учун осон ва муштарак тушунилишини таъминлайди: халқ хўжалиги, фан ва техниканинг муайян соҳаси билан шуғулланувчи шахс шу соҳага доир атамаларни тушунмасдан туриб, мазкур соҳа бўйича мутахассис бўла олмайди.

Таълим жараёнида, айниқса, ўрта мажбурий умумтаълимда ёш авлод турли фанларни, уларга алоқадор асосий тушунчаларни ўрганмасдан, уларнинг моҳиятини англамасдан туриб, ижтимоий ҳаётнинг бирор- бир соҳаси бўйича иқтидорли мутахассис бўла олмайди. Бу даврда улар, яъни ёш авлод, энг аввало меъёрий саводхонликка эга бўлишлари талаб қилинади. Меъёрий саводхонлик она тили фанига оид имло ва талаффуз қоиун-қоидаларини меъёрий ўзлаштириш ва ижтимоий фаолиятда уларга амал қилиш орқали қўлга киритилади.

Демак, меъёрий саводхонлик одатда тил фанига мансуб тушунчаларни меъёрий ўрганиш ва ўзлаштириш йўли билан амалга оширилади.

Ушбу мақолада ўрта мажбурий умумтаълим муассасаларининг 5-синф дарслигида тил фанининг “Фонетика” деб аталувчи соҳасига оид лисоний тушунчаларни номловчи атамалар ва уларнинг ўзбек ва тожик тилларига хос муқобилларининг қиёсий-типологик характери ҳақида фикр юритиш мақсад этилган. Мазкур мақсад А.Бердиалиев, Т.Шарипов ва И. Илёсовлар ҳаммуаллифлигида умумтаълим муассасаларининг 5-синфи учун ёзилган “**Ўзбек тили**” дарслик-қўлланманинг “Фонетика” соҳасига оид терминологик тизимини[1] Ш. Бобомуродов, С.Сабзаев, С.Набизодалар ҳаммуаллифлигида тожик ўрта умумтаълим муассасаларининг 5-синфи учун ёзилган “**Забони тожики**” китобининг “Фонетика” [2] соҳасига оид терминлар тизими билан қиёслаш орқали амалга оширилган.

Маълумки, “**фонетика**”да лисоний бирликларнинг тил ва нутққа тегишли ҳодисалари ўрганилади. Лисоний ҳодисаларнинг тилга тегишли энг кичик бирлиги **фонема**, нутққа тегишли энг кичик бирлиги эса, **товуш** (**нутқ товушлари**) атамалари билан номланади. Тил ва нутққа хос фонема ва товушлар билан боғлиқ барча лисоний ҳодисалар умумфан номи билан “фонетика” деб аталади. Фонетика тил фанининг лексикология, грамматика сингари мустақил соҳаларидан бири ҳисобланади.

А.Бердиалиев бош муаллифлигида нашр этилган дарслик-қўлланмада “фонетика” ва “графика” соҳаларига оид ҳаммаси бўлиб 37 атама ва улар англаган лисоний тушунчалар ҳақида маълумот берилади. Бу атамаларнинг тузилиши икки хилдир:

1) **сўз шаклидаги атамалар** 11 та бўлиб, улага қуйидагилар киради: *графика, фоне, фонема, ҳарф, ёзув, графема, алфавит, овоз, шовқин, ун, урғу;*

2) **сўз бирикмалари** шаклидаги атамалар 26 та бўлиб, уларга қуйидагилар киради: *нутқ товушлари, нутқ органлари, нутқ аппарати, унли товушлар, ундош товушлар(жарангли ундошлар, жарангсиз ундошлар), товуш пайчалари, жарангли жуфт; очик бўғин, ёпиқ бўғин, ҳаво зарби, эркин урғу, турғун урғу, сўз урғуси, мантиқ урғуси; бош ҳарф, кичик ҳарф; ёзма ҳарф, босма ҳарф, юмшатиш белгиси, айириш белгиси, унли товушларни ифодаловчи ҳарфлар, ундош товушларни ифодаловчи ҳарфлар.*

Мазкур атамаларнинг сўз шаклидаги вариантлари ҳам, сўз бирикмаси шаклидаги вариантлари ҳам гипероним ва гипонимлар характерида бири бошқаси билан мантиқий ва лисоний муносабатларга эга бўлади. Масалан,

сўз шаклидаги қуйидаги атамалар гипероним ва гипоним характеридаги мантиқий ва лисоний алоқада бўлади:

- 1) фонема(гипероним): *унли фонема, ундош фонема* (гипонимлар);
- 2) бўғин(гипероним): *очиқ бўғин, ёпиқ бўғин*(гипонимлар),
- 3) ҳарф(гипероним): *бош ҳарф, кичик ҳарф, босма ҳарф, ёзма ҳарф* (гипонимлар);
- 4) урғу(гипероним): *эркин урғу, турғун урғу, сўз урғуси, мантиқ урғуси*(гипонимлар).

Унли фонема ва *ундош фонема*, *очиқ бўғин* ва *ёпиқ бўғин*, *бош ҳарф* ва *кичик ҳарф* сингари жуфтликларда уларни ташкил қилган қисмлар бири бошқасига нисбатан эквонимлар ҳам саналади.

Ш.Бобомуродов бош муаллифлигида нашр этилган “Забони тоҷики” китобида эса, тоҷик тили фонетикаси ва графикасига оид 24 атама ва улар англатган тушунчалар *ҳақида* маълумот берилади.

Тоҷик тили фонетикаси соҳасига мансуб атамалар тизимида ҳам гипероним ва гипонимик муносабатларда ўзаро боғланувчи терминлар кам эмас. Масалан:

- а) овозҳои нутқ (гипероним): *садонокҳо, ҳамсадоҳо*(гипонимлар);
- б) ҳамсадоҳо (гипероним): *ҳамсадоҳои чарангдор; ҳамсадоҳои бечаранг; ҳамсадоҳои лабӣ, ҳамсадоҳои пешизабонӣ, ҳамсадоҳои забончагӣ, ҳамсадоҳои халқи*(гипонимлар);
- в) ҳичо(гипероним): *ҳичои кушода, ҳичои бастагӣ* (гипонимлар) ва ҳ.к.

Ўзбек тили фонетик тизимида хос юқоридагидек эквонимик муносабатлар тоҷик тилининг *садонокҳо* ва *ҳамсадоҳо*, *ҳичои кушода* ва *ҳичои баста* сингари жуфтликлари таркибий қисмларига ҳам хосдир. Бундай ҳолларда бир гипероним доирасида туташувчи қисмлар ҳам *гипонимлик* ва ҳам *эквонимлик* хусусиятларга эга бўлади.

Шунингдек, тоҷик тили фонетикаси соҳасига мансуб бу атамалар ҳам, юқорида номи айtilган ўзбек тили дарслик-қўлланмасида бўлганидек, дастлаб икки гуруҳга ажратилади:

- 1) сўз шаклидаги атамалар;

2) сўз бирикмаси шаклидаги атамалар.

Тожик тили фонетикаси ва графикасига оид сўз шаклидаги атамалар тизимини қуйидагилар ташкил қилади: *овозиноси //фонетика, овозҳо, ҳичо, зада, оҳанг, имло, фоне//овоз, алифбо, ҳарф, садонокҳо, ҳамсаданокҳо.*

Тожик тили фонетикаси ва графикасига оид сўз бирикмаси шаклидаги атамалар қуйидагилардир: *овозҳои нутқ, ҳиссаи калима, ҳодисаҳои фонетика, имлои ҳамсадаҳои, ҳарфҳои йотбарсар; ҳичои кушода, ҳичои бастаи, ҳамсадоҳои лаби, ҳамсадоҳои пешизабони, ҳамсадоҳои забончаги, ҳамсадоҳои халқи.*

Ўзбек ва тожик тили фонетикасига оид атамаларнинг ўрта умумтаълим муассасаларининг 5-синфи дарслик ва қўлланмаларида зикрини топган турларини қиёслаш шундай хулосага олиб келадикки, фонетик тушунчаларнинг ҳар икки тилга хос номланиши рус тили фонетик атамаларидан калька йўли билан ўзлаштирилган. Чунончи, *ургу//зада, бўгин//ҳичо, нутқ товушлари//овозҳои нутқ, очиқ бўгин//ҳичоҳои кушода, ёпиқ бўгин//ҳичоҳои бастаи, унлилар//садонокҳо, ундошлар//ҳамсадоҳо* ва ҳ.к. рус тили фонетик тизимидаги *ударение, слог, звуки речи, открытый слог, закрытый слог, гласные, согласные* ва ҳ.к. атамаларнинг калькалаштирилган муқобилларидир.

Ўзбек ва тожик тиллари фонетик тизимига хос атамалар қиёсидан шу нарса кўзга ташланадигани, тожик тилида **фонетика** атамасига муқобил сифатида **овоиноси** атамаси ҳам ишлатилган, натижада соҳа номини атовчи **“овоиноси = фонетика”** дублетлилиги ҳосил бўлган. Булардан ташқари, фонетика тизимига хос тушунчаларни номловчи сўз бирикмалари муносабатида ҳам ўзбек ва тожик тилларининг ўзига хос лисоний жиҳатлари кўзга ташланади. Хусусан, фонетик тизим ҳодисаларини атовчи сўз бирикмалари характеридаги терминлар туркий тиллар грамматик қурилишига хос **“аниқловчи+аниқланмиш”** моделида шакллантирилган бўлса (масалан, **очиқ бўгин, ёпиқ бўгин** ва ҳ.к), тожик тилида улар форс-

тожик тиллари грамматик қурилишига хос **“аниқланмиш+аниқловчи”** моделида (масалан, **ҳичои қушода, ҳичои баста** ва ҳ.к.) шакллантирилган.

Мазкур мақолада ўзбек ва тожик тиллари фонетика соҳасининг мактаб ўқувчилари ёши ва иқтидорига хосланган норматив атамалари тизими ва уларнинг хусусиятлари ҳақида фикр юритилди, холос. Аслида, фонетика соҳасининг илмий терминологик тизимида лисоний тушунчалар ва уларнинг номлари **юзтадан** ортиқдир. Шу боис грамматик қурилишда фарқ қилувчи тилларнинг лисоний атамаларини қиёсий ўрганиш тилшунослик фанининг типология тармоғи учун ўта муҳим аҳамият касб этади.

Хуллас, ўзбек ва тожик тиллари фонетик тизимига хос атамалар ва уларнинг қиёсидан шундай хулоса келиб чиқадики, мазкур тизим ходисаларини атовчи терминлар монографик режаларда ўрганилиши давримиз тилшунослигининг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

- 1.Бердиалиев А., Шарипов Т., Илёсов И. Ўзбек тили. Ўрта умумтаълим мактабларининг 5-синфи учун дарслик-қўлланма. Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашри. Хужанд, 2014
- 2.Бобомуродов Ш., Сабзаев С., Набизода С.Забони тоҷики. Барои хонандағони синфи 5 муассасаҳои ташкилоти умумӣ. Нашри чорум. Вазорати маориф ва илми Ҷумҳурии Тоҷикистон тасдиқ қардааст. Душанбе “Маориф”, 2018.

ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИ ВА ГЕНЕРАТИВ ЛЕКСЕМАЛАР

Иродахон ХОЛДАРОВА, ФарДУ катта ўқитувчиси

Истиқлол йилларида халқимизнинг маънавий қадриятлари, маданий меросини тубдан ўрганиш, уни илмий асослашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Халқ мақоллари ҳам миллий-маънавий меросимиз, тилимизнинг юксак бойлигини кўрсатувчи восита сифатида катта аҳамиятга эга. Чунки мақол ёрдамида ифода этилаётган фикр бир томондан, халқ руҳияти, урф-одатлари ёрқин намоён этилса, иккинчидан, мақоллар ихчам, аниқ, лўнда шаклда тингловчига мақсадни етказишга хизмат қилади. “Мақол

воситасида ифодаланган фикр, берилган жавобни тилнинг ҳеч бир воситаси алмаштира олмайди ёки мақол даражасида асослаб бера олмайди”¹¹⁹.

Ҳ.Бердиёров ва Р.Расуловлар мақолга таъриф бериб: “грамматик жиҳатдан тугалланган фикрни билдирувчи кичик, ихчам, ўткир мазмунли, кўчма маънода ёки ҳам кўчма маънода, ҳам ўз маъносида қўлланиладиган ҳикматли халқ иборалари”¹²⁰ деб қайд этадилар.

Одатда мақоллар тарбиявий характерга эга бўлиб, улар орқали инсондаги ижобий фазилатларни улуғлаш, иллатлардан фориғ бўлиш сингари масалалар ёритилади. Масалан, “Маънолар махзани” китобида берилган қуйидаги мақол фикримизнинг далилидир:

Гул бўлиб тугилиб, сассиқ алаф бўлиб яшама/ Каптар бўлиб тугилгансан, қарга бўлиб ўлма.

Инсон боласи туғилганда, пок бўлиб туғилади. Баъзилар ўз ҳаётлари давомида инсонийлик шаънига нолайиқ ишларни қилиб, нопок бўлиб, одамлар ўртасида ёмон аталиб, шу ёмон ном билан ўлиб кетадилар. На тирикликда ва на ўлгандан сўнг эл-юрт орасида зиғирча қимматлари бўлмайди. Сен бундай қилма, инсонийлик шаънига доғ туширма. Ҳамма қатори оқ бўлиб туғилгансан, қора бўлиб ўлма, деган маънода насиҳат қиладилар¹²¹.

Берилган мақолда *тугилмоқ* лексемаси қўлланилган бўлиб, лексемада янги туғилган гўдакка хос “беғуборлик”, “поклик”, “нозиклик” (гул, оқ, каптар) семалари бериляпти. Бу ўринда *гўдак* лексемасидаги мазкур белгилар гул (нозиклик), оқ (поклик), каптар (беозорлик) сингари тушунчалар билан қиёсланмоқда. Ўйибор қаратилса, ҳар қайси лексемалар маъноларида зидлик ифода мақсадни кучайтиришга алоҳида хизмат қилган:

гул – сассиқ алаф

каптар – қарга

оқ – қора

пок – нопок каби.

Қуйидаги мақолда эса туғилган юртга садоқат, вафодорлик ҳисси қадрланган:

Эр туққан ерига, ит тўйган ерига.

“Бу мақолда инсоннинг юрти, оиласига нисбатан вафодорлиги, садоқатлилиги акс этган. Мақол бир жойда яшаб, ишлаб, ризқ-насибасини

¹¹⁹ Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари доктори ... дисс.автореф. Самарқанд. – 2019. – 5-бет.

¹²⁰ Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи. – 1984. – 12-бет.

¹²¹ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент. – 2001. –71-бет.

топиб, бориға шукр қиладиган кишиларға нисбатан қўлланади”¹²².

Туққан(туғилган) лексемаси маънолари таркибида “дунёга келиш”, “вужудга келиш”, “бошланиш”(ҳаётга нисбатан) семалари бўлиб, бу мақолда лексеманинг айнан *ер* сўзи билан бирикиб келаётганлиги туғилган юрт, киндик қони тўкилган жой, ватанга талпиниш (туққан ерига) маъносини кучайтиришга хизмат қилмоқда. Ватанпарварлик, она юртни севиш типигаги ушбу мақол юқоридаги мақол билан мазмунан ҳамоҳангдир.

Мусулмон халқларининг урф-одатлари орасида қурбонлик қилиш маросими бор. “Қурбонлик – диний маросим, ҳар йили бир мартаба қурбон ойида бўлади. Бунда “худо йўлига” деб, қўй, эчки, қорамол, туя сўйиб, гўштини хомлигича ёки пишириб халққа таркатадилар¹²³.

Итдан бўлган қурбонликқа ярамас мақолида *бўлмоқ* генератив лексемаси иштирок этган. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да *бўлмоқ* лексемасининг йигирмадан ортиқ маънолари изоҳланган. Жумладан:

(Чиқиш келишигидаги сўз билан). Дунёга келмоқ, туғилмоқ. *Чўридан бўлган бола*¹²⁴.

Мазкур мақолда лексеманинг юқоридаги маънога хос “пайдо бўлмоқ”, “туғилмоқ”, “яралмоқ” семалари акс этган.

“Ёмон ота-онанинг боласи ҳам ёмон бўлади. Ёмонлик шундай бир балоки, у наслдан наслга ўтади. Ёмон одамнинг боласи эл оғаси бўлишликка ярамайди, деб ҳисоблаганлар ва бундай одамлардан хавотирланганлар, шубҳа қилганлар¹²⁵.

Маълумки, оилада фарзанд туғилганда айрим ҳолларда турли касаллик ёки бошқа сабаблар туфайли болаларнинг яшаб кетиши қийин бўлган кезларда халқимиз урф-одатларига кўра, уларга *Турсунбой*, *Тўхтасин*, *Турғун*, *Ўлмас*, *Турсунтош* каби исмлар қўйилган. Бундай ирим-сиримлар боланинг узок умр кўриши, яшаб кетиши, авлодни давом эттириши умидига қаратилган. *Туққанига суюнма*, *турганига суюн* мақоли ҳам ана шу урф-одатнинг натижасидир. Ушбу мақолда *туғмоқ* лексемасининг “бошланиш”, “пайдо бўлиш” семалари, *турмоқ* лексемасининг “давомийлик” семаси юзага чиқяпти.

Тугиб қутулиш – ўлиб тирилиш мақолида *туғмоқ* лексемаси таркибида “яралиш”, “бошланиш”, “дунёга келтириш”, “дард” семалари мавжуд бўлиб,

¹²² Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари доктори ... дисс.автореф. Самарқанд. – 2019. – 28-бет.

¹²³ Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент. – 2001. – 144-бет.

¹²⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент. – 2006. – 413-бет

¹²⁵ Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент. – 2001. – 144-бет.

бу лексема айнан *қутулмоқ* лексемаси билан бирга қўлланилиши натижасида “дарддан фориг бўлиш” маъноси берилган. Юқорида *туғмоқ* лексемасининг эвфемик вариантлари орасида *қутулмоқ*, *қутулиб олмоқ* эвфемизмлари борасида ҳам фикр юритилган эди. Бу ўринда қўлланилган *туғиб қутулиши* бирикмаси таркибидаги “дарддан фориг бўлиш” семаси бу бирикманинг *ўлиб тирилиши* бирикмасига қиёсланиши натижасида янада кучайган.

Бузоқнинг турқи туққанига маълум.

Маълумки, бундай мақоллар ёмон номи чиққан, баджаҳл, бемехр, оқибатсиз, жоҳил кимсаларга нисбатан киноя тарзида коннотатив маънода ишлатилади. Бу мақолда қўлланилган *туққан* лексемасининг дастлабки семаси “шахс”, “она” семалари бўлиб, мақолда *бузоқ*даги кичиклик белгиси, *туққан* (она)даги катталиқ белгиси назарда тутилмоқда. Бироқ *туққани* лексемаси ёрдамида нафақат туққан (она)гагина эмас, бошқа оила аъзолари, умуман, яқин кишиларига нисбатан ишлатилипти.

АДАБИЁТЛАР:

1. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари доктори ... дисс.авторреф. Самарқанд. – 2019.
2. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи. – 1984.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент. – 2001.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент. – 2006.

МАТН ПСИХОЛИНГВИСТИК ТУШУНЧА СИФАТИДА

К.Х.Алимова, Тошкент давлат

аграр университети катта ўқитувчиси

“Матн” тушунчасига таъриф берар эканмиз, мазкур феноменни ўрганишнинг бир қанча ёндошувларига ва усулларига тўқнаш келамиз. Бугунги кунда матн тушунчаси турли хил илмий соҳаларни, жумладан тилшунослик соҳасини ҳам ўзига жалб қилган тушунчалардан ҳисобланади. Бунда тилшунослар асосан тилнинг функционал-коммуникатив сифатларига қаратади ва матн тилнинг ифодаланиши воситаларидан бири сифатида қаралади. Дарҳақиқат, “матн” тушунчаси, аввалом бор, лингвистик жиҳатдан, яъни матннинг грамматикаси, матннинг стилистикаси, матннинг синтаксиси, матннинг лингвистикаси нуқтаи назаридан тушунтирилади. Бироқ, таъкидлаш жоизки, айнан тилшуносликда “матн” тушунчаси аниқ таърифга эга эмас. Назаримизда, бу тушунчани тилга тааллуқли категория

сифатида қараш уни бир ёқлама талқин қилишга олиб келади. Чунки у кўп жиҳатлилик хусусиятига эга. Шунинг учун матнни “гапларнинг давомийлиги” сифатида тушуниш унинг асл моҳиятини очиб беролмайди. Аслида матн моддий тузилишга эга бўлиб, у маълум экстралингвистик кўрсаткичларга, жумладан шахслараро мулоқотнинг иштирокчиларига ҳам эътиборни қаратишни талаб этади. Шунингдек, бу ўринда матннинг маъно компонентини ҳам унитмаслик керак. Бошқача айтганда, матн гаплардан ташкил топмайди, балки гаплар орқали амалга оширилади, ҳаётга тадбиқ этилади. Шунингдек, матннинг мазмуни уни яратишдан кўзланган мақсад ва мотив билан белгиланади.

Демак, агар матннинг кўп жиҳатга эга эканлигини инобатга олсак, унинг таърифларининг ҳам кўп эканлиги келиб чиқади. Дарҳақиқат, матнга берилган таърифларда унинг турли хил жиҳатларига эътиборни қузатса бўлади. Матн информатив фазо сифатида, нутқий асар сифатида, белгилар кетма кетлиги сифатида ва ҳ. лар сифатида талқин қилиниши мумкин. Масалан, семиотикада матн ҳар қандай белгиларнинг анланган кетма кетлиги, коммуникациянинг (алоқанинг) ҳар қандай шакли, жумладан урф одат, рақс, ритуал ва ҳ. сифатида талқин қилинади. Филологияда, жумладан тилшуносликда матн деганда сўзлардан тузилган (вербал) белгиларнинг кетма кетлиги тушунилади. Чунки матн ўзида маълум маънони ташийди ва шунинг учун ҳам у коммуникативдир, яъни алоқа воситаси ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан матн алоқа бирлиги сифатида ҳам тасаввур қилинади.

“Матн” сўзининг ўзи лотин тилидан олинган бўлиб (*textus*), тўқима, бирлашма, қўшилиш деган маъноларни беради. Шунинг учун матннинг моҳиятини тушунишда нима қўшилаётганини ҳам, ўша “нималар” қандай ва нима учун қўшилаётганини ҳам билиш муҳим. Ҳар қандай вазиятда ҳам матн маъно жиҳатдан бирлашган белгилар кетма кетлигидан иборатдир. Бу кетма кетликнинг асосий сифати мазкур белгиларнинг ўзаро алоқадорлиги ва яхлитлигида ўз аксини топади.

Белгиларнинг бундай кетма кетлиги олий даражадаги алоқа бирлиги бўлиб, у тугалланган маълумот ва тузилиш яхлитлигига эга бўлган ва маъно жиҳатдан ҳам яқунланган ҳисобланади. Бунга, масалан, яхлит адабий асар мисол бўла олади. Умуман айтганда, яхлитлик қисмларнинг йиғиндиси эмас, балки функционал тузулма ҳисобланади ва бунда яхлитнинг қисмлари бу тузулмада ўз ўрнига эгадир.

Моҳият жиҳатдан турли хил бўлсада, матннинг категориялари мазмуний, тузилмавий, шаклий, функционал, алоқавий кўринишларга эга бўлади ва улар бир бирининг устига қурилмайди, аксинча бир бирини тўлдиради ва уни ташкил қилганларнинг йиғиндисидан фарқли ўлароқ яхлит

тузилмани яратади. Юқорида айтилган матннинг сифатларидан бўлган ўзаро алоқадорлик ва яхлитлик қулайлик учун ажратиб кўрсатилсада аслида реал бир матн доирасида улар бир бутун бўлади ва бири иккинчисини зарур қилиб кўяди. Бунда матннинг маъноси айнан тил воситалари ёрдамида узатилади. Шунинг учун ҳам тилдаги ўзаро алоқадорлик бир вақтнинг ўзида маъновий яхлитликнинг кўрсаткичи ҳам ҳисобланади.

Матн ўзининг қайта ишлаб чиқарилиш шаклига кўра ёзма ва оғзаки бўлиши мумкин. Иккала шакл ҳам матн талабларини қондириши, яъни ташқи алоқадорликка, ички маънодорликка, идрокка йўналганликка эга бўлиши шарт.

Матн назариясида матннинг ўхшаш бўлишлиги масаласи муҳим ҳисобланади. Матн назариясида матннинг ўхшаш бўлишлиги масаласи муҳим ҳисобланади. Матнни ўрганиш филология фанида матншунослик (текстология) деб аталади. Лингвистика матннинг интонацион, лексик ва синтактик воситаларини, таъкидлашнинг график воситаларини, шрифт жиҳатдан ажратиб кўрсатишни, пунктуацияни ўрганади.

“Матн” тушунчаси уни тўғри идрок этиш билан бевосита боғлиқ. Матннинг тўғри идрок этилиши нафақат тил ва воситалар билан, балки билимларнинг умумий фонди билан, бошқача айтганда, “алоқа фони” билан таъминланади. Айнан мана шу алоқа фони асосида матн тузилади ва у декодлаштирилади, яъни идрок этилади. Шунинг учун ҳам идрок пресуппозиция деган тушунча билан боғлиқ. Пресуппозиция тушунчаси лотин тилидан олинган бўлиб, “олдиндан тахмин қилиш” деган маънони беради.

Пресуппозиция – матннинг сўз билан ифодаланмаган маъносидир, матнни адекват (ўхшаш) идрок этиш имкониятини берувчи қўшимча билимдир. Бундай қўшимча билимни одатда фонли билимлар деб ҳам аташади. Пресуппозиция матнни тузувчининг билими ва тажрибасининг натижаси сифатида ўша матнни ўқиш жараёнида пайдо бўлиши мумкин.

Фонли билимлар – бу гапирувчи ва эшитувчи ёки ёзувчи ва ўқувчи эгаллайдиган маданият ва реалликлардан келиб чиқадиган билимдир [4].

Матн муаллифнинг нутқий-фикрий фаолияти маҳсули ва интерпретаторнинг (ўқувчи, эшитувчи) нутқий-фикрий фаолияти материали сифатида, аввалом бор, илгари сурилган билимдир. Бу билим сўз билан ифодаланган билимга ва фонли (сўз билан ифодаланмаган) қўшимча билимларга бўлинади. Матнда турли хил мураккабликдаги ва турли хил ҳажмдаги белгилар тўплами қатор қилиб жойлаштирилади. Бу эса нутқ элементларидан ташкил топган моддий тузулмадан иборатдир. Бироқ, умуман айтганда, бу моддий тузулма ўзида номоддийликни, яъни мазмунни

(билим, ҳодиса) мужассамлаштиради. Маълумки, билим ҳар доим ҳам тўлиқ тил воситалари ёрдамида амалга оширилмайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Гальперин Н.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М., 1981.
2. Лотман Ю.М. Роман А.С. Пушкина «Евгений Онегин». Комментарий. Л., 1980. С. 282.
3. Пешковский А.М. Объективная и нормативная точка зрения на язык//Избр. труды. М. 1959. С. 58.
4. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М., 2000. С.79.
5. Шабес В.Я. Событие и текст. М., 1989.

“ҲУРМАТ” КОНЦЕПТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИДА НУТҚИЙ ЭТИКЕТНИНГ ЎРНИ

Юнусова З., ЎзДЖТУ катта ўқитувчи

Концептларнинг диққат марказига айланган “ҳурмат” концептини ўрганиш, чет давлатлар билан алоқаларни кенгайтириш, дўстона алоқаларни мустаҳкамлаш, ўзаро бир-бирини тушуниш мақсадида маданиятлараро мулоқот жараёнининг хусусиятларига янги талабларни шакллантириш имкониятини беради.

Инсонларнинг хулқ атвори, ҳамда мулоқот маҳоратининг назорати остидаги ҳурмат тушунчаси мулоқот категорияси ҳисобланади. Мулоқот категорияси ҳақида гап борар экан, маданият мазусининг долзарб масалаларидан бири нутқ маданияти ва нутқ этикети ҳақида гапрмасликни имкони йўқдир.

Ҳурмат концепти универсал характерга эга бўлиб, уни амалга ошириш жараёнида миллий-маданий хусусиятлар намоён бўлади, бу эса ўз ўрнида нутқ маданияти ва нутқ этикети билан боғлиқлигини яққол кўрсатиб турибди. Маълумки, мулоқотнинг самарали бўлишининг негизи маданиятдир, маданият эса нутқ маданиятини ўзида мужассам этган. Нутқ маданиятини ўрганиш нутқ этикети қоидаларини билишни тақозо этади.

Нутқ маданияти прагматикага тегишли бўлиб, адабий тилда қабул қилинган меъёрлар қонуниятлар ва уларни эгаллаш, уларнинг қўлланиш усулларини ўрганадиган фан ҳисобланади. У стилистик ва коммуникатив жиҳатдан мос келиш мезонларни ўз ичига олади. Тил меъёрлари жамият хизмати учун қўлланиладиган энг тўғри ва энг маъқул деб қабул қилинган тил воситасидир. Бунда лексик, фонетик, морфологик, синтактик элементларни саралаш натижасида режалаштирилган прагматик самарага эришиш мақсадга мувофиқ.

Агар коммуникатив маҳорат тил эгасида умумлаштириш жараёнида шакланса, нутқ маданияти эса маълум қоидалар орқали нутқий алоқага киришилади. Кундалик ҳаётда биз мулоқот қоидаларига аҳамият бермаймиз,

чунки улар биз учун одатий ҳисобланади. Лекин, ёзилмаган қоидаларга риоя қилмасак, дарҳол суҳбатдошга сезилади. Масалан: сотувчи харидорга “сен” деб мурожаат қилса, узоқ таниш одам кўриб қолганда саломлашмаса, бирор бир одам манфаати учун қилинган қандайдир хизмат учун “рахмат” сўзи айтилмаса, ёки нотўғри қилинган ишга кечирим сўралмаса.

Одатда, юқорида келтирилган ҳолатлардаги нутқий хулқ меъёрларининг бузулиши хафагарчилик ёки жанжал билан тугаш оқибатларига олиб келади. Шунинг учун, нутқ маданияти қоидаларига риоя қилиш ўта муҳимдир. Тилда алоқа ўрнатиш ҳамда алоқани давом этишига кўмак берадиган шароитларда қўлланиладиган катъий ифода воситаларидан ташкил топган нутқ этикети нутқ маданиятининг қоидаларини бошқаради. Ушбу шароитлар мурожатлар, саломлашиш, узр сўраш, раҳмат айтиш, табриклар, тилаклар, таклифлар ва бошқалар бўлиши мумкин. Нутқ этикетига сўзловчи суҳбатдошига нисбатан яхшилик тилайдиган муносабатни билдирадиган барча ифода воситалари киради.

Мазмунан бой лисоний воситалар йиғиндисидан нутқ шароитида ўринли фойдалана олиш, суҳбатдошига нисбатан ижобий таъсир кўрсатадиган имконият беради.

Миллий нутқ этикетининг ўз маданият вакилларига қўядиган маълум талаблари мавжуд, ҳамда у ўз хусусиятларига эга. Аммо, инглиз ва ўзбек миллатларида нутқ этикетининг хусусиятларининг умумийлиги мавжуд бўлиш билан бирга, фарқланадиган томонлари ҳам бор. Нутқ этикети қолипларининг фойдаланилиши жараёнида сўзловчи ва суҳбатдоши орасидаги ижтимоий маълумот англашилади.

Нутқ этикетининг лисоний белгиларида бир томондан яқин, узоқ, таниш, бегона бошқа томондан бўлса, ёш жиҳатдан тенгдош, ёши катта, ёши кичик ёки мавқеи каби ижтимоий белгилар орқали амалга оширилади. Агар бирор бир кимсага “Ассалому алайкум” ишлатилса, кичик каттага мурожаат қилаётгани яққол кўринади, “Қалай” сўзидан фойдаланилса, бу норасмий вазиятда бир бирига яқин муносабатдаги шахслар орасидаги мулоқот мисолдир. Инглиз тилида эса бундай хусусиятлар мавжуд эмас. Чунки уларда саломлашиш асосан “Hello”, “Hi” сўзлари билан амалга оширилади. Аммо, расмий ҳолатда саломлашиш асосан вақтни чегаралаб амалга оширилиши орқали, яъни “Good morning(afternoon, evening)” каби ифодалар орқали сўзловчи орасидаги муносабат маълум бўлади.

Шундай қилиб, нутқ маданияти ва нутқ этикети мулоқот маҳоратининг муҳим элементи ҳисобланиб, бирор бир кимса билан маълум бир алоқа ўрнатиш, мулоқотга киришишнинг нозик, аммо биз кераклича эътибор

қилмайдиган услубларни ўрганишни ўз ичига олади. Бу эса ўз ўзидан “ҳурмат” концептини тадқиқ қилишга ёрдам беради.

Ҳозирги кунда лингводидактикада маданиятлараро мулоқот масаласи ўта аҳамиятли эканлиги тўғрисида кўп гапирилмоқда. Таълим тизимида бу нарсага аҳамият берилмаса, кутилган натижага эришиш мумкин эмас. Маърузада шу масалани ёритиш назарда тутилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Фаенова М. О., Обучение культуре общения на английском языке. М. 1991.
2. Мўминов С., Нутқ маданияти. Тошкент. 2005.

ЭТНОТОПОНИМЛАР МАЪНОСИНИ ЎРГАНИШГА ДОИР

Д. Низомиддинова, Қўқон ДПИ катта ўқитувчиси,
Г. Муҳаммаджонов, талаба

Республикамиз ҳудудида уруғ, қабила, қавм, халқ номлари асосида юзага келган ўрин-жой отлари – этнотопонимлар алоҳида ўринни эгаллайди. Уларнинг тарқалиш чегараси бошқа семантик гуруҳларга оид топонимларга нисбатан анча кенгдир. Этнотопонимларнинг маъноси, келиб чиқиши, нега шундай аталганлиги, этимологиясини билиш ва аниқлаш фанимиз учун ниҳоятда аҳамиятлидир. Қуйида биз шу ҳақда фикр юритамиз, ўлкамиздаги айрим этноойконимларнинг маъноси борасидаги малоҳазаларни баён қиламиз.

ҒОЗИЁҒЛИҚ – Қўқон шаҳридаги қадимги обод ва кўркем маҳаллалардан бири. Ушбу аҳоли маскани Қўқон хонлиги тарихига оид ёзма манбаларда, архив ҳужжатларида қайд этиб ўтилган. Хусусан, Мирзаолим Мушрифнинг “Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин” (“Султонлар насаби ва ҳоқонлар тарихи”) номли асарида шаҳарда рўй берган турли воқеалар муносабати билан бир неча бор тилга олинган. А.Ф.Миддендорфнинг рус тилида нашр этилган “Фарғона водийси очерклари” (1882), А.Ф.Федченконинг “Туркистон бўйлаб саёҳат” (1875), Р.Набиевнинг “Қўқон хонлиги тарихи” (1973) асарларида Ғозиёғлиқ топоними ҳам маҳалла, ҳам дарвоза номи сифатида зикр қилинган.

Хўш, Ғозиёғлиқ – қандай ном, нега у шундай аталган? Баъзилар бу ерда илгари кўплаб ғозлар боқилган, улар семиз, ёғли бўлган, шунинг учун маҳалла Ғозиёғлиқ номини олган, деб тушунтиришади. Бу топонимнинг ташқи (товуш) томонига қараб изоҳлаш натижасидир. Аслида маҳалланинг номланишига ғозоёқли сўзи асос бўлган.

Таъкидлаш жоизки, келиб чиқишига кўра, ғозоёқли – ўзбек уруғларидан бирининг номидир. Ғозоёқли этноними бир неча қабилалар

таркибида учрайди. Элшунос олим К.Кубаковнинг ёзишича, Қашқадарё воҳасида яшовчи саройлар тўртта: оз сарой, қипчоқ сарой, найман сарой, кўнғирот сарой гуруҳларига ажралган. Булардан қипчоқ саройлар таркибида ғозоёқли уруғи бўлган. Б.Кармишеванинг қайд этишича, Ўзбекистон жанубида истиқомат қилувчи кўнғирот қабиласининг вахтамғали бўлими таркибидаги уруғлардан бири ғозоёқли деб аталган. Қ.Нажимовнинг кўрсатишича, ғозоёқли – юз қабиласининг уруғлари номлари таркибида ҳам мавжуддир.

Этнографик ва шевашуносликка оид асарларда бу этник ном қозоёқли, қозийёқли, қазаяқли, қазияғли, қазяғли шакларида учрайди. Булар ғозоёқли атамасининг шевалараро турли хил фонетик ўзгаришларга учраган кўринишларидир.

Ғозоёқли этноними тамға номи асосида юзага келган. Бу уруғ тамғасининг шакли, тузилиши ғоз оёғи (панжаси)га ўхшаш бўлган. Уруғ номига мана шу тамға асос бўлиб хизмат қилган. Гап шундаки, ўзбек этнонимлари ичида 40 га яқин уруғ, қабиалар тамғалар номи билан юритилган. Тамғалардан, одатда, турли қавм, уруғларга мансуб чорва молларини бир-биридан фарқлашда фойдаланишган. Тамға шакли молнинг сонига куйдириб босилган. Болғали, сирғали, тароқли, чўмичли, болтали, ўроқли, қирғили этнонимлари тамға номлари асосида пайдо бўлган. Бу уруғларнинг тамғалари уй-рўзғор буюмлари – болға, чўмич, ўроқ, қирғич шаклида бўлганлиги учун шундай тарзда аталган.

Қисқаси, айтилганлардан англашиладики, Ғозийёғлиқ топоними уруғ номи билан юритилган жой номидир. Ғозийёғлиқ этноними бора-бора товуш ўзгаришига учраб, Ғозийёғлиқ шаклида ойконимга айланган. Аҳолининг этник таркиби маҳалланинг номланиши учун асос бўлган.

Ғозоёқли этноними асосида яратилган топонимлар Республикаимизнинг бошқа ҳудудларида ҳам учрайди. Қашқадарё вилоятининг Чироқчи, Яккабоғ, Навоий вилоятининг Хатирчи туманларидаги Қозоёқли, Самарқанд вилоятининг Нарпой туманидаги Қозийёқли қишлоқларининг номланиши бевосита шу этнонимга алоқадордир.

КАЛТАТОЙ – Фарғона вилояти Учкўприк тумани Янгиқишлоқ фуқаролар йиғини ўрамидаги аҳоли масканларидан бири. Жиззах вилоятининг Бахмал, Қашқадарё вилоятининг Қамаши, Косон, Яккабоғ туманларида ҳам Калтатой қишлоқлари бор. Тошкент шаҳри Шайхонтохур даҳасига қарашли маҳаллалардан бири ҳам ўтмишда Калтатой номи билан юритилган. Сурхондарё вилоятининг Сариосиё тумани ҳудудида эса Даштикалтатой деган жой бор.

Ўлкамиздаги бир неча жойнинг юқоридаги каби ном олишига боис нима? Бу саволга халкимиз тарихига оид ёзма манбалардан, аҳолининг этник таркибини ўрганишга бағишланган илмий асарлардан жавоб топиш мумкин. Гап шундаки, калтатой – уруғ номидир. У ўзбеклар таркибидаги “турк” деб аталувчи этник гуруҳнинг бўлинмаларидан бири бўлган. Профессорлардан Ғози Олим Юнусов, М.Ваҳобов, Б.Кармишева, Ҳ.Ҳасанов, Х.Дониёров, С.Қораев, Т.Нафасов асарларида калтатой уруғи ва унинг тарқалиши хусусида муҳим фикрлар баён этилган. Уларда қайд этилишича, калтатойлар Сурхондарёнинг юқори ва ўрта оқимларида, Нурота ва Молғузар тоғлари этакларида, Туркистон тизма тоғларининг ён бағирларида, Зарафшон дарёсининг ўрта оқимида, Фарғона водийсида, Қашқадарё воҳасидаги Китоб шаҳри атрофларида истиқомат қилганлар. Афғонистоннинг тоғли районларида анчагина калтатойлар яшаганлар. Калтатойларнинг кенг ҳудуд бўйлаб тарқалиши уларнинг ўтмишда кўп сонли уруғ бўлганлигидан далолат беради.

Калтатойларнинг кўпчилиги вақт ўтиши билан ўз уруғларининг номларини унутиб юборганлар. Лекин улар тарқалган, яшаган жойларнинг баъзилари шу уруғ номи билан юритилиб кетган. Этноним жой номи – топоним сифатида қўллана бошлаган. Юқорида тилга олиб ўтилган Калтатой деб аталувчи қишлоқ ва маҳаллалар бунинг ёрқин далилидир.

3. Rowling J.K. Harry Potter and The Half Blood-Prince. New York: Harry Potter Publishing Rights, 2005.- 671 p.
4. Чўлпон. Кеча ва кундуз: Роман-Т.: “Янги аср авлоди”, 2015.-332 б.

МУҲАММАД ЮСУФ ШЕЪРЛАРИДАГИ АЙРИМ МЕТАФОРАЛАРНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Муқимова Г. Р. , БухДУ мустақил изланувчиси

Мустақиллигимиз тобора мустаҳкамланиб, ўзининг ижобий самарасини бера бошлаган бугунги кунда халқимиз олдида ҳаётнинг моддий ва маънавий асосларидан келиб чиқадиган улкан вазифалар турибдики, уларни амалга оширишда адабиёт ва санъат, умуман, маънавиятнинг аҳамияти бениҳоя каттадир. Зеро, Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, «Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди» (“Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 8-август. № 162).

Шундай ижодкорлардан бири Муҳаммад Юсуфдир. Шоир образларни табиатдан излайди. *Гул, шабнам, олма, ой, юлдуз, ялпиз, мажнунтол, майса, уфқ, қуш, оҳу* ва шу каби тимсоллар шоир севиб ишлатган образлардир. Унинг шеърлятида энг кўп учрайдиган ва севиб ишлатиладиган образ –

қизғалдоқ. Бу образ унинг ўндан ортиқ шеърларида учрайди. “Севги бамисоли...” деб бошланувчи шеърда қизғалдоқ образи муҳаббат тимсоли сифатида тасвирланади:

Севги бамисоли лолақизғалдоқ,
Тегинмай бўлмайди,
Тегсанг тўкилар.
Алвон бир гумбазнинг ўртаси оппоқ
Буни бир мену бир капалак билар. [1, 22-б.]

Шеърда икки ўринда метафора мавжуд: “тегиниб бўлмайди”, “тегсанг тўкилар”. Севги қизғалдоққа ўхшайди, унга тегиниб бўлмайди, – дейди шоир, – жуда нозик, тегсак тўкилади, қизғалдоқ ҳам алвон гумбаз, унинг ўртаси оппоқлигини капалак ва мен, яъни ошиқ қалб билади демокчи. Айтилганидек, шоир ижодида қизғалдоқ образи метафора сифатида жуда кўп учрайди.

Қизғалдоғим қирдан бўлак кошонанг йўқ,
Кокил ёйсанг ердан бўлак тошойнанг йўқ.
Ўксиб-ўксиб турганинда ўзим бориб,
Пишонангдан ўпай десам пешонанг йўқ. [2, 153-б.]

Ўзбек мумтоз шеърлятида ошиқ ва маъшуқа образлари бадий сайқал топган тимсоллардандир. Муҳаммад Юсуфнинг ижоди ҳам бундан мустасно эмас. У ўзи таъкидлаганидек: ”Муҳаббат гўзал изтироб, у кўхна туйғу, у – кўхна дард”дир.

Қизил гул қўйнимда ухлаб ётган гул,
Қўлари бўйнимда, ухлаб ётган гул.
Киприги қўксимга тиғдек ботган гул,
Сенга нима керак яна, эй, кўнгил... [2, 43-б.]

Бу эса метафора бадий тафаккурнинг асосий механизми экани, шеърят асосида ўхшашлик принципи ётиши ҳамда катта ўрин тутишини кўрсатади.

Қир томондан пода қайтиб келаркан қатор
Кумуш соҳил бўйларига чанглар ястаниб,
Қишлоқнинг энг чеккасидан баҳайбат чинор
Уфқ тарафга қараб қўйди хавотирланиб. [2, 124-б.]

Шоир юқоридаги шеърининг парчада *чинор* метафораси орқали хавотирга тушган ота образини яратади.

Муҳаббат боғига кирмадим бир бор,
Суйиб бир гулга қўл урмадим бир бор. [2, 214-б.]

Муҳаммад Юсуф образ орқали ишқдан куйган кўнгил ҳақида сўз юритади.

Эй гул сендан кечди-му
Унитолмай бағрим қон.
Хаёлингдан ўчди-му
Хаёлимда сен ҳамон. [2, 232-б.]

Метафора ижодий фаолият маҳсули экан, худди бадий асар ёки образ каби иккала томонни, ижодкор ва ўқувчини бирдек назарда тутишни тақозо этади. “Чин адабиёт” яратиш заруратининг идрок етилиши натижасида 20-йиллардан бошлаб риалистик асосдаги янги образлилик шаклланди, рамзий ва метафорик образлар кенг оммалашди. [4,276-б] Демак, метафоранинг шеърятдаги ўрни ва аҳамиятини тасаввур қилиш учун унинг шеърый матнда бажараётган функцияларига алоҳида диққат қаратиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Муҳаммад Юсуф. Бевафо кўп экан дунёда. -Т.: Маънавият, 1991. -102 б.
2. Муҳаммад Юсуф. Қуёшга қараб оққан сув. -Т.: Маънавият, 2017. -232 б.
3. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси: — Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2004. -264 б.
4. Улугбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърятини: – Т.: «Adib» нашриёти 2012. - 304б.

АНГЛИЯ ВА АМЕРИКА АДАБИЁТИДА “УНИВЕРСИТЕТ РОМАН”НИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА УНДА ТАЛАБА ОБРАЗИНИНГ РОЛИ

Абдуллаева Набия Идрисовна, ТошИҚХММИ
Бухоро филиали тиллар кафедраси ўқитувчиси

“Университет роман” ҳозирги шаклидаги жанр 1950 йилларнинг бошларига тўғри келади. 1952 йилда нашр етилган Мери Маккартининг "The groves of Academe" (Академиянинг дарахтзорлари) энг биринчи нашрлардан бири ҳисобланади. Махсус бадий ҳодиса сифатида ушбу турдаги роман 1950-1960 йилларда амалга оширилган ва ҳозирги кунгача ривожланиб келмоқда. Британиялик ва америкаликлар тобора кўпроқ муаллифлар талабалар ҳаёти фонида долзарб ахлоқий ва ижтимоий муаммоларни ечишга имкон берадиган ушбу жанрга мурожаат қилмоқдалар.

"Университет Роман" ҳозирги кунга қадар долзарб жанр бўлиб келмоқда ва ўқувчилар эътиборини турли хил вазиятларни (фожеадан тортиб, истехзогача) ва талабалар ўқитувчилар ўртасидаги муносабатларни, ижтимоий ва синф масалаларини қамраб олганлиги сабабли ўқувчилар эътиборини тортмоқда. [1.50]

“Университет роман” лари университетнинг ёпиқ муҳити яратган хаёлий имкониятлардан фойдаланиб, икки маъноли иерархияларда яшайдиган шахслар билан фойдаланади. Улар собит ижтимоий-маданий истиқболнинг (профессор-ўқитувчилар таркибининг) янги ижтимоий муносабатларга (янги талаба қабул қилиш) муносабатини тасвирлайди.

Ушбу адабий соҳадаги енг кўзга кўринган ёзувчилардан бири Девид Лодж, Донна Тартт, Снов, Филип Рот, Антония Байетт, Малколм Брадберри, Джеффи Евегенидис, Кингсли Амис ва бошқалар. Булар нафақат бу жанрга балки балки бошқа жанрларда ҳам ижод қилишган. Девид Лодж ҳам реалистик тарзда ёзган ва постструктурализмнинг таъсирини унинг асарида ҳам кўриш мумкин. Кингсли Амис “ғазабланган ёшлар” ҳаракатига тегишли бўлиб, кўплаб жанрлар, жумладан жосуслик романтикаси ва тарихий дистопияни синаб кўрди. Аммо, шунга қарамай, уларнинг академик ҳаёт ҳақидаги сатирик романлари уларга шон-шараф келтирди.

Евелин Вонинг “Брайдсхедга қайтиш” (Brideshead Revisited) каби романлари ўқитувчиларга емас, балки талабаларга қаратилган бўлиб, улар кўпинча ўзига хос жанрга тегишли деб ҳисобланади, баъзан уларда турфа хил роман деб аталади. Романнинг бош қаҳрамони, ёш рассом, талаба Чарлз Райдер Оксфордда ўқиётганда, қадимги католик аристократларининг вакили Себастьян Флайт билан танишади. Флайт оилавий мулки Брайдсхедга келганидан сўнг, Чарлз боҳем ҳаётининг оғир аҳволига тушиб қолади ва кейинги йилларда унинг тақдири ушбу оила билан узвий боғлиқдир.

Шу даврнинг ёрқин ижодкори Донна Тарттнинг “Сирли тарих” (The secret history) асари ҳам турли хил характердаги талбаларни ўзига мужассам қилган. Улар психологик жиҳатдан бирбиридан бутунлай фарқ қилиб, турлича фикрлайдиган талабалар ҳисобланади.

Романнинг ҳаракати одатдагидек бўлиб ўтади, бошқалардан унчалик фарқ қилмайди, Америка коллежида. Ўн тўққиз ёшли Ричард Пейпин Вермонт шаҳрида жойлашган коллеж талабаси бўлиб, у ҳам у ерда қадимги юнон тилининг барча қирраларини ўрганмоқчи. У тезда янги дўстлар орттиради. Кичик гуруҳдаги талабалар у ерда қадимги юнон тилини ўрганишмоқда. Улар қадимги дунёга шунчалик сингиб кетишганки, улар атрофдаги ҳақиқатдан озгина ажралишган. Уларни ўзига хос профессор, руҳоний Жулиан Морроу бошқаради. Аммо яқинда уларнинг дўстлиги кучли фожиали синовдан ўтиши керак - улардан бирини ўлдириш. Дўстона муносабатлар жуда кучли ва мустаҳкам бўлиб туюлади, аммо бу фожеа уларнинг муносабатларини бузади.

Ўшандан бери кўп йиллар ўтади, аммо Ричард Пейпин ушбу фожиали воқеани унутолмайди. У талабалик даврини, ўша даврини тиклашга,

синфдошларини ва уларнинг муносабатларининг барча босқичларини эслашга, шахсий ҳаёти ва собиқ севгилиси ҳақида эслашга қарор қилади. Ричард ўзининг хотираларига кириб, кутилмаганда эрта сезилмаган тафсилотларни, уни даҳшатга соладиган воқеалар занжирини топишга киришади, уни бутун ҳаётини унутишга астойдил ҳаракат қилган ўтган кунларнинг фожиали воқеаларига ўзини бағишлашга мажбур қилади.

Донна Тарттнинг бу китобини китобхонлар сўнгги саҳифасигача бир варрақини ҳам қолдиришмай ўқишади, бу асар китобхоннинг диққатини тортадиган, руҳий кечинмаларни ларзага солувчи асар ҳисобланади.

Том Вулфнинг “Мен Шарлотта Симонс” (I’m Charlotte Simons) асари тўлиқ Англия ва Американинг институт, университетидаги талабалар ҳақида бўлиб уларнинг ҳаёт тарзи, фаолиятларини тўлиқ очиб беради.

Шарлотта Симмонс Шимолий Каролинанинг Спарта шаҳрида туғилган, оддий оиладан ақлли, камтарин ва содда қиз, кичик шаҳарчадаги мактабни аъло баҳоларга тугатиб, АҚШнинг нуфузли университетларидан бирига ўқишга йўлланма олиди. Болалигиданоқ Шарлотта ақлли қиз эди ва устози ёрдамида кекса мактаб ўқитувчиси билан мамлакатдаги нуфузли университетда ўқиш учун стипендия олди. Шарлотта бахтлидир - энди у чинакам муносиб жамиятга айланади, уни АҚШнинг энг ақлли ёшлари қуршаб олади, ниҳоят у дангаса ва зерикарли синфдошлари билан эмас, балки муносиб ҳақиқий билим олиш учун кетаётганидан жудаям хурсанд эди.

Энг ёмони, узоқ кутилган университетда улар интеллект ва принципларга эмас, балки пул ва "қаттиққўллик" га сиғинишларини англаган Шарлоттанинг хафсаласи пир бўлди, бу ерда суҳбат Сократ ва Платон ҳақида эмас, балки ҳар хил бузуқ гаплар, ичкиликбозлик ва бошқа ахлоқсиз одатлар ҳақид эди. Бу ерда энг яхши нарса - энг яхши ўқиётганлар эмас, балки умуман ўқимайдиган баскетболчилар ва бошқа спортчилар ҳисобланарди.

Манбаларда айтилишича Том Вулф бу асарни ёзиш учун 4 йил университетда (кампусда) яшаган ва шу талабалар ҳаётини тўлиқ, ҳақиқий фактларга асосланган ҳолда тасвирлаган.

Университет насрининг ҳодисаси тасодифан биринчи навбатда Англия-Америка маданий макони билан боғлиқ эмас. Бу олий таълимнинг ушбу мамлакатларнинг ижтимоий ҳаётидаги алоҳида роли билан изоҳланади, бу ерда Т. Георгиева томонидан берилган таърифга кўра, университет "нафақат иқтисодиётда, балки замонавий жамиятнинг табақаланиш тизимида ҳам марказий ўринлардан бирини егаллайди" маданий ва ахлоқий кадриятлар билан, фуқаролик таълими асослари билан белгиланади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Зарубежная литература XX века. – М.: “Просвещение”, 1986.
2. Ивлин Во Возвращение в Брайдсхед.-М.: Б.С.Г.- Пресс, 2005
3. [Тарт Дона](#) Тайната история.-М.: Еднорог,2015
4. Том Вулф Я-Шарлотта Симонс.-М.: Амфора, 2006

УНДАЛМА ВА УНИНГ ИНТОНАЦИЯСИ

Бурхонова Машхура, ФарДУ тадқиқотчиси

Ҳозирги замон тилшунослиги экстралингвистика, интралингвистика ва компаративистика каби уч тармоққа бўлинади. Интралингвистика бошқа икки тармоққа нисбатан тилшунослар томонидан анча муфассал ўрганилган. Ундалма категорияси ана шу тармоқ таркибига кириши ҳеч кимга сир эмас. Замонавий тилшуносликнинг дарслик, академ грамматика ва луғатларидан ундалманинг лингвистик табиати етарлича маълумот олиш мумкин. Бу категория ҳақида лингвистик луғатларда “ундалма сўзловчининг нутқи қаратилган бошқа бир шахс ёки предметни билдирадиган сўз ёки сўз бирикмаси. У гап бўлаклари билан грамматик алоқада бўлмайди”¹³⁵, деб таъкидланади. Ундалма бош келишидаги от ёки от маъносидаги сўзлар орқали ифодаланиб, гапнинг умумий мазмунини тўлдиради, гапнинг кимга қарашли эканини кўрсатиб беради¹³⁶.

Тилшунос А.М.Пешковскийнинг фикрига кўра, ундалма сўз ёки сўз бирикмаси кўринишида бўлиб, гапнинг асосий структурасига кирмайди ва гапнинг таркибий қисми сифатида ажратилмайди. А.А.Шахматов қарашларига кўра эса, ундалма ўзининг грамматик ва функционал табиатига кўра гапнинг синтактик бутунлигини таъминлашга хизмат қилади¹³⁷.

Ўзбек тилшунослигида ундалма категориясининг лексик-семантик хусусиятлари, морфологик-синтактик ифодаланиши, структураси, гапдаги ўрни ва интонацияси хусусида А.Р.Сайфуллаевнинг тадқиқоти¹³⁸ мавжуд. Олим ўз ишларида ажратилган ва уюшган ундалмалар, ундалманинг гапдаги ўрни, интонацияси, стилистик роли ва тарихий тараққиёти ҳақида фикр юритиб, ўзига хос фикрларни илгари сурган. А.Нурмоновнинг таъкидлашича, ундалмалар бўйича узоқ йиллар илмий тадқиқот олиб борган А.Сайфуллаев, “...уларнинг гап таркибида муайян семантик-функционал қимматга эга бўлишига қарамай, гап бўлаклари саналмаслигига эътироз билдирди, ундалма ва кириш қурилмаларни гап бўлаклари қаторига киритишга

¹³⁵ Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. Б. – 97.

¹³⁶ Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.

¹³⁷ Чжен Ин. Семантические компоненты вежливости, категоричности, смягченности в русском и китайском языках. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2007.

¹³⁸ Сайфуллаев А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундалма. – Тошкент: Фан, 1968.

интилди. Гап бўлақларини анъанавий икки даражага бўлишга танқидий ёндашган ҳолда уч даражага ажратишни маъқул кўрди ва ундалмани учинчи даражали бўлақлар сирасига киритишни тавсия этди”¹³⁹.

Синтаксисда содда гапларларнинг дарак, сўроқ, буйруқ каби кўринишлари мавжуд. Ўзбек тилшунослигида дарак ва сўроқ гаплар интонацияси¹⁴⁰ экспериментал жиҳатдан батафсил ўрганилган. Буйруқ гаплар интонацияси хусусида М.Миртожиевнинг қарашлари мавжуд, лекин бундай гапларнинг экспериментал жиҳатдан батафсил ўрганилган деб бўлмайди. Худди буйруқ гаплар каби ўзбек тилшунослигида мураккабланишган содда гапларнинг интонацион хусусиятлари ўрганилиши лозим бўлган муаммоли масалалар қаторига киради. Уюшиқ бўлақли гаплар, ундалмали гаплар, кириш ва киритма конструкцияли гапларнинг фонетик табиатини тадқиқ қилиш, улардаги мелодика, пауза, темп ҳақида асосли фикрларни билдириш жуда муҳимдир. Ундалманинг интонацион хусусиятларини ўрганиш содда гаплар синтаксисидаги ана шу бўшлиқни бир қадар тўлдиришга хизмат қилади.

Одатда, ундалма гапда турли ўринларда кузатилиши мумкин. Гапнинг бошида, ўртасида ва охирида келади. Бундай ҳолатда гап бўлақлари билан пауза орқали ажратилади. Ундалмаларнинг ўз интонацион тузилиши мавжуддир. Ундалма интонацияси ҳақида “...ундалма ҳозирги ўзбек адабий тилида чақириш, санаш, сўроқ, ундов ва кириш интонациялари билан талаффуз қилинади”¹⁴¹ каби қарашлар мавжудлигини ҳисобга олиб, уларни экспериментал жиҳатдан текшириш ва мавжуд фикрларга аниқлик киритиш лозим. Ундалманинг интонацион тузилиши унинг мелодик ҳаракат тасвири, интенсив ҳаракат тасвири, талаффуз учун сарфланган вақт миқдори ҳамда ўрнига кўра паузанинг миқдорини ўзгариши кабиларда намоён бўлади. Юқоридаги уч хусусият (паузадан ташқари) ўзига хос акустик параметрларда намоён бўлади. Мана шу акустик параметрлар ундалмаларнинг фонетик-синтактик табиатини визуал акс эттиришга хизмат қилувчи бирликлар саналади.

М.Миртожиевнинг “Ўзбек тили фонетикаси” дарслигида мураккабланишган содда гаплар интонацияси хусусида бир қатор лисоний далиллар орқали фикрлар келтириб ўтилади. Хусусан ундалма интонацияси ҳақида ҳам олим ўз фикрларини экспериментал жиҳатдан рақамлар ёрдамида тасдиқлашга уринади. Дарсликда ундалманинг уч позицияси хусусидаги

¹³⁹ Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012, 421-бет.


¹⁴⁰ Ниёзов Д.М. Интонация повествования в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969; Юлдашева Х. Интонация вопросительных фраз современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988.

¹⁴¹ Сайфуллаев А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундалма. – Тошкент: Фан, 1968.

қуйидаги фикрларни кузатамиз : “Ундалма гап таркибида препозицияни эгаллаб, оҳанги кўтарилувчи характерда бўлганидай, постпозицияни эгаллаганида ҳам кўтарилувчи характерда кўзга ташланади”¹⁴²


Ундалмалар ўрни жиҳатдан гап бошида келганда унинг мелодик ҳаракати кўтарилувчи оҳанг модели талабларига мос келади. Буни 1- ва 2-расмлардаги ундалма вазифасида келаётган “Муроджон”, “Назокатхон” каби мурожаат шакллариининг визуал ифодасидан ҳам кўриш мумкин. Мелодик тасвир диаграммаси эса буни яна ҳам аниқроқ кўрсатишга хизмат қилмоқда (1- ва 2-диаграммалар). Ҳар икки диаграммада ҳам препозицияда келган ундалманинг мелодик ҳаракат тасвири кўтарилувчи оҳанг тарзида кўзга ташланади. Бу жиҳатдан гап бошида келувчи ундалмаларнинг мелодик ҳаракат модели сўроқ гап оҳангига ўхшаш бўлади.

1-расм




1-диаграмма


¹⁴² Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013, 410-бет.



2-расм



2-диаграмма



Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, ундалма гап таркибида ўзининг ўрнига кўра ва функционал семантик хусусиятларига кўра ҳам интонацион жиҳатдан ўзига хос тузилишга эгадир.

ТУРИСТИК МУНОЗАРALARДА ГИД-ЭКСКУРСОВОДЛАР НУТҚИНИНГ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА

Хожаева Малика Носиржон қизи, ТошДўТАУ ўқитувчи

Экскурсия мунозараси турли хил туристик мунозаралар ва маданий туризмнинг таркибий қисми сифатида бошқа туристик алоқаларга қараганда маданиятнинг шаклланишига улкан ҳисса қўшади, шахслараро ва маданиятлараро баркамоллик, шахснинг маданий ўзига хослиги, вакилларнинг маданий қадриятларини белгилашга хизмат қилади. Шу муносабат билан дунёнинг маданий шаклланишида ҳамда хорижий сайёҳлар учун маданий манзарани яратишда алоҳида роль гид-таржимонга тегишлидир.

Сайёҳларнинг экскурсиялар ҳақидаги шарҳларининг таҳлили шундан далолат берадики, улар диққатга сазовор жойларни томоша қилишда биринчи навбатда саёҳат давомидаги эстетик завқни қадрлашади. Сайёҳлар аввало тингловчиларни жалб қила оладиган ҳазил туйғусига эга бўлган, қандай қилиб саёҳатчиларни кўнгилни кўтаришни гид-экскурсоводни эслаб ўтишади. Шундай экан, мамлакатнинг туристик жиҳатдан камол топиши кўп жиҳатдан гидларнинг тўғри суҳбат орқали сайёҳларни қизиқтиришига бевосита боғлиқ. Юртимизда бу соҳа ривожланаётган соҳалардан бири бўлиб тилшунослар тарафидан кўп меҳнат талаб қилади.

Экскурсия, одатда, шаҳар туризми доирасида янги гўшаларни ўзлаштириш мақсадида диққатга сазовор жойларга коллектив ёки индивидуал ташрифдир. Бу жараёнда ҳар бир инсон маданий ва қимматли билимлар ва эстетик завқга эга бўлади. Т. В Демидова таъкидлаганидек, экскурсия - бу дунёни ҳиссий ва мантиқий билиш жараёнидир[1].

Сайёҳлик матнининг асосий қисмида тарихий маълумотлар, архитектура, ўлкашунослик, экскурсия мавзусининг ижтимоий-маданий хусусиятлари акс этиши лозим. Экскурсиялар турли тоифаларга бўлинади ва улардан бири Макса Вебер типологияси бўйича жойлашув жиҳатдан бўлиб, уч тоифага бўлинади[1, 607-б.]:

1. музейлар бўйлаб;
2. кенг шаҳар бўйлаб;
3. маълум тор қисм бўйлаб.

Албатта, бу экскурсия турларининг ҳар бири гид-экскурсоводдан ўзига ҳос сўзлашув услуби ҳамда тингловчи сайёҳларга маълумотни етказиб беришда махсус тайёргарликни талаб этади. Ҳар бир диққатга сазовор жой учун турли лингвистик белгиларни ўз ичига олган равон нутққа катта эътибор қаратилади. Мисол тариқасида шуни айтиш мумкинки, дунёнинг машҳур музейларидан бири Луврда гид вазифасини аудио тарзда етказиб берадиган махсус мосламалар бажаради. Уларда олдиндан ёзиб олинган лингвокультурологик жиҳатдан тўғри матн тақдим этилади[3]. Дарҳақиқат, мана шундай улкан сайёҳлар оқимига эга мамалакатлар ва турли машҳур диққатга сазовор жойларда бу каби хизматлар янгилик эмас.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, ҳар бир сайёҳ мамлакатга келар экан, ўзида мавжуд стереотиплар орқали назар солади. Гидларнинг зиммасида халқнинг бой тарихи ва маънавиятини намоён қилган ҳолда оғзаки мулоқот орқали сайёҳнинг фикрини ижобий ўзгартириш вазифаси бўлиб, ушбу вазифани амалга тадбиқ этишда лингвистик тўғри тузилган матнининг аҳамияти беқиёс. Шу нуқтаи назардан гид-экскурсоводнинг чиройли ва равон нутқи сайёҳлар оқимининг кўпайишига ва мамлакатда туризм соҳасининг тараққиётига ҳисса қўшадиган муҳим омиллардан бири бўлиб қолаверади.

Адабиётлар:

1. Демидова Т.В. “Языковая личность в экскурсионно-дискурсивной деятельности.” URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/yazykovaya-lichnost-vevskursionno-diskursivnoy-deyatelnosti>.
2. Вебер М. Osnovnye sociologicheskie ponjatija // Вебер М. Izbrannye proizvedeniya. М.: Progress, 1990. S. 602–643
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9B%D1%83%D0%B2%D1%80>

NAVOIY ASARLARIDAGI O‘XSHATISHLARNING AYRIM LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Gulrux Sayidova, Bux.DU doktoranti

Inson olamdagi murakkab va qiyin masalalar mohiyatini anglash hamda tushinishda odatda analogiya usulidan ko‘p foydalanadi. Bu termin yunoncha bo‘lib, uning o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma‘nosi *o‘xshashlik* demakdir. Fanlarda, chunonchi, falsafa, mantiq, biologiya, tilshunoslik kabilarda asosiy usul sifatida keng tatbiq etiladi. Analogiya yordamida ikki predmet yoki hodisaning qaysidir bir xususiyati o‘xshasa, boshqa xususiyatlari ham o‘xshashligi haqida xulosa chiqariladi. Analogiya deb o‘xshatish orqali bir belgining ikki buyumda borligini aniqlab, bu buyumlarning boshqa o‘xshash belgilarga ega ekanini ko‘rsatishga aytiladi. Birinchi narsa yoki hodisaning hamma belgilari biz uchun tanish. Ikkinchi narsa yoki hodisaning faqat ba‘zi bir belgilarinigina bilamiz. Biz bunday vaqtda bu ikki narsa yoki hodisani bir-biriga o‘xshatamiz [4,247-b.].

O‘xshatishlar badiiy adabiyotda ijodkor uchun predmed, hodisa va tushunchalarni aniq, tushunarli, ta’sirli hamda go‘zal tarzda ifodalashda eng muhim mantiqiy usul bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy-estetik qiymat, lingvopoetik salmoq nuqtai nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o‘xshatishlar yaratadi, bu o‘xshatishlar kutilmagani, ohorliligi bilan o‘quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi [3,5-6 b.].

Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida o‘xshatishlar alohida bir badiiy san‘at – tashbihni yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Bu badiiy san‘atni yuksak darajada taraqqiy ettirganlardan biri Alisher Navoiydir. Uning badiiy asarlarida mazkur badiiy san‘at miqdori juda ko‘p bo‘lib, ular alohida tizim sifatida shakllangan. Ularning ayrimlarini quyidagi ma‘noviy guruhlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

1.Qushlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:

Chaman otashgahiga otashin guldin chu o‘t solding,
Samandardek ul o‘tdin kulga botti bulbuli shaydo. [1,24-b.]

Tavsifi: “Ey, ma’shuqa, sen chaman (gulzor) otashgohi (o‘txonasi)da otashin (o‘tday qizil) guldan shunday o‘t yoqdingki, oqibatda senga shaydo bo‘lgan samandardek oshiq o‘tda yonib, kulga aylandi”. Mazkur baytda o‘xshagan *bulbul* so‘zi bo‘lib, u ko‘chma, ya’ni oshiq ma‘nosida qo‘llangan. O‘xshatilgan esa forsiy qatlamga tegishli *samandar* so‘zi bo‘lib, uning lug‘aviy ma‘nosi afsonaga ko‘ra

go‘yo o‘tdan paydo bo‘lib, o‘t ichida yashaydigan jonivordir [2,544-b.]. Shu o‘rinda izoh sifatida aytib o‘tish mumkinki, ayrim ilmiy ishlarda, masalan, N.Mahmudovning D.Xudoyberganova bilan hammualliflikda chop etgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”ga muqaddima o‘rnida havola etgan maqolasida o‘xshatish uzvlari boshqacha tarzda, ya‘ni *o‘xshagan* atamasi *o‘xshatish etaloni*, *o‘xshatilgan* atamasi esa *o‘xshatish sub‘ekti* termini bilan ifodalangan.

2. Asar qahramonlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:

Nedin yuz gul ochar ishq o‘tidin bulbul kabi Vomiq,

Vomiq yuzingdin gar uzori bog‘ida gul ochmadi Azro. [1,24-b.]

Tavsifi: “Vomiq kabi ishqqa giriftor oshiq bulbulning ishq o‘tidan gul yuz ochdi, biroq nima uchun Vomiq yuzingni ko‘rsa hamki, Azro (Uzro) chiroy bog‘ida gul ochmadi”. Ushbu baytda o‘xshagan mashhur afsonaviy “Vomiq va Uzro” qissasidagi *Vomiq*dir. U arabiy nom bo‘lib, mumtoz adabiyotda ikki ma’noda – birinchisi, oshiq, ishqqa giriftor majoziy, ikkinchisi, “Vomiq va Uzro” qissasida Uzroga oshiq bo‘lgan qahramon ma’nolarida istifoda etiladi [2,150-b.]. Baytdagi *bulbul* (o‘xshatilgan) so‘zi oshiq, *gul* so‘zi ma’shuqa, *Vomiq* nomi ishqqa giriftor, *Uzro* nomi esa pok qiz [2,35-b.] majoziy ma’nolarida qo‘llangan.

3. Mavhum tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:

Suho bo‘lsa shabistonningda toli’,

Bo‘lub nuri quyoshdek olamoro. [1,27-b.]

Tavsifi: “Garchi ba‘zan faqat eng xira yulduz qop-qorong‘u kechangda ko‘rinsa hamki, Olloh quyosh nuridek sening yo‘lingni yoritadi”. Aytish mumkinki, baytdagi fikr to‘lig‘icha majoziy ma’noda qo‘llangan. Izohtalab so‘zlariga e’tibor qarataylik. *Suho* arabiy so‘z bo‘lib, uning asl lug‘aviy m’nosi *hulkar to‘plamidagi yulduzlarning eng xirasidir* [2,578-b.]. *Shabiston* forsiy so‘z bo‘lib, u *qop-qorong‘u kecha* ma’nosini ifodalaydi. *Toli’* esa arabiy so‘z, uning *oy yoki quyoshning chiqishi, ko‘rinishi; baxt, iqbol, qismat* kabi ma’nolari mavjud [2,612-b.]. Anglashiladiki, baytda insonga eng yomon va og‘ir kunlari ortida Yaratgan unga baxt ato etib, keyingi hayotini nurli kunlar bilan bezaydi, degan ijtimoiy-tarbiyaviy, diniy-ma’naviy fikr ilgari surilgan. Baytda *toli’* (baxt) o‘xshagan, *quyosh nuri* o‘xshatilgan. Baxt mavhum tushunchasi quyosh nuriga qiyoslangan.

4. Inson a‘zolari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:

Ey alifdek qomating mayli buzulg‘an jon aro

Ganji husnung javhari bu xotiri vayron aro. [1,37-b.]

Tavsifi: “Ey ma’shuqa, alifdek chiroyli qomating mayli mening singan jonimda, husning xazinasining gavhari esa mening vayrona xotiramda bo‘lsin”. Yor *qomati* o‘xshatish etaloni, *alif* harfi shakli o‘xshatish sub‘ekti sifatida

voqelangan. Tashbih *-dek* o'xshatish vositasi orqali ifodalangan. SHoir asarlarida inson tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlarning miqdori juda ko'p. Masalan, adibning quyidagi baytida ma'shuqaning dudog'i gul yaprg'iga o'xshatilgan: *Shimib yutsam gahe hayvon suyidek zavqdin ko'rgach, Tarashshuh bodadin gul yafrog'i yanglig' dudog'inda.*

5. Inson faoliyati mahsuli bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlar:

Bu o'lganlarga umri Xizr bergay, gar yana nogah,

Masihim obi hayvon yanglig' etsa bir guzor anda. [1,42-b.]

Tavsifi: "O'lganlarga Xizr umri bersin, gar yana nogoh etsa Masih unda tiriklik suviga o'tishga o'xshash yo'l". Baytda qo'llangan *obi hayvon* afsonaga ko'ra ichgan kimsa o'lmay, abadiy yashaydi deb hisoblangan suv, tiriklik suvi, hayot suvidir. Bu suv qandaydir bir chashmadan chiqadi deb faraz etilganidan chashmayi hayvon hamda go'yo bu chashma suviga Xizr payg'ambar muyassar bo'lgan deyilib, Xizr suvi deb ham yuritiladi. [2,475-b.]. Baytda keltirilga Masih (Iso) payg'ambar nomi ham majoziy ma'noda qo'llangan bo'lib, diniy afsonalarda uning nafasi bilan o'lgan odamlar tiriladi, ularga jon bag'ishlaydi, degan qarash mavjud [2,367-b.]. Anglashiladiki, *guzor* (yo'l, o'tuvchi yo'l) o'xshagan, *obi hayvon* (hayot, tiriklik suvi) o'xshatilgan. O'xshatish vositasi esa *yanglig'* ravishidir.

Shoir she'rlarida yana ichimliklar bilan bog'liq (*Ashkdek oqti qora su ko'zlarimdin hajrida, Tong yo'q idborim chu bo'lmishdur manga axtar qaro.* Baytda ko'z yoshi suvga o'xshatilgan); insonning jismoniy xususiyati bilan bog'liq (*Ko'hi g'am tortarg'a xasdek jism ila bel bog'ladim, Ostig'a qolmishmen andog'kim samon devor aro.* Baytda inson jismi xasga o'xshatilgan); olam tushunchasi bilan bog'liq (*Zulf ichra yuzi yanglig' ofoqni kuydurgan, Ohim tutuni ichra ozarmu ekin oyo?* Baytda dunyo ma'shuqa yuziga o'xshatilgan) bo'lgan o'xshatishlar ifodalangan. O'xshatishlarning aksariyatini ot turkumiga oid so'zlar tashkil etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alisher Navoiy she'riy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, diniy, adabiy sohalar bilan aloqador o'xshatishlar qo'llangan bo'lib, ular o'zbek xalqining turmush tarzida ko'p uchraydigan predmet va voqea-hodisalar hamda ongiga chuqur singgan tushunchalar hisoblanadi. Adib turli-tuman va o'z davri uchun yangi o'xshatishlar yaratib, tashbih badiiy san'atini yuksak darajada rivojlantirdi. Aytish mumkinki, shoir bu bilan nafaqat o'zbek tili va adabiyotini, balki o'zbek madaniyati va jahon ijtimoiy, badiiy-estetik tafakkurini ham taraqqiy ettirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Навоий. Фаройиб ус-сиғар Хазойин ул-маоний Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. (Нашрга Ҳамид Сулаймон тайёрлаган; масъул муҳаррир Порсо Шамсиев). –Тошкент: Фан, 1988. -3 том. -613 б.

2. Навоий асарлари луғати. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. -791-б.
3. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. -320 б.
4. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984. -376 б.

МОНОЛОГИК НУТҚ ВА УНИНГ ПСИХОЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

А.Ж.Фазлиева, НамДУ ўқитувчиси

Тил ўзида инсоннинг жамики хис-туйғуларини, ақл-идроқини, иймон-этиқодини ва борлиғини намоён қилади, мужассам қилади, тафаккурини шакллантиради¹. У монологик ва диалогик нутқ шаклида намоён бўлади. Монологик нутқ оғзаки алоқа шакли сифатида мураккаб ва кўп қиррали ҳодисадир. Психолингвистик нуқтаи назардан монологик нутқ фаолиятининг кўплаб белгиларига эга: у ўз предметига, ҳаракатлар ва операциялар, ташқи структура ва натижа билан ифодаланадиган ички тузилишга эга.

Монологик нутқнинг горизонтал тузилиши фаолият сифатида уч босқич ажратилади, уларнинг асоси индивидуаллаштириш жараёнига асосланади: мотивацион – фақатгина тил орқали фикрни яъни нутқ мавзусини ифодалаш зарурати нутққа олиб келади. Нутқ ҳаракати алоқа қилиш, жавоб бериш ва бошқалар ёки нутқсиз сўровни бажариш учун мотивациядир. Кирувчи маълумотни қайта ишлаш жараёнида тингловчи ўзининг коммуникатив вазифасини шакллантиради, нутқ нияти ва баённинг ғояси пайдо бўлади. Шундай қилиб, нутқ фаолиятининг ушбу қисмида хабар мавзусини аниқлаш ёки “қабул қилиш” операцияси амалга оширилади: Нима учун? Нима ҳақида гаплашиш керак?

Аналитик-синтетик. Ушбу босқичда коммуникацион вазифа ва алоқа ҳолати туфайли фойдаланиш ғояси, таркибий тузилиш амалга оширилади. Лингвистик воситаларни танлаш сўзнинг парадигматик ва синтагматик бирикмаларини амалга ошириш, хотирада сақланадиган нарсаларнинг тугалланиши, қурилиши, ўзгариши ва комбинациясидир.

Назорат ва ижро. Ушбу босқичда нутқнинг талаффузи ёки ташқи дизайни, нутқнинг ҳиссий-экспрессив рангини берадиган режага мувофиқ мантиқий қурилиш амалга оширилади. Шуни ҳам ҳисобга олиш керакки, монологик нутқ унинг пайдо бўлиши шароитидан, хусусан, вазиятдан, ўзига хослигидан ташқари матндан ажралиб туради. Кейингисига алоқа мақсади ва шартлари, нутқ актининг ўзига хос мазмуни, суҳбат иштирокчиларининг ўзига хос хусусиятлари уларнинг ёши, ривожланиш даражаси, қизиқишлари ва бошқалар киради. Юқорида айтилганларни барчаси алоқа режасини режага мувофиқ нутқ ҳаракатларини амалга ошириш учун зарур ва етарли

бўлган шартлар, нутқ ва нутқ бўлмаган ҳолатда шакллантиради. Оғзаки мулоқотнинг маълум соҳаларида вужудга келган коммуникатив вазият субъектларни танлашга таъсир қилади, оғзаки монологик нутқ фаолияти натижаси унинг маҳсулидир. Горизонтал тузилиш босқичлари ижро этувчи ва таҳлилий –синтетик мотивацион- рағбатлантирувчи – оғзаки монологик баён. Психолингвистик хусусиятлар монологик нутқнинг психолингвистик хусусиятларини тавсифлаган ҳолда шуни таъкидлаш керакки, монологик нутқ фаолиятнинг ўзига хос тури бўлиб, унда нутқий вазиятдан олинган нутқ бўлмаган маълумотлар нисбатан кам қўлланилади. Бундан ташқари, монологик нутқ – бу нафақат битта иборани ёки гапни, балки бутун хабарни дастурлаш қобилятининг мавжудлигини тахмин қиладиган нутқнинг уюшган туридир. Унда тил воситалари ва фикрларни ифода қилишнинг лисоний бўлмаган коммуникатив воситаларини танлаб фойдаланилади. Шундай қилиб, монологик нутқ доимо коммуникатив мақсадлар ва маърузачининг вазифаси билан белгиланади. Шунингдек, тингловчига жозибадорликни, ҳиссий рангларни, лингвистик ва таркибий-композицион хусусиятларда ташқи ифодани топишини умумлаштириб беришимиз керак. Функционал-семантик жиҳатдан монологик нутқнинг типологияси турларига бўлинади: тавсиф, ривоят, мулоҳаза.

Монологик- тавсиф – объектларни, ҳодисаларни, уларнинг хусусиятларини, белгиларини, хусусиятларини санаб бериш орқали амалга ошириладиган объект, ҳодисанинг хусусиятини таклиф қилувчи фикрларни ифодалаш усули.

Монологик хабар, ривоят, ҳикоя - ишлаб чиқиладиган ҳаракатлар ва шароитлар тўғрисида маълумотлардир. Монологик-ривоят тузилиши куйидаги кетма-кетлик билан ифодаланади: кириш-асосий қисм-хулоса.

Монологик-мулоҳаза – унинг таркибий мулоҳазалари ўртасида махсус мантикий муносабатлар билан ажралиб турадиган, инкорни шакллантирадиган нутқ тури. Таркибий жиҳатдан монологик-асослаш куйидаги қисмларнинг бирлиги, яъни тезисга асосланган.

Монологик нутқнинг вазифалари ва уларни монологик нутқнинг тегишли турларида амалга ошириш илмий изланишларда монологик нутқнинг куйидаги вазифалари ажратиб кўрсатилади: хабар вазифаси, унинг моҳияти, атрофдаги воқеликнинг объектлари ва ҳодисалари ҳақида билим шаклида янги маълумотларни етказиш, воқеалар, ҳаракатлар, ҳолатларнинг тавсифи, актёрлик вазифаси кимгадир муайян фикрлар, қарашлар, эътиқодлар, ҳаракатларнинг тўғрилигига ишонтиришни ўз ичига олиш, ҳиссий баҳоловчи вазифа - воқеаларни, объектларни, ҳодисаларни, ҳаракатларни баҳолашни ўз ичига олади. Монологик нутқ вазифаларини

тегишли шаклларда амалга ошириш; тушунтириш ёки ривоят қилишда бошқа вазифаларни амалга ошириш, тушунтириш ва ривоят қилишда хабар вазифаси амалга оширилади, ҳаракатга келтирувчи мулоҳазада баҳоловчи ҳар уч шаклда тавсиф, ривоят ва мулоҳаза монологик нутқнинг ҳар бир вазифаси ўзига хос тил воситаси ва махсус психолингвистик омиллар билан ажралиб туради.

Монологик нутқнинг асосий тушунчалари, монологлар ҳар доим суҳбатдошни қабул қилган ҳолда диалогнинг кўпроқ ёки оз қисмидир дейиш мумкин.

Бадиий нутқда монолог муҳим аҳамиятга эга бўлиб, у орқали нутқ сўзловчининг психолингвистик ҳолати тўлиқ намоён бўлади.

САИДА ЗУННУНОВАНИНГ ОМОНИМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ

Одинахон Иномиддинова

Бадиий асарлардаги сўзнинг қиммати унинг қўлланиш меъёри ва қандай маъноларда ишлатилганлиги билан аҳамиятли. Бундай мезонлар омонимия ҳодисаси учун ҳам характерли. Тилшуносликда омонимиянинг 3 кўриниши фарқланади: омолексема, омограф ва омофонлар. Бу борада кўп тадқиқотлар олиб борилган¹⁴³. Албатта, омонимлар лексик бирлик сифатида тилимизни бойитгани каби шеърий асарларнинг ҳам мазмунан бойитиш ва оҳангдорлигини таъминлашда катта аҳамиятга эга.

Шакли бир бўлиб, маънолари ҳар хил бўлган бирдан ортиқ сўзлар омонимлар саналади. Улар баъзан шаклдош сўзлар ҳам дейилади¹⁴⁴. Омонимларда шаклий кўриниш етакчи хусусият саналади. “Омонимлар, аввало, бир тил дои-расида белгиланади: бошқа тилга мансуб, ҳали ўзбек тилига ўзлашмаган лек-сема билан ўзбек тилидаги лексемани ўзаро омоним деб бўлмайди. Омонимия бир тил тараққиётининг муайян босқичи доирасида белгиланади. Омонимия адабий нутққа ва сўзлашув нутқида нисбатан алоҳида-алоҳида белгиланиши керак”¹⁴⁵. Шунингдек, эски ўзбек адабий тилидаги сўзлар билан бирга бугунги ўзбек адабий тилидаги сўзларни ҳам омоним деб бўлмайди. Уларнинг ўзига хос бўлган хусусиятларидан бири камида иккита сўз туркумига оид бўлишлиги талабидир. Уларнинг мажмуи омонимия дейилади. Мумтоз адабий жанр намуналаридан бири бўлган туюқнинг ривожиди ҳам омонимларнинг ўрни беқиёс.

¹⁴³ Иномхўжаев С., Хўжаева Л. Бадиий сўз санъати. Т., Ғафур Ғулом, 1972. 111 бет; Имомова Г. Рухий тасвирда бадиий тилнинг роли // Ўзбек тили ва адабиёти. Т., Фан, 1991. 3-сон. 50-54-бетлар.

¹⁴⁴ Ш. Раҳматуллаев. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли лугати. Т., Ўқитувчи, 1984. 13-14-бетлар.

¹⁴⁵ Қўрсатилган лугатнинг 5-бети.

Одатдабир омоним қаторда камида иккита, баъзан эса уч-тўрттадан сўзлик бўлади. Ҳатто, беш, олти омолексемали омонимлар ҳам учрайди¹⁴⁶. Уларнинг мажмуи омонимияни ҳосил этади ва яна уларни луғавий омонимия ёки омоним сўзлар деб ҳам юритиш мумкин¹⁴⁷. Ўзбек тилшунослигида фразеологик омонимия¹⁴⁸ ҳамда омоним аффикслар¹⁴⁹ ҳам муайян даражада ўрганилган. Ўзбек тилида омолексемаларнинг юзага келиш омиллари ва тараққиёти юзасидан олиб борилган тадқиқотлар сирасида олим Б.Суёновнинг изланишларини эътироф этиш лозим¹⁵⁰. Муаллиф ўзининг илмий мақолаларида аффикслар ёрдамида ясалган лексик омонимлар тўғрисида ҳам эътиборил фикрлар билдиради¹⁵¹. Булар омонимия ходисасининг анча кенг ва баҳсли эканлигини кўрсатади.

Шунингдек, ўзбек тилшунослигида омонимлар бўйича олиб борилган тадқиқотлар қаторида профессор Ш.Раҳматуллаевнинг ”Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати” алоҳида аҳамиятга эга¹⁵². Мазкур луғат омонимларнибадий асарда лингвопоэтик жихатдан ўрганишда ҳам қўл келади.

Юқоридагилардан кўринадики, ўзбек тилшунослигида омонимия ходисаси кенг миқёсда ўрганилган. Бироқ бадий матнда омонимларни лингвопоэтик тадқиқ этиш борасида бундай деб бўлмайди. Шунинг учун биз мазкур мақоламизда шоира С.Зуннуова ижодидаги омонимларни лингвопоэтик тадқиқ этишни мақсад қилиб олдик.

Саида Зуннуова ҳаётнинг нодир лаҳзаларини омонимлар воситада шоирона кўнгил назаридан ўтказган ҳолда шеърларида муҳрлай олган ижодкордир. Муаллиф шеърларида омонимлардан таъсирчанликни ошириш, бадийликни таъминлаш, ғоявий-эстетик ниятни ифодалаш мақсадида ўринли фойдаланган.

Онаси патирлаб ташвишини *ер*,
Гоҳ *ер*га тушади, гоҳ шохни эгар¹⁵³.

Мазкур мисраларда *ер* сўзи икки ўринда келган, яъни икки сўз саналади. Биринчи қатор *ташвишиниерибора таркибидаўйлар*, *ташвиши қилар* деган маънода, яъни у ибора сифатида феъл сўз туркумига оид хусусиятни намоён қилган. Кейинги қаторнинг иккинчи сўзи бўлиб келган *ер* сўзи эса *замин*, *она тупроқ* маъноларида қўлланилган, яъни от туркумига хос сўзлардан бири

¹⁴⁶Юқоридаги луғатнинг 5-15-бетлари.

¹⁴⁷У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раҳматуллаев.Ҳозирги ўзбек адабий тили.Т., Ўзбекистон, 1992. 128-135-бетлар.

¹⁴⁸Сайфуллаева Р., Менглиев Б.,Г.Боқиева, Қурбонова М.,Юнусова З.,Абузалова М.Ҳозирги ўзбек адабий тили.Т.,2009..133-бет.

¹⁴⁹Ғуломов А., Тихонов А.Н., Кўнгулов Р.Ўзбек тили морфем луғати.Т.,Ўқитувчи, 1977.399-447-бетлар.

¹⁵⁰Суёнов Б.Т.Ўзбек тилида омолексемаларнинг юзага келиш омиллари.ФФНА.Т.,2009. 22 бет; Суёнов Б.Т. Лексик омонимлар тараққиёти // Олий ўқув юртларида тил ва адабиёт фанларини ўқитишнинг назарий ва амалий жихатлари.Илмий-методик тўплам.Т.,ТДЮИ,2004.7-сон. 55-58-бетлар.

¹⁵¹Суёнов Ю.Аффикслар ёрдамида ясалган лексик омонимлар //ЎТА.2001.5-сон.73-75-бетлар.

¹⁵²Ш. Раҳматуллаев Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати.Т., Ўқитувчи, 1984. 214 бет.

¹⁵³С. Зуннуова. Қўшнилари.Т.,Ғафур Ғулом, 1970.20-бет.

саналади¹⁵⁴. Мана шунинг натижасида шеърда сўз ўйини бўлган омонимлик юзага келган.

“Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати”да учрамайдиган *чирқиллар* сўзи ҳам шоира шеърида омоним сифатида қўлланган:

Чумчук чирқиллайди, мен ёзолмайман,

Охири асабимни бузди, қўзғади.

Хайдадим, пир этиб шохга қўнди-ю,

Баттар чирқиллади, баттар бўзлади (С.З.Т.,2001.44-б.).

Бу бандда қўлланилган *чирқилламоқ* сўзининг тўртта маъноси бўлиб, шундан биринчи (“*Чирқ-чирқ*” овоз чиқармоқ), иккинчи (“*Қаттиқ қичқириб, чинқириб йиғламоқ*(ёш бола ҳақида)) ва учинчи (*Зорланиб, илтижо қилиб ёки газабланиб гапирмоқ*) маънолари кузатилса, уларда омонимлик борлигини кўришимиз мумкин¹⁵⁵. Бизнингча, аниқроғи, биринчи ва иккинчи маънолар ўзаро омонимик маънолар ҳисобланиши ўринлидир.

Омонимлар бадий матнларда икки хил ҳолатда қўлланилади:

1) омонимик таркибдаги сўзлар асар матнида ўз аксини топади ва бу асарда оҳангдошлик, сўз ўйини кабиларни юзага келтиради, шеърий асарларнинг мусиқийлигини бир босқич юқори кўтаради;

2) омонимик қатордаги сўзлардан бири контекстда акс этади ва ижодкор қайси маънодаги омоним сўзни қўлланганлиги эса матнни ўқиш давомда ойдинлашади.

Кузатишларимиз натижасида шоира С.Зуннунова ижодида омонимларнинг биринчи турдаги қўлланиши нисбатан кам учрашини аниқладик.

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ГЕОРТОНИМЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ПЕРИФРАЗЛАР ХУСУСИДА

Солиходжаева Хавасхон,

НамДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси

Ономастикага оид терминологик луғатларда ҳар қандай байрам, фестивал, хотира кунлари ва мана шундай маросим ҳамда тадбирларнинг атоқли отлари *геортоним* (юн. *heortne* – георто + *onoma* – атоқли от)лар деб юритилади¹⁵⁶ ҳамда байрам ҳамда тантаналар маълум вақтда, кунда

¹⁵⁴Ўзбек тилининг изоҳли луғати.М.,Рус тили,1981.1-том. –бет.

¹⁵⁵Ўзбек тилининг изоҳли луғати.М., Рус тили, 1981. 2-том.373-бет

¹⁵⁶Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.24.

нишонланишига кўра геортонимлар сирасига кирувчи ономастик бирликларнинг хрононимлар билан боғлиқлиги таъкидлаб кўрсатилади¹⁵⁷.

Демак, геортонимлар – ҳар қандай байрам, фестиваль, хотира кунлари ва мана шу хилдаги маросим ҳамда тадбирларнинг атоқли отлари. Масалан, *Наврўз байрами, Наврўз сайли, Мустақиллик байрами, Рамазон ҳайити (Ийд-ал-Фитр), Қурбон ҳайити (Ийд-ал-Адҳа)* каби.

Перифразавий геортонимлар байрам, фестиваль, хотира кунлари ва ана шундай бошқа тадбирларнинг сайқалланган (ишлов берилган), таъсирчан номларидир.

Перифразалар нарса, воқеа-ҳодисаларнинг ўз номи орқали юзага чиқмаган муҳим хусусиятларини тасвирлаб, бўрттириб, изоҳлаб ва тўлдириб кўрсатади, номни таъсирчан ифодалашга хизмат қилади¹⁵⁸. Бу қуйидаги байрам билан боғлиқ перифразаларда ҳам яққол кўринади. Масалан, *Наврўз байрами* билан боғлиқ перифразалар: *йилбоши, шарқона янги йил, уйғониш байрами, яшариш байрами, кўклам байрами, меҳнат байрами, қадриятлар байрами, дўстлик байрами, меҳр-мурувват байрами, бахт ва тинчлик байрами* каби.

Маълумки, Наврўз байрами нишонланиш, ўтказилиш вақтига кўра фаслий геортонимлар сирасига мансуб бўлиб, баҳор фаслида нишонланади, бироқ Наврўз баҳор байрамининг эмас, у янги йил айёмидир. Демак, Наврўз – табиат, яъни янгилик ва яшариш байрами. Шу боис Наврўз геортоними айрим манбаларда “*йил боши*”, “*шарқона янги йил*” перифразалари билан ҳам ифодаланади:

*Жамшидга сочишар олтину гавҳар,
Шу кунни янги йил – байрам дейишар.
Йил боши Хурмузу эди варфардин,
Дилда на зам қолди, на адоват кин.*

(Абдулқосим Фирдавсий “Шоҳнома”)

Шарқона Янги йилимиз – Наврўзи оламнинг қадами қутлуғ ва баракали келсин! (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Наврўз умумхалқ байрамига бағишланган тантанали маросимдаги табрик нутқидан // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2019, 22 март, 1-бет).

Мустақиллик байрами билан боғлиқ белги-хусусиятларни ифодаловчи ҳуррият байрами перефразасига арабча “*сиёсий, иқтисодий ва бошқа зулм, тазийқдан халослик; эркинлик ва озодлик*”¹⁵⁹ маъноларини англатувчи

¹⁵⁷Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С.48; Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастик терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.24.

¹⁵⁸Қаранг. Расулов Р., Умиров И. Ўзбек тили тасвирий ифодаларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 3.

¹⁵⁹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б.565.

хуррият апеллятивининг “эркинлик”, “озодлик” семалари асос қилиб олинган: Бу хуррият байрамида халқимизнинг шодумон кайфияти тўла намоён бўлди¹⁶⁰. Мазкур перифразада Мустақиллик байрамининг мазмун-моҳияти, озодлик, ҳурлик айёми эканлиги ифодаланган бўлиб, у бадиий, публицистик услубда қўлланади.

Дин ўзининг тантанали байрамлари, ҳар хил маросимлари билан кишилар кўнглида кўтаринки кайфият, хурсандчилик, хушфёъллик, раҳм-шафқат, сабр-тоқат, қаноат, меҳр-оқибат, ҳамдардлик, виждоний бурч, поклик, одамгарчилик ва шу каби фазилатларни шакл-лантиради ва камол топтиради¹⁶¹.

Жамият ҳаётида дин маълум ижтимоий, маънавий ва рухий вазибаларни бажаради. Ҳар бир дин ўзига хос байрам ва маросимларга эга. Диний байрамлар халқнинг эътиқоди, тафаккур тарзи, дунёқарашини ифодаловчи кўзгу сифатида, эзгуликка чорловчи миллий қадриятлар, урф-одатлар ва маросимлар кўринишида намоён бўлади. Шунингдек, бундай байрамлар ислом таълимоти билан боғлиқ билим ва тушунчаларнинг амалий ифодаси, асрлар оша безавол яшаб келаётган диний қадриятлар мажмуидир. Масалан, *Рамазон ҳайити (Ийд-ал-Фитр)*, *Қурбон ҳайити (Ийд-ал-Адха)*, *Мавлиди шариф байрами*, *Лайлатулқадр* (Рамазон ойининг 27-туни), *Ашууро* (Муҳаррам ойининг ўнинчи куни) каби.

Ўзбек тилида диний геортонимлар билан боғлиқ перифразалар салмоқли ўрин тутади. Улар миллат тафаккурининг ўзига хос кўриниши сифатида, халқнинг дунёқарашини, диний эътиқоди, билим ва тушунчаларининг амалий ифодаси сифатида лингвомаданий моҳиятга ҳам эга.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да “ҳайит” сўзининг арабча “ийд” сўзи билан боғлиқлиги кўрсатилади. Диний манбаларда бу сўзнинг бошидаги *ъайн* ҳарфининг ўзига хос махражи туфайли тилимизда “ийд” сўзи “ҳайит” деб талаффуз қилинади¹⁶². Демак, *ҳайит* сўзи араб тилида “ийд” бўлиб, “қайта, қайта такрорланиш”, “фойда – манфаат” маъноларини билдиради. Ҳайит [а. байрам, тантана] дин. Йилда икки марта: рамазон тамом бўлгач, уч кун ва қурбон ойида уч кун бўлиб ўтадиган диний байрам¹⁶³.

Қурбон ҳайити ва *Рамазон ҳайити* геортонимлари миллий диний байрам сифатида мусулмон халқлари қатори ўзбек эли ҳаётининг мазмунига айланган. Шу боис мазкур геортонимлар билан боғлиқ: “асл байрам”, “зийнат куни”, “зиёрат куни”, “саховат байрами”, “ойлар султони”, “моҳи

¹⁶⁰Буюк ва бетимсол Ватанимизнинг улуғ байрами. Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган байрам тантанаси // info@fergana.uz.

¹⁶¹Тўланов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 73.

¹⁶²Муҳаммад Абдуллоҳ Рожув (Муҳаммад Али Муҳаммад Юсуф таржимаси.) Ийд ҳақида // islom.uz.

¹⁶³Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б. 484.

шариф”, “*моҳи рамазон*”, “*рўзаи рамазон*”, “*мукаррам ой*”, “*муборак ой*”, “*қутлуг ой*”, “*покланиш ойи*”, “*покланиш айёми*” “*дўстлик ва муҳаббат ойи*”, “*барокот ойи*” ва “*Қуръон ойи*” каби перифразалар шаклланган.

Таҳлиллардан кўринадики, ўзбек тилидаги байрамлар билан боғлиқ перифразаларда байрамларнинг маданий, маънавий моҳияти, улар билан боғлиқ миллий анъаналар, урф-одатлар, эзгу ниятлар таъсирчан, образли ифодаланган. Улар халқ тафаккурининг ўткир мушоҳадаси-ю зийраклиги орқали юзага келган мафтункор ва бетакрор номлар сифатида асрлар давомида ўз мазмун-моҳиятини йўқотмайди. Шу жиҳати билан ҳам мазкур тил бирликлари лингвомаданий моҳиятга эга.

ТЎҒРИ ТАЛАФФУЗДАН НУТҚ МАДАНИЯТИ САРИ

С.Ачилова, ҚДПИ ўқитувчи,
Ш.Райимова (талаба)

Бугунги кунда нутқ маданиятига эришиш тилшуносликнинг энг долзарб масалаларидан бири бўлиб келмоқда. Шахс жамиятнинг аъзоси сифатида яшар экан, фикр, дунёқараш, билим савияси ва кўникмалари шаклланиши баробарида ривожланиб ҳам боради. Ривожланишга хизмат қилувчи бирламчи омил эса нутқий жараёндир. Маълумки, шахслар бир-бирлари билан мулоқот жараёнида икки хил мақомда бўладилар: сўзловчи ва тингловчи. Бу ўринда ахборот узатувчи-сўзловчи, ахборотни қабул қилувчи – тингловчига айланади. Ахборотнинг тингловчига тўлиқ ва аниқ етказилиши биринчи галда сўзловчига боғлиқ. Нутқни бир шахс яратар экан, унинг билим даражаси, сўз бойлиги, лексик ва фонетик жиҳатдан тўғри талаффузга эгаллиги нутқий маданиятнинг шаклланишига хизмат қилади. Чунки талаффуздаги товушлар занжири бир-бирига шу қадар боғланганки, унинг узилиши маълум сўз ёхуд жумланинг бузилишига сабаб бўлади.

Ҳозирда ўзбек тили доирасидаги нутқ маданиятига салбий таъсирлар кўйидагича намоён бўлмоқда:

- *талаффузда айрим товушларни ўзгартириш ёхуд тушириб қолдириш;*
- *талаффузда бир сўзни кетма-кет ёки тез-тез такрорлаш;*
- *нутқ давомида жаргон, арго, вулгар, варвар сўзларни қўллаш.*

Бу ўринда ижобий хусусиятдаги лексемалар (жаргон)дан фойдаланиш нутққа таъсирчанлик сифатида безак беришини инобатга олсак, қолган ҳолатлар нутқ маданияти ҳуснига доғдек гап. Чунки салбий маънодаги лексемалар (арго), қарғиш ва сўкиш (вулгар), четдан кириб келган сўз (варвар) ларни нутқ жараёнида қўллаш нутқ маданиятининг пасайиши, секин-асталик билан емирилиб боришига олиб келади. Нутқимизнинг бундай жиддий хатоликлардан ҳоли эмаслиги эса ўзбек тилининг бой ва беқиёс

кудратига путур етказилиши демакдир. Нутқ маданияти шаклланишига жиддий хавф бўлиб турган яна бир масала сўзлашда такрорий сўзлардан ўринсиз фойдаланишдир. Нутқда тез-тез жарангловчи бундай сўз ва сўз бирикмалари тилшуносликда “паразит сўзлар” дейилади. Афсуски, бундай сўзларнинг ҳиссаси юқорида санаб ўтилган салбий ҳолатлардан-да кўпроқни ташкил этиб турибди. Ҳар уч сўзловчининг икки нафарида шундай “касаллик” бор. Ахборот қабул қилувчи буни тез илғайди ва сўзловчи нутқига ўрнашиб қолган қайсидир такрорий сўзни аксарият ҳолларда ўзи ҳам қўллай бошлайди. Қисқача айтганда, такрорий сўзнинг бошқа шахсда ҳам такрорланиш жараёни “юқумчил” кўриниш олади. “*Хўш*”, “*мана*”, “*демак*”, “*яъни*”, “*кейин-иннайкейин*”, “*ўша*”, “*ҳалиги*”, “*анақа*”, “*шу-шу*”, “*яна*”, “*ҳамда*”, “*хуллас*” ва ҳ.к. сўзлар шулар жумласидан. Нутқни паразит сўзлардан ҳалос этишнинг асосий “дори”си, яъни бу ўринда ишончли қурол – сўз бойлигини оширишдир. Сўзловчининг сўз бойлиги кўп бўлгандагина такрорий сўзларнинг нутқдаги умри қисқариб бораверади, аниқроқ айтганимизда, бундай сўзлар нутқда паразитлик қилолмайди.

Бугун нутқ давомида варвар сўзларни қўллаш одат тусига кириб бормоқда. Бунга аксарият ҳолларда ёшлар ўртасидаги мулоқот жараёнларида гувоҳ бўлиш мумкин. Нутққа ортиқча зеб беришни ўзига бино қўйганликнинг белгиси деб оладиган бўлсак, ўзбек тилига ортиқча зебу пардознинг кераги йўқ. Чунки ўзбек тили ўзига хос жило, оҳанг, маъно ва мазмунга эга. Қолаверса, варвар сўзлардан ўринсиз фойдаланиш “оммавий маданият”нинг бир кўриниши сифатида қулоч ёзаётганидан даолат беради. Тилшуносликка хос бўлмаган бундай ёт қусурнинг авж нуқтасини Ўзбекистон халқ ёзувчиси Ўткир Ҳошимов ўзининг “Дафтар хошиясидаги битиклар” китобидан ўрин олган “Муштипар” монологидаги суҳбатдош аёл образи орқали бера олган: *“Мен к сожелению, сизнинг сочиненияларингизни ўқиган эмасман, хотя эшитганман. Мамашклар тўғрисида ёзаркансиз. Менинг ҳам тўртта болам бор. Нима, унақага ўхшамайди-ку, дейсизми? Раҳмат, комплимент учун...”* Мана шу икки оғиз жумладаги ўзбек тилига ёт сўзларни санайдиган бўлсак, аёлнинг суҳбат давомидаги “варвар”лари сони кишини чалғитиб юбориши тайин. Ёҳуд бошқа мисолни кўрайлик. “*Сен кема, ўзим бораман. Эсингдан чиқиб қомасин. Қишлақтан кепппан. Шаҳарлик қандаштикида тўй бўяпти*”. Ажратиб кўрсатилган сўзлардаги хатоликлар шевага хос сўзлар сирасидан. Лекин ҳар гапнинг бирида бундай сўзларнинг учраши нутқ маданияти ривожини йўлида улкан тўсиқ каби тураверади. Тилшуносликдаги масала бу тўсиқни айланиб ўтиш эмас, уни батамом йўқ этишдир. Аммо бу тўсиқнинг зарур ҳолда ўз ўрни ҳам бор.

Маълумки, нутқ услублари доирасидаги бадиий услуб ўзининг кенг камровлилиги, яъни барча нутқ услубларини қамраб олиши билан ажралиб туради. Бунда ижодкор ўз асари қаҳрамонларининг ички дунёси, рухий олами, характери ва тушган вазиятини ўқувчига янада жонли етказишда хоҳлаган ўзгаришдаги сўзларни қўллаши мумкин. Асар қаҳрамонининг ўз ҳолича “сўзлаши” мутолаа жараёнида ўқувчини таажжубга солмайди, диққат қилмайди. Қаҳрамон характерига уйғунлашиб кетган ҳар бир сўз ўқувчига эстетик завқ, хордиқ ва бошқа ҳисларни етказишга хизмат қилади.

“... Чарос яқин келиши билан узук-юлуқ гапларни эшитди.

– *Вой, нима қипти?*

– *Сирка ичибди.*

– *Войй!*

Ичкаридан дилни ларзага солувчи фарёд эшитилди.

– *Вой болеем! Онанг ўлсин, болеем! Онагинанг ўлсин, болеем!...”¹*

Айтилган сўзнинг отилган ўқ эканини таъкидлаб кетган доноларимиз бисотидан нутқ маданиятига доир яна бир ибратли фикрни келтириш мумкин: “Оз сўзласанг ҳам соз сўзла!” Бир шахс томонидан айтилган нутқ воқеаланиш, яъни ҳодиса тусини олгач, ўз таъсирини иккинчи ва учинчи шахсга ўтказилади. Бунда мулоқот доираси юзага келади. Доирани ўраб турган мулоқот иштирокчилари, яъни нутқ эгалари занжири бир-бирига уланган ҳолда каттагина ҳудудни забт этиб бораверади. Ҳудуд эса бир давлат, мамлакат миқёсидир. Бугун асрлар оша сайқалланган, не-не нодир асарларнинг яралишига илҳом, завқ ва ифтихор берган бой манба-ўзбек тилининг бойлиги ва қудрати ўз мақомини сақлаб турибди. Ўзбек халқи учун нондек азиз ва лазиз бўлган ўзбек тили кейинги йилларда кўплаб тилшунос олимлар томонидан энг тўғри ва муқобил сўзлар билан бойитилди, бойитилмоқда. Ўзбек тили тараққиёти бардавомлигини сақлаб қолишнинг биринчи галдаги йўли мактабгача ёшдаги болалар тарбияси билан, уларнинг нутқ, ўқиш ва саводга тайёргарлик борасидаги машғулотларини тизимли ва чуқурлаштирилган ҳолда олиб боришдир. Чунки, айнан 2 ёшдан 3 ёшгача бўлган болаларда нутқ ривожланишининг бир қатор талаблари мавжуд, булар қуйидагилардир:

- тинглаш ва тушунишга қодирлик;
- сўзлаш ва мулоқот қобилиятига эга бўлиш;
- талаффузни яхшилаш;
- сўз бойлигини ошириб бориш;
- нутқнинг грамматик тузилишини шакллантириш;
- боғланишли нутқни шакллантириш.³

Нутқ маданиятини ошириш бўйича машғулот ва дарсларни боланинг мактабгача ва мактаб ёши даврида сингдириб бориш, яъни сўзларни аслидек айтиш ва айттириш оила ҳамда таълим муассасаси ўртасида давом этадиган етакчи йўналиш бўлмоғи зарур. Тўғри талаффузгина нутқнинг изчил ва равонлигини, тўқис ва мукамал бўлишини таъминловчи бирламчи мезондир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. ²Ў.Ҳошимов. Танланган асарлар: 1-жилд. – Т.: “Шарқ”, 2009. – 448 б.
2. ³Мактабгача таълимга қўйиладиган Давлат талаблари . 2013 йил .

SINONIMLAR – CHET TILLARINI O’RGANISHDAGI ASOSIY QUROL

Gapparova M., T NDPI o’qituvchi,
Shavkatova Z.Sh., 1-kurs talabasi

Til – millatni dunyoga tanituvchi ko’zgudir. Ba’zi manbalarda dunyoda 7000 dan ortiq til mavjud deya e’tirof etiladi. Til millatning qalbi, uning o’tmishi, buguni va kelajagi sanaladi. Shu sababli ham asrlar davomida har bir millat o’zining tilini nihoyatda chuqur o’rganadi, tahlil qiladi va hayotga tadbiq etadi. Bu so’zlarni asrlar davomida xalq yaratadi, unga sayqal beradi, asrab-avaylaydi.

Inson faoliyatida til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan jamg’arilgan bilimlar nafaqat qayd etiladi va saqlanadi, balki avloddan avlodga ham yetkaziladi. Shu sababli ham til – millat ruhining ko’zgusi degan jumlar har birimizga yod bo’lib ketgan. Tilda millatning bor-yo’g’i, o’y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg’lari aks etadi. Tildagi har bir so’z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg’usining natijasi bo’lib uning yordamida bu tafakkur va tuyg’ular orqali Vatan va xalq tarixi ifodalanadi.

Til ilm olishda zamon va makon g’ovini o’rtadan ko’taradi. Til tufayli eng qadimgi ma’lumotlarga ega bo’lamiz, hatto kelgusiga oid ma’lumotlarni ham olamiz. Til tufayli sezgi a’zolari bilan bilib bo’lmaydigan narsalarni ham o’rganamiz. Ko’rinishi, shakli bir xil bo’lgan narsalarning aksi ongimizga o’rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so’z shaklida o’zlashtiramiz.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o’sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Yurtimizda chet tilini o’qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darsliklari o’qitilishi jarayonida ilg’or pedagogik texnologiyalarni interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda Chet tilining o’qitilishi, chet tili o’qituvchi va o’quvchilarining bilim va ko’nikmalarini baholashning umumiyevropa ramkalari

tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablar ishlab chiqildi. Unga ko'ra foydalanuvchilar uchun darsliklar yaratildi. Ushbu jarayonda chet tilini o'rganishga bo'lgan ham oshib bormoqda. Shunday sharoitda o'rganayotgan tilimizning lug'at boyligi qanchalik ulkan ekanligi va so'zlarning ekvivalentlaridan unumli foydalanishni bilish juda ahamiyatlidir.

Hozirgi davrda ertasi uchun kurashadigan har bir shaxs chet tilini o'rganishga bel bog'lagan. Xususan, ingliz tili til no'rganuvchilar uchun asosiy tillardan biri sifatida oldingi o'rinlardan joy olgan.

Men esa yosh izlanuvchi talaba sifatida shuni ayta olamanki, ingliz tilini agarda biz sinonimlar orqali o'rgansak samarali yo'lni tanlagan bo'lamiz. Buning sababi shundaki, bir so'zni sinonimlar orqali o'rganganda yodda qolish darajasi oshadi va bir vaqtning o'zida bir nechta so'zni o'rgana olamiz. Qolaversa nutqimizni ifodalashda ham qiyinchiliklardan holi bo'lgan bo'lamiz. Chunki hech qaysi til takrorlarni yoqtirmaydi. Biz sinoimlarni o'rganish orqali bir so'zni bir nechta ko'rinishklarga ifoda eta olamiz. Til o'rganish jarayoni ham o'ta zavqli tus oladi.

Agar siz dunyoning barcha go'zal tillarini tahlil qilsangiz ular sinonimlarga boy ekanligini sezasiz chunki ular tufayli nutqning boyligiga erishiladi.

Quyida ingliz tilida sinonim sifatida qo'llaniladigan so'zlarni ko'rsatib o'tamiz.

Begin – start; choose – select; end – finish; gather – select; join – connect; occur – happen; desire – want; trust – believe; big – large; difficult – hard; huge – enormous; rich – wealthy; old – ancient; sad – unhappy; near – close; easy – simple; idea – thought; trip – journey; writer – author; rug- carpet; center – middle; mistake – error; Page – sheet; present – gift

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, til – inson faoliyatining asosini tashkil etadi. Chunki biz til yordamida ehtiyojlarimizni qondiramiz, fikrimizni bayon etamiz va qaysidir darajaga ko'tarilamiz. Chet tillarini o'rganish esa bu dunyoni bilish sanaladi. O'rganayotgan tilimizni sinonimlar yordamida tadqiq etish bizni ushbu tilning ildiziga borishimizga yanada yordam beradi.

МАНСАБНОМИ БИЛАН АЛОҚАДОР ОЙКОНИМЛАР

С. Усмонова, Қўқон ДПИ ўқитувчи,

Х. Тўражонова, Б.Валижонов (талаба)

Бир ярим асрдан зиёд ҳукм сурган Қўқон хонлиги (1709-1876 йиллар) мустақил давлат сифатида Туркистоннинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий-маданий ҳаётида муҳим ўрин тутган, алоҳида нуфузга эга бўлган. Хонликнинг бошқарув тизимида бир қанча амал ва мансаблар, вазифа ва мартабалар мавжуд бўлиб, уларнинг ҳар бири махсус номлар билан аталган. Тарихчи олим Шодмон

Воҳидовнинг тарихий манбаларга суяниб ёзишича, Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар ижрочиларнинг вазифалари ҳамда мартабаларига қараб: 1) ҳарбий ва ҳарбий-маъмурий унвон ва мансаблар; 2) сарой унвон ва мансаблари; 3) диний мансаб ва унвонлар; 4) қозихона ва маҳкамалардаги унвон ва амалларга тақсим қилинган.

Ҳарбий, ҳарбий-маъмурий унвон ва мансаблар таркибида мингбоши, қушбеги, ботирбоши, ноиб, калъабон, қурбоши, ёвар, тўпчибоши, тўқсоба, понсадбоши, юзбоши, панжахбоши, даҳбоши, коровулбеги, мерган, тўпчи, жазоилчи, туғчи сингари амаллар бўлган. Саройдаги олий даражали мансабларга оталиқ, бекларбеги, бий, девонбеги, хазиначи, иноқ, эшикоғаси, парвоначи, додхоҳ, дастурхончи, саркор, шарбатдор, тунқатор; ўрта даражали амалларга китобдор, рисолачи, баковул, мирзабоши, сармунший, мирохур, шиғовул кабилар кирган. Шайхулислом, хожа калон, халифа, аълам, охунд, судур, нақиб, мударрис, имом, имом-хатиб, муаззин - диний мансаб ва унвонларни; қози, қози калон, қозиюл-қуззот, қози аскар, қози раис, қозийи мутлақ, муфти, муфтийи аскар сингарилар қозихона ва маҳкамалардаги унвон ва амалларни билдирган.

Ҳозирги пайтда юқорида қайд этилган атамаларнинг қўпчилиги истеъмолдан чиқиб кетган, қўлланишдан қолган, тарихий сўзларга айланган. Лекин XIX асрда ёзилган тарихий асарларда, турли расмий ҳужжатларда ҳамда ўтмиш воқеаларини акс эттирувчи бадий асарларда уларни учратиш мумкин. Чунончи, тарихчи олим ва шоир Мирзаолим Мушрифнинг XIX асрда Қўқон хонлигида рўй берган ижтимоий-сиёсий воқеаларнинг баёнига бағишланган «Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин» («Султонлар насаблари ва ҳоконлар тарихлари») асарида хонлик даврида кенг истеъмолда бўлган мингбоши, қушбеги, шайхулислом, додхоҳ, оталиқ, бекларбеги, ноиб, иноқ, тўқсоба, меҳтар, шиғовул, эшикоғаси, парвоначи, ҳудайчи, рисолачи, тунқатор, понсод, понсодбоши, баҳодирбоши, ясовулбоши, баковулбоши, қурбоши, юзбоши, мирзабоши, жарчибоши, офтобачи, хазиначи, дастурхончи, саркор, раис, амин, шарбатдор, бухчадор каби катор мансаб номлари ишлатилган. Абдулла Қодирийнинг мозийдан ҳикоя қилувчи «Меҳробдан чаён», «Ўткан кунлар» тарихий романларида ҳам бундай атамалар анчагина учрайди.

Кези келганда шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, Қўқон хонлиги тарихига оид мансаб, амал, унвон номларининг бир қанчаси бугунги кунда жой номлари - топонимлар шаклида сақланиб қолган. Шаҳардаги Раисқўча деб аталган турар жой шу ҳудуддаги эски маҳаллалардан биридир. Ойконимга хонликдаги мансаблар сирасига кирувчи раис атамаси асос бўлган. Раиснинг асосий вазифаси ижтимоий адолат барқарорлигини таъминлашдан иборат бўлган.

Раис аҳолининг ахлоқини, шариат қонун-қоидаларига қандай риоя қилаётганлигини кузатиб борган ва бозордаги савдо-сотик, тарози ишларини назорат қилган. Манбалардан аниқланишича, Раискўча Қўқон хони Умархон даврида шаҳарнинг раиси вазифасида хизмат қилган Абдулазизхон тўра номи билан боғлиқдир.

Ноиб - арабча сўз бўлиб, маъноси «ўринбосар» демакдир. Хонликдаги юқори мансаб номларидан бири шу сўз билан юритилган. Тилшунос олим, профессор Акбар Мадғозиевнинг ёзишича, хон ва амирлар маъмурий ишларни амалга оширишда кўпинча ноиблардан фойдаланган. Улар сарой ишларидан ташқари турли вилоятларда подшоҳ номидан иш юритганлар. Манбаларда Отабек ноиб, Баҳром ноиб, Хўжам подшоҳ тўра ноиб сингари ноибларнинг номлари сақланиб қолган. Қўқон шаҳридаги Ноибнинг кўприги топоними мазкур иншоот хонликда ноиблик лавозимида бўлган шахс томонидан бунёд этилганлигига ишора этади.

Сарботир деб юритилувчи гузар номи манбаларда Сарбаҳодир тарзида тилга олинган. Сарбаҳодир - айнан “ботирбоши” маъносини англатади. Ботир (баҳодир) атамаси хонлик архив ҳужжатларида таъкидланишича, ҳарбий лавозимни билдирган, бу унвон паҳлавон, қўрқмас, ҳар қандай услубда жанг қила оладиган лашкарбошиларга берилган. Мунтазам қўшин ичида алоҳида баҳодирлар дастаси бўлган. Баҳодирларга муайян миқдорда маош бериб турилган, улар бир қанча солиқлардан озод этилган. Манбаларда кўрсатилишича, хонлик лашкарлари орасида Абдурахмонбек баҳодир, Қобил ботир, Маҳмуд баҳодир, Мирза баҳодир, Мулла Муҳаммадали баҳодирбоши, Мулла Турдиали баҳодирбоши, Кийикбой ботирбоши, Давронбек баҳодирбоши, Муҳаммадназар ботир, Уммат баҳодир, Султонкул ботир каби баҳодирлар бўлган. Тадқиқотчи олим Я.Дадабоевнинг ёзишича, биз изохлаётган Сарботир гузарининг аталишига Қўқон хонлиги тарихида ўтган баҳодирлардан бири Миржалол сарбаҳодир номи асос бўлган. Миржалол сарбаҳодирнинг Қўқоннинг жануби-шарқ томонида боғи ва мазраъси (экин ери) бўлиб, ўша мазраъ ва унинг яқинидаги гузар шу шахснинг хотирасига Сарбаҳодир гузари деб ном олган.

Қўқон шаҳрида ўтган асрнинг 30-йилларигача Норкўзи додхо, Хидирали додхо, Хўжа додхо номли маҳаллалар бўлган. Тарихий ҳужжатларда қайд этилишича, додхо - хонликлардаги лавозимлардан бири бўлиб, бу мансабдаги шахс саройга арзга келганларнинг арзини подшоҳга ва унинг жавобини арзчиларга етказиш вазифасини бажарган. Шунингдек, у қозихона ишлари устидан назоратчилик ҳам қилган. Додхох йилига хон хазинасидан 700 ботмон дон ва 1000 тилла пул - маош олган. Юқорида зикр қилинган 3 та ойқоним ана шу додхо мансабини эгаллаган шахслар номи асосида яратилган.

Хонга бериладиган овқатни татиб кўрувчи ва саройдаги зиёфатни бошқарувчи амалдор - баковул дейилган. «Ўзбек энциклопедияси»да таъкидланишича, баковуллар хон ва лашкарга овқатни тайёрлаш устидан назорат қилиб туриш иши билан шуғулланганлар. Лашкарга маош ва озиқ-овқатни тақсимлаш ҳам баковуллар зиммасига юклатилган. Шаҳардаги Баковул маҳалласи шу ҳудудда истикомат қилган Ўтаб баковул номи билан юритилган.

Кўқон яқинидаги Қозикалон ойконимининг номланиши ҳам мансаб номи билан боғлиқ. Бу мансабдаги шахс пойтахт ва вилоят марказларидаги қозиларнинг ҳамда қозихона ишларининг устидан назорат қилган. Маълумотларга қараганда, қозикалон йилига хон хазинасидан 800 ботмон ғалла, 1200 танга пул олиб турган. Хонлик тарихига оид манбаларда Аҳмад бобо қозикалон, Ҳасан хожа эшон қозикалон, Муҳаммад Юсуф қозикалон сингари номлар учрайди. Қозикалон ойконими шу мансабда бўлган шахснинг хусусий, яъни чек ерлари ўрнида ташкил топган.

Дарҳақиқат, мазкур топоним XX асрнинг биринчи чорагида тузилган аҳоли манзиллари рўйхатида Чеки Қозикалон шаклида қайд қилинган. Чеки Қозикалон - «қозикалоннинг ери» маъносидадир.

Кўқон хонлигида жорий қилинган мансаб, амаллардан яна бири рисолачи деб юритилган. Рисолачи хон девонидаги вазифалардан ҳисобланган. Бу мансабдаги шахс элчилар ва уларнинг хат-хабарларига жавоб бериш билан шуғулланган. Мирзоолим Мушрифнинг хонлик тарихига бағишланган «Ансобус-салотин ва таворих ул-хавоқин» асарида Кулбобо рисолачи деган шахснинг номи учрайди. Шунингдек, хонликнинг XIX асрга оид ҳужжатларида Рисолачи қипчоқ номи тилга олиб ўтилади. Бизнингча, Кўқон шаҳридаги Рисолачи маҳалласида мазкур мансабни эгаллаган киши истикомат қилган, аҳоли ўртасида обрӯ-эътиборга сазовор бўлган. Шу сабаб маҳалла у кишининг амали номи билан Рисолачи тарзида аталиб кетган.

Сарой мансабларидан ҳисобланмиш девонбеги - «хон девонининг сардори, бошлиғи» маъносини билдирган. Девонбегилар хирож ва закот ишларини, умуман хонликнинг ҳисоб-китоб ишларини олиб борганлар. Манбаларда кўрсатилишича, Ҳаким девонбеги, Худойберди девонбеги, Муҳаммад Раззоқ девонбеги, Саиджон девонбеги, Холдеворбегилар, айниқса, машҳур бўлишган. Бу шахсларнинг айримлари одамлар эътиборига, иззат-икромига сазовор бўлганликлари туфайли ўз номларини халқ орасида абадийлаштириш шарафига муяссар бўлганлар. Кўқон шаҳридаги Муҳаммад Раззоқ девонбеги кўчаси бунинг ёрқин мисолидир.

Шаҳар тарихий жой номлари таркибида зикр қилинган Азимбой қушбеги, Сайд қушбеги, Ўтамбой қушбеги ойконимлари шахс исми билан амални ифода

килувчи кушбеги сўзининг бирикуви асосида ҳосил қилинган. Тарихчи олим Ш.Воҳидовнинг ёзишича, кушбеги - ҳарбий қўшиннинг бошлиғи маъносини ифода қилган. Бу мансаб юриш ва жанг вақтларида ҳарбий хизматдагиларга берилиб, мансаб эгаси мингбошилиқ унвонини олишга ҳам номзод бўлган. Кушбеги лавозимига кўтарилган зот алоҳида вилоятга ҳоким бўлиб кетиши ҳам мумкин бўлган. Юқорида тилга олинган маҳаллаларда кушбеги лавозимини эгаллаган шахслар ҳаёт кечирганлар. Шу боис турар жойлар ўша кишиларга ҳурмат, эътибор юзасидан уларнинг номлари билан юритилиб кетган.

Шайхулислом - шаҳардаги қадимий гузарлардан бирининг номи. Ўлкашунос тадқиқотчи Я.Дадабоевнинг ёзишича, манбаларда Қўқон хонлигида шайхулислом лавозимини эгаллаган зотларнинг номлари кўплаб учрайди. Султонхон тўра Аҳрорий, Маъруфхон тўра, Сулаймон хожа бинни Юсуфхон хожа, Эшон Бобоҳўжа Конибодомий, Зокирхожа эшон Намангоний, Хожа Калон Жуйборий кабилар шулар жумласидандир. Булардан Зокирхожа эшон Намангоний гузарга ўз номини қолдириш шарафига муяссар бўлган. Гузар аввалига Шайхулислом Зокирхожа эшон гузари деб юритилган. Кейинчалик талаффузда соддалашиб, қисқаришга учраб Шайхулислом гузари тарзида аталиб кетган. Шунингдек, Қўқон шаҳрида яна Бекларбеги, Миршикор, Китобдор Мирзо, Маҳрам ойконимлари учрайдики, булар ҳам амал номлари асосида шакллангандир.

ФРАЗЕОГРАФИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ:

(опыт, проблемы и перспективы)

АБДУМАННОНОВ Х.А., студент АГУ

Языкознание, являясь научной дисциплиной, изучает все параметры и аспекты используемого нами языка, начиная с истории (зарождения) вплоть до сегодняшнего состояния. Это наука, которая изучает явления происходящие внутри языка, будь то живым или считающимся мёртвым. Смотря на то, какую область она изучает, мы выделяем множество самостоятельных, в то же самое время связанных внутри дисциплинарных матриц языкознания. Одним из этих ответвлений является и область фразеологии.

История зарождения этой науки уходит корнями к 70-ым годам прошлого столетия, когда ряд самостоятельных учёных-языковедов (труды А.М. Бабкина, В.П. Жукова, А.В. Кунина, А.И. Молоткова, А.М. Мелерович, В.Н. Телии, М.И. Умарходжаева, Ш. Рахматуллаева, М. Садыковой, Ю.П. Солодуба и др.) принялись за выделение фразеологии как самостоятельной

отрасли науки. Исследуя материалы по фразеографии (учебники, монографии, словари), и выявив недостатки при разработке и подаче фразеологического материала, учёные исследователи пришли к выводу, что фразеографии пора бы стать самостоятельной, чтобы консолидировать и внедрить на практику собственные закономерности.

Например, выдающийся советский филолог А.М. Бабкин отозвался по этому поводу как следует: «Пришло время перестать фразеологическую часть рассматривать лишь в роли придатка к словарной статье, посвящённой слову, и сделать фразеологическую единицу самостоятельным объектом не только лексикографии, но и фразеографии».¹⁶⁴

«Фронтальное и глубокое исследование лексико-семантических систем различных языков привело в своё время к выводу о целесообразности выделения устойчивых словесных комплексов, имеющих свои категориальные признаки в отличие от слов как единиц лексикологии. Именно эти комплексы стали предметом изучения новой дисциплины - фразеологии, в задачи которой входит исследование внутренних и внешних законов развития и образования фразеологических единиц, а также правил комбинации словесных знаков в составе устойчивых словесных комплексов и семантических и грамматических особенностей фразеологических единиц разных типов», - отметил профессор М.И. Умарходжаев.¹⁶⁵

Научное определение термина *«фразеография»* было введено в 1970-е годы отечественным филологом, проф. М.И. Умарходжаевым, который в своих научных статьях изданных в городе Лейпциг дал такое определение *«Фразеографией – называется наука, включающее в себя составление и практику применения фразеологических словарей»*.¹⁶⁶ Далее, в 1981 году учёный защитил диссертацию доктора филологических наук на тему: *«Основы фразеографии»*, в которой дал полную и научно-обоснованную характеристику одному профилю филологии.¹⁶⁷

Исходя из вышеуказанного можно сказать, что наука фразеография занимается собиранием *«производных продуктов народной мудрости»* т.е. *фразеологизмов* (далее ФЕ) и фиксированием их во фразеологические словари разных типов.

¹⁶⁴ Бабкин А.М. Новый академический словарь русского языка. Проспект. Л., 1971. С.37.

¹⁶⁵ Умарходжаев М.И. Современные проблемы фразеографии // Вопросы языкознания. – М., 1979. - № 5.

¹⁶⁶ Umarchodshajew M.Unter Phraseographie verstehen wir die Theorie und Praxis des Zusammenstellens der phraseographischen Wörterbücher und Nachschlagewerterbücher. Bemerkungen zur phraseografischen Forschung in der UdSSR. Sprachpflege, 1971, № 4.

¹⁶⁷ Умарходжаев М.И. Основы фразеографии // Дисс. док. фил. наук– М., 1981.

С тех пор как наши учёные-соотечественники стали заниматься фразеографией, ряд фразеологических словарей (далее ФС) увидели свет. Среди них имеются как одноязычные так и многоязычные. К примеру, можно привести следующие ФС, которые по сей день не потеряли важность: *Русско-узбекский фразеологический словарь* (Садыкова М., 1972), *Толковый фразеологический словарь узбекского языка* (Рахматуллаев Ш., 1978), *Краткий узбекско-русский фразеологический словарь* (Садыкова М., 1989), *Краткий узбекско-русский фразеологический словарь* (Абдурахимов М., 1980), *Немецко-русско-узбекский фразеологический словарь* (Умарходжаев М. и Назаров К., 1994), *Англо-узбекский словарь идиом* (Юсупов А., 2014). А также, среди лингвистических трудов найдутся ряд учебников, монографий и фундаментальных статей, посвящённых актуальным проблемам фразеографии.

Учитывая накопленный опыт можно сказать, что мы много добились в этой области языкознания, но как один мудрый человек говорил: “*То чего мы достигли – это уже прошлое, а мы должны жить и трудиться сегодня, чтобы добиться чего-либо завтра*”.

К актуальным проблемам, которые предстоит нам решить входят:

I. Даже если существует толковый фразеологический словарь узбекского языка¹⁶⁸, он не охватывает наибольшее количество фразеологизмов чем другие словари (в данном ФС имеется всего более 1000 фразеологизмов). Кроме того словарь не носит статус академического словаря, что очень огорчает молодых исследователей. Нам представляется целесообразным составить академический фразеологический словарь узбекского языка, который охватывал бы приблизительно весь фразеологический арсенал нашего языка. Данный словарь был бы под руку не только исследователям, но и всем, кто интересуется узнать больше о мудрости своего народа.

II. Сейчас, когда уже нам покорились все пласты фразеологии пришло время составить не только толковые ФС, но и аспектные фразеологические словари. Например, было бы целесообразно составить ФС типа:

- ❖ Словарь фразеологических синонимов;
- ❖ Словарь фразеологических антонимов;
- ❖ Словарь фразеологических омонимов;
- ❖ Этимологический фразеологический словарь;
- ❖ Лингво-культурологический фразеологический словарь;
- ❖ Словарь фразеологических сравнений;
- ❖ Словарь фразеологизмов в поэзии/прозе и т.д.

¹⁶⁸ Рахматуллаев Ш. Толковый фразеологический словарь узбекского языка: Пособие для студентов университетов и пед. институтов. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 406 с.

III. На сегодняшний день, рекламные афиши и тому подобные красочные явления окружили нас со всех сторон. Исходя из этого, требования к словарям тоже изменились. Хотя вышеупомянутые нами словари являются авторитетным, большинство из них были составлены в 70-ые и 80-ые годы прошлого столетия и подходят теперь только для тех, кто профессионально занимается фразеологией и фразеографией языка. В этих словарях даётся толкование с примерами, если это одноязычный ФС и перевод, если это многоязычный ФС. Если же учесть тенденцию развития и внедрять фразеологический минимум в систему образования, то придётся усовершенствовать структуру словарей или же составить новые, отвечающие требованиям современности. Составителям надобно структурировать словарь так, чтобы словарная статья включала в себя: этимологическую справку, то есть историю происхождения фразеологизма; пример, взятый из действительности (также подходят примеры, взятые из знаменитых поэтических и прозаических произведений); иллюстрацию, если это можно сделать. Данные операции делаются для того, чтобы сделать словарь интерактивным, чтобы читатель смог познать суть презентуемого ФЕ и легко вспомнил её, чтобы в будущем он смог уместно использовать ФЕ в своей живой речи.

В заключении хотелось бы сказать что составление словаря - работа не из лёгких, а словарь фразеологизмов - тем более. Как то в одном из своих лекций видный российский фразеограф В.М. Мокиенко сказал: *“Эту работу¹⁶⁹ мы с моей Костромской коллегой¹⁷⁰ ведём вот уже тридцать лет”*. Нам ведомо, что для создание фундаментального академического фразеологического словаря займёт много времени, требуется много усилия и над этим трудом должен работать коллектив авторов, члены которого должны быть знатоками в этом деле и трудящимися день и ночь за эту сокровищницу великого узбекского народа.

Список использованной литературы:

1. Бабкин А.М. Новый академический словарь русского языка. Проспект. Л., 1971. С.37.
2. Умарходжаев М.И. Современные проблемы фразеографии // Вопросы языкознания. – М., 1979. - № 5.
3. Umarchodshajew M.Unter Phraseographie verstehen wir die Theorie und Praxis des Zusammenstellens der phraseographischen Wörterbücher und Nachschlagewörterbücher. Bemerkungen zur phraseografischen Forschung in der UdSSR. Sprachpflege, 1971, № 4.

¹⁶⁹ Имеется в виду словарь: «Русские фразеологизмы в поэзии»

¹⁷⁰ Имеется в виду профессор Костромского государственного университета Алина Михайловна Мелерович.

4. Умарходжаев М.И. Основы фразеологии // Дисс. док. фил. наук – М., 1981.
5. Рахматуллаев Ш. Толковый фразеологический словарь узбекского языка: Пособие для студентов университетов и пед. институтов. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 406 с.

МЕТАФОРА НУТҚ БЕЗАГИ

М.Имомалиева, Кўкон ДПИ ўқитувчиси

Илмда “метафора” термини пайдо бўлганидан бери икки ярим минг йилдан зиёд вақт ўтди: терминни олиб кирган ҳам, унга илк бор таъриф берган ҳам қадимги юнон файласуфи Арасту (Аристотель) саналади. Шундан бери ўтган давр мобайнида метафора масаласи фанда жуда кенг ва атрофлича ишланиб келаётган муаммолардан ҳисобланади. Турли фан соҳаларининг вакиллари – адабиётшунослар, тилшунослар, психологлар, файласуфлар ва яна бошқа қатор ёндош соҳа мутахассислари метафорани ўзларини қизиқтирган нуқтаи назардан ўрганиб келадилар. Аслида, бир қарасанг, ҳаммаси равшандек: метафора – кўчим турларидан бири, сўз маъносининг ўхшашлик асосидаги кўчиши. Лекин шунга қарамай, метафорани тадқиқ этишга бағишланган изланишлар ҳозирги кунимизда ҳам давом этиб келади, унинг табиати, структураси, қабул қилиниши, аҳамияти каби жиҳатлар билан боғлиқ илмдаги фикрлар турличалиги ҳам то ҳанузгача мавжуд. Шунини эътиборга олган ҳолда биз асосий масалага ўтишдан аввал метафора ҳақидаги назарий қарашларни обзор тарзида кузатишни мақсадга мувофиқ деб ҳисобладик.

Агар Арасту ўзининг “Поэтика” номли асарида метафорага берган таърифга диққат қилинса, файласуф метафора терминини биз ҳозирда тушунадиган маънодан кенгроқ тушунганини кўриш мумкин. Мана ўша таъриф: “Метафора – сўз маъносини ўзгартирган ҳолда турдан хилга, ёки хилдан турга, ёки хилдан хилга, ё аналогияларга асосан кўчириш”дир¹⁷¹. Турдан хилга кўчиришга мисол сифатида Арасту “Менинг кемам эса мана турибди” жумласини келтиради ва бу ердаги маъно кўчишини “лангар ташлаб турмоқ – “турмоқ” тушунчасининг алоҳида бир хили” эканлиги билан изоҳлайди. Демак, бу ерда Арасту маъно “умумийлик – хусусийлик” муносабати асосида кўчган деб ҳисоблайди. Худди шунга ўхшаган тушунтиришни хилдан хилга кўчиришга келтирилган мисолда ҳам кўришимиз мумкин. Хилдан турга кўчиришга Арасту “Ҳа, Одиссей лак-лак эзгу ишлар қилди” деган мисолни келтиради ва кўчириш асосини “лак-лак –

¹⁷¹ Аристотель. Риторика. Поэтика. - М.: Лабиринт, 2000.- С. 170-171

умуман катта сон ва бу сўзлардан шоир “кўп” сўзи ўрнига фойдаланади” дея изоҳлайди. Бир қарашда биринчи мисолда маъно кўчишига ўхшашлик асос бўлган дейиш мумкиндек кўринади. Яъни “одаминг туриши” (ҳаракатланмай турмоқ) билан “кеманинг туриши” ўртасидаги ўхшашлик асосида маъно кўчган дейиш мумкиндек. Лекин Арастунинг ўзи ҳам бу ерда ўхшашлик ҳақида гапирмаяпти, балки “турмоқ” ҳолати умумий эканлигини айтмоқда. Демак, агар “ҳаракатсиз турмоқ” маъноси мавжудлиги ва бу маъно нафақат инсонга, балки атрофдаги нарсаларга, табиат ҳодисаларига нисбатан кўлланиши мумкин эканлигини ҳисобга олсак, аслида бу ерда сўз маъносининг кўчиши кузатилмайди.

Иккинчи мисолда эса маъно кўчишига кўпроқ “бутун – қисм” алоқаси асос бўлгандек кўринади. Яъни “лак-лак” дегани “жуда кўп” деган маънони билдиради, “кўп” дегани эса кўплик тушунчасини бирмунча мавҳум тарзда, нейтралроқ ифодалайди. Арастунинг талқинича, “лак-лак” кўпликнинг юқори даражаси бўлса, “кўп” унинг қуйироқ даражаси. Бошқача айтсак, бу ерда, унинг фикрича, “бутун – қисм” муносабати асосидаги маъно кўчиши мавжуд. Айтиш жоизки, бундай тушуниш учун биз Арасту даврини эътиборга олишимизга тўғри келади. Чунки яхши маълумки, қадимда тиллардаги сон категорияси ҳозир биз кўниккан “бирлик – кўплик” шаклидагина бўлмай, оралиқ шакллар ҳам (масалан, “иккилик”) мавжуд бўлган. Бу эса инсонлар онгида миқдор тушунчаси ўзгариб борганининг далилидир. Яъни “кўп” тушунчаси ҳам, унинг даражалари ҳам ҳозиргидан ўзгачароқ тушунилган. Шу истисно билангина (шунда ҳам ғоят шартли равишда) Арасту келтирган иккинчи мисолда маъно кўчиши метонимиянинг синекдоха кўриниши асосида амалга ошган дейиш мумкин бўлади¹⁷².

Арасту сўз маъносини хилдан хилга кўчиришга келтирган мисоллар русча таржимада қуйидагича келтирилган: “отчерпнув душу мечом” ва “отрубив несокрушимой медью”. Бу ўринда ҳам Арасту маъно кўчишини қандай изоҳлагани эътиборга лойиқ. Ушбу мисолларнинг биринчисида “жон олмоқ”, иккинчисида эса “сув (бирон бир идиш ёки табиий ҳавзадан) олмоқ” маъноси ифодаланган. Биринчи мисолда “отчерпнуть” сўзи (“чўмичга (идиш ёки ҳавзадан) тўлдириб олмоқ”) “отрубить” (чошиб олмоқ) сўзи ўрнида, иккинчисида эса “отрубить сўзи “отчерпнуть” ўрнида ишлатилган. Арасту бу ерда маъно кўчишининг асоси сифатида иккала сўзда ҳам “ниманидир тортиб олмоқ” маъноси борлигини кўрсатади. Яъни Арасту келтирилган мисолларда фақат бир сўзнинг маъноси кўчгани ҳақида гапиради, асосий эътиборни шунга қаратади. Лекин ҳозирда Арасту келтирган жумлада кўчма маъно

¹⁷² Ҳозирги тилшунослик ҳар иккала мисолда ҳам маъно кўчиши эмас, балки маъно кенгайтиши юз берган деб қарайди.

асоси иккала феъл учун умумий семанинг мавжудлиги дебгина қаралмайди, балки жумла бутунлигидан келиб чиқилади. Масалан, “жон олмоқ” маъносини ифодалаш учун “отчерпнуть” сўзининг ишлатилишига асос шуки, бунда вужуд жоннинг “идиши” деган тасаввурдан келиб чиқилмоқда. Айнан шу “идиш” маъносининг борлиги “отчерпнуть” сўзини ифода мақсадига мувофиқ қўллашга имкон яратмоқда. Яъни жумладаги бошқа сўзларда ҳам метафорик маъно борлиги маъно кўчиши учун шароит яратмоқда ва жумла яхлит ҳолда метафорик маъно касб этмоқда. Демак, бу ўринда сўз маъносининг кўчиши ҳақида эмас, балки ёйиқ метафора, яъни метафорик образ ҳақида гапириш тўғри бўлади.

Метафоранинг тўртинчи тури, яъни аналогия (ўхшашлик) асосидаги кўриниши ҳақида гапираркан, Арасту: “Мен аналогия деб шундай ҳолни атайманки, бунда иккинчи сўз биринчисига қандай алоқадор бўлса, тўртинчи сўз учинчисига шундай алоқадордир. Шунинг учун иккинчи сўз ўрнига тўртинчи, тўртинчи сўз ўрнига иккинчисини қўйиш мумкин. Баъзан шундай сўзни қўйиладики, унга алмаштирилаётган сўз алоқадор бўлади. Мен мана бундай мисолни назарда тутаман: коса Дионисга қанчалик алоқадор бўлса, қалқон Аресга шунчалик алоқадор, шунинг учун косани Дионис қалқони, қалқонни эса Арес косаси деб аташ мумкин¹⁷³”. Арастунинг ўзи алоқадорликни таъкидламоқда. Чунки қалқонни “Дионис косаси” деб аташнинг асоси ҳозирги замон кишиси учун “коса” билан “қалқон” ўртасидаги шаклий ўхшашлик бўлиши мумкин, лекин антик юнон учун бунақа эмас. Маълумки, тасвир ва ҳайкалларда Дионис учун коса, Арес учун қалқон доимий атрибут бўлиб хизмат қилган. Қадимги юнон ҳар қадамида ўзи топинган ушбу маъбудларнинг тасвир ва ҳайкаллари кўриб яшаган. Шу сабали ҳам унинг учун маъно кўчишининг асоси биринчи галда шу алоқадорликдир. Тўғри, бу ерда коса ва қалқоннинг шакли ўхшашлигини инкор қилиб бўлмайди. Яъни маъно кўчиши ҳам алоқадорлик (метонимия), ҳам ўхшашлик (метафора) асосида юз беради. Лекин Арасту бераётган изоҳдан маълум бўляптики, қадимги юнон учун алоқадорлик асосийдир. Яъни биринчи босқичда алоқадорлик (метонимия) назарда тутилмоқда ва кейинги босқичда ўхшашлик (коса билан қалқон орасидаги) асосида маъно кўчиши (метафора) юз бермоқда. Ҳозирги замон кишиси учун эса босқичлар ўрни алмашади, биринчи ўринга коса ва қалқон ўхшашлиги чиқади.

Юқоридагилардан Арасту метафора сўзини анча кенг маънода, яъни умуман кўчма маъноли сўз маъносида қўллаган деган фикр келиб чиқади. Чунки Арастунинг юқорида келтирилган таърифида гап умуман маъно кўчишининг турлари ҳақида боради ва бунинг тўртта тури кўрсатилади.

¹⁷³ Аристотель. Риторика. Поэтика. - М.: Лабиринт, 2000.- С. 170

Бундай қараш Арастуниг “Риторика” номли асарида янада аниқ ифода этилади. Арасту “Риторика”да таъкидлашича, “Метафоранинг тўртта тури ичида аналогияга асосланганлари алоҳида эътиборга молик”¹⁷⁴. Кўриб турибмизки, Арасту аналогия (ўхшашлик)га асосланган метафора (маъно кўчиши)ни алоҳида таъкидлаб кўрсатмоқда ва буни метафоранинг тўртта туридан бири демоқда. Бу эса Арасту метафора терминини умуман маъно кўчиши, кўчма маъноли сўз, яъни кейинча юнонларнинг ўзлари “троп” деб атаган термин ўрнида ишлатганини кўрсатади. Бундан ташқари, Арасту “Поэтика” ва “Риторика”да келтирган мисолларнинг айримлари ҳозирда метонимия, синекдоха, ирония деб юритилувчи кўчим турларига тўғри келишини, файласуф ўз ишларида мазкур терминларни кўчим маъносида ишлатмагани ҳам шу фикрни тасдиқлайди. Демак, шундай хулоса келиб чиқадики, Арасту метафора терминини умуман кўчим маъносида ишлатган, кўчимларнинг маъно кўчиш асосига кўра таснифланиши ва юқоридаги терминлар билан аталиши эса ундан кейинги даврларда амалга оширилган.

Унинг уқтиришича, “метафора юксак даражада аниқлик, ёқимлилиқ ва охорлилиқ жозибасига эга”¹⁷⁵, ундан ўринли ва билиб фойдаланиш нутқни безайди. Гарчи файласуф метафорани биринчи галда нутқ беағи деб билса-да, уни фақат шунинг учунгина қадрламайди. Арасту метафоранинг нутқ ва поэзиядаги аҳамиятини тушунтираркан, “бизга қандайдир билим берадиган сўзлар ёқимли” бўлади деган асосдан келиб чиқади. Арастуниг фикрига кўра, метафора шу мақсад йўлида кўп хизмат қила билади, чунки у иккита нарсани ўхшатиш орқали “турга хос тушунча ёрдамида билим беради ва маълумотлар етказди”¹⁷⁶. Айтиш керакки, метафоранинг Арасту эътиборини тортган ушбу функциясига XX асрга келиб жуда катта эътибор билан қарала бошланиб, когнитив йўналишдаги тадқиқотларда метафоранинг шу жиҳати марказий ўринни эгаллайди.

Адабиётлар рўйхати

1. Аристотель. Риторика. Поэтика.- М.: Лабиринт, 2000.
2. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Т. :Фан,1975.-Б.52-53
3. Миртожиев М.М. Эллипсис ва кўчма маънолар// Ўзбек тили ва адабиёти.-1973.1-сон.57-61-б

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR SEMANTIKASIDA MILLIY MADANIYATNING O`ZIGA XOSLIGI

Bekiyeva M. J., mustaqil tadqiqotchi AndTI

¹⁷⁴ Аристотель. Риторика. Поэтика.- М.: Лабиринт, 2000.- С. 128

¹⁷⁵ Аристотель. Риторика. Поэтика.- М.: Лабиринт,2000.- С.116

¹⁷⁶ Аристотель. Риторика. Поэтика.- М.: Лабиринт,2000.- С.128

Milliy-madaniy xususiyatlar har bir tilga xos bo`lib, muayyan jamiyatning turmush tarzini, taraqqiyoti va rivojlanishdagi uzoq yo`lni aks ettiradi. Tillarning milliy-madaniy xususiyatlarini o`rganish bo`yicha ko`pgina olimlar tadqiqot olib borganlar. Bu tadqiqotlarda turli xalqlarning tilni anglash jarayonidagi konseptlari qiyosiy o`rganilgan, chunki so`z semantikasining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashda turli tadqiqot metodlari va usullaridan foydalanish ma'quldir. Frazeologik birliklar semantikasida milliy madaniyatning o`ziga xosligi, xalqning milliy an'analariga xos xususiyatlari aks etadi. Shu nuqtai nazardan frazeologik birliklarda milliy-madaniylikni ifodalashda tilning boshqa xususiyatlari ham erkin namoyon bo`lishi mumkin. Masalan, turli xalqlarda bitta hayvonni turlicha qiyoslaydilar. Ba'zan bir xalqdagi qiyos ikkinchisidagi qiyosga umuman o`xshamaydi, xattoki zid bo`lishi ham mumkin, ijobiy va salbiy baholash holatlari ham kuzatiladi. Masalan, "dog" (it) leksemasi ko`p xalqlar tasavvurida sodiqlikni ifodalashning eng keng tarqalgan ommabop ramzi hisoblansa-da unga munosabat turlicha qolaveradi. Yevropa madaniyatida itga munosabat haddan tashqari yaqin bo`lganligi uchun uni ko`tarib yurish, uy ichiga, hatto yotoqxonaga olib kirish, o`z idishidan ovqat berish mumkin. O`zbek xalqida esa it harom hisoblanadi va u faqat qo`riqchi yoki podachi it vazifasini bajarishi mumkin xolos, undan ortigiga ruxsat berilmaydi. Bu narsa turli xalq tillarida yaratilgan frazeologik birliklarning shakli, ma'nosi va pragmatik bo`yoq jihatlarida aks etishi tayindir. Masalan: it yotish mirza turish; itga it o`limi; itdan bo`lgan qurbonlikka yaramas; kabi iboralar xalqning bu hayvonga munosabatini bildiradi. Tasavvur yanada to`liq bo`lishi uchun quyidagi iboralarni ham ko`rib chiqaylik: it boqqandan sirtlon boq, qo`y oldirmas qo`radan; el tinsa ham it tinmas; el qo`nmay it tinmas; yuvosh it hurmay tishlar; itdan suyak ortmas, mushukdan bez;

"Fox" - tulki so`zi ham turli tillarda ayyorlik, makkorlik, mug`ombirlik ramzi bo`lib hizmat qiladi. Bu narsa ularning ongida muxrlanib qolganligi uchun bir qator frazeologik birliklarning yasalişida "ichki shakl" vazifasini o`tagan. Masalan: A sleeping fox finds no meat; the fox falls into the trap only once; who wants to catch foxes must hunt with geese; a good fox does not eat his neighbor's chicken; be a lion at home and a fox abroad; necessity turns lion into fox;

Arab xalqlari madaniyatida "Camel", tuya ayollar go`zalligini kontekstual ifodalashga hizmat qilsa, boshqa xalqlarning tasavvurida qo`pol, beo`xshov, xunuklikni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: who steals an egg will steal a camel ; trust in Allah, but tie up your camel; Maqolda aytilganidek, "agar odam tuxum o`g`irlashga jur'at qilgan bo`lsa, vaqti kelib u tuya o`g`irlasa hayron bo`lma". Tuxum bu oddiygina, arzon bir narsa. Uning antonimi sifatida juda qimmat narsa aytilishi kerak edi, ammo bu yerda eng qimmat narsa sifatida "tuya" keltirilgan.

Sahroyi arablar uchun bu tabiiydir. Ikkinchi misolda ham huddi shu holat ifodalangan. Ya'ni, agar arablar tuya minib olganda itdan qo`rqmasa, hindlarda “fil minib olganda” yo`lbarsdan qo`rqmaydilar. Chunki Hindistonda yo`lbarslar ko`p. Ammo Afrika fillarini minib bo`lmaydi. Shuning uchun arablar fil o`rniga tuya ishlatgan. Yuqorida keltirilgan yana bir misolda esa “ Allohga ishon, ammo tuyani bog`lab qo`yishni unutma”, deyiladi. Bu yerda tuyani bog`lab qo`yish amali muhim ish sifatida keltiriladi. Arab madaniyati tarqalgan mamlakatlarda va Hindiston xalqlarida ham tuya so`zi uchragan qator maqollarni topishimiz mumkin. Masalan: who rides a camel should not be afraid of dogs;

“Elephant” fil leksemasi ko`pgina xalqlarda, jumladan o`zbek xalqida beso`naqaylik, qo`pollikni diskursda reprezentasiyasini amalga oshiruvchi vosita obraz, konsept vazifasini bildirsa, hind madaniyatida u aksincha ayollar go`zalligini ifodalashda xizmat kiladi. Masalan: “Sheep” – qo`y so`zi o`zbek madaniyatida yuvoshlikni ifodalasa, Yevropa madaniyatida, jumladan, ingliz tilida salbiy ma'noni ifodalaydi. Masalan: qo`y bilan bo`ri bir ovulda yashamas, qo`rqsa ham qo`y o`ladi, qo`rqmasa ham qo`y o`ladi, qo`yni ham o`z oyog`idan osadilar, echkini ham. Qo`ychivon ko`p bo`lsa, qo`y harom o`ladi. As well be hanged for a sheep as a lamb.

Inson tashqi go`zalligi yoki xulq- atvorini tegishli kontekstda ifoda etishi uchun turli so`zlardan foydalaniladi, ya'ni erkalash va shunga aloqador tushunchalarni ifodalashda. Masalan, o`zbeklar uchun tabiiy bo`lgan “qo`zichog`im, bo`talog`im, toychog`im” kabi so`zlar ingliz madaniyati uchun salbiy ma'noni ifodalashi mumkindir.

So`z ma'nolarini diskursda voqelanish masalasini tahlil qilganda milliy-madaniy xususiyatlarni o`rganishga kirishishdan oldin “milliy-madaniy xususiyat” tushunchasini o`zi va u bilan bog`lik atamalarga aniqlik kiritish zarur. Lingvistik adabiyotlarda yuqorida aytilgan terminlar keng qo`llanilmoqda, lekin ularni ishlatishda ayrim farqlar ham yo`q emas.

Ko`pgina tilshunoslar so`zning semantik tuzilishida alohida madaniy komponent ma'nosi mavjud deydi. Bu komponent so`zning semantik strukturasi turli darajada o`rin tutadi va shundan kelib chiqib, asosiy bo`lmagan eksplisit hamda implisit elementlar ma'nosini ifodalovchilar sirasiga kiradi. So`zning milliy-madaniy xususiyatlari uslubiy konnotasiyalar sathida ham namoyon bo`lishi mumkin. Faqat mazkur konnotasiya so`zning semantik tuzilishiga kiradimi yoki yo`qmi degan savol munozarali hisoblanadi. Ayrim olimlarning fikricha, konnotasiya- ma'noning komponenti hisoblanadi. Ba'zi olimlar esa konnotasiya so`zning semantik strukturasi kirmaydi deb hisoblaydi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadi-ki, konnotativ ma'nolar tilning paradigmatic sathida so`z semantik strukturasi asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Aks holda,

bir konseptni ifodalovchi yoki sinonimik qatordagi soʻzlarning nutqdagi vazifalarini farqlash qiyin boʻlib qoladi. Shuning uchun ham “leksik sinonimiya” tushunchasi nisbiydir. Soʻzning konnotativ maʼnolari semalarga, uslubiy buyoqlarga bogʻlik. Aynan soʻzning semantik strukturasi denotativ va konnotativ maʼnolarning birikishi tilning dialektik birligini aks ettiradi. Bu birikish nominasiya va ekspressiyani ifodalovchi vositaga aylanadi. Biz bunday vositalarni tilning barcha sathlaridagi birliklarda koʻramiz. Jumladan, leksik sathda ham.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Animalistic proverbs in English c, 2014
2. Oʻzbek xalq maqollari, T.2012
3. Гумбольдт И. Вон. Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс.1984. - 397 с
4. Самигова Х.Б. Инглиз ва ўзбек тилларида эркалаш функционал семантик майдони. Фан номзоди диссертацияси автореферати. Тошкент, 2010
5. Верецагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. М., 1976. 240 с.,

“QUTADGʻU BILIG”DA QOʻLLANGAN DINIY TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Dilrabo Hakimova, FarDU tadqiqotchisi

Mustaqillik sharofati bilan koʻplab ilmiy, diniy-tasavvufiy maʼnaviy boyliklarimizni oʻrganish hamda tadqiq etish imkoniyatiga ega boʻldik. Shuningdek, maʼnaviy obidalarimiz tilida qoʻllanilgan turli sohalarga oid terminlar ham tadqiq etilishi lozim boʻlgan ishlardan biri sanaladi. Biz quyida “Qutadgʻu bilig” asarida qoʻllangan diniy terminlarning semantik xususiyatlari haqida oʻz fikr va mulohazalarimizni bayon etamiz.

“Qutadgʻu bilig” asari oʻsha davr uchun anʼanaga aylangan hamd va naʼt qismlaridan boshlanadi. Aynan shuni asarda diniy terminlarning koʻplab uchrashiga sabab deyishimiz mumkin.

Biz bugungi tadqiqotimizda “Qutadgʻu bilig” asarida qoʻllangan diniy terminlarning maʼnolari xususida fikr yuritib, ularning lugʻaviy hamda terminologik maʼnolarini izohlashga harakat qilamiz. Asarda qahramonlarning nomlanishida ham diniy-tasavvufiy tarzda yondashilganini koʻrishimiz mumkin. Asar didaktik xarakterga ega boʻlganligi sababli hamda anaʼnaviy hamd va naʼt qismlari mavjudligi uchun koʻplab oʻrinlarda diniy istilohlar qoʻllangan:

Ugʻan bir bayat-ul qamugʻdan uze
Oʻkush hamdu ogdi anar-oq saza
(Qodir bir xudo barchadan ustundir,
Talay hamd-u sanolar ungagina sazodir.)

Yuqoridagi baytda qoʻllangan xudo, hamd va sano soʻzlari diniy termin sanalib, bu soʻzlarga “Diniy atama va iboralar” izohli lugʻatida shunday taʼrif berilgan.

Xudo- butun olamlarni yaratuvchi zot, parvardigor, alloh. [1, 171]

Hamd- maqtov, maqtash, ulugʻlash, sharaflash degan maʼnolarni bildiradi: [1, 202]

Hamd ul zotgʻakim Robbu jahon,

Xoliqi arz-u samo-u ins-u jon

Sano- Alloh taoloni maqtovchi, ulugʻlovchi, madh etuvchi kalimalar va duolar. Sano duosi ham mavjud boʻlib, u quyidagicha: “*Subhonaka allohumma va bihamdika va tabaro kasmuka va taolo jadduka va la ilaha gʻoyruk*”, yaʼni “*Allohim! Sening noming muborakdir. Shon-sharafingulugʻdir. Sendan oʻzga iloh yoʻqdir*”. [1; 143]

Ulugʻlugʻ idisi ugʻan *zuljalal*

Yaratqan toʻratqan ma qadir kamal

(Ulugʻlik sohibi, qodir *zuljalol*,

Yaratuvchi, bino qiluvchi hamda qodir kamol.)

Zuljalol- ulugʻlik, sharaf va karam egasi, yaʼni Alloh, xudo. [1; 70]

E yer koʻk idisi xalaysiq bile

Rozini anutmish yegil sen kule

(Ey, xalaysiq bilan yer-u koʻkning egasi,

U rizqni hozirladi, sen kulib yegin.)

Rizq- arabcha.- Ulush Yashash uchun zarur narsalar, ulush, hissa. Alloh taolo odamlar va hayvonlardan iborat oʻz maxluqotlariga bergan va ular manfaat olgan dunyoviy va uxroviy har bir narsa “rizq” deyiladi. Insonlar oʻzlari uchun berilgan rizqni ikki xil yoʻl bilan topishi mumkin: halol yoʻl bilan yoki harom yoʻl bilan. [1; 135]

Dorud ul oʻdurmish rasulqa salam

Yeme eshlerike salam ham ulam

(Saylangan rasulga durud va salomlar,

Shuningdek, chahoryorlariga ham cheksiz salomlar.)

Rasul- arabcha, elchi. Allohning amr va yoʻl-yoʻriqlarini insonlarga yetkazadigan va kitob, yangi shariat sohibi boʻlgan hamda bandalar ichidan tanlab olingan paygʻambar. [1; 133]

Hikmati Allohning oʻziga ayon boʻlgan bu qoidaga koʻra, har bir “Rasul” “Nabiy” boʻlur, ammo Nabiy “Rasul” boʻla olmaydi. [4; 7]

Chahoryor- forscha- toʻrt doʻst. Muhammad (s.a.v)ning eng yaqin, sodiq, ishongan toʻrt nafar doʻstlari, safdoshlari.

Muhammad yalavach xalaysiq bashi

Qamug`barchalarqa ul-ul ko`z qashi
(Muhammad payombar- haloyiq boshi,
Hamma va barchaga u ko`z-qoshdir.)

Payombar—forscha- payg`om, payyom- xabar, xabar keltiruvchi. Ilohiy kuchdan vahiy olgan shaxslarning nomi.

Bu mashriq maliki machinlar begi

Biliglig uqushlug` ajunda yegi

(Bu Mashriq maliklari – mochinlarning beglari,

Bilimli, zakovatli, jahonda kishilarning yaxshilari.)

Malik- Al-Malik allohning go`zal ismlaridan biri. Haqiqiy podshoh. Butun mavjudodning haqiqiy xojasi.

Ilaha sen-oq sen tuz-u yarliqa

Rozi qil qamug`

(Iloho, sengina barchani yorlaqa,

Jumla mo`minlarga rizq-u ro`z ber)

Iloho- ey, bor Xudoyo.

Mo`min- arabcha. E`tiqod qiluvchilar, dinga ishonuvchilar. Xudoning borligiga va birligiga iymon keltiruvchilar.

Allohni va undan kelgan barcha narsalarni dili va tili bilan tasdiq qilgan bandalar Alloh taolo nazdida ham, odamlar nazdida ham mo`mindir. [3, 6]

“Qutadg`u bilig”da diniy terminlar umumiste`moldagi so`z maqomida qo`llangan. Ilmiy jihatdan yondashilganda esa ular terminologik sistemadan o`rin oladi. Mazkur asarda qo`llangan so`zlarning ko`p qismi diniy-tasavvufiy terminlar sanaladi. Demak, bitta so`z bir matnda oddiy so`z bo`lsa, boshqa bir matnda termin hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mumtoz adabiyot namunalarida diniy sohaga oid terminlar ko`plab qo`llangan. “Qutadg`u bilig”da qo`llangan terminlar terminlik ma`nosidan tashqari alohida lug`aviy ma`noga ham egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Мухторхон Эшон Умархўжа. Диний атамалар ва иборалар. Оммабон қисқача изоҳли луғат. Тошкент, 2016.
2. Imomi A`zam Abu Hanifa. Hidoyat. T., 2006/6.
3. Shayx Zohidxon Qodir Otaxon o`g`li. Payg`ambarlar qissasi. T.:// Qomuslar bosh tahririyati, 1993, 7-b.
4. Yusuf Xos Hojib Qutadg`u bilig. Toshkent “Fan”, 1971.

FEATURES OF THE TRANSLATION OF PROVERBS AND SAYINGS AS STABLE METAPHORICAL EXPRESSIONS

Ch. J. Khaydarova, Kokand University, a teacher,

A comparison of proverbs and sayings of different peoples shows how much these peoples have in common, which, in turn, contributes to their better understanding and rapprochement. It should be noted that many English and Russian proverbs and sayings are ambiguous, which makes them difficult to interpret and compare. When selecting Russian correspondences of the English proverb, the obligatory criterion is the coincidence of one of the values (as a rule, the main one). Nevertheless, it is important to remember that, developing under different historical conditions, English and Russian sayings and proverbs often used different images to express the same or similar thoughts, which, in turn, reflect the different social way of life of the two peoples and are often not absolute equivalents.

For example, the proverb: *The grass is always greener on the other side of the fence*. The literal translation of this proverb goes like this: The grass is always greener on the other side of the fence. But in the Russian language there is no such proverb, but there is another proverb: *Хорошо там, где нас нет*.

Basically, these two proverbs are equivalent in meaning. But the literal translation of the Russian proverb will sound like this: *Life is better, where we are not present*.

As already mentioned above, phraseological units are a special type of combination. Their main feature is “partial or complete discrepancy between the content plan and the expression plan, which determines the specifics of phraseological units” and, of course, will affect the choice of methods and methods of translation¹⁷⁷.

In almost any language, several levels of phraseological units are noted, and not all of them are well-known, widely used and fixed by dictionaries. Some of them are used only by certain groups of native speakers and are not in the dictionaries.

That is why the primary task of the translator is to be able to recognize phraseological units in the text, to distinguish a stable combination from a variable.

It should also be borne in mind that ambiguity and homonymy are not only characteristic of words, but also phraseological units, that is, the same combination can be both stable and free.

For instance: *The girl next door* -

1. девушка, живущая рядом, соседка;

¹⁷⁷ Kunin A.V. Phraseology course of modern English.

2. девушка, каких много

Therefore, the ability to analyze speech functions is another condition for the adequate translation of phraseological units into foreign languages. Sometimes authors use phraseological units in several meanings at once to create figurative or emotional associations or a humorous effect.

There are cases when the translator has to restore the phraseological units that underwent the author's transformation and convey in the translation the effect they achieve.

Another inevitable difficulty is the national-cultural differences between relatives in the meaning of phraseological units in different languages. Often, coinciding in meaning, phraseological units have different emotional functions or stylistic coloring.

Asosiy faoliyatga oid buyruqlar ishni tashkil qilish, muassasa yoki uning bo`limlari faoliyatini tartibga solishda qo`llaniladi. Ular odatda, yuqori tashkilotdan kelgan ko`rsatmaviy hujjatlar xodimlarga yetkaziladi, bularning ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar belgilanadi, mas`ul shaxslar va bajarish muddatlari belgilanadi. Odatda buyruqlar umumiy tarzda bo`lib, ma`lum shaxslarga qaratilmaydi, balki butun bir jamoaga tegishli bo`ladi.

Buyruqda quyidagi zaruriy va boshlang`icha ma`lumotlar aks etishi lozim:

- *Gerb, muassasaning alomati (bosma ish qog`ozi qismlari);*
- *Vazirlik yoki boshqarma nomi;*
- *Muassasa xos raqami;*
- *Muassasa nomi;*
- *Hujjat (buyruq)ning nomi;*
- *Sanasi;*
- *Raqami;*
- *Buyruq chiqqan joy nomi;*
- *Sarlavhasi (buyruqdan kelib chiqqan holda nomlanadi);*
- *Buyruq matni (ilovalari bo`lsa qayd qilinadi);*
- *Rahbar (mas`ul, o`rinbosar) imzosi.*

Yuqorida ta`kidlanganidek, buyruqda asoslovchi va farmoyish qismi mavjud bo`ladi. Asoslovchi (kirish) qismida buyruqdan maqsad, shart-sharoitlar, sabablar ko`rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruqqa havola qilinadi. Havola qilinayotgan hujjatning nomi, sanasi va raqami ko`rsatiladi. Buyruqning farmoyish qismi yangi

satrdan boshlanadi, bosh harflar bilan yoziladigan “BUYURAMAN” soʻzi bilan boshlanadi. Zaruriyatga qarab farmoyishlar bandlarga boʻlinib, arabcha raqamlarda belgilanadi. Raqamdan soʻng nuqta qoʻyilib, soʻz bosh harfdan boshlanadi. Farmoyishlarda odatda kim qanday vazifani va qaysi muddatlarda bajarilishi koʻrsatiladi. Harakat majhul feʼl shaklida ifodalanadi (misol uchun, “amalga oshirilsin”, “taʼminlansin”, yuklatilsin”, “hisoblansin” kabilar). Bajaruvchilar muassasa yoki tarkibiy qismlar, mansabdor shaxslar (lavozimlari koʻrsatilgan holda) koʻpincha joʻnatish kelishigida qayd qilinadi. Buyruq imzolanganidan soʻng kuchga kirgan hisoblanadi.

Xulosa oʻrnida shuni alohida taʼkidlash oʻrinliki, tilshunoslikda buyruq masalasi dolzarb boʻlib, u izlanuvchilardan yangi ilmiy tadqiqotlarni kutmoqda.

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ҲАРБИЙ ТЕРМИНЛАРНИНГ СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Курганов Анваржон Мухторович,
Ўзб. Р. ИИВ Академияси,
Тил ўқитиш кафедрa бошлиғи ўринбосари

Таъкидлаш жоизки, семантик ўзгаришлар жараёнида нарса-буюм, ҳолат, ҳаракат, сифатларнинг қандайдир белгилари билан ўхшашлиги асосида номнинг бирор сўзга ўтиши ўзига хос аҳамият касб этади. Баъзан сўзнинг янги маъноси асос бошланғич маънога ўхшамайди, бу эса, ўз навбатида, янги сўз ҳосил бўлганидан далолат беради, яъни омонимлик хусусиятига эга саналади, масалан: **cavalry** термини замонавий талқинда “қўшиннинг юқори ҳаракатчан тури” (*танк қўшинлари, аэромобиль қўшинлар, кавалерия*) [1, 228.]. Ушбу ҳолатда бу каби талқиннинг инглизча қўлланилиши атайлаб қилинган ташвиқотга ўхшайди, яъни “кавалерияга хос” анъаналарнинг қўшиннинг янги турига (кавалериянинг “классик” вазифаларини амалга оширувчи – разведка, қўриқлаш, рейд кабилар) мерос бўлиб қолганига ишора қилинади.

Шунингдек, **missile** терминининг умумий ва аниқ янги маъноси ўртасидаги алоқани кузатиш мумкин: 1) снаряд; 2) ракета (зарба бериш воситаси).

Термин **grenadier** қуйидаги маъноларни ўз ичига олади:

1) “гренадер” архаик маъноси; 2) тарихий маъноси эса “мотопиёда аскар”(гитлер армиясига хос); 3) замонавий, бироқ маъноси бироз эскирган “граната отувчи солдат”, “винтовкали гранатомёт билан қуролланган солдат”; 4) замонавий маъноси “гранатомётчи” (граната отувчи – реактив гранатомёт билан қуролланган жангчи).

Баъзан номларнинг кўчиши ҳарбий ишнинг бошқа соҳаларидан ёки ижтимоий фаолият, фан ва техника соҳаларидан ўзлашиш орқали содир бўлади. Масалан, юридик термин **to brief** “мижозга унинг ишини адвокат билан олиб борилишига ишора қилиш” даставвал Ҳарбий ҳаво кучлари (ҲХК)да “ҳарбий учишдан олдин кўрсатма бериш” маъносида, шунингдек, куролли кучларда “вазифани кўймоқ, кўрсатма бермоқ” маъноларини англатади. Таъкидлаш жоизки, ҳарбий лексика доирасида ушбу сўзга олд кўшимча кўшилиши натижасида **to debrief** термини ҳосил бўлади, яъни “душман ортида хизмат вазифасидан қайтганлардан (самолёт экипажлари, десантчилар, разведкачи гуруҳлардан) разведка маълумотларини олиш” маъносини билдиради.

Альпинистлар лексиконидан **rappelling** термини “арқон бўйлаб тоғдан тушиш” ўзлаштириб олинган бўлиб, у ҳарбий лексикада “вертолётдан арқон орқали десант тушириш” маъносини олган.

Термин маъноларининг ўзгарганига бошқа мисолларни ҳам келтириш мумкин:

extraction экстракция (*гильзалар*); тикилиб қолган техникани чиқариш; душман ортидаги десант бўлинмаларини (*вазифани амалга оширгандан сўнг*) олиб чиқиш; **acquisition** қўлга киритиш; нишонни аниқлаш ва белгилаш; **decontamination** тозалаш; зарарсизлантириш; дезинфекция қилиш; дегазация қилиш (заҳарли газдан тозалаш); радиоактив қолдиқлардан тозалаш; **saturation** (*эритмани*) тўйинтириш; мудофаа имкониятларидан ортиқ миқдорда ҳужум воситаларини қўллаш; **surveillance** кузатиш, разведка; техник воситалар (*радиолокацион станциялар, инфракизил техникалар*) ёрдамида кузатиш.

Термин маъносининг ўзгариши натижасида сўз моҳияти кенгайиши ёки торайишини кузатиш мумкин. Масалан, “қирғоққа туширмоқ; қўнмоқ” маъноларини англатган **to land** феъли ҳозирда ўз маъносини кенгайтирган ва у “ҳар қандай сатҳга – сувга, осмон жисмига – қўнишни амалга ошириш” маъносида қўлланилади.

Бирор терминда янги маънонинг пайдо бўлиши баъзан ушбу сўз эски номларини ифодалаш учун ўзига хос антонимлар пайдо бўлишига олиб келади. Масалан: *airmobile cavalry – horse cavalry; cross country vehicle – road vehicle; guided bomb – gravity bomb; jet aircraft – piston aircraft; mortar – artillery mortar; mounted infantry – foot infantry; nuclear bomb – iron bomb; rotary wing aircraft – fixed wing aircraft; unconventional warfare – conventional warfare.*

Ҳарбий лексика таркибига кирувчи умумистеъмолдаги феъллар, одатда, барчага маълум бўлган махсус аҳамият касб этади. Бироқ шуни ҳам

таъкидлаш жоизки, ҳарбий контекстларда кўпинча машҳур феълларнинг тор истеъмолдаги маъносидан фойдаланилади: *to clear (a point)* “ўтмоқ (қисмга)”; *to deliver (fire)* “(ўт) ёғдирмоқ (ўққа тутмоқ)”; *to detail (for duty)* “тайинламоқ (наряд)”; *to develop (a position)* “фош қилмоқ, разведка қилмоқ (мудофаани)”; *to dress* “текисланмоқ”; *to find a guard* “ажратмоқ (қоравул)”; *to furnish (a patrol)* “ажратмоқ (қисм)”; *to hold out (a reserve)* “ажратмоқ (захира)”; *to mount (an attack)* “хужумга ўтмоқ”; *to negotiate (an obstacle)* “енгмоқ (тўсикни)”; *to organize (an area)* “муҳандислик муносабатида жиҳозламоқ (жойни)”; *to reduce (a pillbox)* “босмоқ, енгмоқ (ДОС)”; *to refuse (a flank)* “орқага тортмоқ (фланг, қанотни)”; *to rotate (personnel)* “навбатламоқ (шахсий таркибни)”; *to stage (an attack)* “бошламоқ (хужум)”; *to turn (a position)* “айланиб ўтмоқ (мудофаани)”. Айнан бу каби маъноларни ўрганиш жуда муҳим саналади.

Таъкидлаш жоизки, инглиз ҳарбий лексикасида атоқли отлар, хусусан, курол-яроғ ва ҳарбий техника номлари кенг тарқалган. Хусусан, атоқли отларда ҳам маъно ўзгариши кузатилади. Маъно ўзгариши атоқли отнинг бошқа предмет, ҳолатга қандайдир белгиларининг ўхшашлиги асосида метафорик жиҳатдан кўчиши орқали содир бўлади. Натижада турдош отлар ҳосил бўлади. Масалан: **Hiroshima** – Хиросима – турдош от “йирик аҳоли пунктига қарши ядро қуролини қўллаш” маъносини беради; **Dunkirk** – Дюнкерк – “чекинишдан сўнг қўшинлар йирик гуруҳининг денгиз орқали эвакуацияси”; **Dien Bien Phu** – Дьен-Бьен-Фу – “мудофаа иншоотлари қурилган қамалдаги гарнизонни йўқ қилиш”; **Verdun** – Верден – “мустаҳкам қалъа”; **Cannae** – Канна – “қамал қилиш натижасида йирик гуруҳни тўлиқ тор-мор қилиш”; **Pearl Harbor** – Пирл-Харбор – “қўққисдан хужум” кабилар.

Атоқли отлар маъноси ўзгаришининг бошқа усулида унинг бошқа предмет билан ўзаро алоқаси асосида метаномик кўчиши ҳисобланади. Масалан, айрим пунктларнинг географик номлари маълум муассасалар билан боғланади: **Fort Benning** “пиёда аскар мактаби”; **Langley** “Марказий разведка бошқармаси”; **Fort Knox** “бронетанк қўшинлари мактаби”; **West Point** “ҳарбий билим юрти”; **Fort Bliss** “ракета мактаби”; **Sandhurst** “инглиз армияси ҳарбий билим юрти” кабилар.[2.]

Полисемияга (кўп маънолилиқка) келадиган бўлсак, дастлабки таҳлил асосида айтишимиз мумкинки, бу ҳодиса ҳарбий соҳада унчалик кенг тарқалган эмас ва ҳарбий терминлар кўпинча бир маънолилиқ талабларига жавоб беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Macvillan. English dictionary for advanced learners. Second edition. United Kingdom. Editor-in-Chief Michael Rundell. 2007. p. 228.

LOCAL VALENCY AND ITS SEMANTIC CORRESPONDENCE IN EVENTUALITY

F. Jumaboyev, Kokand SPI

Except phonological level all other levels are units which contain the unity of form and meaning. This is recognized by all linguists.

Linguistics formed in Antique period pays much attention to the study of relationship between the name and notion expressed by this name. The unity of form and meaning has been inseparable. But structural linguistics appeared in XIX century paid much attention to the form, meaning was secondary. Even F.de Sossure recognized any linguistic unit consists of form and meaning, but his followers, mostly glossematic linguists gave priority to the form.

In the result form was deprived from meaning. It barries to the development of linguistic semantics.

The representatives of structural linguistics are devided into two groups on the semantic matter. American linguist Bloomfield, Danish linguist L.Elmelef were in antimentalistic mood, Prague linguists supported mentalistic ideas. V.Skalichka criticized Bloomfield's approach to morpheme on the base of form, and he paid much attention to meaning of the morpheme.

F.de Sossure recognized that language was a system of special marks and semeology dealing with language mark theory, he made one side approach. He pointed out that semeology studies a mark in three aspects:

- 1) the relation of a mark with mark, he called it syntax;
- 2) the relation of a mark with reality, he called it semantics;
- 3) the relation of a mark with subject, he called it pragmatics.

Only first aspect drew F.de Sossure's attention. Only in the middle of the 20th century the relation of a mark to reality was in the centre of linguists. In the result of linguistic semantics developed.

At present in linguistic semantics, mainly in semasiology investigations are being carried in two directions. One of them is nominative or denotative semantics, it studies what the language unit expresses in objective reality or their etimology. The growth of structural investigations influenced to the linguistic semantics and pawed the way to the formation of structural semantics. The main principles of the structural metadology have become the form of the linguistic unit and its meaning. So structural semantics appeared in linguistics¹⁹⁸.

¹⁹⁸ Vasilyev L.M. Semantika russkogo glagola. M. 1981. Page 7.

The appearance of structural semantics made it possible to investigate the meaning of the linguistic unit from structural point of view. In the past semantics only studied the meanings of words, while appearing structural-semantics widened its object of study. All linguistic levels have been investigated from semantic point of view. In the result of it new directions appeared, such as phonosemantics, morphosemantics, lexical semantics, phrasiological semantics, syntactic semantics. Structural semantics was the result of the 20th century investigations. It is true that some attempts were made in syntactical semantics up to 20th century. Particularly, the types of sentence according to the aim of speaker (affirmative, negative, interrogative, imperative sentences). But the nominal aspect of the sentence, structural elements of the sentence, the actual formation of sentences were not the main point of investigations. The appearance of structural semantics begin to study the form and meaning, their correlations, their unity. Structural semantics studies linguistic units by deviding its parts, revealing its semantic structure and finds out the relations between linguistic units, their ability of connecting and their expression in reality.

The main element of syntactic semantics is predicate as the authors of “The contentual syntax of the Uzbek language” predicate as a semantic notion is a nominal basis of any sentences, as a Grammatik notion predicate is the centre of syntactical elements which predicate rules¹⁹⁹. Any predicate with other semantic participants can widen.

Semantic connections which fulfills the gaps of predicate is called arguments. Predicate taking predicative forms make up the minimal sentences. Any predicative form is considered as minimal sentence.

Arguments fulfilling the gaps of predicate has the relation with predicate and it is called predicative valency.

Lexical valency is the ability of one lexis uniting other lexis. The verb is the part of speech which has the most ability of uniting other lexis.

The lexical meaning of a verb is a representative of a certain lexical-semantic type, it has a categorial mark which is able to unite with nominal category²⁰⁰. For example, the verb ‘ichmoq’ (to drink) has the object which means “what”. So this verb can unite with any liquid.

The nominal predicates can unite with the arguments expressing amount, size, taste, color. Predicate and its arguments has meaning full correspondence. It shows that both of them has the same sema. This sema repents in both members. As we see the verb ‘ichmoq’ has the sema ‘to drink’ its connecting unity ‘water,

¹⁹⁹ Nurmonov A. Makhmudov N and others. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T. 1992, Page 44.

²⁰⁰ Kibardina S.B. Kategoriya subyekta I obyekta I teoriya valentnosti or Kategoriya subyekta I obyekta v yazikax razlichnix tipov. L. 1982. Page 30. Nurmonov A. and others. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Tashkent. 1992. Page 51.

beer etc' has the same sema. The lexis 'apple' has the unity with semas expressing size, taste, color. The French linguists call it is classemas. It is very important to study the syntactic structure and its parts' valency, the representatives of structural linguistics pay much attention to the valency theory.

Verbal predicate on the base of its valency according to speech conditions, takes its actants, reveals its semantic uniting ability. Valency is considered as the main point of grammatical and lexical expression, or the main point of syntax and semantics²⁰¹. So valency is divided into two: 1) semantic valency and 2) syntactic valency. Syntactic valency bases to the logical connection semantics of a word. According to G.Xelbig 'Semantic valency bases to the connection of meaning'²⁰².

ВЫРАЖЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ «РОДИТЕЛЬ МУЖСКОГО ПОЛА» И ЕГО ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ МИКРОСИСТЕМЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Бурхонова Д., преподаватель КГПИ

"Родитель мужского пола" является одним из основных и широко известных значений кровного родства в языках народов мира, что относится к плану содержания одного из соответствующих терминов родства мужского пола.

В знаменитом словаре Э.В.Севортяна «Этимологический словарь тюркских языков» в значении «родителя мужского пола» зафиксированы две лексемы – *ата* и *акка*, первая из них является многозначной и многофункциональной, которая употребляется в значениях: 1) "отец", "папа", 2) "дед по отцу", 3) "дядя", 4) "старший брат", 5) "самец", 6) "свекор", "тесть", 7) "крестный отец"²⁰³.

Все эти значения термина *ата* относятся к мужскому полу. Данный лексикографический источник свидетельствует еще то, что лексема *ата* употреблена и в значениях «кровного родства женского пола», например, в значениях «сестра отца и матери» ("тетя"), «дочь родителей старше эго» ("старшая сестра"). Но следует отметить, сема «мужской пол» является основной в семантической структуре лексем *ата*.

Многофункциональность общетюркского слова *ата* характеризуется тем, что она, кроме вышеуказанных значений, употребляется и в отношении к лицам старше адресанта(эго) при обращении и выполняет прагматическую функцию вежливости. Кроме этого, в некоторых говорах тюркских языков,

²⁰¹ Stepanova M.D. Problemi teorii valentnosti v sovremennoy lingvistiki. – Page 16.

²⁰² Beitrage zur Valenz theorie Einleitung.

²⁰³ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков.

например, туркменского, оно *ата* употребляется и в отношении к лицам женского пола старшего возраста².

Данные «Древнетюркского словаря» (далее ДТС) свидетельствуют о том, что в значение «родитель мужского пола» ("отец") употреблены и лексемы *ата, вава (баба), дада, дан (канг)*³. из них *ата, дада* встречаются и в словаре М.Кашгарского "Девону лугатит турк" (далее ДЛТ). Кроме этого, по данному ДЛТ, в значении «родителя мужского пола» ("отец"), употреблены и лексемы *аба, hama*⁴, фонетическими вариантами которых являются *ама, ама: а, мам + ма (мэмэ + ама)*, в тунгусо-маньчжурских языках об этом свидетельствуют данные «Сравнительного словаря тунгусо-маньчжурских языков» (далее ССТМЯ)⁵.

Доминантами синонимического ряда термина родства со значением "отец" в узбекском языке *ота-дада-надар* - "ота". В словаре терминов родства узбекских говоров¹ отмечается, что значение "отец" передается посредством и слова *ака*, "старший брат".

Значение «родитель мужского пола» ("отец") в узбекском языке выражается с помощью лексем *ота, дада, надар*³. В классическом литературном языке в данном значении употреблены и слова *аб, жазира*⁴, *волид*.⁵ В отдельных диалектах узбекского языка значение "родитель мужского пола" выражается лексемами *ата, ака, ада*⁶.

В узбекском литературном языке *ота* является основным по отношению к другим фонетическим и лексическим эквивалентам данной лексемы.

В семантическом строении лексемы *ота* совмещены следующие два значения: 1) "кровное родство"; 2) свойства .

В парадигме значения первой группы *ота* входят:

- 1) "родитель адресанта (эго) мужского пола» («родной отец»);
- 2) "родитель родителей мужского пола» («дед", "дедушка");
- 3) "старший брат отца и матери" («дядя по отцу», «дядя по матери»).

В парадигме значений второй группы лексемы *ота* входят: 1) «отец мужа и жены" («тесть", "свекор"); 2) "названный отец"; 3) "отчим"; 4)

¹См. Ишаев А. Қорақалпоқистондаги ўзбек шевалари. Тошкент: Фан, 1977, -с. 176.

² См. Севортян Э.В. Укр.р. -с. 121.

³ См. Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969, -с. 65,76, 160, 419.

⁴ См. Девону лугатит турк. Индекс. Т., 1966, -с. 10, 318.

⁵ См. Сравн. Словарь тунгусо-маньчжурских языков. Т.І. –Л., 1975, -с. 34, 56.

³ См. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –М., 1980. Т. I, -с. 205, 547, 566.

⁴ См. Ўзбек классик адабиети асарлари учун қисқача луғат. Т., 1953. –с. 9, 105.

⁵ См. Навойи асарлари луғати. Т., 1972, -с. 150.

⁶ См. Ишаев А. Қорақалпоқистондаги ўзбек шевалари. Т.: Фан, 1977, -с. 176.

"наставник"; 5) "основатель"; 6) "форма обращения к пожилым мужчинам" и др.

Значения отдельных терминов родства определяются по отношению к значениям других терминов родства. Это объясняется тем, что значение родства носит характер обоюдности, двусторонности (далее многосторонности).

Например, значение «родитель мужского пола» (*ота*) определяется по отношению к значениям «родитель женского пола» (*она*), «дети, дитя родителей адресанта (эго)» (*бола*) и др. Выразительные средства этих значений образуют своеобразную функционально-семантические микросистемы, компоненты которых различаются в отношениях определенных дифференциальных признаков (сем). Например, в ФСМС *ота-она* три дифференциальные семы: некровное родство, естественный род, социальное положение (*она* "мать" подчиняется к *ота* "отец") и т.д.

Своеобразные дифференциальные признаки свойственны и к членам парадигм функционально-семантических микросистем терминов родства *ота-амаки* (отец и дядя по отцовской линии"), *ота-амма* (отец и тетя по отцовской линии"). Например, у членов парадигмы функционально-семантической микросистемы *ота-амаки* два дифференциальных признака: степень возраста, социальное положение; у членов парадигмы функционально-семантической микросистемы *ота-амма* три : естественный род, степень возраста, социальное положение.

Теперь несколько слов об этимологии термина родства *ота* «родитель мужского пола» ("отец").

Мы присоединяемся к мнениям ученых о том, что тюрк. *ата* с разными фонетическими вариантами имеет генетическую связь с общенародным термином родства *tata* (ср. в говорах узбек. языка – *ота, ама, ада, дада, тата* и др.). О происхождении и об этимологическом значении *tata* "отец" М.М.Гухман пишет, что и *тата* является наиболее древним термином родства, который предшествовал появлению известного праиндоевропейского *pitar* (в тадж. *надар* – А.А.). В связи с этим *pitar* как производное от корня *pa* "охранять"¹

Фойдаланилган адабиётлар

1. Гухман А.А. Доиндоевропейские термины родства в германских языках. // Памяти академика Н.Я.Марра. –М.-Л., 1939, -с. 98-99.

2. Девону лугатит турк. Индекс. -Т., 1966, -с. 10, 318.
3. Джафаров Г.Г. Термины родства в семантической системе и грамматической структуре языка // Советская тюркология. 1974. № 3, -с. 19.
4. Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969, -с. 65,76, 160, 419. 6. Навоий асарлари луғати. -Т., 1972, -с. 150.
5. Ишаев А. Қорақалпоқистондаги ўзбек шевалари. -Тошкент: Фан, 1977, -с. 176.
6. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. -М., 1976.
- 7.. Словарь тунгусо-маньчжурских языков. Т.І. –Л., 1975, -с. 34, 56.
8. Ўзбек тилининг изокли луғати. –М., 1980. Т. I, -с. 205, 547, 566.
9. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. -Т., 1953. –с. 9, 105.

ГРАДАЦИЯНИНГ ПРАГМАТИК МОҲИЯТИ ВА ШЕЪРИЯТДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Тўхтасинова З., ҚДПИ

Маълумки, тилшунослик фанининг асосчиларидан бири Фердинанд де Соссюр ўз даврида тилшуносликни ички ва ташқи тилшуносликка ажратган эди. Ҳозирги давр тилшунослиги эса ички тилшунослик муаммолари билан бир қаторда, ташқи тилшунослик муаммолари ҳисобланмиш тил ва сўзловчи, тил ва коммуникация жараёни (муҳит, омиллар), тил ва мантиқ, тил ва оламни билиш, тил ва маданият каби муносабатларни жиддий тадқиқ этишга киришмоқда. Шунинг асносида тилшуносликнинг лингвистик прагматика, лингвокультурология, гендер тилшунослик ва когнитив тилшунослик каби соҳалари шаклланиб бормоқда.

Анъанавий тилшуносликда градация (даражалаш) ҳодисаси тил ва нутқ воситалари ёки бевосита ёндош омиллар билан изоҳланган бўлса, бугунги тилшуносликда эса мазкур муаммони янада чуқурроқ, яъни гендер, когнитив ва прагматик тилшунослик аспектларида ҳам тадқиқ этиш имкониятлари вужудга келмоқда.

Тил ҳодисаларига бундай ёндашув тадқиқ этилаётган муаммони мазмун моҳиятига чуқурроқ кириб бориш ва мазкур ҳодисанинг кўз илғамаган қирраларини кузатиш имконини беради.

“Инсоннинг объектив оламдаги барча ижтимоий хатти-ҳаракатлари унинг нутқий фаолиятида ўз аксини топади. Шунинг учун ҳам инсон нутқини ўрганиш унинг маънавий олами билан танишиш имконини беради. Прагматик тилшунослик фанинг янги бир назарий ва амалий тармоғидир. У инсоннинг ижтимоий фаолиятини ўзида акс эттирувчи нутқий жараён, нутқ иштирокчиларига хос коммуникатив ният, нутқий вазиятнинг таъсири билан алоқадор масалаларни ўрганади”²⁰⁴.

²⁰⁴ Ҳақимов М. Ўзбек тили прагматикасини ўрганиш. “Фарғона” нашриёти, Фарғона, 2011 йил.

Прагматика муаммолари билан қадимдан файласуф ва тилшунос олимлар шуғулланиб келдилар. Аммо бу масалаларни ҳал қилишда тилшуносликнинг алоҳида соҳаси сифатида прагматика ўзининг аниқ чегарасига эга бўлмади, унинг муаммолари баъзан синтаксис таркибига киритилса, баъзан бу масалалар семантика доирасига киради деган тушунчалар ҳам мавжуд. Назарий грамматиканинг асоси прагматика хисобланиб, унинг тарихи Ч. Пирс, У. Джемс, Д. Дрюн, Ч. Моррис каби буюк файласуф олимларнинг номлари билан боғлиқ. Уларнинг ишларида биринчи бўлиб, белгилар тизими ва белги функцияси ҳақидаги ғоялар ўз ифодасини топган, семиотиканинг асосий белгилари аниқланган, семантика, синтаксис, ҳамда прагматика ўртасидаги дифференциал белгилар кўрсатиб ўтилган.²⁰⁵

Градацияда гапдаги ҳар бир берилган ибора ўзидан аввалгига нисбатан кучлироқ, таъсирчанроқ бўла боради. Градацияда кўпинча синонимлар ишлатилади. Шу синонимларнинг кетма-кет ишлатилиши таъсирчанликни ошириб беришга хизмат қилади.

Поэтик нутқда градациядан кенг фойдаланилади. Поэтик нутқнинг асосий хусусиятларидан бири инверсия қўлланилишидир. Инверсия – бу компонентларнинг одатдаги ўрнини алмаштириш хисобланиб, бундай ўзгаришлардан мақсад асосий фикрни биринчи ўринга чиқариб уқтиришдир. Шеъринг нутқ талаффузининг инверсия ходисасига асосланиши меъёрий ҳолат саналиб, инглиз шеърлятида ҳам градация услубини сўз маъносини кучайтириш мақсадида қўлланилиши кўп кузатилади:

The human heart has hidden treasures,
In secret kept, in silence sealed,-
The thoughts, the hopes, the dreams, the pleasures
Whose charms were broken if revealed. (Ch. Bronte)

Юқоридаги мисраларда муаллиф Шарлотта Бронте “the thoughts”, “the hopes”, “the dreams” сўзларини қўллаш орқали матннинг хиссий-эмоционал хусусиятларини кучайтирмоқда.

Лингвистик прагматиканинг хусусий масалалари айнан нутқ иштирокчилари ва нутқий вазият тушунчаси билан боғлиқ бўлиб, нутқий аралашув шакллари (хабар мазмунидаги диалог, дўстона суҳбат, мунозара ва бошқа мазмундаги суҳбатлар), нутқнинг ижтимоий-этикет шакллари (мурожаат шакллари, аралашув услуби), коммуникация иштирокчилари ўртасидаги нутқий акт кўринишлари (илтимос ва буйруқнинг лингво-ижтимоий моҳияти) кабиларни ўрганади. Шу нуқтаи назардан қуйидаги мисолда, фикрнинг кучайтириб айтиш мақсадида градация усулидан фойдаланилишини кўришимиз мумкин:

²⁰⁵ Петров В. В. Философия, семантика, прагматика. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. М., 1985, с. 471

“Threaten him, imprison him, torture him, kill him; you will never induce him to betray his country”

“It was a lovely city, a beautiful city, a fair city.”

“For that one instant there was no one else in the room, in the house, in the world, besides themselves . . .” (Wilson)

Маълумки, кишилар жамиятда яшаш жараёнида ундан маълум бир андазаларни оладилар, ўша ижтимоий муҳитга мос тарзда ҳаракатланиб, баъзи вазифаларни бажарадилар. Ҳар бир шахс эса жамиятда бажариб турган вазифасига мос тарзда сўзлашади. Кишининг нутқи асосида унинг жамиятда қандай вазифани бажаришини билиш мумкин. Қуйидаги матнда даволовчи шифокор томонидан беморнинг ота-онасига айтилган хулоса градация ёрдамида янада кучайтирилган:

“Your sun is very ill – seriously ill – desperately ill.”

Хулоса қилиб айтганда, градациянинг прагматик маъно нозикликларини аниқлаш муҳим бўлиб, бунда эътиборни моддий борликдаги ҳаракатнинг турли кўринишлари тил воситалари орқали инсон тафаккурида қандай инъикос этилиши, жамият аъзоларининг ижтимоий вазифаларидан келиб чиққан ҳолда улар нутқининг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тадқиқот олиб бориш бугунги кун тилшунослигининг долзарб масалаларидан биридир.

MAQOLLAR HAMOHANGLIGI

(o‘zbek va ingliz tillariga qiyosan)

M.Tillayeva, S.Matyaqubova,

Urganch davlat universiteti

So‘z san’ati paydo bo‘lganidan buyon davrdan davrga, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan xalq og‘zaki ijodiyotining eng ommaviy turi – xalq falsafasining mag‘zi maqollardir. Maqollar uzoq muddatli ijodiy jarayonda yuzaga keladi va yashaydi. Ularning uzoq asrlar davomida yashab qolayotganinig asosiy sababi esa unda ijodkor xalqning voqelikka munosabatining aks etishidir. Maqol atamasi arabcha ”qavlun” – gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan. Maqol xalq ommasining muayyan voqea, hodisalari haqidagi xulosalari, hukmi va tavsiyalarini mujassamlashtirgan o‘ziga xos badiiy shaklga ega bo‘lgan ifoda va iboralardan iborat²⁰⁶.

O‘zbek tilshunosligida o‘zbek xalq maqollarini mavzu jihatdan ajratish, poetik go‘zalligi xususida, tasviriy – stilistik vositalari xususida, olingan manbalari va

²⁰⁶ O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Darslik. T.; O‘qituvchi. 1990

ularning izohli lug‘ati, badiiy til xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish bo‘yicha katta ishlar amalga o‘shirildi. Xususan, professor X. Abdurahmonov o‘zbek xalq maqollarining sintaktik xususiyatlarini monografik yo‘sinda o‘rgangan. Bu mavzu yuzasidan ko‘plab maqolalar e‘lon qilgan. Ularda maqollarning sintaktik qurilishi, maqollarning tuzilish jihatidan turlari, maqollarni tashkil etgan komponentlarning o‘zaro bog‘lanish xususiyatlari aks qilgan²⁰⁷. Shuningdek, bu ishlarda o‘zbek xalq maqollaridagi gaplar va so‘z birikmalarining barcha ko‘rinishlari, ularning morfologik sintaktik, ba‘zi ma‘noviy – uslubiy xususiyatlari ham keng yoritilgan.

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo‘ladi. So‘zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi. Maqollar tilning emotsional obrazli resurslari hisoblanib, ular fikrni ta‘sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati sanaladi.

Dono fikrni, o‘tkir haqiqatni, teran mazmuni, so‘z xazinasining duru javohirlarini o‘zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv vositalari orasida ta‘sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o‘ylashga, mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir.

Maqollar haqida rus yozuvchisi L.N.Tolstoy: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman.” – deb yozadi. Darhaqiqat, dunyoda maqollar va hikmatlar durdonasini yaratmagan, ularni asrlar osha ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, sayqal berib, tili va dilida saqlab kelmagan biron xalq yo‘q.

Maqollar bu moziydan bizning zamonamizga asrlar osha, avlod va ajdodlar osha, el va elatlar osha yetib kelgan, chiqarilgan xulosalarning ixcham va ko‘rkam badiiy ifodasidir. Maqollarda ibratli fikr aytiladi, biroq har qanday fikr maqol bo‘lavermaydi, ibratli fikr maqolga aylanishi uchun uning muayyan shartlari mavjud. Ana shunday shartlardan birinchisi – maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribasida sinalgan bo‘lishligida. Bunday fikr esa kishini ishontira oladi. Ikkinchi sharti shuki, maqolda ifodalangan ibratli fikr alohida shaxslargagina emas, balki umumga yo‘naltirilganligida. Nihoyat, uchinchi sharti badiiy shaklga ega bo‘lishi bilan belgilanadi.

Turli xalqlar og‘zaki ijodida mazmun va shakl jihatdan bir-biriga yaqin, hamda hamohang maqollarni ko‘plab uchratamiz. Chunki turli xalqlar hayoti va tarixida o‘xshashlik va umumiyliklar mavjud. Yevropaning taniqli sharqshunos olimi professor G.Vamberi o‘tgan asrning ikkinchi yarmida o‘lkamizga safar

²⁰⁷ Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. Т.: Фан, 1971.

qilgan va safardan qaytgach “Maqollarni jonli tilda ham uchratish, yurt kazolarining saroyida ham, kochmanchining o‘tovida ham eshitish mumkin”, - deb e’tirof etgan.

Biz ushbu maqolamizda maqollar hamohangligini ingliz va o‘zbek tillarida qanday jaranglashiga e’tibor qaratdik.

Barcha xalqlar tilida shunday maqollar uchraydiki, ular nafaqat o‘sha tilda, balki, boshqa xalqlar tillarida ham o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga, masalan, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda ayrim o‘zgarishlar, ya’ni, so‘z orttirish, so‘z tushirib qoldirish, yoki xuddi iboralarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilida uchraydigan mos shakli yordamida tarjima qilinadi va ular ikkala tilda ham bir xil ma’noni ifodalaydi. Masalan, “Easy come, easy go” maqoli o‘zbek tiliga so‘zma so‘z tarjima qilinsa “oson keladi – oson ketadi”, lekin bu holda so‘z orttirish hodisasidan foydalangan holda “oson kelgan narsa oson ketar” tarzida tarjima qilinadi. “Health is above wealth” maqoli o‘zbek tiliga “Sog’liq - tuman boylik” tarzida tarjima qilinadi va bu holda so‘z tushirib qoldirish hodisasi uchraydi. Lekin, ingliz tilida shunday maqollar ham uchraydiki, ularning qilingan so‘zma-so‘z tarjimasi o‘zbek tilidagi variantiga deyarli mos keladi. Masalan, “First think, then speak” maqoli “Avval o‘yla, keyin so‘yla” tarzida, “Still waters run deep” maqoli esa “Chuqur daryo tinch oqar” tarzida tarjima qilinadi.

Quyida biz ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan maqollardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

Friend in need is a friend in deed.

Do‘st boshga kulfat tushganda sinaladi.

East or West home is best.

O‘z uyim, o‘lan to‘shagim.

A burnt child dreads the fire.

Sutdan og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichar.

Crows do not pick crow’s eyes out.

Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi.

As you sow, you shall mow.

Har kim ekkanin o‘rar.

Don’t count your chickens before they are hatched.

Jo‘jani kuzda sana.

“Maqollar ular anglatadigan tushunchalarga qarab joylashtirilsa, xalq ruhiyatining chinakam ocherki vujudga keladi”, deb yozgan edi taniqli rus tilshunosi V.I.Dal.

Maqollarni o‘rganish bizga nafaqat o‘zbek tilida, balki ingliz tilida badiiy asar o‘qish jarayonida yuzaga keladigan ba’zi tushunmovchiliklarni bartaraf

etishda qo‘l keladi, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrni kengroq va chuqurroq anglab yetishimizga yordam beradi. Shu sababli ularning roli kattadir. Zero, maqollar – hech bir podsho e‘lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan qomusdir.

Adabiyotlar:

1. Buranov J., Muminov A. A Practical course in English lexicology. Tashkent, 1990.
2. Dal V.I. “О русских пословицах.” Москва., 1847.
3. Kunin A.V. Фразеология современного английского языка. Москва, 1972.
4. Imomov K. va boshqalar. “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” T., 1990.
5. Vamberi G. “Очерки Средней Азии.” Москва., 1868.

SO`X TUMANI TOPONIMLARI

S.Usmonova, X.Mamasharipov (talaba) QDPI

Toponimika (yun. topos-joy va onyma - ism, nom) - onomastika joy nomlar (geografik atoqli nomlar)ni , ularning paydo bo‘lishi va yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o‘zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini , ularning tuzilishini, tarqalish huddulari hamda atalish sabablarini o‘rganuvchi bo‘lim²⁰⁸. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui – toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimlar ham til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so‘zlar singari til qonuniyatlariga bo‘ysunadi, lekin o‘zining paydo bo‘lishi va ba‘zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma‘naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo‘lib, ma‘lum darajada boshqa guruh so‘zlaridan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo‘lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko‘proq shakllangan bo‘ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg‘uloti, qazilma boyliklari, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Biz qo‘l urganimiz So‘x tumani toponimlari ham tahlilga arzirli mavzu hisoblanadi. So‘ tumani tarixi Fergantrop odami yashagan davr ya‘ni miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Albatta, bu hol toponimlarning ham uzoq tarixga ega ekanligiga guvohlik beradi.

Farg‘ona viloyatining so‘lim go‘shalaridan biri So‘x tumanidagi ayrim toponimlarning nomlanishiga asos bo‘lgan voqeliklarni tahlil etishga harakat qildik.

Xo‘sh, So‘xning ma‘nosi nima? **So‘x** - manbalarga ko‘ra so‘g‘diylar qabilasi nomidan kelib chiqqan. Xalq tomonidan, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ma‘lumotlarga ko‘ra so‘g‘diylar yashagan hudud yonib ketgan va

²⁰⁸ Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. Toshkent, 1994, 5-b.

“So`xt” nomini olgan bu so`z “kuygan” degan ma`noni anglatadi. Vaqtlar o`tib bu joylarda yana hayot qaynagan, odamlar uy-joy qilib yashay boshlaganlar va “Soxt” ya`ni “qo`rildi”, “tiklandi” ma`nosida qo`llana boshlangan. Ko`pgina toponimik obyektlarning nomlanishida kuzatilgani kabi “Soxt” so`zi fonetik o`zgarishga uchrab “So`x” holiga kelib qolgan.

Z.M.Bobur “Boburnoma” me`muarida So`x va Hushyor toponimlari haqida alohida to`xtalib o`tgan: “Isfara viloyati tog` etagidagi to`rt bo`lukdan iborat: biri Isfara, biri Vorux, yana biri So`x, yana biri Hushyor.

Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bilan Olachaxonga shikast berib, Toshkand va Shohruxiyani olgan paytda ushbu So`x bilan Hushyor tog` etaklariga kelib, bir yilga yaqin muddatni qiyinchilikda o`tkazib, qobulga tomon yo`lga tushdim”²⁰⁹.

Ko`rinadiki, mazkur toponimlar o`zining bir necha asrlik tarixiga ega ekanligi bilan diqqatga sazovordir.

So`x tumanidagi ayrim joy nomlarini quyidagicha tasnifladik:

1.Shaxs nomlari bilan bog`liq toponimlar - antropotoponimlar:

Demursad - ”Dehai Miri Asad” (deha - qishloq), Miri Asad, ya`ni - Amir Asad xonlik davridagi amir nomi bilan atalib ketgan joy nomi. Fonetik o`zgarishga uchrab Demursad shakliga kelib qolgan qishloq nomi.

Bobokalon - Bobokalon ismli qahramon nomi bilan atalgan qishloq nomi.

Hazrati Ali (ziyoratgoh) – ma`lumotlarga ko`ra xalifa Ali tashrif buyurgan joy ularning nomlarida ziyoratgoh bo`lib qolgan.

Malbut- Manbalarda aytilishicha, qishloq o`rnida katta shahar bo`lgan va u o`rta asrlardagi bir sulolaning hukmdori nomi bilan atalgan. Asrlar o`tishi bilan shahar buzilib ketgan va shu hozirgi qishloq **Malbut** nomi bilan saqlanib qolgan.

Bog`oshim- So`xdagi har xil turdagi mevalari bor bo`lgan juda katta bog`. Bu bog`ni Hoshimjon degan shaxs barpo qilgan va uning nomi bilan Bog`i Hoshim – Bog`oshim (Hoshimning bog`i) nomi bilan atalgan. Bu bog`ning tarixi 150- yilni o`z ichiga oladi.

2. Suvliklar nomi bilan bog`liq toponimlar – gidronim va gidrotoponimlar:

Chashma – So`x tumanidagi shifobaxsh buloqlardan biri. Shu joydagi qishloq nomi ham “Chashma” deb ataladi.

G`aznov - qishloq nomi, tarixiy manbalarga ko`ra bu yerlarda qachonlardir “G`aznai ob” (suv ombori) bo`lgan va bu yerda paydo bo`lgan qishloq shu nom bilan atalgan. G`aznai ob fonetik o`zgarish natijasida - G`aznov deb ataladi.

Yangiariq - So`xdagi katta qilshloqning nomi. Qishloq aholisi bundan 200-yillar avval tog`ni qazib 10km masofadan ariq olib kelishgan, shundan bu joy “Yangiariq” deb ataladi.

²⁰⁹ Z.M.Bobur. Boburnoma. “O`qituvchi” nashriyot- matbaa ijodiy uyi. –T, 2008. 30-b.

So`x daryo - So`x tumanidagi eng katta daryo bo`lib, xalqning nazarida har yili daryoga qurbonlik qilinmasa u qon talab etgan va har yili bir-ikki odam nom`alum sabablarga ko`ra daryoga tushib o`lgan, shu sababli xalq orasida bu daryo “Xunxo`r” (qonxo`r daryo) deb ataladi.

3. Yerning geografik relyefi va tabiiy hodisalar bilan bog`liq holda vujudga kelgan toponimlar:

Surati – So`x tumani **Tul** qishlog`idagi tog` nomi. “Boburnoma” da quyidagi ma`lumotlar keladi: “Isfaradan bir shar`iy masofada janub tomonida tepaliklar orasida bir yirik tosh bor, uni “Sangi oyina” (ko`zgu tosh) deydilar. Uzunligi tahminan o`n qari keladi, balandligi ba`zi yerlari odam bo`yi, ba`zi yeri pastligi kishi beligacha bo`lib, oynadek har nimaaks etadi”²¹⁰ aytilishicha, “Sangi oyina” orqali askarlar u oynada dushmanlarni ko`rgan va o`shanga qarab harb ishlarini amalga oshirishgan. O`sha paytdan beri u yer “**Surati**” (ya`ni ko`rinish, shakl) deb ataladi.

Selung`ur – So`x tumanidagi g`orlardan birining nomi, u yerdan «Neandertal» odam topilgan. Sel yo`li ya`ni sel o`ngirliklari bo`lgan, sel kelishi natijasida o`ngirliklar paydo bo`lgan va tog`da g`or vujudga kelgan bo`lib fonetik o`zgarishlar, yani o-u/ i-u unlilarining almashinishi natijasida **Selong`ir** – **Selung`ur** holiga kegan.

Qal`a –qishloqlardan birining nomi. “Qal`a” so`zi arabcha bo`lib, “dushman hujumiga qarshi mustahkam devor va handaq bilan o`ralgan, mudofaa vositalari, istehkomlar bilan ta`minlangan shahar” ma`nosini anglatadi. Darhaqiqat, rivoyatlarga ko`ra u yerda qadimgi shahar bo`lgan va Qal`adan turib shaharga qadam qo`yadigan dushman nazorat qilingan.

Devayron - So`xdagi katta qishloqlardan biri bo`lib juda ham so`lim maskan hisoblanadi. Qadimda qattiq yomg`ir yog`ib sel kelishi natijasida qishloq vayronaga aylangan va shundan keyin xalqning tilida “**Dehai vayron**” (buzilgan qishloq) nomi bilan atala boshlangan. Fonetik o`zgarishga uchrashi natijasida **Dehai vayron** - **Devayron** holidi qo`llanadi.

Oftobroy - yerlari hosildor bo`lgan qishloqning nomi. Oftob nuri bir xilda tushib yerlari hosildor bo`lgani sabab shunday nomlangan. Toponim ikki komponentning birikishidan hosil bo`lgan Oftob+ro` (kungay). “Tog`li joylarda bunday nom tez-tez uchraydi”²¹¹.

4. Tarixiy voqealar asosida paydo bo`lgan toponimlar:

²¹⁰ Z.M.Bobur. Boburnoma. “O`qituvchi” nashriyot- matbaa ijodiy uyi. –T, 2008. 30-b.

²¹¹ S.Qorayev. Geografik nomlarnomlar ma`nosini bilasizmi? “O`zbekiston” nashriyoti, T-1970. B-93

Qal'achi gado - Qal'a mahallasidagi maskanlardan biri. Rivoyatlarda aytilishicha, xonlik davrida jinoyatchilar jazolangan joy. O'sha vaqtlarda jinoyatchilar asosan gadolar, kambag'allar orasidan chiqqanligi tabiiy hol.

Yuqorida keltirilgan toponimlarning vujudga kelishida etnonimlar, ma'lum shaxslar, tarixiy voqealar, geografik sharoitlar, gidronimlar va boshqalar nomga asos bo'lganligining guvohi bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.M.Bobur. Boburnoma. "O'qituvchi" nashriyot- matbaa ijodiy uyi. –T, 2008.
2. S.Qorayev. Geografik nomlarnomlar ma'nosini bilasizmi? "O'zbekiston" nashriyoti, T-1970.
3. Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. Toshkent, 1994,
4. Rasulbeki Ahmadzod "Furug`i ma`ni". Farg'ona, 2011
5. Urinboy So`fiev "So`xnoma". Farg'ona, 2014
6. "Sadoi so`x" gazetasining 2016-yil sonlari.
7. Nafaqadagi katta o`qituvchi Muhammadsharif Bozorov yodnomalari.
8. Jum`ai Jamol. Jiloyi axtaponi So`x. Toshkent, 2002
9. Rasulbeki Ahmadzod. Nidoi qalb. Toshkent, 2017
10. O`TIL. I-II tomlari. Moskva nashriyoti, 1981.
- 11.

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ АЙРИМ ҚАРИНДОШЛИК АТАМАЛАРИНИНГ СИНХРОН –ТИПОЛОГИК ТАЛҚИНИ

**Каримова В.В., ҚДПИ ўқитувчи,
Валиева М.Х., талаба**

Тил луғат таркибининг маълум бир қатламини қариндошлик ва яқинлик маъноларини билдирувчи сўзлар (лексемалар) ташкил қилади. Бундай қатлам дунё тилларининг, шу жумладан, ўзбек тилининг ҳам, луғат таркибида мавжуд ва улар тизимининг мазмун плани айтарли ўзаро фарқ қилмайди. Чунки, масалан, "отанинг онаси" ёки "онанинг онаси" ва ш.к. тушунчалар дунёнинг барча этник гуруҳлари учун муштарак бўлиб, шу тушунчаларнинг ифода планига кўрагина улар (тиллар) ўзаро фарқ қилади.

Қариндошлик ва яқинлик маънолари тизимида кўпгина луғавий birlikлар грамматик қурилиши ва генетик келиб чиқиши ҳар хил тилларда номуштарак лисоний хусусиятларга эга бўлади (1). Грамматик қурилиши ва генетик келиб чиқиши ҳар хил икки тил деганда, биз ўзбек ва инглиз тилларини назарда тутмоқдамиз ва фикримизни шу икки тил мазмун сатҳида айна бир маънонинг ҳар хил номланиши ва бу номларнинг ўзаро фарқ қилувчи маъно қамровларини назарда тутмоқдамиз. Ўзбек ва инглиз тилларида муштарак тушунчага қарашли қариндошлик маънолари ҳам лексик ифодага кўра, ҳам уларнинг маъно қамровига кўра фарқ қилади.

Масалан, “фарзанднинг фарзандлари” тушунчасига қарашли “ўғилнинг фарзанди”, “қизнинг фарзанди” маънолари ўзбек тилида бир лексема *набира* лексемаси ёрдамида ифодаланади. Бундан ташқари, *набира* лексемаси “ўғил набира”га нисбатан ҳам, “қиз набира”га нисбатан ҳам фарқсиз ишлатилаверади. Ўзбекча “набира” лексемасининг инглиз тилидаги муқобили бундай эмас. Инглиз тилида айти шу тушунча, яъни “фарзанднинг фарзанди” шахсининг жинсига кўра фарқ қилади: фарзанднинг фарзанди ўғил бўлса, *grandson*, қиз бўлса, *granddaughter* атамалари билан номланади. Демак, маълум бўладикки, *набира* лексемасининг семантик қурилишида “жинсга кўра” фарқ нейтраллашган, бететафлашган бўлади.

Ўзбек ва инглиз тилларида “фарзанднинг фарзанди” тушунчаси ва бу тушунчага тегишли маъноларнинг супплетив “жуфт”ларида (2) ҳам юқоридагидек лисоний фарқлар мавжуд. “*Фарзанднинг фарзанди*” тушунчасининг супплетив жуфти “*ота-оналарнинг ота-онаси*» бўлиб, бу тушунча ўзбек тилида “*отанинг отаси*”, “*онанинг отаси*”; “*отанинг онаси*”, “*онанинг онаси*” сингари маъноларни ўз ичига олади. Бу маъноларнинг биринчи иккитаси ўзбек тилида *бобо*, кейинги иккитаси *буви* лексемалари билан ифодаланади. Инглиз тилида ҳам *отанинг отаси*, *онанинг отаси* маънолари ҳам, *отанинг онаси*, *онанинг онаси* маънолари ҳам, ўзбек тилидагидек, *grandfather* (“ота ва онанинг отаси”); *grandmother* (ота ва онанинг онаси”) терминлари билан аталади. “Ота ёки она отаси”нинг, “ота ёки она онаси”нинг кимга (отагами, онагами) қарашлилиги маъноси ҳар икки тилда сўз бирикмаси билан тасвирий тарзда ифодаланади: а) *бобо 1: “отанинг отаси”// “grandfather from father side*”; б) *бобо 2: онанинг отаси// grandfather from mother side*; в) *буви 1: “отанинг онаси”// “grandmother from father side*”; г) *буви 2: “онанинг онаси”// “grandmother from mother side*”. Мисоллар қиёсидан маълум бўлаётирки, ўзбек ва инглиз тилларида “ота-оналарнинг отаси”, “ота-оналарнинг онаси” маъноларининг ифодаланишида лисоний фарқ айтарли йўқ.

Ўзбек тилининг айрим шеваларида, инглиз тилидан фарқли равишда, “отанинг катта акаси”, “онанинг катта акаси” маъноларида ҳам *бобо* атамаси ишлатилади. Бунда ўзбек тилига хос *бобо* лексемасининг бундай маънолари “*ака укасининг фарзанди*”, “*ака синглисининг фарзанди*” маъноларида ишлатилувчи *ж и я н* лексемасининг мантиқий-лисоний тақозадоши ҳисобланади, яъни:

а) аканинг укаси фарзандлари отанинг акасини “бобо” дейишади;

б) аканинг синглиси фарзандлари онанинг акасини “бобо” дейишади. Лекин, афсуски, “бобо” сўзининг кейинги икки маъноси (“уканинг акаси”; “сингилнинг акаси”; аканинг ўз укасининг ва ўз сингилларининг фарзандларига нисбатан) “Ўзбек тилининг изоҳли луғат”ида ҳозирча қайд этилмаган. Ўзбек тилининг 1981 йили Москвада нашр этилган “Изоҳли луғати”да “бобо” ҳақида қуйидаги маълумот берилган”.

“Бобо отанинг ёки онанинг отаси. *Ёшим олтмиш тўртга етди. Ўғил, қизим бўлмади . Дарвоқе, Отабек менга ўғиллик қилмасми, хотини менга қиз бўлмасми, уларнинг болалари мени “бобо” деб кетимдан югурмасмикинлар? Қодирий , Ўтган кунлар*”).1;125 -б.

Энди эътиборингизни умумжинс маъносидаги қариндошликни билдирувчи лексемаларга қаратамиз. Бу :тизим ўзбек ва инглиз тилларида ҳар хил шакл ва муштарак маъноларда қўлланувчи қуйидаги лексемаларни ўз ичига олади:

1.“Набира” Бу семема ўзбек тилида қариндошликнинг тик чизиқли (вертикал) линиясига тегишли инвариант семантик birlikдир. унинг вариант маъноларига қуйидагилар киради:

а) *ўғилнинг ўғли ва қизи* (отанинг отаси ва онасига нисбатан);

б) *қизнинг ўғли ва қизи* (онанинг отаси ва онасига нисбатан). “Набира” семемаси инглиз тилида шахс жинсини фарқловчи икки лексема ёрдамида ифодаланади: а) *grandson*: “*ўғил ва қизнинг ўғли*” (*son of the son; son of the daughter*); б) *granddaughter*: “*ўғил ва қизнинг қизи*” (*daughter of the son; daughter of the daughter*).

2.“Жиян” семемаси қариндошликнинг ён чизиқ (горизонтал) линиясига хос инвариант лексик birlik саналади. Унинг семантик вариантларига қуйидагилар киради;

а) *аканинг ўғли ва қизи* (аканинг укаси ва синглисига нисбатан);

б) *уканинг ўғли ва қизи*(уканин акаси ва онасига нисбатан);

в) *опанинг ўғли ва қизи* (опанинг укаси ва синглисига нисбатан);

г) *сингилнинг ўғли ва қизи* (сингилнинг акаси ва онасига нисбатан)..

Инглиз тилида *жиян* сўзининг луғавий маъновий эквиваленти икки луғавий супплетив (*niece//nephew*)воситасида ифодаланади ва уларнинг ҳар бири, ўзбек тилида бўлганидек, жинсда фарқланувчи икки шахсни билдиради:

а) *nephew (son of my sister)*; б) *nephew κ(son of my brother)*;

а) *niece (daughter of my sister)*; б) *niece (daughter of my brother)*.

3.“Амакивачча” Бу семема ҳам қариндошликнинг ён чизик (горизонтал) линиясига қарашли инвариант семантик бирлик бўлиб, улар инглиз тилида *cousin* сўзи воситасида ифодаланади.

Ўзбек тилида *амакивачча* лексемасининг семантик вариантларига қуйидагилар мансубдир: :

а) *аканинг ўғли ва қизи*// (аканинг укаси ва синглисининг ўғли ва қизига нисбатан).

б) *уканинг ўғли ва қизи* (уканинг акаси ва опасининг ўғли ва қизига нисбатан). 4.“Холавачча”. Бу семема ҳам қариндошликнинг ён чизик (горизонтал) линиясига мансуб инвариант семантик бирлик характери ни касб этади. *Холавачча* лексемасининг конкрет семантик вариантлари қуйидагилардир:

а) *опанинг ўғли ва қизи* (опа синглисининг ўғли ва қизига нисбатан);

б) *сингилнинг ўғли ва қизи* (сингил опасининг ўғли ва қизига нисбатан).

5.“Аммавачча”. Бу семема ҳам, юқоридаги 2, 3, 4 семемаларидек, қариндошликнинг ён чизик (горизонтал) линиясига тегишли инвариант семантик бирлик. Қуйидаги маънолар унинг конкрет семантик вариантларидир:

а) *опанинг ўғли ва қизи* (опа акасининг ўғли ва қизига нисбатан);

б) *сингилнинг ўғли ва қизи* (сингил акасининг ўғли ва қизига нисбатан).

6.“Тоғавачча” Бу семема ҳам ўзбек тилида қариндошликнинг ён чизик линиясига мансуб инвариант семантик бирлик саналади. Унинг конкрет семантик вариантларига қуйидагилар киради:

а) *аканинг ўғли ва қизи* (аканинг опаси ўғли ва қизига нисбатан);

б) *уканинг ўғли ва қизи* (уканинг синглиси ўғли ва қизига нисбатан).

Шуниси характерлики, келтирилган вариант маъноларнинг ҳар бири яна бошқа ички маъноларга парчаланаяди. Масалан, “тоғавачча” семемасига қарашли “аканинг ўғли ва қизи” вариант маъноси: а) “аканинг ўғли”, б) “аканинг қизи” кабилардан иборат бўлиб, унинг биринчиси (а) “ука синглисининг ўғли”, “ука синглисининг қизи” сингари семантик бирликларга нисбатланади. Шу семемага қарашли “уканинг ўғли ва қизи” семантик варианты эса, “уканинг ўғли”, “уканинг қизи” каби маъноларни ўз ичига олади ва улар “аканинг ўғли” ва “аканинг қизи” сингари семантик бирликларга нисбатланади.

Юқорида кўрсатилган *амакивачча, аммавачча, тоғавачча, холавачча* семемаларининг инглиз тилидаги муқобили ягона *cousin* сўзи билан ифодаланади.

Умумжинс маъносидаги қариндошликни билдирувчи лексемалар тизимида *эвара, чевара, дувола, зувола* сингари атамалар ва уларнинг “набиранинг фарзанди”, “чеваранинг фарзанди”, “дуволанинг фарзанди”, “зуволанинг фарзанди” сингари маънолари ва уларнинг инглиз тилидаги луғавий муқобиллари ҳам мавжудки, булар бошқа алоҳида мақолалар мавзусидир.

А Д А Б И Ё Т Л А Р

1. Бердиалиев А. Синхронно-типологическое изучение лексического материала разноструктурных языков // Вестник педагогического университета. № 2 (51). Душанбе, 2013. –С. 227 – 230. (Соавтор: Х. Эгамназаров).

2. Бердиалиев А. Супплетивизм ва унга дахлдор баъзи тушунчалар ҳақида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. 8-китоб. Тошкент, 1996. Б. 3-14.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. Москва 1981, 125 -б.

ТОҲИР МАЛИК ҚИССАЛАРИДАГИ ЖАРГОНЛАРНИНГ ЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

М.Мамажонова, ҚДПИ,
А.Набижонова, талаба

Ўзбек тили ҳар томонлама серқирра тил саналади. Айниқса, ўзбек тилига давлат тили мақомининг берилиши ўзбек тилининг равақ топишида кенг имкониятлар эшигини очди.

Кейинги йилларда ўзбек тилшунослигида лингвопоэтик йўналишдаги тадқиқот ишларини олиб боришга эътибор ҳам янада кучайди.

Тоҳир Малик ўзбек адабиёти ривожига катта ҳисса қўшган ёзувчидир. Ёзувчининг асарларида ўзбек тилининг турфа оҳангларидаги жозибаси, таъсирчанлиги турли лингвистик воситалар ёрдамида ифода қилинади. Шу жумладан, адибнинг ўз асарларида ноадабий қатламни, айниқса, жаргон ва арголарни ўзига хос характерда қўллашига гувоҳ бўламиз. Ёзувчи жаргон ва арголардан усталик билан ўринли фойдаланганини эътироф этиш мумкин. Тоҳир Малик асарларининг бадиий қимматини маълум даражада ана шундай лингвистик воситаларнинг моҳирона қўлланиши ҳам белгилаб беради. Адиб асарларида халқнинг тарихи, табиати, урф-одатлари, миллатнинг бош белгиси саналмиш тилини китоблардан эмас, балки халқнинг ўзидан олган ва уни яна халқнинг ўзига ноёб санъат дурдонаси сифатида қайтарганини кўриш мумкин. Шунинг учун адибнинг “Шайтанат”, “Мурдалар гапирмайдилар”, “Девона”, “Энг кичик жиноят” ва бошқа кўплаб асарлари ўзбек тилининг бетакрор салоҳияти, туганмас ифода имкониятларини акс эттирган. Бу

асарларни мутолаа қилиш жараёнида маҳоратли адибнинг ўзбек халқ тили хазинасини нечоғли тугал эгаллаганлигига, бетақрор сўз ижодкори сифатида бу хазинадаги унсурларни ўз бадиий ниятига мувофиқ танлай билганига гувоҳ бўламиз.

Ёзувчи асарларининг бадиий ғоясидан келиб чиқиб ноадабий қатлам унсурларидан арго ва жаргонларга кенг муурожаат қилган. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида арго ва жаргонларга қуйидагича таъриф берилган: ”АРГО [фр. argot — жаргон] тли. Ясама тил. Бирор ижтимоий гуруҳ, тоифанинг (мас., талабалар, спортчилар, ўғрилар ва б.) ўзига хос, бошқалар тушунмайдиган луғавий бирликлардан иборат тили”²¹²; ”ЖАРГОН (фр. jargon — маълум бир гуруҳга оид сўз) Бирон ижтимоий ёки профессионал гуруҳга хос, фақат уларнинг ўзи тушунадиган ва адабий тилдан фарқ қиладиган сўз ва иборалар. Чунки комедиявий фильмда ҳар битта арзимаган гапда ҳам би-рон ишора, мажозий маъно, кесатиқ, шартли тил [жаргонга хос унсур, пичинг ва шу кабилар бўлиши мумкин. Ғ. Саломов, Таржима назариясига кириш”²¹³.

Бундай сўзлар маъно ва шакл жиҳатдан бир-бирига яқин сўзлар бўлсада, ижтимоий гуруҳланиш жиҳатидан бир-биридан фарқ қилади. Бу тур лексика истеъмол доираси чегараланган лексикага киради. Бадиий асарда улар ёрдамида кишиларнинг қайси ижтимоий гуруҳга мансуб эканлиги, қайси қатламдан келиб чиқиб фаолият олиб бораётганини кўриш мумкин. Бундай бирликларнинг яратилиш йўллари баъзан ўзбек тили сўз ясаиш системасига мувофиқ келмайди. Шу сабабли арго ва жаргонлар ўзига хос сунъий, шартли бирликлар саналади. Яъни адабий тилдаги сўзларни фонетик жиҳатдан ўзгартириш, бузиб қўллаш, бошқа тилга оид сўзларни ўзлаштириш ёки тилимизда мавжуд бўлган сўзларга ўзгача маъно бериш йўли билан ҳосил қилинади. Шунга кўра, арго ва жаргонларнинг қуйидаги ўзига хос хусусиятлари ажратилади:

1. Арго ва жаргонлар-- адабий тилда номи бўлган нарса ва ҳодисаларнинг бошқача, тор гуруҳда қўлланувчи атамаси.

2. Кўпчилик жаргонлар ўткинчи, вақтинчалик бўлиб, кейинчалик бутунлай истеъмолдан чиқиб кетади ёки ўзидаги стилистик бўёғи туфайли оддий сўзлашувга, ундан чегараланмаган лексикага ўтиб кетиши мумкин.

Тоҳир Маликнинг “Мурдалар гапирмайдилар” қиссасида қизиқишлари, одатлари ва қиладиган ишларига қараб бирлашган гуруҳлар--жиноятчилар

²¹²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд.-Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.

²¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд.-Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.

тилидаги арголар қўлланади. Адиб қиссада қўллаган арголар асарда акс этган давр, айрим кишилар қиёфасини яққол кўрсатиб берган. Асосан, ушбу қиссада икки тилдаги--ўзбек ва рус тилларидаги чегараланган қатлам унсурларидан кенг фойдаланилган. Рус тилига мансуб бўлган қуйидаги мисолларни келтириш мумкин: *Хасислик қилгансан. Пупкарларни вақтида мойлаш керак эди.* “Пупкаръ” сўзи жиноятчилар нутқида хос бўлиб, “қамокхона назоратчиси” маъносини ифодалаш учун ишлатилади. Бундай назоратчи ҳибсдагиларни тиббий кўрикка, шифокор ҳузурига, сайрга ёки бошқа зарурат учун кузатиб боради. Оддий аҳоли қатлами ўртасида бу сўз ишлатилмайди. Тоҳир Малик ҳам “пупкаръ” сўзини айнан шу маънода қўллаган. “Мойлаш”, “ёғлаш” сўзлари пул ёки қимматбаҳо нарсаларни пора сифатида ўз манфаати йўлида ишини битириш, мақсадларини амалга ошириш учун тақдим этиш маъносини англатади.

Козёл ҳам кўпроқ сенлардан чиқади. Рус тилидаги “козёл” сўзи жаргон сифатида турли маъноларда қўлланилади. Шулардан “маълумот ташувчи, сотқин” каби маънолар энг кўп тарқалгандир. Адиб томонидан қиссада “сотқин киши” маъноси назарда тутилган. *Бу ердагиларнинг ҳаммаси ўзини пассажир деб ҳисоблайди.* “Йўловчи” маъносини билдирувчи *пассажир* сўзини ёзувчи “тасодифан қамалган киши , муттаҳамлар қурбони” маъносида ишлатган.

Хуллас, Тоҳир Малик асарларида, шу жумладан, қиссаларидаги чегараланган қатламга оид бўлган birlikлар ўзига хос услубий вазифа ташишга хизмат қилади.

DIALEKTIZMLARINING NASRIY ASARLARDAGI O'RNI

(Tog'ay Murod asarlari misolida)

S.Usmonova, o'qituvchi,

S.Shamsiddinova(talaba) QDPI

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko'rinishidir. Shu jarayonda badiiy so'z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari kechadigan shevaga murojaat qilishlari e'tirof etilgan. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy asar tilining boy va jozibador bo'lishida dialektizmlarning o'rni va roli muhimdir. “Badiiy asar tilining ifodaliligi, qahramonlar nutqining

individuallashtirilganligi ko'p jihatdan o'rinli va me'yorida qo'llangan sheva unsurlariga bog'liq"²¹⁴.

Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki o'rinda foydalanadi, ya'ni dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida hamda adabiy tilda sinonimi bo'lmagan so'zlarni majburan qo'llaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahalliy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodalashda to'lig'icha sheva xususiyatlaridan foydalangan holda tasvirlaydi.

Dialektizmlar dastab adabiy tilga singib ketish jarayoni qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta'sirchan kuchi orqali bir asarda qo'llangan dialektizmlar keyingi asarlarga o'tadi va shu tariqa adabiy tilda o'zlashib ketishi mumkin. Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik, leksik xususiyatlarning aks etishi dialektizm deyiladi.

Dialektizmlarning fonetik, leksik va grammatik ko'rinishlari mavjud bo'lsa, Tog'ay Murod asarlarida ularning hammasidan ham keng va unumli foydalanilgan²¹⁵. Zero, yozuvchi asarlarining eng birinchi ko'zga tashlanadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir. "Dehqonqul nutqi Surxon vohasi lahjasi libosini kiyib, o'quvchi qulog'iga ajabtovur eshitiladi"²¹⁶.

Darhaqiqat, Tog'ay Murod asarlarida, asosan, Surxondaryo shevasiga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar obrazlilikni ta'minlab, jozibadorlik va uslubiy rang-baranglikni vujudga keltirgan. Ushbu maqolada adibning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asarida qo'llangan dialektizmlar haqida fikr yuritmoqchimiz.

Fonetik dialektizmlar²¹⁷

Ma'lumki, B.Fayzullayev fonetik dialektizmlar haqida "Fonetik dialektizmlarda emotsional bo'yoq kuchli bo'lmaydi. Ammo shunga qaramasdan shevadagi fonetik o'zgachalikdan badiiy matnda estetik maqsad bilan foydalaniladi, chunki bunday o'zgachalik, avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi, qolaversa, hududiy mansublikni ta'kidlaydi, qahramon nutqining individualligini ta'minlaydi"-deb to'g'ri ta'riflagan.

Fonetik dialektizmlarning hosil bo'lishi fonetik jarayonlar – tovush o'zgarishi, orttirilishi, tushishi, ikkilanishi hodisalari bilan yuzaga chiqadi.

I. Undosh tovushlarda quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi:

²¹⁴ Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –T.: Ma'naviyat, 2002. – b.29.

²¹⁵ Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari asosida): Filol. fanlari nomzodi... diss.. –T., 2007.

²¹⁶ Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi: Filol. fanlari d-ri... diss. Avtoref. – T., 2002.

²¹⁷ Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. "Sharq" nashriyoti. T:-2018. Izoh: barcha misollar ushbu asardan olindi.

1. Soʻz oʻrtasidagi *v* undoshi *b* ga almashadi:

Toʻntariqlik taboqlar ostini qaradi. (210-bet)

2. Soʻz oʻrtasida *p* va *r* tovushlari oʻrni almashinadi (metateza):

Oʻrogʻliq *suprani* yoyib qaradi. (210-bet)

Soʻz oʻrtasida *z* va *g* tovushlari oʻrni almashinadi (metateza):

Qayta quruvchilar boshidan magʻzava toʻkmagan qolmadi. (290-bet)

3. *p* va *m* tovushlari orqali soʻz maʼnolari kuchaytiriladi:

Binoni yigirma gektarigacha hovlisi biyday boʻ*m*-boʻsh boʻldi. (222-bet)

Qup-quruq dala boʻldi. Tep-tekis dala boʻldi. (222-bet)

Ufqlarga tutash choʻl. Sap-sariq choʻl boʻldi. (228-bet)

4. Soʻz oxirida *sh-b-m* ga almashadi:

Kelim-ketim koʻp boʻladi. (222-bet)

II. Unlilarda quyidagicha oʻzgarishlar kuzatiladi:

1. Soʻz oʻrtasida *u* unlisi *o* ga alshinuvi

Shukur, Firqa bova ,shukur! (225-bet)

Morfologik dialektizmlar

Togʻay Murod asarlarida shevaga xos morfologik xususiyatlar ham koʻplab uchraydi. “Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi” asarida uslubiy talab bilan kelishik, shaxs-son va hatto egalik qoʻshimchalarining oʻzgarishi yoki tashlab ketilishi holatlarini kuzatamiz. Ularni quyidagi misollar orqali yaqqol koʻrishimiz mumkin:

1. Kelishik qoʻshimchalarining tushirib qoldirilishi:

Ona yoʻlini soʻqmoqdan chap (ga) solmoqchi boʻldi. (207-bet)

2. Kelishik qoʻshimchasining egalik qoʻshimchasi oʻrnida maʼnoni kuchaytirish uchun qoʻllanilishi.

Qozon toʻla zigʻir moyda sob boʻldi. (253-bet)

3. -ydigan sifatdosh qoʻshimchasi oʻrnida -vchi affiksi qoʻllaniladi:

Eski nikoh xotin-qizlarni inson sanamovchi nikoh edi. (263-bet)

4.-adigan sifatdosh shakli oʻrnida -ajak affiksi qoʻllangan.

Oʻzbek xalqi televizor koʻrajak boʻldi. (223-bet)

5.-ydigan sifatdosh qoʻshimchasi oʻrnida -gich affiksi qoʻllangan.

Qoʻshchini Botir firqa demagichlar boʻldi. (207-bet)

6.-gan sifatdosh shakli qoʻshimchasi oʻrnida -mish affiksi qoʻllangan.

Hazil demishday miyiqalarida kuldi. (207-bet) xuddi shu oʻrinda miyiqalarida soʻzida qoʻllangan *-lar* koʻplik shakli hurmatni emas, kinoya, kesatq maʼnosida qoʻllangan. Maʼlumki, qipchoq lahjasida *-lar* faqat koʻplik maʼnosini bildiradi, hurmatni ifodalamaydi.

Leksik-dealektizmlar

Keng iste'moldagi faol so'zlarga nisbatan dealektizmlardagi "begonalik, yangilik" belgilari asarni yanada obrazlilikini taminlashga hizmat qiladi bularga:

Kalxoz idorasi qoshiga *oyoq ildi* (chiqdi). Idora tomiga serdimoq (bepisand) nazar soldi.(206-bet)

Botir qo'shchi gap yo'q so'z-yo'q narvondan tomladi (tomga chiqdi). (206-bet)

Qorovulni imladi, qorovul hadaha-hadaha (shoshilib) keldi. Narvon poyida hayrona-hayrona turdi.(206-bet)

Oyoqlarini yoydi. Tevarak - boshiga ser soldi (qaradi, nazar soldi):qayerda non bo'ladi! (210-bet)

Holilatib-holilatib (bo'shashib) oyoq ildi. Onaga qayrilmay gap ochdi. Yerdan ko'z olmay gap ochdi.(211-bet)

Deraza -darvozalar qadimgi Sharq me'morchilik sanatining noyob namunasi.

Mazkur ohanjoma (naqshli, naqshinkor) deraza-darvozalar archa daraxtidan edi. (219-bet)

Betingni murdasha'y ko'rgurlar - (ojikcha so'z, qarg'ish bo'lib kelgan, pokchi, mayitni yuvadigan kishi). (224-bet)

Ayollar qars-qars qarsak chaldi. Qiyqirib olqishladi. Qizlar erkaklab ketdi (erkakcha qiliqlar, harakatlar ma'nosida). (226-bet)

Men obkomga yaqinda keldim deya manqalandi (dimog'ida gapirdi). (227-bet)

Jiyaningiz qishloqdan zig'ir moy olib keldi. Shuni chuchityapman (qizitmoq,dog'lamoq). (252-bet)

Kampir gazni o'chirdi. Sovet ittifoqi gimnida sob (yo'q bo'ldi, tugadi) bo'ldi. Qozon to'la zig'ir moyida sob (yonib ketdi) bo'ldi. (253-bet)

Botir firqa kinoteatr sin-simbatiga (ko'rinishiga) nazar soldi. (261-bet) bu o'rinda sin-sinbati shaxsga nisbatan qo'llanuvchi leksema, lekin bu o'rinda binoga nisbatan qo'llangan.

Minbarga darozdan daroz (juda novcha) bir bola chiqib keldi. O'sha daroz shoir bo'ldi. (267-bet)

Tog'ay Murod dialektal frazeologizmlarni ham mahorat bilan qo'llagan.

"Tagi ko'rmaganga gilam bitmasin"(206-bet), "Otangni ko'rdim, ahmadi forig', enangni ko'rdim tavoni yorig'" (210-bet) - quruq maqtanchoq insonlarga nisbatan "O'zimga en bo'lolmayman, sizga qanday bo'y bo'laman"(219-bet)-nochorlik, chorasizlik,"G'animat g'arniki, g'ar qarisa-otin bo'lar", "Buzuqi qarisa ham g'amzasi qarimas" (290-bet) kabi.

Dialektal so'z va iboralarning badiiy adabiyot tiliga olib kirilishi yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Buyuk so'z sanatkori Tog'ay Murod o'z asarlarida dialektizmlarni ishlatish borasida alohida mahorat ko'rsatgan adiblardan sanaladi.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "ONA" KONSEPTI VERBOLIZATORINING TURLI TIL SATHLARI ORQALI IFODALANISHINING QIYOSIY TAHLILI

M.Q. Turdalieva, FarDUmagistrant

So'nggi yillarda zamonaviy tilshunos olimlar tomonidan tilga antroposentrizm nuqtai nazardan yondashuv asosiy o'rinni egallamoqda. Shu bilan birgalikda, tilshunoslikda yangi yo'nalishlar ham yuzaga keldi. Bularga lingvokognitologiya, lingvokulturologiyani misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu sohalarini konsept tushunchasiz tasavvur qilish mumkin emas. Zero, ularda til inson aqli va tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi va bu orqali ma'lum bir xalqqa o'ziga xos jihatlar ko'rsatib beriladi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi "ona" konsepti hamda uning qanday ifodalanishini misollar vositasida tahlil qilinadi. Ona konsepti universal tabiatga ega bo'lib, u dunyodagi barcha tillarda mavjud hamda turli tillarda bu konseptni ifodalovchi vositalar o'rtasida o'xshash va farq qiluvchi jihatlar uchraydi.

"Ona" konseptini qiyoslanayotgan tillarda turli xil til sathi birliklari orqali ifodalash mumkin. Bular so'z, fraza va gap bo'lishi mumkin.

1. "Ona" konseptining ot so'z turkumi bilan ifodalanishi quyidagicha:

Ona, volidai muhtarama, onaizor, onajon, onaxon, oyi, aya, ena, opa, onalik, onaboshi, onasizlik.

Ona so'zi o'zbek tilida ot so'z turkumiga xos bo'lib, tuzilishi jihatidan sodda tub otlar sirasiga kiradi. Ingliz tilida ham mother so'zi sodda otlar turkumiga kiradi. Quyidagi so'zlar mother konseptining ot so'z turkumidagi verbalizatorlari hisoblanadi: mother, female parent, mom, mum, mommy, mummy, motherlessness, motherhood, mother-to-be

2. Fe'l so'z turkumi bilan ifodalanishi.

O'zbek tilida: ona bo'lmoq, onalik qilmoq

Ingliz tilida: to be mother

3. Sifat so'z turkumi bilan ifodalanishi:

O'zbek tilida: onalarcha, onadek

Ingliz tilida: motherly, motherless

4. Frazalar orqali ifodalanishi.

O'zbek tilida: onasini ko'rsatmoq, onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq, ona suti og'ziga kelmoq, ona suti og'zida, onasining bolasi;

Ingliz tilida: a mama's boy, at one's mother's knee, be tied to mother's apron strings

5. Maqollar orqali ifoda etilishi.

O'zbek tilida: "Ona bilan bola-gul bilan lola", "Jannat onalar oyog'i ostida", "Onasini ko'rib qizini ol", "Bolali ona donga to'yimas, Bolali g'oz donga", "Bola loy bo'lsa, ona kulol", "Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada", "Ona allasi dunyoni tebratar".

Ingliz tilida: "A man loves his sweetheart the most, his wife the best, but his mother the longest", "Like mother, like daughter", "Heaven is at the feet of mothers", "A child may have too much of his mother's blessing" ("Erkak kishi sevgilisini eng ko'p, ayolini eng zo'r, ammo onasini eng uzoq sevadi", "Onasini ko'rib qizini ol", "Jannat onalar oyog'i ostida", "Farzand onaning eng ko'p baxtidir").

6. Matn bilan ifodalanishi.

O'zbek tilida: "Avval xesh, keyin darvesh", deydilar. "Onajon, yaxshi yotib turdingizmi, menga nima yumushingiz bor?" degan bir og'iz so'zingni savobi begonaga bir qop oltin hadya etishdan ko'ra kattaroqdir.

"Ayol kishiga, avvalo, Ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi".²¹⁸

"Yulduzlar to'la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorug' yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so'ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir".

"Har kim har kimning ko'ziga cho'p solishi mumkin, har kim har kimga xiyonat qilishi mumkin. Faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir"²¹⁹. Ingliz tilida:

"Maaaa!"

"She's outside. Don't worry, Charlie. This won't hurt a bit."

"Want Ma!" Charlie is confused at being restrained this way. He has no sense of what is being done to him, but there have been other doctors who were not so gentle after his parents left the room.²²⁰

"Mother didn't say anything about our money, and she won't wish us to give up everything. Let's each buy what we want, and have a little fun. I'm sure we work hard enough to earn it", cried Jo, examining the heels of her shoes in a gentlemanly manner.²²¹

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maqollardan ko'rinib turganidek, ikki xalqda ham onalar bir xilda ulug'lanar ekan va ularning hurmatlari yuksak ekan. Verbolizatorlarning so'z turkumlari orqali ifodalanishi ham ikki tilda deyarli katta farqqa ega emas ekan. Masalan, ikki tilda ham o'z fikriga ega bo'lmagan yoki

²¹⁸ O'. Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"

²¹⁹ O'. Hoshimov, "Dunyoning ishlari"

²²⁰ D. Keyes, "Flowers for Algernon"

²²¹ L.M. Elkott "Little women"

onasining yordamisiz biror ish qilolmaydigan o'g'il bolalarga nisbatan bir xil frazadan foydalanilishini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Mirzaev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov "O'zbek xalq maqollari", Toshkent: Sharq nashriyoti 2012.
2. O'. Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar", Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti 2016.
3. O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari", Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti 2015.
4. D. Keyes "Aljernon uchun gullar", First Harvest Press, 2004.
5. Luiza Mey Elkott "Kichkina xonimlar", Nyu York Press, 2000.

OBRAZ YARATISHDA PRAGMATIK OMILLAR

N.Rahimjonova, Qo'qon DPI magistr

"Pragmatika" (pragma – ish, harakat) aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u Sokratdan oldingi davrlarda ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J.Lokk E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida o'tgan asrning 60-70-yillarida shakllandi. Pragmalingvistikaning predmetini aniqlashga ilk bor ahd qilganlardan biri G. Klaus edi. U pragmatikani "belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi" fan sifatida ta'riflaydi.

Shunday qilib, pragmatikaning umumiy ta'rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib buning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'sir masalalari o'rganiladi.

Badiiy asarlardagi qahramonlarimizning xatti- harakati, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ma'naviy dunyosi, o'y- qarashlari til vositasida yetkazib beriladi.

Demak, lisoniy birliklar xoh tabiat manzarasi chizmasi bo'sin, xoh persanaj ta'rifi va tavsifi bo'lsin ularni obrazli tarzda yaratishda muhim ro'l o'ynaydi. Asar tilining badiiyligi, ishonarliligi, yozuvchining mahoratini aniqlashda ,albatta, lisoniy birliklarning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Badiiy asarlarda o'zakdosh so'zlarning qo'llanilishi tasvirdagi ekspressivlikni oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Mahoratli adib Cho'lpon asarlarida bunday misollarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, o'zbek tilida o'ranmoq, burkamoq, chulg'amoq, chirmamoq tarzidagi ma'nodosh so'zlar qatori mavjud bo'lib, burkamoq so'zida o'ramoq so'ziga nisbatan o'rash belgisi anchayin ortiq, ya'ni uning ma'no qurilishida" hech bir ochiq joyni qoldirmay" degan qo'shimcha ifoda semasi mavjud. Shuning uchun ham ushbu parchada Cho'lpon tegishli mazmun ifodasi uchun o'ramoq so'zini emas, balki ayni burkamoq so'zini tanlash orqali tasvirdagi aniqlik, va

ekspressivlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan: Hali tuzuk- quruq odam qatoriga kirib etmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkanganlar, paranjisining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo'ltig'ini to'lg'azardi. Shuning uchun ham mazkur o'rindagi birliklarni sinonimi bilan yoki boshqa biror so'z bilan almashtirib bo'lmaydi. Almashtirsa, asar badiiyatiga putur yetadi.

Yana bir taniqli so'z ustasi A. Qohorning bir hikoyasi "Anor" da mana bu misolga e'tibor beramiz: "- Yo qudratingdan, indamaydi- ya!- dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab – mana chaynab ko'r ! Ko'rgin, bo'lmasa innaykiyin degin...

Matnni tahlil qilishda aynan narsa so'zi emas, balki atayin mato so'zi qo'llangan. Narsa so'zi uslubiy jihatdan xolis, mato so'zi esa ayni ma'nosi bilan xolis emas, yani unda kamsitish bilan bog'liq ma'no qirrasini mavjud, bu ma'no qirrasini titkilab fe'l shakli bilan yana ham ta'kidlangan. Anorga boshqog'i bo'lgan va erining anor olib kelishini intiq kutib o'tirgan xotin nazarida, bu-ku arining uyasi- mumli asal ekan, toza asalning o'zi ham narsa emas faqat mato. Hikoyaning umumiy intonatsiyasi, voqea rivoji ayni o'rinda mato so'zini boshqa sinonimi bilan almashtirishga imkon bermaydi. Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilarki, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan: Kechagina qarg'ab, so'kib, "o'ldirsam!" deb yurgan kundoshini o'pib , quchoqlab, silab- siypab bir nafasda ikkalasi "qalin do'st" bo'lgan emishlar(Cho'lpon). Bu o'rinda ijodkorimiz sinonim bo'lmagan so'zlarni matnda ketma- ket qo'llab kontekstual sinonimlarni vujudga keltirgan va qahramonlarimizdagi xususiyatlarni bo'rtirganligini ko'rishimiz mumkin.

Biz bilamizki, badiiy asar voqealarini so'zlab beruvchi odam yozuvchining o'zi bo'ladi. Peysaj tasviri va qahramonlarning qiyofasi, fe'l – atvori, ularning ruhiy holati, ma'naviy takomili hamda ularning ongidagi ro'y bergan o'zgarishlar muallif ya'ni hikoyachi nutqida xolis bayon shaklida keltiriladi. Badiiy asar tilining qiziqarli, ta'sirchan bo'lishi til birliklarining tog'ri tanlanishi, matn mazmuniga mos kelishi muallif- hikoyachi nutqiga bog'liq.

Hikoyachi nutqida voqelikni tashqaridan kuzatish, tasvirlanayotgan voqea hodisalarga o'z munosabatini oshkora yoki yashirin tarzda bildirish sezilib turadi. Agar muallifning pragmatik maqsadi qahramonga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lsa, tasvirda unga nisbatan hikoyachi xayrixohligini sezish mumkin. Agar salbiy munosabatda bo'lsa, qahramonning ta'rif tasnifida qo'llangan salbiy lisoniy birliklar orqali ham sezishimiz mumkin.

Masalan:” Saratonning ikkinchi kuni... Marg’ilonning shimolida bo’lgan B... mahallasining kunchiqar tomonida janubga qarab burulg’on tor ko’chaning yuqori burchagida otining tizginini ushlagan holda bir yigit, kiyimiga o’lturgan chang-to’zonlarni qoqar edi. Yigitning uzoqqina yo’ldan kelganligi, uning kiprik va qoshlariga, ham endigina chiqa boshlag’an saqol- murtlariga o’lturgan to’zonlardan bilgulik edi. Yigirma ikki yoshli chamasida bo’lgan bu yigit sariq tanlik, ukkining ko’ziday chaqchayib, o’ynab yonib turgan qizil ko’zlik, yuziga parchinlangandek yuza (puchuq) burunlik, manglayi qancha tashqariga o’sib chiqqan bo’lsa, yuzi o’shancha ichkariga ketgan qisqasi vaqtsizroq yaratilib qolgan bir mahluq edi. (A. Qodiriy.)

Yana bir ijodkorimiz Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidagi Nizomjonning otasi Inoyat oqsaqol ham bunga yaqqol misol bo’la oladi. Ushbu oqsoqolimizning g’alati odatlari bo’ladi. U ko’pchilikka o’zini saxovatli, xayrli ishlarga ixlosmand qilib ko’rsatadi. U devonaga yo’liqib qolsa, to odamlar o’tib ketguncha kissasini kovlab devonani umidvor qilib turaveradi. Odamlar o’tib ketgandan keyin egnidan nosqovog’ini olib bir chekimni tilining tagiga tashlab ketaveradi. Uni bilmaganlar, Oqsoqol ko’p saxovatli- da deb o’ylashadi. Yoki kuniga yarab turgan eshagini ham yolchitib boqmasdi. Faqat kechqurun oldiga cho’p tashlaydi. Ko’p ovqatga o’rgansa, dangasa bo’lib ketadi derdi. Bozorga borganda oldiga beda tashlangan bironta eshakning qozig’iga bog’lab qo’yadi. Said Ahmad qishloq ahli nomidan unga Jinoyat oqsoqol deb nom qo’yadi. Bu esa personajimizning turgan bitgani gunoh: odamlarning ranjitishi, qilmishlarining hammasi g’irromlik, dil ozorligi, uni qanday insonligini ochib berishda, obrazli tarzda yaratishda misol bo’la oladi.

Demak, har qanday nutqning yozma shakli matn tushunchasini bildirar ekan, har qanday matnda lisoniy birliklarni muloqot jarayonida, badiiy asarda to’g’ri, o’rinli qo’llash va ushbu qo’llanilgan lisoniy birliklar muloqot ishtirokchilariga ta’sir etishi matnning pragmatik xususiyatlarini ko’rsatadi. Shu jihatdan matn tahlilida pragmatikaning o’rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shahriyor Safarov. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.
2. Marufjon Yo’ldoshev. Badiiy matn lingvopaetikasi. Toshkent, 2008.
3. Mamajonov A. Abdupattoyev M. Matn sintaksisi. Farg’ona, 2002.
4. S. Muhammedova, M. Saparniyozova. Matn lingvistikasi. Toshkent, 2011.
5. Muhabbat Qurbonova. Ma’rufjon Yo’ldoshev. Matn tilshunosligi. Toshkent 2014.

NUTQ MADANIYATI VA USLUBIYATIGA DOIR TERMINLARNING TUZILISHI

O. Abdunazarova, NamDU magistr

Terminlar ilmiy bilimlarni, ilmiy natijalarni qayd qilish va ularni sistemalashtirish bilan bir qatorda juda katta evristik vazifani ham bajaradi, ya'ni ular yangi bilimlarni ochishga ham ko'maklashadi [1,122].

Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanishi va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etgani, shuningdek, tartibga solingani bilan ham uzviy bog'liqdir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi [2, 84].

O'zbek tili nutq madaniyati va uslubiyati terminologiyasi ilmiy shakllanayotgan, muttasil boyib, takomillashib borayotgan terminologik sistemadir. Buni O'zbekistonda yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuqori madaniy nutq sohiblari qilib tarbiyalash, ona tilimizni jahon tillari qatoriga qo'shish uchun terminologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, qolaversa, nutq madaniyati va uslubiyati sohasining istiqboli bilan izohlashimiz mumkin.

O'zbek tili materiallari asosida to'plangan nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlarni tahlil qilganimizda, tuzilish jihatdan tub hamda yasama (sodda yasama, so'z birikmasi, murakkab birikma, juft) terminlar ucharashini kuzatishimiz mumkin.

Sodda terminlar genetik xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. O'zbek tilida awaldan mavjud bo'lgan nutq madaniyati va uslubiyatiga doir sodda terminlar (tub hamda maxsus nom sifatida yasalgan so'zlar).

2. Xalqaro tillardan kalkalash orqali bevosita o'zlashtirilgan sodda nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar (tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so'zlar).

O'zbek tilida awaldan mavjud bo'lgan nutq madaniyati va uslubiyatiga doir sodda terminlar o'zbek tilining faol iste'molda bo'lgan tub hamda ichki imkoniyatlari asosida hosil bo'lgan terminlardir.

Nutq. Tilning amaliyot shakli, voqelanishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa. Ifodalanishiga ko'ra nutq 2 turli bo'ladi: 1) og'zaki nutq; 2) yozma nutq.

Uslub. Til unsurlarining ma'lum vazifa bajarishiga bog'liq holda birlashadigan, til birliklarining o'zaro tanlanishi, birikishi va shu va boshqalar bilan ajralib turuvchi tizimlar.

Kiritmalar. So'zlovchining bayon qilinayotgan fikrga qo'shimcha izohi, to'ldiruvchi ma'lumotini ifodalaydi. Ular nutqning aniqligi va to'liqligini ta'minlaydigan muhim vositalar sifatida nutqning deyarli barcha uslublarida qo'llanadi. Ammo badiiy va publitsistik uslublarda qahramon xarakterini ochish, uning nutqini individuallashtirishdagi muayyan holatlarni izohlash, fikr ifodalashning o'ziga xos usuli kabi vazifalarni ham bajaradi.

Nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar ichki va tashqi manbalar hisobiga boyib bormoqda. O‘zbek tili termin yasashida, asosan, affiksatsiya, semantik va sintaktik usullar mahsuldor hisoblanadi. Nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar *-shunoslik* (uslubshunoslik), *-iy* (uslubiy), *-at* (uslubiyat), *-lik* (voizlik, notiqlik, suxandonlik), *-don* (suxandon) singari affikslar yordamida yasaladi.

Til taraqqiyotining zamonaviy bosqichidagi eng samarali so‘z va termin o‘zlashtirish usullaridan biri – kalkadir. U tilda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni tilda mavjud bo‘lgan birliklar vositasida ifodalash imkonini beradi [3,107]. To‘g‘ridan-to‘g‘ri termin o‘zlashtirishda o‘zlashtirilayotgan termin hech qanday o‘zgarishlarsiz yoki ayrim (juz‘iy) fonetik o‘zgarishlar bilan olinadi.

Nutq madaniyati va uslubiyati terminologiyasidagi quyidagi leksik birliklar ana shu tipga mansubdir.

Xalqaro tillardan kalkalash orqali bevosita (tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so‘zlar) o‘zlashtirilgan nutq uslublariga doir sodda terminlar.

Allegoriya (*yun.* allegoria – o‘zgacha ifodalash, boshqacha gapirish). Mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni aniq obraz orqali ifodalash.

Apakopa. So‘z oxirida tovush yoki tovushlarning tushib qolishi.

Intonatsiya. (*lot.* intonare – baland tovush bilan talaffuz etaman). Nutqning sintaktik ma‘nolarni va ekspressiv-emotsional bo‘yoqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomoni; ovozning baland-pastligi.

Har bir tilda terminlarning aniq va ixcham bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan birga terminlar tizimida milliylik va baynalmilallik bir-birini keskin rad etmagan uyg‘un holda mavjud bo‘lishi ham ijobiy hodisa sanaladi. O‘zbek tilidagi nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar tarkibi o‘rganilganda ularning asosiy qismi birikma shaklda ekanligi kuzatildi. Buning asosiy sababi sifatida quyidagi omillarni ko‘rsatish mumkin:

1. Nutq madaniyati va uslubiyatiga doir ko‘pgina terminlarning o‘zbek tilida muqobili bo‘lmagani uchun ularning tushunarligi va aniqligini ta‘minlash uchun ikki hamda undan ortiq leksik birliklardan foydalanishga bo‘lgan intilishdir.

2. G‘arbiy Yevropa tillaridan tayyor holda rus tiliga kirib kelgan va undan o‘zbek tiliga to‘liq yoki yarim kalkalash natijasida kirib kelgan terminlar.

To‘plangan materiallarning ko‘rsatishicha, nutq madaniyati va uslubiyatiga doir birikma terminlar tizimida ikki komponentli, uch komponentli, to‘rt va undan ortiq komponentli terminlar uchraydi. Ikki komponentdan tashkil topgan terminlar miqdor jihatdan ko‘pligi bilan ajralib turadi.

Nutq madaniyatiga doir ikki komponentli birikma terminlar. Bunday terminlar odatda **ot+ot**, **sifat+ot** shaklida bo‘ladi.

Nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uning bosh kommunikativ sifatati sanaladi. U tomonlarning: so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari u nutqning muayyan bir davr adabiy tili me'yorlariga qat'iy va to'liq mos kelishi, uning orfoepik, imloviy, lug'aviy va grammatik me'yorlarini mohirona egallashini ko'zda tutadi.

Nutqning aniqligi. Aniqlik ham nutqning asosiy aloqaviy sifatlaridan bo'lib, yaxshi nutqning shakllanish shartlaridan biridir. Agar to'g'ri nutqning yuzaga kelishida faqat lisoniy omil zaruriy belgi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiluvchi, tildan tashqarida bo'lgan holatlarni ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Bu eng avvalo, til va tafakkur dialektikasidir. Chunki, aniqlik deyilganda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan material o'rtasidagi mutanosiblik tushuniladi.

Nutqning mantiqiyligi. Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlaridan to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki Grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib boradi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga olib kelishi mumkin.

Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning asosiy sifatlaridan biri bo'lib, to'g'rilik va aniqlik ham mantiqiy va tozalik ham adresatga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan sifatlarda lisoniy omillar birinchi o'rinda tursa, ta'sirchanlik ular bilan birga keng doirada nolisoniy omillarni ham qamrab oladi.

Nutqning tozaligi. Nutqning adabiy til normasiga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Yaxshi, ideal nutq adabiy til talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, turli g'ayriadabiy til elementlaridan holi bo'lishi kerak.

Uch va undan ortiq komponentli birikma terminlar bir necha komponent hisobiga hosil bo'ladi. Misollarga murojaat etaylik.

1. Uch komponentli terminlar.

Adabiy normaning barqarorligi (stabilligi). Bu til birliklarining tez-tez, asossiz o'zgarib turishini istisno qiladigan, ularning umummajburiy xususiyatlarini ta'minlab turadigan, til an'alarining to'g'riligini isbotlaydigan, til jamoasi tomonidan tan olingan, ko'nikma hosil qilingan, ammo adabiy til rivojlanish jarayonida keskin darajada mutloq bo'lmay, balki nisbiy harakterga ega bo'lgan til hodisasidir.

Adabiy norma kodifikatsiyasi. Faqat adabiy tilga xos bo'lgan, namunaviy til birliklarining ma'lum tilda so'zlovchilar uchun umumqo'llanishi mumkinligini nufuzli lingvistik manbalarda (lug'atlarda, qo'llanmalarda, ma'lumotnomalarda)

qonunlashtirib berilishi.

Yaxshi nutq tushunchasi. Yaxshi nutq to'g'ri variantlar orasidan eng foydali, namunali, variantni tanlab olishni talab etadi. Yaxshi nutq sharoit taqozosiga ko'ra til vositalaridan maqsadga muvofiq va mohirona foydalana olishni nazarda tutadi. Yaxshi nutq to'g'rilik, tozalik va aniqlik, qisqalik, ifodalilik talablariga javob berishi kerak. Yaxshi nutq talablari nutqiy to'g'rilik bilan birgalikda nutq madaniyatining asosiy shartlarini yuzaga keltiradi.

Yuqori madaniy nutq. So'zlovchi yoki yozuvchi fikrlarining, sezgisi va hissiyotlarini eshituvchi yoki o'quvchiga to'la yetib borishi uchun tilning qudratli ifodaviy vositalaridan unumli foydalanilgan nutq.

2. To'rt va undan ortiq komponentli birikma terminlar.

Nutq madaniyati tushunchasining muhim tomonlari. Bular quyidagilar: a) tilni, ya'ni to'g'ri so'zlashni his qila olish; b) aniq, ravshan va ifodali nutq tuzishning mezon va usullarini egallash; d) egallagan lisoniy bilimlarni kundalik og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish; e) o'zgalarning (suhbatdoshning) nutqini nozik did bilan tushuna olish qobiliyatini shakllantirish.

Nutq madaniyatining kommunikativ aspekti. Bu tushuncha suhbat, ma'ruza rejasining tinglovchilarga mos kelishi tinglovchilarni o'z nutqiga jalb eta olishi, berilgan ma'lumotni mustahkamlay olishi, tinglovchilarni suhbatga tayyorlay olish, "so'zlovchi-tinglovchi" o'rtasidagi muloqotning doimiyligini ta'minlash va boshqalarni qamraydi.

Nutq madaniyatining psixologik aspekti. So'zlovchining nutq shakliga va mazmuniga e'tibor berishini, shuningdek, kishilarning psixologik xususiyatlari, ya'ni ularning kayfiyati, xotirasi, diqqati, qiziqishlari, idrok etishlari va mana shu xususiyatlarga mos ravishda muloqot qila olishi.

Ma'lumki, har bir til o'ziga xos grammatik qonuniyatlar asosida ish ko'radi. Nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar tuzilish material, ya'ni qanday so'zlardan tashkil topganiga qarab bir necha xil turlarga bo'linadi:

1. Ot+ot tipidagi terminlar. Bunday qoliqli terminlarning qismlari izofa tarzida birikadi: nutq madaniyati, nutq uslubi, nutq odobi, muloqot xulqi, va boshqalar.

2. Sifat+ot tipidagi terminlar:

a) nisbiy sifat+ot tipidagi terminlar: adabiy nutq, ilmiy nutq, ta'sirli nutq, uslubiy me'yor, nutqiy did va boshqalar.

b) asliy sifat+ot tipidagi terminlar: yaxshi nutq kabi.

3. Harakat nomi+ot tipidagi terminlar: so'zlashuv uslubi, so'zlashish madaniyati va boshqalar.

4. Sifatdosh+ot tipidagi terminlar: uslubiy xoslangan so'zlar.

Demak, nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar tuzilish jihatidan

sodda, birikma, murakkab birikma tarzida uchraydi. Birikma terminlarning ikki komponentli shakli miqdoran ko'pni tashkil etadi. O'zbek tili terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. - Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2017. - Б. 122.
2. Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 2002. - Б.84-85.
3. Ширинова Е. Ўзбек тили банк-молия терминологиясида калька // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017. - № 2. - Б. 107.

АНТРОПООЙКОНИМЛАР

**С.Усмонова, Кўқон ДПИ ўқитувчи,
Ё.Жўраева, Данғара т. 14-мактаб ўқитувчи,
М.Маҳмуджонова, (талаба)**

Кўқон шаҳри тарихий микропонимияси тизимида антропоойконимлар алоҳида ўринни эгаллайди. Бундай жой номларининг катта бир қисми Кўқон хонлиги даврида вужудга келган ва уларнинг баъзилари ҳозиргача сақланиб қолган²²². Давронбек, Рискулибек, Хожибек, Бойтакўприк, Уста Бозор, Бекбўтабек, Бобобек, Тўхлимерган деб аталувчи маҳалла, гузар, кўча номларини бунга мисол қилиб кўрсатиш мумкин.

Таъкидлаш лозимки, антропоойконимлар тадқиқида жойларга номларини қолдирган кишиларнинг шахсларини аниқлаш алоҳида аҳамият касб этади²²³. Дарҳақиқат, ўрганилаётган ҳудуд антропоойконимлари таркибига назар ташласак, уларнинг аксарияти Кўқон хонлиги даврида муҳим мавқега эга бўлган амалдорлар, давлат хизматчилари номлари билан аталганлигининг гувоҳи буламиз. Ҳамдам оталиқ, Шерали мингбоши, Ашурмирзо, Муҳаммад Раззоқ девонбеги, Ислом мирзо, Хожадодхоҳ, Оллоқули миршикор, Жаҳонгирмирзо кабилар шулар жумласидандир.

Мазкур топонимларнинг юзага келишида Кўқон хони Муҳаммад Алихонга мураббийлик қилган Ҳамдам оталиқ, Худоёрхон даврида отлик аскарларнинг қўмондони лавозимида ишлаган Шерали мингбоши, шаҳримиздаги машҳур Ғишткўприкни ўз маблағидан қурдирган Хожа додхоҳ Султон Саййидхон даврида мирзабоши сифатида фаолият кўрсатган Ашур Мирзо Шахидбек ўғли, Шералихон ҳукмдорлиги пайтида давлат девонини бошқарган Муҳаммад Раззоқ девонбеги кабиларнинг номлари асос бўлиб хизмат қилган²²⁴.

²²² Охунов Н. Фарғона водийси антропоойконимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997,2-сон, 26-бет.

²²³ Охунов Н. Кўрсатилган мақола, ўша бет.

¹¹ Дадабоев Я. Хўқанди латиф маҳалла ва кўчаларининг номланиш тарихи. "Фарғона" нашриёти, 2007,

Хон саройида мартабали лавозимларни эгаллаган шахслар исмлари билан юритилган антропоойконимларга яна Азимбой кушбеги, Сайд кушбеги, Ўтамбой кушбеги, Машариф оталиқ, Хўжамберди оталиқ, Норқўзи додхох, Хидирали додхох, Алимкул додхох, Каримкул зинбардор, Тош худайчи, Ўтаб баковул, Худойкул баҳодир, Худойназар амин, Маткарим қоровулбеги, Отабек ноиб деб аталувчи маҳалла, кўча номлари мисол бўла олади.

Кўкон шаҳри тарихий антропоойконимларининг бир гуруҳи дин арбоблари, тариқат илмининг билимдонлари номлари билан аталган. Халифа Сафо, Валихон тўра, Банди Эшон, Мулла Бошмон, Хўжа Подшо тўра, Катта Эшонхон тўра, Хўжакалон тўра, Мулла Худоёр, Мулла Мирзоҳид, Мулла Ашуроҳун, Мулла Исомиддин, Мулла Машариф, Мулла Жамолиддин, Мулла Бектўра, Хайдаркул сўфи, Чек Мулла Мадраҳим кабилар бунинг ёрқин далилидир. Ушбу микроойконимлардан Халифа Сафо маҳалласи бухоролик машҳур шайх Халифа Хусайн Бухорийнинг шогирди, ўз даврининг йирик диний арбобларидан, номдор эшонларидан ҳисобланган Хўжа Халифа Сафо номи билан юритилган. Халифа Сафонинг аҳолининг турли қатламларидан кўп сонли муридлари бўлган. Эзгу ишлари, халқпарварлиги билан дорулсалтанатда катта обрӯ-эътибор қозонган. Йирик амалдорлар, ҳатто бош вазир ҳам бу мўътабар зотнинг ҳурматини жойига қўйганлар, ҳовлисига тез-тез ташриф буюриб, у кишидан маслаҳат олиб турганлар.

Шаҳардаги Валихон тўра маҳалласининг шундай деб аталиши Валихон тўра Хожакалон номлари билан бевосита боғлиқдир. Валихон тўра тасаввуф илмининг билимдонларидан бўлганлар. Худоёрхон бу зоти киромни ўзларига пир деб билганлар, ҳокимиятни бошқаришда, шахсий ва оилавий ишларда у кишининг маслаҳатларига, йўл-йўриқларига таянганлар. Бу олийжаноб инсон истиқомат қилган маҳалла кейинчалик шу шахснинг муборак номлари билан юритилиб кетган.

Банди Эшон кўчаси Абдуллахон эшон бинни Убайдуллахон эшоннинг номларига алоқадордир. Бу зот нафаси ўтқир, илми ғайбдан хабардор бўлганлар. Бошига оғир иш тушганлар, иши юришмаганлар, йўли банд бўлиб қолганлар бу эшондан мадад излаб келганлар. Эшон одамлар йўлидаги бандни олиб ташлаганлар, яъни бандни кушод этганлар. Шу боис халқ у кишини Банди кушод эшон деб атаганлар. Бу ном вақтлар ўтиши билан талаффузда қисқаришга учраб Банди Эшон шаклига келиб қолган²²⁵

Кўкон шаҳри тарихий микропонимияси таркибида ўтмишда ўтган машҳур меъморлар, муҳандислар, тарихчилар, ҳаттотлар номлари асосида

8, 35, 59, 65, 73-бетлар.

²²⁵ Дадабоев Я. Кўрсатилган асар, 10-бет.

вужудга келган антропооиконимлар ҳам учрайди. Уста Бозор, Мирзо Ёдгор, Уста Камол, Ҳакимхон тўра, Мирзо Хайрулло сингарилар бунга ёркин мисолдир. Номларини жойларга қолдирган бу тарихий шахслар ҳақида шуни айтиш мумкинки, Уста Бозор Туркистоннинг энг кўзга кўринган меъмор-муҳандисларидан бири бўлган. Водийдаги кўпгина иншоотларни қуришда иштирок этган. Амир Умархон ўрдасини мустақил ўзи қурган. Меъмор Мирзо Ёдгор шахримиздаги “Мир” мадрасасини қурилишида қатнашган. Мингойим, Муҳаммад Алихон, Муҳаммад Аминхон мадрасаларининг бунёд этилишида фаолият кўрсатган. Уста Камол иморатларга нақш солиш иши билан шуғулланган. Худоёрхон ўрдасидаги наққошлик ишларига раҳбарлик қилган. Ҳакимхон тўра Исҳоқхон тўра ўғли тарихчи олим, жаҳон кезган сайёҳ бўлган. Муаррих Қўқон хонлиги тарихига бағишлаб “Мунтахабут-таворих” (“Танланган тарихлар”) китобини ёзган. Мирзо Хайрулло Қўқоннинг машҳур хаттотларидан ҳисобланган. Кўплаб асарлар унинг қалами билан кўчирилган²²⁶.

SINTAKTIK ZAMON KATEGORIYASI HAQIDA

Shermatova Gulnoza, ADU magistranti

Zamon ong kategoriyasi bo'lib, u til qurilishida ishtirok etadi va sistema hosil qiladi. Zamon o'zbek tilining barcha sathlarida o'z ifodasiga ega bo'lib, har bir sath va ularning birliklari payt ma'nosini o'ziga xos yo'sinda aks ettiradi.

Til sathlari birliklari, ularning kategoriyalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. “Morfologik shaxs kategoriyasi sintaktik persionallik kategoriyasini, morfologik zamon kategoriyasi sintaktik temporallik kategoriyasini, mayl kategoriyasini, sintaktik modallik kategoriyasini... moddiylashtirish uchun xizmat qiladi”.²²⁷

Ko'plab olib borilgan tadqiqotlarda tilda vaqtni ifodalovchi fonetik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik kabi ifoda tizimlariga ega bo'lgan ko'p bosqichli temporal maydonning mavjudligi ta'kidlangan. Yuqorida aytib o'tilgan sath birliklari vaqt nuqtai nazaridan bir mazmuniy maydonni yuzaga keltiradi. Ammo ular turli sathlarga tegishli bo'lgan birliklar sifatida differensial jihatlarga ega.

O'zbek tilida zamon semasi orqali birlashgan lug'aviy, grammatik, so'z yasovchi vositalar fe'llarning zamon kategoriyasi bilan birga yagona umumiy mazmuniy vazifa bajaruvchi tizim hosil qiladi. Bundan zamon ma'nosini grammatik kategoriyadan kengroq tushuncha sifatida o'rganish lozimligi

²²⁶ Дадабоев Я. Кўрсатилган асар, 20,35,36,143, 182-бетлар.

²²⁷ Nurmonov A., Shahobidinova Sh. Grammatik kategoriya muammosiga doir ayrim mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti 1998, 6-son 25-b.

anglashiladi. Demoqchimizki, tilda zamon kategoriyasi faqat fe'llar bilan bog'liq emas. Albatta, zamon semasi orqali birlashgan mazmuniy "maydon yadrosini grammatik zamon shakllari"²²⁸ tashkil etadi. Lekin o'sha yadro atrofida vaqt ifodalovchi vositalar ham borki, ular vaqt ma'nosining turli jihatlarini o'zida namoyon qiladi. Masalan:

- payt ma'nosini konkretlashtiradi: Albatta, iymon keltirganlar, yahudiy bo'lganlar, nasorolar va sobiiylardan qaysilari Allohga va qiyomat kuniga iymon keltirsa va yaxshi amallarni qilsa, o'shalarga Robbilari huzurida ajrlar bordir...(Tafsiri Hilol. 1-juz. Baqara surasi 62-oyat);

- noaniq payt ma'nosini ifodalaydi: Shayton ularni undan ozdirdi va bo'lgan narsalaridan chiqardi. Va Biz "Ba'zingiz ba'zingizga dushman bo'lib tushinglar, sizlarga yer yuzida qarorgoh va bir muddat huzur qilish bordir",- dedik. (Tafsiri Hilol. 1-juz. Baqara surasi 36-oyat);

-paytning doimiyliigi va davomiyliigini ifodalaydi: Sabr va namoz ila yordam so'rang... (Tafsiri Hilol. 1-juz. Baqara surasi 45-oyat);

-vaqtning o'tkinchiligi, qaytmasligini ifodalaydi: U (Fir'avn): "Biz seni go'dakligingdan o'z ichimizda tarbiya qilmadikmi?! Umringning bir necha yilini bizning ichimizda o'tkazmadingmi?!"... (Tafsiri Hilol. 4-juz. Shuaro surasi 18-oyat) E'tibor beradigan bo'lsak, birinchi misoldagi gapning kesimi –sa shart mayli

formasi bilan ifodalangan. Bu formaning kelasi zamon ma'nosiga ham egaligi ma'lum. Qiyomat kuni birikmasining kelasi zamoni ifodalashi ham kunday ravshan. Lekin morfologik shakl bilan ifodalanayotgan ma'no umumiy bo'lsa, sintaktik birlik orqali ifodalanayotgan ma'no aniq, ya'ni Allohga iymon keltirganlarga aynan qiyomat kunida ajrlar borligi ta'kidlangan. Ikkinchi gapning kesimi bordir ot kesim hisoblanadi. Bizga ma'lumki, kesimlik shakli –dir umumzamon ma'nosini, yana ham aniqrog'i hozirgi zamon ma'nosini ifodalaydi.

Lekin ushbu gap mazmunan olganda hozirgi zamoni ifodalamaydi. Sababi Qur'oni Karimning qachon nozil bo'lgani, bu oyatning insonlarga qachon buyurilgani, "bir muddat" qachongacha davom etishining noaniqligini hisobga olsak, gapning mazmunan hozirgi zamon emas, balki noaniq zamon ifodalayotganining guvohi bo'lamiz.

Uchinchi misolimizning kesimi buyruq-istak maylidagi fe'l bilan ifodalangan. Ma'lumki, buyruq-istak mayli mazmun jihatdan kelasi zamon ma'nosini ifodalaydi. Lekin payt ma'nosiga ega bo'lgan sabr so'zi misolda ishtirok qilganki, morfologik shakl bilan kelasi zamon ifodalansa ham, gapda mazmunan davomiy, doimiy zamon ma'nosi bo'rtib turibdi. Chunki sabr insonga umri boyi Alloh bergan ne'matlarga shukr keltirish, sinov va qiyinchiliklarga bardosh berish,

²²⁸ Hakimova M. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari: Fil. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Farg'ona, 2004. 23-bet.

komillikka erishish uchun berilgan imtihon vaqtidir. Bundan tashqari, bu vaqt bir inson yoki bir avlod uchun berilgan emas, balki butun insoniyat uchun, qolaversa, yer yuzida qancha hayot bo'lsa, shuncha davom etuvchi paytdir.

To'rtinchi misoldagi gapning kesimi aniq o'tgan zamoni ifodalovchi –di formasi bilan shakllangan. Bu qo'shimcha gapda vaqt munosabati bilan, haqiqatan, o'tgan zamoni beradi. Biroq gapda go'daklik, umr, bir necha yil kabi temporal birliklar ham ishtirok etganki, vaqtning o'tkinchiligi, qaytarilmasligi kabi ma'nolar ular orqali yuzaga chiqqan. Buni shu so'zlarning izohlarini keltirish bilan dalillash mumkin. Umr so'ziga O'zbek tilining izohli lug'atida “yashash, yashash muddati; tug'ilgandan to o'lguncha bo'lgan davr, shu muddat davomidagi hayot “ deya ta'rif berilgan. Bu so'z ko'pincha o'tkinchi sifati bilan qo'llanadi, qolaversa, tug'ilish va o'lim orasidagi muddat degan ta'rifning o'ziyoq uning o'tkinchilik xususiyatini aks ettiradi.

“Go'daklik- go'dak yoshi, chaqaloqlik, juda yoshlik payti”²²⁹ bo'lib, inson umrining eng oz davom etuvchi davridir. Ko'pincha bir yoshgacha bo'lgan bolalar chaqaloq deyiladi.

Yil Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddati; o'n ikki kalendar oyiga teng vaqt. Mantiqan olsak, go'daklik va yil sozlarida o'tkinchilik, vaqtning qanchalik qisqa ekani yaqqolroq ko'rinadi.

Demak, morfologik zamon bir xil, ya'ni kelasi, hozirgi yoki o'tgan zamon bilan ifodalansa ham (misol tariqasida yuqoridagi birinchi va uchinchi gaplarni olsak, aynan bir xil shakl bo'lmasa ham, bir xil kelasi zamoni beruvchi shart va buyruq-istak mayli bilan ifodalangan gaplarning birida konkret vaqt, ikkinchisida esa davomiylik, doimiylik ma'nolari aks etgan), vaqtning turli jihatlarini sintaktik zamon orqali ifodalash mumkin. Bu sintaktik zamon kategoriyasining morfologik zamon kategoriyasiga qaraganda kengroq tushuncha ekanini ko'rsatadi. Ya'ni sintaktik zamon Sundayki, gapda ishtirok etayotgan so'zlar bir-biri bilan sintaktik munosabatga kirishib (albatta, so'z birikmasi, gap kabi til birliklarini hosil qilib), tushuncha, fikr ifodalashi, so'zlar bir-birining ma'nosini yana ham konkretlashtirishi orqali yuzaga chiqayotgan zamondir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimova M. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari: Fil. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Farg'ona. 2004.
2. Nurmonov A., Shahobitdinova Sh. Grammatik kategoriya muammosiga doir ayrim mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti 1998, 6-son.
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-juz, 2-juz. “Sharq”. Toshkent. 2008.

²²⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom. Toshkent. 2006-yil

4. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006-2008.

ТИЛДА ЎХШАШЛИК ВА СИНОНИМИЯ

И.Хурсаналиева, Кўкон ДПИ магистр

Ҳозирги замон назарий тилшунослигининг асосчиларидан бири Фердинанд де Соссюр ўз даврида тил ўхшашлик ва фарқлилик атрофида айланади деган эди. Бу қарашдан тил механизми (тузилиши, тизими) учун ўхшашлик ҳодисасининг бирламчи, фундаментал аҳамиятга эга эканлиги маълум.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида²³⁰ ўхшашлик ўзининг асоси бўлган *ўхша* лексемасининг маъноси “хусусият, хислат, тузилиш ва бошқа белгиси билан бир хилликка эга бўлган” деб аниқланади. Шунингдек, *ўхшаиш* сўзининг маъноси “ўзаро бир хил, бир-бирига ўхшайдиган”, *ўхшашлик* сўзининг семантикаси эса “ўхшаш белгига эга бўлганлик” деб таърифланади. А.Ҳожиёв ўзининг синоним сўзлар луғатида²³¹ *ўхшаиш* сўзи маъносини “кўриниши, тузилиши жиҳатидан бир хил” деб изоҳлайди. Ш. Раҳматуллаев, Н. Маматов, Р. Шукуровларнинг антоним сўзлар изоҳли луғатида²³² ўхшашлик сўзига шундай тавсиф берилади: “Ўхшашлик ўзаро бир хил, умумий белги-хусусият”. Ўз навбатида, *ўхшашлик* сўзининг асоси бўлган *умумий* сўзи шундай таърифланади: “Ҳамма учун бирдек хос, барчага тегишли”.

Кўп ҳолатларда ўхшашлик сўзига *айнанлик* (айният) сўзи синоним бўлиб келади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида²³³ *айнан* сўзининг маъноси “қандай бўлса шундай; ҳеч қандай ўзгаришсиз” деб кўрсатилади. А.Ҳожиёвнинг синоним сўзлар луғатида²³⁴ “жуда аниқ даражада” деб изоҳланади. Фалсафий энциклопедик луғатда²³⁵ “Предметларнинг юқори даражада тенг келиши, индивидуал хусусиятларнинг мос келиши” деб изоҳланади. Мантиқий луғатда²³⁶ *айнанлик* тушунчасига “предметнинг ўзи билан ўзининг тенглиги, предмет ёки ҳодисанинг бутун фаолияти, ҳаракати давомида ўзининг барқарор, турғун хусусиятларини сақлаши” деб

²³⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. – Тошкент, 2006, - Б. 185

²³¹ А.Ҳожиёв “Ўзбек тили синоним сўзларининг изоҳли луғати” Университетлар ва педагогика институтларининг талабалари учун қўлланма. – Тошкент, 1974. – Б. 248

²³² Ш.Раҳматуллоев, Н.Маматов, Р.Шукуров. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1980. – Б. 231

²³³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. – Тошкент, 2006, - Б. 243.

²³⁴ А.Ҳожиёв “Ўзбек тили синоним сўзларининг изоҳли луғати” Университетлар ва педагогика институтларининг талабалари учун қўлланма. – Тошкент, 1974. – Б.248

²³⁵ Философский словарь. – Москва, 1983. – С. 687

²³⁶ Н.И.Кондаков. Логический словарь. – Москва, 1975. – С. 600)

изоҳланади. Рус тилининг изоҳли луғатида²³⁷ *айнанлик* сўзининг семантикаси “тўлиқ ўхшашлик, мос келиш” деб тушунтирилади.

Юқоридаги маълумотлардан маълум бўладики, ўхшашлик ва айнанлик (айният) икки ва ундан ортиқ сўзларнинг боғланишида, муносабатида намоён бўлади. Ўхшашлик муносабатда мавжуд бўлган, муносабатда олиб ўрганилувчи ҳодисадир.

Ўзаро боғлиқликда, муносабатда бўлган бир нарсадан муайян белги бошқа нарсада ҳам бўлса, бу нарсалар ўхшаш ва улардаги бир хил (умумий) белгилар ўхшашлик белгиларидир. Ўхшашлик муносабатида икки ва ундан ортиқ нарса (ҳодиса)лар иштирок этиши мумкин. Ўхшашлик белгилари миқдор жиҳатдан ҳар хил бўлиши мумкин. Кўпинча ўхшаш белгилари миқдори ёки жиҳатига қараб “сал ўхшаш”, “ўхшаганроқ”, “жуда ўхшаш”, “қуйиб қўйгандек”, “бир сувнинг икки томчисидек” ифодалари қўлланади. Одатда ўхшашликнинг энг юқори даражаси қолган ўхшашликлардан фарқланади ва у *айнанлик* деб номланади. Айнанлик тушунчаси, юқори луғатларда кўрсатилганидек, нарсанинг ўзига ўзи тенглиги ва нарсанинг бошқа нарсага юқори даражада тенглиги, мослигини ифодалайди. Аслида, нарса (ҳодиса) ўзига ва бошқа нарсага мутлақ (абсолют), ҳар жиҳатдан тенг бўла олмайди. Чунки у диалектик таълимотда айтилганидек, тинимсиз ўзгаришда бўлади. Лекин бизнинг имконияти чегараланган сезги абзоларимиз бу энг кичик (ультра) ўзгаришлар ва бу асосдаги нарсалар нотенглигини била олмайди ҳамда ўз имконияти даражасидаги тенгликни, айнанликни қайд этади. Ўхшашлик муносабати объектив борлиқ, жамият, тафаккур, психика нарса ва ҳодисаларида ўзига хос тарзларда воқеланади. Шунини ҳам эътироф этишимиз мумкинки, ўхшашлик ўз зидди бўлган зидлик (зиддият) асосида мавжуд бўлади. Қиёсланаётган ҳар бир нарса ўзида айнанлик – ўхшашлик – фарқлилик тузилмасига эга. Демак, икки нарса қиёсида унинг айнанлик / фарқлилик структуралари иштирок этади. Агар бу структуралар қиёсида “фарқлилик” компоненти етакчи бўлса антонимия, айнан (ўхшаш)лик устун бўлса синонимия ҳосил бўлади. Масалан, *юз-афт* синонимиясида бу сўзлар таркибидаги денотатив маънолар (одам бошининг олд қисми) асосий (етакчи). Шунинг учун бу муносабатда синонимия мавжуд. *Бой-камбағал* сўзлари муносабатида эса бу сўзлар таркибидаги “оз”, “кўп” семалари ҳал қилувчи ўринда бўлиб, уларнинг фарқлилиги (зидлиги) антонимияни ҳосил қилади: “мол-мулки меъёридан кўп” (бой) – “мол-мулки меъёридан оз” (камбағал). Шундай қилиб лексик-семантик ҳодисалар бўлган антонимия ва синонимиянинг моҳияти ўзаро боғлиқ бўлган фарқлилик ва

²³⁷ С.И.Ожегов. Толковый словарь русского языка. – Москва, 2008. – С. 800

ўхшаш (айнан)ликнинг турли миқдорий ҳолатлари, даражалари билан боғлиқ.

Тилшуносликда лексик синонимия муаммоси сўзларнинг маънодошлигини белгилаш, маъноларнинг тенглиги, доминантини аниқлаш, қўшимча (коннотатив) маънолар, синоним сўзларнинг бир-бирини алмаштириш имконияти, узуал ва окказионал синонимлар, сўзларнинг тузилиш хусусиятлари, услубий белгилари, синонимик қатор таркиб топиши²³⁸. Шунингдек, лексик синонимларнинг идеографик (семантик), услубий (стилистик), эмоционал-экспрессив (баҳоловчи) узви таъкидланган нофаол турларидир. Биз ушбу синоним сўзлар турларига, уларнинг айнанлик, ўхшашлиги нуқтаи назаридан кўришга ҳаракат қиламиз.

Синоним сўзларнинг семантик жиҳатдан айнан тенглиги абсолют синонимларда кузатилади. Бундай синонимлар дублетлар дейилади. Уларда асос (идеографик, денотатив, номинатив) семалар бир-бирига тўлиқ мос келади. Булар, асосан, терминлардир (метод-усул, тилшунослик-лингвистика каби). Буларни дублет сўзлар деб алоҳида гуруҳга ажратиш учун асос йўқ. Улар синонимия - “маъноси бир, шакли ҳар хил” мезонига тўлиқ жавоб беради. Услубий синонимларда идеографик (денотатив) маъно айнан мос келади, фарқ лексик маънога илова қилинган қўшимча услубий бўёқдадир (бор-мавжуд каби). Баҳоловчи ёки эмоционал-экспрессив синонимларда идеографик маъно айнан бир хил, фарқ коннотатив маънода (юз-афт). Нофаол синонимларда идеографик маъно айнан, тўлиқ тенгдир. Фарқ уларнинг истеъмол даражасида (туман-район). Демак, юқоридаги ҳолатларда синонимия юқори даражадаги ўхшашлик ёки айнанлик асосида шаклланади. Идеографик ёки семантик синонимларда маънодошлик ўхшашлик ёки муайян даражада мавжуд бўлган фарқлиқнинг айнанлик билан ҳамкорлик қилиши асосида ҳосил бўлади (ботир-жасур).

Хуллас, синонимик қатор (уянинг) шаклланишида мутлақ тенглик (айнанлик), қисман тенглик (ўхшашлик) ва лексик маънога қўшилаётган коннотатив семантик элементлар каби омил, воситалар муҳим аҳамиятга эга.

ТИЛДА ФАРҚЛИЛИК ВА АНТОНИМИЯ

Г.Мухаммадмусаева, Қўқон ДПИ магистр

Тилнинг шартли белгилиги ва махсус тизим (система) эканлигини ўрганишга катта эътибор берган назарийчи олим Фердинанд де Соссюр

²³⁸ Очерки по синонимике современного литературного языка. – Сборник статей. Под ред. А.П.Евгеньевой. – Москва-Ленинград, 1966; В.А.Гречко. Лексическая синонимика современного литературного языка. – Саратов 1987; А.А.Брагина. Синонимы в литературном языке. – Москва, 1986

лисондаги фарқлилик ҳодисасига тил қурилишининг муҳим омили (воситаси) сифатида қараган эди. Унинг тил ўхшашликлар ва фарқликлар атрофида айланади, тилда фарқликлар муҳимдир деган фикрлари тилшуносларга маълум. Шу муносабат билан фарқлиликнинг нима эканлиги, моҳияти, ўхшашлик билан алоқаси, фарқлиликнинг зиддиятга ва у орқали антонимия ҳодисасига муносабати каби масалалар тилшунослик назарияси учун муҳимдир.

Табиат, жамият ва тафаккурнинг умумий қонуниятларини ўрганувчи фалсафада фарқлиликнинг муҳим белгилари сифатида қуйидагилар келтирилади: 1)бир нарсада мавжуд бўлган хусусиятнинг бошқа нарсада бўлмаслиги фарқлиликлар; 2)фарқлиликнинг ҳар қандай нарса, ҳодиса, муносабатга хослиги; 3)фарқлиликнинг ажратувчанлик вазифасига эгалиги; 4)нарсанинг моҳияти унинг фарқлилигида эканлиги; 5)фарқлиликнинг икки нарса орасида ҳам, бир нарсанинг томонлари орасида ҳам мавжудлиги; 6)фарқлиликнинг айнанлик доирасида юз берувчи нозик ўзгаришлар асосида шаклланиши; 7)фарқлиликнинг даража кўламига эгалиги; 8)фарқлиликнинг кучли-кучсиз ҳолатларда, даражаларда, босқичларда бўлиши мумкинлиги; 9)фарқлиликнинг муҳим ва номуҳим турлари мавжудлиги; 10)фарқлиликнинг қарама-қаршилик асосини ташкил этиши; 11)фарқлиликнинг айнанлик, ўхшашлик билан узвий боғлиқлиги; 12)айнанлик таркибида куртак, нозик шаклдаги фарқлилик бўлиши; 13)фарқлиликнинг зиддиятнинг кучсиз шакли эканлиги; 14)фарқлиликнинг айнанлик ва зиддият орасидаги оралик учинчи эканлиги ва ҳоказо²³⁹. Албатта, фалсафий адабиётларда келтирилган фарқлиликнинг бу белгилари объектив ва субъектив оламдаги барча нарса, ҳодиса, муносабатларга алоқадордир. Бизни бу ўринда тил (нутқ)қа хос бўлган фарқликлар қизиқтиради.

Ш. Раҳматуллаев, Н.Маматов, Р.Шукуровлар фарқ (фарқлилик) тушунчасини “ўзаро ўхшамайдиган, бирида бор-у, бошқасида йўқ белги-хусусият” деб изоҳлайдилар²⁴⁰. А.Ҳожиев ҳам фарқлилик тушунчасини сўзлар мисолида “ўзаро ўхшамайдиган, бир-бирида топилмайдиган белги-хусусият, томон”²⁴¹ тарзида аниқлайди.

²³⁹ Философский энциклопедический словарь. – Москва, 1983. – с. 564; Шептулин А.П. Категории диалектики. Учебник. – Москва, 1971; Туленов Ж. Борлик фалсафаси. Бакалавриат йўналиши учун маърузалар матни. Учинчи бўлим. Низомий номидаги тошкент давлат университети. – тошкент, 2001; Фалсафа. Аҳмедова таҳрири остида. Дарслик. – Тошкент, 2006; Уемов А.И. Вещи, свойства и отношения. – Москва, 1963; Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. Гносеологические аспекты. – Москва, 1977.

²⁴⁰ Ш.Раҳматуллаев, Н.Маматов, Р.Шукуров. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Университетлар ва педагогика институтлари студентлари учун қўлланма. – Тошкент, 1980.

²⁴¹ А.Ҳожиев. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Университетлар ва педагогика институтлари учун қўлланма. – Тошкент, 1974.

Фарқлилик умумийлик, икки ёки кўп нарсанинг ўзаро ўхшашлигига, уларнинг муайян (бир хил) белги-хусусиятга эгаллигига асосланади. Масалан, *новча* ва *пакана* сўзлари орасидаги фарқ (фарқлилик) бўй ўлчами билан боғлиқ, яъни *новча* ва *пакана* сўзлари ўз семантикасида *бўй* семасига эга. Ушбу сўзлар бўй белгисидаги фарқ бўйича ўзаро фарқланади: бўйи меъёрдан ортиқ – *новча*, бўйи меъёрдан кам – *пакана*. Шу асосда уларнинг фарқли семик структураси аниқланади: *новча*: ‘бўй’, ‘меъёр’, ‘ортиқ’; *пакана*: ‘бўй’, ‘меъёр’, ‘кам’. Бундан кўришиб турибдики, фарқлилик тасниф асосида аниқланади. Тасниф эса бир умумий белги асосида амалга оширилади. Фарқлиликни аниқлаш учун бир умумийликка, ўхшашликка, бир хил белгиларга эга бўлган нарсаларгина қиёсланиши лозим. Шунинг учун тил (нутқ) бирликларидаги фарқлиликни аниқлаш учун тасниф асоси бўлган умумийликка эътибор бериш муҳимдир.

Тил иерарх (босқичли, поғонасимон, ярусли) тузумга эга. Бу тузумдаги ҳар бир босқич (ярус) ўзига хос лисоний сатҳни ташкил этади. Ҳар бир сатҳ ўзининг функционал қийматлари ўхшаш бўлган бирликларига эга. Хусусан, фонологик сатҳнинг бирлиги фонема бўлиб, фонемалар ўзларига хос бўлган фарқликларга эгадир. Масалан, *б* ва *п* фонемалар ‘ундош’, ‘лаб-лаб’, ‘портловчи’ каби умумий (ўхшаш, бир хил) ва “жарангли” (*б* учун) ва “жарангсиз” (*п* учун) каби фарқликларга эга. Шунинг учун фонологияда фарқловчи (дифференциал) ва бирлаштирувчи (интеграл) белгилар билан иш кўрилади. Лексик сатҳ бирликлари бўлган лексема ва фраземаларнинг фарқловчи белгилари ўзига хосдир. Масалан, *ака* ва *ука* лексемаларида “оила”, “ёш”, “фарзанд” семалари умумий ва “катта”, “кичик” семалари эса фарқловчи семалардир. Умуман, тил сатҳлари бирликлари (фонема, морфема, лексема, фразема, сўз шакллари, сўз бирикмаси қолипи, гап қолипи) ўзларига хос умумий (ўхшаш) ва фарқловчи семаларга эгаки, тилшунослик соҳалари (фонология, морфемика, лексикология, морфология, синтаксис) уларни турли нуқтаи назарлардан ўрганади. Ўз-ўзидан савол туғилади: фарқлилик сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турларида (омоним, синоним, антоним) қандай воқеланади? Маълумки, маъноси ҳар хил сўзлар омоним, маънолари яқин (ўхшаш), матнда бир-бирларини алмаштириш имкониятига эга бўлган сўзлар синоним ва маънолари қарама-қарши, зид бўлган сўзлар антонимлар дейилади. Анъанавий тилшуносликда маънолари турли даражаларда фарқлиликларга эга бўлган сўзлар ҳақида ҳам фикр билдирилади. Масалан, ёмон, қониқарли, яхши, аъло каби баҳо ифодаловчи сўзлар бир балдан ошиб бориш, яъни миқдор даражалари фарқларига эга. Бу қатордаги ёмон-яхши, ёмон-аъло жуфтликлар зид маъноли сўзлар сифатида антонимлар ҳисобланади. Шу лексик парадигмадаги (ёмон – қониқарли –

яхши – аъло) турли даражаларга эга бўлган ёмон-қониқарли, қониқарли-яхши, яхши-аъло жуфтликлар ҳақида ҳеч қандай фикр билдирилмайди, улар сўзларнинг шакл ва маъно муносабати бўйича баҳоланмайди. Демак, ёмон – қониқарли – яхши – аъло парадигмасидаги сўзларнинг маъно муносабатига турлари бу ўринда нотўлиқ аниқланган. Шу муносабат билан лексик аниқланиш учун мезон қилиб олинган зидлик билан фарқлилик ҳодисаларининг муносабатини кўриб чиқишга тўғри келади.

Фалсафий ва унга асосланган лингвистик адабиётларда зидлик муносабатининг қуйидаги белгилари кўрсатилади: 1) нарса, ҳодисаларнинг қарама-қарши томонлар орасидаги муносабат зиддиятдир; 2) бир-бирини тақозо этувчи ва бир-бирини инкор этувчи муносабат зиддиятдир; 3) зиддиятлар бир моҳиятнинг турли томонларини ифодалайди; 4) зиддият айнанлик ва фарқлилик билан узвий боғлиқдир; 5) зиддият фарқлиликнинг юксак (кучли) шаклидир ва ҳоказо.

Юқоридагилардан шу нарса кўриниб турибдики, зидлик (зиддият)нинг муҳим белгиларидан бири унинг фарқлилик билан узвий боғлиқликка, умумийликка эгаллиги, аниқроғи, зиддиятнинг фарқлиликнинг бир ҳолати, кучли шакли эканлигидир. Демак, фарқлилик ва зиддият сифат жиҳатдан, моҳиятан бошқа-бошқа нарса эмас, балки бир нарсанинг турли ҳолатлари эканлигидир. Шундан келиб чиқсак, юқорида келтирилган ёмон – қониқарли – яхши – аъло лексик парадигмаси сўзлари орасидаги турли даражалар энг кучли (ёмон – аъло) сўзлари орасидаги фарқлар анъанавий тилшунослик томонидан зиддиятлар сифатида қабул қилинган ва улар антонимлар деб баҳоланган. Демак, бу ўринда қабул қилинган антонимликнинг мезони аслида фарқлиликдир, чунки зиддият фарқлиликнинг бир ҳолати, кучли (юқори) шаклидир. Шунинг учун семантик даражали қаторлар аъзолари орасидаги фарқлилик бор экан бу муносабат антонимия ҳисобланиши ва фарқлик даражаларига қараб антонимлар кучли ва кучсиз турларга ажратилиши лозим. Антонимларнинг кучли-кучсизлиги семантик даражали қаторда сўзларнинг бевосита ёки билвосита, узоқ-яқин жойлашиши билан боғлиқ. Демак, юқорида келтирилган лексик парадигмадаги ёмон – қониқарли, ёмон – яхши, ёмон – аъло, қониқарли – яхши, қониқарли – аъло каби кўп сонли жуфтликлар антонимия ҳодисасига эга.

Ўз-ўзидан тушуниладиги, тилда семантик даражали ва даражасиз парадигмалар мавжуд. Масаалан, уруш-тинчлик, нафрат-севги сўзлари орасида даражасиз антонимия мавжуд. Шунинг учун даражали ва даражасиз антонимларнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш антонимия назарияси учун муҳимдир.

Хуллас, бугунги кундаги тилшунослигимиз таракқиёти ўзбек ва жаҳон тилшунослигида урф бўлиб кетган антонимликнинг белгиланиш мезони зидликдир деган қарашни ислоҳ қилиш, янги назариялар билан мукаммаллаштириш масаласини долзарб вазифа сифатида кун тартибига кўймоқда.

NUTQ MADANIYATI VA USLUBIYATIGA DOIR TERMINLAR TUZILISHI

O.Abdunazarova, NamDU magistri

Terminlar ilmiy bilimlarni, ilmiy natijalarni qayd qilish va ularni sistemalashtirish bilan bir qatorda juda katta evristik vazifani ham bajaradi, ya'ni ular yangi bilimlarni ochishga ham ko'maklashadi [1,122].

Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanishi va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etgani, shuningdek, tartibga solingani bilan ham uzviy bog'liqdir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi [2, 84].

O'zbek tili nutq madaniyati va uslubiyati terminologiyasi ilmiy shakllanayotgan, muttasil boyib, takomillashib borayotgan terminologik sistemadir. Buni O'zbekistonda yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuqori madaniy nutq sohiblari qilib tarbiyalash, ona tilimizni jahon tillari qatoriga qo'shish uchun terminologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, qolaversa, nutq madaniyati va uslubiyati sohasining istiqboli bilan izohlashimiz mumkin.

O'zbek tili materiallari asosida to'plangan nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlarni tahlil qilganimizda, tuzilish jihatdan tub hamda yasama (sodda yasama, so'z birikmasi, murakkab birikma, juft) terminlar ucharashini kuzatishimiz mumkin.

Sodda terminlar genetik xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. O'zbek tilida awaldan mavjud bo'lgan nutq madaniyati va uslubiyatiga doir sodda terminlar (tub hamda maxsus nom sifatida yasalgan so'zlar).

2. Xalqaro tillardan kalkalash orqali bevosita o'zlashtirilgan sodda nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar (tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so'zlar).

O'zbek tilida awaldan mavjud bo'lgan nutq madaniyati va uslubiyatiga doir sodda terminlar o'zbek tilining faol iste'molda bo'lgan tub hamda ichki imkoniyatlari asosida hosil bo'lgan terminlardir.

Nutq. Tilning amaliyot shakli, voqelanishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa. Ifodalanishiga ko'ra nutq 2 turli bo'ladi: 1) og'zaki nutq; 2) yozma nutq.

Uslub. Til unsurlarining ma'lum vazifa bajarishiga bog'liq holda

birlashadigan, til birliklarining o‘zaro tanlanishi, birikishi va shu va boshqalar bilan ajralib turuvchi tizimlar.

Kiritmalar. So‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga qo‘shimcha izohi, to‘ldiruvchi ma’lumotini ifodalaydi. Ular nutqning aniqligi va to‘liqligini ta’minlaydigan muhim vositalar sifatida nutqning deyarli barcha uslublarida qo‘llanadi. Ammo badiiy va publitsistik uslublarda qahramon xarakterini ochish, uning nutqini individuallashtirishdagi muayyan holatlarni izohlash, fikr ifodalashning o‘ziga xos usuli kabi vazifalarni ham bajaradi.

Nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar ichki va tashqi manbalar hisobiga bo‘yib bormoqda. O‘zbek tili termin yasashida, asosan, affiksatsiya, semantik va sintaktik usullar mahsuldor hisoblanadi. Nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar *-shunoslik* (uslubshunoslik), *-iy* (uslubiy), *-at* (uslubiyat), *-lik* (voizlik, notiqlik, suxandonlik), *-don* (suxandon) singari affikslar yordamida yasaladi.

Til taraqqiyotining zamonaviy bosqichidagi eng samarali so‘z va termin o‘zlashtirish usullaridan biri – kalkadir. U tilda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni tilda mavjud bo‘lgan birliklar vositasida ifodalash imkonini beradi [3,107]. To‘g‘ridan-to‘g‘ri termin o‘zlashtirishda o‘zlashtirilayotgan termin hech qanday o‘zgarishlarsiz yoki ayrim (juz’iy) fonetik o‘zgarishlar bilan olinadi.

Nutq madaniyati va uslubiyati terminologiyasidagi quyidagi leksik birliklar ana shu tipga mansubdir.

Xalqaro tillardan kalkalash orqali bevosita (tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so‘zlar) o‘zlashtirilgan nutq uslublariga doir sodda terminlar.

Allegoriya (*yun.* allegoria – o‘zgacha ifodalash, boshqacha gapirish). Mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni aniq obraz orqali ifodalash.

Apakopa. So‘z oxirida tovush yoki tovushlarning tushib qolishi.

Intonatsiya. (*lot.* intonare – baland tovush bilan talaffuz etaman). Nutqning sintaktik ma’nolarni va ekspressiv-emotsional bo‘yoqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomoni; ovozning baland-pastligi.

Har bir tilda terminlarning aniq va ixcham bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan birga terminlar tizimida milliylik va baynalmilallik bir-birini keskin rad etmagan uyg‘un holda mavjud bo‘lishi ham ijobiy hodisa sanaladi. O‘zbek tilidagi nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar tarkibi o‘rganilganda ularning asosiy qismi birikma shaklda ekanligi kuzatildi. Buning asosiy sababi sifatida quyidagi omillarni ko‘rsatish mumkin:

1. Nutq madaniyati va uslubiyatiga doir ko‘pgina terminlarning o‘zbek tilida muqobili bo‘lmagani uchun ularning tushunarligi va aniqligini ta’minlash uchun ikki hamda undan ortiq leksik birliklardan foydalanishga bo‘lgan intilishdir.

2. G'arbiy Yevropa tillaridan tayyor holda rus tiliga kirib kelgan va undan o'zbek tiliga to'liq yoki yarim kalkalash natijasida kirib kelgan terminlar.

To'plangan materiallarning ko'rsatishicha, nutq madaniyati va uslubiyatiga doir birikma terminlar tizimida ikki komponentli, uch komponentli, to'rt va undan ortiq komponentli terminlar uchraydi. Ikki komponentdan tashkil topgan terminlar miqdor jihatdan ko'pligi bilan ajralib turadi.

Nutq madaniyatiga doir ikki komponentli birikma terminlar. Bunday terminlar odatda **ot+ot**, **sifat+ot** shaklida bo'ladi.

Nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uning bosh kommunikativ sifatati sanaladi. U tomonlarning: so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari u nutqning muayyan bir davr adabiy tili me'yorlariga qat'iy va to'liq mos kelishi, uning orfoepik, imloviy, lug'aviy va grammatik me'yorlarini mohirona egallashini ko'zda tutadi.

Nutqning aniqligi. Aniqlik ham nutqning asosiy aloqaviy sifatlaridan bo'lib, yaxshi nutqning shakllanish shartlaridan biridir. Agar to'g'ri nutqning yuzaga kelishida faqat lisoniy omil zaruriy belgi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiluvchi, tildan tashqarida bo'lgan holatlarni ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Bu eng avvalo, til va tafakkur dialektikasidir. Chunki, aniqlik deyilganda tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan material o'rtasidagi mutanosiblik tushuniladi.

Nutqning mantiqiyliigi. Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatlariga to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki Grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib boradi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga olib kelishi mumkin.

Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning asosiy sifatlaridan biri bo'lib, to'g'rilik va aniqlik ham mantiqiy va tozalik ham adresatga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan sifatlarda lisoniy omillar birinchi o'rinda tursa, ta'sirchanlik ular bilan birga keng doirada nolisoniy omillarni ham qamrab oladi.

Nutqning tozaligi. Nutqning adabiy til normasiga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Yaxshi, ideal nutq adabiy til talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, turli g'ayriadabiy til elementlaridan holi bo'lishi kerak.

Uch va undan ortiq komponentli birikma terminlar bir necha komponent hisobiga hosil bo'ladi. Misollarga murojaat etaylik.

1. Uch komponentli terminlar.

Adabiy normaning barqarorligi (stabiligi). Bu til birliklarining tez-tez,

asossiz o'zgarib turishini istisno qiladigan, ularning umummajburiy xususiyatlarini ta'minlab turadigan, til an'analarining tovg'riligini isbotlaydigan, til jamoasi tomonidan tan olingan, ko'nikma hosil qilingan, ammo adabiy til rivojlanish jarayonida keskin darajada mutloq bo'lmay, balki nisbiy harakterga ega bo'lgan til hodisasi.

Adabiy norma kodifikatsiyasi. Faqat adabiy tilga xos bo'lgan, namunaviy til birliklarining ma'lum tilda so'zlovchilar uchun umumqo'llanishi mumkinligini nufuzli lingvistik manbalarda (lug'atlarda, qo'llanmalarda, ma'lumotnomalarda) qonunlashtirib berilishi.

Yaxshi nutq tushunchasi. Yaxshi nutq to'g'ri variantlar orasidan eng foydali, namunali, variantni tanlab olishni talab etadi. Yaxshi nutq sharoit taqozosiga ko'ra til vositalaridan maqsadga muvofiq va mohirona foydalana olishni nazarda tutadi. Yaxshi nutq to'g'rilik, tozalik va aniqlik, qisqalik, ifodalilik talablariga javob berishi kerak. Yaxshi nutq talablari nutqiy to'g'rilik bilan birgalikda nutq madaniyatining asosiy shartlarini yuzaga keltiradi.

Yuqori madaniy nutq. So'zlovchi yoki yozuvchi fikrlarining, sezgisi va hissiyotlarini eshituvchi yoki o'quvchiga to'la yetib borishi uchun tilning qudratli ifodaviy vositalaridan unumli foydalanilgan nutq.

2. To'rt va undan ortiq komponentli birikma terminlar.

Nutq madaniyati tushunchasining muhim tomonlari. Bular quyidagilar: a) tilni, ya'ni to'g'ri so'zlashni his qila olish; b) aniq, ravshan va ifodali nutq tuzishning mezon va usullarini egallash; d) egallagan lisoniy bilimlarni kundalik og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish; e) o'zgalarning (suhbatdoshning) nutqini nozik did bilan tushuna olish qobiliyatini shakllantirish.

Nutq madaniyatining kommunikativ aspekti. Bu tushuncha suhbat, ma'ruza rejasining tinglovchilarga mos kelishi tinglovchilarni o'z nutqiga jalb eta olishi, berilgan ma'lumotni mustahkamlay olishi, tinglovchilarni suhbatga tayyorlay olish, "so'zlovchi-tinglovchi" o'rtasidagi muloqotning doimiyligini ta'minlash va boshqalarni qamraydi.

Nutq madaniyatining psixologik aspekti. So'zlovchining nutq shakliga va mazmuniga e'tibor berishini, shuningdek, kishilarning psixologik xususiyatlari, ya'ni ularning kayfiyati, xotirasi, diqqati, qiziqishlari, idrok etishlari va mana shu xususiyatlarga mos ravishda muloqot qila olishi.

Ma'lumki, har bir til o'ziga xos grammatik qonuniyatlar asosida ish ko'radi. Nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar tuzilish materiali, ya'ni qanday so'zlardan tashkil topganiga qarab bir necha xil turlarga bo'linadi:

1. Ot+ot tipidagi terminlar. Bunday qolipli terminlarning qismlari izofa tarzida birikadi: nutq madaniyati, nutq uslubi, nutq odobi, muloqot xulqi, va boshqalar.

2. Sifat+ot tipidagi terminlar:

a) nisbiy sifat+ot tipidagi terminlar: adabiy nutq, ilmiy nutq, ta'sirli nutq, uslubiy me'yor, nutqiy did va boshqalar.

b) asliy sifat+ot tipidagi terminlar: yaxshi nutq kabi.

3. Harakat nomi+ot tipidagi terminlar: so'zlashuv uslubi, so'zlashish madaniyati va boshqalar.

4. Sifatdosh+ot tipidagi terminlar: uslubiy xoslangan so'zlar.

Demak, nutq madaniyati va uslubiyatiga doir terminlar tuzilish jihatidan sodda, birikma, murakkab birikma tarzida uchraydi. Birikma terminlarning ikki komponentli shakli miqdoran ko'pni tashkil etadi. O'zbek tili terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. - Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2017. - Б. 122.
2. Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили. - Тошкент: Ўзбекистон, 2002. - Б.84-85.
3. Ширинова Е. Ўзбек тили банк-молия терминологиясида калька // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017. - № 2. - Б. 107.

TASVIRLOVCHI VA NOMLOVCHI LEKSEMALAR MUNOSABATI

Mirzayev Soxib, Qo'qon DPI, 1-bosqich magistri

Ma'lum bir narsa, predmet, voqea, hodisa, miqdor, belgi, boshqacha aytganda, zot va uning sifotlarini (substansiya va uning atributlarini), his-hayajon va h.k kabi borliqning tarkibiy qismini atovchi noishoraviy leksemalarni ma'noviy xususiyat jihatidan o'zaro qiyoslasak, ular, dastlab ikki katta guruhga ajralishining guvohi bo'lamiz. Borliq va uning tarkibiy qismlari bu leksemalar tomonidan ikki usulda ifodalanib kelinadi:

- 1) ifodalash tasvirlash, tavsiflash orqali,
- 2) atash nomlash orqali.

Tasvirlash orqali ifodalash nomlash orqali ifodalashdan anchagina farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, nomlash orqali ifodalashda nomning (leksemaning) mazmuni faqat ijtimoiy jihatdan shartlangan bo'ladi va nomning ifoda (moddiy, tashqi, material va h.k) tomoni uning mazmun (g'oyaviy, ichki, ideal) tomoni bilan uzviy aloqador emas va faqat shartli, ramziy, ijtimoiy bog'langandir.²⁴² CHunonchi, n o h i ya so'zi yaqin kungacha o'zbeklar uchun tushunarli emas edi, ya'ni bu so'zning ifoda tomoni – N, O, H, I, YA fonemalar tizmasi o'z-o'zidan o'zbek uchun hech qanday ma'noga ega emas edi. Vaholanki,

²⁴² Til F de Sossyur tomonidan ramziy sistema sifatida ta'riflangan edi. Ramzlar esa hamisha ikki tomondan – ifoda va mazmun tomonlaridan iboratdir. Til ramzlarining bu jihatlari orasida o'zaro bog'lanish va har bir tomonning o'ziga xos xususiyatlari tilshunoslikda juda ko'p tadqiqotlarning manbai bo'lgan.

bu so'z eski o'zbek tilida anchagina keng qo'llangan. Masalan, Gulxaniyning «Zarbumasal» ida o'qiymiz:

Bor edi Kashmir navohisida tog',
Bog'i eram rashkidan ko'ksida dog'.

Istiqlol yillarida nohiyaga «rayon» so'zining ma'nosi berildi, bu ma'no ijtimoiy bog'landi va bugun ushbu so'z deyarli har bir o'zbek kishisi uchun tushunarlidir. SHuning uchun nomning mazmun jihati jamiyat a'zosi tomonidan jamiyatdan olinadi hamda jamiyat tomonidan shartlanadi.

Tasvirlash orqali ifodalovchi leksemalarda ahvol boshqacharoq; ularning ifoda tomoni mazmun tomonidan ma'lum bir xabar, darak berib turadi. CHunonchi, t a q-t a q, t a r s-t u r s kabi taqlidiy so'zlarni olaylik. Bu so'zlardagi tovushlar tizmasi ularning ma'nosidan xabar berib turadi. SHu sababli tilshunoslar taqlidiy so'zlarda ifoda va mazmun tomonining nafaqat ijtimoiy, sof ramziy, balki tabiiy bog'lanish mavjudligini qayd etadilar. Buni quyidagi so'zlar qatorini solishtirish asosida ham ilg'ab olsa bo'ladi:

- 1) t i q-t i q, t o' q- t o' q, t u q – t u q, t a q- t a q;
- 2) l i q- l i q, l u q- l u q, l a q- l a q;
- 3) t i r s-t i r s, t a r s-t a r s, tars-turs va h.k

Mazkur qatorlardan ko'rinadiki, tor unlilar va yumshoq undoshlarni o'z ichiga olgan taqlidiy so'zlar ifodalangan belgidan ko'ra pastdir. Bu taqlidiy so'zlarda shakl va mazmun orasida tabiiy bog'lanish borligidan dalolat berib turadi.²⁴³ Tilning umumiy ramziy tabiatidan keskin ajralib turuvchi bu xususiyat, shubhasiz, atovchi leksemalarni ikki guruhga:1) nomlovchi leksemalar, 2) tasvirlovchi leksemalarga ajratish imkonini beradi. Tasvirlovchi leksemalar tarkibi taqlidiy so'zlar (mimemalar) bilangina cheklanib qolmaydi, mimemalarga o'xshash xususiyat undovlarda ham qayd etiladi. CHunonchi, o h, u h, v o h, h o y kabi undovlar o'zining ichki tomonidan ham xabar berib turadi. SHuning uchun tasvirlovchi leksemalar guruhi undovlarni ham o'z ichiga oladi.

Atovchi leksemalardan tasvirlovchi leksemalarning ayirmasi n o m l o v ch i l e k s e m a l a r ni beradi, ya'ni:

$$\left[\begin{array}{c} \text{атовчи} \\ \text{лексемалар} \end{array} \right] - \left[\begin{array}{c} \text{тасвирловчи} \\ \text{лексемалар} \end{array} \right] - \left[\begin{array}{c} \text{номловчи} \\ \text{лексемалар} \end{array} \right]$$

Nomlovchi leksemalar muayyan yoki mavhum, haqiqiy yo xayoliy narsa-predmet, voqea-hodisa, belgi-xususiyat, miqdor va h.k larni atab, nomlab keladi. Bu leksemalar anglatgan ma'noni, mazmuni shu leksemalarning o'zidan,

²⁴³ Nomlovchi leksemalarda, aytib o'tganimizdek, bunday bog'lanish mavjud emas. Agar shunday bog'lanish mavjud bo'lganda edi, «ninni» so'zida unlilarni almashtirish yuli bilan (ya'ni; ninni nanna-nannu kabi) bolaning yosh, hajm jihatidan tavsifini yaratish mumkin bulardi. Nomlovchi leksemalar bunday usuldan foydalanmaydi, balki tavsif «ninni», «chaqaloq», «bola» kabi LQ yordamida o'tkaziladi.

nomidan anglash, ilg'ab olish mumkin emas.²⁴⁴ Atovchi leksemalar «nomlash» va «ifodalash» belgilari asosida ikki ichki guruhga ajralar ekan, ziddiyat belgisi bulardan qaysi biri ekanligini aniqlash zarur. Buning uchun bizning, avvalgi bosqichlarda qayd qilib o'tganimizdek, «nomlash va ifodalash leksemalari bir-biridan keskin ajralgan ikki guruhni tashkil etadimi yoki ularning orasida «oraliq uchinchi» mavjud bo'lib, biri ikkinchisiga o'tib turadimi?» degan savolga javob berishimizga to'g'ri keladi. Zeroki, farqlanadigan guruhlar bir-biridan keskin ajralib, ular orasida «oraliq uchinchi» bo'lmasa, bunday guruhlarining tabiati «teng qimmatli» ziddiyatlarga mos keladi. Agar farqlanuvchi guruhlar orasida «oraliq uchinchi» bo'lib, ulardan biri ikkinchisiga o'tib tursa, bu noto'liq ziddiyat (privativ oppozitsiya) tabiatiga monand bo'ladi. Bunda ziddiyatning kuchli a'zosida biror belgi barqaror bo'lib, kuchsiz a'zosida bu ma'no bo'lishi ham va ayni zamonda shu ma'noning ziddi ham bo'lishi mumkin.

Nomlash va tasvirlovchi leksemalarini shu jihatdan qiyoslash bizni quyidagi xulosaga olib keldi:


1) tasvirlovchi leksemalar i f o d a l a sh, t a s v i r l a sh orqali ma'lum bir voqea-hodisa narsa, xususiyatlarni atab keladi. CHunonchi, t a q- t a q yoki ch i q- ch i q bizga qandaydir tovush chiqarish haqida ma'lumot beradi va shu jarayonni tasvirlab ataydi, ya'ni nomlovchi leksemalarga xos vazifani ado etadi;

2) tasvirlovchi leksemalar osongina nomlovchi leksemalarga ko'cha oladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida chiq-chiq, g'arg'ara, sharshara, dabdaba, yulduz (yalt), guldurak singari taqlidiy so'zlardan yasalgan atovchi leksemalar keng qo'llaniladi: Hademay, bargni novdadan ajratish uchun harakatga kelgan chopqi va pichoqlarning chiq-chiqi avjga mindi (S.Muhiddinov). Namakob bilan g'arg'ara qilib yurib, kechagina zo'rg'a tuzatib oldi (A.Muxtor). Oltmish metr balandlikdan otilib tushayotgan sharshara to'foni tagida bo'ldik (R. Fayziy). Bu erga quyosh og'di- salqin tushadi, kechalari tepamizda yulduz to'la osmon (R. Azizxo'jaev). Ulug'bek madrasasining dabdabasi Registonga boshqacha tus berib turibdi. Bir xabar ber undan menga guldurak, ber xabar bersang-chi tinimsiz yomg'ir. (J.Jabborov) .



Undovlar esa ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini qabul qilib osonlikcha otlashadi: ortiqcha o h- v o h ning o'rinsiz ekanligini endi tushundi (P. Tursun). Yana bir-birlarining hoy-huylari bilan sakrab o'rinlaridan turib, qo'rg'onga qarab yugurishdi (Oydin). SHu xususiyat asosida atovchi leksemalarning ichki ziddiyatida tasvirlovchi leksemalar «zaif», bo'sh, kuchsiz, belgisiz aozoni tashkil etishi va nomlovchi leksemalar «belgili, kuchli» aozo

²⁴⁴ Bu, bizning biror kishi ismini to shu kishining o'zidan yoki uni taniydiganlardan so'rab olmasak, bilolmaganligimizga o'xshaydi. Narsaning o'zini ko'rsak, tanisak, uning nomini bilmasak, biz uni atay olmaymiz. Xuddi shuningdek, faqat tovushlar tizmasini bilsak, uning mazmunini bilolmaysiz. SHu sababli b o l a ning til o'rganish jarayonidagi eng ko'p beradigan savoli: «Bu nima?» Kattalarning esa notanish bilan tanishganlarida beradigan savollari: "Ismingiz (ismi, nomi) nima?"dir.

sifatida yuzaga chiqishi haqida xulosa chiqarildi. Bu esa, atovchi leksemalarning noto'liq ziddiyati «nomlash» (IMI) belgisi asosida ko'rilgandagina sodir bo'ladi.



Leksemalarning izchil ma'noviy tasnifida uchinchi bo'g'inda ajratiladigan leksema guruhlarini "to'p", "leksema to'pi" ("leksema to'plari») deb ataymiz. Leksema to'plari leksemalar ma'noni qaysi usulda ifodalashiga ko'ra ajratiladi. SHunday qilib, biz izchil ma'noviy tasnifda hozirgacha quyidagi leksema guruhlarini ajratdik:



uchun izchil ma'noviy tasnif nomlovchi leksemalar doirasida davom ettirilishi mumkin.

ХАРАКАТ ТАРЗИНИ “МАЪНОДАН ШАКЛГА...” ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ЎРГАНИШГА ДОИР

Менглиева Мунира Бахтиёр қизи, (ЎзМУ)

Хар бир тартибсизлик ичида изчил тартиб ҳукмрон, дейди Шекспир. Айни шу ҳақиқат тил ва ундаги изчилликни кузатишга, тил ходисаларига систем ёндашишга интилувчи тилшунослик фани ичидаги муносабатларни яққол ифодалаб беради.

Ўзбек тилида феъл ўз ичига кўплаб грамматик ва семантик вазифаларни камраб олган ўзига хос мураккаб тил ходисаси. Маълумки, анъанавий ўзбек тилшунослигида феълнинг шахс-сон, замон, майл ва нисбат каби грамматик категориялари, шунингдек, бўлишли, бўлишсиз, тўлиқсиз феъл ва ёрдамчи феъл каби шакллари атрофлича тадқиқ этилган. Бироқ ҳаракат тарзи маънолари ва тарз ифода шакллари оид илмий хулосаларда мунтазам

Ўзгаришларни кузатиш мумкин. Зеро, масалага доир XX аср лингвистик хулосалари кези келса, бугунги тилшунолик натижаларидан кескин фарк қилади. Бироқ ҳаракат тарзи категориясига оид дастлабки қарашлар ва тилшунослик хулосаларини тамомила инкор этиш мумкин эмас. Аксинча, мавзу юзасидан олиб борилган барча тадқиқотлар тарз ифода бирликлари юзасидан чиқарилажак янги хулосаларнинг янада ҳаққоний, рационал ва кенг қамровли бўлишини таъминлаб беради. Бажарилган тадқиқотларга асосланган ва бир вақтнинг ўзида улардан фарқли ўлароқ тарз ифода воситаларини маъно призмасидан келиб чиққан ҳолда таснифлаш ҳаракатнинг тарзи ва унинг мазмун моҳиятини янги босқичда ёрқинроқ очиб беради.

Ўзбек тилшунослигида тарз ифода воситалари, айниқса, кўмакчи феъл доирасида кенг тадқиқ этилди. Даставвал А.Ғуломов кўмакчи феълларни “феъл+феъл” типигаги феъл сўз қўшилмаси сифатида ўрганган бўлса, А.Ҳожиёв морфологик қатламда тарз маъносини ифодаловчи ифода бирликларини *кўмакчи феъл* дея номлади. Олимнинг “Кўмакчи феъл” монографияси яна бир жиҳатдан эътиборга моликки, гарчи унда тарз ифода бирликларининг шаклий хусусиятлари эътибор марказида бўлса-да, олим ҳар бир кўмакчи феълнинг маъносига тўхталиб ўтади. Шу тариқа тарзнинг “давомийлик”, “мунтазамлилик” ва “сониявийлик” каби маънолари дастлабки мулоҳазалар нитаячалари сифатида юзага келди.

Албатта, давр ўтиши билан ўзбек тилшунослари тарз ифода воситалари кўмакчи феъл доирасидан анча кенгроқ эканлиги ва бу категориянинг фақат морфологик қатламда чекланиши мумкинлигига шубҳа билан қарай бошлашди. Биргина *кўмакчи феъл* атамасининг ўзиёқ янглиш эканлиги ушбу атама фақат асосий феълга қўшилган *кўй, ол, тур, қол* каби бирликларни қамраб олар ва бу ҳолатда асосий феълга қўшилган равишдош шакли четда қолиб кетар эди. Шу тариқа кейинчалик *ҳаракат тарзи* атамаси вужудга келди.

Ҳозирда тарз маънолари умумийлик ва хусусийлик дихотомиясида қуйидагича табақаланади:

Умумий грамматик маъно	ТАРЗ	
Оралик грамматик маъно	Жараёнлилик	Қобилият
Хусусий грамматик маъно	бошланиш, давом, тугаш,	бажара олиш/бажара олмаслик

Бу маъно категориялари О.Шукуровнинг “Ҳаракат тарзи шакллари парадигмаси” монографиясида келтирилади ва олим ушбу категория

тизимига умумийлик-хусусийлик диалектикаси нуктаи назаридан муносабатда бўлади.

Тадқиқотларда тарз шакллари турлича ёндашувда ўрганилган бўлса-да, уларнинг ягона умумлаштирувчи белгиси шаклнинг эътибор марказида бўлганлиги, уларнинг маъноси эса ажратиб турувчи хусусиятларидан бири сифатида қаралганлигида. Шу тарзда тадқиқотлар шаклдан маънога йўналишида ривожланган. Албатта, таҳлилнинг бу йўналишда олиб борилиши ўз даври учун муҳим аҳамиятга эга бўлган. Чунки ўзбек тилшунослигида бу даврда тил бирликлари системаларини аниқлаш ва таснифлаш устувор вазифа бўлганлиги сабабли ушбу воситаларнинг маъноси шаклдан кейинги планда ўрганилди.

Тилларга антропоцентрик ёндашув даври тил ифода бирликларини ҳам “шаклдан маънога...” йўналишида эмас, балки “маънодан шаклга...” тамойили асосида тадқиқ этиш, тарз воситаларини турли сатҳ ва қатламларда камраб олиб масалани янада кенгроқ кўламда – функционал-семантик майдон сифатида тадқиқ этиш заруратини кун тартибига қўймоқда.

Тил ифода воситаларини анъанавий сатҳлар доирасида бўлиб ўрганишдан кўра бир маъно остида турли сатҳлардаги воситаларни жамлашга асосланган функционал-семантик майдон сифатида ёндашув куйидаги устунликларга эга:

биринчидан, ифода воситаларини маъносига кўра классификациялашда тилнинг умумий онтологик табиати яққолроқ кўринади. Чунки маъно барча тиллар учун (гарчи бу тилшунос олимлар томонидан ҳар доим ҳам эътироф этилавермаса-да) лингвистик универсалия ҳисобланади. Ушбу маъноларни ифодаловчи воситалар эса ҳар бир тилда ўзига хос ва такрорланмасдир;

иккинчидан, мазмундан шаклга тамойили асосидаги ёндашув тадқиқотлари шаклдан маънога тамойили асосидаги тадқиқотлардан фарқли ўлароқ, ўз натижалари билан тилнинг лисоний имкониятларидан амалий фойдаланиш самарадорлиги учун бойроқ лингвистик таъминот вазифасини бажаради;

учинчидан, нутқий фаолият назариясига кўра, инсон борлиқни ўз онгида акс эттиради, бу нусха асосида тушунча ҳосил қилади, уни маънога айлантириб, нутқда ифодалаш учун уни англатадиган ранг-баранг даражаланиш қаторида турувчи воситаларидан энг маъкулини танлайди. Бу нутқий интенция талаби билан содир бўлади. Ҳолат, шунингдек, сўзловчининг тафаккури, диди, тил ва нутқий қобилияти, қолаверса, нутқий вазиятни тўғри баҳолашига боғлиқ;

тўртинчидан, тил яхлит система, нутқда унинг таркибий қисмлари ўзаро ҳамкор фаолиятда бўлади. Маълум бир маънони ифодалашда кучайган

ифодаловчиларга ушбу вазиятда кучсизланган воситалар кўмаклашади. Бошқа вазиятда кўмаклашган воситалар кучайганда илгариги вазиятда кучли булган воситанинг семантик қиймати пасаяди. Масалан, *бақириб юборди* жумласида *юборди* тарз воситаси ҳаракатнинг кутилмаганда содир бўлганини билдирувчи ягона восита, у бироз ўзгартирилган ҳолда *тўсатдан бақириб юборди* дея таҳлил қилинадиган бўлса, ҳаракатнинг кутилмаганда содир бўлганлигига бир вақтнинг ўзида икки восита синтактик қатламда ҳол ва морфологик қатламда кўмакчи феъл ишора қилмоқда. Бироқ иккинчи ҳолатда кутилмаганлик амаъноси асосан *тўсатдан* сўзи орқали англашилиб, *юборди* ушбу маънони кучлироқ ифодалашга ёрдам беради;

бешинчидан, мазмундан шаклга йўналишида иш кўриш табиий тилни сунъий интеллект учун моделлаштиришда устуворликка эга;

олтинчидан, таржимада маънодан шаклга тамойили асосидаги ёндашув таржима қилинаётган матн мазмунининг адекват акс этирилишига ҳал қилувчи таъсир этади.

Барча асослар ҳаракат тарзи категориясининг маънодан шаклга йўналишида тадқиқ қилиниши асосли эканлигига таянч бўла олади.

O‘ZBEK TILIDAGI TO‘Y BILAN BOG‘LIQ ETNOGRAFIK LARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Rahmatullayeva Nigora, NamDU magistr

Lisoniy va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topgan, semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo‘livchi til birliklari **lingvomadaniy birliklar** hisoblanadi. Lingvomadaniy birliklarga frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimlarga doir so‘zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxiteplar, mifologemalar, lakunalar, presedent birliklar va boshqalar kiradi,²⁴⁵ Demak, urf-odat, marosimlarning nomlari – **etnografizmlar** ham lingvomadaniy birliklardir.

Etnografizmlar xalqning milliy, diniy urf-odatlari, marosimlari bilan bog‘liq madaniy tushunchalarni ifodalaydi. O‘zbek xalqi hayotida to‘y bilan bog‘liq etnografizmlar alohida o‘rin tutadi. *To‘y* etnografizmi o‘zbek tilida quyidagi ma‘nolarda qo‘llanadi:

To‘y – bazm-tomosha va ziyofat bilan nishonlanadigan xalq marosimlarining umumiy nomi. O‘zbeklarda nikoh to‘yi, beshik to‘yi, xatna to‘yi, hovli to‘yi va boshqa turdagi to‘ylar o‘tkaziladi.

²⁴⁵ Qarang. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б.26.

To`y 1. Etn. Uylanish, yutmushga chiqish, xatna qilish va boshqa munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm-tomoshalar bilan o`tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi. *Nikoh to`yi*.

2. etn. Qudalar o`rtasidagi kelishuvga muvofiq, kuyov tomondan qiz tomonga beriladigan pul, sarpo, masalliq va shu kabilar majmui. *To`y uchun kuyov tomonidan o`n besh arava yuk yuborilgan*.

3. etn. Shu narsalar yuborilishi munosabati bilan kuyov xonadonida, kelishi munosabati bilan qiz xonadonida o`tkaziladigan marosim. *Yakshanba kuni ham to`y, ham nikoh*.²⁴⁶

O`zbek xalqida to`ylarni maqsadi va mohiyatiga bir necha turlari mavjud.

O`zbek to`ylarining birinchi namunalari *beshik to`yi va aqiqadirdir*.

Beshik to`yi – bolani (asosan to`ng`ich farzandni) beshikka solish munosabati bilan o`tkaziladigan tantanali marosim. *Mullajon qozi beshik to`yi qilgan*. (Abdulla Qahhor, Anor)²⁴⁷

Beshik to`yi etnografizmi o`zbek shevalarida *beshkecha deb ham yuritiladi*.

Aqiqa (ar. Yarim qimatbaho tosh; chaqaloq sochini olish; qurbonlik qilish) Oilada “yangi mehmon”, ya`ni chaqaloq dunyoga kelganligi munosabati bilan uning tug`ilganiga 7 yoki 14 yoxud 21 kun bo`lganda o`tkaziladigan ziyofat, marosim. *Kitoblarda farzandning otaga bir necha haqqi bor deganlar: ..agar bola o`g`il bo`lsa ikki qo`y so`yib, agar qiz bo`lsa, bir qiz so`yib tug`ilgan kunining yettisida aqiqa qilishi farz*. (S.Ayniy, Doxunda)²⁴⁸

Beshik to`yi, aqiqa etnografizmlari o`zbek xalqining yangi tug`ilgan bolaga e`tiborini, uni e`zozlash bilan bog`liq milliy an`analarni ifodalashi nuqtai nazaridan ham lingvomadaniy birliklardir.

O`zbek to`ylaridan yana biri *xatna to`yi*. *Xatna to`yi* o`g`il farzandni kestirish amali bilab bog`liq bo`lgani bois xatna deb ham ataladi. **Xatna** (ar. kesish, kestirish, sunnat qilish) din. Musulmonlar va boshqa ba`zi xalqlarda o`g`il bolalar jinsiy a`zosining chekka kertmagini kesish yoki kestirish. *Xatna marosimlari o`zbeklar va bir qancha xalqlarda to`y shaklida o`tkaziladi*. (O`zME)²⁴⁹ Demak, bir jihatdan diniy amal bo`lsa-da, bolaning sog`ligini, jismoniy komiligini ta`minlovchi milliy amaldir.

Xalqimiz bolani kestiribgina qo`ymay, buni qarindosh-urug`lar, yaqinlar, do`st-birodarlar hamda o`rtoqlariga yetkazish, unga el-u xalqdan duo olib berish, ehson qilishdek ezgu amallarni xatna to`yida bajaradi. Demak, xatna to`yi ana shunday ezgu milliy va diniy amallar ifodasi sifatida ham lingvomadaniy birlikdir.

²⁴⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-ж. – Б.231.

²⁴⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. –1-ж. -Б. 246.

²⁴⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. – 1-ж. -Б. 126.

²⁴⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2008. – 4-ж. -Б. 390.

Xatna to'yi asrlar davomida amalda bo'lish natijasida *sunnat to'yi*, *sadoq to'yi*, *aqiqa*, *o'g'il to'yi* deb ham ataladi. Aynan bir to'y turining turli belgi-xususiyatlar asosida nomlanishi ham o'zbek lingvomadaniyatining tavsiflanuvchi xususiyatidir.

Mazkur etnografizmni ifodalovchi *sunnat* so'zi asli diniy leksikaga mansub bo'lib, o'zbek tilida quyidagi ma'noni anglatadi: *Sunnat*. Hadislarda targ'ib etilgan, ibodatda ham, muomalada ham qo'llanuvchi amal. *O'g'il bolani xatna qilish, uylanib oila qurish, farzandlarga yaxshi ism qo'yish sunnat amallaridan sanaladi* (O'zME)

Sunnat va *to'y* so'zlaridan *sunnat to'yi* etnografizmi hosil qilingan.

Sunnat to'yi – o'g'il to'yi, *xatna to'yi*.²⁵⁰ Mazkur to'y o'g'il farzandlarni xatna qildirish sunnati bilan bo'liq marosimni ifodalashiga ko'ra, shunday nom olgan. Demak, to'yning bir turi xalqning diniy, milliy urf-odatlarini ta'sirida yuzaga kelgan. Shuni ifodalashi va avlodlardan-avlodlarga o'tishini ta'minlashi jihatidan *sunnat to'yi* etnografizmi lingvomadaniy birlikdir.

Sadoq – kamalak o'qlari joylanib, belga bog'lanadigan yoki yelkaga osib yuriladigan asbob; tirdon, o'qdon. *Qizlarning ham, yigitlarning ham bellarida o'q-yoy va sadoqlarida o'qlari bor edi*.²⁵¹

O'zbek tilida to'y marosimi bilab bog'liq antroponimlar ham yuzaga kelgan. Qarindosh-urug'lar, xususan, farzandning ota-onasining amma-xolasi, tog'asi, aka-uka, opa-singillar yoki boshqa yaqinlari, qo'ni-qo'shnilar to'yi arafasida va aynan to'yi kuni tug'ilgan farzandlarga yaxshi, ezgu niyatlar bilan *To'ybegim*, *To'ybek*, *To'ybeka*, *To'yberdi*, *To'ybibi*, *To'ybobo*, *To'yoy*, *To'ybuvi*, *To'ybo'ldi*, *To'ygul*, *To'yjon* (*to'y kuni tug'ilgan, jondek aziz, suyuqli bola*), *To'yzoda* (*to'y qizi, to'y kuni tug'ilgan qiz*), *To'ykeldi* (*to'y kuni dunyoga kelgan bola*), *To'yko'rar* (*ulg'ayib, to'ylar ko'rsin yoki to'y kuni tug'ilgan bola*), *To'yli* // *To'yliboy* (*to'y kuni tug'ilgan bola yoki sog'ulg'ayib to'ylar ko'rsin*), *To'ymaqсад* (*to'y kuni erishilgan orzu, masad*), *To'ymirza* (*to'y kuni tug'ilgan o'g'il mirzalardek kelishimli, o'qishimli yigit bo'lsin*), *To'ymurod* (*to'y kuni erishilgan orzu, masad yoki to'y kuni tug'ilgan o'g'il ulg'ayib murodu maqsadiga yetsin*), *To'ymuhammad* (*to'y kuni tug'ilgan bolani Muhammad (sav) panohida asrasin*), *To'ynazar*, *To'yniyoz*, *To'ypo'lat*, *To'ysuluv*, *To'ytemir*, *To'ytirak*, *To'yturdi*, *To'yxon*, *To'yxo'ja*, *To'ychi*, *To'ychiniso*, *To'ychiqul*, *To'yqiz*, *To'yqul* va boshqa 40 dan ziyod ismlar ko'p uchraydi.²⁵²

O'zbek lingvomadaniyatida to'y marosimi shunchalar chuqur o'rin olganki, bu xalq og'zaki ijodida ham yorqin kuzatiladi. O'zbek tilida to'y qo'shiqlari, ya'ni

²⁵⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2007. – 3-ж. -Б. 587-588.

²⁵¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2007. – 3-ж. -Б. 418.

²⁵² Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – Б.432-434.

laparlar, yor-yor bilan bir qatorda maqollar ham yaratilgan. Xalqimizda faol qo‘llanuvchi “*To‘ydan oldin nog‘ora qoqma*”, “*To‘yga borsang, to‘yib bor*”, “*To‘yga borsang, to‘yib bor, To‘rqa to‘ning kiyib bor*”, “*To‘y oshi – to‘polon oshi*”, “*To‘yning boshi – boshlanguncha*”, “*Qo‘y semizi – qo‘ychidan, To‘y tamizi – to‘ychidan*”, “*To‘y kimniki – tegishliniki*”, “*To‘y – Xudoning xazinasi*”, “*To‘y ustiga to‘y bo‘lsin, Balo-qazo yo‘q bo‘lsin*” kabi²⁵³ o‘nlab maqollar va ularning variantlarida o‘zbek xalqiga xos to‘y bilan bog‘liq ezgu an‘analar, urf-odatlar, xususan, yaqinlarga, qarindoshlarga duo qilib to‘y qilishni tilash, to‘yning ezgulik, to‘kinlik, tinchlik, hamjihatlik, yaqinlik, o‘yin-kulgu, xursandchilik, mehmondo‘stlik ramzi sifatida talqin qilinishi ularning haqiqiy lingvomadaniy birlik ekanligidan dalolat beradi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, o‘zbek xalqiga xos to‘y bilan bog‘liq etnografizmlar, antroponimlar, maqol va matallari shu qadimiy xalqqa xos bolajonlik, mehmondo‘stlik, elparvarlik, saxovatpeshalik va halollikka asoslangan milliy hamda diniy urf-odatlarini, marosimlari haqidagi lisoniy? Madaniy axborotlarni ifodalash barobarida ularning davrlardan-davrlarga, avlodlardan-avlodlarga o‘tishini, bardavomligini ta‘milaydi.

“JAYRON” SHE’RIDA LEKSIKOLOGIK VOSITALAR YORDAMIDA EKSPRESSIVLIKNING HOSIL QILINISH USULLARI

Zaripova Ra‘no, Sirdaryo viloyati Guliston shahri
5-umumta‘lim maktabi o‘qituvchisi

“Ekspressivlik” va uning ma‘no-mohiyati haqida rus olimi Timofeyev-Resovskiy va o‘zbek tilshunos olimi A.Abdullayev isholib borganlar. Ushbu tushunchani fanga rus olimi N.Timofeyeva-Resovskiy olib kirgan. “Ekspressivlik” lot. “ifodalash”, “namoyon bo‘lish” degan ma‘nolarni anglatadi. Tilshunoslikda ekspressivlik- til birligining semantik- stilistik belgilari majmui; til birligining aloqa so‘zlashuv jarayonida so‘zlovchining nutq mazmuniga yoki nutq qaratilgan shaxsga nisbatan sub’yektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabiting ifoda vositasi bo‘la olishini ta‘minlaydi.

Aloq-aralashuvda til vositasida turli his-tuyg‘u, emotsiya, ta‘sirchanlik ham ifodalanadi. Bu tilning **estetik** yoki **ta‘sir etish** vazifasi deyiladi. Ayrim adabiyotlarda esa tilning estetik vazifasi **ekspressivlik vazifasi** deyiladi.²⁵⁴ Shu narsa ma‘lumki, o‘zbek tilde ekspressivlikni ifodalashning turli xil: fonetik, morfologik, leksik-frazeologik, sintaktik usullari mavjud. Ushbu maqolada

²⁵³ Qarang. Шомақсудов Ш., Шораҳимов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – Б.344-345..

²⁵⁴ N. Uloqov. Tilshunoslik nazariyasi. –T., 2016. 18-bet.

“Jayron” nomli she’ri misolida ko’rib chiqamiz. Shoir she’rda emotsional-ekspressiv ma’noni leksikologik usulda hosil qilishda omonimik vositalardan unumli foydalangan.

*Qon yig’latdi qaysi bag’ritosh,
Jayron, nega ko’zing to’la yosh?
Oyog’ingga qo’yib yotay bosh,
Jayron, nega ko’zing to’la yosh?...²⁵⁵*

She’rning birinchi bandida *qon, to’la, yosh, oyoq, qo’y, yot, bosh* so’zlarida ekspressivlik vositalari qo’llangan.

Qon I qizilsuyuqlik (ot); **qon II** mamnunbo’lmoq (fe’l). [1.75]

To’la I ichini, sathini batmom egallagan (sifat); **to’la II** nimanidir evaziga pul bermoq, biror narsaning qiymatini pul berib qoplamoq (fe’l) [2.140]

Yosh I ko’zdan chiqadigan suyuqlik (ot); **yosh II** umr (ot); **yosh III** navqiron, qari bo’lmagan (sifat). [1.87]

Oyoq I jonli organizmning yurishga, tik turishga xizmat qiladigan organ (ot); **oyoq II** eskirgan, kosa, qadah. Idish-oyoq (ot). [2.91]

Qo’y I uy hayvoni (ot); **qo’y II** narsani biror joyga joylamoq (fe’l). [1.76]

Yot I begona (sifat); **yot II** uzala tushmoq, saqlanmoq, uxlamoq (fe’l). [1.87]

Bosh I kalla (ot); **bosh II** birinchi (sifat). [1.60]

*Yurak qoning to’kilgan so’qmoq
Bag’ri alvon lolaqizg’aldoq,
Senga toshlar otdi qay gumroh,
Jayron, nega ko’zing to’la yosh?..*

She’rning ikkinchi bandidan o’rin olgan *so’qmoq, tosh, ot* so’zlarda ekspressivlik o’rin olgan.

So’qmoq I yolg’izoyoq yo’l (ot); **so’qmoq II** urmoq, tushirmoq (fe’l). [1.80]

Tosh I mo’rt tog’ jinslarining umumiy nomi (ot); **tosh II** uzunlik o’lchov birligi (ot); **tosh III** qirg’oqdan oshmoq (fe’l). [1.82]

Ot I miniladigan aravaga qo’shiladigan uy hayvoni, yilqi (ot); **ot II** ism. nom (ot); **ot III** irqitmoq, tashlamoq (fe’l). [2.95]

*Zor yig’lading buncha ham hayhot,
Menda ham bor sendagi sayyod...
Ey beozor, ey mo’min jonzot,
Jayron, nega ko’zing to’la yosh?..*

Ushbu banddan o’rin olgan *ham, bor* so’zlarida biz yozuvchining estetik mahoratini uchratishimiz mumkin.

Ham I (bog’lovchi); **ham II** “teng”, “birga” degan ma’nolarni anglatadi. [1.65]

²⁵⁵ Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent, 2007. 9-bet.

Bor I mavjud (predikativ soʻz); **bor II** numerativ, kitobiykoʻtarinki, marta, karra, daʼfa (tojikcha); **bor III** maʼlum maqsad bilan biror yerga yoʻnalmoq (feʼl); **bor III** mustaqil feʼl anglatgan leksik maʼnoga “davomli yoʻnalish” grammatik maʼnosini qoʻshadi (koʻmakchi feʼl); **bor IV** kimyoviy element. [2.33] [1.60]

Bu dunyoning nokaslari bor,

Ezgulikni koʻrolmaydilar.

Meni ham qon qildilar ular,

Jayron, nega koʻzing toʻla yosh?..

Sheʼrning toʻrtinchi bandidan oʻrin olgan *bu, dunyo, koʻr, qil* soʻzlari orqali ekpressivlik mahoratini koʻrishimiz mumkin.

Bu I bu, bunga, bunda (olmosh); **bu II** (yuklama). [1.61]

Dunyo I jahon, olam (ot); **dunyo II** boylik, davlat (ot). [1.63]

Koʻr I nazari tushmoq (feʼl); **koʻr II** soʻqir (sifat). [1.68]

Qil I soch, moʻy (ot); **qil II** bajarmoq (feʼl). [1.75]

Labim bilan yarang silayman,

Senga dardi shifo tilayman,

Kel, tugʻishgan ogʻang boʻlay man,

Jayron, nega koʻzing toʻla yosh?..

Soʻnggi bandda *yara, sila, dard, tugʻ, boʻl* soʻzlarida yozuvchining yuksak badiiy mahoratini namoyon qilganini koʻramiz.

Yara I jarohat, dogʻ (ot); **yara II** yaroqli boʻlmoq (feʼl). [1.86]

Sila I idishning cheti bilan baravar qilib (ravish); **sila II** baliq turi (ot); **sila III** siypamoq (feʼl). [1.78]

Dard I koyish soʻzi (ot); **dard II** kasallik, tashvish (ot). [1.62]

Tugʻ I bayroq, belgi (ot); **tugʻ II** farzandni dunyoga keltirmoq (feʼl). [1.83]

BoʻII qismlarga ajrtamoq (feʼl); **boʻI II** mavjudlikni, borliqni anglatadi (feʼl); **boʻI III** mustaqil feʼl anglatgan leksik maʼnoga turli grammatik maʼnolar qoʻshadi yoki zamon yasalishida qatnashadi (koʻmakchifeʼl); [2.40,41].

Muhammad Yusuf sheʼriyatida hissiy taʼsirchanlikning barkamol namunalariga guvoh boʻlamiz. Darhaqiqat, shoir oʻz muhlislariga estetik zavq, koʻtaringki kayfiyat bagʻishlaydi. Balki shuning uchun Muhammad Yusuf sheʼrlari ravon va silliq oʻqiladi. Muhammad Yusuf kabi shoirlar doim xalqimiz eʼtirofida qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anvar Bahromov, Bahodir Shamsiyev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T., 2016.
2. Shavkat Rahmatullayev. Oʻzbek tili omonimlarining zohli lugʻati. –T., Oʻqituvchi, 1984.
3. Abdullayev A. Oʻzbek tilida ekpressivlikning ifodalanishi. –T., Fan, 1983.
4. N. Uloqov. Tilshunoslik nazariyasi. –T., 2016.

5. Muhammad Yusuf. Saylanma. Tashkent, 2007.

ТИЛДА НЕОЛОГИЗМЛАР ҲОСИЛ БЎЛИШ ҲОДИСАСИ

Қўшоқова Г.Й., Хоразм вилояти
Янгиариқ тумани 19-мактаб

Ҳар қандай ижтимоий ҳодиса каби тил ҳам шаклланиш, ўсиш ва таракқий этиш хусусиятига эга. Ривожланган тил деганда аниқ тарихий давр мобайнида инсоният томонидан эришилган ишлаб чиқариш, фан-техника, маданият ва ижтимоий-сиёсий ҳаётнинг юксак даражасига мос келадиган халқ тарихий бирлашувининг муомала воситаси бўлиб хизмат қиладиган тил тушунилади.

Тил ва унинг ички таркиби ўзгармас, турғун, ҳаракатсиз эмас. Тилнинг луғавий бойлиги, грамматик шакллари, фонетик хусусиятлари ва бошқа жиҳатлардан муттасил янгиланиш жараёни давом этади. Ушбу янгиланишларнинг суръати кўп жиҳатдан ижтимоий ўсиш суръати билан боғлиқ. Жамиятда ўзгаришлар қанчалик кўп юз берса, қанчалик тез амалга ошса, тил ўзгариши ҳам шунчалик аҳамиятли бўлиб боради. Бу ҳодиса бевосита унинг ижтимоий функциялари кенгайиши билан боғлиқ.

Ривожланган, умумий меъёрларга бўйсундирилган ижтимоий функцияси сезиларли равишда кенгайган миллий ўзбек адабий тили ўз халқининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий-маиший талабларини қондиришга хизмат қилиб фан ва техника, адабиёт ва матбуот, давлат идоралари ва ўқув юртлари, радио, кино ва телевидение тили сифатида намоён бўлмоқда. Ҳозирги кунда ўзбек тилининг ўзбек халқининг ижтимоий-сиёсий, маданий-маиший, иқтисодий ва илмий ҳаётида роли катта. Унда ўзбек халқи эришган ҳамма моддий ва маънавий маданиятнинг ривожланиши, жамиятнинг турли соҳаларида рўй берган салмоқли ўзгаришлар ўз аксини топмоқда. Бу борада ўзбек тилининг жамиятдаги ўрнини, унинг ижтимоий функцияларини тавсифлашда иккита асосий хусусият аҳамиятга моликдир: ўзбек адабий тили ижтимоий функцияларининг ўзбек халқи миллий тили сифатида ривожланиши ва республикада давлат тили сифатида қўлланилиши.

Ўзбек тили ижтимоий функциялари кенгайиши тилнинг ички тузилишига катта таъсир ўтказди, жумладан, ижтимоий жараёнлар натижасида тилнинг луғат таркиби бойиди. Чунончи, республикамиздаги ўзгаришлар асносида жамиятга кириб келган янги предметлар, ўзгараётган воқеалар, юз бераётган ҳодисаларнинг барчаси тилда ўз ифодасини топади.

Тилнинг луғат таркиби термини остида “у ёки бу халқ тилига кирувчи барча сўзларнинг жами ва тизими” [2, 67], “тилда бор бўлган барча сўзлар” [1, 83] тушунилади. Тил лексикасини ўз ичига олувчи тилнинг луғат таркибидаги фаол ва нофаол сўзларнинг миқдори аниқ эмас. Ҳар бир тил луғати ўз ичига бир неча минглаб сўзларни олади. Луғатдаги сўзларнинг хилма-хиллигига, миқдорига қараб тилнинг бойлигига баҳо берилади. Сўзларнинг сони кўп ёки камлигига қарамасдан, ҳар бир тил ўзининг миллати эҳтиёжлари талабларини қондириш учун хизмат қилади ва қўлланиш жараёнида ўзгариб, ривожланиб, бойиб бораверади.

“Жамият тараққиёти билан бирга ўзгаришда бўлган тил луғат таркиби тилнинг ўз ички захиралари ҳамда ривожланган тиллардан сўз ўзлаштириш ҳисобига бойийди. Янги сўзлар ва уларнинг маънолари тилда тегишли қонунқоидалар асосида юзага келади” [1, 87]. Демак, жамият ва одамлар турмуш тарзидаги бўлаётган янгиликлар тил ва, ўз навбатида, луғат таркиби ўзгариб, ривожланиб, бойиб боришини белгилайди. Ишлаб чиқариш, қишлоқ хўжалиги, иқтисод, саноат, фан-техника, маданиятнинг ўзгариши, ўсиши, ривожланиши тилнинг луғат таркибига таъсир қилади.

Тилшунос А.А. Абдуазизов неологизмлар янги тушунча, нарса ёки ҳодисанинг номини аташини, тилда мавжуд нарса ёки ҳодисанинг белгиларини фарқлашини, тилдаги воситаларни тежашини, фикрни аниқроқ ифодалаш учун хизмат қилишини уларнинг муҳим хусусиятлари сифатида баҳолайди ва уларнинг тилда пайдо бўлишида икки хил усулни қайд этади: тилда мавжуд имкониятлардан фойдаланиш ва экстралингвистик таъсирлар остида [1, 86]. Бу жараён, умуман олганда, тилнинг ички имкониятлари ҳамда бошқа тиллардан сўз ўзлаштириш ҳисобига юз беради.

Тил луғат таркиби мунтазам ҳаракатда бўлиб, бу жараёнда у турли ўзгаришларга учраши натижасида айрим луғавий бирликлар истеъмолдан чиқиши, айримларининг маънолари ўзгариши, айримларининг қўлланилиши пассивлашиши, тилда неологизмлар пайдо бўлиши табиий жараён эканини, тил луғат таркиби эса, икки хил усулда: ички омиллар ҳисобига ва ташқи омиллар ҳисобига тараққий этишини тилшунос Қ.Сапаевнинг тадқиқотларида ҳам кузатишимиз мумкин [4, 26]. Ҳар қандай миллат тилининг ривожланиши, унинг луғат бойлигининг ўсиши бу – ўта мураккаб жараён. Муайян тилда мулоқотда бўлувчи жамият аъзолари ўзларининг тилига бевосита ва билвосита таъсир ўтказадилар. Бунда жамиятдаги ижтимоий омилларнинг тилга таъсири муҳим саналади.

Бу борада ўзбек тилининг ижтимоий функциялари кенгайиши натижасида юзага келган тилдаги ўзгаришлар жараёнида архаизмларнинг

фаоллашуви ва неологизмлар ҳосил бўлиши алоҳида аҳамият касб этишини таъкидлаш жоиз.

Жамиятнинг ҳар қандай соҳасига кириб келадиган янгилик янги ном билан аталади ёки, бирор предмет ёки ҳодисанинг эскириши ижтимоий соҳаларда шу сўзнинг чиқиб кетишига сабаб бўлади. Шунингдек, сўз маъноси ҳеч қандай сабабсиз ўзгаради ёки ижтимоий роли ўзгармасдан сўз маъносини ўзгартириш ҳолатлари кузатилади [3, 195]. Янги сўзлар кириб келиши ёки луғатда мавжуд сўзларнинг истеъмолдан чиқиб кетиши шу тариха юз беради. Бу жараён барча тилларга хос бўлган қонуниятдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш назарияси. – Тошкент: Шарк, 2010. – 262 б.
2. Головин Б.Н. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 1983.
3. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 1987. – 272с.
4. Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили (морфемика, сўз ясалиши ва морфология). – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ Ризографи, 2009. – 250 б.

ADABIY TIL UMUMXALQ TILINING OLIY SHAKLIDIR

X. To'xtasheva, O'zb. tumani 20-maktab o'qituvchisi,

Z.Fazliddinova, 1-maktab o'qituvchisi

Mustaqillikka erishgan hozirgi davrning muhim talablaridan biri, bozor munosabatlari shakllanayotgan mazkur jarayonga mos keladigan, yangicha fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bulgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz zarur».

Oila, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatni chuqur anglaydigan yetuk shaxsni tarbiyalash hamda axloqiy pok, jismonan baquvvat Vatan tuyg'usi bilan sug'oriladigan fidoiy inson, izlanuvchan, tashabbuskor avlodni o'qitish va tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limining bosh maqsadlaridan biridir.

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida jamiyatning zaxira imkoniyatlariniyuzaga chiqarish, kuchli intellectual va ma'naviy salohiyatni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalgam oshirilmoqda. Fuqarolik jamiyatini barpo etish konsepsiyasi bevosita ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantrish, yangi texnologiyalarni pedagogic amaliyotga tadbiiq etish bilan uzviy bog'liq.

Til millat ko'rki. Bizning ona tilimiz necha yilardan beri shakllanib sayqallanib kelmoqda. Adabiy til asos e'tibori bilan umumxalq tilining ijodiy boyitilgan va qayta ishlangan shaklidir.

“Shuni esda tutish lozimki, tilni xalq yaratadi”. Tilni adabiy va xalq tiliga bo'lish faqat “hom” til va yozuvchilar tomonidan ishlangan til borliginigina ko'rsatadi. Buni birinchi marta tushungan kishi Pushkin bo'ldi, xalqning so'z

materialidan qanday foydalanish kerakligini, uning qanday qilib ishlash zarurligini ham birinchi marta u ko'rsatib berdi.

Umumxalq tilini qayta ishlash, undagi eng yaxshi unsurlarni saralab olish, fikr va xis-tuyg'ularni juda soda va ixcham qilib ifodalash soxasida buyuk so'z ustalarining tajribasi kattadir. Umumxalq tilini badiiy qayta ishlash usullari turli davrlarda o'zgarib hamda takomillashib boradi. Nutq vositalari, hatto, eng qadimgi davrlarda ham qayta ishlangan namunasi M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari misolida juda ravshan ko'ramiz.

Adabiy til tarixining eng muhim vazifalaridan biri, buyuk so'z ustalari tomonidan umumxalq tilining qayta ishlanish xususiyati va rolini aniqlashdir.

Adabiy til- bu murakkab uslublar tizmasidan iborat. Shunday ekan, adabiy tilning ijodkori faqat yozuvchilardir, deb bo'lmaydi. Shuning uchun ilmiy bayon etish uslubini yaratishda faol ishtirok etgan buyuk olimlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Masalan, Alisher Navoiy bir qancha badiiy asarlar yaratish bilan birga, "Majolisun-nafois"da adabiy tanqid, "Mezonul avzon"da adabiyot nazariyasi, "Muhokamatul lug'atayn"da til bilimi haqida ilmiy fikrlar bildirgan, shuningdek, bu sohalar bo'yicha fikr bayon etish yo'llarini ham amalda ko'rsatib bergan.

Adabiy til leksikasi va frazeologiyasi faqat milliy til so'zlari hisobiga emas, balki boshqa tillardan so'zlar olish yo'li bilan ham boyib boradi.

Umumxalq tilining grammatik qurilishi va lug'at tarkibidagi hamma omillar adabiy tilning me'yori qilib olinavermaydi. Adabiy til me'yoriga kirmay, chetda qoladigan so'z va iboralarga shevalarga hos so'z va iboralar, soda so'z va iboralar, jargonlar va argotic leksika, maxsus kasb-hunar leksikasi kiradi.

Adabiy tilning og'zaki shakli qadimiy bo'lib, qadimgi xalq qo'shiqlari, dostonlari, ertaklari, latifalari, maqollari, topishmoqlari shu shaklda yaratilgan va og'izdan-og'izga o'tib, sayqallashgan.

O'zbek adabiy tili yozma shaklining shakllanishi va takomillashishi yozuvning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Lekin adabiy tilning yozma shaklini og'zaki shaklidan ajratmagan holda tekshirish lozim, chunki usiz adabiy tilning shakllanishini o'rganish mumkin emas. Adabiy tilning yozma shakli faqat kishilar o'rtasida bevosita aloqa vositasi bo'lmay, balki boshqa joy va zamonda yashovchi insonlar bilan aloqa bog'lash vositasi hamdir. Yozma adabiy til fikr bayon etish uslublari bilan hamog'zaki adabiy tildan farqlanadi. Ularning birida nutqning monologik shakli, ikkinchisida dialogic shakli ko'proq qo'llaniladi.

Yozma adabiy til bilan og'zaki adabiy til mustahkam birlikda rivojlanadi va bir hodisaning turli tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Og'zaki adabiy til leksik, Grammatik tarkibi jihatidan yozma adabiy tilga mos keladi. Biroq og'zaki

adabiy til so'z ishlatish uslubi va sintaktik qurilmalarini qo'llash nuqtai nazaridan o'ziga xoslikka egadir.

Adabiy til grammatik qurilishi va lug'at tarkibi jihatidan me'yorga keltirilgandir. Adabiy til shevalar jargonlardan o'zining me'yorga solinganligi bilan farq qiladi. Adabiy til so'zlarni qonuniy ravishda bir Hilda ishlatishni, uslubda so'z manosidan leksik-semantik me'yordan foydalanishni, morfologik tuzilishi va sintaktik qurilmasi jihatidan to'g'ri ifodalashni talab qiladi. Bundan tashqari, u nutq vositalarini, orfoepik me'yor asosida talaffuz qilishni talab etadi.

Til taraqqiyoti jarayonida adabiy til me'yori ham o'zgardi. Masalan, Navoiy davridan beri o'zbek tili, uning lug'at tarkibi va grammatik qurilishida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu narsa, albatta, adabiy til me'yoriga ta'sir etmasdan qolmadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan o'zgarishlar tilda o'z aksini topa bordi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, til millat ko'rki. Hech shubha yo'qki har qanday inson o'z millati, tili, dini, uning tarixi haqida ma'lumotlar bilan turib komil inson bo'lib yetisha olmaydi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan ma'lumotlar har bir O'zbekiston xalqi uchun juda kerakli bo'ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1."Maktab va hayot" jurnali. Toshkent. 2014 yil .7-8 son
2. U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev "O'zbek adabiy tili tarixi". Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti. 1995 yil.

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ГЕОРТОНИМЛАРНИ ИФОДАЛОВЧИ ПЕРИФРАЗЛАР ХУСУСИДА

Солиходжаева Хавасхон, НамДУ ўқитувчиси

Ономастикага оид терминологик луғатларда ҳар қандай байрам, фестивалъ, хотира кунлари ва мана шундай маросим ҳамда тадбирларнинг атоқли отлари *геортоним* (юн. *heortne* – георто + *онома* – атоқли от)лар деб юритилади²⁵⁶ ҳамда байрам ҳамда тантаналар маълум вақтда, кунда нишонланишига кўра геортонимлар сирасига кирувчи ономастик бирликларнинг хрононимлар билан боғлиқлиги таъкидлаб кўрсатилади²⁵⁷. Демак, геортонимлар – ҳар қандай байрам, фестивалъ, хотира кунлари ва мана шу хилдаги маросим ҳамда тадбирларнинг атоқли отлари. Масалан,

²⁵⁶Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.24.

²⁵⁷Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С.48; Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.24.

Наврўз байрами, Наврўз сайли, Мустақиллик байрами, Рамазон ҳайити (Ийд-ал-Фитр), Қурбон ҳайити (Ийд-ал-Адҳа) каби.

Перифразавий геортонимлар байрам, фестивалъ, хотира кунлари ва ана шундай бошқа тадбирларнинг сайқалланган (ишлов берилган), таъсирчан номларидир.

Перифразалар нарса, воқеа-ҳодисаларнинг ўз номи орқали юзага чиқмаган муҳим хусусиятларини тасвирлаб, бўрттириб, изоҳлаб ва тўлдириб кўрсатади, номни таъсирчан ифодалашга хизмат қилади²⁵⁸. Бу қуйидаги байрам билан боғлиқ перифразаларда ҳам яққол кўринади. Масалан, *Наврўз байрами* билан боғлиқ перифразалар: *йилбоши, шарқона янги йил, уйғониш байрами, яшариш байрами, кўклам байрами, меҳнат байрами, қадриятлар байрами, дўстлик байрами, меҳр-мурувват байрами, бахт ва тинчлик байрами* каби.

Маълумки, Наврўз байрами нишонланиш, ўтказилиш вақтига кўра фаслий геортонимлар сирасига мансуб бўлиб, баҳор фаслида нишонланади, бироқ Наврўз баҳор байрамининг эмас, у янги йил айёмидир. Демак, Наврўз – табиат, яъни янгилик ва яшариш байрами. Шу боис Наврўз геортоними айрим манбаларда “*йил боши*”, “*шарқона янги йил*” перифразалари билан ҳам ифодаланади:

*Жамишда сочишар олтин у гавҳар,
Шу кунни янги йил – байрам дейишар.
Йил боши Хурмузу эди варфардин,
Дилда на гам қолди, на адоват кин.*

(Абдулқосим Фирдавсий “Шохнома”)

Шарқона Янги йилимиз – Наврўзи оламнинг қадами қутлуғ ва баракали келсин! (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Наврўз умумхалқ байрамининг бағишланган тантанали маросимдаги табрик нутқидан // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2019, 22 март, 1-бет).

Мустақиллик байрами билан боғлиқ белги-хусусиятларни ифодаловчи *хуррият байрами* перифразасига арабча “*сиёсий, иқтисодий ва бошқа зулм, тазийқдан халослик; эркинлик ва озодлик*”²⁵⁹ маъноларини англатувчи *хуррият* апеллятивининг “*эркинлик*”, “*озодлик*” семалари асос қилиб олинган: *Бу хуррият байрамининг халқимизнинг шодумон кайфияти тўла намоён бўлди*²⁶⁰. Мазкур перифразада Мустақиллик байрамининг мазмун-

²⁵⁸Қаранг. Расулов Р., Умиров И. Ўзбек тили тасвирий ифодаларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 3.

²⁵⁹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б.565.

²⁶⁰Буюк ва бетимсол Ватанимизнинг улуғ байрами. Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган байрам тантанаси // info@fergana.uz.

моҳияти, озодлик, ҳурлик айёми эканлиги ифодаланган бўлиб, у бадий, публицистик услубда қўлланади.

Дин ўзининг тантанали байрамлари, ҳар хил маросимлари билан кишилар кўнглида кўтаринки кайфият, хурсандчилик, хушфезллик, раҳм-шафқат, сабр-тоқат, қаноат, меҳр-оқибат, ҳамдардлик, виждоний бурч, поклик, одамгарчилик ва шу каби фазилатларни шакл-лантиради ва камол топтиради²⁶¹.

Жамият ҳаётида дин маълум ижтимоий, маънавий ва руҳий вазифаларни бажаради. Ҳар бир дин ўзига хос байрам ва маросимларга эга. Диний байрамлар халқнинг эътиқоди, тафаккур тарзи, дунёқарашини ифодаловчи кўзгу сифатида, эзгуликка чорловчи миллий қадриятлар, урф-одатлар ва маросимлар кўринишида намоён бўлади. Шунингдек, бундай байрамлар ислом таълимоти билан боғлиқ билим ва тушунчаларнинг амалий ифодаси, асрлар оша безавол яшаб келаётган диний қадриятлар мажмуидир. Масалан, *Рамазон ҳайити (Ийд-ал-Фитр)*, *Қурбон ҳайити (Ийд-ал-Адха)*, *Мавлиди шариф байрами*, *Лайлатулқадр* (Рамазон ойининг 27-туни), *Ашуро* (Муҳаррам ойининг ўнинчи куни) каби.

Ўзбек тилида диний геортонимлар билан боғлиқ перифразалар салмоқли ўрин тутади. Улар миллат тафаккурининг ўзига хос кўриниши сифатида, халқнинг дунёқарашини, диний эътиқоди, билим ва тушунчаларининг амалий ифодаси сифатида лингвوماданий моҳиятга ҳам эга.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да “*ҳайит*” сўзининг арабча “*ийд*” сўзи билан боғлиқлиги кўрсатилади. Диний манбаларда бу сўзнинг бошидаги *ъайн* ҳарфининг ўзига хос махражи туфайли тилимизда “*ийд*” сўзи “*ҳайит*” деб талаффуз қилинади²⁶². Демак, *ҳайит* сўзи араб тилида “*ийд*” бўлиб, “*қайта*, *қайта такрорланиш*”, “*фойда – манфаат*” маъноларини билдиради. Ҳайит [а. байрам, тантана] дин. Йилда икки марта: рамазон тамом бўлгач, уч кун ва қурбон ойида уч кун бўлиб ўтадиган диний байрам²⁶³.

Қурбон ҳайити ва *Рамазон ҳайити* геортонимлари миллий диний байрам сифатида мусулмон халқлари қатори ўзбек эли ҳаётининг мазмунига айланган. Шу боис мазкур геортонимлар билан боғлиқ: “*асл байрам*”, “*зийнат куни*”, “*зиёрат куни*”, “*саховат байрами*”, “*ойлар султони*”, “*моҳи шариф*”, “*моҳи рамазон*”, “*рўзаи рамазон*”, “*мукаррам ой*”, “*муборак ой*”, “*қутлуг ой*”, “*покланиш ойи*”, “*покланиш айёми*” “*дўстлик ва муҳаббат ойи*”, “*барокот ойи*” ва “*Қуръон ойи*” каби перифразалар шаклланган.

²⁶¹Тўланов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 73.

²⁶²Муҳаммад Абдуллоҳ Рожув (Муҳаммад Али Муҳаммад Юсуф таржимаси.) Ийд ҳақида //islom.uz.

²⁶³Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б. 484.

Таҳлиллардан кўринадики, ўзбек тилидаги байрамларбилан боғлиқ перифразаларда байрамларнинг маданий, маънавий моҳияти, улар билан боғлиқ миллий анъаналар, урф-одатлар, эзгу ниятлар таъсирчан, образли ифодаланган. Улар халқ тафаккурининг ўткир мушоҳадаси-ю зийраклиги орқали юзага келган мафтункор ва бетакрор номлар сифатида асрлар давомида ўз мазмун-моҳиятини йўқотмайди. Шу жиҳати билан ҳам мазкур тил бирликлари лингвомаданий моҳиятга эга.

БИЛИНГВИЗМ – СУЩНОСТЬ ДВУЯЗЫЧИЯ

М.Б.Шамсиева, базовый докторант (PhD) НУУз

В последние годы опыт мультикультурной и многоязычной жизни стал обычным явлением, и в результате увеличивается число детей, которые с раннего возраста остаются в двуязычной ситуации. Прежде всего, это связано с смешанным семьям, а также с возросшим спросом и интересом к изучению иностранных языков. Это явление резко усиливается в крупнейших мегаполисах мира. В Узбекистане тоже издревле существовало явление двуязычие как результат солидарности представителей разных национальностей, брака между ними, семейных отношений. Также в последние годы в процессе глобализации, в результате роста спроса на изучение иностранных языков, билингвизм получил широкое распространение, растет число детей-билингвов в семьях. Тех, кто может понимать и говорить более чем на одном языке, называются билингвалами.

В толковом словаре узбекского языка (“**Ўзбек тилининг изоҳли луғати**”) билингвизм определяется следующим образом: “билингвизм (Би.+ широта. lingua-язык) умение говорить на двух языках; знать два языка; пользоваться двумя языками; двуязычие[1].

В Кембриджском словаре-тезаурусе (**Cambridge Advanced Learner’s Dictionary & Thesaurus**)тоже билингвизм определяется как умение говорить на двух языках[2].

Российский ученый-лингвист Т. Ф. Ефремова считает, что билингвизм, помимо двуязычия, говорить на литературном языке и диалекте[3].

В словаре синонимов русского языка термин билингвизм приводится как синоним двуязычия [4]. В этом отношении мы сможем одинаково применять термины “билингвизм” и “двуязычие”.

Массовое двуязычие является одним из отличительных аспектов современной социально-демографической ситуации в развитых странах. Различают два вида двуязычия: естественное двуязычие и искусственное двуязычие (изучение языков). Желание учиться, работать в разных уголках


мира создает мотивацию для целенаправленного изучения иностранных языков. Прежде всего, естественный и искусственный билингвизм различаются в зависимости от того, сколько языков используется в социальном взаимодействии и общении. Билингвизм, который целенаправленно формируется вне естественной языковой среды, в ограниченных условиях, называется искусственным билингвизмом. Одним из следствий для естественного билингвизма является “статическое обучение путем подражания”. Однако в случае искусственного двуязычия статическое обучение не работает из-за ограничений разговорного опыта. Психолингвисты фиксируют содержание языкового сознания (картина мира) в первом, втором, третьем и т. д. языки, различия в этом содержании и влияние на них языковых и культурных особенностей представляют интерес.

Современный этап лингвистических исследований характеризуется изучением свойств языковой деятельности в качестве коммуникативного кода, современного состояния языка и языковой вариативности. В лингвистической литературе, посвященной языковой коммуникации, существуют противоречивые или даже диаметрально противоположные подходы к природе и характеру явления билингвизма, трактовке данного термина, классификации типов билингвизма, а также взгляды на аспекты его исследования. Билингвизм или двуязычие в лингвистической интерпретации определяется как практика попеременного использования двух языков. В то же время главной особенностью этого явления является функционирование двух языков в общении одних и тех же носителей. Это особенно важно, поскольку взаимодействие систем происходит только в процессе их функционирования. Для ряда исследователей (Щерба, Герд) билингвизм – это способность определенной группы населения общаться на двух языках в зависимости от ситуации или обстоятельств. Учитывая, что как их национальный язык, так и любой иностранный язык хорошо осваиваются в качестве билингвизма, некоторые исследователи утверждают, что развитие билингвизма по существу не является препятствием для развития национальных языков, напротив, феномен билингвизма может быть одним из важных источников дальнейшего развития национальных языков.

Блумфилд утверждает, что термин "билингвизм" может быть использован только в том случае, если он вторым языком в уровне родного языка. Розенцвейг, напротив, утверждает, что уровень квалификации на одном из языков в случае двуязычия может быть значительно ниже. По вопросу типологии билингвизма мнения ученых также различны, основываются на разных исходных точках зрения и критериях классификации. Чаще всего исследователи акцентируют внимание на

условиях формирования двуязычия. Так, Л. Щерба различает два проявления языковых систем в сознании человека: чистое; смешанное.

Л. Щерба (1880-1944)



В билингвическом сознании, в зависимости от способа сравнения двух языков, выделяются следующие::

1. Координатный билингвизм (билингв знает два языка одинаково, переходит от одного к другому в зависимости от состояния общения, оба языка также полностью автономны);
2. Подчиненное двуязычие (билингв только свободно говорит на своем родном языке, его сознание подчинено другому языку);
3. Смешанный билингвизм – по сути, речь должна быть единственным механизмом анализа и синтеза.

В глобальных условиях необходимость обеспечения эффективности языковой коммуникации становится все более актуальной, что приводит к углубленному изучению проблемы языкового взаимодействия, направленности лингвистических исследований на формирование и функционирование билингвизма.

Литературы

- 1.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдли. Биринчи жилд А-Д. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Б-680 б.
- 2.Cambridge Advanced Learner's Dictionary & Thesaurus © Cambridge University Press)April 2017.
- 3.Ефремова Т. Ф.Новый словарь русского языка. Толково-словообразовательный: Св. 136000 словарных статей, около 250000 семантических единиц: В 2 т.—М.: Рус.яз., 2000. С.720.
- 4.Синонимы русского языка. М.: Рус.яз., 2012. С. 560.

ГЕМЕРОНИМЛАР ОНОМАСТИК БИРЛИК СИФАТИДА

О.Юлдашев, НамДУ таянч докторанти

Ўзбек тили ономастикасида ҳали ўрганилмаган бирликлардан бири оммавий матбуот нашрларининг махсус атоқли номларидир. Матбуот нашрларининг номлари идеонимлар ономастик макроқўламининг бир тури сифатида микроқўламини ташкил этади. Идеоним (юн. idea – идея, ғоя +

опота – атоқли от)лар артионим, библионим, гемероним, геортоним, документоним, поэтоним, хрононим каби микроқўламларни қамраб олади.²⁶⁴ Оммавий матбуот нашрларининг махсус атоқли номлари гемероним (юн. *guera* – *гемера* – *кун, сутка* + *опота* – *атоқли от*)лар деб аталади.²⁶⁵

Газета ва журналлар инсонлар ва маълумотлар ўртасида кўприк воситасини ўтайди. Ривожланаётган асримизни матбуотсиз тасаввур қилиш мумкин эмас. Ўзбек миллий гемеронимлари демократик руҳда биринчи рус инқилоби даврида юзага келди. Тўнғич миллий матбуот нашрларини шаклланиши ва такомил жадидчилик ҳаракати намояндалари фаолияти билан боғлиқ.

Жадидчилик давр матбуотининг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, ҳар бир матбуот нашрига халқнинг истаги, хоҳиши, орзу-умидидан келиб чиққан ҳолда ном берилган. Ҳар бир ном остида матбуот нашрининг йўналиши, мақсади, вазифаси, фаолияти ифодаланган. Масалан, “*Тараққий*”, “*Улуғ Туркистон*”, “*Турк сўзи*”, “*Тирик сўз*” каби газета ва “*Ойна*”, “*Ал-Ислоҳ*”, “*Инқилоб*”, “*Тонг*” “*Юрт*” каби журналларга берилган номларнинг луғавий ва номланиш асоси бундан ёрқин тасаввур беради.

Туркистон замини *тараққий* этишида қадимий *туркларнинг тирик сўзлари*, уйғоқ фикрлари халқимизга *ойина* каби *инқилоб тонгини* етаклашида маърифатпарварлар кўплаб ислоҳатларни олиб бордилар ва *юрт* учун ўзларининг миллатпарварлик ғояларини газета ва журналларда бериб бордилар.

Бу давр матбуот нашрилари бир неча номлар остида чоп этилди. Юртимизда бу даврда нашр этилган “*Халқ ғайрати*”, “*Туркистон вилояти газети*”, “*Самарқанд*” “*Шухрат*”, “*Хушид*”, “*Тужжор*”, “*Осиё*”, “*Садои Туркистон*”, “*Садои Фарғона*”, “*Хуррият*”, “*Кенгаш*”, “*Турон*”, “*Эл байроғи*”, “*Турк эли*”, “*Шўройи ислом*”, “*Халқ дорилфунуни*”, “*Фарғона нидоси*”, “*Иштирокиюн*” каби газета ва “*Дехқон*”, “*Чаён*”, “*Ишчилар дунёси*”, “*Ал-изоҳ*”, “*Ал-ислоҳ*”, “*Изҳор-ул-ҳақ*”, “*Чаён*”, “*Ишчилар дунёси*”, “*Учқун*”, “*Болалар йўлдоши*”, “*Болалар дунёси*”, “*Қизил шарқ*”, “*Шарқ чечаги*”, “*Билим ўчоғи*”, “*Ўзгаришчи ёшлар*”, “*Маориф ва ўқитувчи*”, “*Аланга*” каби журналларнинг номлари илк ўзбек тили гемеронимларидир.

Юқорида келтирилган гемеронимларнинг кўпи топонимлар асосида ҳосил қилинган (кейинги ўринларда топогемеронимлар деб юритамиз) гемеронимлар: “*Туркистон вилояти газети*”, “*Самарқанд*” “*Осиё*”, “*Бухорои шариф*”, “*Садои Туркистон*”, “*Садои Фарғона*”, “*Турон*”, “*Турк эли*”, “*Фарғона нидоси*”, “*Қизил шарқ*”, “*Шарқ чечаги*”, “*Юрт*” каби.

²⁶⁴ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек онамастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 33.

²⁶⁵ Ўша асар. – Б. 23.

Бир неча гемеронимларга арабий, форсий изофали бирикмалар асос бўлган: “*Шўройи ислом*”, “*Садои Туркистон*”, “*Садои Фарғона*”, “*Ал-ислоҳ*”, “*Ал-изоҳ*”, “*Изҳор-ул-ҳақ*” каби. Бу типдаги гемеронимлар биринчидан, матбуот нашрининг мақсад-моҳияти ва вазифасини тавсифлаш асосида; иккинчидан, давр лисоний муҳити илан боғлиқ омиллар таъсирида юзага келган.

“*Тараққий*”, “*Шухрат*”, “*Хурийд*”, “*Хуррият*”, “*Инқилоб*”, “*Аланга*”, “*Учқун*”, “*Тонг*” каби гемеронимларнинг мотивацияси номга луғавий асос бўлган бирликларнинг маъноси билан уйғун ва мутаносиб. Бу гемеронимларга луғавий асос бўлган сўзларнинг семик таҳлилида янада ойдинлашади.

Ўша даврдаги аксарият газета номлари жуда машҳур бўлган, ҳаттоки газета номи, газета муҳаррири номига қўшиб айтилган. Буни биз “1916 йилнинг 27 июнида дунёга келган “Тараққий” газетаси мисолида ҳам кўришимиз мумкин. Хусусан, “Тараққий” (муҳаррир Усмон Обидий) илк миллий газета сифатида тарихга кирган. “Элнинг энг суйиб ўқийдурғон” (Авлоний) бу газетаси ўз даврида жуда катта шухрат қозонганлиги боис, газета муҳаррири Исмоил Обидийни “Исмоил Тараққий” деб атаганликлари ҳам маълум. “Тараққий” газетаси ўз номига кўра, миллийликни, озодликни тарғиб этувчи ҳаракатларни жадаллашиб, тараққий топди.

Ҳозирда “Тараққий” газетаси ташкил топган кун Ўзбекистонда “Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари куни” сифатида нишонланмоқда. Демак, “Тараққий” газетаси ўзбек матбуотининг илк намунаси, ўзбек тилидаги биринчи гемеронимдир.

Тараққий арабча бўлиб, *қўтарилиш*, *юксалиш*, *ривожланиш* деган луғавий маъноларни англатади. Бу шаклда кам қўлланилади ва кўпинча *тараққиёт* тарзида учрайди.²⁶⁶ Ривожланишнинг оддийдан мураккабга, кўйдан юқорига ривожланган шакли, унинг юксалиши.

Газета муассисларининг мақсади халқ онгини, савиясини, дунёқарашини бойитиш бўлган, кишиларни илм олишга, маърифатли бўлишга даъват этганлар. Ватан озод бўлса, халқ ҳам озод, Ватан равнақ топса, халқ ҳам фаровон яшайди. Газета Ватаннинг равнақи ҳаётнинг ҳамма соҳалари бўйича ривожланиши ва юксалиши, юртни жаҳондаги обрў-эътибори янада ортиши билан боғлиқ ғоялар ва масалаларни ёритганлиги боис “*Тараққий*” номини олган. Демак, мазкур гемероним матбуот нашрининг мақсад-моҳиятини мотивга олиш асосида юзага келган

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, матбуот нашрлари давр ва замоннинг маънавий кўзгуси сифатида ҳаётнинг мураккаб ва долзарб

²⁶⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 3-ж. – Б. 677.

масалаларини ёрқин ёритади ва улар шунга мувофиқ номланади. Матбуот нашрларининг атоқли номларида ҳам уларнинг мақсади, вазифаси, мазмун-мундарижаси, соҳавий хосланганлиги каби масалалар ҳам ёрқин ифодаланиб туради.

DIALOGIK NUTQNING AYRIM PSIXOLINGUSTIK XUSUSIYATLARI

Toshpo'latov Azizbek Ikromjon o'g'li, NamDU 4-kurs talabasi

Psixolingvistikaning muhim masalalaridan biri dialogik nutqning psixolingvistik xususiyatlarini o'rganishdir. Bu masala yuzasidan FarDU professori M.Siddiqovning ilmiy ma'ruzalar matni diqqatga sazovordir. Shu munosabat bilan nutq faoliyatini amalga oshiradigan mexanizmlarni o'rganish va nutqni yaratish modellarini ko'rib chiqish kerak. Bugungi kunda dialogik nutqning rivojlanishi nutq terapiyasining dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda, chunki nutq aloqa va fikrlash vositasidir.

Dialog (dialog) - nutqning kelib chiqishi bo'yicha asosiy shakllaridan biri. Aniq ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lib u to'g'ridan-to'g'ri jonli muloqot ehtiyojlariga xizmat qiladi²⁶⁷. Dialog nutq shakli sifatida ketma-ket nutq reaksiyalari zanjiridan iborat, u alternativ murojaat, savol-javob shaklida yoki og'zaki muloqotda ikki yoki undan ortiq ishtirokchining suhbat shaklida amalga oshiriladi. Dialog, og'zaki muloqot shakli sifatida, suhbatdoshlar tomonidan atrofdagi dunyoni umumiy idrok qilish, umumiy vaziyat va nutq mavzusini bilish asosida amalga oshiriladi. Muloqotda nutqni o'zlashtirishning lingvistik vositalari bilan bir qatorda, og'zaki bo'lmagan tarkibiy qismlar katta ahamiyatga ega - imo-ishora, yuz ifodalari, shuningdek, intonatsion ekspressiv vositalar. Ushbu xususiyatlar dialogdagi nutq so'zlarining xususiyatini aniqlaydi. Muloqotning tuzilishi grammatik jihatdan to'liq emasligini, grammatik jihatdan kengaytirilgan bayonning alohida elementlarini bo'shatish, qo'shni replikalarda leksik elementlarning takrorlanishining mavjudligi, so'zlashuv uslubining stereotipik tuzilmalaridan foydalanish imkonini beradi. Muloqotning eng oddiy shakllari (masalan, tasdiqlovchi yoki salbiy javoblar kabi replikatsiya bayonnomalari va boshqalar) nutq dasturini tuzishni talab qilmaydi²⁶⁸.

Tilshunoslikda dialog birligi semantik, tarkibiy va semantik to'liqlik bilan tavsiflangan nusxalarning tematik birlashtirilgan zanjiri hisoblanadi - "dialogik

²⁶⁷ Siddiqov M. Notiqlik san'ati. – Farg'ona, 2019, 40-bet

birlik" deb nomlangan²⁶⁹. Nutq aloqasining muayyan holatida lingvistik vositalardan to'g'ri foydalanish bilan belgilanadigan mavzuni, semantik to'liqlik va tarkibiy birlikni yetarli darajada ochib berish, kengaytirilgan dialogik nutqning uyg'unligining asosiy mezonlari bo'lib xizmat qiladi.

Monologik nutq psixolingvistikada bitta shaxsning uyg'un nutqi sifatida belgilanadi, uning kommunikativ maqsadi har qanday fakt, hodisalar haqida xabar berishdir. Monolog nutqning eng murakkab shakli bo'lib, u ma'lumotni maqsadli yetkazish uchun xizmat qiladi. Monologik nutqning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: aytilgan gapning bir tomonlama va uzluksizligi, o'zboshimchalik, kengayish, xabarning mantiqiy ketma-ketligi, uning mazmunini tinglovchilarga yo'naltirishning shartlilikligi, og'zaki bo'lmagan axborotni uzatish vositalaridan cheklangan foydalanish. Nutqning ushbu shaklining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning mazmuni, qoida tariqasida oldindan rejalashtirilgan. Bugungi kunda nutqning monologik va dialogik shaklini taqqoslab, monologik nutqning nisbiy rivojlanishi, katta o'zboshimchalik va dasturlash kabi fazilatlari ko'rsatiladi.

Psixologik ma'lumotlar og'zaki dialogik nutqning o'ziga xos grammatik tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumki, og'zaki dialogik nutq monologik nutqdan farq qiladi, chunki u tayyor ichki niyat, maqsad yoki fikrdan kelib chiqmasligi mumkin, chunki og'zaki dialogik nutqda nutq jarayoni ikki kishi - savol beruvchiga va javobga bo'linadi. Muloqot paytida aytilgan gapning maqsadi mavzuning ichki rejasida emas, balki savol beruvchining savolida, bu savolga javob suhbatdosh tomonidan berilgan savoldan kelib chiqadi. Shuning uchun, bu holda, ma'ruzachi so'zlash uchun o'ziga xos nutqini yaratadi.

Shu bilan birga, dialogik nutqda uni monologik nutqdan ajratib turadigan boshqa muhim xususiyatlar mavjud. Shunisi e'tiborga loyiqlik, savolga javob bergan kishi allaqachon muhokama qilinayotgan narsani biladi va suhbatning umumiy mavzusini, ba'zan esa suhbatning umumiy mazmunini bilishi juda muhimdir. Ko'pincha suhbat muayyan vaziyatda bo'lib o'tadi va vaziyatni bilish nutq so'zini belgilaydi. Og'zaki dialogik nutqning grammatik tuzilishini belgilovchi ikkinchi muhim xususiyat - bu vaziyatni bilishdir.

Og'zaki dialogik nutqning uchinchi xususiyati shundaki, suhbatda ishtirok etuvchi shaxs tarkibiga grammatik tuzilmalarda tilning tarkibiy qismlari bilan bir qatorda tarkibiy qismlarni kiritish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ikkinchisiga har bir og'zaki nutqda kiritilishi kerak bo'lgan va ayniqsa og'zaki dialogik nutqda ajralib turadigan yuz ifodalari, imo-ishoralar, intonatsiya vositalari, pauzalar kiradi.

Bularning barchasi og'zaki dialogik nutqning grammatik tuzilish xususiyatlarini aniqlaydi.

Og'zaki dialogik nutq tuzilishining o'ziga xos xususiyati shundaki, u muhim grammatik to'liqsizlikni tan oladi. Grammatik jihatdan kengaytirilgan gapning alohida qismlarini e'tiborsiz vaziyat yoki imo-ishoralar, yuz ifodalari, nutq tarkibidagi intonatsiyalar bilan almashtirish mumkin. Ushbu hodisa tilshunoslikda ellipsis, boshqacha qilib aytganda, grammatik jihatdan kengaytirilgan nutqning ayrim elementlarining nomuvofiqligi bilan mashhurdir. Biroq, grammatik jihatdan to'liq bo'lmaganligiga qaramay, og'zaki dialogik nutq dialog jarayonida ma'lumotni uzatish funksiyasini saqlab qoladi.

Shunday qilib, og'zaki dialogik nutqning grammatik tarkibini va o'ziga xos bo'lgan grammatik vositalarni qo'llashning to'liq mumkin emasligini tahlil qilish orqali biz nutqning ushbu shaklining muhim tarkibiy qismlarini o'rganishga yaqinlashamiz.

Nutqning eng qisqartirilgan va minimallashtirilgan shaklidan boshlab, situatsion va imo-ishorali-intonatsion tarkibiy qismlari eng katta ahamiyatga ega bo'lgan va og'zaki dialogik nutqning eng to'liq va kengaytirilgan shakllari bilan yakunlanadigan dialogik nutq parametrlarining to'liq hodisasi mavjud.

Avtobusni kutib turgan va bir-birlariga qisqacha izoh berishayotgan bir guruh odamlarni tasavvur qilsak: "Bu kelayaptimi? - Ha! - Qaysi biri? - Beshinchi. " Savol "Keladimi?" javobi bilan "Ha!" shuningdek, "nima?" "Beshinchi" javobi bilan, ular mustaqil qiymatga ega emaslar va suhbatning holati - avtobusni kutish holati - suhbatdoshlarga ma'lum bo'lgandan keyingina tushunarli bo'ladi. Bunday hollarda, nutqning grammatik to'liqligi kerak emas, dialogik nutqning tashqi grammatik to'liqsizligi vaziyatni bilish va nutqsiz, imo-ishorali yoki grammatik bo'lmagan, intonatsion tarkibiy qismlarning mavjudligi bilan asoslanadi. Xuddi shu qisqartirish og'zaki dialogik nutqning yanada murakkab shaklida paydo bo'ladi. Bunga misol quyidagi parchani keltirish mumkin: "Siz bu kitobni qanday baholaysiz? "Umuman olganda, ijobiy"; yoki: "Muallif o'z fikrini to'liq ifoda eta oldimi? "Ehtimol"; "Sizga bu kitob yoqdimi? "Yoqdi" va hokazo. Ushbu holatlarning barchasida javoblar qisimsiz bo'lib qoladi va ularning grammatik tuzilishi to'liq ishlab chiqilmagan. Biroq, javobning kengaymagan bu grammatik tuzilishi suhbatning asosiy mavzusi ikkala ishtirokchiga ham ma'lum bo'lganligi va hatto to'liq bo'lmagan javob ham suhbat mavzusini aniq ko'rsatganligi bilan asoslanadi.

Shu bilan birga, javob grammatik jihatdan batafsilroq ko'rsatilishi kerak bo'lgan dialogik nutqning bunday shakllari ham mavjud. Agar siz "Bugun tushlik qildingizmi?" "Ha, men ovqatlan dim", qisqartirilgan javob asosli bo'ladi, keyin esa javob variantlari ko'p variantlarni tanlashi kerak bo'lgan dialogik nutqning yanada

murakkab shakllari mavjud, bunday qisqartirish mumkin emas. Bunga savol va javoblar misol bo'lishi mumkin: "Bugun tushlikda nima yedingiz?" "Avval sho'rva, keyin choy, keyin mevalar" va hokazo. Bunday hollarda, dialogik nutqning to'liqligi, dialogning ikkita tarkibiy qismi tomonidan ta'minlanadi: bir tomondan savol-javob va boshqa tomondan vaziyatni bilish va boshqa omillar jumladan intonatsiya, yuz ifodalari, imo-ishoralar. Shu sababli, nutq so'zlarining grammatik jihatdan to'liqsizligi bu erda turli komponentlar bilan to'liq qoplanishi tabiiydir.

Dialogik nutq badiiy va so'zlashuv uslubida keng qo'llanadi, qahramonlarning ruhiy xolati uning nutqida aks etadi. Asar qahramonlarining nutqini tahlil qilish orqali ham nutqning psixolingvistik xususiyatlarini tahlil qilish ijobiy natijalar beradi.

BADIIY MATNDA IFODALANGAN METAFORALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Sultonova Madinaxon, FarDU talabasi

Muloqot jarayonida so'zlar o'z asl ma'nosidan tashqari, vaziyatdan kelib chiqib boshqa ma'nolarda ham qo'llanadi. Leksik ma'no bir narsa-buyum yoki harakatning nomini boshqa bir narsa-buyum, belgi, harakatga ko'chirish yo'li bilan amalga oshadi. So'zlarning ko'chma ma'nosi kontekstda ko'rinadi. Ma'no ko'chishi - bir predmetning (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishidir²⁷⁰. Bunday ko'chirishlarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

- metafora yo'li bilan ma'no ko'chishi;
- metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chishi;
- sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chishi;
- vazifadoshlik yo'li bilan ma'no ko'chishi.

Biz ushbu kichik tadqiqotimizda E.Vohidov she'rlarida qo'llangan metaforalarning gap ma'nosiga yuklovchi qo'shimcha ma'nolari xususida fikr yuritimiz.

Metafora (yunoncha metaphora- "ko'chirish") biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshashligi asosida ma'no ko'chishidir. Metafora o'xshashga yaqin. Metaforada o'xshatilayotgan narsa tushib qoladi va o'xshagan narsa asosida ma'no ifodalaniladi.

Metafora yo'li bilan ma'no ko'chishining asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

- a) ifodalayotgan predmetlar (hodisalar) o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida;

²⁷⁰ Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" . Toshkent. Talqin. 2005. 156-bet.

- b) ikkita belgi-xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida;
- d) narsa-predmetlarning u yoki bu qismlarini o'rin nuqtayi nazaridan o'xshatish asosida;
- e) bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakatlar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida²⁷¹.

Erkin Vohidov she'rlarida metafora usulida ma'no ko'chgan o'rinlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Bu esa she'rlarning yanada ta'sirchan bo'lishini, jozibadorlik ortishini ta'minlagan.

Qubbon sohilida qomating bukib,
Oltin barglaringni ko'l uzra to'kib,
Nimalar haqida surasan xayol
So'yla, majnuntol²⁷².

Ushbu misralarda shoir tomonidan majnuntolga qarata aytilgan "qomating", "oltin bargalaring" so'zlarida ma'no metafora asosida ko'chgan. Bunda birinchi baytdagi misolda bir predmetning nomi boshqa predmetga shakliy o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi hisoblanib, majnuntol poyasini bukilgan qomatga o'xshatish asosida metafora yuzaga kelgan. Ikkinchi misolda esa metafora ikki belgi- xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlikka asoslangan bo'lib, bunda aynan o'xshashlik emas, balki ikki narsa-hodisaning ayrim o'ziga xosligi asos qilinib olinadi. Oltin so'zining asl ma'nosi "sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho nodir metall" hisoblanib "oltin barglar" birikmasida leksemaning "rang" sememasi asos qilib olingan.

Jondan sevar edi bir-birin ular,
Qalbdan to'liq edi shirin orzular.
Yigit o'ktam edi, qiz-sohibjamol,
Xulqda barkamol²⁷³.

Mazkur "shirin orzular" birikuvidagi "shirin" so'zi o'z ma'nosida "ta'mi yoqimli, shirali" ma'nosiga ega. Ushbu birikuvda esa "ta'm" semasi cheklanib, "yoqimli, xush yoqadigan, lazzatlanadigan" sememasi kuchaygan.

Sarlavhasin topmay gohida
She'rim uzra qo'yaman yulduz
Posbon bo'lsin she'rim boshida
O'sha yulduz kechayu-kunduz²⁷⁴.

"She'rim boshida" birikuvidagi "bosh" leksemasi o'z ma'nosi bo'lgan "ta'naning yuqori qismi" ma'nosidan chetlashib, ko'chma ma'noda "asar,

²⁷¹ Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" . Toshkent. Talqin. 2005. 157-bet.

²⁷² Vohidov E. Saylanma. 1-jild. Toshkent. Sharq. 2000. 9-bet.

²⁷³ Vohidov E. Saylanma. 1-jild. Toshkent. Sharq. 2000. 9-bet.

²⁷⁴ Vohidov E. Saylanma. 1-jild. Toshkent. Sharq. 2000. 50-bet.

matnlarning avvali, muqaddimasi” ma’nosini bildirib kelmoqda. Bunda predmetning o’rin nuqtayi nazaridan o’xshashligi asos qilib olingan.

Yuqoridagilar asosida shuni aytishimiz mumkinki, badiiy manda metaforalarning qo’llanilishi so’zlarning “ochilmagan qirralari”ni ochib, ularning betakror ma’nolarini namoyon etadi. Bu esa asarning estetik qiymatini oshiradi. Erkin Vohidov ham o’z she’rlarida metaforadan foydalanar ekan, so’zning ma’no sememalarini yorqinroq va aniqroq ifodalashga harakat qilgan.

OMONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATI

R. H. Rahimjonov, NamDU talabasi

Mavjud adabiyotlarda omonimlar omograflar, omoformalar, omofonlar deb ajratiladi. «O’zbek tili stilistikasi»da esa to’rt turga ajratiladi. Uslubiy jihatdan omofonlar va omograflar jiddiy ahamiyatga ega emas: ular to’g’ri yozilsa va to’g’ri o’qilsa bo’lgani. Ammo omoformalar (qaysi turkumga mansubligidan qat’iy nazar) maxsus uslubiy vosita sifatida badiiy ijodda, askiya va turli so’z o’yinlarida alohida ahamiyatga ega.

Og’zaki nutqda yoki axborot xarakteridagi ishlarda omonimning muayyan nutq paytidagi birgina ma’nosi nazarda tutiladi. Masalan, «yer tayg’anchiq» iborasida «yer» so’zining «yemoq» so’zi bilan omonim ekanini hech kim o’ylab o’rtmaydi. Lekin badiiy ijodda **bunday so’zlarning turlicha ma’nolari** ma’lum bir maqsadga bo’ysundiriladi.

Omonimlardan foydalanish oddiy so’z o’yini yoki shoirning «o’z talantini ko’rsatishi» bo’lmay, balki uning zaminida so’zni to’g’ri ishlatish, uning ma’nosini to’g’ri tushunishga da’vat etish mazmuni yashiringan.

Publitsistik uslubda so’z tanlashga alohida e’tibor beriladi. Tanlangan so’z voqelikni aniq ifoda etishga, tinglovchida ma’lum bir histuyg’u, davrning aktual masalasiga faol munosabat uyg’otishga ko’maklashadi. Publisist o’z fikr-mulohazalari, ijtimoiy hayotga munosabatini yanada jonliroq ifoda etish uchun barcha nutq stiliga oid bo’lgan so’z-terminlar, ekspressiv ottenka tashuvchi formalar, badiiy uslubga xos tuzilmalar-tasvir vositalari va boshqalardan unumli foydalanadi va shunday qilib o’quvchi qalbiga kirib boradi, uni o’z ta’siriga oladi.

Ma’lumki, o’zbek mumtoz she’riyatida tuyuq janrining yetakchi badiiy vositasi omonimlardir.

Tuyuqlarda birinchi misrada bayon qilingan fikr masalaning qo’yilishi bo’lib, ikkinchi misrada bu fikr rivojlantiriladi, mustahkamlanadi, bo’rttiriladi: uchinchi, to’rtinchi misrada esa avvalgi baytning natijasi sifatida xulosa chiqarilib, shoirning subyektiv munosabatlari, mulohazalari, nozik hissiy kechinmalari aks etadi. Bunda oxirgi misradagi omonim (uning ma’nosi) alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan:

Olmani sundi nigorim – **ol!** – dedi,

Olma birla bu ko'ngilni **ol!** – dedi.

So'rdim ersa olmasining rangini,

Ne so'rarsan, olma rangi – **ol!** – dedi (A.N.)

Tig'i ishqing yorasidir **butmagan**

Dardini har kimga aytib **butmagan.**

Hajr sahrosida ahim o'tidin

Onda gul yoxud giyohe **butmagan** (A.N.)

Omonimlar boshqa she'riy san'atlarda qofiyaning bir vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.²⁷⁵ Masalan, masnaviy janrida yozilgan she'riy asarlarda misralar omonim bilan qofiyalanadi:

Bo'ying sarvu sanuvbarteg, beling **qil,**

Vafo qilg'on kishilarga vafo **qil.** (X.).

Tuyuqlar so'z va yordamchi so'z+so'z formasidagi omonim (shartli omofon) bilan qofiyalanishi mumkin:

La'lidin jonimga o'tlar **yoqilur,**

Qoshi qaddimni javodin **yo qilur.**

Men vafosiz va'dasidin shodmen,

Ul vafo bilmonki qilmas, **yo qilur.**

Dilbarimning sochi sumbul, yuzlari **gulzor erur,**

Bo'yina oshiq sanavbar, yuziga **gul zor erur**

(S.S.).

Bundan tashqari, muayyan so'zning omonimik xususiyatini hisobga olib yaratiladigan Lutf san'ati²⁷⁶ ham mavjudki, bunda bir so'z orqali ikki so'zning ma'nosi o'qila beradi:

Kun tushta ko'rgali seni tushti zavolga,

Oy tong'a qoldi, kecha boqib ul jamolga. (L.).

Birinchi misraning mazmuni: 1. Tush payti, kun seni ko'rish uchun pastga tushdi.

2. Kun seni tezroq tushida ko'rmoq uchun shoshildi-ko'z yumdi-uyquga ketdi-botdi.

Ikkinchi misraning mazmuni: 1. Oy kechasi uning jamolini ko'rib, bunday go'zallikka hayron bo'lib qoldi-tang ahvolga tushdi:

2. Oy kechasi ul go'zal jamolini ko'rib, hayratdan tong otguncha unga boqib qoldi. (termilib chiqdi)

²⁷⁵ Qarang: Nosirov O., Jamolov S., Ziyoviddinov M. O'zbek klassik she'riyati janrlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1979, 166-169 – betlar.

²⁷⁶ Qarang. Ishoqov Yo. She'riy san'atlar. O'TA,–Toshkent, 1970, 1, 88-89 – betlar. Sarimsoqov B., Tajnis. O'TA,–Toshkent, 1971, 6, 82-85–betlar. Boboyev T. Poetik san'at sirlari, Ijodiy jarayon va badiiy individuallik. Ilmiy asarlar, Toshkent, 1980, 41-45-betlar.

Omonimlardan askiya janrida ham keng foydalaniladi.²⁷⁷ Chunki askiyada so'zning yo ko'chma ma'nosi yoki omonimlik xususiyati hisobga olinadi:

- Turing, dadasi,... do'konga **mol** kepti.
- A? Nima deding? Ola **molmi**, qora **molmi**? (H. T.)

Ko'rinadiki, omonimlar muhim uslubiy vositalardan sanaladi.

FRAZEMALARNING LINGVOKUTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Ziyatova Nafosat , Navoiy DPI talabasi

Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlari manbai sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, urf-odatlari, rivoyatlari, taomillari, ma'naviyati, axloqi va hk. lar haqidagi tasavvur mujassamlashgan bo'ladi. Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayini aks etadi. [1.90-b.] Frazeologik birliklar hayotiy voqea va ijtimoiy- tarixiy hodisalar bilan bog'liq holda paydo bo'ladi. O'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini ifodalovchi so'zlar ishtirok etgan frazemalar [2] masalan, milliy kiyim, milliy taomlar nomi ishtirok etgan frazemalarda kiyim yoki taom kabilarni ifodalovchi komponentshu frazema(lar)ning asosini tashkil etib, frazemadan anglashilayotgan mazmun–mohiyatning yoritilishida asosiy vosita vazifasini o'taydi.

Milliy cholg'u asboslari nomi ishtirokidagi frazemalar borki, ular lingvomadaniy birlik sifatida qimmatli ahamiyatga ega: *Nog'ora* “teri qoplab yasalgan va ikkita cho'p bilan urib chalinadigan bir juft musiqa asbobi”. Chalinganda uning o'ziga xos baland ovozi bor. Qadimda to'ylar *nog'orasiz* o'tmagan. To'ydagi *nog'ora* ovozi shodlik, xursandchilik sifatida to'ydan darak beruvchi sifatida qarshi olingan,. Bundan tashqari sayllar, bazmlar ham *nog'orasiz* o'tmagan. *Nog'oraningana* shu xususiyatlari asosidabu so'z ishtirokida ham bir nechta iboralar bor: *Nog'ora qilmoq*– (“*jar solib hammaga ma'lum qilmoq*”, do'mbira qilmoq.); (*Birovning*) *nog'orasiga o'ynamoq*– (“*birovning aytganini qilmoq, birovning izmi, gapi bilan ish qilmoq*”); *To'ydan keyin nog'ora* –(vaqti o'tgandan so'ng, g'animat fursat qo'ldan berilgandan keyin g'ayrat ko'rsatilganda aytiladigan ibora); *To'ydan oldin nog'ora chalmoq (yoki qoqmoq)*– (“*O'zi yo'q, hali bo'lmagan narsa haqida jar solmoq*); *Qorin(i) nog'ora chalyapti*–qorin och qolganda aytiladigan ibora.

Ishtahasi karnay– “*iste'mol qilish yoki foydalanish uchun istagi, mayli juda zo'r*”. *Karnay*–puflab chalinadigan qattiq ovozli milliy musiqa asbobi. Karnayning qattiq baland ovozidagi “kuchlilik” semasi bu iboraning shakllanishiga asos bo'lgan: *Uning dasturxonni ham yeb qo'yguday ishtahasi karnay bo'lsa ham,*

²⁷⁷ Qarang: Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983, 44-bet.

ovqat aralash gapni kanda qilmas edi. (A.Ubaydullayev) Bu ibora ko'chma ma'noda ham qo'llanadi: *Mol-mulkka, shon-shavkatga ularning ishtahalari hamisha karnay.* (Oybek)

Arab alifbosi harflari nomi ishtirok etgan frazemalarham o'zbek xalqi tarixida mazkur alifboning tutgan o'rnibor. Shuning uchun xalqimiz tomonidan shu alifbo harflari bilan bogliq frazemalarpaydo bo'lgan:

Lom- mim demay I (“*e'tiroz qilmay, qarshilik qilmay*”) /ravish xarakteridagi ibora/. Hamma uning aytganini **lom-mim demay** bajarayotganini Rahim ko'rib turgan edi. (H.Nazir)

Lom- mim demaslik II (“*hech kimga hech narsa demaslik*” (fe'l ibora) sinonimi “*churq etmaslik*”) O'zi yaxshu yigit-u onasiga **lom-mim deyolmaydi-da.** (S.Ahmad)

Qaddi dol bo'ldi (“*gavdaning yuqori qismini ko'tara olmay enkayib qolmoq*”)

Ammo musibatdan **qaddi dol bo'lgan**, yuz - ko'zi nursizlangan onaga hozir bu gapni qanday aytish kerak. (A. Muxtor)

Alifni kaltak deyolmaslik (“*g'irt savodsiz bo'lmoq, hech narsani bilmaslik*”).

Bu iboralarda *alif, dol, lom, mim* kabi arab alifbosidagi harflar iboralar tarkibida qo'llangan. Shu harflar shakliga ishora qilish asosida (*alif, dol*) va aytilish xususiyatiga ko'ra (*lom, mim*) ibora ma'nolari shakllangan. Yuqoridagi iboralarda *alif, dol, lom, mim* kabi arab alifbosidagi harflar iboralar tarkibida qo'llangan. Shu harflar shakliga ishora qilish asosida (*alif, dol*) va aytilish xususiyatiga ko'ra (*lom, mim*) ibora ma'nolari shakllangan.

“Qulog'ining tagida shavla qaynatmoq”– “*shapaloq bilan urmoq, tarsaki solmoq*” Shapaloq bilan qattiq urganda zarba natijasida yuz yoki quloq yonida qattiq qizish jarayoni bo'ladi. Bu jarayonga shavlanning qaynashi, uning issiqlikni kuchli darajada saqlab qolish xususiyati borligi asos vazifasini bajargan. Palov dimlab pishiriladi. Shavla qattiqroq qaynatib pishiriladi va qaynash jarayoni bevosita ko'zga tashlanadi. Ovqatlar ichida shavla issiqligini uzoq muddat saqlashibilan ajralib turadi. Qadimda og'ir mehnat qilgan kishilarga, mardikorlarga shavla berishgan. Kun bo'yi og'ir mehnat qilishgani uchun birdaniga ko'p ovqat yeyish oshqozonga zararli bo'lgani sababli ularga shavla berishgan. Chunki shavla sekin sovigan.

Kavush “*charmdan tikilgan va odatda mahsi bilan kiyiladigan oyoq kiyimi*”. Bu so'z ishtirokida *kavushi to'g'ri bo'lmoq, kavushim ko'chada qolgani yo'q, kavushing to'g'ri, kavushini to'g'rilab qo'ymoq* kabi salbiy munosabat ifodalovchi frazemalar bor: **Kavushi to'g'ri bo'lmoq** – “quvilmoq, haydalmoq”.

Kavushim ko'chada qolgani yo'q (varianti: *oyog'im ko'chada qolgani yo'q*) – “*har qanaqa joyga boravermaslikni, uncha- muncha joyni nazar- pisand*”

qilmaslikni ”(O’TIL. 2. 476.) ifodalash uchun aytiladigan ibora. Chorlamagan joyga borish uchun sening kavushing ko’chada qolgan emas. (A. Qodiriy)

Kavushing to’g’ri– “jo’nay ber; yo’qol”. Ketasanmi o’shanikiga? Mayli *„kavushing to’g’ri*.

Kavushini to’g’rilab qo’ymoq– “Birovni haydab yubormoq, quvib yubormoq.

Frazeologizmlar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o’ziga xos obrazli ifodalaridir. O’zbek xalqining milliy o’ziga xosligini ifodalovchi so’zlar ishtirok etgan iboralar yoki o’zbek xalqining milliy xususyatlaridan kelib chiqqan holda yaratilgan ba’zi iboralar tahlilini ko’rib chiqdik.

Frazeologizmlar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi ma’naviy xazina bo’lib, ular ham lingvokulturologik obyekt sifatida millatning madaniyatini o’zida jamlovchi til birligi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. T. 2019.90-b.

2. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining frazeologik lug’ati. T.1992. Maqolada tahlil qilingan frazemalar shu manbadan olingan.

ANTONIMIK MUNOSABATLARNING BADIY MATNDAGI O’RNI

D. Nu’monova, NamDU talaba

Tilshunoslikda ideografik semalardan biri ikkinchisiga zid bo’lsa, bu antonomiya deyiladi. Antonomiya – yunoncha anti – “zid”, “qarshi”; onyma – “ism” degan ma’noni anglatadi. Bunday ma’no munosabatlar oppozitiv munosabat ham deyiladi. (lot. Oppositivo – “zid qo’yish”). [1] Antonimik – ikki til birliklari orasidagi ma’no-munosabat bo’lib, ikkisi birgalikda antonimik juftlikni tashkil qiladi. [2] Antonimlardan biri yoki har ikkisi o’z sinonimiga ega bo’lishi mumkin, lekin shunda ham antonimik juftligi holati buzilmaydi. Masalan, ko’p leksemasining mo’l, bisyor kabi sinonimlari mavjud, shunga ko’ra bu leksemalar oz - ko’p, oz - mo’l, oz - bisyor kabi antonimik juftliklarda qatnashadi. Antonimik munosabat odatda bir turkum leksemalari orasida bo’ladi. Bu – asosiy holat. Ba’zan antonimik munosabat ot leksemaning belgi ma’nosi bilan sifat leksema orasida voqe bo’lishi mumkin. Masalan, bosh o’g’il – kenja o’g’il.

Barcha leksemalar antonimik munosabat hosil etavermaydi. Semema anglatadigan leksik ma’no o’z ziddiga ega bo’la olsagina, antonimik munosabat voqe bo’lishi mumkin. Masalan, ko’z, soat, daftar leksemalarining leksik ma’nolarida bunday zidlanuvchi ma’no-munosabati yo’q; avval, qimmat, toza leksemalarining leksik ma’nolarida esa bunday imkoniyat mavjudligini ko’rishimiz mumkin: avval – keyin, qimmat – arzon, toza – iflos kabi.

Antonimik munosabatlar, ayniqsa, badiiy matn hosil qilishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, she’riy matnda antonimik munosabatlar emotsional-ekspressivlikni hosil qilishda faol ishtirok etadi. Xususan, Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida qo‘llangan antonimik munosabatni ko‘rib o‘tishimiz mumkin[3]:

Tun bilan **kun**,

O‘t bilan **suv**

Bir-biriga zolimdir.

Koinotda

Azal,

Mangu

Isyon ruhi hokimdir,

Bu yerdagi antonimik munosabat yuqorida aytib o‘tganimizdek, bir turkum doirasida, ya’ni ot leksemalari orqali yuzaga kelgan. Bu yerda qo‘llangan antonimik munosabat shoir ruhiy holatini kitobxonga yetkazish uchun asos vazifasini o‘tabgina qolmay, o‘ziga xos emotsionallikni hosil bo‘lishiga xizmat qilgan.

Zamin uzra

Qor quyunin

Yog‘dirganda

Charx-falak,

Qish qahriga

Egmay bo‘yin,

Isyon qilar

Boychechak.

Bu yerda qo‘llangan leksemalarning antonimik munosabati konnotativ ma’no hosil qilishda asos vazifasini o‘tagan. Bundan tashqari, **qishning qahri** – **boychechak** leksemalari matnda o‘ziga xos tashxis san’atini yuzaga keltirishga ham xizmat qilgan.

Yer-u ummon,

Burjlar aro

Gohi **oshkor**, goh **pinhon**,

Ibtidodan

To intiho

Hukm surar g‘alayon.

Bu yerda hosil bo‘lgan leksemalarning antonimik munosabati ham yuqoridagidek bir turkum doirasi, ya’ni sifat turkumi doirasida sodir bo‘lgan.

Shoir bo‘lsang

Yurtda yasha

Meniki deb aytgulik.

Jannat yurtdan kechib o‘sha

Xarobaga qaytgulik.

Bu yerda qo‘llangan leksemalarning antonimik munosabati biri birikma shaklida ikkinchisiga oppozitiv munosabat hosil qilgan. Bu esa shoirning naqadar so‘z ustasi ekanligidan dalolat beradi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, Erkin Vohidov o‘z asarlarida qo‘llangan antonimik munosabatlar shoir nazarda tutgan ichki maqsadni ifoda etishda, she‘riy matnni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu esa she‘riy matnda o‘ziga xos jozibani tashkil qilishda muhim o‘rin tutishidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent: Universitet – 2006.
2. Sayfullayeva R., Mingliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent – 2009.
3. Эркин Вохидов. Изтироб. “Узбекистон”, Т., 1992, 318-321-бетлар.

АРАБЧА ЛУҒАВИЙ ЎЗЛАШМАЛАРНИНГ ҚЎШМА СЎЗЛАР ҲОСИЛ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Турғунова Нилуфар., Қўқон ДПИ талаба

Арабча луғавий ўзлашмалар иштирокида ҳосил бўлган қўшма сўзларни ясовчи узвлардан бирининг қайси тилга мансублиги нуқтаи назаридан қуйидаги тўрт гуруҳга ажратиш мумкин: 1) ясовчи узвларидан бири ўзбек тилига мансуб қўшма сўзлар; 2) ясовчи узвларидан бири тожик-форс тилига мансуб қўшма сўзлар; 3) ясовчи узвларидан бири рус тилига мансуб қўшма сўзлар; 4) ясовчи узвларининг ҳар иккиси ҳам араб тилига мансуб қўшма сўзлар.

1. Ясовчи узвларидан бири ўзбек тилига мансуб қўшма сўзларнинг деярли кўпчилиги сўз бирикмаларининг лексикализациялашуви натижасида ҳосил бўлган. Улар сўз туркумлари нуқтаи назаридан от, сифат, равиш луғавий грамматик категорияларига мансуб бўлади. От туркумига мансуб қўшма сўзларнинг сўз ясалиш қолиплари: “от + от”; “сифат + от”, “сон + от” кўринишларга эга.

“От+от” тартибида ҳосил бўлган қўшма отлар “ $N_{ўз} + N_{ap.} = N_{subs}$ ”, “ $N_{ap.+} N_{ўз} = N_{subs}$ ” кўринишидаги қолипларда воқеланади: *отарава, тилхат, тагнуسخа, қозонкабоб, қовунсайил* (“ $N_{ўз} + N_{ap.} = N_{subs}$ ”); *жигар қийма, лўлақийма, ҳожии оши, ҳожидўппи, супатоз, ҳарф терувчи, ҳаво кучлари, сайилбоғ, даллолбоши, ҳадисоши, қадамжой, ҳашарбоши* (“ $N_{ap.+} N_{ўз} = N_{subs}$ ”); “Сифат + от” тартибида ҳосил бўлган қўшма отлар ҳам (“ $N_{ўз} + N_{ap.}$

= N_{subs} ”), ($N_{\text{ap.}} + N_{\text{ўз}} = N_{\text{subs}}$) қолипларида воқеланади. Бундай қўшма отларга *оғир саноат, енгил саноат* ($N_{\text{ўз}} + N_{\text{ap.}} = N_{\text{subs}}$); *тиббий ёрдам* ($N_{\text{ap.}} + N_{\text{ўз}} = N_{\text{subs}}$). *Ҳаромтомоқ, ҳаромтовоқ* сўзлари сифат ва отдан таркиб топган.

Икки нуқта сўзи сон (ўзб.) ва от (а.)нинг қўшилишидан ясалган қўшма отдир. *Кўпнуқта* қўшма сўзи равиш ва отдан таркиб топган; *дунёқараш* эса от ва феълнинг бирикувидан иборат.

Ҳароммағиз, ҳаромнамак сўзлари араб ва форс-тожик тилларига мансуб луғавий бирликлардан таркиб топган.

Арабча+арабча луғавий бирликларнинг қўшилишидан таркиб топган қўшма отлар миқдоран анчагина: *астарпахта, асалари, тандиркабоб, хизматҳақи, шайтонарава, талоқхат* ва ҳ.

Сифат туркумига мансуб қўшма сўзлар ҳам анчагина. Уларнинг таркиби ҳам қўшма отларда кузатилганидек, арабча луғавий бирликларнинг ўзбекча, форсча-тожикча сўзлар билан қўшилишидан ҳосил бўлган: а) ўзбекча ва арабча сўзлар бирикувидан ҳосил бўлган қўшма сифатлар: *майдаган, ишбай, кунбай. Ҳақсевар* сўзи эса от ва феъл (сифатдош)нинг бирикувидан таркиб топган.

Сифат туркумига мансуб қўшма сўзларнинг кўпчилигида уларнинг вазифавий узвларидан бири сифатида форсча-тожикча сўзлар қўлланган. Улар $N_{\text{ф.-т.}} + N_{\text{ap.}} = N_{\text{subs}}$ қолипи асосида вужудга келган: *хушманзара, хушмулозамат, хушхол, хушмуомала, хуштабассум, хушсурат, хушсўхбат, хуштабиат, хушқад, хуштакаллуф, хуштавозе, хушфеъл, қимматбаҳо, ҳароммағиз* қўшма сўзлари форс-тожик тилига мансуб унсурнинг араб сўзига нисбатан тартиби постпозитивдир.

Зиқнафас, соҳибжамол, собитқадам сўзларининг ҳар икки қисми ҳам араб тилига қарашли.

Қўлимиздаги далиллар шунга гувоҳлик берадики, араб тилидан ўзлашган айрим сўзлар қўшма равишлар ясалишида анча фаолдир. Улар асосан сон, олмош ва отларнинг бирикувидан таркиб топган ва $N_{\text{нумўз}} + N_{\text{ap.}} = N_{\text{subs}}$ қолипида воқеланган: *бир дақиқа, бир лаҳза, бир он, бир қадар, бир нав.* $N_{\text{пронўз}} + N_{\text{ap.}} = N_{\text{subs}}$ қолипи ёрдамида эса олмош ва отдан таркиб топган қўшма равишлар реаллашган: *шу зайл (да), шу тарз(да), шу тариқа, қай тариқа, шу қадар. Баъзи бир* олмошининг таркиби “олмош-сон” тарзидадир.

Арабча луғавий ўзлашмалар айрим боғловчи (эргаштирувчи)лар таркибида ҳам учрайди: *шу сабабли* каби.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои: Афтореф. Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1989. – 44 с.

2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
3. Бердалиев А. Словообразующие сложные аффиксы в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 24 с.
4. Бердалиев А. Ўзбек тили аффиксал синонимиясининг баъзи хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. – № 2. – Б. 23-27.
5. Бердалиев А., Ҳасанова Д Сўз ясалиши масалаларига доир баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тилшунослиги муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. 17-китоб. – Хўжанд, 2008. – Б.5-15.
6. Бертагиев Т.А. Билингвизм и его разновидности в системе употребления // Проблемы двуязычия и многоязычия. – М.: Наука, 1972. –С. 82-88.
7. Бойматов О.Р., Ҳасанова Д. Ўзлашма луғавий бирликларнинг ўзбек тили сўз ясалишидаги мавқеи ҳақида (араб луғавий ўзлашмалари мисолида) // Актуальные проблемы гуманитарно-педагогических наук. Сборник научн.трудов.– Бишкек, 2006. Вып.2. – С.66-72.

TILSHUNOSLIKDA LINGVOSTATISTIK TADQIQOT

D. Nu'monova, NamDU talaba

Lingvostatistika” terminiga ta’rif berishdan avval statistika nimaligini aytib o’tishni afzal bildik. Har bir sohada bu sohaning rivojini, yutuq va kamchiligini ko’rsatib turadigan statistik ko’rsatkich mavjud. Masalan, tibbiyot sohasida biror kasallik yuzasidan aholining chalinishi foiz va raqamlarda aks ettiriladi. Bu statistika deb yuritiladi. Ya’ni tibbiyot xodimlari nutqida statistikaga ko’ra shu kasallik bilan og’rigan bemorlar soni O‘zbekistonda shunchani, dunyo davlatlarida shunchani tashkil etadi, degan gaplarni ko’p eshitamiz. Mana shunga o’xshagan ma’lumotlarni har sohada uchramiz, bu statistikaning keng jabhali ekanligini, har sohada o’ziga xos ko’rinish hosil qilishini ko’rsatadi. Har bir sohaning statistik metodi bo’lgani kabi tilshunoslikda ham statistik metod mavjud. Bu metod tilshunoslik bilan bevosita aloqador bo’lganligi sababli “lingvo + statistika” kompozitsiyasi bilan nomlanadi.

Lingvostatistika tilshunoslikda yangi sohalardan biri bo’lib, u kompyuter yordamida amalga oshiriladigan metod hisoblanadi. Lingvostatistika matni o’rganishning o’ziga xos usulidir.[1] Til o’ziga xos tizimga ega bo’lgan ijtimoiy hodisa bo’lganligi tufayli til birliklari muayyan tizimda joylashgan bo’ladi. Lingvostatistik tahlil imkoniyatlari til birliklarining qonuniyatlarini kuzatish va shu kuzatish natijalarini qayta ishlash jarayonida aniqlanadi. [2]

Xususan, biz ham lingvostatistika bo’yicha izlanishlar olib bormoqdamiz. O’z izlanishlarimiz obyektini Erkin Vohidov va Abdulla Oripov ijodiga qaratdik. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni”, “Iztirob” va Abdulla Oripovning “Birinchi

muhabbatim” nomli kitoblarida qo‘llangan yordamchi so‘zlar miqdori, egalik va kelishik kategoriyalarining qo‘llanilish darajasi lingvostatistik jihatdan tahlil qildik. Bunda 100 ta yordamchi so‘z birliklarini olib, ularda faol qo‘llangan birliklar miqdori foizlab hisoblandi.

Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida 100 ta yordamchi birliklar tahlil qilindi[3]: Yordamchilar – 100%, Bog‘lovchilar – 41%, Ko‘makchilar – 26%, Yuklamalar – 33%. Bundan bog‘lovchilar orasida ham faol qo‘llangan birliklar mavjud. Xususan, 41 ta bog‘lovchilar tarkibida eng ko‘p bilan bog‘lovchisi qo‘llangan. Buni foiz miqdorida ko‘rsatadigan bo‘lsak, quyidagi raqamlar yuzaga keladi: Bog‘lovchilar – 100% (41ta), Bilan – 26,8%, Ammo – 17%, Lekin – 14,6%, Agar – 12,1% va hokazo.

Ko‘makchilar orasida ham faol qo‘llangan birliklar mavjud. Xususan, 26 ta ko‘makchilar tarkibida eng ko‘p -dek ko‘makchisi qo‘llangan. Buni foiz miqdorida ko‘rsatadigan bo‘lsak, quyidagi raqamlar yuzaga keladi: Ko‘makchilar – 100% (26ta), Dek – 30,7%, Uchun – 23%, Qadar – 3,8%, Uzra – 3,8% va hokazo.

Yuklamalar orasida ham faol qo‘llangan birliklar mavjud. Xususan, 33 ta yuklamalar tarkibida eng ko‘p ham yuklamasi qo‘llangan. Buni foiz miqdorida ko‘rsatadigan bo‘lsak, quyidagi raqamlar yuzaga keladi: Yuklamalar – 100% (33ta), Ham – 57,5%, Mi – 24,2%, -Ki – 12,1%, -Ku – 6%, Faqat – 3% va hokazo.

Abdulla Oripov “Birinchi muhabbatim” kitobida 100 ta yordamchi birliklar tahlil qilindi[4]: Yordamchilar – 100%, Bog‘lovchilar – 44%, Ko‘makchilar – 18%, Yuklamalar – 37%. Bunda bog‘lovchilar ichida ham faol qo‘llangan birliklar mavjud. Xususan, 44 ta bog‘lovchilar tarkibida eng ko‘p bilan bog‘lovchisi qo‘llangan. Buni foiz miqdorida ko‘rsatadigan bo‘lsak, quyidagi raqamlar yuzaga keladi: Bog‘lovchilar – 100% (44ta), Bilan – 18%, Va – 11,3%, Balki – 6,8%, Ammo – 6,8%, Lekin – 6,8% va hokazo

Ko‘makchilar ichida ham faol qo‘llangan birliklar mavjud. Xususan, 19 ta ko‘makchilar tarkibida eng ko‘p deb ko‘makchisi qo‘llangan. Buni foiz miqdorida ko‘rsatadigan bo‘lsak, quyidagi raqamlar yuzaga keladi: Ko‘makchilar – 100% (19ta), Deb – 31,5%, -day – 15,7%, Kabi – 10,5%, Avval – 10,5% va hokazo.

Yuklamalar ichida ham faol qo‘llangan birliklar mavjud. Xususan, 37 ta yuklamalar tarkibida eng ko‘p ham yuklamasi qo‘llangan. Buni foiz miqdorida ko‘rsatadigan bo‘lsak, quyidagi raqamlar yuzaga keladi: Yuklamalar – 100% (37ta), Ham – 32,4%, Faqat – 29,7%, -Gina – 16,2%, -mi – 10,8%, -da – 10,8% va hokazo.

Erkin Vohidovning “Iztirob”[5] nomli kitobidan o‘rin olgan “Yuragingda makon tutgan qul” she‘rini lingvostatistik jihatdan tahlil qildik. Undagi egalik kategoriyalarini ham, kelishik kategoriyalarini tadqiq etdik. Ushbu she‘rda egalik kategoriyasiga oid birliklar 13 ta qo‘llangan. Egalik kategoriyalaridan eng ko‘p II

shaxs birlik egalik kategoriyasi qo‘llangan. Buni raqamlarda ham ko‘rishimiz mumkin:

Egalik kategoriyasi – 100% (13ta)

I shaxs birlik – 0

I shaxs ko‘plik – 0

II shaxs birlik – 76,9%

II shaxs ko‘plik – 0

III shaxs birlik – 23%

III shaxs ko‘plik – 0

Ushbu she’rda kelishik kategoriyasiga oid birliklar miqdori 16 ta. Kelishik kategoriyalaridan eng faol qo‘llangan birliklar O‘rin-payt va Chiqish kelishiklaridir. Buni raqamlarda ko‘rishimiz mumkin²⁷⁸:

Kelishiklar – 100% (16 ta)

Qaratqich kelishigi – 0

Tushum kelishigi – 6,2%

Jo‘nalish kelishigi – 18,7%

O‘rin-payt kelishigi – 37,5%

Chiqish kelishigi – 37,5%

Abdulla Oripovning “Birinchi muhabbatim” nomli kitobidan o‘rin olgan “Ohu” she’rini lingvostatistik jihatdan tahlil qildik. Undagi egalik kategoriyalarini ham, kelishik kategoriyalarini tadqiq etdik. Ushbu she’rda egalik kategoriyasiga oid birliklar 13 ta qo‘llangan. Egalik kategoriyalaridan eng ko‘p III shaxs birlik egalik kategoriyasi qo‘llangan. Buni raqamlarda ham ko‘rishimiz mumkin:

Egalik kategoriyasi – 100% (13ta)

I shaxs birlik – 7,6%

I shaxs ko‘plik – 0

II shaxs birlik – 46,1%

II shaxs ko‘plik – 0

III shaxs birlik – 53,8%

III shaxs ko‘plik – 0

Ushbu she’rda kelishik kategoriyasiga oid birliklar miqdori 13 ta. Kelishik kategoriyalaridan eng faol qo‘llangan birlik Jo‘nalish kelishigidir. Buni raqamlarda ko‘rishimiz mumkin²⁷⁹:

Kelishiklar – 100% (13 ta)

Qaratqich kelishigi – 15,3%

Tushum kelishigi – 15,3%

Jo‘nalish kelishigi – 38,4%

O‘rin-payt kelishigi – 23%

Chiqish kelishigi – 7,6%

Tahlillardan ko‘rinadiki, bugungi kunda lingvostatistik jihatdan o‘rganiladigan, tadqiq etiladigan noyob asarlarimiz bisyor. Lingvostatistik tahlil yordamida shoir nutqida faol qo‘llaniluvchi birliklar haqida talaygina ma’lumotga

²⁷⁸ Ushbu tekshirishlarda bosh kelishik va belgisiz qo‘llangan kelishiklar sanalмай, faqat belgili kelishiklar hisoblangan.

²⁷⁹ Ushbu tekshirishlarda bosh kelishik va belgisiz qo‘llangan kelishiklar sanalмай, faqat belgili kelishiklar hisoblangan.

ega bo‘lish mumkin. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida ham bu sohada bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.Muhamedova, M.Saparnizoyova. Matn lingvistikasi. T – 2011. -B. -85, -86.
2. Piotrovskiy R.G. Informatsionnoe izmerenie pechatnogo teksta Entropiya yozika i statistika rechi. –Minsk, 1966. -S.5-86.
- 3.E.Vohidov. Ruhlar isyoni. Yosh kuch. T – 2019. –B. -5-23.
- 4.A.Орипов. Биринчи муҳаббатим. T – 2018. –B. -3-56.
- 5.Э.Воҳидов. Изтироб. T – 1992. –B. -326-328.

ТИЛ ВА МАДАНИЯТ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАДҚИҚОТНИНГ ТАРМОҒИ

Мунира Хакимова, ЎзДЖТУ

Бирор кишининг тилни билиш моҳияти масаласи узоқ вақт давомида тилшунослар ва методистларнинг диққат марказида бўлиб келган. Тилни ўзлаштириш ва ундан фойдаланиш бўйича турли хил стратегияларни ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш кўплаб катта ва кичик асарлар мавзусидир. Ишончли, истикболли ва самарали таълим тизимини яратишда бўлган уринишлар тилшуносликни ҳар хил йўллар билан ва ҳар хил нуқтаи назардан рағбатлантиради. Турли хил тизимлар тилидаги урғу: фонетика, грамматика ва луғат-бу тилнинг эгаллик ва маҳорат сирини очганга ўхшайди, лекин уни тўлиқ очиб бермайди. Тилшуносликнинг ривожланиши туфайли чет тилини ўрганиш диққат марказида болмоқда. Аммо, ушбу ютуқларга қарамай, чет тилини ўрганаётган киши ўрганаётган тил элементларида турли хил тўсиқларга дуч келди. Ушбу тўсиқни аниқлашга уринишлар муқаррар равишда тадқиқотчини тил схематик тасвирлар ва қатъий қоидалар кўрсатмаларга киритиш қийин бўлган нарса, унинг ички қисмида намоён бўлади деган хулосага олиб келади. Ушбу қаршилик кўрсатувчи материал тилда инсон омили томонидан яратилиб, мослашувчан, ўзгарувчан бўлиб келмоқда. Тилда инсон омилини ўрганиш муқаррар равишда тилнинг антропоцентрик хусусиятларини ўрганишга олиб келади. “Тил тушунчаларини ифодаловчи белгилар тизимидир, шунинг учун уни ёзув билан, карлар алифбоси, рамзий тасвирлар, хушмуомилалик шакллари, ҳарбий сигналлар ва бошқалар билан солиштириш мумкин. Ушбу тизимнинг хусусиятлари фойдаланувчига боғлиқлигини аниқлаш муҳим”. [1:235 бет]

Шундай қилиб, тилни ўрганиш каби тизимлар тил тизимнинг антропоцентризмнинг турли хил намоёишлари бўйича тадқиқотлар билан тўлдирилади. Тилнинг антропоцентризими инсоннинг ўзига хос

хусусиятларини тилда акс эттириш билан боғлиқ муаммоларни таҳлил қилишда намоён бўлади. Бу ўзига хослик дунёни идрок этиш, атрофдаги оламни шахснинг луғавий онгида акс эттириш, дунё ва унинг объектлари ривожланишининг натижаларини тил воситасида белгилашга таалуқлидир. Тилнинг антропоцентризм муаммоси доираси инсон томонидан дунёни билиш хусусиятларининг тилда акс этишини ҳам ўз ичига олади. Бироқ, шу билан бирга, турли тилларни тавсифлаш жараёнида тилшунослар тилларда кескин фарқ қилувчи ҳодисалар мавжудлигига дуч келишди. Ушбу номувофиқликларнинг сабабларини излаш беихтиёр турли хил миллий-лингвистик жамоалар ҳаётини ташкил этишнинг турли усуллари мавжудлигини, дунё тараққиётининг турли хил натижалари, ҳаётни ташкил қилиш учун турли шароитлар мавжудлигини, яъни кенг терминологик маънода, халқ маданияти деб аташга олиб келади. Тил ва маданият миллатнинг маънавий хусусияти сифатида “халқ руҳи” деб таърифлана бошлади. [2:115 бет]

Тилшуносларнинг ўзгармас жавобини топиб, тил ва маданият ўртасида ўзаро боғлиқлик ҳақидагисавол бошқача ечим топди. Шу билан бирга, унинг алдамчи шаффофлиги ва аниқлиги шубҳасиздир. Шундай қилиб, В.В.Виноградов таъкидлаганидек, “тил нафақат фикрни ифода этиш воситаси, балки унинг шаклланишидир, таффакурни шакллантирувчи орган ва шу билан бирга ўзини ўзи яратган фикр. Виноградов ушбу позицияни ривожлантиради ва луғатни ўрганиш “моддий ва маънавий маданиятни билмасдан” тасаввур қилиб бўлмаслигини таъкидлайди. [3:115 бет]

“Маданият” тушунчасидан доимий фойдаланиш ушбу сўзни кундалик ва ноўрин ишлатишни англатишдан кўра ушбу ноаниқ атамани тушунишда кўпроқ аниқлик талаб этилади. Тарихий маънода, маданият-бу “ҳаёт йўли асосини ташкил этувчи фаолият ва эътиқод усуллари тўплами”.

Тил механизмини тавсифлашнинг мураккаблиги тил организмнинг ўзига хослиги ва ноаниқлигидан келиб чиқади. Тил мавҳум, субъектив ва объектив, шахсий ва жамоавий, миллий ва умумбашарийликни бирлаштиради. Тил ўзига хос хусусиятларни тушунишга ёрдам беради ва руҳий тамойил, маълумки, маданият билан боғлиқ бўлиб, у билан шартланади ва ундан ажралмайди. Тил ва маданият ўртасидаги боғлиқликни англаш қийинлиги тил фактларининг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш қийинлигидан келиб чиқади. Кўплаб тилшуносларнинг саъй-ҳаракатлари ушбу сирни очишга қаратилган. Тил сирлари уфққа ўхшаб, кўплаб тадқиқотчиларнинг қизиқувчан фикрларидан қочиб, ҳар доим ўзгариб боради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Фердинанд де Сасюр “Тилшуносликдаги ишлар” француз тилидан таржима, 1977й 235-285 бетлар
2. Вильгельм фон Гумбольдт “Тилшуносликка оид танланган асарлар” 1984й, 110-200 бетлар
3. В.В. Виноградов “Умумий тилшунослик бўйича мақолалар”, 1995й, 386-405 бетлар
4. Н.Д. Арутюнова “Рус маданиятининг тиллари” 1999й, 586 бет.

NOM KO'CHISHI HODISASI FUTBOLCHILARNING LAQABLARI TALQINIDA

Б. Х. Иминжанов, AndDU talabasi

Bir so'zning yangi narsa, belgi, harakat kabilarning atamasiga aylanishining, ya'ni nom ko'chishi natijasida yangi ma'no hosil bo'lishining ma'lum asos va usullari bor. Bular quyidagilar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik. [1. 108-bet.]

Adabiyotlarda nomning metafora yo'li bilan ko'chirilishida ko'proq quyidagilar asos bo'ladi deb ko'rsatiladi:

- 1) kishi tana a'zolarining nomlari (yuz, bet, bosh, yelka, oyoq, qosh, lab, biqin, og'iz, bel, ko'z, iyak, bo'yin, burun kabilar);
- 2) kiyim-kechak qismlarining nomlari (etak, yoqa);
- 3) hayvon, parrandalarning a'zolari nomlari (qanot, dum, tumshuq);
- 4) o'simlik qismlarining nomlari (ildiz, tomir);
- 5) turli belgilarni ifodalovchi so'zlar (baland, past, egri, shirin, og'ir, xira, chuqur, bemaza, xom singarilar);
- 6) harakatni ifoda qiluvchi so'zlar (tashlamoq, uchmoq, ulamoq, savalamoq, cho'kmoq, tushmoq, buzmoq, ayirmoq kabilar). [2]

Metafora nutq jarayonida o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. U bir-birini taqozo qiluvchi boshqa vositalar bilan chambarchas bog'liq. Biz nom ko'chish hodisasini futbol olamidagi o'yinchilarning laqablari talqinida o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Shuningdek, bu sohadagi nom ko'chishlarga sabab bo'lgan hamda taqozo qilgan vositalar haqida ham so'z yuritdik. Quyida ayrim futbol yulduzlari misolida nom ko'chish hodisasini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Futbol – millionlar o'yini. Uni muhlislarsiz, va albatta, o'yinchilarsiz tasavvur qilish mutlaqo mumkin emas. Futbol olami bilan laqablar tushunchasi doim birga. Chunki muhlislar o'z sevimli jamoalariga, sevimli o'yinchilariga laqablar qo'yishni xush ko'radilar. Berilgan laqablari orqali ularning mahoratini, o'ziga xos tomonlarini ifodalashga harakat qiladilar. Shunga ko'ra, laqablar ham turfa xil. Mashhur, bir-biridan qiziq va bir-biridan antiqa laqablar ko'plab uchraydi.

Futbol yulduzlariga laqab berish hodisasini quyidagi uch yo'l bilan yuzaga kelishini o'rgandik:

- 1) tashqi ko'rinishidan kelib chiqqan holda;
- 2) harakatlaridan kelib chiqib;

3) o'ziga xos ramziylik asosida.

Bir o'yinchining bir nechta laqablari bo'lishi tabiiy hol. Bu holatda biz misol tariqasida muhlislar orasida eng keng tarqalganini keltirib o'tdik.

Futbolchilarga laqab berishdagi birinchi yo'l uning tashqi ko'rinishidan kelib chiqqan holda ro'y beradi. Har bir insonning tashqi tuzilishida o'ziga xoslik, atrofdagilardan ajralib turuvchi belgisi bo'ladi. Bu holat muhlislarning ham nazaridan chetda qolmagan. Bir qancha o'yinchilar borki, shu yo'l bilan o'zlariga laqablar orttirib olganlar. Misol uchun, Angliya terma jamoasi hujumchisi Ueyn Rooneyni olaylik. Uning yuz tuzilishi va shalpangquloqlari mashhur multfil qahramoni Shrekni yodga soladi. Shu sababli, bu o'yinchining laqabi – “Shrek”.

Italiya terma jamoasi hujumchisi Stefano El-Sharaviyning o'ziga xos tik sochlari bor. Ko'rinishi ham jiddiy. Uning qiyofasi qadimgi Misr hukmdorlarini yodga soladi. Shuning uchun muhlislar uni “italiyalik fir'avn” deya ataydilar.

Argentina terma jamoasi hujumchisi Xavier Saviolani esa muhlislar “chumoli” deya nomlashgan. Chunki u jamoadagi eng bo'yi past (166 sm) va jussasi kichik o'yinchi hisoblangan.

Futbol o'yinchilariga nom berishning ikkinchi yo'li shaxsiy harakatlaridan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Har bir o'yinchi maydonda harakatlanar ekan, muhlislar qarshisida o'z individual mahoratini ko'rsatishga intiladi. Bu o'yin samaradorligini oshirishga ham yordam berishi shubhasiz. Ushbu yo'l bilan hosil qilingan laqablar talayginadir. Jumladan, Ispaniya terma jamoasi o'yinchisi Jordi Alba qanot bo'ylab muttasil uyushtirib turuvchi reydlari bilan mashhurdir. U jamoaning eng tezkor o'yinchilaridan biri hisoblanadi. Shu sabab, muhlislar uni “raketa” deya ataydilar. Albaning tezkorligi bu nomga munosib.

Italiyalik goleador hujumchi Vichenso Montella faoliyati davomida ko'plab gollarga mualliflik qilgan. U gol urgandan so'ng qo'llarini ikki yonga keng yoygan holda maydon bo'ylab yugurishga tushadi. Muhlislar ham Montellaning ushbu odatidan kelib chiqib, unga “samolyot” deya nom berdilar. Darhaqiqat, uning maydon bo'ylab bu yugurishi uchayotgan samolyotni eslatardi.

Urugvay terma jamoasi hujumchisi Luis Suarez bir necha bor raqib o'yinchilarini tishlab olganligi bilan mashhur. Bu qilmishi uchun har safar jazo olsa-da, tarki odat amri mahol. Muhlislar ham bunga ko'nikdilar va unga “qopag'on” deya laqab berdilar.

Futbolchilarning laqablar olishidagi uchinchi yo'l o'ziga xos ramziylik asosida vujudga keladi. Bu holatda berilgan nom o'yinchining individual harakatlariga ham, tashqi ko'rinishiga ham dahldor emas. Masalan, futbol olamining ikki zabardast vakillari Cristiano Ronaldu va Lionel Messini muhislari “o'zga sayyoraliklar” deb ataydilar. Chunki ularning o'yinlardagi statistikasi, samadorlik koeffitsientlari boshqalardan ancha ilgarilab ketgan. Bu laqablar

zamidida “ular bu dunyoning odami emas, ular o’zga sayyoralik bo’lganligi uchun bunday natijalarga erishmoqdalar” degan muhlislar fikri yotadi.

Polshalik hujumchi Robert Levandovskiy deyarli har bir o’yinda raqiblar darvozasini ishg’ol qiladi. U doim harakatda, to’xtash haqida o’ylamaydi ham. Muhlisleri Robertga ramziy ravishda “gol mashina” deya laqab berganlar.

Bu misollarni yana ko’plab keltirish mumkin. Zero yuqorida aytganimizdek, har bir futbol o’yinchisining o’z laqabi bor. Metafora, qayta nomlash, xususan, laqablar masalasini futbol terminlari, futbolchilar va jamoalarning laqablari talqinida o’rganish katta samara beradi degan fikrdamiz. Yuqoridagi nom ko’chishlar orqali hosil bo’lgan yangi nomlar xalqaro mavqega ega bo’ladi. Futbol o’yini atamalari ham hali fanda o’rganilmagan bo’lib, ularni harakat nomlari, to’p surish jarayoni nomlari, futbol jamoalari va futbolchilarning hamda murabbiylarning laqablari kabi turlarga bo’lib o’rganish mumkin.

Adabiyotlar

[1] Hozirgi o’zbek adabiy tili. I qism. T.: “O’qituvchi”, 1980.

[2] Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o’zbek adabiy tili. (Darslik). T., 2010

OT SO’Z TURKUMIDA SON KATEGORIYASINING LEKSIK-SEMANTIK USUL BILAN IFODALANISHI

Kibriyo Hakimova, ADU talabasi

Ko’plik ma’nosi leksik-sintaktik usul bilan qo’yidagicha ifodalanadi: 1) Sanoq sonlar, gumon olmoshlari va miqdor ravishi o’zini aniqlab keladi: *uchta kitob, bir nechta bola, ko’p bola, juda ko’p daftar, har xil kitob. U bilan hayotini bog’lagan odam ko’p narsaga erishishi mumkin. (U.) Mingta qal’angdan o’zimning dala yaxshi oxun.* (Bu birikmalardan ba’zilari -lar affiksini qabul qila oladi; *ko’p odamlar, bir qancha bolalar* kabi. Bunda ko’plik ikki marta: ham leksik-sintaktik usul bilan, ham morfologik usul bilan ifodalanadi.²⁸⁰ Otga sifatlovchi bo’lib kelgan ot, sifat, son takrorlanadi: *dasta-dasta gul, to’da-to’da odam, baland-baland torlar. Har rastada ming-ming do’kon. (Furqat.)*

Issiq-issiq yurtlar izlab,

Ketayotir turnalar. (M. Yusuf, Saylanma, 161-b)

Misollardan ko’rinadiki, sifat takrorlanganda, aniqlanmish ot -lar affiksi bilan ishlatiladi. Demak, bunday ifodalanishda leksik-sintaktik usul ham, morfologik usul ham qatnashadi.

Juft so’zlar orqali ham ko’plik - umumlashtirish ma’nolari ifodalanadi: *el-yurt, kecha-kunduz, og’a-ini, dala-dasht* kabi.

Sizda orom qayda, sizda tin qayda,

Siz to’yib uxlaganbitta tun qayda.

²⁸⁰ Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. –Toshkent: O’zbekiston, 1992, 257-b

El-yurt oromini asragan zotlar,

El mehri asrasin sizni har joyda. (M. Yusuf, Saylanma,142-b)

Ey Muhammad, olti og'a-ining bor,

Birda yaxshi, birda yomon kuning bor. (M. Yusuf, Saylanma,156-b)

[-lar] shaklining ko'plikni ifodalashi masalasida barcha tilshunoslar hamfikr. Ammo, nol ko'rsatkichli shakl masalasida har xil qarash bor. Ko'p holda nol shakl faqat birlik ma'nosining ifodalovchisi sifatida qaraladi. Ba'zilar esa u na ko'plik, na birlik ifodalashini ta'kidlab, bu shaklning son kategoriyasi tarkibidagi o'rniga shubha bilan qaraydi. Zero, nol shakl miqdoriy grammatik ma'no anglatishdan mahrum ekan, unda [-lar] shakli bilan aynan bir xil qurshovda o'rin almashishini qanday tushunish kerak? Unda *Askar o'rab oldi o'ngdan-u so'ldan* (Mirt.) Gapida mantiqan (*askarlar*) so'zshakli ishlatilgan bo'lur edi.

[-lar] va nol shakl – hozirgi o'zbek tilida miqdor anglatuvchi grammatik ko'rsatkich. Bu ular sof miqdor anglatadi, degani emas, albatta. Miqdor belgisi bu shakllarda kategorial ma'no bo'lsa, unda sifatiy yondoshuv va boshqa hamroh ma'no ham mavjud.²⁸¹

O'zbek tilida otning birligini ko'rsatuvchi maxsus affiks yo'q. So'zning predmet tushunchasini ifoda qiluvchi affiksiz holatining o'zi, ya'ni nol ko'rsatkichdagi formasi birlikdir. Lekin ba'zi otlar birlik formada bo'lib, ayrim predmetlarning to'dasini anglatadi: *xalq, armiya, olomon, to'da*. Bu ko'plikning semantik usul bilan ifodalanishi deb yuritiladi.

Otlarning ko'plik formasi bir jinsdagi yoki undan ortiq bo'lgan noaniq miqdordagi predmetlarni ifoda qiladi. Bu forma -lar affiksi orqali hosil bo'ladi. Ko'plikning bunday ifodalanishi morfologik usul bilan ifodalanish deb ataladi: *kitob* (birlik) - *kitoblar* (ko'plik). O'zbek tilida otning son formasi (birlik va ko'plik formasi) sintaktik munosabat ko'rsatmaydi.²⁸²

Z. Maxatovanning "So'zlar tarkibida –lar qo'shimchasining o'rinlashishi" maqolasidagi ba'zi fikrlarga e'tiborimizni qaratamiz. O'zbek tilida so'z tarkibidagi morfemalarning joylashishi ma'lum qoidalar, ya'ni modellarga ega. Leksik ma'no bilan bo'g'liq qo'shimchalar oldin, grammatik ma'no hosil qiluvchi shakl yasovchilar so'ng, sintaktik munosabat vujudga keltiruvchi qo'shimchar so'z oxirida joylashadi. *Bo'yoqchi -lar* qo'shimchasi semantik jihatdan xilma-xil xususiyatlarga ega bo'lishidan tashqari, grammatik jihatdan ikki xildir. Odatda, fe'lga qo'shilganda sintaktik vazifa bajarsa, otlarga qo'shilganda kelishik va egalik shakillaridan keyin kelib, grammatik miqdor ma'nosini ifodalovchi shakillarni hosil qiladi. Ot turkumiga oid so'zlarda -lar qo'shimchasining qat'i o'rni bor. U

²⁸¹ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009, 230- b.

²⁸² Shoabdurahmonov SH, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyorov X. Hozirgi o'zbek tili.-Toshkent: O'qituvchi, 1980, 218-b.

egalik va kelishiklardan oldin o'rnashadi. Bu o'zgarish miqdorning emas, uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. *Shahardan opalarim kelib qolishi mumkin.*(grammatik miqdor.) *Yetaklashib opamlarning hovlilaridan o'tib bordik.*(hurmat) -lar fe'llarga qo'shilib

sintaktik vazifa hosil qilishda ularning semantikasida grammatik miqdor semasi anglashilib turadi.(hurmat ma'nosi bundan mustasno)

Sizlar mushkul operatsiyani bajarib qo'mondonlik ishonchini oqladinglar.(A.Ubaydullaev)²⁸³

Ushbu kategoriya GM (Grammatik ma'no) si va GSh (grammatik shakl) lari va ularning o'zaro munosabatlari masalasi borasida tilshunoslar tomonidan turli-tuman qarashlarni bayon etilishiga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. I tom.-Toshkent:Fan,1975,125-b.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova G., Yunusova Z., Abzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
3. Shoabdurahmonov SH, Asqarova M,HojiyevA, Rasulov I, DoniyorovX. Hozirgi o'zbek tili.-Toshkent: O'qituvchi,1980..
4. .Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'zbekiston,1992.
5. Z. Maxatovaning “So'zlar tarkibida –lar qo'shimchasining o'rinishi” O'zbek tili va adabiyoti” jurnali№1.,2006.

Badiiy adabiyotlar:

1. Yusuf M. Saylanma: She'rlar, dostonlar, xotiralar.-Toshkent: Sharq, 2014.-288 b.
2. Hoshimov O'. Daftari hoshiyasidagi bitiklar.- Toshkent: Sharq, 2013. -399 b.
3. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar.- Toshkent: Meriyus, 2011. - 255 b

TILDA SINONIMIK MO'JIZALAR

M.T.Gapparova, NDPI o'qituvchi,

N. Sh. Abduraxmonova, 1-kurs talabasi

Ma'lumotlarga asoslanadigan bōlsak, yer yuzida 7 mingdan ortiq til mavjud. Bu tillarning ayrimlarida bir necha o'n, hatto yuz millionlab, kishilar o'zaro aloqada foydalansa, ba'zilaridan bir necha ming kishigina foydalanadi, xolos.

Agar chuqurroq yondashilsa, tildan kōp tarmoqlar ajratib chiqarish mumkin. Tilshunoslikda uni morfologiya, fonetika, leksikologiya, sintaksis, morfemika kabi bōlimlari farqlanadi.

Leksikologiya bōlimida sinonimlar, omonimlar, kōp va bir ma'noli sōzlar o'rganiladi. Hozir sinonimlar haqida ma'lumotlar berishni ma'qul topdim.

Sinonimlar yunoncha – synonymous -bir ma'noli ya'ni bir umumiy ma'noga ega bōlgan qōshimcha ma'no ottinkasi, uslubiy bōyo'gi, qōllanishidagi xususiyati va shu kabi belgilar bilan farqlanadigan sōzlar. (Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lu'gati. T., Fan, 2002. 88 -bet)

²⁸³ Z. Maxatovaning “So'zlar tarkibida –lar qo'shimchasining o'rinishi” O'zbek tili va adabiyoti” jurnali№1.,2006,79-b.

Sinonimlar har bir tilda mavjud бўlib, ularning asosiy vazifasi tillarning qanchalar jozibadorligi va takrorlanmasligini ifoda etishdan iborat.

Ma'lum matn, hikoya, yoki katta bir asar yozish bōlsin yoki nutq jarayonida , va shu bilan birga , tarjima jarayonida ham sinonimlarning ahamiyati kattadir.

Chunki bir sōz yoki iborani ōzini takrorlayverish badiiy estetikaga ham tarjimadagi muvozanatga ham salbiy ta'sir kōrsatishi yoinki, bōyoqdorlik va samimiylikdan yiroqlashtirishi mumkin.

Chet tillarni ōrganish va uni tadbiq qilishda sinonimlar ham bir qator ōrinlarni egallaydi.Jumladan :

- ❖ Sōzlovchining nuqt hamda sōz boyligini oshirish;
- ❖ Nutqning rang -barangligini ta'minlash;
 - ❖ Tinglovchi e'tiborini qozonish;
 - ❖ Nutqni ravon va ta'sirli qilish;
 - ❖ Ma'no kuchaytirib berish;
 - ❖ Nutqqa putur yetkazuvchi ōrinsiz takrorlardan chetlashtirish kabilar ahamiyatlidir.

Sinonim sōzlar qatorida dominant sōz mavjud bōlib,u barcha sōzlardan ham ijobiy, ham salbiy ifoda bildirishiga kōra farq qiladi.Masalan:yuz, aft ,turq,bashara, chehra,oraz sōzlari ichida yuz sōzi dominantlik ya'ni ustunlik qiladi va u aft, turq, bashara sōzlari ifodalagan salbiy hukmni ham, oraz ,chehra sōzlaridan anglashilgan ijobiy ma'noni ham bildiradi.

Sinonimik qatorlarga quyidagicha misollar keltirish mumkin:

- Like -admire,approve, adore ,treasure,fancy,marvel,appreciate, respect, cherish, favor,desire, enjoy
- Walked – strolled, sauntered, tiptoed, trotted, marched, glided, strutted, shuffled, crept, trudged, hiked, paraded
- Laughed giggled, chuckled, roared, whooped snickered, guffawed, shrieked, grinned, crackled, bellowed, chortled
- Sad depressed, gloomy,miserable, cheerless, unhappy, dejected, forlorn, sorrowful, upset downcast, tearful, somber
- Looked - gazed ,examined, glanced, viewed, observed, peeked,stared, watched, inspected, spied studied, noticed
- Said – commented replied,remarked,declared, stated,exclaimed, shouted, responded, whispered, announced, boasted, explained

Xulosa qilib aytganda, sinonimlarni kōproq ōrganish,ularni tadqiq qilish sinonimik qatorlarni kōpaytirish va ularning qōllanishini yaxshi bilish har bir kitobxonni va tarjimonni bu sōzlardan unumli va eng muhimi tōgri foydalanishini ta'minlaydi.Ma'nodosh sōzlar bir ma'noni xilma xil sōzlar orqali turli nozik ma'no

qirralari bilan ifodalashda, sōz sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta'sirchanligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar rōyxati:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli luğati. T., Fan, 2002. 88 -bet.
2. Bafoyeva M. "Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish". – T.: O'TA. 2003. 2-So-B.45.

TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARI MASALASI

(maktab darsliklari miqyosida)

Alijonov Husniddin, QDPI talabasi

Bizga ma'lumki, fikrni ifodalovchi asosiy birlik gapdir. Gap esa o'ziga xos sintaktik va semantik qurilishga ega hodisa hisoblanadi. Tahlil jarayonida gap bo'laklarga ajratiladi, izohlanadi va guruhlanadi. U bosh(ega va kesim) hamda ikkinchi darajali(aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) bo'laklardan tashkil topadi. Gap bo'laklarini belgilash bevosita predikat bilan uzviy bog'liq. Shu sababli dastlab fikrimizni kesimga qaratamiz.

Sinf darsliklarida kesimning qaysi turkum so'zlar bilan ifodalanishiga ko'ra ikki turi izohlanadi: 1. Fe'l kesim sof fe'l va bazan ravishdoshning –guncha shakli orqali ifodalanadi. 2. ot kesim fe'ldan boshqa turkumlar (ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlidso'z) bilan, shuningdek, fe'lning harakat nomi shakli bilan ifodalanishi ta'kidlanadi. Shu o'rinda fe'l kesimning ravishdoshning faqat –guncha shakli orqali emas boshqa shakllari orqali ham ifodalanishi mumkin degan fikrdaman. Masalan, " Bahor kelib, gullar ochildi". Ushbu gapning birinchi " Bahor kelib" qismi tarkibidagi ravishdoshning –ib shakli kelmoq so'zini kesim vazifasida kelishini taminlagan. U o'zida zamon(ish-harakat mantiqan tugallangan), shaxs-son(III shaxs birlik), mayl (habar mayli), tasdiq-inkor (tasdiq shaklida) kabi kesimlik ma'nolarini ifodalaydi.

Kesim tuzilishiga ko'ra sodd va murakkabdir. Bir so'z bilan ifodalangan kesim sodd kesimdir: Ukam bugun **keladi**. Haqiqat **achchiq**. Birdan ortiq so'z bilan ifodalangan kesimlar murakkab kesim deyiladi: O'zbekiston – **kelajagi buyuk davlat**. Hamma gap - **mening yo'qligimda**. Kesimni sodd va murakkabga ajratishda so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlariga yetarli e'tibor berilmagan, yani juft, takroriy va qo'shma so'z (qismlari ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar) larning sodd yoki murakkab kesim bo'lishi yoritilmagan.

Ega – gap kesimidan anglashilgan harakatning bajaruvchisini, belgining sohibini bildirgan bosh bo'lakdir. Ega doim bosh kelishik shaklida bo'ladi, shuningdek, egalik va son qo'shimchalarini qabul qila oladi. Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin.

1. Ot bilan: *Aziz o'sha kitobni o'qidi. Milt-milt yonib turgan **chiroq** birozdan so'ng o'chdi.*
2. Olmosh bilan: ***Sen** o'zingni maqtama, seni birov maqtasin. (Maqol)*
3. Son bilan: ***Ikkalasi** ham chiqib ketishdi. (M. Ism.)*
4. Sifatdosh bilan: ***o'qigan** o'qdan o'zar, **o'qimagan** turtkidan shoshar. (Maqol)*
5. Sifat bilan: ***Yaxshilar** ko'paysin, **yomon** qolmasin. (Qo'shiqdan)*
6. Harakat nomi bilan: ***O'qish** jafoli, keti vafoli. (Maqol)*
7. Taqlid so'z bilan: ***Qars** ikki qo'ldan chiqadi. (Maqol)*

Sodda gap ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra 1 sodda yig'iq, 2 sodda yoyiq turlarga bo'linadi kesim yoki ega va kesimdan iborat gaplar sodda yig'iq gap hisoblanadi: **Keldim. Men keldim.** Ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengaygan gap sodda yoyiq gap deyiladi: Men **bugun** keldim. **Bu kitobni o'qish uchun** oldim. Sodda gapni yig'iq va yoyiq ajratishda ega yoki kesimni birikmali ifodalanishiga e'tibor berish kerak. Chunki "Gapirishni bilish talantdir". "Amalsiz ilm – mevasz daraxt". "Alisher navoiy – g'azal mulking sultoni". kabi gaplarda ega va kesim so'z birikmasi holatda ifodalansa, yig'iqmi, yoyiqmi degan tabiiy savol tug'iladi.

Bundan tashqari, ikkinchi darajali bo'laklarni tahlil qilishda ham bir oz muammolar mavjud: Maktab darsliklarida hol va to'ldiruvchi faqat fel bilan ifodalangan gap bo'lagigagina bog'lanishi takidlanib kelinadi, vaholankii mashqlarni tahlil qilish jarayonida zid holatlarni uchratamiz. *Halim shaharda o'qituvchi, G'afur zavodda ishchi. Men hozir talabaman. So'z pichoqdan o'tkir* kabi gaplarda hol va to'ldiruvchini feldan boshqa turkumlarga ham bog'lanishini kuzatish mumkin.

Ba'zida "daraxtda qushlar sayraydi". "U o'qishga mashinada keldi" singari gaplardagi so'zlarni tahlil qilganda harakatni bajarish vositasini ifodalovchi gap bo'lagini uning predmet yoki nopredmetlik ma'nosidan qat'i nazar, to'ldiruvchi yoki hol deb atashning o'zi ham muammoli. Chunki ular bir vaqtning o'zida *nimada* so'rog'iga ham, *qanday, qay holda, qay yo'sinda* so'roqlariga ham javob bo'lishi tabiiy hamda ularning mohiyatini to'laroq ochishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, misollardagi so'zlarning bunday so'roqlarni olishida o'rin-payt kelishigi ko'rsatkichining roli muhim.

Shuningdek, hozirgi darslikdagi tarixiy matnlarni sintaktik tahlil qilish jarayonida o'quvchilar jiddiy muammoga duch kelishyapti. Gap bo'laklariga doir darslikdagi nazariyalar so'zlarni tahlil qilishga yetarlicha imkon bermaydi. Shuning uchun darsliklarga "gap kengaytiruvchi" va "so'z kengaytiruvchi" kabi atamalarni kiritish va tahlil jarayonini soddalashtirish kerak. Shunday yo'l tutilsa, o'quvchilarga darslikdagi mashqlarni tahlil qilish va uning mazmunini tushunish uchun imkon yaratiladi. Umuman olganda, darsliklarda uchraydigan yuqoridagi kabi muammolarni hal etilishi tilshunos mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalar sanaladi.

TOG'AY MUROD ASARLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

M.Muhammadjonova, QDPI talabasi

Ma'lumki, yozma badiiy adabiyotning tarixiy ildizlari xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Shu ma'noda xalq maqollari ma'lum bir xalqning donishmandlik namunalari hisoblanadi. Maqollar tilda informativlik nuqtai nazaridan katta imkoniyatga ega bo'lgan, ajdodlar tomonidan tayyor holga keltirib qo'yilgan, barqarorlik sifati asosiy xususiyatlaridan bo'lgan birliklardir. Ular o'zida yuksak badiiylikni ham aks ettiradi.

O'zbek xalq maqollari ming yillik tarixga ega bo'lib, yozma adabiyotimizning boy xazinasini sanaladi. Chunki shu xazina tufayli o'zbek adabiyoti mustahkam ildizlariga ega. O'zbek xalq maqollariga ilmiy munosabat shakllarini qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asarida uchramiz. Buyuk ajdodimiz turkiy xalqlar turmush tarzi va dunyoqarashida alohida o'rin tutgan xalq maqollarining ahamiyati xalq og'zaki ijodi namunalari sirasida alohida e'tiborga egaligini o'z asarida ta'kidlab, isbotlab ham beradi. Mazkur asarida keltirilgan maqollarning filologik, etnografik, tarixiy xususiyatlarini umumiy ravishda keng va atroflicha tushuntirib beradi.

Xalq donoligining ulkan va beqiyos namunasi bo'lgan maqollar xalqning tabiat va jamiyat uyg'unligida turmush kechirishlarida, ularning borliqqa munosabatini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. Ularni dunyodagi har bir xalq nodir va bebaho boyligi sifatida qadimgi rivoyat va hikoyatlar, hikmatli iboralar qatorida asrlardan asrlarga, ajdodlardan avlodlarga asrab-avaylab, ko'z qorachig'iday saqlab yetkazib kelmoqda. Kishilar orasidagi suhbatlar, yozilgan biror katta-kichik asar yo'qki, unda xalq maqollari o'zining badiiy qudratini ko'z-ko'z qilgan holda ishtirok etmagan bo'lsin.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda badiiy adabiyot tili muammolari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarni aniq va batafsil ochib berishga mo'ljallangan juda ko'plab tadqiqotlar yaratilib kelinmoqda. Ma'lumki, so'z badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratishning, uni individuallashtirishning muhim omillaridan biri sanaladi. So'zsiz, ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalar ishtirokisiz obyektiv borliqdagi narsa-predmetlarni, hodisalarni aniq tasvirlash mumkin emas. Azal-azaldan so'zlar vositasida ana shunday leksik-semantik guruhlar va turli xil ma'no ko'chish yo'llarini hosil qilishgan. Buning natijasi o'laroq asar badiiy saviyasi oshgan va o'z badiiy qimmatini saqlagan holda avlodlargacha yetib kelgan.

Badiiy matnning estetik vazifasiga alohida urg'u bergan holda lingvopoetika sohasi bo'yicha ish olib borgan Ma'rufjon Yo'ldoshev shunday ta'kidlaydi: "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Unda badiiy tasviriy vositalardan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga chiqadi. Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini rivojlantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi"²⁸⁴.

Tog'ay Murod ijodining xalqchilligi va ommaviyligini ta'minlovchi eng birinchi vositalardan deb xalq og'zaki ijodi namunalarini olish mumkin. Ijodkor o'z asarlarida xalqqa yaqin bo'lgan, aynan ular foydalanadigan so'zlar va suhbatlaridagi vositalarni keltirib, qahramonlar nutqida shakllantiradi. Bu esa ijodkor va o'quvchi o'rtasida chegara qoldirmay, ularni yaqinlashtiradi hamda bir-biriga qadr don qiladi. Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" kabi yana boshqa qator roman va qissalarida xalqimizning og'zaki ijod mahsuli bo'lgan maqollar, topishmoqlardan o'rinli va unumli foydalangan. Qahramonlar xarakter xususiyatlarini ham o'zida ochib bera oladigan xalq og'zaki ijodi namunalari asarlarning badiiyatini oshirgan.

Tog'ay Murod o'z asarlarida quyidagi kabi ko'p maqollardan foydalangan:

"Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi", "Ot tepkisini ot ko'taradi", "Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi", "Aslini bilmay, so'z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar", "Ko'ngling bilan eshit – quloq aldaydi, aqling bilan ko'r – ko'z aldaydi", "Chiroying borida chinoringni top", "Bo'laringda bo'lib o't, bo'z yo'rg'aday yelib o't", "Folchiga ishonma, suvga suyanma", "Elakka bormish ayolning ellik og'iz gapi bor", "Yomon xotinning uyi ko'p, poraxo'rning to'yi ko'p" ...

Xususan, "Ot kishnagan oqshom" qissasida quyidagi maqollardan foydalanilgan:

"...O'zing bir sag'ir(yetim) bo'lsang, senga kim qo'yibdi otni, dedi. Yana tag'in kal bo'lsang, kalga otim nimam, dedi. Kalga eshak ham bo'ladi, dedi.

Birodarlar, el shunday! El og'ziga elak tutib bo'lmaydi! Odamzot shunday! Bor bo'lsa, ko'rolmaydi, yo'q bo'lsa, berolmaydi!"

Bunda qahramonimiz Ziyodulla kalning hayotida qilgan yana bir ishidan – bobomeros bo'lgan chavandozlik qoni bilan yigitning qanoti deyilgan bir otga erishganidan xursand holda elning "elaksiz so'zlari" dan ta'sirlangani ifodalanadi.

²⁸⁴ Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 88.

Afsuski, elning “yo’q bo’lsang, berolmaydi-yu, borligingda ko’rolmaslig”idan azobda qolgan qahramon gavdalanadi.

*“Bir imonsiz adolatni bo’g’sa, yo’limizni chap solamiz...Tilimizni tishlaymiz. O’zimizga g’anim orttirishdan qo’rqamiz. Qo’y, qo’yaber, **to’g’ri gap tuqqaningga yoqmaydi, deya qo’l siltaymiz.**”*

Ijodkor aslini olganda, adolatni o’z oyoqlari ostida qoldirib, adolat yo’q, deya qo’l siltaydigan insonlarga achinish va nafrat tuyg’ularini ifodalashda u insonlarning topgan “qalqon”i yuqoridagi maqol xolos ekanligini isbotlaydi.

“Oydinda yurgan odamlar” qissasida ham shunday o’z an’anasiga sodiq holda, ya’ni asarining xalqchil bo’lishiga harakat qilgan Tog’ay Murod xalq maqollaridan, hatto topishmoqlardan ham unumli foydalangan.

*“Xo’sh, endi nima qilamiz, momosi? Oymomo dasturxondan ko’z olmadi. Xiyol titramish barmoqlari dasturxon gullarini siladi. Toshdan-da og’ir sukunat bo’ldi, azadan-da qayg’uli sukunat bo’ldi! **Bolali uy xandon bo’ldi, bolasiz uy zindon bo’ldi!**”*

Har o’simlik, daraxtning o’ziga yarasha samarasi bilan qadri va o’rni bo’ladi. Insoniyat azaldan o’z naslini, nomini qoldirishi uchun farzand degan mevani istaydi. Shu bilan hayot davomli ekani bilinadi. Xalqimizda yana “*Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor*” degan maqol bor. Qoplon va Oymomolarning qayg’usi-da shu farzand edi. Taqdir ishiga tadbir qilolmas qahramonlarimiz: “*Xo’sh, endi nima qilamiz?*” – deya bir-biridan najot tilaydilar. Tog’ay Murodning zindonda, eng ilojsiz makon – mozorda qolgan kabi imkonsiz qahramonlarining bu vaziyati haqiqatda ***bolasiz uy zindon bo’lishini*** ko’rsatib, xalqimizning beqiyos mahorati bilan yaralgan ijod namunasini namoyon qilgan. Muallif esa bu maqoldan foydalanish orqali butun bir qayg’u-hasrat to’la qahramonlarini o’quvchiga bor bo’yi bilan ko’rsatib bera olgan, his qildirgan.

*“– **Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi! Qo’ying, do’stim, shunga teng bo’lmang! – dedi**”.*

Mazkur maqolda ijodkor yana bir qahramoni – Qimmat momoning “baho”sini belgilab beradi. Qishloqda g’iybat va g’alamis o’ylari bilan tanilgan qahramonimiz tirnoqqa zor Oymomoni ham tinch qo’ymasdan dono xalqimiz so’zi bilan o’z “qiymat”ini topgan. Muallif o’zi his qilgan qahramonlarining vaziyatini shu maqolda mujassam qila olgan.

Insonning aql-zehnini o’tkir qiluvchi, chuqur mushohadaga toldiruvchi topishmoqlar ham xalqimiz donoligi namunalari hamda ajdodlardan meros xazinamiz sanaladi. O’zbek xalqining mehnat-u yig’inlarda o’zlarini sinash uchun an’anaga aylangan topishmoqlar aytish va ularning javobini topish jarayonlari shunday bebaho xazinalarning yaratilishiga asos bo’lgan. Jumladan, Tog’ay Murod o’z asarida shunday mehnat jarayoni davomida topishmoqlar aytish tasvirini

jonlantirgan. “Oydinda yurgan odamlar” qissasida sumalak saylida ayollarning bir-biriga aytgan jumboqlari keltirilgan.

– *Men aytsam, uzun-uzun o'z ketdi, uzun bo'ylik qiz ketdi – qasavasi qarsillab, manglayi yerga tarsillab.*

– *O'rmak. (sholcha yoki gilam to'qiydigan mahalliy dastgoh. O'TIL.)*

– *Kichkina qozonning oshi shirin.*

– *Yong'oq.*

– *Aka-uka bir yashaydi, bir-birini ko'rmaydi.*

– *Ko'zlar.*

– *It emas, irillamas, odam emas, uyga qo'ymas.*

– *Qulf.*

– *Uydamisan, marjon, eshikdamisan, marjon, oyoq-qo'ling ko'rinmas, qulfdamisan, marjon.*

– *O'tov uyi bog'ichi”.*

Asarning bir qismida keltirilgan bu topishmoqlar asardan alohidalik kasb etmay, muallifning ijodiy maqsadini amalga oshirishga xizmat qilgan. Bu namunalar asarning xalqchilligini oshirish bilan birga qadim tariximizni biz o'quvchilarga tasvirlab beradi.

Tog'ay Murod asarlarining badiiy-estetik ta'sir kuchini ta'minlashda xalq og'zaki ijodi namunalrining hissasi katta. Ular asar qahramonlarining hissiy kechinmalari, ruhiy holatlarini yorqin ifodalashda, ayni voqelikda ifodalangan tasvir jarayoniga munosabat va qahramonlarning o'zaro subyektiv munosabatlarini namoyon qilishda muhim vazifa bajargan. Muallif qahramonlarining xarakteri, ruhiy kechinmalari, ruhiy holatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik, xayrixohliklarni tasvirlash maqsadida xalq maqollaridan unumli foydalangan. Tog'ay Murod o'z asarlarida ko'plab maqollarni va boshqa xalq og'zaki ijodi namunalrini qo'llaydi va ular muallifning g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalashda ahamiyatga molik vazifa bajargan.

“QUTADG'U BILIG” ASARIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI

Xamidova Mohinur Xursandbek qizi,
Andijon davlat universiteti talabasi

Sharq uyg'onish davrining eng yirik siymolaridan biri, xalq tilining yirik bilimdoni, buyuk adib Yusuf Xos Hojibning noyob, durdona asari bugungi kun, ma'naviy tuyg'ularini yuksaltirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Adibning bizga qoldirgan “Qutadg'u bilig” asari XI asrda yaratilgan bo'lsa-da bugungi kunda ham hayotiy ahamiyatini yo'qotmagan. Xususan adib “Qutadg'u bilig” asarida o'zbek

tilining jozibasi,ohangdorligi,ta'sirchanligini yuzaga chiqaruvchi so'zlarning ma'no ko'chish usullariga ham ahamiyat qaratgan.

Ko'chim-adabiy asarning badiiy qimmatini,ifodaliligini,ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini,belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi.[1.61] "Badiiy matnning lingvistik tahlili" qo'llanmasida ko'chimlarning quyidagi turlari ko'rsatilgan:

So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar:

- a)giperbola; b) meyozis.

So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar:

- a)metafora; b)metonimiya; c)ironiya.[1.61]

Metafora-narsa-buyum,voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chish usuli[1.61]. Yusuf Xos Hojib o'z asarida bunday ma'no ko'chish usullaridan keng foydalangan. Bu esa baytlardagi ma'no rang-barangligi-yu ifodaning aniqligini ta'minlagan.

Neku bar ajunda o'lumdin qatug',
O'lumug' saqinsa ketar ming tatig'.
O'lum bir tengiz ul chi yo'q tubi,
Baqa ko'rsa etru, tubi yo'q batug'. [2.36]

Nima bor jahonda o'limdan o'tar.
O'lim esga tushsa halovat ketar.
Tagi va tubi yo'q dengizdir o'lim,
Bilib qo'y,chuqur u,tubiga yutar. [2.37]

Ushbu she'rda dengiz so'zida ma'no ko'chishining metafora usuliga asoslanilgan. Bunda (O'lum tengiz) dengiz leksemasining bosh ma'nosi "keng maydonni egallagan;okeanning quruqlikka tutashgan yoki quruqlikka yorib kirgan bo'lagi"[3.597] ma'nosidir. O'lumtengiz birikmasida metaforani hosil qilish uchun belgi-hajmga tayanilgan. Dengiz leksemasining suv bilan to'lganlik semasi chetlashib,chegarasizlik,tubsizlik semasi kuchaytirilgan. Natijada "tubi,oxiri yo'q o'lim" ma'nosi yuzaga kelgan. Bu esa ma'noda ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Bir predmetga(ba'zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko'chirilishi bu metaforaning bir ko'rinishidir.

Ag'ir yuk kishika qilinch arquqi,
Qilinch arquq ersa,bo'lun it o'qi.
Yag'i qilmag'usin qilinchi qilur,
Yag'i bu,yag'idin na bar arduqi.[2.54]

Fe'li badlik erga og'ir yuk erur,

Fe'li bad kishilar tuban it turur.

Yovi qilmas ishni fe'li qilg'usi,

Bu-yovdir va yovdan nechuk farq qilur. [2.55]

Ag'ir yuk birikmasida birikmani tashkil qiluvchi har ikkala so'z ham ko'chma ma'noda qo'llangan. Og'ir so'zi bosh ma'noda "vazni kata bo'lgan,vaznli,vazmin"[3.187] ma'nosidan chekinib, "mushkul,qiyin,mashaqqatli"-ko'chma ma'nosida kelgan.

Yuk leksemasi ham xuddi shunday. Mazkur so'z asli "bir yerdan ikkinchi yerga ko'tarib,tashib borilishi lozim bo'lgan og'irlik"[3.79] semasidan uzoqlashib, "kishini urintirib qo'yadigan,tashvishga soladigan ortiqcha narsa,tashvish" semasini anglatib kelgan. Ikkala so'zda ham ma'noning ko'chishi bu kuchli ma'no va ifodaning nozikligini ta'minlamoqda.

Metaforada harakat,shakl o'xshashligiga asoslanish bilan birga,belgi o'xshashligiga ham asoslaniladi:

Elig mamlakatni obod,el-yurtni esa shod-xurram yashatish istagi bilan yonardi.[4.27]

Ushbu o'rindagi "yonmoq" so'zi asli "o't olmoq,o'tda kuymoq"[3.259] ma'nolarini anglatadi. Mazkur(istagi bilan yonmoq) birikuvida esa yonmoq so'zi o'zining bosh ma'nosidan chetlashib,ko'chma "sabrsizlanmoq,shoshilmoq" ma'nosini anglatib kelgan. Bu esa adibda so'z qo'llash mahoratining naqadar boyligini bildirimoqda va badiiylikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Birisi- shoshilmoq,biri-ko'zi och,

Biri jaholatdir,yaqinlashma, qoch.

To'rtinchi-yovuzlik,buzuq fe'llilik,

Oxirgisi-yolg'on, qo'pol tillilik.[4.72]

Mazkur "buzuq fe'l" birikuvida ham ma'no ko'chishi-metafora hodisasi yuzaga kelgan va bunda "buzuq" so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. Buzuq leksemasini asl ma'nosi "buzilib yaroqsiz holga kelgan, ishdan chiqqan"[3.146] ma'nosidir. Ushbu "buzuq fe'l" birikuvida esa asl ma'nodan yo'ldosh sema "qoidaga to'g'ri kelmaydigan,noto'g'ri " hosil bo'lgan va natijada yo'ldosh semadan o'sib chiqqan "axloqi yomon,yaramas" ma'nosi yuzaga kelgan. Bu esa baytda badiiylikni oshirib,ekspressivlikni ta'minlamoqda.

Metonimiya-voqea-hodisa,narsa-buyublar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi.[1.65]

Yusuf Xos Hojib o'z asarida ma'no ko'chishning bu usulidan ham samarali foydalangan va so'zning ma'no ta'sirchanligiga erishgan.

Tili yalg'on erning jafa qilqi ul,

Jafa kimda ersa o'shul yilqi ul.

Kishi yalg'anindan tilama vafa,

Bu bir soʻz sinamish oʻgush yilqi ul.[2.52]

Tili yolgʻon erning jafu xulqidir,
Jafo kimda ersa oʻsha yilqidir.
Kishi yolgʻonidan vafo kutmagin,
Bu soʻz sinalgan talay yilgidir.[2.53]

Til soʻz asli “ogʻiz boʻshligʻida joylashgan tam bilish va nutq tovushlarini hosil qilish uchun xizmat qiladigan organ,aʻzo”[3.174] maʼnosiga ega. Ana shu dastlabki “aʻzo” semasidan “insonnig shu aʻzo yordamida hosil boʻladigan soʻzlashish,gapirish qopiliyati,soʻzlashuv va oʻzaro aloqa vositasi boʻlib xizmat qilish” semasi oʻsib chiqqan. Bunda(tili yolgʻon) til soʻzi oʻzining asosiy bosh maʼnosi(organ)dan chekingan. Natijada metonimiya hodisasi yuzaga kelayotgani kuzatiladi.

Qamugʻ nangka vaqt ul,kuni belgulug,
Nafas,tin toʻqurqa sani belgulug.
Yil,ay,kun kecharteg tiriklik kechar,
Kechar kun kechirgay sani belgulug.[2.38]

Hamma ishga vaqti,kuni belgilik,
Nafas,dam olishning soni belgilik.
Yil,oy,kun oʻtardek tiriklik oʻtar,
Oʻtirib kunlar eltgay seni belgilik.[2.39]

Oy “quyosh nur olib yogʻdu sochuvchi samoning samoviy jismi”. [3.98]Ushbu oʻrinda metonimiyaning yana bir turi:narsa-buyumga asoslangan oʻlchov birligi boʻlib xizmat qilgan.

Mazkur baytagi oy soʻzi “astronomik yilning oʻn ikkidan biriga-oyning Quyosh atrofidan bir marta aylanib chiqish muddatiga yaqin vaqt oraligʻi” [3.98]maʼnosidagi koʻchma (metonimik) maʼnoda kelmoqda.

Sinekdoxa-butun orqali qism yoki qism orqali butunni ifodalashga asoslangan koʻchim turi. [1.66]

Sinekdoxa yoʻli bilan koʻchirish ikki xil:

- 1) Bir predmetning nomi sifatida unga xos biror qismning nomi ishlatiladi(qism orqali butun anglatiladi)
- 2) Bir predmetning nomi sifatida shu predmetni ham oʻz ichiga olgan butunning nomi ishlatiladi(butun orqali qism anglatiladi).

Bu beglar qapugʻin siyosat bezar,
Siyosat bila beg elini tuzar.
Esizka siyosat yuritgʻu kerak,
Budun bulgʻanuqin siyosat suzar.[2.56]

Bu beglar eshigin siyosat bezar,
Siyosat ila beg elini tuzar.
Yomonga siyosat yuritish kerak,
Avom iflosini siyosat suzar.[2.57]

Dastlabki misradagi qapug',ya'ni eshik so'zi orqali ma'no ko'chishining sinekdoxa usuli hosil qilingan. Bunda eshik so'zi asli qism,ya'ni "uy,xona,binoning kiraverishida o'rnatilgan,ochib yopib turiladigan moslama"[3.457] ma'nosiga ega. Mazkur o'rinda esa eshik semasi butunni ya'ni "uy,joy,xonadon" ma'nosini anglatmoqda.

So'nggi misradagi budun so'zi orqali esa butun orqali qism nazarda tutilmoqda. Chunki budun so'zi asli xalq ma'nosini bildiradi.[3.32] Ushbu(budun bulg'anuqin) birikmasida esa budun so'zi o'zining bosh ma'nosi(omma,xalq)dan chekinib, "sanoqli yomon xulqli kishini" nazarda tutmoqda.

Xulosa qilib aytganda,ikki baytning o'zida qism orqali butun,butun orqali qism anglashilmoqda.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida ko'p manollik hodisasidan mahorat bilan foydalanib,ma'no ko'chishning barcha usullaridan ustalik bilan qo'llab,she'rlarida o'ziga xos mazmundorlik,joziba va ta'sirchanlikni ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev M ., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.- Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona , 2007.
2. Karimov Q. Qutadg'u bilig. (To'rtliklar) . -Toshkent: G'afur G'ulom,1971.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2jildlik. Moskva: Русский язык, 1981.
4. To'xliyev B. Qutadg'u bilig. (Saodatga eltuvchi bilim).-Toshkent: Cho'lpon, 2007.

ФИЛОЛОГИЯНИНГ ФАН СИФАТИДА РИВОЖЛАНИШИДА МУҚАДДАС МАТНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Тўрахонова Бадиа Омониллаевна, ЎзДЖТУ

Муқаддас матнларнинг тилшунослик ва филологияни ривожлантиришда тутган ўрнини тўлиқ баҳолаш қийин. Диний маросим, унинг эҳтиёжлари кўплаб тилларнинг ижтимоий тарихида, филологиянинг фан сифатида шаклланишида асосий омил бўлган. Филология Муқаддас матнга зарурий кўшимча сифатида кўплаб динларнинг ички қисмида пайдо бўлган ва ривожланган, бу матннинг тўғри такрорланишини таъминлаш ва шу билан матннинг муқаддаслигини сақлаб қолиш учун мўлжалланган.

Шундай қилиб, муқаддас мадҳияларни аниқ такрорлаш зарурияти ва санскритни нормаллаштириш истаги - қадимий диний мадҳиялар тили, қадимги ҳинд ёзувининг классик тили қадимги Ҳиндистонда тилшуносликнинг пайдо бўлишида амалий зарурият вазифасини ўтаган. V асрдан бошлаб. Милoddан аввалги Санскрит асосан диний ҳаётга, диний ва адабий амалиётга хизмат қилган. Махсус меъёрларга эга бўлган адабий тил сифатида конфессиявий покликни ва диний матнларнинг асл нусхасини сақлаб қолиш учун уни алоҳида, махсус ўрганиш зарур эди. Шу мақсадда ҳиндулар талаффуз қоидаларини ўз ичига олган ва санскрит шаклларида меъёрий фойдаланишга ишора қилувчи тавсифловчи ва норматив грамматикаларни яратишни бошлашган [1, 1 - 18].

Қуръон тилини тоза сақлаш ва мусулмонларнинг муқаддас китобининг кўп жойларини шарҳлашга интилиш Араб халифалигида тилшуносликнинг пайдо бўлишини (VII-XIII асрлар) белгилайди. Бу даврдаги араб тилшунослари классик араб тилининг стандартини ўрнатиб, уни жонли лаҳжалар таъсиридан ҳимоя қилишга ҳаракат қилдилар.

Тилда нормалар тушунчаси филологияда марказий фикрлардан бирига айланади, унинг объекти муқаддас матнлардир. Нутқни нормаллаштириш зарурати Муқаддас матнларни тўғри ва аниқ такрорлаш заруриятидан келиб чиққан. Ҳинд тили грамматистлари грамматика қуйидагиларни таъминлаши керак деб ҳисоблашган: 1) маросим тилининг анъанавий шаклда сақланишини; 2) бошқа сўзлардан сўз шакллари хосил қилиш қобилияти; 3) билимларни эгаллаш; 4) тавсифнинг қисқартирилганлиги; 5) тавсифнинг равшанлиги [2, 55]. Грамматиканинг мақсад ва вазифаларини англаш тилшуносликнинг турли соҳалари: фонетика, морфология, сўзларни шакллантириш, синтаксис, лексикология, лексикография ривожланишига ёрдам берган.

Ўрта асрларда ижтимоий-лингвистик амалиётда дунё динларининг шаклланиши ва ривожланиши икки қарама-қарши йўналиш билан ажралиб туради. Бир томондан, қадимий анъаналарни сақлаб қолиш ва диннинг ўзига хослиги ва яхлитлигини, ахлоқий, тарихий, маданий, мафкуравий таркибни сақлаб қолиш учун ушбу жараёнда муҳим роль ўйнайдиган бир қатор матнлар бирлаштирилган. Аслида, бу жараён натижасида диний матнларнинг иерархияси шаклланимда, бунда диний канон - диний таълимотнинг семантик ядросини ўз ичига олган матнлар тўплами асосий роль ўйнайди. Каноник матнлар жамиятнинг мафкуравий пойдеворини шакллантиради ва бутун билим тизимининг асоси ва таълим мазмунига айланади. Диний канон таркибига кирмаган матнлар

диний канон таркибига кўра уларнинг маънолари ва жанрлари бўйича гуруҳланган. Диний жанрлар ва матнларнинг иерархияси маълум матнларнинг амалий қўлланилишига боғлиқ бўлиши мумкин. Масалан, Н.И. Толстой литургик амалиётга асосланган ўрта асрлардаги православ конфессиявий адабиётида қуйидаги жанрлар иерархиясини ажратиб туради: 1) литургик матнлар, яъни ибодат учун ишлатиладиган матнлар - Хизматкорлар; 2) каноник матнлар - Ёзув; 3) ҳомилетика ва воизлик матнлари; 4) хагографик матнлар (азизларнинг ҳаёти); 5) дидактик матнлар (катехизмлар) [3, 69-70]. Бу, биринчи навбатда, черков жанрларининг литургик иерархиясидир, бу уларнинг маъбадга сиғинишдаги аҳамиятини акс эттиради, шунинг учун унинг тепасида Муқаддас Ёзув эмас, балки литургик адабиёт мавжуд. Диний канонга эътиқод манбаи сифатида, диннинг бошида ҳар доим ёзув мавжуд. Матнларнинг жанр иерархияси нафақат конфессиявий, балки конфессиявий-дунёвий ва дунёвий адабиётларни ҳам қамраб олди. Бу тилнинг функционал фарқланишини рағбатлантирди, маърузачиларнинг фикрини оғзаки ифодалашга қаратди ва тилнинг функционал услубини шакллантириш учун зарур шарт-шароитларни яратди. Доимо жанрлар иерархияси китоб ёзма маданиятини ташкил этувчи омил бўлган [4, 228].

Ўрта асрларда каноник матнлар тили "тўғри" тил ҳисобланган. Европада Инжил учун бундай тиллар юнон ва лотин эди. Инжилнинг кенг тарқалиши янги матнларнинг рўйхатини тузишни талаб қилди. Тилшуносликнинг асосий вазифаси шу шароитда ҳар бир "тўғри" тил ичидаги янги ёзма матнни эски ёзма матн билан уйғунлаштириш, турли хил уламолар мактабларида юзага келган номувофиқликларни бартараф этиш эди. Ушбу жараённинг натижаси қадимги грамматикани, шунингдек поэтикани, риторикани ва мантикни канонизациялашдир, чунки улар илоҳий мунозаралар санъатининг ажралмас қисми бўлган.

Бошқа томондан, диний, маданий ва мафкуравий таълимотларнинг янги жамиятларига янада самарали кириб бориш учун "нотўғри" тиллар ижтимоий ва лингвистик амалиётга жалб қилинган. Шунинг учун тилшуносликнинг яна бир вазифаси уларга "нотўғри" тилларнинг ёзилишининг табиий ривожланиши, уларга каноник матнларнинг таржима қилиниши билан боғлиқ эди. Каноник матнларни "нотўғри" тилларга таржима қилиш филологиянинг кенг ривожланишига ҳисса қўшган ёзувларни яратишни, тартибга солишни ва нормаллаштиришни, ушбу тилларнинг грамматик тавсифини талаб қилди. Ушбу жараёнда баъзан янги каноник тиллар пайдо бўлади. Масалан, насроний канони славян тилининг

тупроғига ўтказилганда, славян тилида каноник черков тили пайдо бўлди. Рус тилининг адабий тили тарихидаги ушбу тилнинг ролини етарлича баҳолаш қийин. Инжилни миллий тилларга таржима қилиш европалик олимларни семит тилларига: иброний, арамик ва араб тилларига киришга ундади.

Инжилнинг миллий тилларга таржимаси бу тилда нутқнинг янги турларини - мажозий-аллегорик, мавҳум-фалсафий, экспрессив ривожланишни таъминлади, ушбу тилларнинг луғат ва фразеологиясини бойитди. Библиявий ибораларнинг катта миқдори рус адабий тилига кирди. Инжил тасвирлари барча халқлар маданиятининг мулкига айланди.

Диний матнларнинг тарқалиши уларни шарҳлаш, изоҳлаш, канон асосини ташкил этувчи таркибни бирлаштириш билан бирга олиб борилди. Ўрта асрларда каноник матнларни тадқиқ қилишнинг иккита махсус йўналиши - герменевтика ва эгзегетика пайдо бўлди, улар турли хил қирралардан каноник матнларни ўрганишади. Герменевтиклар асл мазмуни рецепти ёки адимий ёдгорликларнинг етарли даражада сақланмаганлиги сабабли яширилган матнларнинг мазмунини изоҳлашди. Герменевтикада матнни тушунишга тилни, ишнинг шаклини, кўрсатмалар очилишини грамматик жиҳатдан ўрганиш орқали эришилади, вақт ўтиши билан уларнинг маъноси тушунарсиз бўлиб қолди. Масалан, Муқаддас Китобда герменевтика уч маънога аниқликкиритди: ҳиссий том маънода, мавҳум ахлоқий ва идеал мистик. Эгзегетикларни каноник матнларнинг келиб чиқиши ва ҳаёти тарихи, уларнинг ҳақиқийлиги ва яратилиш шартлари, уларда герменевтика учун зарурий материал бўлган воқеалар тарихи қизиқтирган. Герменевтикава эгзегетика тилшунослик матни, матншунослик, палеография, эпиграфия ва бошқа фанлар учун асос бўлиб хизмат қилган.

Филология фанининг замонавий даражаси тарихнинг илоҳиёт масалалари, таржималар, талқинлар, диний матнларнинг семантик ўқилиши каби масалаларни янги кўриш ва ҳал қилиш имконини беради. В. Соловьёв айтганидек, "Масихнинг таълимоти ёпиқ ва тугаган китоб бўлмайди." В. Соловьёв христиан ақидаларини "кенг пойдевор, тушуниб бўлмайдиган, аммо барча фалсафанинг ва барча фанларнинг тирик принципи" деб ҳисоблашни таклиф қилди, бу эса одамларнинг фикрлари ва билимларига бефарқ эмас. Замонавий филология илоҳиёт билан бир қаторда, бошқа илмий билимлар каби, диний матнлар таркибидаги янги семантик қатламларни аниқлашга, янги таржималар қилишга имкон беради.

Муқаддас китоблар турли тоифадаги тингловчилар учун турли шаклларда диний матнларни тақдим этади. Шунинг учун муқаддас матнлар тилшуносликнинг муҳим объектларидан бири бўлиб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гируцкий А.А. Общее языкознание. Мн., 2001.
2. Амирова Т.А., Ольховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. М., 1975.
3. Толстой Н.И. История и структура славянских литературных языков. М., 1988.
4. Мечковская Н.Б. Язык и религия. М., 1998.

АРАБИЙ СЎЗНИНГ ПОЭТИК НУТҚҚА ХОСЛАНИШИ

Махбуба Тожибоева, ҚДПИ, ф.ф.н., доцент

Ф. де Соссюрнинг бутун тил механизми фақат ўхшашликлар ва тафовутлар атрофида айланади... деган фалсафий қараши мавжуд. Унинг умуман тилга нисбатан айтган бу фикри синонимларнинг мазмун ва моҳиятини очиш учун бир калит бўлиб хизмат қилиниши уқтирилган. Шу билан бирга, унда борлиқдаги нарса-ҳодисалар, уларнинг белгиси, миқдори, ҳолати, ҳаракати ва ўзаро муносабатларида кўринадиган айримлик, хусусийлик ва умумийлик билан боғлиқ равишда буларни юзага келтирувчи сўзлар маъноларидаги ўзаро яқин-ўхшаш ва айна вақтда ноўхшаш-фарқли жиҳатларнинг диалектик бирликда мавжудлиги характерланган.²⁸⁵ Алишер Навоийнинг “Илк девон”идаги арабий сўзларга мурожаат қилинганда, шубҳасиз, бу сўзларнинг арабча, форсий ва туркий муқобилларига ҳам мурожаат қилиш асносида ана шу белгилар намоён бўлиб боради.

Сўзнинг, хусусан, арабий сўзнинг поэтик нутққа хосланиши, дастлаб, мазкур сўз ифодаладиган поэтик маъно, матнда шу сўз бажарадиган услубий вазифалар орқали белгиланади. Шеъринг матндаги ҳар бир сўз, лексик воситаларнинг қиммати ифодадаги поэтик маъно билан ўлчанади. Айна чоғда, поэтик нутқнинг шакл томони ҳам эътибордан четда қолмайди. Поэтик ўлчов мослигини уюштиришда шаклан хосланган сўзларнинг иштироки ҳам маъно билдиришига ўхшаш жозибадорликни юзага келтиришга хизмат этадики, буларнинг ҳам алоҳида табақаланишига олиб келади. Сўзнинг матнда шакл жиҳатдан мувофиқлиги бошқа сўзлар билан грамматик жиҳатдан мос тушиши билан белгиланади. Чунки бошқа бир поэтик матнда бу воситалар ритмик композицияни бузиши ҳам мумкин.

²⁸⁵ Бу ҳақида қаранг: Қуронбеков А. Ҳофиз ғазалиётида маънолар силсиласи. – Т.: Фан, 1994. – 9-бет.

Бундай ўринларда шу лексик воситаларнинг бошқа варианты қўлланади. Лекин вариантлардан биринчисининг поэтик нутқда фаол истифода қилиниши унда поэтик бўёқдорлик мавжудлигидан далолат беради.²⁸⁶ Яна шуни қўшимча қилиш лозимки, поэтик нутқ ифодаланаётган тушунчани, воқеани аниқ, бадиий образли ифодалашни талаб қилади. Шубҳасиз, бу ҳолатда ҳар қандай сўзнинг мавқеи ортади, у нутқий восита сифатида намоён бўлади. Шунга кўра, кўп ҳолларда шеърий матнда қўлланган бирор сўзни унинг синоними ёки эквиваленти билан алмаштириш имконияти барҳам топади ёки танланган сўзни муқобили билан алмаштириб бўлмай қолади. Бунинг асосий сабаби муайян бир сўзнинг шеърий матннинг шаклий томони билан боғлиқ бўлишидадир. Айниқса, арузий шеъриятда вазн талаби билан маълум бир поэтизмни унга тегишли бўлган муқобили билан мутлақо алмаштириш мумкин бўлмай қолади. Масалан, *зоҳир*, *ҳажр* каби поэтизмларнинг араб тили лексикасида бир нечта маънодошлари бўлгани каби, ўзбек тилида ҳам унинг бир қатор кўринишлари бор. Шу ўринда мазкур бўлган сўзлардан *зоҳир* сўзининг поэтизм сифатида истифода эътилошига эътибор қаратайлик:

*Кўнгул ҳажр илгининг ҳар тоғидан ҳар ён ҳарош ўлгон,
Қулоқ солсанг эрур зоҳир фигон ичра қарошимда.*

Келтирилган байтда арабча *зоҳир* сўзи аён маъносида қўлланган ва бир очиқ-чўзиқ ҳижо ҳамда бир ёпиқ чўзиқ ҳижодан таркиб топган. Шу боисдан унинг умумтуркий лексикада мавжуд бўлган *пайдо*, *пайдо бўлмоқ*, *ошкор*, *ошкора*, *ошкора бўлмоқ*, *очиқ* сингари муқобиллари билан алмаштириш имконияти йўқ. Бунинг икки ҳолати аниқ сезилади: 1) келтирилган муқобиллар матнда ҳеч бир вақт *за:ҳир* сўзи берган маънони тўлиқ англата олмайди; 2) *за:ҳир* сўзи арабий поэтизм. Шунинг учун юқорида келтирилган муқобиллар ҳеч бир ўринда шу поэтизм юзага келтирган ҳиссийлик, тасвирийлик ва образлилик ўрнини боса олмайди. Бошқа мисолларга мурожаат қилсак ҳам, ана шундай манзараларни кузатиш мумкин.

Сенинг васлинг кўйин чун ҳажр зоҳир айлагай бу навъ

²⁸⁶ Бу ҳақида қаранг: Умркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Т.: Фан, 1990. – 34-бет.

Ки, мен кўрдум қоронғу ҳашир шоми меҳнат афзойин.
Шу ўринда зоҳир сўзи ошкора маъносида келиб, ошкор айламоқ кўшма феълига шаклан мувофиқ келади ва бу феъл англаган маънони ифодалайди. Шунга ўхшаш ҳолатни яна бир байтда кўриш мумкин:

*Не хусну нутқ эрур, ё раб, ки зоҳир айласанг,
Қиём тийралик бўлғай ҳамён Исо оҳимлиқ.*
Тубандаги байтда эса зоҳир сўзи пайдо маъносини англаган ва бўлмоқ кўмакчи феъли билан бирга кўшма феълни ҳосил қилган:

*Навоий ҳашир, оё, гўё Калимуллоҳ асосидур,
Бу мўъжазларки зоҳир бўлди кулмаган нуқта ёшимда.*
Бошқа бир ғазалда зоҳир сўзи ва унинг бошқа бир эквиваленти зуҳур билан бир байтда қўлланиб, зоҳир сўзи кўриниб турган, аён, аниқ каби маъноларда, зуҳур сўзи кўриниши, пайдо бўлиши маъноларида ишлатилган.

*Самад қилгоч зуҳур ул навъ ким асном ўлур зоҳир
Бўлур бутлар бари маҳбут бўлгоч ул санам.*
Мана бу байтда зоҳир сўзининг аниқ, равшан каби маънолари аён бўлган:

*Бода миръотида шоҳид акси зоҳир бўлмади,
Бода у шоҳидга бўлғай нақд индорим фидо.*
Бошқа бир ғазалда зоҳир сўзининг изҳор шаклидан фойдаланилган. Бу поэтик сўзни ҳам бадий ёки умумнотқий бойликдаги муқобиллари билан алмаштириш имконияти йўқ:

*Сендин ул коми хаёл этмам кўнглумаким,
Қилсам изҳор ҳам ўлғай демаким тарк адаб.*
Ана шундай шаклий ўзига хосликларни бошқа мисоллар асосида ҳам кузатса бўлади.

*Бу шукр учун карам қил сайлға, эй ганиким,
Эрмастур ул тавонгар сен хизматида сойил.*
Байтдаги шукр, карам, сайл, са:йил каби арабий поэтизмлар айна шу байт учун шаклан мутаносиб ва таносиб санъатини юзага келтирган. Бу поэтизмлар байтдаги мазмунни аниқ ва равшан намоён этишга хизмат қилган. Ёки:

*Васл сиришим кўйдингу қилдинг таманно, эй кўнгул,
Ул алифким, боши ародур наҳл айладинг.* (76^б-бет)

Келтирилган байтдаги *васл, таманно, кўнгул, алиф, наҳл* сингари арабий поэтизмлар ўз ўрнида поэтик фикрни тўлақонли ифодалашга олиб келади ва унда намоён бўлиши кутиладиган маъно нозикликларини шу сўзнинг бошқа муқобиллари ифодалай олмайди. Сўзларда бу каби маъно нозикликларининг мавжудлиги уларнинг нутқ жараёнида барқарорлигини таъминлайди. Шу ўринда шаклий унсурларининг мазмуний мавқеи етакчилик касб этиши сабабли, мазкур поэтизмларни синоним ёки эквивалентлари билан алмаштиришга эҳтиёж қолмайди. Агар алмаштирилса, муаллифнинг хос услуби ўзгариб, шеърда ифодаланмоқчи бўлган маъно тораяди ёки бутунлай ўзгариб кетади.

Булардан ташқари поэтик нутқнинг вужудга келишини таъминловчи яна бир ҳолат бор. Бу ҳолат муайян бир шеърий асарнинг муаллифига тегишли бўлади. Шундан келиб чиқиб, Б.Умрқулов “поэтик нутқнинг бадиий образлилигини уюштирувчи воситалардан бири ижодкорнинг табиат ва жамиятдаги нарса-ҳодисаларни поэтик идрок этишидир”²⁸⁷, деб таъкидлайди. Масалага шу томондан ёндашилса, Алишер Навоийнинг “Илк девон”идаги шеърлар шоирнинг йигитлик даврида яратилган манзумлари экани ва шунга мувофиқ равишда унинг воқеликни идрок этиши ва ўша пайтда шаклланган дунёқарашининг самараси ўлароқ юзага келгани маълум бўлади. Бу даврни ёш Алишернинг дунёқарашини ва оламу жамиятни идрок этишида ўрганиш ва ўсиш даври деб ҳисоблаш мумкин. Шу сабабли шоир назмида анъанавий масалалар, шахсий ва умумкечинмалар кўпроқ ўрин олган. Ўрни билан диний ҳамда маълум тадрижда бўлган тасаввуфий дунёқарашга эътиқоди борлиги ҳам кузатилади. Шеърларда ижтимоий-сиёсий ҳаётга оид қарашлар, пейзаж тасвирлари бирмунча кам. Шунга қарамай, шеърларда бундай масалалардан айримларининг акс эттирилганлиги, албатта, шу воқеликни намоён этувчи луғавий бирликларнинг танланиши ва уларнинг бир мазмун доирасида жамланишига сабаб бўлган. Айни чоғда, амалда бўлган

²⁸⁷ Умрқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Т.: Фан, 1990. – Б. 35.

форсийзабонлик ва ислоний қараш ҳамда ҳаракатларнинг устуворлиги ҳам бунга таъсир ўтказмай қолмаган. Айниқса, арабий калималар шоирнинг илк шеърларида анчагина кўп ва маҳорат билан ишлатилган. Ҳар бир арабизм шеърӣ асарда ўзига хос мавқе тутиб, зарурий тимсолларни яратиш, шоирнинг бадиий-ҳаётӣ ниятини рўёбга чиқаришда “атрофидаги” туркий, форсий ва бошқа тилларга оид сўзлар билан биргаликда поэтик вазифа бажарган.

ЎЗБЕК ТИЛИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ ШЎЪБАСИ БЎЙИЧА МАЪРУЗАЛАР

BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARINING FONETIK-GRAMMATIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMIIY O'YINLAR

М.Х. Жуманийова, UrDU dotsenti, f.f. n.

Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq bo'ladi. Bu esa mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning negizini taskil qiladi. Binobarin, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, “Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim... Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”. (1)

Ayni paytda jamiyatda muhim rol o'ynaydigan pedagogik kadrlarning o'z yo'nalishi bo'yicha chuqur bilim, malaka, kompetensiyalarga ega bo'lishi, ilg'or xorijiy tajriba va milliy pedagogik tajribaga tayanib ish ko'rishi, ijodkorlik, tashabbuskorlik sifatlariga ega bo'lishi talab qilinmoqda.

Ma'lumki, ona tili maktabda o'quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o'sishida, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg'ulotlar tizimi shunday qurilishi kerakki, bu tizim o'quvchilarda ona tiliga muhabbat, o'z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o'stirishi zarur.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'z g'alar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili fani shunchaki fonetik-grafik va grammatik tushunchalarni bir yoqlama shakllantirish vazifasini bajarmaydi, balki o'quvchilarni badiiy til vositalari bilan ta'minlashi, ularda go'zal nutq madaniyatini tarbiyalashi, og'zaki va yozma nutqini o'stirishi, fikr-mulohazalarini ifodali bayon etishga o'rgatib borishi zarur. O'quvchilar har bir ilmiy -nazariy tushunchani amalda qo'llay olishlari uchun ona tili mashg'ulotlarida samarali metodik ishlar tizimi qo'llanib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo'llaniladigan usullar, mashqlar variantlari ko'p. Fonetik-grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida ta'limiy o'yinlar muhim o'rin tutadi. (2. 42)

Ta'limiy o'yin mashqlari ma'lum talab asosida berilib, mavzu yuzasidan o'quvchini amaliy faoliyatga yo'naltira oladigan ta'limiy materialdir. Ular har bir mavzu doirasida shu mavzuni ongli o'zlashtirish, mavzu yuzasidan o'qituvchining olgan bilimni mustahkamlash va sistemaga solish, og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirish maqsadida beriladi.

Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning zerikishi, charchog'iga barham beradi hamda u orqali bolalarning fikrlash jrayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturidagi har bir mavzu bo'yicha muayyan shakldagi ta'limiy o'yinni tashkil qilish mumkin. O'qituvchi, avvalo, ta'limiy o'yinning ta'limiy-tarbiyaviy maqsadini belgilab, o'yinga kerakli materialni tayyorlab, o'quvchilarga ta'limiy o'yinni o'tkazish tartibini aniq tushuntirib berishi, ta'limiy o'yinni o'zi boshqarib borishi, o'quvchilarning xatolarini yo'l-yo'lakay tuzatib borishi kerak. O'yin oxirida tegishli xulosalar chiqarib, qo'yilgan ballar e'lon qilinadi.

Ta'limiy o'yinning asosiy mohiyati shundaki, kattalar tomonidan bolalarga o'yin shaklida aqliy vazifani bajarishni hal etish vazifasi topshiriladi. Buning asosiy maqsadi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini shakllantirishni faollashtirishidir. Bilim berishda ta'limiy o'yinlardan bilimlarni mustahkamlashdagina emas, balki ta'lim shakli sifatida ham keng foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda fonetikaga doir unli, undosh tovushlar va harflar mavzusini o'rganishda quyidagi ta'limiy o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

“So‘z o‘yini“

Qaysi tovush yoki harf so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirishga xizmat qilyapti?

1-variant – og‘zaki ravishda. Bunda o‘qituvchi navbat bilan so‘zlarni og‘zaki ayta boshlaydi: o‘quvchilar qo‘l ko‘tarib so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirayotgan tovushni aytishadi va ma’nosi o‘zgarayotgan so‘zlar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzadilar.

2-variant – yozma ravishda. Bunda 2 guruhdan iborat o‘quvchilar musobaqa tarzida doskada yozilgan so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirayotgan harfning tagiga chizib borishadi.

Til, tin, tir, tiz, tim, tish, to‘l, to‘r, to‘n, to‘p, to‘y, to‘k, to‘s, tom, ton, tol, tosh, tob, tog‘, tor, toj, toy, tok, top, tot, tut.

“Harflarni o‘zgartirib, so‘z tuzing!”

1-variant – og‘zaki ravishda. Bunda o‘qituvchi so‘zni og‘zaki ayta boshlaydi: o‘quvchilar bir so‘z tarkibidagi unli yoki undosh tovushni o‘zgartirib yangi so‘z topishib, bu so‘zlar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzadilar.

2-variant – yozma ravishda. Bunda doskaga so‘zlar qator qilib yozib qo‘yilgan bo‘ladi. 2 guruhdagi o‘quvchilar unli yoki undosh harflarni o‘zgartirib, yangi so‘zlar tuzib yozadilar. O‘yin musobaqa shaklida o‘tkaziladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe‘l) bilan umumiy tanishtirilgandan so‘ng bar bir leksik-grammatik guruh alohida o‘rganiladi. Bu so‘z turkumlarini o‘rganishning boshlang‘ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Dasturga ko‘ra, boshlang‘ich sinfdan so‘zlar dastlab javob bo‘ladigan morfologik so‘roqlariga qarab guruhlanadi. 3-sinfdan “So‘z turkumi” tushunchasi shakllantiriladi.

Grammatik tushunchalar bo‘yicha o‘quvchilar 1-sinfdan boshlab nazariy ma’lumotlarga ega bo‘la boshlaydilar. Ya’ni shaxs va narsa nomlari, narsalarning belgisi, narsalarning harakati kabi ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida ularda grammatik tushunchalar shakllantirishga asos solinadi.

Boshlang‘ich sinflarda grammatik tushunchalarga oid quyida ta’limiy o‘yinlardan samarali foydalanish mumkin.

Mavzu: Narsa va shaxs nomini bildirgan soʻzlar

1-oʻyin. “Bir soʻz bilan javob top” oʻyini

Beshik tebratib aytiladigan qoʻshiq ... – alla.

Daraxtni boʻlaklarga ajratadigan asbob ...- arra.

Koʻpaytirish jadvali ... – karra.

Bolalar qogʻozdan yasab uchiradigan narsa ...- varrak.

Kuch soʻzining sherigi ... – quvvat.

Rasm chizuvchi kasb egasi ... – rassom.

Don hosili ... – gʻalla.

Chollar tayanadigan tayoq ... – hassa.

2-oʻyin. “Soʻzlarni guruhlarga ajratish” oʻyini.

1-variant. (ogʻzaki ravishda)

Oʻqituvchi soʻzlarni navbat bilan aytib turadi, oʻquvchilar nima? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni eshitganda sariq varaqani, kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni eshitganda koʻk varaqani koʻtaradilar.

2-variant. (yozma ravishda)

Soʻzlar yozilgan varaqalar alohida stolga aralashtirilgan holda ochiq qilib qoʻyiladi. Oʻquvchilardan tuzilgan ikki guruhning biri nima? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni, ikkinchisi kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni “Kim oldin yozish” sharti bilan doskaga yozib boradilar.

Mavzu: Narsa va shaxs harakatini bildirgan soʻzlar. **“Teskari soʻzni top!”** oʻyini.

1-variant. (ogʻzaki ravishda) Oʻyin uchun soʻzlar:

Suv: oqadi – toʻxtaydi.

Kun: isiydi – soviydi.

Qush: uchadi – qoʻnadi.

Daraxt: koʻkaradi – quriydi.

Bola: uxlaydi – uygʻonadi.

Oy: koʻrinadi – bekinadi.

Mavzu: Ot – soʻz turkumi. **“Soʻz zanjiri”** oʻyini.

Oʻyin tartibi: 5 – 6 ta oʻquvchi doska oldiga tiziladi. Boshlovchi oʻyin shartini tushuntiradi va narsa nomini bildirgan soʻzni aytadi, navbatdagi oʻquvchi bu soʻzning oxirgi tovushi bilan boshlanadigan otini aytadi. Toʻxtalib qolgan oʻquvchi oʻyindan chiqadi. Namuna: Ayiq – qargʻa – asal – lola – ariq – qalam – maktab – bola – alla – arra – alam – mashina – adolat – tandir – ruchka – ayoq....

Koʻrinadiki, boshlangʻich sinf ona tili darslarida taʼlimiy oʻyinlardan foʻy dalanish oʻrganilayotgan tushunchaning oson oʻzlashtirilishiga yordam beradi. Oʻquvchilarda olgan bilimlarini amalda tezkorlik bilan qoʻllay olish salohiyatlarini shakllantiradi.

Ta'limiy o'yinlarni tanlashda o'yinning ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashishiga, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning faolligi va tashabbuskorligi hamda ijodiy qobiliyatini o'stirishga alohida ahamiyat beriladi.

Ta'limiy o'yinlar nafaqat o'quvchilarning bilimini tekshirishda, balki ularni darsga qiziqtirish uchun ham qo'llanadi. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. O'yinlar mavzuga mos bo'lishi va o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi// "Xalqso'zi", 2016-yil 8-dekabr.
2. Yoqubov Sh., Mustafoulov R. Grammatik o'yinlar orqali o'quvchilarni faollashtirish// Yigirma birinchi asrda o'zbek tili ta'limi masalalari.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

DIKTANT HAQIDA DASTLABKI TUSHUNCHALAR

S.M. Zokirova, filologiya fanlari bo'yicha PhD,
G.Boqijonova, FarDU talabasi

Maktab jamiyatning kelgusi avlodlarini tarbiyalab yetishtiradi, uni tomomlagan o'quvchi ijtimoiy hayotdan o'rin oladi. Bunda unga ayniqsa, ona tilidan (o'zbek tilidan) bilganlari, to'g'ri yozish va o'qish malakalari, mazmunli va chiroyli so'zlash san'ati, ish qog'ozlari bilan muomala qila olish o'quvi qo'l keladi. Ona tilini (o'zbek tilini) yaxshi o'zlashtirish, ko'p o'qish va yozishga ham bog'liqdir. O'qituvchining bayonini tinglash yoki taxtaga yozilganlarini ko'rish bilangina ona tilini mustahkam o'zlashtirib bo'lmaydi. So'z va gaplarni to'g'ri qo'llay olish o'quvchidan katta aqliy faoliyat va kuch talab qiladi. O'quvchining butun diqqati tovushlar, harflar, so'z va uning shakllari, so'z birikmalari, gaplar va ularning tinish belgilarida bo'lmog'i zarur. To'g'ri yozishga o'rgatishda yozma mashqlar bilan og'zaki mashqlarning mutunosibligiga erishish lozim. Umuman olganda, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirishda diktantning ahamiyati katta. O'quvchi diktant yozayotganda xato qilmaslik uchun orfografik va punktuatsion qoidalarni eslashga, ularni ko'z oldiga keltirishga harakat qiladi. Ba'zi metodik qo'llanmalarda diktant ta'limiy va tekshiruv diktantlariga ajratiladi. Bunday ajratish shartli, albatta. Mana shu yuzasidan biz uning ayrim namunalarini keltirib o'tamiz.

Diktant – eshitib idrok qilingan so'z, gap, matni yozishdir. O'quvchilarning og'zaki, yozma nutqini o'stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning

ahamiyati katta. O'quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o'z navbatida grammatik qoidalarni ham o'zlashtirishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda diktant uchun matn tanlashda bir qancha tamoyillarga roiya qilish lozim. Ular quyidagilar:

1. Matnning monologik nutq shaklida bo'lishi. Unda ko'chirma gaplar, undalmali, kirish so'zli, ajratilgan bo'lakli gaplar, qo'shma gap bo'lmasligi lozim. Chunki yuqoridagi birliklar boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun ancha murakkablik tug'diradi.

2. Matn hajmi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish sur'atiga asoslangan bo'lishi kerak.

3. Matn mazmuni bolalar hayoti, ularning turmush-tarzi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

4. Diktant mazmuni o'quvchilarga maqsadli bilim bera olishi kerak.

5. Tanlangan matn g'oyaviy-badiiy jihatdanyuksak bo'lishi, bolalar hissiyotiga, ularning fikrlash doirasiga mos kelishi, ular hissiyotiga ta'sir eta olishi kerak.

6. Matn tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

7. Matnda o'rganilayotgan hodisa kamida 5-6 marta uchrashi kerak.

Buyuk bobomiz, turkiy tillar asoschisi Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" asarida ta'kidlaganidek: "Xatni to'g'ri yozadigan kishilar haqiqiy sog'lom kishilardir¹".

Darhaqiqat, har bir ta'lim insonga yoshlik chog'idan berila boshlaydi. Bolalar boshlang'ich sinfga borishdan avval maktabgacha ta'limning o'zidayoq o'qish va yozishni o'rganishni boshlaydilar. Albatta, bu ta'lim boshlang'ich ta'lim uchun asos vazifasini bajaradi. Bejiz bobolarimiz, yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir deb aytmaganlar. Hamma bilimlarning poydevori boshlang'ich sinfdan boshlab o'rganiladi. Mana shu davrda o'quvchilarning imloviy savodxonligini shakllantirish o'qituvchining vazifasidir. Buning uchun, albatta, diktant turlari o'qituvchiga yordam beradi. Diktant, nafaqat, imloviy savodxonlikni oshirishda, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuv malakalarini shakllantirishda eng kerakli manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Odatda, diktantdan o'quvchilarning imloviy savodxonligini tekshirish maqsadida foydalaniladi. Masalan, yozma ishlarda, nazorat ishlarida, darsning mustahkamlash qismida.

O'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda diktantning roli kattadir. Diktant so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, diktant lotincha

“dicto” soʻzidan olingan boʻlib, “aytib bermoq”, “aytib turmoq”, “soʻzlamok, gapirmok” degan maʼnolarni anglatadi.

Diktant oʻquvchilarga imlo va tinish belgilariga doir qoidalarni oʻrgatishda hamda bu qoidalar yuzasidan hosil qilingan malakani tekshirishda qoʻllaniladigan yozma ishdur.

Diktantning samaradorligi mavzu va uning mazmuni, maqsadning aniqligi hamda metodning izchilligiga koʻra belgilanadi. Diktant hozirgi oʻzbek adabiy tili meʼyorlari talablariga javob berishi, uning mazmuni muayyan sinf oʻquvchilari uchun tushunarli boʻlishi va bogʻlanishli matn asosida tuzilishi zarur. Umumiy qilib aytganda, diktant oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalariga rioya etilgan holda tuzilishi lozim. Diktantning hajmi esa har bir oʻquvchining yosh xususiyatlariga qarab tanlanishi kerak. Diktant uchun tanlangan mavzu va soʻzlar ham uning yoshiga, fikrlash doirasiga mos boʻlishi kerak. Bu holat, ayniqsa, boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun muhim ahamiyatga egadir.

Diktant eshitib idrok qilingan soʻz, gap, matnni yozishdur. Oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqni oʻstirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. Oʻquvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato ilmaslik ularning fonetik, leksik va Grammatik bilimlarni qay darajada oʻzlashtirganliklariga bogʻliq boʻladi. Demak, savodli diktant yozish uchunoʻz navbatida grammatik qoidalarini ham bilish zarur.

Diktantning taʼlimiy va nazorat (tekshiruv) turlari mavjud.

Taʼlimiy diktantlar – bilim berishga yoʻnaltirilgan diktantlar.

Tekshiruv diktantlar – oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Taʼlimiy diktantlar qanday oʻtkazilishiga qarab: ogohlantiruvchi, izohli, tushuntiriluvchi diktantlarga boʻlinadi.

Ogohlantiriladigan diktantlarda imlo va tinish belgilari matn yozishdan oldin, izohli diktantlarda esa matnni yozish jarayonida, tushuntiriladigan diktantlarda notanish soʻzlar matnni oʻquvchilar yozib boʻlguniga qadar, imloviy belgilar esa matn yozib boʻlgunicha tushuntiriladi.

Nazorat diktanti oʻquvchilar bilimini tekshirishga xizmat qilib, katta taʼlimiy ahamiyatga ega, chunki bunda oʻquvchilar mavjud bilim va koʻnikmalarni ishga soladilar. Nazorat diktantida oʻquvchilar ona tili fanidan olgan bilimlarini nazorat qiladilar. Nazorat diktantida oʻquvchilarning savodxonliklari ham baholanadi.

Taʼlimiy diktantlarni oʻtkazish vaqtini, oʻrnini, turini oʻqituvchining oʻzi belgilaydi. Taʼlimiy diktantlar uchun 45 daqiqali darsning 5-10 daqiqasi ajratiladi, baʼzi hollarda esa 1 ta dars soati ham ajratilishi mumkin. Oʻquvchilarning savodxonligini oshirish va olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida bu diktant turidan foydalaniladi.

Diktantni tez-tez o'tkazish o'rganilgan grammatik shakllardan, imlo va tinish belgilariga oid qoidalardan amaliy foydalanishga, boshqalarning nutqini aynan yoki o'zlashtirib qo'llashga o'rgatadi. Shu bilan birga, eshituv sezgilarining taraqqiy etishiga, ijodkorlik faoliyatlarining o'sishiga yordam beradi.

ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ ИГР В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

М.Умарова, преподаватель и доцент КГПИ,
М.Валиева, студентка направления ДО при КГПИ

В течение последних нескольких лет, изучение иностранного языка стало не столько способом саморазвития, сколько необходимостью. Иностранный язык стал обязательным компонентом обучения не только в школах и вузах, но и во многих дополнительных дошкольных учреждениях.

Востребованность иностранного языка в обществе с одной стороны, а также понимание родителями того, что язык является не только фактором образованности современного человека, но и основой его социального и материального благополучия в обществе - с другой, на данный момент делают раннее обучение иностранному языку особенно популярным и актуальным. Если еще 20 лет назад знание языка требовалось лишь в работе некоторых сфер, то сейчас владение хотя бы одним иностранным языком является обязательным.

Главной проблемой обучения иностранному языку является возраст обучаемого. Доподлинно известно, что дети лучше поддаются обучению. До недавнего времени методика обучения была направлена на детей школьного возраста, то теперь родители стремятся начать обучение иностранному языку как можно раньше.

Дошкольный возраст особенно благоприятен для начала изучения иностранного языка: дети этого возраста отличаются особой чуткостью к языковым явлениям, у них появляется интерес к осмыслению своего речевого опыта, «секретов» языка. Они легко и прочно запоминают небольшой по объему языковой материал и хорошо его воспроизводят. С возрастом эти благоприятные факторы теряют свою силу.

Есть еще одна причина, по которой ранний возраст предпочтителен для занятий иностранным языком. Чем моложе ребенок, тем меньше его словарный запас в родном языке, но при этом меньше и его речевые потребности: сфер общения у маленького ребенка меньше, чем у старшего, ему еще не приходится решать сложные коммуникативные задачи. А значит, овладевая иностранным языком, он не ощущает такого огромного разрыва

между возможностями в родном и иностранном языке, и чувство успеха у него будет более ярким, чем у детей старшего возраста.

В дошкольном возрасте при обучении английскому языку у детей происходит постепенное развитие основ коммуникативной компетенции, которая на ранней стадии изучения английского языка включает в себя следующие аспекты:

- умение правильно с фонетической точки зрения повторить английские слова за преподавателем, носителем языка или диктором, то есть поэтапное формирование слухового внимания, фонетического слуха и правильного произношения;

- овладение, закрепление и активизация английского словаря;

- овладение определенным количеством несложных грамматических структур, построение связного высказывания.

Игра является и формой организации, и методом проведения занятий, на которых дети накапливают определенный запас английской лексики, заучивают много стихов, песенок, считалок и т.д.

Такая форма проведения занятий создает благоприятные условия для овладения языковыми умениями и речевыми навыками. Возможность опоры на игровую деятельность позволяет обеспечить естественную мотивацию речи на иностранном языке, сделать интересными и осмысленными даже самые элементарные высказывания. Игра в обучении иностранному языку не противостоит учебной деятельности, а органически связана с ней.

Игры в непосредственной образовательной деятельности не должны быть эпизодическими и изолированными. Необходима сквозная игровая методика, объединяющая и интегрирующая в себя другие виды деятельности в процессе обучения языку. В основе игровой методики лежат создание воображаемой ситуации и принятие ребенком или преподавателем той или иной роли.

Обучающие игры делятся на *ситуативные, соревновательные, ритмо-музыкальные и художественные.*

К *ситуативным* относятся ролевые игры, которые моделируют ситуации общения по тому или иному поводу. Ролевая игра – это игровая деятельность, в процессе которой дети выступают в определенных ролях, разыгрываются различные жизненные ситуации, например: продавец-покупатель, доктор-пациент, актер и его поклонник и т.д.

Они, в свою очередь, делятся на игры репродуктивного характера, когда дети воспроизводят типовой, стандартный диалог, применяя его к той или иной ситуации и импровизационные игры, требующие применения и видоизменения различных моделей.

Стандартные диалоги например:

Show me (покажи мне) – когда преподаватель называет предмет, а ребенок должен подойти к карточке с изображением нужного слова и указать на нее.

What's this? Преподаватель показывает слова, дети называют слова.

What's missing? (что пропало)

What's doesn't belong? (что лишнее)

«Волшебное зеркало» - цель: развитие внимания. К зеркалу подходят дети в масках зверей. В волшебном зеркале отражается несколько зверей. Детям нужно сказать кого они видят и в каком количестве. Например: I see a dog. I see five dogs.

К *соревновательным* относятся большинство игр, способствующих усвоению лексики и грамоты. В них побеждает тот, кто лучше владеет языковым материалом.

Это всевозможные кроссворды, "аукционы", настольно-печатные игры с лингвистическими заданиями, выполнение команд. Кроссворды могут быть на любую тему: животные, фрукты, овощи, мебель, игрушки и т.д. Команды бывают различные. На занятиях дети могут играть в игру: "Simon says" – цель этой игры развитие познавательных интересов. Дети встают рядом с преподавателем. Задача детей состоит в том, чтобы выполнять команды преподавателя. Например: Hands up! Sit down! Jump! Run! И т.д. В процессе проведения данной игры используется лексический материал различных тем.

Ритмо-музыкальные игры – это всякого рода традиционные игры типа хороводов, песен и танцев с выбором партнеров, которые способствуют не столько овладению коммуникативными умениями, сколько совершенствованию фонетической и ритмомелодической сторон речи и погружению в дух языка, например: "Nuts and May", "What's your name", "I like my friends", "Heard, shoulders, knees and toes" и т.д.

Художественные, или творческие, игры – это вид деятельности, стоящий на границе игры и художественного творчества, путь к которому лежит для ребенка через игру. Их, в свою очередь, можно разделить на

1. Драматизации (т.е. постановка маленьких сценок на английском языке) «В лесу» - например: в лесу встречаются лисичка и медведь, и разыгрывается маленький диалог (Hello! I'm fox. I can run. I like fish); «Красная Шапочка» и другие.

2. Изобразительные игры, такие как графический диктант, раскрашивание картинок и т.п. Раскрашивание картинок, это успокаивающее, не всегда содержательное, но очень распространенное занятие. Например, можно показать готовую картинку. Пока ребенок занимается с контуром,

преподаватель многократно повторяет слово, называет детали. Таким образом, мы заложим основу как на новом языке называется то, что ребенок сделал сам. Графический диктант – например: на занятиях говориться детям, что какого цвета, дети раскрашивают, а потом сравнивают получившиеся изображения с тем, по которому диктовал преподаватель.

3. Словесно-творческие (коллективное сочинение маленьких сказок, подбор рифмы), например:

Грозди сочные висят,
Поспевает виноград.
Вот бы вызрел он скорей.
Виноград in English — grape.
Мы катались на качеле,
Ели вишню, то есть, cherry.

На границе ситуативных импровизационных игр и творческих драматизаций находится такой вид деятельности, как импровизация на тему известной сказки, уже проигранной в устоявшемся виде. Например, игра в "Репку" или "Теремок", в которых, в зависимости от количества персонажи и реплики.

Выбирая, или придумывая игру для включения в занятие, необходимо соблюдать следующие правила:

Прежде чем приступить к игре, ответьте на следующие вопросы: какова цель игры, чему в ней должен учиться ребенок? Какое речевое действие он должен выполнять? Умеет ли ребенок строить такое высказывание, нет ли там дополнительных трудностей? Ответив на эти вопросы, попробуйте сами превратиться в ребенка и придумать, в какой интересной ситуации могло бы возникнуть высказывание по такой модели.

Подумайте, как обрисовать эту ситуацию ребенку таким образом, чтобы он ее сразу принял. С удовольствием играйте с ребенком сами!

Игра должна быть обучающей, и она должна быть игрой. Поэтому, вводя на занятии игру, ее дидактический результат важен для преподавателя, но не может явиться побудительным мотивом для деятельности детей. Следовательно, игра должна изменить сам стиль взаимоотношений между детьми и взрослым преподавателем, который не может ничего навязывать: играть ребенок может только тогда, когда он этого хочет и когда это ему интересно, и с теми, кто вызывает у него симпатию.

Преподаватель не может быть лишь организатором игры – он должен играть вместе с ребенком, потому, что дети с большим удовольствием играют с взрослыми и потому, что игровая атмосфера разрушается под взглядом стороннего наблюдателя.

И так, можно сказать, что основа любой игры – ролевая. Ребенок в ролевой игре может выступать в роли себя самого, английского ребенка или взрослого, сказочного персонажа или животного, ожившего предмета и т. п. – возможности здесь неограниченны.

Его партнером может становиться другой ребенок, учитель, кукла, воображаемый герой, помощник-актер или второй преподаватель, всегда играющий одну и ту же роль, и т.д. Таким образом, игра – это ориентированная игра на зону ближайшего развития, совмещающая педагогическую цель с привлекательным для ребенка мотивом деятельности.

Список литературы.

1. Астафьева М.Д. Праздники для детей, изучающих английский язык. - М.: Мозаика-Синтез, 2009.
2. Гальскова Н.Д. Никитенко З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: методическое пособие.-М.: Айрис-пресс, 2004.
3. Гусева Л.П. Играем, учим, мастерим – мы английский знать хотим. – Ростов н/Д: Феникс, 2009. Земченкова Т.В. Английский для дошкольников. – М.: ВАКО, 2008.
4. Иванова М.В. Английский для малышей. – М.: АСТ: Астрель, 2009.
- Трофимова Г.С. Педагогические основы обучения иностранным языкам (Предметная дидактика). – Ижевск: изд-во Удмуртского ун-та, 1999.
5. Козина С.В. Праздники для дошкольников на английском языке. – М.: ТЦ Сфера, 2008.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O'QUVCHILAR TAFAKKURINI O'STIRISHDAGI MUHIM VOSITASI SIFATIDA

G'afforjon Rahmonov, Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Boshlang'ich ta'lim O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini hayotga tadbiiq qilishda asosiy o'rinni egallaydi. Binobarin, boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish muhim sanaladi.

Ona tili - nutq: o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan, birinchi navbatda o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi hislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi.

Ona tili boshlang'ich sinfda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida

ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur.

Boshlang`ich sinflarda ona tili mashg`ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- 1.O`qish, yozuv, grammatik materialni o`rganish, kuzatishlar hamda o`quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog`liq holda, ularning ogzaki va yozma nutqini o`stirish.
2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o`rgatish, ya`ni ularni elementar o`qish va yozishga o`rgatish, bu ko`nikmalarni malakaga aylantirish.
- 3.Adabiy til me`yorlarini, ya`ni imloviy va punktuatsion savodli yozuvni, orfoepik to`gri talaffo`zni o`rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.
- 4.Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o`rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.
5. O`quvchilarni o`qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiyommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish , ularda tabiiy asarni idrok etish ko`nikmasini xosil qilish. Bu vazifalarning hammasini boshlang`ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va boshlang`ich sinflar ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat xujjati bo`lib, unda o`quv predmetining mazmuni va xajmini, shuningdek, shu predmetdan bilim, ko`nikma va malakalar darajasiga qo`yilgan asosiy talablarni belgilaydigan bo`ladi. Dastur talablarini o`qituvchi va o`quvchilar bajarishlari shart, uni kengaytirish va qisqartirishga yul qo`yilmaydi.

Boshlang`ich sinflarnig ona tili dasturi ikki qismdan iborat:

- 1.Uqtirish xati.
- 2.Asosiy qismi.

Uqtirish xatida ona tili predmetining tutgan o`rni, uning vazifalari ko`rsatilib, metodik yul-yuriqlar beriladi. Dasturning asosiy qismi 4 bo`lim, u har bir sinfda o`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan bilim va ko`nikmalar ko`rsatilgan. Dasturning bo`limlari: xat - savod o`rgatish va nutq o`stirish «O`qish va nutq o`stirish», «Grammatika, imlo va nutq o`stirish»dan iborat. Har bir bo`lim bir necha qismlardan iborat. Masalan, «O`qish va nutq o`stirish» bo`limi, «Sinfda o`qish» va «Sinfdan tashqari o`qish»ni sinfda o`qish o`z navbatida «O`qish mavzulari»ni, «O`qish ko`nikmalari»ni, «Matn ustida ishlash» qismlarini o`z ichiga oladi va hokazolar.

Maktabda o`quv predmeti sifatida tilni o`rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, yani fonetikasi, leksikasi, so`z yaslishi va grammatikasi (morfologiya va sintaksis)ning o`zaro ichki borlanishlariga asoslanadi.

Maktablarda ona tili o`rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga quygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo`ppirrali bo`lib, ularpi bajarish o`quvchilar ongini o`stirishga, ularga g`yaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berishga yo`naltirilgan. Ona

tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bulib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yunaltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'lik, holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush to'zilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi gapda so'larning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasali sh usullari haqidagi (so'z yasali shiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tili to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarning ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuastion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasali shiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuastion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi (fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili kursi 1-4-sinflarda tilning hamma tomonlari o'zaro bog'liq xolda o'rganilishi xisobga olinib to'zilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so'z yasali shi haqida - elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o'zaro ta'sir etkadigan bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Tilni o'rganishga bunday yondashish ta'lim jaryonini o'quvchilar nutqini o'stirish vazifasini hal etishga yo'naltirish imkonini beradi.

Dasturning «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limi har bir sinfda to'rt qismni o'z ichiga oladi: «Tovush lar va harflar» So'z» «Gap», «Bog'lanishli nutk,». Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to'rt sinfda o'rganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratiladi. 1- sinfda fonetika va grafikaga oid mavzularni o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallaydilar. 3- sinfda so'zning morfemik tarkibi va gapni o'rganish muhim hisoblanadi. So'z yasali shiga doir bilimlar asosida o'quvchilarda so'zning leksik ma'nosiga, undan nutqa foydalanishga ongli munosabat o'sadi. 4-sinfda so'z turkumlarini o'rganish birinchi o'ringa qo'yiladi.

Bog'lanishli nutq ustida to'rt yil davomida grammatik vna orfografik materiallarni o'rganish bilan bog'liq holda reja asosida ish olib boriladi. Ona tili darslarida til hodisalari ma'nosi, qurilishi, vazifasi tomonidan o'rganiladi. Ma'lumki, dars o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Shunday ekan, ona tili o'qitishning samaraliligi darsning sifatiga bevosita bog'liq.

Darsga qo'yilgan umumdiddaktik talablar pedagogik

adabiyotlarda keng yoritilgan. Ularni ona tili o`rgatishga tatbiq qilib, metodik aniqliklar kiritilsa, ona

tili darslariga qo`yilgan talablar quyidagicha bo`ladi:

I. Yangi bilim berish, ularni nutq amaliyotiga tatbiq etish va o`quvchilarni tarbiyalash bir butun jarayondir. Darsda o`quvchilarning o`quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til materialining g`oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bulishiga, tilni o`rganish jarayonida bolalarda dunyoqarash elsmenlarini shakllantirishga alohida ahamiyat bsrish zarur. Ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslarigina zarur axlohiy sifatlar tarbiyalanadi. Ona tili darslarida o`zbek tiliga muhabbat va so`zga ehtiyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e`tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o`rganish jarayonida leksik-stilistik ishlarga katta, urin beriladi. Darsda she`r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi.

Ona tili o`qitish jarayoni o`quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslari har bir kishi uchun zarur bo`lgan saranjom-sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini ham tarbiyalaydi.

II. Darsning aniqligi va ichki mantiqiyligi, uning maqsadga yo`naltirilganligi. Yangi material o`rgatiladigan darsnimg logikasi o`rganiladigan til hodisasi va uning lingvistik mohiyatining bir-biriga ta`sir qilishiga ma`lum darajada sabab bo`ladi. Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko`nikmalarni shakllantirish maqsadini o`z oldiga qo`ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. Bolalar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o`rganib olishlari uchun bir-ikki mashq kollektiv ravishda bajariladi. O`quvchilar mustaqilligi oshgach, mashqni mustaqil ishlaydilar. Darsda bajarilgan mashqlar o`rtasidagi bog`lanishni shakllantiradigan ko`nikmaning xususiyati ham sabab bo`ladi. O`quv materialining mavzuga va darsning maqsadiga mos bo`lishi uning maqsadga yo`naltirilishini ta`minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o`quv materiallari (shu jumladan, til faktlarini ko`zatish, imlo va nutqqa oid mashqlarni bajarish uchun tanlanadigan materiallar ham) darsnimg maqsadiga juda mos bulishi zarur.

III. Ona tili darsi, avvalo, o`quvchilar nutq va tafakkurini o`stirish darsidir. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo`lishi uchun o`quvchilarda o`z fikrini grammatik to`gri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini ko`ra olish ko`nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o`stirish ko`rsatmasi grammatik materialni o`rgatishda o`quvchilar tilimizdagi har bir so`z turkumi yoki so`z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo`llashni talab etadi, ya`ni grammatik nazariya grammatik turi va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o`stirishga amalda tatbiq etish uchun o`rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o`stirish darsning

mazmunida va darsda qo'llanilgan vazifalar turlarida o'z aksini topadi. Grammatik, so'z yasalishiga oid, orfografik materiallarni o'rganishni nutq o'stirish bilan bog'lash o'quvchilar akliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Ona tili darsi o'quvchilar taffakurini o'stirish ustida ishlash maqsadiga yo'naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va orfografik materialni o'rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o'zlashtirishni ta'minlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o'tkazish tushuniladi. Masalan, «o'zakdosh so'zlar» tushunchasini shakllantirish uchun so'zlarning leksik ma'nosi va morfemik tarkibini taqqoslashni (ularning ma'nolarida umumiylikni va ularda bir xil o'zakning mavjudligini) bilish lozim. O'quvchilar tafakkurini o'stirish uchun o'qituvchi darsga tayyorlanganda, vazifa turlarini tanlaydi, darsning materialini va uni o'zlashtirishda bolalar bajaradigan aqliy faoliyat mashqlarini ham belgilab oladi.

Demak, o'quvchilarga beriladigan nazariy bilim tildan ongli foydalanish imkonini beradi. Nazariyaga ahamiyat berish, elementar tarzda bo'lsa ham, o'quvchilarning til hodisalari o'rtasidagi bog'lanishni bilib olishiga e'tibor berish demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bunday bog'lanishni bilsalar, nima uchun shunday? so'rogiga javob topa oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 1993 -yil.
2. Ma'qulova B. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T., «O'qituvchi», 1996- yil.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: "Noshir", 2009.
4. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. –Toshkent: Ilm ziyo, 2004.

TURLI KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANGAN HOLDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

S.M. Zokirova, filologiya fanlari bo'yicha PhD,
M.Sotvoldiyeva, FarDU talabasi

Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida „ona tili, o'qish darslarida bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir", – deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili o'qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o'rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til – aloqa vositasi, chunki so'zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro'yobga chiqqan fikrni anglaydi.

Ona tili fani o'quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ona tilining tizimlilik tamoyiliga rioya qilgan holda bolalar nimalarni o'rganishlarini va dasturni bilishlari zarur, har bir darsda lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor berilishi lozim. O'qituvchi ta'limning har bir bosqichida o'quvchining nutq taraqqiyotida bo'ladigan o'zgarishlarini bilishi va unga tayanishi lozim. Har bir darsda o'quvchining lug'at boyligi, so'z boyligi oshib borishi lozim.

Bola birinchi sinfga kelgach, lug'ati tezlik bilan boiydi. Chunki, uning uchun maktabdagi hamma narsa yangi, ana shularning nomini o'zlashtira boshlaydi.

Boshlang'ich sinflarda lug'at ishini keng olib borish o'quvchilarning savodxonligini oshirish uchun, grammatik qonun-qoidalarni puxta bilish uchun, nutqni o'stirish uchun va mantiqiy fikrlash malakasini egallashda muhim ahamiyatga egadir. Lug'at ishi bolalarni ko'p gapirtirish, o'qiganlarni ongli ravishda o'zlashtirish, shuningdek, sinonim, omonim, antonim jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishini ayniqsa, bog'lanishli matnlarda so'zlarning yangi-yangi ma'no kasb etishini tushunishga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi maktabga kelar ekan, u sinfdagi ko'plab buyumlarni ko'radi, lekin ularning ayrimlarini nomi nima, qanday belgisi bor, turmushda qanday ahamiyat kasb etadi, ayrim narsalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaydi. Bunday narsalar o'qituvchi tomonidan shu kunning talabi asosida asta-sekinlik bilan o'rgatib boriladi. Og'zaki suhbat jarayonida tushunishi qiyin, notanish so'zlar, so'z birikmalari tushuntirib beriladi. Masalan, o'qituvchi sinf xonasidagi stol, stul, parta, doska, shkaf va turli xil stendlarda aks etgan ko'rgazmalar orqali o'quvchilar bilan lug'at ustida ishlash imkoniyatlari yaratiladi.

Alifbe davrida va undan keyingi o'qish, ona tili darslarida matndagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning ma'nosi tushuntiriladi. Matndagi obrazli ifodalar, qarama-qarshi ma'noli, ma'nosi bir biriga yaqin bo'lgan so'zlar o'quvchilarga toptiriladi va shu so'zlardan o'z nutqida foydalanishga o'rgatiladi.

Masalan, 1-sinf ona tili darsligidagi 5-mashqdagi tushinilishi qiyin so'zlar ustida lug'at ishi o'tkazish mumkin

Lug`at ishi

So'qmoq- bir kishi yuradigan
volg'iziovoq vo'l.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqini o‘stirishning eng yaxshi usullardan biri rasm asosida suhbat o‘tkazishdir. Bu usuldan alifbe davrida ham keng foydalaniladi. 1-sinf ona tili darsligida ham ko‘plab bu kabi topshiriqlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar rasmga qarab berilgan savollarga javob beradilar. Bu turdagi ko‘rgazmali vositalar o‘quvchilarni fikrlashga, ularni topqirlikka chorlaydi.

Masalan, 133-mashqni olaylik.

133-mashq. Rasmni kuzating. Bolalarga ism qo‘ying.



Savollarga javob yozing:

1. Bolalar nima qilyapti?
2. Bog‘da qanday gullar ochilgan?
3. Gullarga qanday kapalaklar qo‘nyapti?

Belgini bildirgan so‘zlarning tagiga chizing.

Mashqdan ko‘rinib turibdiki, nutq o‘stirishga har bir darsda, har bir mavzuda e‘tibor qaratilgan.

2-sinfda esa o‘quvchilarga rasm, rasmga mos matn va matn asosida tayyor tuzilgan reja beriladi. O‘quvchilardan esa matnni rejaga moslab ko‘chirish talab etiladi. 3-sinfda matn beriladi. O‘quvchilar o‘qituvchi boshchiligida matnga mos reja tuzadilar. Demak, 3-sinfdan boshlab o‘quvchilarni ijodiy bayon yozishga, mustaqil fikrlashga chaqiriladi. 4-sinfdan boshlab mustaqil ravishda o‘quvchilar berilgan matn asosida reja tuzib ijodiy bayon yoza boshlaydilar.

Bundan tashqari, nutq o‘stirishda quyidagi ko‘rgazmali qurol ham qo‘l keladi. Bunda o‘quvchilarga “Gul” so‘zi bilan boshlanadigan qizlar ismi yoki “Sher” so‘zi bilan boshlanadigan o‘g‘il bolalar ismidan kim ko‘p ism topish topshirig‘i beriladi. Bu kabi topshiriqlardan dam olish daqiqasi sifatida ham foydalanish mumkin, bu orqali o‘quvchilar ham dam oladilar, o‘qituvchi esa o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari bir qadam tashlagan bo‘ladi.

Sher	Zod
Sher	Mat
Sher	Ali
Sher	muhammad
Sher	Dor
Sher	Qobil
Sher	Dil



“Sirli toj” ta’limiy o‘yini ham nutq o‘stirishda juda qo‘l keladi. Bunda xattaxta yoniga to‘rt o‘quvchi chiqariladi va ularning har biriga toj kiydiriladi. Tojning old tomonida cho‘ntakchasi bo‘lib, bu cho‘ntakchalarga o‘tilgan mavzularga oid so‘zlar solinadi. O‘quvchilar o‘z o‘rtoqlari tojlariga yozilgan so‘zlarga ta’rif beradilar. Ta’rif berilayotgan toj egasi bu so‘zni topishi kerak bo‘ladi. Shu tariqa o‘yin tashkil qilinadi.

Masalan tojlarda ot so‘z turkumi, kelishik qo‘shimchalari, ot yasovchi qo‘shimchalar kabi so‘zlar yozilgan bo‘lsin, o‘quvchilar ularga “Shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlar yoki gilos, shifokor, daftar kabi so‘zlar qaysi so‘z turkimiga kiradi?”; “So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar yoki -ning, -ni, -ga, -da, -dan qo‘shimchalari qanday nomlanadi?”; “-kor, -dosh, -chi, -zor, -loq qo‘shimchalari qanday qo‘shimchalar?” kabi ta’riflarni berishlari mumkin. Bu didaktik o‘yinni o‘tkazish orqali o‘quvchilarning bilim-ko‘nikmalari ortadi, nutq boyliklar ma’lum miqdorda kengayadi, ularda hozirjavoblik, topqirlik kabi sifatlar rivojlanadi.

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI NUTQ ODOBIGA O‘RGATIB BORISH YO‘LLARI

S. Odilov, QDPI katta o‘qituvchisi

Ona tili darslarida o‘quvchilarni nutq odobiga oid tushunchalar bilan tanishtirib borish ona tili ta’limi oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda xalq maqollarining o‘rni juda katta. Ma’lumki, xalq maqollari mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, ularning katta qismini nutq odobiga oid maqollar tashkil etadi. Nutq odobi juda keng tushuncha bo‘lib, unga rost so‘zlash, o‘ylab gapirish, shirin so‘zlik, kam gapirish, sukut saqlash, yolg‘onchilikdan tiyilish, mazmunli gapirish kabi qator sifatlar kiritiladi. Ona tili darsliklaridan bunday maqollar keng o‘rin olgan. Biz 6-sinf darsligi misolida shu masalani yoritishga harakat qilamiz. Darslikdagi 4-mashqdan nutq odobiga oid bir

qator maqollar o'rin olgan. Mashq shartida maqollarni ko'chirish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni izohlash topshiriq qilib berilgan. Mashqda berilgan quyidagi gaplarga e'tibor qaratamiz. Yaxshi so'z – yurakka malham, yomon so'z – yurakka g'am. Tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling. O'quvchilar mashqda berilgan gaplar bilan tanishib olganlaridan so'ng ular bilan quyidagicha suhbat o'tkaziladi:

O'qituvchi. Birinchi maqol bilan yana bir karra tanishib chiqing va dono xalqimiz qanday fikrni ilgari surganini izohlahga harakat qiling.

O'quvchi. Biz maqol bilan tanishib chiqdik. Maqolda shirinso'zlik, muloyim so'zlash, odob bilan gapirish haqida so'z yuritilgan. Bobolarimiz va buvilarimiz bu maqolni bizga takror-takror aytadilar. Inson o'z shirin so'zi bilan boshqa odamning yiragiga malham bo'lishi mumkin, ya'ni uning qalbiga quvonch, shodlik tuyg'ularini olib kirishi mumkin, yomon so'zi bilan esa o'zga bir kishining yuragida qayg'u, g'am paydo qilishi, unga tashvish orttirishi mumkin.

O'qituvchi. Keyingi maqolni qanday tushundingiz?

O'quvchi. Bu maqol ham shirinso'zlikka bag'ishlangan. Maqol orqali so'zing shirin bo'lsa, baxt senga kulib boqadi deyilmoqchi.

O'qituvchi. Mana, o'quvchilar, biz sizlar bilan ikkita maqolning mazmuni bilan tanishdik. Shu maqollardan qanday xulosa chiqardingiz? Biz bundan keyin hayotda qanday yo'l tutishimiz kerak?

O'quvchi. Odamlarga muloyim so'zlash kerakligini, dag'al, qo'pol so'zlarni aytmaslik kerakligini tushunib yetdik. Bundan keyin boshqalar bilan so'zlashganimizda shularni e'tiborga olishimiz kerak.

7-dars shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli va paronim so'zlarni takrorlash maqsadida kiritilgan. Shu darsda ishlanadigan 31-mashqda zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan xalq maqollari berilgan. Bu maqollardan bittasi nutq odobiga bag'ishlangan: Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham soz so'zlar. O'quvchilar bilan shu maqol atroflicha sharhlanadi. Buning uchun o'quvchilarga quyidagi savollarni berish o'rinli bo'ladi:

1. Maqoldan kelib chiqadigan xulosa nima?

O'quvchining javobi. Bu maqolda kam so'zlash haqida fikr yuritilgan.

2. Xalqimiz nima uchun bizni oz so'zlashga, ya'ni kam gapishga da'vat qilgan?

O'quvchining javobi. Agar biz ko'p gapirsak tinglovchini, ya'ni suhbatdoshimizni zeriktirib qo'yamiz. Ko'p gapirgan odam suhbatdoshining fikrlarini eshitmaydi. Xalqimiz bunday kishilarni sergap deb aytadi. Odamlar esa bunday odam bilan gaplashishdan o'zini olib qochadi.

3. Soz so'zlash deganda nimani tushunasiz?

Soz so'zlash degani hammaga ma'qul keladigan fikrni bayon qilish deganidir. Bu esa so'zlovchidan odobni, bilimni, sabr-toqatni talab qiladi.

Darslikda maqollar bilan birga nitq odobiga oid bo'lgan matnlar ham kiritilgan. Shu matnlar bilan ishlash jarayonida ham o'quvchilarga nutq bilan bog'liq tushunchalar singdirib borilishi mumkin. Masalan, 165-dars "Sifat bo'yicha o'tilganlarni takrorlash" deb nomlangan. Shu mavzuga tegishli bo'lgan 469-mashqda shunday matn berilgan. Mashq sharti quyidagicha. Matnni ko'chiring. Sifatlarning tagiga chizing. Ajratib ko'rsatilgan qo'shimchalar yordamida sifatlar hosil qiling.

Nafas olish to'g'ri yo'lga qo'yilsa, nutq jarangdor, kuchli bo'ladi. To'g'ri olingan nafas aytilayotgan jummalarning yaxlit, o'zaro uzviy bog'liq holda aytilishini ta'minlaydi.

Nutqning ravon, tiniq bo'lishi uchun nafas olishni to'g'ri yo'lga qo'ya bilish lozim. Buning uchun esa muntazam mashq qilib turish zarur.

O'quvchilar matn bilan tanishib, matn tarkibida qo'llangan to'g'ri, jarangdor, kuchli, yaxlit, tiniq, muntazam, uzviy kabi sifatlarni ajratib tagiga chizadilar va talab qilingan tartibga ko'ra tahlil qiladilar. Shundan so'ng o'qituvchi matndan kelib chiqadigan mazmunga e'tiborni qaratadi. Biz matn bilan tanishib nimani o'rganib oldik degan savolga javob izlanadi. Buning uchun quyidagicha suhbat o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

O'qituvchi. Matnda nima haqida so'z yuritilgan?

O'quvchi. Matnda muloqot jarayonida nafas olishni to'g'ri yo'lga qo'yish haqida fikr yuritilgan.

O'qituvchi. Nafas olish to'g'ri yo'lga qo'yilsa, nutq uchun qanday ahamiyatga ega bo'lar ekan?

O'quvchi. Nutq jarangdor va kuchli bo'lar ekan.

O'qituvchi. Nafas olishni to'g'ri yo'lga qo'yish yana qanday samara beradi?

O'quvchi. Aytilayotgan jummalarning yaxlit hamda o'zaro bog'liq holda aytilishini ta'minlar ekan.

O'qituvchi. Biz bu matndan qanday xulosa chiqaramiz?

O'quvchi. O'z fikrimizni ifodalash jarayonida to'g'ri nafas olishimiz kerakligini angladik. Buning uchun shoshilmasdan gapirishga o'rganishimiz kerak.

O'qituvchi. To'g'ri nafas olishga qanday erishilar ekan?

O'quvchi. Muntazam mashq orqali.

Ko'rinadiki, ona tili darsligida nutq odobiga oid fikrlar yetarli berilgan. O'qituvchi bularni o'z vaqtida payqashi va o'quvchilarga tahlil orqali, suhbatlar orqali singdirib borishi lozim. Shunday yo'l tutilsa, o'quvchilarning nutqi borgan sari sayqallashib boradi.

ALISHER NAVOIYNING "TIL VA NUTQ BIRLIKLARI" HAQIDAGI QARASHLARI

Til va nutqning mazmun va mohiyati, kommunikativ xususiyatlari yuzasidan Alisher Navoiy bildirgan ilmiy mulohazalar sof lingvistika, lingvostilistika, lingvopoetika, til falsafasi, nutqiy etika va estetika, umumiy tilshunoslik, til tarixi va qiyosiy tilshunoslik, tarixiy matnshunoslik fanlari nuqtayi nazaridan tadqiq qilishni talab qiladi.

Navoiyning yozishicha, inson tili fikrlash, tafakkur bilan bog‘liqdir. Buni Navoiyning quyidagi satrlaridan anglash mumkin:

1. Tilni odam, jamoa xalq hosil qiladi, yuzaga keltiradi:

*Ma’dani inson guhari so‘z durur,
Gulshani odam samari so‘z durur.*

(H. A. 240-b).

2. Tilning yuzaga chiqishi, uning mazmuni shunchaki oddiy jarayon emas, uni inson tafakkuri, fikrlashi, ehtiyoji hosil qiladi. *“Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur”* (M. Q. 94-b). Navoiyning tilidagi lug‘aviy birligi bo‘lgan so‘z va uning ma’no va vazifalari haqidagi fikrlari o‘rganilgan. Shoir so‘zni juda ko‘p o‘rinda serma’no leksema, badiiy vosita, axloqiy, estetik kategoriya sifatida qo‘llaydi.

So‘z til lug‘at fondi, lug‘at boyligi sifatida. Navoiy tilning so‘z boyligi, majmuyi haqida ham fikr yuritgan. *So‘z bog‘i, so‘z chamani, so‘z gulshani, so‘z gulistoni, so‘z bo‘stoni, so‘z xayli, so‘z bahri* kabi birikmalarda u nutqdagi, harakatdagi, nutqiy faoliyatdagi so‘zlarni ko‘zda tutadi:

*To topibon xush takallum tuzay,
So‘z chamani ichra navo ko‘rguzay.*

(H. A. 82-b).

So‘z gap ma’nosida. Alisher Navoiy so‘z leksemasini kengroq, ya’ni gap ma’nosida ham qo‘llaydi:

*Muzxiq erur mast chu aylar xurush,
So‘zni taammul bila der ahli hush.*

(H. A. 157-b).

*Ko‘rki, bu ish kim iligidin kelur,
Yoribu so‘z kim tilidin ochilur.*

(H. A. 111-b).

So‘z – badiiy til ma’nosida. Navoiy o‘z asarlarida badiiy til haqida ko‘p fikr yuritadi. Uning ahamiyati va sifatlarini ta’riflaydi, bu tilning ijtimoiy-estetik vazifasini ulug‘laydi, u tildan foydalanuvchilar oldiga murakkab talablar qo‘yadi.

Bu yerda shoir, umuman tildan, oddiy muloqot tilidan badiiy nutqning farqli ekanini ta'kidlamog'ida, ya'ni badiiy tilni oddiy til – el so'ziga qiyoslaydi:

*Vasf ne nav o'lg'ay anga el so'zi,
Har ye so'z aytilsa erur chun o'zi.*

(H. A. 58-b).

Alisher Navoiyning nutq madaniyati va odobiga oid fikrlarini ikki katta guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin. Navoiy nutq madaniyati va odobining ijobiy omillari haqida.

Bunda ijobiy omilni, ikkinchi qismi salbiy omilini tadqiq qilishga bag'ishlanadi. Navoiy nutqning mazmundor, ma'nodor bo'lishiga katta e'tibor berar ekan, bunday til toshni eritadi, deya mubolag'a ham qiladi:

*Nukta suv yanglig' erutur toshni,
Topsa haqiqat o'tidin choshni.*

(H. A. 54-b).

Navoiyning yozishicha, nutq – ham mazmun, ham shakl jihatidan rang-barang bo'lishi lozim:

*Barchasining nuktasi rangin erur,
Nazmlari dilkashu shirin erur.*

(H. A. 66-b).

Nutq madaniyatini ta'minlovchi nolisoniy omillar. Navoiyning qarashlariga ko'ra, nutq madaniyati va odobining nolisoniy omillari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Nutq maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtda nutq madaniyatining asosiy shartlaridan biri nutqning maqsadga muvofiqligi deb belgilanadi. Nutq e'tiborga loyiq, tinglovchining diqqatini tortadigan bo'lmog'i kerak. Navoiy ta'kidlashicha, kishining nutqi e'tiborga loyiq bo'lmasa, unga eldoshlar qiziqmasa, diqqat qilmasa, bu-notiqning elda yo'q, unut bo'lganidir:

*Elda kishi yo'q demak o'ldi so'zung,
Dohil emas senmu bu elga o'zung?*

(H. A. 109-b).

- Nutq samimiy, dilkash, yurakdan chiqadigan bo'lmog'i, uning ichidagini ifodalashi, uning kimligini nutqi aytib turishini ta'kidlaydi:

*O'rtadi chun bo'yla zavoli ichin,
Bu so'z ila ayladi xoli ichin.*

(H. A. 255-b).

- So'zlovchi tinglovchining kimligi va uning saviyasini, ehtiyojini hisobga olmog'i lozim. Alisher Navoiy so'zlovchining nutqi tinglovchiga qiziqarli bo'lishini ta'minlaydigan omillardan biri sifatida suhbatdoshning, ya'ni tinglovchining kimligini hisobga olishi, deb hisoblaydi:

*Har biriga o'zgacha so'z muddao,
O'zgacha so'z demaki, yuz muddao.*

(H. A. 334-b).

- Nutq chiroyli, nafosatli va latif bo'lishi lozim. Adib bunday talab va me'yorni ko'proq voizlar nutqida kuzatadi. Navoiyning yozishicha, insonning go'zalligi, barkamolligi uning tilida, nutqida o'z aksini topadi:

*Gar chiroyi rashki qamar bo'lma,
La'li labi tungi shakar bo'lmasa.*

(H A, 59-b).

*Oytsa bu hisnu malohat bila,
Nuktani oyini fasohat bila.*

(H A, 59-b).

Alisher Navoiyning nutq madaniyati va odobini buzadigan salbiy omillar haqidagi fikrlari ham talaygina. Alisher Navoiy tomonidan belgilangan nutq madaniyati va odobi talabiga zid keluvchi omillar, va nolisoniy omillarga bo'lish mumkin.

Nutq madaniyati va odobiga oid talablarga zid keluvchi lisoniy omillar. Puxta o'ylamay so'zlash, sayoz fikrlilik, sovuq nafaslilikdir. Bu o'rinda Navoiy "nomaqbul so'zlar aytuvchi" ma'nosini beruvchi *damsard* so'zini qo'llagan.

Navoiyning ta'kidlashicha, ko'zga ko'ringan har qanday voqea-hodisani so'zlayverish to'g'ri emas:

*Til bori ul debki, demak xo'b emas,
Ko'z ko'ribon oniki matlub emas.*

(H. A. 126-b).

Nutq madaniyati va odobini buzadigan nolisoniy omillar. O'rinsiz, behuda, befoyda gaplar aytish. Bunda harza – behuda vaysash, valdirash: Alisher Navoiyning yozishicha, behuda ko'p vaysash, valdirash, so'z nayrangbozligi notiqning ham so'zini, ham tilini kesadi, uning o'ziga zarar keltiradi, ofat chaqiradi:

*Harza erur chunki musha'bid so'zi,
O'z tilini ko'rki kesar ham o'zi.*

(H.A. 156-b).

- Insonlar o'zaro fikr almashadigan, muloqat qiladigan qurol, vosita ma'nosida;
- Og'zaki aytilgan yoki yozilgan nutq, matn ma'nosida;
- Yozilgan asar, asosan, badiiy asar, ko'proq nazm, she'riyat ma'nosida;
- Hayvonlar tili (masalan, qush tili) ma'nosida;
- Nutqiy jarayon, konkret jonli til ma'nosida;
- Biror elat, qabila, xalqning aloqa quroli ma'nosida (turkiy til, forsiy til, arab

lisoni, ulus tili kabi).

Navoiy ko‘p o‘rinda til va so‘z leksemalarini sinonim sifatida qo‘llasa-da, ularni o‘zaro farqlaydi ham. Bu hol shoirning quyidagi misralarida ko‘rinadi:

*To topibon xush takallum tuzay,
So‘z chamani ichra navo ko‘rguzay.*

(H. A. 82-b).

*Til bu chamanning varaqi lolasi,
So‘z durlaridan bo‘lubon jolasi.*

(H. A. 58-b).

Navoiyning fikricha, til oddiy so‘zlashuv tili va badiiy til shakllariga ega. U asosan, ko‘p o‘rinlarda *so‘z, til, lafz, lison, kalom, suxan* va boshqalar haqida gapirganda badiiy tilni ko‘zda tutadi. Navoiy asarlarida til so‘zi turli iboralar, birliklar tarkibida kelib, xilma-xil ma‘nolarni ifodalaydi. Chunonchi: *til ranji, til og‘rig‘i, turkiy til, turk lafzi, til hifzi, til zabti, ulus tili, el tili, o‘z tili va boshqalar*. Nutq mufassal bayon qilinmog‘i, mufassal, to‘liq bayon qilishni *tafsil, vuzuh* so‘zlari orqali beradi.

Shu bilan birga, Navoiy nutqning izchil, mantiqiy bo‘lishiga katta e‘tibor qilgan. Navoiy Mehinbonu tomonidan Farhod sharafiga uyushtirilgan ziyofatda ishtirok etayotgan o‘nta kanizaklarning nutqi haqida:

*Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay‘at ruqumida qalamkash.-*

Deya ularni madh etadi (“Farhod va Shirin”, 272-b).

Nutq qisqa va ravon bayonli bo‘lmog‘i lozim. Navoiy nutq qisqa, ixcham, ammo mazmunli, bayoni aniq, tushunarli, mujmal bo‘lmasligi lozim deb hisoblagan: *“Va avsot so‘z jamoati busahoyi balog‘atshior va bo‘lag‘ayi fasohatdisar iborati farxunda ishoratlaridurkim”*. Navoiy o‘zining yozma nutqi haqida gapirar ekan, har doim gapni cho‘zmaslikka undaydi;

*Navoiy, xomadek tortib uzun til,
Ne dersen, oxir o‘z haddingni bilgil.*

(“Farhod va Shirin”, 16-b).

Tilni va uning imkoniyatlarini bilish va egallash lozim. Alisher Navoiy ba‘zi shaxslarning nutqiga baho berar ekan, ularning lisoniy mahoratini, tilning boyliklarini qanchalik egallagani, undan qay darajada foydalanishiga qarab belgilaydi.

Tildan nutqqa mos vositalarni tanlay olish va ulardan til qoidalariga mos foydalanish kerak. Alisher Navoiy tilni yaxshi egallagan, mos keladigan fikrni to‘g‘ri ifodalay oladigan bo‘lishi va til vositalarining munosabatini tanlay olishi hamda ishlatishi, bunda til qoidalari, me‘yorlariga amal qilishi lozim, deb hisoblaydi.

”SIFAT” SO‘Z TURKUMINI O‘QITISHDA TA‘LIMY O‘YINLARNING O‘RNI

M. Ahmedova, M. Akbarova (Qo‘qon shahar 21-maktab)

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, ona tilimizning hayotimizdagi o‘rni va ta‘sirini kuchaytirish, uni tom ma‘noda milliy qadriyatga aylantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. O‘zbek tilining qo‘llanish doirasi sezilarli darajada kengaydi. Uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi lug‘atlar yaratilganligi buning isbotidir. Shu bilan birgalikda ona tilini o‘rgatish va o‘qitish samaradorligini oshirish ham muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Insonning kamolotga yetishuvi hech qachon osongina amalga oshgan emas. Bu juda qiyin va uzun yo‘ldir. Jamiyatning bir tekisdagi rivojlanish jarayonlarida ham bu vazifa oson bo‘lgan emas. Bugungi globallashuv jarayonlari keng miqyos kasb etib borayotgan, bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos qonunlari va tamoyillari tobora jiddiyroq bo‘y ko‘rsatayotgan hozirgi zamonda esa bu masala yanada murakkablashadi. Bu tabiiy jarayondir. Shuning uchun ham ta‘lim-tarbiya jarayonlari tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarga ko‘proq ehtiyoj sezilmoqda.

O‘quvchi nutqining go‘zalligi, rang-barangligi, jozibadorligi, ta‘sirchanligi ko‘p jihatdan sifat so‘z turkumiga oid bilimlarning o‘quvchilar tomonidan puxta egallanganligiga bog‘liq. Mazkur so‘z turkumi yuzasidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi o‘quvchilar nutqini sifatlar bilan boyitish, nutq go‘zalligini ta‘minlash, bu so‘zlarni nutqiy sharoitga mos ravishda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash, mazkur turkumga oid so‘zlarni yoza olish malakalarini egallashdan iboratdir. Ko‘rinib turibdiki, sifatlarni o‘rganishda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish eng asosiy talablardan biri sanaladi.

Modomiki shunday ekan, mazkur so‘z turkumidan tashkil etiladigan ta‘limiy o‘yinlar ham, avvalo, shu maqsadga xizmat qilishi, ya‘ni bolalarning so‘z zaxirasini ko‘paytirishga qaratilishi kerak. Ona tili ta‘limi oldiga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishda o‘quvchilar sifatlarning ma‘no guruhlari, shakl-hajm sifatlari, maza-ta‘m sifatlari kabi ma‘noviy guruhlar ustida ish olib borishar ekan, ular har bir ma‘no guruhiga kiruvchi so‘zlarning lug‘atini tuzadilar va qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarni topish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Bu topshiriqlar o‘yin tarzida tashkil etilsa, mashg‘ulotlar qiziqarli va samarali boladi.

«Belgilarini izohlash» **o‘yini.**

O‘yinni o‘tkazishda o‘quvchilar uch guruhga ajratiladi: 1-guruh qovunning rangini, 2-guruh esa shakl-hajmini, 3-guruh uning maza-ta‘mini bildiruvchi sifatlarni topishadi.

Namuna:

- 1-guruh: *ko'k, oq, sariq, sarg'ish.*
 2-guruh: *katta, kichik, uzun, dumaloq.*
 3-guruh: *shirin, mazali, to'yimli.*

O'qituvchi qovunning rasmini doskaga ilib qo'yadi-da, 1-guruhdan maza-ta'mni ifodalovchi, 2-guruhdan rang-tusni, 3-guruhdan shakl-hajmini bildiruvchi sifatlarni aniqlashni topshiradi. Shu uyaga kiruvchi barcha so'zlarni yozib chiqqan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladi.

«**Tarkibini o'rganamiz**» o'yini. Bu o'yinda sifatlarni majmuasi doskaga yoziladi va o'quvchilardan ularni morfemalarga ajratish talab etiladi: *xushovoz, sofdil, havorang, tezpishar, olachipor, xalqaro, sheryurak, tinchliksevar, xushmuomala, zangori, bir so'zli, rahmdil, shifobaxsh, erksevar.* Sifatlarning yasallishini, tarkibini ongli o'zlashtirgan o'quvchilar to'g'ri aniqlashadi va to'g'ri yozish malakalarini mustahkamlay oladi. Bu topshiriq musobaqa tarzida o'tkazilsa, o'yin xarakteriga ega bo'ladi.

«**So'z gavharini qadab qo'y**» o'yinida o'quvchilar uch guruhga ajratiladi va birinchi guruh «ser» qo'shimchasi bilan yasalgan sifat aytadi, ikkinchi guruh uning sinonimini hosil qilsa, uchinchi guruh shu so'zning yana bir ma'nodoshini aytadi.

Namuna:

unum-unumli-unumdor; savlat-savlatli-savlatdor; shovqin-shovqinli serohang ohangli; gul-gulli-guldor; baraka-barakali; g'ayrat- g'ayratli-g'ayratchan.

«**Kichikintoyim-shirintoy**» o'yinida o'quvchilarga -gina, -kina qo'shimchalari yordamida ozaytirma sifatlarni hosil qilish tushuntiriladi va berilgan so'zlardan shunga oid sifatlarni yozish topshiriladi.

Namuna: katta-kattagina, muzdek-muzdekkina, pastak-pastakkina, tuzuk-tuzukkina, lo'nda-lo'ndagina.

«**Qo'shimchani mos qo'yish**» o'yini. Bu o'yinda sinf ikki guruhga ajratiladi. O'qituvchi sifatlarni aytadi. 1-guruh uning ozaytirma darajasini hosil qiluvchi qo'shimchani bittasi qo'llangan so'zni aytsa, ikkinchi guruh shu qo'shimchani sinonimi yordamida hosil bo'lgan so'zni aytadi. Namuna:

sifat	1-guruh aytgan so'z	2-guruh aytgan so'z
oq:	oqish	oqimtir
sariq:	sarg'ish	sarg'imtir
ko'k:	ko'kish	ko'kimtir

Qaysi guruh musobaqa g'olib bo'lsa rag'batlantiriladi. Dars so'nggida

“Mening fikrim ...” mashqi o'tkaziladi

Flechat 5 ta qog'ozlarga quyidagilar yoziladi va xonaning turli o'rinlariga joylashtiriladi.

1. Bu fan men uchun muhim:
2. Bu mashg'ulotdan men mamnuniyat bilan qaytardim:

3. Bu fanda men ko‘proq quyidagilarni bilishni xohlardim:
4. Meni ko‘proq quyidagilar qiziqitirdi:
5. Tilaklar, takliflar.

O‘quvchilar xona bo‘ylab yurib, flepchat qog‘ozlarga o‘z fikrlarini yozadilar, fikrlar o‘qituvchi tomonidan o‘qilib tahlil etiladi, fikrlar keyingi darslarda inobatga olinadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘rganish, ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi ta‘lim-tarbiya jarayonlarining eng dolzarb, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalari qatorida turibdi. Bugungi kunda yangi bilimlar miqdori, hajmi tobora kengayib bormoqda. Axborotlar oqimining kuchayib borishi ham odatdagi holga aylanib qoldi. Ayni paytda ularni o‘zlashtirish darajasi nisbatan orqada qolayotgani ham sir emas. Shuning uchun ham an‘anaviy ta‘lim usullari bilan birgalikda zamonaviy, yangi yondashuvlar ham o‘qituvchi va murabbiylarni ko‘proq qiziqitirmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtiradigan, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini jadallashtirish va qiziqarli bo‘lishiga imkon beradigan shakl va usullarning joriy etilishidan ular ko‘proq manfaatdor bo‘lib qolmoqda.

“O‘ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI” MODULINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Usmonova Sofiya, Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

O‘zbek shevalari o‘ziga xos fonetik va grammatik xususiyatlari bilan birga leksik xususiyatlarga ham ega. Bu esa shevalarni adabiy tildan o‘zaro farqlaydi. Ma‘lumki, o‘zbek shevalari leksik tarkibida umumxalq tiliga xos bo‘lgan umumiy leksik qatlam va shevagagina xos bo‘lgan leksik qatlam mavjud.

Innovatsion pedagogik texnologiya - ta‘lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro ta‘sirini hisobga olgan holda, butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir.

“O‘zbek shevalari leksikasi” modulini ta‘lim jarayonida talabalarga o‘rgatishda foydali bo‘lgan quyidagi interfaol usullarni keltirib o‘tamiz.

Grafik organayzerlar – o‘quv jarayonida qoyilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi tayyor (to‘ldirilgan) holda qo‘llasa, **vosita vazifasini**, o‘quvchilarning mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, **metod vazifasini** bajaradi.

Assesment texnologiyasi

Talablarning olgan bilimlarini “Assisment” usulida tekshirish eng samarali usullardan biridir. Bunda ularning olgan bilimlarini aniqlash, tahlil qilish imkoni tugʻiladi. “Assesment” inglizcha soʻz boʻlib, “baho”, “baholash” maʼnosini bildiradi. **Assesment texnologiyasi** talabalarning bilim, koʻnikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini taʼminlovchi topshiriqlar toʻplami boʻlib, u biografik anketa, taʼlim sohasidagi yutuqlar bayoni, oʻquv individual topshiriq, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatish, rolli hamda ishbilarmonlik oʻyinlari kabilardan tashkil topadi.

“Assesment” texnologiyasi

(Assesment –oʻz-oʻzini taqdimot qilish, maʼlum bir sinovdan oʻtish)

TEST

Naqshli leksemasi qaysi lahjada, qoʻllaniladi va qanday semaga ega?

- A. Oʻgʻuz lahjasida bezak
- B. Barcha oʻzbek shevalarida hunar
- *C. Qipchoq lahjasida goʻzal
- D. Qarluq lahjasida eshik

MUAMMOLI VAZIYAT

Oʻzbek adabiy tili va xalq shevalarida qoʻllanadigan sinonim leksemalar shakllarini izohlab bering.

SIMPTOM

Lahjalarda omonimik shakllar –
Lahjalarda sinonim shakllar –
Lahjalarda antonim shakllari –

AMALIY KOʻNIKMA

Leksik dialektizmlarga badiiy asarlardan misollar keltiring.

“Qanday?” texnologiyasi

Power Point dasturida tayyorlangan ovozli, rasmi va video darslar o'rganuvchini mavzuga yanada jalb qiladi va xotirasida yaxshi saqlanadi. Buning sababini shu bilan tasdiqlay olamizki, ko'rish orqali inson xotirasida saqlash imkoniyati yanada oshadi, sodir bo'layotgan jarayonlar ko'z o'ngida gavdalanadi va tasavvurga ega bo'ladi. Qolaversa ushbu dastur yordamida biz mavzuni turli xil rangli shakllar, sur'atlar va diagrammalar ko'rinishida ifodalay olamiz. Bu esa o'z o'rnida o'rganuvchiga ilmiy tushuncha bilan birgalikda zavq ham bera oladi.

Word dasturida esa jadval ko'rinishlaridan foydalanib mavzu yoritib berilsa, o'quvchi osonroq tushunadi. Bundan tashqari ushbu dasturning imkoniyatlari nihoyatda keng. Turli xil yozuv ko'rinishida ma'lumotlarni tinglovchiga yetkaza olamiz. Masalan eng muhim ma'lumotlarni katta harflar yordamida yoki ushbu so'z, birikma yoki gapning tagiga chiziq berish orqali ko'rsatishimiz mumkin.

Shuningdek, ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Bizga ma'lumki har bir tilning gap qurilish ketma-ketligi va qonuniyatlari mavjud. Yosh o'rganuvchilarga gap tuzilishining qoidalarini o'rgatish maqsadida jadvallardan foydalansak samarali bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, chet tilini ayniqsa ingliz tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati :

1. Karimov I. A "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.T. " Ma'naviyat " nashriyoti 87-88 betlar.

RAVISH SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA KEYS-STADI METODIDAN FOYDALANISH

D.Sh.Rahmatullayeva, Qo'qon DPI o'qituvchi

Hozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib,

unga o`z nissamizni qo`shmasak, zamon bilan hamqadam bo`lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o`rin egallashimiz qiyin bo`ladi.

Keys (inglizcha – TRUE LIFE atamasiga ko`ra) bu naqiqiy hayotning «bir parchasidir». Keys vaziyatning oddiy haqiqiy bayonigina emas, balki vaziyatni tushunish va banolashga imkon beradigan yagona axborot kompleksidir³⁰⁷.

Keys-stadi – (inglizcha case – to`plam, aniq vaziyat, stadi – ta`lim) keysda bayon qilingan va ta`lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda yechimi variantlarini izlashga yo`naltiradigan aniq haqiqiy yoki sun`iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan o`qitish metodi.

Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o`qitish usuli sifatida xorijiy ta`limda avval-boshda nuquq sonasida qo`llanila boshladi: u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870-yilda qo`llanilgan edi. 1920-yilda Garvard biznes-maktabi (NBS) o`qituvchilari yuristlarning o`qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va munokama qilishni ta`limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o`qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Ishimizning quyi qismida amaliyotimizda sinovdan o`tkazgan ayrim keyslarimizning namunalarini keltiramiz.

“Shaxsiy fikringiz” keysi

“...har kuni, har soatda fidoiyi bo`lish, o`zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish –haqiqiy qanramonlik aslida...”³⁰⁸

Hurmatli talabalar, siz bu fikrni qanday quvvatlaysiz?

Vatanning chinakkam fidoiyisi bo`lish haqidagi ushbu fikrga o`z qarashlaringizni ifodalang, burch va vazifangizni bildiring.

Talabalarning fikri tinglangach o`qituvchi tomonidan xulosalanadi.

“Ravishlarda yasalish yo`qmi?” keysi

Tilshunosligimizda ravish yasalishi juda ham munozaralidir. CHunki ravishlarning asosiy qismi asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksemalardir. SHu boisdan aksariyat tilshunoslar ravish yasalishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so`zlarining ravishga o`tishi) mavjudligini tan olishadi.

1.Siz ushbu fikrga qanday munosabat bildirasiz?

2.Fikr-mulohazalaringizni qaysi olimlarning qarashlari asosida izohlaysiz?

3.SHu fikr bildirilgan adabiyotlar ro`yhatini tartiblang.

“So`zning biz kutmagan ma`nolari” keysi

³⁰⁷ Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B.91.

³⁰⁸ Karimov I.A. Юксак маънавийат – энгилмас куч. – Toshkent: Маънавийат, 2008. – B.165.

Barno, ajuz, adiz, johil soʻzlarning maʼnosini nutqingizda qanday maʼnoda ishlatib kelgansiz? Fikringizni avval yozma bildiring.

Odatda barno soʻzi nutqda qizlarga nisbatan ishlatib kelingan, johil soʻzini jahli yomon maʼnosida tushunib kelganmiz, ajuz kitobiy va adiz dialektal soʻz boʻlganligi sababli talabalar bu soʻzlarni uchratmaganlarini aytishdi.

Soʻzlar maʼnosi izohli lugʻat asosida izohlanadi.

BARNO [*forscha* – yosh yigit, oʻsmir] **1** Yosh, navqiron. *Yoki biror barno yigitni kutarmikan intizor boʻlib.* Uygʻun.

2 Hushi odatdagidan ortiq; chiroyli, goʻzal, sohibjamol; qaddi-qomati kelishgan. *Balki siz ham koʻrgandirsiz oʻshal barnoni, Kulgich yuzli, qalam qoshli, koʻzi shahloni.* (OʻTIL. 1-tom. 170-b.)

AJUZ [*arabcha* – qari, kampir, chol] *esk.kt.* Qari xotin, kampir. *Yonimda qalamdonim, Nechuk qaytaray, jonim! Ezib ichki, tumor, deb Kelsa chol, ajuzlari.* Hamza. (OʻTIL. 1-tom. 47-b.)

ADIZ Bugʻdoyi yoki arpasi oʻrib olingan maydon. *Uni terimchilar yonida... kuzgi shudgor qilishayotgan adizda uchratish mumkin.* M.Nazarov, Daqiqa va misqol. (OʻTIL. 1-tom. 40-b.)

JOHIL [a. – nodon, oʻqimagan, bilimsiz] Jaholatda qolgan, ilm-maʼrifatdan mahrum; qoloq, madaniyatsiz, nodon. (OʻTIL. 2-tom. 109-b.)

“Matnga ravish turkumiga oid soʻz kiriting” keysi

Boʻri uyni yonlab oʻtib borayotgandi, tomida yurgan echki uni boʻralab soʻkishga tushdi. Boʻri unga qarab dedi: “Xomtama boʻlma, birodar, meni soʻkayotgan sen emas – turgan joying!” (Ezop masali)

Masalga yozma munosabat bildiring. Echki obrazini tasvirlashda badiiy misollarga suyaning.

“Shoirlar” guruhi uchun keys

Quyidagilarga alohida eʼtibor berishingiz lozim:

- **ona tiliga taʼrif bering;**
- **bugun oʻz ona tilini yaxshi bilgan odam zamonaviy hisoblanadimi?**
- **ona tilini boyitish va himoyalash deganda nimalarni tushunasiz?;**
- **yaxshi inson ona tiliga mensimay qarashi mumkinmi?;**
- **tilni eʼzozlash.**

FAXRIYA

Assalom, ona yurt, tonglar oʻlkasi,

Taʼrif-tavsifingni yoʻq nihoyasi.

Senga bagʻishlanur muqaddas qoʻshiq

Bu – oʻzbek elining oʻz madhiyasi.

Koʻhna ota yurtim, qadim Turonim,

Oʻz beshik, oʻz tilim, shavkatim, shaʼnim.

Etti iqlim ichra tengi topilmas –
Tuproqlari oltin O`zbekistonim.
To bashar bor ekan, bor ekan quyosh
Birlashgan elga yov otolmagay tosh.
Yovqur yigitlaring, lochin qizlaring
G`animlar oldida egishmaydi bosh.
Dasturxonni ochiq, xirmoni baland,
Samoviy tog`lari nomiga monand.
Olamga mashhur ne zotlar vatani
Mehring qon-qardoshlar mehri payvand.
Sen toshqin Jayhunim, teran Sayxunim,
Sen – mening o`tmishim, sen – yorug` kunim.
Elkadosh o`lkalar bilan hamnafas
Shonli Turkistonim – O`zbekistonim.
Guling gulzor bo`lsin, qirlaring o`rmon,
Daryolaring tengiz, ko`llaring ummon.
Hududing daxlsiz, yaloving yuksak
Sen – sharqning mash`ali, sen – dorulomon. (To`ra Sulaymon)

O`quv predmeti: Hozirgi o`zbek adabiy tili

Mavzu: Ravish so`z turkumi

Keyshing asosiy maqsadi:

Talaba mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so`zning turli shakllarini gap tarkibida hamda bog`lanishli nutqda o`rinli ishlatish ko`nikmalarini rivojlantiradi. Talabalarda muayyan nutqiy madaniyat shakllanadi, qiroat san`ati ko`nikmalari taraqqiy etadi.

O`quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- Keys jarayonida talabalar ilmiy yangiliklar, manbalarga tayanadilar
- Ravish – mustaqil o`zgaras so`z ekanligini asoslaydilar.

Ushbu keyshi muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko`nikmalarga ega bo`lmoqlari zarur:

Talaba bilishi kerak:

Ravish hamisha tilshunoslikning muammoli masalalaridan biri ekanligi, ravish yasalishi haqidagi turli fikrlarning mavjudligini;

Talaba amalga oshirishi kerak:

- mavzuni mustaqil o`rganadi; muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g`oyalarni ilgari suradi; ma`lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko`rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o`rganadi; o`z nuqtai nazariga ega bo`lib, mantiqiy xulosa chiqaradi; o`quv ma`lumotlar bilan mustaqil ishlaydi; ma`lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

Talaba ega bo`lmog`i kerak:

- kommunikativ ko`nikmalarga; taqdimot ko`nikmalariga; hamkorlikdagi ishlar ko`nikmalariga; muammoli holatlarni tahlil qilish ko`nikmalariga.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keyshing tavsifnomasi:

Ushbu keyshing asosiy manbai kabinetli, lavhali bo`lib, hayotiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keyshing asosiy ob`ekti shaxsga yo`haltirilgandir. Bu tashkiliy institutsiohal keys bo`lib, ma`lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o`rtacha, tizimlashtirilgan bo`lib, treningga mo`ljallangan o`quv mavzu bo`yicha bilim va ko`nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko`ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Ushbu keysdan “Hozirgi o`zbek adabiy tili” fanida foydalanish mumkun.

KEYS-stadi: “Ravishlar yasaladimi?” fikrlash doirasini kengaytirish.

Kirish. “Ravishlar yasaladimi?” mavzusidagi keys talabalarni mustaqil fikrlashga, ilmiy manbalar bilan ishlashga, olimlarning fikrlarini o`rganishga o`rgatadi. “Keys stadi” ga asoslangan o`qitish texnologiyasining asosiy maqsadi nisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o`rganilgan o`quv mavzusi bo`yicha bilimlarni mustaxkamlashga muammolarni tahlil qilish va guruhlarda qabul qilish ko`nikmalarini egallashga ijodiy va o`rganish qobiliyatlariga, mantiqiy fikirlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivijlantirishga hamda qarolarni mustaqil qabul qilishga va o`z-o`zini nazorat qilishga yordam beradi.

Quyidagi keys - ma`naviy barkamol va komil insonning aqliy, axloqiy, ma`naviy fazilatlarini yuksak bo`lishi, kishilarning chuqur va zamonaviy bilim, keng dunyoqarash, mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo`lishi, uning yuksak ma`naviy kamolot sohibi bo`lishining asosiy shakli – yuksak bilimga ega bo`lish omili ekanligini ko`rsatib beradi.

Tavsiya etilgan keyshi yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o`zlashtirilgan mavzu bo`yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhiy tahlilida bilim va ko`nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko`nikmalarini egallash;
- o`quv axborotlarini o`zlashtirish darajasini tekshirib ko`rish.

“Ravishlar yasaladimi?” keysi orqali ko`rib chiqamiz.

Tilshunosligimizda ravish yasalishi juda ham munozaralidir. Chunki ravishlarning asosiy qismi asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksemalardir. SHu boisdan aksariyat tilshunoslar ravish yasalishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so`zlarining ravishga o`tishi) mavjudligini tan olishadi.

- 1.Siz ushbu fikrga qanday munosabat bildirasiz?
- 2.Fikr-mulohazalaringizni qaysi olimlarning qarashlari asosida izohlaysiz?
- 3.SHu fikr bildirilgan adabiyotlar ro`yhatini tartiblang.

ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

З.Г.Хатамова., преподаватель КГПИ

Изучение иностранного языка, в особенности, английского с раннего возраста диктует прогрессивное развитие нашего общества. Количество людей, которые решили изучать тот или иной иностранный язык заметно растет. То, что в современном мире не обойтись без изучения иностранного языка, стало очевидным почти для всех людей. За последние десятилетия средний возраст обучающихся разительно изменился. Английский язык входил в школьную программу с 5 класса, а теперь иностранный язык включен и в образовательную программу дошкольных учреждений. Многие авторы говорят, что изучение иностранного языка не только способствует разностороннему развитию и воспитанию дошкольника, но и создает благоприятные условия для развития как языковых, так и общих способностей. Многие педагоги и психологи спорят об оптимальном возрасте для изучения иностранного языка. Однако, как отечественные так и зарубежные психологи такие как Р. Робертс Л.С. Выготский, Б. Уайт, Т. Элиот едины в том, что ребенок способен выучить иностранный язык легче, чем взрослый. Таким образом, дошкольный возраст – лучший период познакомить ребенка с иностранным языком. Более того, многие авторы уверены, что именно возрастной период с 3–10 лет может гарантировать лучшее восприятие ребенком языка. После 10 лет иностранный язык без труда осваивают только те дети, которые имеют лингвистические особенности. А дети до 3 лет еще не до конца освоили родной язык, для того, чтобы погружаться в изучение нового языка. Лексический материал у группы этого возраста запоминается легче, быстрее. Кроме того, у дошкольников присутствует здоровый неподдельный интерес к общению, отсутствует страх, барьер, который может мешать в общении на иностранном языке. Для детей знакомство с иностранным языком воспринимается как невероятное новое открытие. Они только начинают познавать окружающий мир, и если грамотно подойти к знакомству малыша с иностранным языком, то можно достичь удивительных результатов. В таком случае, иностранный язык станет почти родным для малыша, органично войдя в его систему знаний о мире. Поэтому на педагога накладывается огромная ответственность. Его задача увлечь ребенка, поразить, удивить, подарить

перспективы, а не утомить и навсегда отбить желание к изучению иностранных языков. Также, необходимо учитывать, что обучение иностранному языку для каждого возраста имеет ряд особенностей, которые должен знать и грамотно применять педагог. Дошкольники – особая группа, основной вид деятельности которой – игра. Таким образом и процесс обучения должен быть в игровой форме, дети не учат язык, а играют с ним. В этом возрасте нет необходимости заставлять что-то учить – у детей преобладает непроизвольное запоминание, значит нужны позитивные эмоции. В этом помогут обучающие игры. Как часто можно услышать от ребенка, что на занятиях они ничего не делают, а только играют. Но при этом, дети без труда запоминают новые иностранные слова. Игровые упражнения в изучение английского языка являются базой для развития общих образовательных навыков, таких как постановка и достижение цели, контроль, оценка действий, анализ. Но при этом это отличный способ отработки языкового материала. Но безусловно, лексический материал должен быть тщательно подобран с учетом возраста детей. Это должны быть слова, которые общеизвестны, часто употребляются и использоваться на родном языке. Лучше, чтобы это были предметы и явления, которые можно увидеть, потрогать, нарисовать, услышать и т.д. примерные темы – блоки для изучения: алфавит, цифры, животные, семья, игрушки, еда. Не стоит забывать о том, что для дошкольников необходима частая смена деятельности. У них маленький объем внимания. Педагогу необходимо проявить весь свой потенциал и постараться наполнить занятия разными упражнениями-играми, которые смогут по-настоящему увлечь детей. Так как если ребенок устанет и ему надоест, то вернуть его внимание будет непросто. Примерный объем внимания дошкольника от 3 до 7 минут. Значит через этот промежуток времени необходимо менять вид деятельности. Важную роль в изучении иностранного языка играют системность и стабильность занятий. Так как родной язык дети слышат и используют ежедневно, а иностранный только на уроках. Кроме того, не стоит давать дошкольникам сложные грамматические правила и конструкции. Лучше преподносить готовые часто встречающиеся выражения и слова и доводить их употребление до автоматизма. Часто дошкольники путаются в родном и иностранном языках, не могут провести параллели, перевести слова с русского на английский и наоборот. Не стоит переживать, достаточно активно включать в игру любые наглядные пособия для закрепления визуального образа предмета с его названием. В дальнейшем ребенок адаптируется и без труда овладеет переводом. Не стоит забывать про такие инструменты запоминания как сказка, песня и рифма. Таким образом, данному возрасту свойственно непроизвольное запоминание, преобладание

механической памяти над смысловой, наглядно-образное мышление, неустойчивое внимание и чрезмерная двигательная активность.

Помимо активного, многогранного подхода к обучению стоит также познакомить ребенка с проверенными методами, облегчающими запоминание. Среди прочего к ним относятся разного рода мнемотехники и карты мыслей (интеллект-карты/диаграммы связей). Запоминание материала, особенно обширного, сложного и содержащего много несвязанной друг с другом информации, может, с одной стороны, быть трудным и отбивать желание к обучению, а с другой – забирать много времени. В таких случаях желательно применять различные мнемотехники, они могут не только ускорить усвоение информации, но и предоставят ключ, с помощью которого ребенок легче получит доступ к информации в тот момент, когда это будет необходимо.

К наиболее известным мнемотехникам относятся:

- метод цепочки ассоциаций (метод ассоциаций), который заключается в создании истории, в которой слова, требующие запоминания, являются ключевыми элементами сюжетной линии;
- метод перекрытия, заключающийся в запоминании новой информации на основе уже имеющейся;
- метод мест (метод римской комнаты) – еще одна популярная мнемотехника, которая, как гласит легенда, применялась еще в Древнем Риме; она заключается в присвоении запоминаемым объектам отдельных мест в хорошо известной вам комнате;
- метод рифмы – мнемотехника, подразумевающая создание рифмованных пар слов или даже небольших стихотворений, содержащих запоминаемый материал.

Правила для организации успешной учебной деятельности у дошкольников грамматика лексика не вводить дошкольникам сложные конструкции вводить новые слова с использованием картинок или показа не заставлять их заучивать большие предложения на английском языке запоминать новые слова с помощью стихотворений, или использовать пропевку на мелодию известных детских песен мотивировать дошкольника, менять вид деятельности каждые 3-5 минут. Таким образом, процесс обучения иностранному языку дошкольников имеет свои особенности. Это легко объясняется физиологическими и психологическими особенностями развития данной группы. А педагог должен учитывать эти нюансы и подарить дошкольникам возможность погрузиться в иноязычную среду общения и игры.

Библиография

Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М., педагогика, 1989

1. Красюкова А.А. Некоторые аспекты обучения иностранному языку детей дошкольного возраста.
2. Ершова А.П., Букатов В.М. Режиссура урока, общения и поведения учителя (педагогика как практическая режиссура). Воронеж, 1995
3. Пидкасистый П.И. Технология игры в обучении, М., Просвещение, 1992
4. Скорикова Т.И. Особенности формирования лексических навыков у детей дошкольного возраста в процессе образовательной деятельности по английскому языку
5. [Http://hrm.ru/db/pedagogicheskoe-proektirovanie](http://hrm.ru/db/pedagogicheskoe-proektirovanie)

BOSHLANG'ICH SINFDADA ONA TILI TA'LIMI VA DARS MODULLARI

M. Sodiqova, QDPI 2- kurs magistranti

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar jarayonidagi modullar ta'lim mazmunini, vositalari va usullarining har biriga tegishli tarkibiy elementlarni tashkil qiladi. Ushbu modullarni ajratib, belgilashda ma'lum tartibga rioya qilish zarur. Bunda avvalo eng kichik yoki birlamchi modul ajratiladi. Masalan, birorta fikrni tushuntirish jarayonini bir butun holatda bitta modul hisoblash ham yoki bu jarayonni bir nechta bo'laklarga ajratib, ularning harbirini modullar deb hisoblash ham, shuningdek bitta emas, bir nechta o'zaro bog'liq fikrlarni tushuntirish jarayonini bir butun holda bitta modul deb hisoblash ham mumkin. Shunday tartibda belgilangan modulni eng kichik yoki birlamchi modul deb ataladi. Shunday birlamchi modullarni zarur bo'lgan hollarda tartib sonlar bo'yicha belgilash uchun "1-modul", "2-modul", ko'rinishidagi yozuvlar bilan ajratib ko'rsatish yoki "modul" so'zini yozmasdan, faqat tartib son orqali ko'rsatish mumkin. Bunday belgilash orqali zamonaviy pedagogik texnologiyalarning to'liq bayon qilinishini ta'minlash hamda kelgusida to'liq saqlanishini nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi.

Bulardan tashqari, shaxsning xususiyat va sifatleri tarkibiga yo'naltirilganlik bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- fanlar bo'yicha bilim, o'quv, ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan – axborot texnologiyalari;
- aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga yo'naltirilgan – operatsion texnologiyalar;
- estetik va axloqiy munosabatlar sohasini shakllantirishga yo'naltirilgan emotsional-badiiy va emotsional-axloqiy texnologiyalar;
- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalari;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan-evristik texnologiyalar.

Pedagogik texnologiyalarni yuqorida aytilganlardan tashqari bir qancha belgilariga ko'ra ham turlarga ajratiladi. Bunday turlarga ajratishlar har bir pedagogik texnologiya o'ziga xos serqirra ekanligidan kelib chiqadi hamda ularni ilmiy-nazariy hamda amaliy maqsadlar nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilishga, o'zlashtirishga, yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida shakllanib borayotgan ta'lim texnologiyasining tarixiy asosi sifatida respublikamiz hududida turli davrlarda shakllangan quyidagi ayrim ta'lim turlarini ko'rsatish mumkin:

An'anaviy ta'lim, oiladagi ta'lim – tarbiya faoliyati, yakka ta'lim, guruhli ta'lim, sinf-dars ta'limi, ota yoki ona kasbini o'rgatish ta'limi, jamoatchilik ta'lim va tarbiyasi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya jarayonidagi modullar ta'lim mazmuni, vositalari va usullarining har biriga tegishli tarkibiy elementlarni tashkil qiladi.

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING YANGI MODELLARIDA ONA TILI TA'LIM MAZMUNINI UYG'UNLASHTIRISH IMKONIYATLARI

G .To'xtasinova, QDPI 2-kurs magistranti

Ta'lim bugungi kunda o'quvchining ham individual, ham umumiy taraqqiyotining ta'minlovchi jarayon sifatida namoyon bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham mazkur jarayon turli yoshdagi o'quvchilarning aqliy rivojlanish dinamikasini o'quv – biluv jarayonida o'quvchi shaxsining faoliyati ta'lim olishi va rivojlanishining o'zaro aloqadorligini ta'minlashga yordam bermog'i lozim. Qaysikim bu holat rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasidan o'z aksini topmoqda.

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etishi muhim masalardan biridir. Bunda bilish jarayonining o'zi o'quvchi kuzatish, uning faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilmog'i zarur.

Shuningdek hozirgi zamon gumanistik yo'nalishdagi psixologiyaning g'oyasi o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishdan iboratdir. Buning

uchun o'z – o'zini rivojlantirish maydonini vujudga keltirishga bo'lgan ehtiyoj tarkib topmog'i lozim.

Shaxsning o'ziga xos yaxlitligini tarkib toptirishda o'quv – biluv jarayoni muhim omildir. Bu jarayon ilmiy metodik hamda moddiy – texnik jihatdan to'la ta'minlangandagina samarali natijalar beradi. O'quvchida bilish ehtiyojining paydo bo'lish motivlari mana shu shart-sharoit natijasida vujudga keladi. Bularning barchasi o'quvchi shaxsi rivojlanishining psixologik, pedagogik, didaktik yo'nalishlarni belgilaydi.

Shaxs taraqqiyotini ta'minlovchi ta'lim jarayonini tashkil etish g'oyasi «kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosini ifodalaydi. O'quv biluv jarayonida o'quvchining o'ziga xosligini pedagogik qo'llab quvvatlash choralarini rivojlantirish muammosining yechimlarini izlash bugungi kunda o'ta muhimdir.

O'quvchi shaxsini axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning jismoniy hamda ruhiy salomatligini muxofaza qilish hamda mustaxkamlash har bir bolaning o'ziga xosligini saqlab qolish, rivojlantirish, qo'llab quvvatlash hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda unga rioya qilish muhimdir. Barcha o'quv fanlaridan ta'lim mazmunini gumanitarlashtirish bilan bog'liq bo'lgan talablarni belgilab olishni taqozo qiladi.

Ta'limning variantlilik hamda o'quvchi shaxsiga umuminsoniy madaniyatni singdirishga yo'naltirilishiga erishish ham didaktikada muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhim masalalardan biridir. Muayyan o'quv predmeti vositasida dunyoning tarzdagi manzarasini ifodalash talabiga ham ta'lim mazmunini belgilashda, darsliklar yaratishda rioya qilish talab etiladi. Asosiy g'oyalar va didaktik tamoyillar insonparvarlikka intilish pedagogik – psixologik ma'lumotlarga asoslangan holda barcha o'quvchilar ta'lim olish jarayonida bilim olish layoqatlariga ega ekanliklarining qay darajadiligini aniqlash lozim. Shundagina ular uchun yetarli pedagogik, didaktik, moddiy texnik shart- sharoitlarni maqsadga muvofiq tarzda yaratish mumkin. Bu esa ularning bilim darajasining yuqori bo'lishining asosiy omilidir. Har bir sinf uchun yaratilgan darsliklarda o'quvchi shaxsining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar aniq hisobga olinishi kerak.

ONA TILI DARSLARIDA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Radjabova Komila Bahodirovna, Xalq ta'limi a'lochisi,
Navoiy shahar 11-AFCHO'IM o'qituvchisi

Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri o'quvchilarimizni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, ijodkor va eng asosiysi, savodxon

qilib tarbiyalashdir. Bu vazifani bajarish uchun esa ona tili ta'limi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklatiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartiga asosan, **ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi** — o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri hamda ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat. Shunday ekan, ona tili darslarida yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish ancha murakkab jarayon bo'lib, unda savodxonlik, ijodiylik, fikrni aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon eta olish muhim jihat hisoblanadi. Yozma nutq savodxonligi o'quvchidan o'z fikr-qarashlarini tilning imloviy-grammatik qoidalariga, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodalashni talab etadi.

O'qitish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat o'quvchilar og'zaki tarzda chiroyli fikr yuritishadi, ammo fikrlarini yozma bayon etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning tub sababi shuki, ularda yozma nutq kam rivojlangan.

Yuqoridagi muammoning yechimini topish uchun quyidagicha ish tutmoq joiz :

- darslarni AKT vositalari yordamida - slaydlar, videolavhalar namoyishi asosida tashkil etish;
- dars jarayonida yopiq test savollariga yozma javob berish;
- har bir darsning ma'lum bir vaqtida lug'at diktant o'tkazish;
- "Husnixat daqiqasi" ni muntazam tashkil etib borish;
- "Talaffuzi va imlosi qiyin bo'lgan so'zlar lug'ati" ni yaratish;
- Hikoya matni, muhokama va tasviriy matnlar yaratish;
- imlo qoidalariga aloqador test topshiriqlari to'plamini tayyorlash;
- savodxon o'quvchilarni har bir dars davomida rag'batlantirish;

Imlo me'yorlari, ya'ni to'g'ri yozish me'yorlari nutqiy savodxonlikni belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi asosidagi yozuv me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga" tayanadi. So'z va qo'shimchalarni to'g'ri yozish, qo'shib va ajratib yoziladigan so'z hamda so'z shakllarini bilish, bosh harflar bilan yozilishi kerak bo'lgan so'zlarni farqlash kabi imlo amallarini o'zlashtirmasdan turib yozma savodxonlikka erishish mumkin emas. Demak, ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillaridan biri – o'quvchilarning imlo qoidalarini bilishi masalasidir.

Imlo savodxonlikni tarkib toptirishda audiovosita orqali so'zlarni eshittirib, so'ng yozdirish ham samarali usul hisoblanadi. Bu usul so'zning to'g'ri talaffuzi va imlosini eslab qolishga yordam beradi. Pedagogikada so'zning to'g'ri yozilishini eslab qolish usuli orqali ham imlo savodxonlik rivojlantiriladi. Bunda imlosi nisbatan murakkab bo'lgan so'zlar o'qituvchi tomonidan yozuv taxtasiga yozib qo'yiladi. O'quvchilar bir necha daqiqa davomida so'zlarni kuzatib, imlosini eslab

qolishga harakat qiladilar. Shundan so`ng yozuv taxtasidagi yozuvlar o`chiriladi, o`quvchilar xotiralari asosida so`zlarni daftarlariga yozadilar. O`zaro tekshirish usuli bilan so`zlarning imlosi o`rganiladi, xatosi bo`lsa tuzatiladi. Shuningdek, darsning ma`lum bir qismida lug`at diktantlar yozdirish ham o`quvchilar savodxonligi oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, juda ko`p o`quvchilar x va h harflari qatnashgan so`zlar imlosida yanglishadilar. Bunday hollarda quyidagicha lug`at diktant yozdirish mumkin:

- *Saxiy, sohil, hunar mehnat, mohir, xasis, shaxs, Buxoro, hayron, Hindiston, xushmuomala, hosil, baxt, kimxob, Muhayyo, mehribon, taxta, gunoh, xabar ...*

O`quvchilar nazorat diktant yozish jarayonida ham yozuv tezligi, yozuv malakasi hamda imloviy savodxonlik darajasi ko`nikmalariga ega bo`ladilar. Bugungi zamon talabiga muvofiq, nazorat diktantlarini elektron o`quv vositalari yordamida tashkil etish vaqt tejalishiga, qolaversa, savodxonlikni yuqori darajaga olib chiqishga yordam beradi. Buning uchun kompyuter ovoz qurilmasiga diktant matni o`quvchilarga tushunarli bo`lgan ravon talaffuz bilan ovozli yozib olinadi. Bolalarning yozuv tezligini hisobga olib, vaqt belgilash dasturi sozlanadi. Kompyuter ish stolida "Diktant dasturi" yorlig`i vositasida dastur ishga tushiriladi. O`qituvchi dastur oynasidagi diktant mavzulari ro`yxatidan kerakli mavzuni tanlab beradi va shu zahotiy oq diktant yozishga kirishiladi. Diktantni yozdirish odatdagidek uch bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab matndagi gaplar o`qiladi, o`quvchi diqqat bilan tinglaydi. Shundan so`ng matn o`qiladi, o`quvchi yozadi.

Yozib bo`lingach, matndagi gaplar o`qiladi, oquvchi yozganlarini tekshirib oladi. Nazorat diktanti kompyuter yordamida tekshiriladi. Buning uchun dasturning asboblar panelida joylashgan "Tekshirish" tugmasi bosiladi. O`quvchi yozgan diktant matnidagi xatolar qizil rang bilan belgilanadi, imloviy va ishoraviy xatolar soni matn ostida ko`rsatiladi. Shu natijaga ko`ra, o`quvchi yozgan diktant baholanadi. Eng qizig`i shundaki, ko`p xatoliklarga yo`l qo`ygan o`quvchilar nazorat ishini qayta topshirib, bir vaqtning o`zida xatolar ustida ham ishlaydilar. Bunday zamonaviy texnik vositalar asosida nazorat diktantlarining tashkil etilishi o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishlari yanada oshishiga xizmat qiladi.

O`quvchi yoshlar savodxonligini yaxshilashda, ularning lug`at boyliklari kengayishida lug`atlar ustida ishlashning ahamiyati juda katta. Ona tili darslarida lug`at ustida ishlash o`quvchilar nutqini o`stirishga, savodxonligini oshirishga, so`z boyligini kengaytirishga qaratiladi. Bugungi kunda maktab ona tili darsliklariga o`quvchilarni lug`at bilan ishlashga o`rgatuvchi leksikografik mashqlar ham kiritilgani quvonarli holdir. Bu mashqlarni bajarish davomida o`quvchi ona tilining lug`at boyligini o`rganadi, lug`at tarkibidagi so`zlarni to`g`ri yozishga intiladi, yangi-yangi so`zlar bilan tanishadi.

Xullas, ta'lim jarayonida yuqoridagi usullardan unumli foydalanish o'quvchilarning yozma savodxonliklarini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta – maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori (06.04.2017)
2. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari (I qism) . Toshkent- 2015
3. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent- 2015
4. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev: "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent - 2008

ONA TILI DARSLIKLARIDA BAYON VA UNING TURLARI

**Azizbekova M., Qutfiddinova G. Qo'qon,
32- maktab o'qituvchilari**

Matnlar uslub jihatidan rang-barangdir. Ona tili mashg'ulotlarida badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy matnlardan foydalaniladi. Har bir uslub o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum bir me'yorni talab etadi.

Maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadiga ko'ra dars mashg'ulotlari ta'lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda, to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilmog'i kerak. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ona tili ta'limi jarayonida tashkil etiladigan turli yozma ishlar, xususan, bayonning o'ziga xos o'rni bor.

Bayon, diktant va insho oralig'idagi yozma ish turlaridan biridir. Bayon matn mazmunini, shuningdek, uning badiiy-uslubiy xususiyatlarini yetkazish, qabul qilish, fahmlashga qaratilgan yozma ish turidir.

Bayon arabcha "aniqlik", "ravshanlik", "tavsiflash", "ifodalash" ma'nosidagi so'z bo'lib, o'qib yoki aytib berilgan biror matn asosida yozib chiqilgan ish; yozma ish (o'quvchilar bilimini baholashning yozma shakllaridan biri)ni ifoda etadi. (O'TIL, I, 138)

Bayon nazoratning yozma turlaridan biri bo'lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini izchil, savodli, qayta bayon etishdan iboratdir. Ma'lumki, bayon yozish malakasi boshlang'ich sinfdan shakllantirib boriladi. Yuqori sinflarda esa bu ko'nikma va malakalar takomillashtiriladi.

Mavjud metodik adabiyotlarda bayon, asosan, ikki shaklda: og'zaki va yozma bo'lishi; yozma bayon o'z navbatida, ta'limiy hamda tekshiruv tarzida o'tkazilishi haqida ma'lumot beriladi.

O'quvchilarda yozma nutq malakalarini tarkib toptirish, mustaqil ijodiy fikrlash hamda o'zbek tilining boy ifoda vositalaridan o'rinli va unumli foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish; ulaming lisoniy savodxonligini oshirish, tanlangan matnni adabiy-badiiy jihatdan aniq va puxta, mantiqiy izchil, ijtimoiy hayot va voqelik bilan bog'liq holda yoritishga o'rgatish maqsadida tez-tez bayon o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Bayon - yozma ishlaming asosiy turlaridan biri bo'lib, o'quvchining matn mazmunini o'z so'zi bilan yozma ravishda qayta bayon etishdan iborat ijodiy ishdir. Berilgan matndagi asosiy omillarga diqqat qilish, matnni qisqartirish yo'llarini bilish bayonning muhim xususiyatlaridan biridir. Ba'zi o'rinlarni kengaytirib yozish vaqtida qisqa gaplar tuzish, zarur sitatalar keltirish malakasi paydo bo'ladi. Bunday ish turi o'quvchilarni insho yozishga tayyorlaydi, matnlarga ijodiy munosabatni rivojlantiradi.

Bayon yozish jarayonida o'quvchilar asarning mavzusi, mazmuni hamda asosiy g'oyasini chuqur tushunib oladilar. Bu esa nutq malakasini takomillashtirishga ham yordam beradi. O'quvchilar grammatika va imlo yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etadilar, materialni mustaqil va izchil bayon etish qobiliyatiga ega bo'ladilar, ulaming nutqida yangi-yangi so'z va iboralar paydo bo'ladi. Shu jihatdan bayon o'quvchilarda yozma nutq malakasini hosil qilishda muhim o'rin tutadi.

Demak, amaldagi Davlat ta'lim standartining bosh maqsadiga ko'ra o'quvchilarni ijodiylikka, mustaqil fikrlashga o'rgatishda bayonning o'rnini beqiyosdir.

ONA TILI TA'LIMIDAGI INTERFAOL USULLAR

R. Jo'rayeva, (Furqat tumani 33-maktab o'qituvchisi)

Pedagogik texnologiyaga YUNESKO tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: "Pedagogik texnologiya – bu butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir".

Ta'lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi va bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlar va amallarni talab darajasida bajarishni anglatadi. Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim berish san'ati, ta'lim berish mahorati ma'nolarini ifodalaydi. Yangi pedagogik texnologiya deyilganda, ta'lim berish san'atini ishga solib, uni samarali tashkil etish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish tushuniladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida qo'llanishi mumkin bo'lgan ayrim metodlar xususida so'z yuritamiz.

1.Modulli ta'lim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2.Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatadi, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinishi vujudga keltirish.

3.Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalar to'g'riligini tasdiqlashdir.

4.Interfaol metod texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlariga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5.Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

6.Sinov darslari. O'quvchilarning ma'lum bilim va ko'nikmalarini sinash maqsadida o'tkaziladigan darslar bo'lib, ular test topshiriqlari yoki nazorat varaqlari orqali o'tkaziladi.

Quyida sanab o'tilgan metodlardan biri interfaol metod texnologiyasiga to'liqroq to'xtalamiz.

Interfaol metod texnologiyasining mohiyati o'quvchilarning ijodkorligiga tayanish va darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirishdan iborat.³⁰⁹

Interfaol dars mazmuniga rang-baranglik, shaklga turli xillik baxsh etish o'quvchilarning dunyoqarashi va ruhiyati asosida vujudga kelib, umrini o'tab bo'lgan bir xillik – bir xil qolip usulining o'rnini egallamoqda. Bu dars usuli boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda faolligini oshirishda samara bermoqda.

Yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish shakllari va usullarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, o'qituvchi o'quvchini o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati bu darsni interfaol darsga aylantiradi.

³⁰⁹ I.P.Po'latov, S.Odilov. O'zbek tili ta'limidagi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar. Qo'qon, 2004.

O`qitishning yangi interfaol shakllari – ta`lim-tarbiya masalalarini umumli yechishga, o`quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o`quv mashg`ulotlarini takomillashtirish yo`llaridan biri.

Xorijiy davlatlar tajribasida sinovdan o`tgan bu metod ya`ni interfaol metodga ko`ra darslar bir necha bosqichga bo`linadi: Ular chaqiriq, aqliy hujum, anglash, fikrlash kabi bosqichlardir.³¹⁰

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda o`quvchilarni faollashtirish, mavzuning mazmun – mohiyatiga kirib borish, uni his etish, anglab yetish jarayoniga tayyorlash kabi maqsadlar ko`zda tutiladi. Bunda o`qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish jarayonida o`quvchilar o`zaro fikr almashadi.

2. Aqliy hujum bosqichi. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo`llanishi mumkin bo`lib, u muamoni o`z g`oyalari, fikrlarini aytish yo`li bilan hal qilishdan iborat. Masalan, o`qituvchi sinf taxtasiga til so`zini yozadi va o`quvchilardan “ Ushbu so`z sizlarda qanday tassavvur hosil qildi yoki shu so`zni yana qaday talqin qilsa bo`ladi?” – deb so`raydi. O`qituvchi o`quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni sinf taxtasiga quyidagi tartibda yozib borishi mumkin:

O`qituvchilarning fikrlari noto`g`ri deb topilmasligi lozim aksincha, o`qituvchi iloji boricha o`quvchilarga yordam berishi noto`g`ri fikr aytib qo`yishdan cho`chimaslikka da`vat qilishi, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o`qituvchi tahlil qilib berishi kerak.

Ushbu jarayonda o`quvchilar bu so`z haqida ko`p ma`lumotga ega bo`ladilar, ya`ni bunda muammo o`quvchilarga aqliy hujum yo`li bilan berilib, ularning fikri bilan ochiladi va natijada mavzuni tushunish osonroq kechadi.

3. Anglash bosqichi. Bu bosqichda aqliy hujum bosqichidagi mavzuga oid bahs-munozara natijasida yuzaga kelgan xulosaviy fikrlar eshitilib, o`qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to`ldiriladi. Savol-javoblar orqali mavzu mustahkamlanadi.

4. Fikrlash bosqichi. Bu bosqichda o`quvchilarga mavzu yuzasidan o`zlashtirgan bilim va tushunchalarni qisqa jummalarda yozma ravishda bayon qilish topshirig`i beriladi. Bu topshiriqni bajarishda o`qituvchi o`quvchilarni 3-7 kishidan iborat guruhlariga bo`ladi va ularga bir varoq qog`oz tarqatadi. Masalan, “So`z – gaplar” mavzusi yuzasidan o`qituvchi har bir guruhga so`z – gaplarning o`ziga xos 3 ta xususiyatini aniqlash vazifasini topshiradi va bu topshiriqqa ma`lum bir vaqt ajratadi.

Guruhdagi o`quvchilarning har biri o`z fikrini aytadi. Bir o`quvchi esa fikrlarni yozib boradi. O`quvchilar guruhlarda topshiriq bilan band bo`lgan vaqtda o`qituvchi sinf bo`ylab yurib, barchani kuzatadi va topshiriqqa izohlar beradi, yordamga zaruriyat sezayotganlarga yordam ko`rsatadi.

³¹⁰ M. Abduraimova. Ona tili ta`limida yangi pedagogik texnologiya. Toshkent, 2001. -5 b.

Vaqt tugagandan so`ng hammaning e`tibori sinf taxtasiga jalb qilinadi. Har bir guruhdan bittadan vakil (taqdimotchi) sinf taxtasi oldiga chiqib, guruh bajargan vazifani butun sinf oldida taqdim qiladi. Har bir taqdimot baholanib boriladi.

Hamma guruhlar ishlarini yakunlagandan so`ng o`qituvchi ularga izoh beradi, xatolari bo`lsa to`g`irlyaydi va xulosalaydi, guruhlar ishiga umumiy baho beradi.³¹¹

Interfaol o`qitishning asosiy negizlari, norasmiy munozara materialni erkin bayon qilish; ma`ruzadan maqsadli foydalanish, kichik ma`ruza, seminar mashg`ulotlari; o`quvchining tashabbusi, jamoaviy, kichik guruh, juftlikda ishlash, yakka tartibda ishlashga mos topshiriqlarni mavjudligi, yozma ishlarni bajarish; taqdimot qilish va boshqalardan iborat.

Interfaol metod o`z ichiga “Kichik guruhlar bilan ishlash”, “Bahs munozara”, “Guruhlararo bellashuv”, “Aqliy hujum”, “Tanqidiy fikrlash”, “6x6x6 metodi”, “Fikriy hujum” metodi, “Klaster” metodi, “Menyu” metodi, “Debatlar”, “Ajurli arra”, “Qora quti” metodi, “Sinkveyn” metodi kabilarni qamrab oladi.

“Kichik guruhlar bilan ishlash” metodi. Bu keng qo`llanadigan interfaol metodlardan bo`lib, bu metod o`quvchilarning darsdagi faolligini ta`minlaydi, ularning munozarada qatnashish huquqini ta`minlaydi, boshqalar fikrini qadrlashga o`rgatadi. Guruhlar bilan ishlash o`quvchilar o`rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi.

Yangi pedagogik texnologiya asosida dars o`tish shakllari va uslublarini o`zgartirib, ularni xilma-xil qilib, o`qituvchi, o`quvchini dars jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. O`qituvchi va o`quvchining hamkorlikdagi faoliyati – bu darsni interfaol darsga aylantiradi.

Interfaol dars turlaridan har bir o`qituvchi unumli foydalanib, o`quv ta`lim faoliyatining kuchayishiga katta ta`sir o`tkazishi, o`quvchilarning bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatlarini, tanqidiy fikrlash malakalarini o`stirishga va har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishlariga ko`makdosh bo`lishlari kerak.

Ta`limda interfaol metodlarni qo`llashdan asosiy maqsad – o`qituvchining o`z pedagogik xazinasini qayta ko`rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqri sifatli metodik yo`nalishga intilishini hosil qilish, kelgusi o`ylar, izlanishlar, tajribalarga undashdir.

MAKTAB O`QUVCHILARI QO`SHIMCHALAR MAVZUSINI SAMARALI O`ZLASHTIRISHIDA INTERFAOL O`YINLARNING O`RNI

**S. R. Allazarova, Xorazm Qo`shko`pir tumani
46-maktab o`qituvchisi**

³¹¹ O.Rahimova. Ona tili darslarida interfaol metodini qo`llash. Til va adabiyot jurnali. 2003. №4, 8-9-b.

Yurtimiz istiqlolga erishgach, ta`limning barcha sohalari kabi ona tili ta`limida ham tub islohotlar ro`y berdi va bu jarayon hozirda ham davom etmoqda. Mazkur yangilanishlarning mohiyati yangilangan pedagogik tafakkur hamda til ta`limi oldiga qo`yilayotgan ijtimoiy talab bilan bevosita bog`liq, chunki, yoshlarda ijtimoiy-siyosiy tafakkur, ijodiy izlanish, keng imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an`analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o`rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek; **Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi**³¹².

Ona tili ta`limidagi yangiliklar keskin o`zgarishlar, shaxs tarbiyasiga yangicha munosabat, jamiyatning yuksak ma`naviyatli barkamol shaxsga qo`yadigan talablari bilan birgalikda tilshunoslik va ona tili o`qitish metodikasi fanining eng so`nggi yutuqlarini ham o`zida aks ettiradi. Qabul qilingan davlat ta`lim standartlari, ular asosida yaratilgan va takomillashtirilgan o`quv dasturi, darsliklarida o`zbek tili grammatikasi qurilishi talqinida anchagina o`zgarishlar kiritilgan. Galdagi vazifa ushbu yangi talqinlarni o`quvchiga ongli va maqsadli yetkazish, singdirishdan iborat. Xususan, yangi dasturda qo`shimchalarga oid nazariy ma`lumotlar va ularning talqinida avvalgi dasturlardan sezilarli farqli holatlarini kuzatish mumkin. Bu esa, o`qituvchi uchun anchagina qiyinchiliklar tug`dirishi tabiiy. Ayniqsa, o`quvchilar qo`shimchalar mavzusidagi darslarni o`zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Til tizimi o`zaro bog`langan, biri ikkinchisini taqozo etuvchi sathlarning murakkab munosabatidan iborat. Shu ma`noda mavjud adabiyotlarda qo`shimchalarni qaysi sathda o`rganilishi xususida turlicha fikrlar bildirilgan. Ilmiy jihatdan dastlab qo`shimchalar va ularning tasnifiga oid fikrlar O.Usmon va B.Azizovlarning “O`zbek tili grammatikasi”³¹³ kitobida uchraydi. Bu borada professor A.G`.G`ulomovning tadqiqotlari salmoqli o`rin tutadi.

70- yillarda professor A.Hojiev mazkur masalada ilmiy izlanishlar olib bordi va natijada 1979-yilda “Hozirgi o`zbek tilida forma yasalishi” kitobini nashr ettirdi. 1994-yilda Tursunali Mirzaqulovning “Grammatika o`qitishning lingvistik asoslari” qo`llanmasi nashr qilindi. Unda morfemika o`qitishning nazariy asoslari haqida fikr yuritilgan. Ishning metodik jihatida shu kungacha alohida tadqiqot sifatida o`rganilgan. Metodist olim B.To`xliiev, T.Ziyadovalarning o`zbek tili o`qitishga oid ishlarning morfologiya qismida ayrim fikrlar bildirilgan. Biroq, hech bir ishda joriy yangi dastur asosida sintaktik shakl yasovchilarni qanday

³¹² Karimov. I.K. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. T. “Ma`naviyat” 2008. 83-bet

³¹³ O.Usmon va B.Azizov. “O`zbek tili grammatikasi”. –Toshkent: 1941.

o`qitish kerakligi atroflicha yoritilmagan. Shuning uchun ham qo`shimchalar mavzusi to`liq o`rganilmagan va bahsli mavzuligicha qolmoqda.

Ma`lumki, asrimizning 50-yillaridan boshlab tilshunoslikda so`z yasalishi va morfemika alohida soha sifatida belgilana boshladi. Xususan, professor A.Hojiev “morfemika so`z yasalishi, morfologiya kabi bo`limlar o`zaro aloqador, lekin o`ziga mustaqil ekani allaqachon isbot etildi va tan olindi. Bu bilan til hodisalarining mohiyatini, ularning o`zaro munosabatini to`g`ri va oson tushunish imkoni tug`ildi”³¹⁴ degan fikrni bildirdi...

Ona tilini o`qitishda zamonaviy ilg`or pedagogik texnologiyalardan, xususan, ta`limiy o`yinlardan keng foydalanilmoqda. Bu, albatta, o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini oshirib, dars samaradorligini ta`minlaydi. Quyida 6-sinfda **qo`shimchalar** mavzusini o`rganishda qo`llanadigan ayrim interfaol usullarni havola etamiz. Shunday interfaol o`yinlardan biri “**Domino**” o`yini.

Bunda o`quvchilarning har biriga savolnomalar tarqatiladi. Savolnomalarda avval boshqa bir savolning javobi, keyin yangi savol beriladi. 1-savolni o`qituvchi o`qiydi. O`qituvchi bergan savolga qaysi o`quvchidagi javob to`g`ri kelsa, o`sha o`quvchi javob beradi hamda o`z savolini o`qiydi. Bu savolning javobi kimning qo`lida bo`lsa, javob beradi va u ham o`z savolini o`qiydi. O`quvchilardan tez va aniq javob berish talab etiladi.

Masalan, Savol: *So`z tarkibi qanday qismlarga ajratiladi?*

Javob: asos va qo`shimcha qismlarga ajratiladi.

Savol: qo`shimchalar vazifasiga ko`ra necha turli bo`ladi?

Javob: 2 turli ya`ni so`z yasovchi qo`shimchalar hamda shakl yasovchi qo`shimchalar

O`yinimiz shu tartibda davom etadi. Bu o`yin orqali o`quvchilar o`tilgan mavzuni takrorlaydilar, mustahkamlaydilar. O`quvchilarda mustaqil fikrlash, hozirjavoblik kabi fazilatlar shakllanadi. Keying interfaol o`yinimiz esa “**Xotira**” **mashqi** deb nomlanadi. Ushbu o`yinda o`quvchilarga bahor fasli aks etgan tasvir ko`rsatiladi. 1-o`quvchi tasvirga mos bir gap aytadi. 2-o`quvchi o`zidan oldingi gapni mantiqan bog`laydigan gapni keltiradi. Shu tariqa oltinchi o`quvchiga borganda hikoya tugallanishi kerak. Tuzilgan oltita gapdan kamida ikkitasida yasama sifat ishtirok etishi shart. Masalan, o`quvchilarning bahor haqida tuzgan matni quyidagicha bo`lishi mumkin.

1-o`quvchi: O`lkamizda bahor fasli hukm surmoqda.

2- o`quvchi: Bu fasl o`zining tarovati, go`zalligi bilan ajralib turadi.

3- o`quvchi: Bahor fasli yana shunisi bilan esda qolarliki, bu faslda bahor bayrami - “Navro`z” o`lkamiz bo`ylab keng tantana qiladi.

³¹⁴ Qarang: Mirzaqulov .T. Grammatika o`qitishning lingvistik asoslari . T. “O`qituvchi” 1994.4-bet

Shu tarzda gaplar tuzish davom etadi. Bu o`yinimiz orqali o`quvchilarda, avvalo, ijodkorlik qobiliyati shakllantiriladi. Ma`no va mazmunga tayangan holda gap tuzilishlari, tuzgan gaplarida yasama so`zlarni ishtirok etishi, o`zlariga bo`lgan talabni oshiradi.

Qo`shimchalar mavzusini o`rganishda turli ta`lim texnologiyalaridan, axborot texnologiyalaridan faol foydalanish maqsadga muvofiqdir. Negaki, qo`shimchalar morfologiya va so`z yasashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mavzuni o`rganish natijasida o`quvchining so`z boyligi oshadi.

O`quv mashg`ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda, interfaol va intellektual o`yinlar orqali tashkil qilish o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishini oshirish, faolligini taminlaydi. Bu kabi darslarni tashkillashtira olish bugungi kun o`qituvchisining pedagogik faoliyatidagi bosh mezoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov. I.K. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. -T. “Ma`naviyat” 2008. 83-bet
2. O.Usmon va B.Azizov. “O`zbek tili grammatikasi”. –Toshkent: 1941.
3. Qarang: Mirzaqulov .T. Grammatika o`qitishning lingvistik asoslari . -T. “O`qituvchi” 1994.4-bet

INTERFAOL USULLAR ASOSIDA O`QUVCHILARNING DARS JARAYONIDAGI FAOLLIGINI OSHIRISH

Islomova Nafisa Akromovna, Toshkent
Shayxontohur tumani 132-maktab o`qituvchisi

Barchamizga ma`lumki, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri har tomonlama kamolga yetgan, aqlan yetuk, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat bo`lib, bu vazifa, asosan, biz- o`qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan. Boshqa fanlardan farqli o`laroq, ta`lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda o`zbek tili darslarida bunga ko`proq e`tibor beriladi. Chunki o`zbek tili darsligidagi adabiy o`qish mavzularidagi har bir asar, asarlardan olingan parcha, she`rlarning , grammatik mashq matnlarining bosh qahramoni komil inson bo`lib, ular o`quvchilarga ibrat qilib ko`rsatiladi. Inson komil bo`lishi uchun, avvalo, mustaqil fikrlay olishi shart. Mustaqil fikr yurita oladigan insonlar esa ijodkor bo`ladi. Zero, O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunida “...ijodkor shaxsni tarbiyalash ta`lim tizimining bosh vazifasi...”³¹⁵ deb belgilandi. Shundan xulosa qilsak, o`qituvchining bosh vazifasi- o`quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko`nikmalarini, darsga bo`lgan faolligini oshirishdan iborat.

Shunday ekan, o`quvchilarni dars jarayoniga olib kirish, darslarga qiziqтира olish usullarini o`ylab topishimiz va amaliyotda qo`llay olishimiz zarur. Bu ishni amalga oshirishda interfaol usullar va intellektual o`yinlardan samarali foydalanish

³¹⁵ O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, 1997-yil

talab etiladi. Ulardan unumli foydalanish natijasida o`quvchilar dars jarayoniga jalb etiladi, darsga bo`lgan faolligi oshadi, qolaversa, ularning bilimi oshadi va mustaqil fikr yuritish mushohadasi shakllanadi. Quyida dars jarayoniga samara berishi mumkin bo`lgan bir nechta interfaol usullar va inelektual o`yinlarni ko`rib chiqamiz:

Darsni **“Hikmat sabog`i”** yoki **“Kun hikmati”** daqiqalari bilan boshlash yaxshi natija beradi. Bunda o`qituvchi dars mavzusiga daxldor hikmatli so`z yoki maqol va matallardan, hadislardan, taniqli shaxslarning ibratli fikrlaridan aytib, o`quvchilardan ham namunalar aytishni so`rashi, izoh talab qilishi mumkin. Masalan, **“Ilmsiz inson- mevasiz daraxt”**³¹⁶ (Ahmad Yugnakiy). O`quvchilar bu kabi ilm fazilatiga oid hikmatli so`z yoki maqollarni sharhlash, o`z fikrlarini aytish orqali ularda ham ilmga bo`lgan qiziqishi yana ham oshadi, og`zaki nutqi ham rivojlanadi. Bu usulning samarali jihatlaridan yana biri shuki, hali tanaffusdan o`ziga kelmagani, xayollari tarqoq, (kichikroq sinflardagi o`yinqaroq) o`quvchilarning fikri jamlanadi va bevosita dars jarayoniga olib kiriladi. Har darsda bu usulfan foydalanish natijasida o`quvchilarda ota-onaga hurmat, do`stlik, mehnatsevarlik, insoniy fazilatlar shakllanadi va ularning qalbida chuqurroq ildiz otib boradi.

Darslarda o`quvchilarning faolligini oshirish maqsadida qiziqroq o`yin turlaridan ham foydalanish mumkin. Shunday usullardan biri **“Savol bizdan, javob sizdan”** o`yini. (Bu o`yin ko`proq quyi sinflarda qo`llash samaraliroqdir). O`yinning shartiga ko`ra: o`quvchilar galma-gal koptokni bir-biriga otishadi va koptok olgan o`rtog`iga savol beradi, u esa javob berib bo`lgach, boshqa bir sinfdoshiga koptok otadi... Shu tarzda o`yin davom etadi. Savollar o`tgan dars mavzulariga oid tuziladi.

“Aldamchi matn” usuli o`quvchilarni berilgan fikrlarning to`g`ri-noto`g`riligini tezlikda anglashga, ziyraklik bilan taqqoslashga, o`qigan va xotirasida qolgan ma`lumotlar asosida to`g`ri qarorga kelishga, ularni sinchikovlik bilan kuzatish orqali tahlil qilib, o`z fikrini asoslashga va mustaqil mulohaza yuritishga o`rgatadi.

Bu usulni ko`proq darslarni mustahkamlash bosqichlarida qo`llash maqsadga muvofiq bo`ladi. O`qituvchi o`tilgan mavzuga oid bo`lgan, lekin unda noto`g`ri ma`lumotlar ham keltirilgan matn o`qiydi. O`quvchilar undagi noto`g`ri ma`lumotlarni qoldirib, to`g`ri ma`lumotlarni daftarga yozadilar. Keyin ishning natijasi yozilganlarni o`qish va hamkorlikdagi tahlil asosida ko`rib chiqiladi. “Aldamchi matn”dan to`g`ri matn yarat olgan o`quvchilar rag`batlantiriladi va baholanadi...

Dars davomida yuqoridagidek interfaol usullardan foydalanish o`quvchilarning diqqatini jamlash, tafakkur, xotira, ijodiy tasavvurini va nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

³¹⁶ Adabiyot (majmua), Akademik litseylarning 1-bosqich o`quvchilari uchun. –Toshkent, 2015

O`zbek tili, ona tili va adabiyotdan dars beruvchi o`qituvchi haqiqiy ijodkor bo`lishi, ta`lim jarayonida o`quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo`naltirilgan faolligini rag`batlantirishi, o`z fikri, g`oyalarini o`zgalarga yetkaza bilish ko`nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy-ma`naviy tarbiyasi bilan shug`ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an`analarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg`usi kabi zaruriy hislatlarni singdira bilishi lozim. O`quv mashg`ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda, interfaol va intellektual o`yinlar orqali tashkil qilish o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishini oshirish, faolligini taminlash bilan bir qatorda, bugungi kun o`qituvchisining pedagogik faoliyatidagi bosh mezoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni, 1997-yil
2. Adabiyot (majmua), Akademik litseylarning 1-bosqich o`quvchilari uchun. – Toshkent, 2015

ONA TILI TA`LIMIDA O`QUVCHILAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

D. Madrahimova, Dang'ara tuman 13-maktab

Ijtimoiy fanlarda «ijodiy fikr» tushunchasi fikrning o`z sub`ekti bilan bo`lgan munosabatini anglatadi. Fikr bir tomondan umumiylik xarakterga ega bo`lsa, ikkinchi tomondan sub`ektivdir. U shaxsning ijtimoiy-ruhiy holati bilan bevosita bog`langan. Ushbu fikriy jarayonda shaxsning boshqaruvchilik faolligi muhim o`rin egallaydi. O`quvchi yoshlardagi ijodiy fikr, bir tomondan psixologik holat bilan bog`langan bo`lsa, ikkinchi tomondan, uning yoshi, mamlakatda qabul qilingan ta`lim-tarbiya usuli, qoidalari va tamoillari bilan ham uzviy aloqada bo`ladi. Ijodiy fikr o`quvchining biror predmet, voqea, hodisa jarayon to`g`risida o`zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz bildirgan munosabati, bahosi, nuqtai nazaridir, o`zining «men»ini namoyish qilish vositasi, «qurolidir».

Ijodiy fikrlash o`quvchining muayyan predmet va jarayonlar to`g`risidagi bilimi, malakasi asosida ularni taqqoslash, tahlil qilish, sodda fikrlardan murakkab fikrlarga, murakkab fikrlardan sodda fikrlarga o`tish sharoitida, jamiyatda mavjud ijtimoiy-tarixiy holatni hisobga olgan holda, o`ziga xos mulohaza yuritish sanaladi. Ijodiy fikrlash aytilganidek, o`quvchining individual psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog`langan bo`lib, u o`zining hajmi, mazmuni, mantiqiylik darajasi hamda tezkorligiga ko`ra farqlanadi. Unda muayyan jihatni aniqlash, qiyoslash, tahlil qilish,

ikkilanish, tassavur qilish, modellashtirish yaratish muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Ushbu jarayonda jamiyatning o`quvchi shaxsning ijodiy salohiyatiga bo`lgan e`tibori muhim kasb etadi.

Ma`lumki ong va ta`lim-tarbiya bir-biri bilan dialektik bog`liq ijtimoiy hodisalardir. Ta`lim-tarbiya tizimini, o`zgartirmasdan, yangilamasdan turib ongni o`zgartirib bo`lmaydi. Ayni vaqtda ong ta`lim-tarbiya yo`nalishini, uning mohiyatini tizimini, mavjudlik darajasini belgilaydigan omil ekanligini aniq. Tafakkurning mavjudlik mexanizmi fikr va fikrlararo munosabatlar orqali amalga oshadi. Har qanday fikrda ma`lum bir predmet yoki predmetlararo, jarayonlararo munosabatlarning haqiqatga yoki haqiqat emasligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Fikr hamisha nutq yordamida voqelikka aylanadi. Fikrsiz nutq va nutqsiz fikr bo`lmaydi. Nutq ayni vaqtda shakl vazifasini o`taydi, uning mazmuni esa fikr tashkil qiladi. Ega va kesim o`rtasidagi munosabat gap mazmunining tugalligini bildirsa, gapda ega uni o`zidan oldingi fikr bilan bog`laydi, kesim esa yangi fikrning vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu tarzda fikrlar bir tomondan o`zaro bog`lanadi, ikkinchi tomondan esa ular muntazam rivojlanib boradi. Fikrning ana shu tarzda rivojlanib borishi o`quvchining og`zaki nutqini shakllantirishga xizmat qiladi. O`quvchining ijodiy fikrlarini yozma bayon qilish malaka va ko`nikmalari ona tili darslarida bayon, insho, matn yaratish kabi ijodiy ishlar orqali amalga oshiriladi.

Ona tili ta`limi oldiga qo`yilgan yana bir muhim talab o`quvchilar tafakkurini rivojlantirishdir. Insonning moddiy dunyoni bilishi tafakkur va til ororqali amalga oshadi. Ularning o`zaro munosabati juda murakkab jarayondir. Tafakkur tashqi olamning kishi miyasida aks etishining oliy ko`rinishi bo`lsa, til tafakkurni ma`lum shaklga solib, so`zlar, so`z birikmalari va gaplar bilan ifodalash vositasidir. Ular ehtiyoj va zaruriyat tufayli yuzaga keladi. Tafakkurni o`stirish ona tili mashg`ulotlarida maxsus aqliy faoliyat usullari –til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlariga ajratish, umumlashtirish, o`xshash vositalari ichida nutq sharoiti uchun eng qulayini to`g`ri tanlay olish ko`nikmalarini shakllantirishda voqe bo`ladi. Ona tilini o`rganishni bu tafakkur usullarisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Modomiki shunday ekan, inson tafakkurini rivojlantirishdek muhim va mas`uliyatli vazifa, avvalo ona tili mashg`ulotlari orqali bajariladi. Til ta`limi oldida turgan yana bir murakkab talab o`quvchilarning til madaniyatini rivojlantirishdir. Til madaniyati juda katta va keng soha bo`lib. U o`quvchilarning kundalik oddiy salom –alikdan tortib kimga, nimani, qachon, qaerda va qanday so`zlashishgacha bo`lgan barcha nutqiy jarayonlarni o`z ichiga oladi.

O`quvchining o`quv materialini o`zlashtirish jarayoni murakkab jarayon bo`lib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish alohidalikni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, alohidaliklarni aniqlash,

qo'llash singarilari bilan bog'liq. Bular ijodiy taffakur va mustaqil fikrlashning muhim belgilari bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlariga ega:

1. Kuzatish –darslik topshirig'i asosida ona tili hodisalaridan berilgan namunalarni kuzata olish;
2. Izlanish –o'ylash, xotirada tiklash, so'rash, lug'at, qomus, ma'lumot manbalardan foydalanish asosida hodisalar sirasini boyita olish;
3. Alohidalikni sharxlash –berilgan va o'zi davom ettirgan siradagi har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;
4. Qiyoslash –siradagi hodisalarni o'zaro qiyoslay olish;
5. Umumiylikni aniqlash –siradagi hodisalarning o'xshash, umumiy tamonlarini aniqlay olish;
6. Farqlarni topish –siradagi hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlay olish;
7. Tasnif etish –siradagi hodisalarni o'xshashlik va farqlari asosida guruh hamda guruhchalarga ajrata olish;
8. Hukm chiqarish –hodisalar sirasi haqida umumlashma hukm, xulosa chiqara olish;
9. Alohidaliklarni aniqlash –o'rganilgan hodisalarning yondoshlari (ma'nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari, zidlari v.h) aniqlay olish;
10. Qo'llash –hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og'zaki shakllarda sharhlab, ijodiy matn tuza olish.

Ijodiy taffakur va mustaqil fikrlashning oliy ko'rinishi matn yaratishdir. Shu sababli ona tili darslarida matn ustida ishlash etakchi yo'nalish kashf etish lozim. Maktab “Ona tili” dasturi va darslarida “Ijodiy matn ustida ishlash” bo'limining kiritilishi ham xuddi shu maqsadni ko'zlaydi.

O'quvchi va talabalarni ona tili darslarda mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish, ular ongida ma'naviy –ma'rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchi va talabalarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

ONA TILI DARSLARIDA IJODIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

N.Rafiqova, Dang'ara tumani 32-maktab o'qituvchisi

Ona tilidan ta'limning maqsad va vazifalari avvalo tilning jamiyatda bajaradigan vazifasi, inson hayotida tutgan o'rnini bilan belgilanadi. Til jamiyat a'zolari shrtasida aloqa-aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda berishi, o'z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi

bo`lib xizmat qiladi. Hazrati Navoiy til kishilarning o`zaro aloqa vositasi sifatida jamiyat taraqqiyotida katta rol o`ynaganligini, u insonni hayvondan ajratuvchi asosiy belgilardan biri ekanligini alohida ta`kidlab, shunday deb yozadi:

So`zdirki, nishon berur o`likka jondin,

So`zdirki, berur xabar jonga jonondin,

Insonni so`z ayladi judo hayvondin,

Bilki guhari sharifroq yo`q ondin.

(«Muhokamutul lug`atayn» asaridan)

O`rta umumta`lim maktablarida ona tili o`qitishning maqsad va vazifalari, avvalo, til ta`limiga qo`yilgan talablardan kelib chiqadi.

Maktabda ona tili ta`limiga qo`yilgan muhim talablardan biri o`quvchilarni o`z fikrlarini bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir. Ma`lumki kilishilar o`z faoliyatining barcha sohalarida bir –birlari bilan faol munosabatda bo`ladilar. Ular doimo o`zlarini o`rab olgan moddiy voqelikdagi narsa-buyumlar va voqea-hodisalar to`g`risida fikr yuritadilar va o`z fikrlarini bir-birlariga ma`lum qiladilar. Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashish bo`lmasa, jamiyatning halok bo`lishi muqarrardir. Fikr esa faqat til yordamida ro`yobga chiqadi.. Shuning uchun har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo uning o`zini to`la-to`kis o`rganib olishga harakat qilishi zarur.

Maktabda ona tili o`qitishni foydali maqsadlariga bo`ysindirish, har bir o`rganiladigan grammatik tushincha, ma`lumot, ta`rif va qoidalarining og`zaki va yozma nutqini rivojlantirishga yordamini nazarda tutishni, amaliy tilshunoslikka e`tiborni kuchaytirishni taqoza etadi. Amaliy tilshunoslik esa «til –me`yor - nutq»ning birligidan iborat.

Til fikrni shakllantirish va uni yuzaga chiqarish, birovga yetkazish uchun qo`shimchalar, ularning o`zaro birika olish imkoniyatlari va birikish natijalariga qonun-qoidalar majmuassidir. Tilning asosiy qonun-qoidalarini, eng zarur birliklarni (nutq tovushlari, qo`shimchalar, so`zlarni), ularning birikish qonun-qoidalarini o`quvchi jamiyatdan tayyor holda qabul qiladi. Ularni o`rgatish uchun maktabda o`qish zarur emas. (Umrda maktab ko`rmagan odamlar ham tilni hayot, jamiyat, turmish jamiyat a`zolari bilan aloqa qilish maqsadida o`zlashtiradilar) Lekin til ichki imkoniyat sifatida aniq bir fikrni xilma-xil usul va vositalar bilan yuzaga chiqarish imkoniyatini beradi. Tilning bunday imkoniyatlari behad hilmaxildir. Me`yor mana shu imkoniyatlarni g`alvirdan o`tkazuvchi omildir. Me`yor jamiyatda ma`lum bir maqsadni ko`zlagan holda til imkoniyatlaridan foydalanish uchun ko`rsatkichlar majmuasidir. Me`yorning oliy ko`rinishi milliy-adabiy til uslublari mezonlarida o`z aksini topadi.

Milliy adabiy til faqat ma`lum bir uslubiy ko`rinishdagina yuzaga chiqadi.

Nutq til imkoniyatlarining me`yori g`alviridan o`tkazilgan holda yuzaga chiqishi, voqealanishdir. Oddiy bitta misolni olib ko`raylik. Bir bola kitob do`koniga bormoqchi. Lekin kitob do`konining qaerda ekanligini bilmaydi, bu maqsadni yuzaga chiqarish uchun bola behad ko`p imkoniyatlarga ega va nutq sharoiti talab qiladigan me`yorlarga asoslangan holda bu maqsadini ifodalashi lozim. Shu maqsadda u o`rtog`iga murojaat etganda: «O`rtoqjon, falon kitobni olmoqchi edim. Kitobdo`koni qaerda?»; notanish, tengqur yo`lovchiga murojaat qilganda: «Kitob do`konining qaerdaligini aytib berolmaysizmi?» kabi jumladan foydalanishi mumkin.

Shu bola «kitob do`koni» tushunchasini ko`tarinki, badiiy uslubda ifodalamoqchi bo`lsa, «ilm xazinasini», «bilimlar koni» kabi iboralarni ishlatadi. Shunday qilib, me`yor bola ongida bo`lgan til imkoniyatlarining nutq moddiy shaklda voqealanishida oraliq bosqichdir.

Ona til mashg`ulotlari fikrni bayon qilishda nutqning badiiy qimmatini oshiradigan vositalar: maqol va matallardan, ulkan shoir va yozuvchilarimizning maqol va aforizmga aylangan iboralari va jumladan, badiiy asarlaridan olingan ko`chirmalar va yorqin obrazlardan, o`zbek xalqining qochirma so`zlari va frazeologik iboralardan, o`xshatish, sifatlash, jonlantirish, istioro, mubolag`a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so`roqli gaplardan foydalanishga o`rgatmog`i lozim.

O`quvchilar nutqining ifodaligi va ta`sirchanligiga erishish ham til ta`limi oldiga qo`yilgan muhim talablardan biridir. So`z urg`usi, matiqiy urg`u, turli uzunlikdagi pauza (to`xtam), ovoz tembri, nutq sur`ati, tovush, bo`g`in, so`z va gaplarni burro-burro aytish, gaplarni mazmuniga qarab darak, so`roq, buyriq, undov ohangi bilan ayta olish kabi malaka va ko`nikmalar ham ona tili mashg`ulotlari orqali shakllantiriladi.

Til ta`limi o`quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish vositasi hamdir. Shaxsning bilim olishi, tarbiyasi va rivojlanishi bir butun jarayon bo`lib, biri ikkinchisidan ajratilmagan holda amalga oshiriladi. Ona tilning barcha bo`limlari bu muhim maqsadni amalga oshirishda keng imkoniyatlarga ega. Masalan o`zbek tili fonetikasini o`rgatishda tovush tizimining xususiyatlarini ko`rsatish orqali o`quvchilarning badiiy talaffuz me`yorlarini o`zlashtirishlariga yordam beramiz va bu orqali tarbiyani amalga oshiramiz. So`zdagi ma`lum bir tovushni o`zgartirish orqali qofiyadosh so`zlar hosil qilish, misralar oxiridagi tovushdoslik, ohangdoslik ustida ishlash orqali o`quvchilarda she`riyatga kuchli qiziqish vujudga keladi. O`quvchilar «Leksikologiya»dan so`zning o`z va ko`chma ma`nosi bir ma`noli va ko`p ma`noli so`zlar ma`nodosh va uyadosh so`zlar ustida ishlar ekanlar, ularda o`z ona tiliga muhabbat, u bilan faxrlanish hissi paydo bo`ladi. Ona tilidan tanlanadigan matnlar, bajariladigan o`quv topshiriqlari, foydalaniladigan rasmlar, diafil`mlar, badiiy asar namunalari muhim tarbiyaviy vosita bo`lib xizmat qiladi. Shaxsning

rivojlanishi ta`lim va tarbiya bilan uyg`unlikda amalga oshadi. Kuzatish, taqqoslash, til hodisalarini guruhlariga ajratish, umumiyashtirish kabi aqliy faoliyat usullari o`quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol kabi shaxsiy ruhiy xususiyatlarni shakllantirish bilan birga ularda qiyinchiliklardan qo`rqmaslik, uni mustaqil ravishda bartarav etish kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

Uzoq izlanishlardan so`ng o`zbek tilshunoslari va tadrishchilari ona tilidan ta`lim maqsadini quyidagicha belgiladilar: ona tili mashg`ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki, yozma shakllarda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Tilshunos va tadrishchilar muhokamasiga loyiha sifatida taqdim etilgan bunday maqsad «O`zbek tilini o`rganish va o`qitishni qayta qurish hamda takomillashtirishning dolzarb masalalari » doimiy ilmiy-tadrishiy anjumanning birinchi yig`inida (Samarqand, 1991 yil 12-14 aprel`) to`la-to`kis ma`qullandi. Bu anjumanning ikkinchi yig`inini o`zbek tilidan ta`lim mazmuni va tadrish usullarini yangilash muammolariga bag`ishlash tavsiya etildi.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib o`rta umumta`lim maktablarda o`qitilgan «Ona tili» fani quyidagilarni:

- ona tilining fonetikasi, grammatikasi va leksikasi bo`yicha bu tildan yozma va og`zaki shakllarda keng va to`g`ri foydalanish uchun zarur bo`lgan ilmiy-amaliy ma`lumotlarni;

- o`zbek tili imlosi, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarini ishlatishning asosiy qoidalarini;

- ona tilining xazinasini bo`lmish turli xildagi lug`atlardan keng foydalana olishni;

- o`z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda turli xildagi lug`atlardan keng foydalana olishni;

- o`z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda turli sharoitlarda bayon eta olish vositalarini;

- bir ma`noni (maqsad, xabarni) turli shakllarda bera olish yo`llarini;

- ijtimoiy hayot uchun zarur bo`lgan ish qog`ozlarni yuritish ko`nikmalarini;

- yosh va taraqqiyot darajasiga mos bo`lgan badiiy, ilmiy ijtimoiy asarlarni o`rganib, ular haqidagi fikr-mulohazani, shaxsiy munosabatni og`zaki va yozma shakllarda to`g`ri bayon eta olish madaniyatini;

- maktabda o`qitiladigan fanlar moddiy birlikdagi narsa, voqea hodisalar orasidagi bog`lanishlarni his eta olish va ularni ifodalay oltshni;

- moddiy borliqni o`rganish va uni tafakkur birliklarida ifodalashda jamiyat a`zolari o`rtasida muloqot-aloqa o`rnatishda ona tili va boshqa tillarning beqiyos ahamiyatini singdirish uchun zarur bo`lgan nazariy ma`lumot va amaliy ishlarni o`z ichiga olishi mumkin. Bular ona tili ta`limi oldiga qo`yidagi va zifalarni qo`yadi:

-ona tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan fikrni og`zaki va yozma shakllarda bayon qilish uchun zarur bo`lgan ilmiy-amaliy ma`lumotlarni berish;

-o`zbek tilining imlosi, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarining ishlatilishi uchun zarur bo`lgan ko`nikma va malakalarni singdirish;

-o`quvchilarni tahlil, sintez, kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, guruhlarga ajratish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyat usullariga o`rgatish, ularning mantiqiy tafakkurini o`stirishga yordam berish;

-maktabda o`qitiladigan barcha fanlarni puxta o`rganishga ko`maklashish; ona tili orqali boshqa xalqlarning tillariga kuchli muhabbat uyg`otish;

-ifodali o`qish va chiroyli yozish malakalarini takomillashtirish.

Maktabda ona tilini o`rganish uchun berilgan vaqtning ko`p qismi bolalarga mustaqil va ijodiy fikrlash, ijodiy mahsulni nutq sharoitiga mos ravishda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga ajratiladi.

Shaxsning rivojlanishi-jamiyat rivoji demakdir. Shunday ekan jamiyat oldidagi eng asosiy vazifalardan biri sog'lom avlodni voyaga yetkazish. Bu muhim vazifani amalga oshirish birinchi navbatda o'qituvchiga bog'liq.

Ona tili darslari o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda ularda axloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish, nafosat hissini tarbiyalash, mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish, bilim manbai bo'lgan kitobni sevish kabi muhim masalalarni ham hal etishni nazarda tutadi.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ҲИССИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДА НУТҚ УСТИДА ИШЛАШ

Бахриева Наргиза Ахмадовна, БухДУ

Ҳозирги шароитда мактабгача таълимга эътиборнинг кучайганлиги узлуксиз таълимни дастлабки бўғинидан бошлаб модернизация қилишга ўтилганлигининг ёрқин далилидир.

Бу борада мактабгача таълимни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида ҳам алоҳида таъкидлаб ўтилди. Жумладан, - “Мактабгача ёшдаги болаларни интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний жиҳатдан ҳар томонлама ривожлантириш учун шароитлар яратиш”, - долзарб вазифага айланди [1].

Маълумки мактабгача ёш давридаги болаларнинг интеллектуал ривожланиши биринчи навбатда уларнинг нутқида зоҳир бўлади. Бу даврда болалар атрофдагилар билан ўзигагина хос бўлган муносабат усуллари ва ўзи борасидаги дастлабки тасаввурлар асосида мулоқотга киришадилар.

Мактабгача ёш даври изчил мулоқот ва турли шаклдаги ўйин фаолиятлари жараёнида намоён бўлиши билан характерланади. Шунингдек, кичик ёшдаги

болаларни ижтимоий-ҳиссий ривожлантириш уларда фаол ижтимоий муносабат ўрнатиш, яъни, нутқ тажрибаси шаклланиши учун сензитив давр бўлиб ҳисобланади.

Мактабгача ёшдаги болаларнинг интеллектуал ривожланишига ҳамisha катта эътибор қаратилган. Шу жиҳатдан, болаларда нутқни ривожлантириш долзарб масала сифатида қуйидаги омиллар орқали намоён бўлади:

- ижтимоий тараққиёт мактабгача ёшдаги болаларга ўз таъсирини кўрсатади ва турли эмоционал синовларга дуч келишига сабаб бўлади. Бу эса ўз навбатида болалар нутқининг ривожланишига таъсир этади;

- болаларни ижтимоий-ҳиссий ривожлантириш бўйича амалдаги дастур ва методик материаллар нутқни ривожлантириш нуқтаи назаридан янада такомиллаштиришни тақозо этади;

- мактабгача таълим ташкилотида ва уйида амалга оширадиган ўйин фаолиятларида болалар кўпинча ўзларининг кўркув, хайрат, уят, қувонч, маъюслик каби эмоционал ҳолатларини нутқ орқали тўғри ифодалай олмайдилар. Бу эса ўз навбатида болаларнинг тенгдошлари ва катталар билан самарали мулоқотга киришишлари ва ўзаро мақбул муносабат ўрнатишларини тўғри ташкил эта олмасликларига сабаб бўлади.

Болалар томонидан қабул қилинган ҳар қандай юкламалар уларнинг психик ҳолатига таъсир этиши ва нутқи орқали психик ривожланишини кечиктириши мумкин. Шу боис, болалар билан муносабатларни ташкил этишда уларнинг эмоционал ҳолатидан келиб чиққан ҳолда мулоқотга киришиш зарур.

“Илк қадам” давлат ўқув дастурида нутқни ривожлантириш масаласи алоҳида бандда кўрсатилган бўлиб, унда боланинг, - “Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари” соҳасидаги ўқув-тарбиявий фаолият якунига етганидан сўнг 6-7 ёшли бола:

- нутқни эшитади ва тушунади;
- ўз нутқида тўғри талаффуз, қулай грамматик шакллар ва хилма-хил гап конструкцияларидан фойдаланади;

- иккинчи тилни ўрганишга қизиқиш намоён қилади;
- иккинчи тилни эгаллаш бўйича дастлабки билимларини кўрсатади;
- бадий адабиёт асарларига қизиқиш намоён қилади;
- сўзнинг луғавий, бўғинли ва фонетик тузилиши тўғрисида тасаввурга эга бўлади;

- турли маъно шаклларини мустақил равишда тузиш ва сўзлаб беришни билади;

- ёзишнинг дастлабки малакалари ва воситаларидан фойдаланишни билади” – деб алоҳида белгиланган [2. 8]. Таъкидлаш лозимки, билиш

жараёнининг ривожланиши соҳаси компетенциялари ҳам нутқ фаолияти билан чамбарчас боғлиқдир.

Бола ривожланиши давомида ижтимоий кечинмаларнинг янги мураккаб шакллари – ҳамдардлик, кечинмаларни биргаликда ҳис этиш, бошқаларга кўмаклашиш каби сифатлар пайдо бўлади. Бу эмпатияни шахс ижтимоийлашувининг муҳим белгиси сифатида талқин этишга имкон яратади ва бевосита нутқда намоён бўлади.

Илк болалик даврида эмпатик реакциялар нутқнинг дастлабки кўринишлари орқали кенгайиб боради, кейинчалик бу реакциялар нафақат оила аъзоларига нисбатан, балки ўртоқлари, тенгдошларига нисбатан ҳам пайдо бўла бошлайди.

“Давлат талаблари”да нутқ масаласи қуйидагича кўрсатилган: - “”Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малакалари” соҳаси қуйидаги кичик соҳаларга бўлинади: нутқ ва тил; ўқиш малакалари; қўл бармоқлари майда моторикаси” [3. 3].

Кичик ва ўрта мактабгача ёш даврида бола ўзи ва шериги, ўзи ва бошқалар билан мулоқотга киришганда эмоционаллик орқали, яъни, кечинмалар орқали фикрини ифодалашга ҳаракат қила бошлайди. Катталар ва тенгдошлари билан мулоқот жараёнида пайдо бўладиган вазиятлар натижаларидан эмоционал таъсирланишни бошлайди, ўзини ва бошқаларни эмоционал баҳолашга ҳаракат қила бошлайди. Мазкур баҳо бола нутқида ўзига хос тарзда намоён бўлади. Катта мактабгача ёш даврига келиб бола нутқи бевосита эмоционал таъсирланишдан билвосита ахлоқий мезонлар ва эмпатия муносабатларини ўзида акс эттириш билан амалга оширилади.

Кичик ва ўрта мактабгача ёшда болалар ўзига шерик танлаш, ўзи ва бошқалар кечинмаларини бўлишишга ҳаракат қилади. Катталар ва тенгдошлари билан нутқий мулоқот жараёнида пайдо бўладиган турли вазиятларда ўзи ва бошқаларнинг ҳолатини баҳолашга ҳаракат қилади. Катта мактабгача ёшда бевосита эмоционал таъсирланишдан билвосита ахлоқий мезонлар ва эмпатия муносабатларига ўтиш кузатилади.

Ота-оналар болалари учун сўзлашув, оғзаки нутқда намуна бўлиб ҳисобланишади, зеро, болалар уларга қараб, тақлид қилиб, тинглаб, кузатиб нутқ мулоқоти малакаларини ўзлаштиришади.

Мактабгача ёшдаги болаларда нутқни ривожлантиришда:

1. Инсон қиёфасининг турли эмоционал ҳолатлари акс эттирилган сюжетли суратларни кўрсатиш орқали уларга: - Сен нима деб ўйлайсан, бу бола қувноқми ёки ғамгин?

2. Болаларни турли эмоционал ҳолатларда - қувноқ, ғамгин, ҳайратли, ғазабли, хомуш ва ҳ.к. чизишни сўраймиз.

3. Ўқиб берган эртақ, шеър ва ҳикояларимиз асосида инсценировка яратишлари ва уни гапириб беришларини сўраймиз.

Бундан ташқари, тарбиячи суратларни болаларга кўрсатиши ва уларда ифодаланган инсонларнинг ҳиссий ҳолати, яъни, кайфиятини аниқлашни сўраши мумкин. Бунда ҳар бир бола суратни визуал идрок этиб, ундаги инсон кифасини қандай ҳис этаётганлигини, уларнинг қувнок, хурсанд, ғамгин, хомуш, хотиржам ёки маъюс кўринаётганлигини сўзлаб беради. Турли сюжетли-ролли ўйинлар ҳам болалар нутқини ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади. Демак, болалар нутқ воситасида ижтимоий-ҳиссий жиҳатдан ривожланиб борадилар.

Адабиётлар

1. “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси» тўғрисидаги ПҚ-4312-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори”. Тошкент ш., 2019 йил 8 май. Электрон манзил: www.lex.uz

2. “Илк қадам” давлат мактабгача таълим ташкилотлари ўқув дастури. Муаллифлар: И.В.Грошева ва бошқ. Т., 2018. - 63 б.

3. “Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари” тўғрисида Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим вазирининг 3032-сон буйруғи. (*Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.07.2018 й., 10/18/3032/1450-сон*). – 25 б.

ТА’ЛИМИЙ О‘YINLAR ASOSIDA RANG-TUS BILDIRUVCHI SIFATLARNI O‘TISH METODIKASI

Z.Ahmedova, Furqat tuman 33-maktab o‘qituvchisi

O‘zbek tili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat tili bo‘lib uning o‘rta umumta‘lim maktablarida o‘qitilishi davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. Yoshlarda ijodiy izlanish, ko‘pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ularni milliy qadryatlarimiz udum va an‘analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoyat beqiyosdir.

Ma‘lumki asrlar davomida insoniyat tomonidan to‘plangan barcha til ilmini o‘rta maktab o‘quvchisiga o‘rgatishning iloji va ehtiyoji ham yo‘qdir. Demak, ona tili fanidan zaruriy bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ona tilida bilimlarni tanlashning bosh mezoni shundan iboratki, uning eng foydalilik va eng keraklik amalda qo‘llanilish darajasidir. Biz ona tilida, zaruriy bilimlar deb

bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ularni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni taminlaydigan bilimlarni tushunamiz. Yosh avlodga yuqorida sanab o'tilgan fazilatlarni singdirish ularni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash milliy istiqloq g'oyasi va sharqona tarbiya berish yuzasidan ta'lim yangicha texnologiyalar. xususan, ona tili tarkibida qator yangiliklar joriy qilindi. Ta'limning maqsad va vazifalarini belgilamay turib, uni yangilashning asosiy yo'nalishlarini belgilab bo'lmaydi. Ona tilidan ta'limning maqsad va vazifalari avvalo jamiyatda bajaradigan vazifasi inson hayotida o'rni bilan belgilanadi. Til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa aralashuv vositasi insonning fikrlashi va fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda berishi o'z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ona tili mashg'ulotlari bolalarda ta'limiy o'yinlar asosida mustaqil fikrlash, ijodkorlik ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda qo'llay bilish malakasini shakllantirishdan iborat.

Mavzumiz sifat so'z turkumini o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish bo'lganligi tufayli ishni sifat so'z turkumi haqida umumiy tushuncha berishdan boshlaymiz.

Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan va qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga sifat deyiladi. Sifatlar o'ziga xos yasalish tizimiga ega.

Sifatlarning ma'no guruhlari (129-dars)

Sifatlar qanday belgini ifodalashga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- 1) xususiyat sifatleri;
- 2) rang-tus sifatleri;**
- 3) ma'za ta'm sifatleri;
- 4) hajm o'lchov sifatleri;
- 5) hid sifatleri;
- 6) makon zamon sifatleri.

1. **Topshiriq:** "Ranglar jilosi" deb nomlangan matnni o'qing, sifatlarini topib ularning uslubiy xossalarini belgilang.

2. **Topshiriq:** Ilovada berilgan Erkin Vohidov qalamiga mansub she'rlar ichidan sifat so'z turkumiga oid sozlarni toping, sifatlarning ma'nodoshlarini topib yoniga yozib bering.

Dars o'tish shakllarini bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviyga ajratilayotganligi barchamizga ma'lum. Shu nuqtaiy nazardan qarajak, bizning ushbu ishimiz noan'anaviy dars shakllariga to'g'ri kelib, biz bunda mavjud metodlarga mos ravishda yangi ta'limiy o'yinlar qo'shish va mavjud o'yinlar orqali o'quvchilar faolligini oshirishni ustivor vazifa qilib qo'yanmiz. Shu bois mavjud va yangilangan dars o'tish usullarida quyidagi samarali ta'limiy o'yinlarni ko'rsatib

o'tamiz. Bu ta'limiy o'yin-topshiriqlar turli usullar bilan o'qituvchi hamkorligida o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi kerak. Ularni bajarishda ijobiy natija beradigan ta'limiy o'yinlarning asosiy turlaridan biri Grammatik o'yin topshiriqlardir. Topshiriqning bu turi o'quvchilardan bilimdonlikni, izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi. O'yin topshiriqlar ona tili darslarini qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

Ma'lumki o'yin topshiriqlar o'quvchilar malaka va ko'nikmasiga, murakkablik darajasiga ko'ra guruhlanib, soddadan murakkabga qarab boradi. "Qayta xotirlash tipidagi o'yinlar" Bu ta'limiy o'yin tipida o'tilganlarni mustahkamlash hamda bilim va malakalarni tekshirish darslarida foydalansa ko'zlagan natijaga tezroq yetiladi. Ma'salan rahg-tus bildiruvchi sifatlar mavzusiga oid darslarni mustahkamlash maqsadida "KIM G'OLIB" o'yinini qo'llasa bo'ladi. Buning uchun sinf ikki guruhga ajratiladi. Bir guruh Ijobiy baho semasini ifodalovchi rang-tus bildiruvchi sifalarga navbatma-navbat to'rtliklar aytadi. Ikkinchi guruh esa Salbiy baho semasini ifodalovchi rang-tus bildiruvchi sifalarga. O'yin shu tariqa davom etib, cheklangan vaqt ichida qaysi guruh ko'p she'r topsa, o'sha guruh g'olib sanaladi. Bu o'yinni boshqacha tarzda amalga oshirsa bo'ladi, ya'ni guruh ichida "zanjirli varaqa" o'yini tarzida. Bunda varaqalar zudlik bilan to'ldirilishi kerak. "OLTI KARRA OLTII" o'yinini ta'kidlab tavsuya qilmoqchimiz. Bu o'yin uchun o'qituvchi doskaga 6ta so'z /oq/qora/qizil/yashil/moviy/ko'k/ so'zlarini alohida-alohida yozib qo'yadi. Sinf 6 guruhga bo'linib, (o'quvchilar sonini inobatga olish kerak. Agar guruhlar teng bo'linmaydigan bo'lsa, guruhlar sonini kamaytirish yoki ko'paytirish mumkin) yozilgan so'zlarga qaysi guruh eng ko'p sifat bera olishi aniqlanadi. Guruhning har bir a'zosi o'ziga qarashli so'zga bittadan misol yozadi. Tez va tog'ri yozgan guruh yutgan hisoblanadi. G'oliblar rag'batlantirilishi kerak. Bunday o'yinlar o'tilgan mavzuni mustahkamlashda o'rinli.

Yoki o'quvchilarning bog'lanishli yozma nutqini sinash maqsadida "SO'ZLAR-BIZDAN, MATN TUZISH SIZDAN" o'yinini otkazish mumkin. Bunda ikki guruh o'quvchilar kelishgan holda bir-birlariga sifat so'z turkumiga oid so'zlar aytadilar. Guruh esa ushbu tayanch so'zlardan foydalangan holda matn tuzishlari kerak. Tez va mazmunli matn tuzgan guruh g'olib hisoblanadi. Bugungi kunning dolzarb talablaridan biri o'quvchilar so'z boyligini oshirishdir. Bunda "izlanuvchanlik tipidagi o'yinlar"ni qo'llash yaxshi natija beradi. "IJODKOR" talimiy o'yinidan sifatlarning ma'noviy guruhlarini o'tishda samarali foydalanish mumkin. Bu o'yin ham ikki guruh ishtirokida tashkil qilinib, birinchi guruh sifatning qaysidir ma'noviy guruhi qatnashgan gap tuzsa, ikkinchi guruh esa ushbu guruh tuzgan gapdagi ma'noviy sifatni almashtirib, o'rniga boshqa sifatni qo'yish talab etiladi. M: Bog'da qizil, sariq gullar ochilgan. Ikkinchi guruh: Bog'da chiroyli hushbo'y gullar ochilgan. Birinchi gapda rang-tus sifatlari xususiyat va hid

sifatlariga almashtirilgan. O‘yin shu yo‘sinda davom etadi. Bu o‘yinni o‘quvchilar o‘rtasida yoki parallel sinflar o‘rtasida “so‘z mushoirasi” qilib davom ettirsa ham bo‘ladi. “Ijodkor” o‘yinini yana boshqa variantda ham foydalanish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi oldindan tayyorlangan suratlarni o‘quvchilarga ko‘rsatadi. O‘quvchilar surat asosida o‘zlari ijodkorona yondashib matn tuzadi. Bu o‘yin o‘quvchilarda nutqiy ravonlikni ta‘minlaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan: o‘qituvchi uchta matn “Bobom va momom”, Sumalak sayli”, “Sayohatda” sarlavhalari asosida suratlar ko‘rsatib, sifatlarni qatnashirib, mazmunli matn tuzishni buyuradi. Ular tuzgan gaplar sifat ishtirokida shunday joylashtirilishi zarurdir. O‘quvchi tafakkuri taraqqiyotiga ta‘siri ijobiy bo‘lganligi sezilib tursin.

“SHERLARDA SIFAT QANI?” o‘yini ham bolalarda topqirlik, zukkolik kabi ijobiy fazilatlarni o‘zlarida nomoyon qilishga ko‘mak bo‘ladi. Viktorinaga qatnashning va sovrin egasi bo‘ling! She‘riyatda yil fasllari qimmatbaho toshlarga qiyoslanadi. M: *Oltin kuz* birikmasi. Kuz faslida barcha daraxt barglari sariq oltin, qizg‘ish rangga kirganligi sababli sariq oltinga qiyoslanadi. **Savol: Qish, bahor, yoz** fasllarini qaysi qimmatbaho toshlarga qiyoslash mumkin. *qish*, *bahor*, *yoq* leksemasidagi tushurib qoldirilgan sifatni o‘rniga qo‘yish kabi ko‘rinishlarida bo‘lishi mumkun.

Sifat so‘z turkumini o‘qitishda bolalarni jamoaviylikka o‘rgatadigan turli o‘yinlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki jamoaviylik bolada ahillik, inoqlik va birdamlik fazilatlarini singdiradi. Bunda o‘quvchilarga “IJOBIIY RANGLAR VA SALBIY RANGLAR” o‘yinini havola etamiz. Bu o‘yinda ijobiy ranglar va salbiy ranglar haqida aytiladigan fikrlarni alohida alohida qilib yozadilar. Bu bilan o‘quvchilar ijobiy ranglar va salbiy ranglar deb leksemalarga sifat berishni o‘rganadilar. Kattalardan eshitgan va o‘zlaricha baholagan ranglarning sema hususiyatlarini bilganicha yozadilar, bu o‘yin doskada bajariladi. O‘yinning yutug‘i shundaki, ayni paytda o‘quvchilar ranglarga baho berishning mas‘ulyatini anglaydilar. Namuna :

IJOBIIY RANGLAR

Qora–tim–qosh–go‘zallik;

SALBIY RANGLAR

qayg‘u–kun–qo‘rquv, zulmat;

Bu o‘yinda ham topshiriqni tez va sifatli bajargan guruh g‘olib hisoblanadi.

“ESLAB QOL VA DAVOM ETTIR” o‘yini asosida sifat so‘z turkimini takrorlash darslarida qo‘llash orqali kutgan natijaga tez va samarali erishiladi. O‘yin zanjir tarzida amalga oshiriladi. O‘quvchilar orinlaridan turib bitta sifatga misol aytadi, ikkinchi o‘quvchi esa birinchi o‘quvchi sifatni takrorlab o‘zi ham yangi sifat keltiradi, uchunchi o‘quvchi esa 1-2-o‘quvchinig keltirgan misolini aytib o‘zi ham sifat qo‘shadi va o‘yin shu tarzda davom etadi. Masalan 1-o‘quvchi bilimli desa 2-

o‘quvchi bilimli, zukko deydi, 3-o‘quvchi bilimli. zukko, talabchan... So‘zlar orasidagi sifatni unutgan, tushurib qoldirgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. O‘yin o‘quvchini tinglashga hotirani mustahkamlashga, esda saqlab qolishga yordam beradi. sifat so‘z turkimining mantiqli mohiyatiga bo‘lgan o‘quvchilardagi fikrlash tezligini sinash uchun “XATONI TOPING” o‘yinini o‘tkazish mumkin. Buning uchun teskari gaplar beriladi. Ulardagi mazmun anglanib xatosi to‘g‘rilanadi. Bu sifatni ma’no jihatidan turlari mavzusini o‘tishda qo‘l keladi. Namuna: Mashina eshigi ochilib **yap-yangi** bahaybat yigit tushib keldi. Mashina **zabardast** lasetti edi. Bi ikki gapda fikrlar almashgan, sifatlar xato keltirilgan. O‘quvchi xatolarni to‘g‘ri tahlil qilib o‘z o‘rniga qo‘yadi.

Darsda test savollari ham ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda crossword, chainword kabi usullardan ham foydalanish mumkin. Yangilangan ta’lim tizimimizda zamonaviy pedagogic texnologiyalar ta’limiy o‘yinlar asosida boyib boradigan yetarli ko‘nikma va ko‘zlangan bilimni to‘laqonli yetkazish, o‘quvchilarni ongli tafakkurini o‘stirishni ustuvor vazifa qilib qo‘ygan edik. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili o‘qitish metodikasida grammatik o‘yin topshiriqlar amaliy ta’lim usullaridan foydalanish keng imkoniyatlar sari yetaklaydi. Ta’limiy o‘yinlar o‘ziga xos xususiyatlari shundaki o‘yin ko‘pincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunlanib, o‘quvchilarga ballar beriladi. Bu shubhasiz, topshiriqni bajarishga ishtiyoqni oshiradi. Bu, avvalo, o‘quvchilarning grammatik savodxonligini, ijodiy fikrlash qobiliyatini, topqirligini oshiradi. Nutqi va shu fanga muhabbati ancha ortadi. Shu bilan birga boshqa fanlar bilan jiddiy shug‘ullanish ehtiyojini tug‘diradi.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NUTQ VA NOTIQLIK MASALALARI

N.Yunusova, Furqat tuman 33-maktab o‘qituvchisi

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Mahbub ul-qulub”, “Nazm ul-javohir” asarlari o‘zbek tilida nutq tuzishning go‘zal namunalari bo‘lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo‘shdi.

Navoiy “Mahbub ul-qulub”da tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so‘zlovchi dilidagi fikrni to‘g‘ri aks ettirishi lozimligi haqida shunday deydi: “Saodatbaxsh ruh zuloliga matla’ ham til. Tilga iqtidorlig‘ – haqimi xiradmand, so‘zga ixtiyorsiz – layni najnad. Tilki fasih va dilnazir bo‘lgay, xubroq bo‘lgay agar ko‘ngil bila bir bo‘lgay”. (“Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tiliga kuchi yetadigan (kishi) aql podshosidir. So‘zga ahamiyat bermaydigan (kishi) la’natlangan, past (kishi) dir.

Til go`zal va dillarni ovlantiruvchi bo`lishi bilan birga, (so`zlovchining) dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq bo`ladi”³¹⁷.

“Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo`lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo`lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma`naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos darajada ahamiyat kasb etadi”³¹⁸. Shu jumladan, ma`naviy tarbiyani shakllantirishda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning badiiy asarlari, xususan, “Xamsa” dostonlarining o`rni beqiyosdir.

“Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” asarida turli sohalarga oid so`z va atamalarning o`ziga xos uslubda adabiy so`z normasi sifatida qo`llay bilish har bir ziyoli va nozikta`b shoirdan katta mahorat talab etiladi. Bu, albatta, shoirning dunyoqarashidagi kenglik, turli sohalarga bo`lgan qiziquvchanlik, ayniqsa, gumanistik g`oyalar bilan yo`g`rilgan tabiiy fanlarga ham nisbatan chuqur mulohazakorligidan darak beradi.

“Hayratul-abror”da kirish qismining o`zi ham bir necha bobdan iborat bo`lib, dostonning umumiy g`oyaviy-badiiy tushunchasida katta o`rin tutadi. Bunda hamd, munojot, besh na`t, uch hayratdan tashqari Nizomiy va Xusrav Dehlaviy madhiga, so`z ta`rifiga, so`zda ma`no va shakl birligi masalasiga, Sulton Husayn Boyqoro, shuningdek, Bahovuddin Naqshband madhiga bag`ishlangan maxsus boblar bor. Bu boblarda Navoiyning dunyoqarashi keng ekanligi o`z isbotini topadi. Navoiy insonlar bilan muomala qilishda og`zaki va yozma nutqning o`ziga xos, yuqori saviyada bo`lish kerakligini ta`kidlaydi. Dostonda hamd, munojot, na`t va hayrat boblari diniy mazmunda bo`lsa-da, shu boblarda Navoiy dunyoqarashidagi ziddiyatlar, turli xil holatlar, munosabatlar, turli toifadagi kishilar bilan bo`lgan muomala munosabati, nutq odobi, uning o`ziga xos tadrijiy taraqqiyoti kabi masalalar o`rtaga tashlangan. Doston maqolatlarida shoir qo`yilgan masalalar yuzasidan o`z fikr-mulohazalarini bayon qilib, shoh adolati haqidagi fikrlari, karam va saxovatni ulug`lashi, adob-u axloq masalalari, ishq va vafoning qadrlanishi, umuman, jamiyatda kishilar o`rtasida yaxshi, vijdonli munosabatlarning anglashinishi, kishilarning kishilarga mehribon bo`lishi, foyda keltirishi kabi qator masalalar zamirida muomala madaniyati, nutq odobi kabi ilmiy salohiyat borligi, “Hayrat ul-abror”ning barcha hikoyatlarida, maqolatlarida o`ziga xos tarzda bayon etib boriladi. Hazrat Navoiy aytganlaridek:

“El netib topgay menikim,

³¹⁷WWW.nauka.shop.com.

³¹⁸ Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2009. 3-4-betlar.

Men o'zimni topmasam"³¹⁹.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida turli soha mutaxassislari bilan olib boriladigan muomala, ular o'rtasidagi so'zlashuv kabi munosabatlar "*Xaloyiq, ahvol, avol, aqvolining kayfiyati*" singari qirq fasldan iborat. Ushbu asarda ham jamiyatda uchraydigan turli toifadagi, turli kasbdagi, kishilarning muomala madaniyati, nutqiy odob xususida bayon etiladi.

Ayniqsa "*Odil salotin zikrida*", "*Vuzaro zikrida*", "*Yasovul guruhi zikrida*", "*Yasolug' va qaracherik zikrida*"(otliq va piyoda askarlar), "*Quzzat zikrida*"(qozilar) "*Mudarrislar zikrida*", "*Uffoz*" (hofizlar) zikrida", (Sozanda va nag'machilar), "*Qissasoz va qissaxonlar zikrida*", shuningdek, "*Nasihah ahli va voizlar zikrida*" kabi masalalarga keng ta'rif berilgan. Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub" asarida "*falak jismining joni- so'z*", degan gap bor.

Navoiyning, ayniqsa, she'rda shakl va mundarijaning borligi, mazmunning nihoyatda kengligi, nutqiy ravonlik xususidagi gaplari go'zal va ravshan ifodalangan:

Nazmda ham asl onga ma'ni durur,

Bo'lsun aning surati har ne durur,

Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,

Ahli maoni qoshida xo'b emas.

Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,

Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga (H.A.16-b).

"Hayrat ul-abror" Navoiyning "Xamsa" dostonlari yozilishida o'ziga xos dasturulamal hisoblanadi. Navoiyning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ma'rifiy, odob-axloq (nutq odobi va notiqlik san'ati) kabi qarashlari birinchi marotaba ushbu asarda o'zining keng ifodasini topgan. Bu dostonni, xususan, g'oyaviy jihatdan uning boshqa dostonlariga kirish deb ham atasa bo'ladi. Shuning uchun ham dostonning tahriri, mazmun-mohiyati yozma nutq madaniyati asosida berilishi, keyingi asarlarini yaxshi tushunishga keng yo'l ochib bergan.

Umuman, Alisher Navoiy so'z, nutq, so'zlash vositasi, notiqlik, axloq haqida ham fikr yuritadi. Navoiy so'zga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashib, ilmiy kuzatishlarni o'rtaga tashlaydi³²⁰. Shuningdek, Navoiyning "so'z"i boshqa adabiy, lisoniy terminlarga nisbatan mazmun va mantiq doirasida keng qamrovga egaligi bilan diqqatni tortadi,- degan edi Alibek Rustamov o'zining ilmiy tadqiqotlarida³²¹. Baytlar tahlilida Navoiy so'zni olamning yaratilishi bilan bir paytda, ya'ni:

Andakim ne jahonga endi mavjud,

Ne jahon ahlilar erdilar mavjud (H.A. 39-b).

³¹⁹ Navoiy A. Hayrat ul-abror. Ilmiy matn tuzuvchi Fozil Shamsiyev. –T.:1961. (Bundan keyingi shoirning she'riy parchalar shu nashrdan olinadi va sahifasi qavs ichida (H.A. deb) ko'rsatiladi).

³²⁰ Hamidov Z. Navoiy so'z ta'rifida. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari. –Andijon, 2002. 208-210-betlar.

³²¹ Rustamov A. So'z xususida so'z. –T.: 1987. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T.:1979.

Kabi hali bor-u mavjud emas, biz zamonda yaratilishning ilk shabadasi vujud sari kira boshlagach, hamma narsa shunda bor bo'ldi. Ammo "so'zning o'zi emas, ovoz, tovush paydo bo'ldi",-deydi. Navoiy til, chiroyli nutq, "so'z"ni o'z o'rnida qo'llay olishga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Alisher Navoiy ona tilining boyligini amalda ko'rsatish maqsadida "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini yaratdi. Tilshunoslikka oid ushbu asarda Navoiy tilning paydo bo'lishi, ovoz, tovush, so'z haqidagi mulohazalari, til va tafakkur, so'z ma'nosi bayon etilgan. Shuning uchun Alisher Navoiy "so'z" ma'nosiga jiddiy e'tibor berib "Xamsa" tarkibidagi har bir doston boshida, xususan, "Hayrat ul-abror"da ham maxsus bob ajratgan. Unda so'zning ma'no fazilatlarini sanab o'tadi. "So'z" bir o'rinda nasriy asar, yana bir o'rinda nazmiy asar, deb ta'riflanadi.

Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning asarlari nafaqat badiiy, balki mislsiz ma'naviy, lisoniy boylik hamdir. Bu boylikning tarkibiy qismlaridan birini shoir asarlarida uchraydigan nutq madaniyati va odobiga oid qarashlar, talqinlar tashkil qiladi. Mana shunday ilmiy-ma'rifiy merosning mazmun va mohiyatini chuqur o'rganib, ularni ilmiy umumlashtirmasdan turib, hozirgi davr o'zbek tili nutqi madaniyati va odobiga doir ishlarni ilmiy talab darajasiga ko'tarish qiyin.

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, ayniqsa, yoshlar o'z bilim va imkoniyatlariga tayanib, ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan davrda yashamoqdamiz. Oldimizda qo'yilgan ulkan maqsadlarga erishish yo'lida esa, eng avvalo, ma'naviy salohiyatni mustahkamlashimiz lozim.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xojimatova Yu. - Bog'dod tumani 46-maktab o'qituvchisi

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatleri, xarakteri, dini, urf-odatleri, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va

mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

1. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

2. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

3. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.

4. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.

2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.

3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.

4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Demak, aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. To'raqulov X. va Baltayeva A.larning "Milliy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish" "Boshlangich ta'lim" jurnali, 2008, 11-son, 4-bet.
2. Vahidova N.ning "Milliy g'urur ruhida tarbiyalash" "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2009, 14-son, 2-3-betlar.
3. Zuhra Ilyos qizining "Ma'naviyati yuksaq avlod – Vatan ishonchi." "Boshlangich ta'lim" jurnali, 2009, 10-son, 21- bet.
4. Umumiy o'rta ta'limning ona tili dasturi. Mualliflar: Ne'matov H.G'., G'ulomov A.Q., Mahmudov N.M., Abduraimov M. DTS.1-maxsus son. 1999.

SO'Z VARIANTLARI VA UNGA YONDOSH HODISALARNI O'TISHDA O'YIN TEXNOLOGIYASI

Miryusopova Ozodaxon, talaba

Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o'tkazish, undagi yangi mazmuni o'quvchilarga to'laroq etkazish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy texnologiyaning dolzarb talabi bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchilardan ham dars samaradorligini oshiradigan, o'quvchilar faolligini kuchaytiradigan texnologiyalarni qo'llash talab etilmoqda. Bunday talablarga asosan o'quvchilarda o'zaro raqobatni o'rnatish uchun ona tili darslarida o'yin mashg'ulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chunki o'yin texnologiyasi o'quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Dars jarayonida asosiy faollik o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi kerak. SHundagina o'quvchilar orasidagi faollikni ta'minlay oladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda turli xil o'yinlardan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llash nihoyatda qulay bo'lgan bir qator o'yinli texnologiyalar yaratilmoqda. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy malaka va ko'nikmalariga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki ta'lim oluvchilarda muayyan axloqiy-irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga o'z ulushini qo'shadi.

D.B.Elkoninning fikriga ko'ra, "Xuddi shu oddiygina o'yin orqali o'sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi".³²² Bir qancha izlanishlar shu fikrga olib keladiki, o'yin – bu taraqqiyotning rolidir, uning kelajakka, rivojlanishga qaratilgan, undan kelib chiqadigan qonun-qoidalar, iroda hamda matonat maktabidir.

O'qituvchi 5-sinf ona tili darslarida so'z ma'nolarini o'rgatish jarayonida darsda quyidagi o'yin texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

Til xazinasiga sayohat

Darsda o'rganilayotgan mavzu xazinada yashiringan boylik deb e'lon qilinadi. Kichik ijodiy guruh a'zolari yangi mavzuga doir o'zlari va o'rtoqlarida mavjud bo'lgan tasavvurlar bilan o'rtoqlashadilar. Har bir guruh a'zosi daftariga o'rtoqlaridan bilib olgan ma'lumotlarni yozib boradi. Eng muhim ma'lumotlar doskaga yozib boriladi va xazina sirlari oydinlashib boradi.

"Til xazinasiga sayohat" o'yinini tashkil etish uchun oldindan ikki katta quti yasab, "Shakldosh so'zlar", "Ma'nodosh so'zlar", "Zid ma'noli so'zlar", "Paronimlar", "So'z variantlari" mavzulariga oid ma'lumotlar shu qutilarga solinadi. O'quvchilarga yuqoridagi mavzularga tayyorlanib kelishlari uchun oldindan manbalar beriladi.

Darsda o'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Guruh a'zolari mavzuga doir tasavvur va fikrlari bilan o'rtoqlashadilar. Har bir guruh bildirilgan fikrlarni yozib boradilar. Yozilgan ma'lumotlar ikkinchi bo'sh qutiga solinadi. So'ngra o'qituvchi tomonidan dastlab birinchi quti ochilib, o'qituvchi tomonidan shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli, paronim so'zlar va so'z variantlariga doir ma'lumotlar bilan

tanishiladi. So'ng ikkinchi qutidagi guruhlar tomonidan yozilgan ma'lumotlar o'qiladi. Ma'lumotlar solishtiriladi, izohlanadi.

Bingo

Mazkur o'yinni tashkil etish uchun o'qituvchi Bingo jadval tuzadi, jadval ichiga mavzuga oid eng muhim ma'lumotlar va topshiriqlar joylashtiriladi. Dars jarayonida Bingo – jadval har bir o'quvchiga tarqatiladi. Qaysi o'quvchi Bingo – jadvalni birinchi bo'lib bajarsa, “Bingo” deb xitob qiladi.

Birinчилardan bo'lib bajargan o'quvchilar boshqa o'quvchilarga yordamlashadi. G'olib o'quvchilar rag'batlantiriladi. Bu o'yindan yakunlovchi o'yin sifatida foydalanish mumkin.

Quyida bu dars jarayonida foydalangan “Bingo” – jadvalni havola etamiz.

	B	I	N	G	O
Ma'nodosh	Bir ma'no asosi doirasida turli ma'no qirralarini ifodalovchi so'zlardir. Misol:	Anglatgan ma'no qirrasiga ko'ra farqlanadi. Misol:	Uslubiy bahosiga ko'ra farqlanadi. Misol va sharh.	Nutqiy xoslanish belgisiga ko'ra. Misol va sharh.	Do'st, dunyo, istak, izlamoq so'zlariga ma'nodosh toping.
Shakldosh	Yozilishi yoki aytilishi bir xil bo'lib ma'nolari har xil bo'lgan so'zlardir. Misol:	Shakldosh so'zlardan o'zbek adabiyotida tuyuq yaratiladi. Misol va sharh.	qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi <u>ot</u> , Yaxshilik qil bolam, yomonlikni <u>ot</u> . Sharhlang.	Ot, tush, kul, yoz, sog' so'zlarining shakldoshlarini toping. Misol:	Yuz, qir, tut, qo'y, o't so'zlariga gap tuzing. Misol:
Zil ma'noli	Bir-biriga zid bo'lgan narsa, harakat, belgi, miqdorini atab kelgan so'zlardir. Misol:	Zid ma'noli so'zlardan tazod san'ati yaratiladi. Misol:	Maqollarda zid ma'noli so'zlar ishlatiladi: Misol:	Zid ma'noli so'zlar ijobiy va salbiy bo'yoqqa ega bo'lishi mumkin. Misol va sharh.	Go'zal, oq, yaxshi, shirin, yig'lamoq, jasur so'zlariga zid ma'noli so'zlar toping. Misol:

	<p style="text-align: center;">Paronim</p> <p>Faqat bir tovush bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan so'zlardir. Misol:</p>	<p>Talaffuzi yaqin bo'lganligi uchun bunday so'zlarni bir-biri bilan almashtirib qo'yish ehtimoli bor. Misol va sharh.</p>	<p>Abzal – afzal, amr – amir so'zlari qatnashgan gaplar tuzing. Misol:</p>	<p>Daho, pol, bob, tub so'zlaridan paronim hosil qiling.</p>	<p>Afzal so'zining ma'nodoshini, paronimini, antonimini toping.</p>
	<p style="text-align: center;">So'z variantlari</p> <p>Bir so'zning ikki yoki undan ortiq shaklda ifodalanishi. Misol:</p>	<p>Mazmun va mohiyati jihatidan aynan bir xil va bir-biriga yaqin so'zlar. Misol:</p>	<p>Adab – odob, arava – aroba, kabutar – kaptar so'zlari qatnashgan gaplar tuzing.</p>	<p>So'zlarning abdiy adabiyotda xilma-xillik variantlar uchraydi. Misol va sharh.</p>	<p>Terminalogiyaga oid so'z variantlari ham uchraydi. Misol va sharh.</p>

O'z o'rningni top

Ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, paronim so'z va so'z variantlaridan misol aralash holda guruhlariga tarqatiladi. Har bir guruhga mazkur mavzular bo'lib beriladi.

I guruh – “SHakldosh”

II guruh – “Ma'nodosh”

III guruh – “Zid ma'noli”

IV guruh – “Paronimlar”

V guruh – “So'z variantlari”

Har bir guruh o'ziga tegishli so'zlarni tanlab, o'z o'rniga qo'yadi.

Ijodiy mashqlar

Bu o'yin ijodkorlikka da'vat etuvchi o'yinlardandir. O'yinni o'tkazishdan maqsad:

- tasavvurni o'stirishga da'vat etish;

- guruh bo'lib ishlashda hamkorlikka o'rgatish.
Guruhlarga bo'linadilar. Guruh a'zolaridan bir kishi o'z tasavvurida tug'ilgan qisqa jumlaning aytadi va shu asosida bog'liq matn tuziladi.
Matndan mavzuga mos so'zlar topilib sharhlanadi. Mazkur o'yin orqali o'quvchilarning jamoa bo'lib bog'liq matn tuzish ko'nikmasi hosil bo'ladi.
Ona tili ta'limida bunday o'yin texnologiyalarini qo'llash, ulardan foydalanish juda katta samara beradi. O'quvchilarning bunday darslarda qo'llaniladigan o'yin texnologiyalari orqali dunyoqarashi kengayadi, faolligi kuchayadi, ta'lim jarayonlariga bo'lgan e'tibor va qiziqishlari ortadi, bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi. Eng muhimi esa, o'qituvchi ta'lim samaradorligiga va o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi.
Tilshunos Krushevskiy: "Til yangilanib o'z sostavini ba'zi faktorlar bilan buzayotganga o'xshaydi-ku, lekin aslida esa bu faktorlar til uchun oliy darajada foydalidir. Ular tilga doimiy yangi materiallar etkazib turadi" – degan fikrlari ayrim olimlarning so'z variantlarini salbiy hodisa sifatida baholaganlari uchun aytilgan bo'lsa ajab emas.

BIZ YO'QOTAYOTGAN "MILLIY ALIFBO"

Teshayeva Marjona, Buxoro davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Istiqlol yillari til tizimi har tomonlama isloh qilindi (maqsad, usul hamda vositaviy jihatdan). Jaydari til bilan aytganda, ona tilimiz " ilgarilab ketdi". Ildiz shundaki, o'zga tillardan so'z " kopiravat" qilib, o'zimizga tatbiq etish " an'ana" bo'lib qolmadimi? Davlat tiliga 31-yil to'lish arafasida ham, afsuski, o'zbek tili taraqqiy qilolmadi. Davr va texnologiya talabga monand to'la rivojlandi. Ishonch bilan ayta olamizki, XXI asrda hayotning jamiki sohalari bilan bir qatorda ona tilida ham o'zgarish ro'y berdimi? Mazkur "o'sish" qay darajada bo'y ko'rsatdi? Ushbu fikrim orqali tizimdagi takomil darajasiga befarqlik ila qaramoqchi emasman. To'g'ri, milliy til tizimida, aniqrog'i darsliklardagi yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion uslublarning joriy etilishi o'qituvchining o'quvchi psixologiyasini, yosh xususiyatini hisobga olgan holda, mavzuni singdira olish qobiliyatini "mega darajada" o'stirishning bosh omili bo'layotganiga ko'z yumib bo'lmaydi. Tan olmoq kerak, ushbu amallar maktab partasida o'tirgan o'quvchini kognitiv-pragmatik(mustaqil-ijodiy fikrlovchi), ta'lim-tarbiya jihatdan mukammal, reproduktiv tomondan ham rivojlantiradi. Oddiygina qilib aytganda, o'qituvchining 1 soatlik reja konspekti ham aynan shularni ustuvor vazifa deb bilmaydimi, axir?

Keling, hayotiy misol, bugun bolaning aravasiga hech kim yuk ortmadi. Qorni ochgan bola non do'koniga kirsa, bitta obi non 1200 so'm va bitta buxanka non 1700

so'm turibdi. Cho'ntagida 1000 so'm puli bor. Bitta obi non sotib olishga(arzimas pul) 200 so'm yetmaydi. Sobiq o'quvchi non do'konidagi amakiga (yoki opaxonga) deyapti:" Men ergashgan qo'shma gaplarning besh turini bilaman.Undalmali gaplar haqida bilaman. Fe'lning ma'noviy guruhlarini sanab beraymi? Kesim, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi haqidagi qoidani aytib beraymi? Unli, undoshlarning til oldi va til orqa, lablangan, lablanmagan ekanligini, o'rta keng, yuqori torligi...[2]. O'quvchi non olishi uchun yetmayotgan 200 so'm uchun sizning 5-sinfidan 11-sinfgacha (naq 7 yil) o'rgatganlaringizdan "madad so'raydi". Tabiiyki, soladi.

Aziz ustozjon! Maktabda 7 yil davomida mashaqqat chekib, o'quvchini sinfga qamab o'rgatgan son-sanoqsiz qoidalarimiz bolaning bir martagina qornini to'yg'azishi uchun yaramaydi-ya...? Shundayin hollarni uchratamizki, muayyan bir tashkilot, korxonalar ma'muriyati(ba'zi hollarda ta'lim maskanlari ham) xodimlaridan ish hujjatlarini kirill yozuvida yuritish kerakligi talab qilinadi. Garchi, allaqachon lotin yozuviga asoslangan o'zbek tili alifbosiga o'tgan bo'lsak ham.Yoki oddiy misol, maktab rahbariyati oldiga oliy ta'limni tugatib, ishga kirmoqchi bo'lib turgan xodimdan ma'muriyat nomiga ariza yozish krill yozuvida talab qilinadi. Lotin yozuvida savod chiqargan kishi kirill yozuvida xato qilishi tabiiy(ba'zida yo'q). Bunday paytda xodimlikka da'vogar shaxsni savodsiz deb ayblash o'rinlimi?(aslida, lotin yozuvida ham xato qiladiganlar ham yo'q emas).

Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvini o'zlashtirish uchun olam-olam vaqt sarflash zarur emas !(Chet tillarini oson o'rganyapmiz-ku! Qo'shimcha kurs uchun ham qancha xarajat qilinishini aytmaymizmi...?)Yoki avlod almashinishini kutish kerakmi? Yoki yana bir misol, biz uyali aloqa vositalaridan unumli foydalanyapmiz, suhbat davomida ma'lum bir sabab yuzasidan xabar yozamiz(siz-u biz bilgan o'sha " sms" xabar). Shu borada ham xalqimizni madaniyatga chaqirish vaqti keldi, allaqachon. Qisqacha qilib izoh beraman, "ch" harfi o'rnida "4" soni, "sh" harfi o'rnida "w" belgisi, "o" harfi izini esa "6" soni egalladi. Tabriklaymiz! Biz yangi "iyeroglif alifbo" yaratuvchilari bo'ldik !

Birgina 5-11-sinf maktab darsliklaridagi grammatik qoidalarni olaylik.

5-sinf "Ona tili" dasligi-192 ta

6-sinf "Ona tili" darsligi-194 ta

7-sinf "Ona tili" darsligi-117ta

8-sinf " Ona tili" darsligi-51ta

9-sinf "Ona tili" darsligi-40ta

10-sinf "Ona tili" darsligi-26ta

11-sinf "Ona tili" darsligi-25 ta

Jami: 645 ta

Bu hali hammasi emas. Agar 9-10-11-sinf "Ona tili" darsligidagi grammatik qoidalar 1-1,5 sahifa ekanligini inobatga olsak, miqdor o'rtacha 3 barobar oshadi(

800 dan oshishi mumkin deb taxmin qildim). Aslida darslik tizimidagi kamchiliklarni aytib o'rganib qoldik. Qiyini - darslik tayyorlash aslida. Eng katta xatomiz esa, o'quvchi ongida grammatik ta'limni ustun qo'yishimiz. Bu esa ijodiy tafakkur, keng qamrovda fikrlashga to'sqinlik qiladi.

Shu o'rinda bir fikr keltirmoqchiman, ayni kunlardagi hayot talabi bu muayyan bir xorijiy tilni bilish, tushunish, o'rni kelganda muloqot qilish, bevosita so'zlay olishni "topshiriq" qilib qo'yimoqda. Muayyan bir tilni bilish - bu davr talabi, hayot qonuniga aylandi, axir. Bu borada hukumatimizning 2020-yilning 10-dekabrda "Chet tillar o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi 18/75 qarori bunga yorqin misol. Bu qaror nafaqat chet tillarini o'qitishga, balki majburiy fanlar bilan bir qatorda o'rganishni maqsad qilgan.(1).

Ijodiy ta'sirlari talaygina, biroq xorijiy tildagi o'zlashma so'zlarni tilimizning sofligiga "qorishma" qilish o'rinlimi? "Ok", " Yes", "Uje", " Daje", " Koroche"..... Qatorni davom ettirishim mumkin. Deyarli har qadamda "paydo". Hozirgi kunda quyidagi masalalar filologlar oldida turgan hal qilinishi muhim bo'lgan masalalar hisoblanadi.

- tilshunoslik yo'nalishida bir nazariya, bir qoidaning turlicha talqini
- so'z ta'limi keyingi o'ringa tushib qolib,"nazariya" ustunlik qilishi;
- chet tillarini oson o'rganish uchun qulay dasturlar bor, albatta. O'zbek tilini o'rganish borasida elektron vositalarga katta e'tibor kerak;
- o'zbek tili darsliklarida bir-birini rad etadigan qoidalar mavjud, imkon qadar birxillashtirish lozim.

Muqaddas tilimiz "muammolar girdobida" cho'kib borayotgan bir paytda qalban va jismonan birga bo'lib, azaliy til sofligini saqlab qolaylik!

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Chet tillar o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi 18/75 qarori.
- 2.Yo'ldosheva D.N. "Maktab partasida o'tirgan o'quvchi tilshunos bo'lishi majburiymi?"nomli maqola//Ma'rifat gazetasi, 2020-yil 4-mart soni.
3. Abdurahmonov G', To'xliyev B, Rustamov A, Dadaboyev H. Qutadg'u bilig.1-11 jild sahifasi.

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Rahimov Sarvar, Qo'qon DPI (talaba)

Hozirgi shiddat bilan o'sib, rivojlanayotgan davrda, albatta, kelajak avlodga, yoshlarga e'tibor kuchaytirilyapti. Chunki vatanimizning porloq kelajagi uchun o'z kuchiga ishongan, bilimli, ijodiy fikrlay oladigan vatanparvar yosh kadrlarni yetishtirish har bir o'qituvchi-pedagog va murabbiylarning faxrli burch va

vazifalaridan biridir. Bu faxrli vazifani bajarishda ona tili o'qituvchilarining roli beqiyos. Zero, ular o'quvchi yoshlarda vatanga, milliy me'rosimiz bo'lgan ona tilimizga chuqur mehr-muhabbat ruhini singdiruvchi ustozlar sanaladi. Ona vatanga muhabbat, xalqimizga sadoqat, dastlab, ona tili orqali qalbiga jo bo'ladi. Bu xususda birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida shunday degan edilar:

"Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu – millatning ruhidir..."

Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim berar ekan, o'quvchilar bu dars, mavzu bo'yicha tafakkur yuritadi. Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilgandir. O'qish va o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, o'rgatishga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirib borishi zarur. Xo'sh, ijodiy fikrlash ko'nikmasi qanday shakllantiriladi? Ona tili darslarida ijodiy fikrlash deb o'zi nimaga aytiladi?

Ona tili darslarida ijodiy fikrlash deb o'quvchi har bir til hodisalarini bilishi, o'z o'rnida qo'llay olishi, ularni bir-biridan farqlay olishi, har xil mavzularda og'zaki va yozma nutq savodxonligini namoyon etish jarayoniga aytiladi. Bunda, albatta, o'qituvchining bilimi, pedagogik mahorati va ona tili o'qitish metodikasi juda katta ahamiyatga ega. Tajribali pedagog o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o'quv imkoniyatlarini hisobga olish didaktikaning eng muhim prinsiplaridan biri ekanligini, u ona tili o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini juda yaxshi bilishi kerak. Bu prinsipni amalga oshirmay turib, til hodisalarini puxta va ongli o'zlashtirishga erishib bo'lmaydi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uchun o'qituvchi yangi mavzu bayoni davomida o'tgan darslarda egallangan bilimlarini ham esga oldirishi, boshqa bo'limlar bilan o'zaro integratsiyada darsni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, o'quvchilarning yoshi va qiziqishlari juda ahamiyatli. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ijodiy fikr ko'proq aniq voqea-hodisalar natijasida hosil bo'lsa, yuqori sinfga o'tgan sari bu xususiyat o'z ko'lami jihatidan kengayadi, bola idrok qilgan narsalarni tushunib, anglab olishga intiladi, narsa va hodisalarni tahlil qiladi, o'zaro taqqoslaydi, ularning muhim belgilarini izlab xulosalar chiqaradi.

Tafakkur nutq orqali namoyon bo'ladi. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish vositasi hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat

tizimini egallash asosidagina nutqni o'stirish mumkin. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Ijodiy fikrni o'stirishda matn tuzish, ijodiy insho va bayon kabi ijodiy ishlarining o'rnini beqiyos. Ular bolalarning fikrlash qobiliyati va dunyoqarashini boyitadi.

Misol uchun 6-sinf o'quvchilari uchun ona tili darsligiga e'tibor qilsak. "Matn va uning turlari" mavzusi berilgan. Matn tuzish o'quvchining og'zaki va yozma nutqini o'stirish bilan birgalikda, uning tafakkur va dunyoqarashini ham kengaytiradi. Chunki matn tuzishda til hodisalari, asos va qo'shimchalar, so'zlarning o'zaro grammatik va mantiqiy bog'lanishi kabi qonuniyatlar namoyon bo'ladi. Matnni o'quvchilar, albatta, har xil mavzularda tuzishi maqsadga muvofiqdir. Ularning turli mavzuda matn tuzishlari lug'at boyligini o'stirishga, nutqining ravon bo'lishiga xizmat qiladi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, bilim saviyasi, qiziqish va layoqati, mustaqil ishlay olishi bir-biridan farq qiladi. O'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan, ijodiy fikrlay oladigan o'quvchi rasm asosida matn tuzish kerak bo'lganda nafaqat rasmda ko'rayotgan narsalarini, balki o'zining hayotiy taassurotlarini qo'shib matn tuzishadi. O'zlashtirish darajasi va fikrlash qobiliyati bo'sh bo'lgan, til sezgirligi talab darajasida bo'lmagan o'quvchi xuddi shu matnda hatto ko'rayotganlarini ham to'laligicha bayon qilib bera olmaydi. Demak, o'quvchilarda o'quv imkoniyati har xil bo'lib, bu ularning bilish faoliyatiga ta'sir etmay qolmaydi. O'quvchilarning o'quv imkoniyati bir qator ichki va tashqi asoslarga ega. O'quv imkoniyatining ichki asoslariga o'quvchilarda nutq malakalarining shakllanganlik darajasi, fikrlash va esda saqlab qolish qobiliyati, tafakkur usullarini bilishi va uni zarur orinlarda ishga sola olishi, tez o'qish va yozish malakalarining mavjudligi, til malakalarini o'rganishga munosabati kabilarni kiritish mumkin.

Tashqi omillarga ona tili ta'limining mazmuni, o'quvchilarning til muhiti, ularga qo'yilgan yagona imloviy va nutqiy talab, o'qituvchining nutqi, maktabning moddiy texnikaviy ta'minoti kabilar kiradi. Bu omillar o'quvchilarning bilim olishi va ijodiy fikrlashiga ta'sir ko'rsatadi. Keyingi mavzularda fe'l, ot, sifat, son, olmosh, ravish kabi so'z turkumlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ularning ichki kategoriyalaridagi qo'shimchalarni bir-biri bilan adashtirib yubormasliklari uchun o'qituvchi bu qo'shimchalarning o'ziga xosliklari, qaysi turkum tarkibida qay holatda kelishi haqida batafsil ma'lumot berishi kerak. Masalan, *-sh*, *-ish* qo'shimchalarini olaylik. Bu qo'shimchalarni fe'l so'z turkumidagi "Birgalik nisbati" va "Harakat nomi", sifat so'z turkumidagi "Ozaytirma daraja" (*-ish*)

mavzularida uchratish mumkin. To'g'ri, bu mavzularda ularga xos qoidalar berilgan, lekin ularning o'zaro farqini o'qituvchi o'quvchilarga alohida belgilari bilan tushuntirib berishi zarur bo'ladi. Birgalik nisbati qo'shimchasi *-sh*, *-ish* bilan harakat nomi qo'shimchasi *-sh*, *-ish* ning farqini tushuntirishda har ikkala qoida esga olinadi va birgalik nisbati hech qachon egalik va kelishik shakllarini, harakat nomi zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qabul qilmasligini, sifatning ozaytirma shakli esa faqat rang-tus sifatlariga qo'shilishini aytib o'tishi lozim bo'ladi.

“Ona tili o'qitish metodikasi” fanidan ma'lumki, didaktik o'yinlar o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni orttiradi va ularga o'zgacha motivatsiya beradi. So'z turkumlarini va boshqa mavzularni tashkillashda shunday o'yinlar va metodlardan foydalanilsa, albatta, foydadan holi bo'lmaydi. Deylik, ot so'z turkumidan “Atoqli otlarning turlari va imlosi” mavzusini o'tishda “Topag'on” o'yinidan foydalanib, o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, birinchi guruhga jarangli undosh bilan boshlanuvchi atoqli otlarni, ikkinchi guruhga esa jarangsiz undosh bilan boshlanuvchi atoqli otlarga misol yozish topshirig'i berilsa, shunda o'quvchilar, birinchi navbatda, atoqli otlarni, ular orasidan jarangli va jarangsiz undosh bilan boshlanuvchilarini topishlari kerak bo'ladi. Yoki turdosh otlardan “Narsa otlari” mavzusida “Kim chaqqon” o'yinidan foydalanib, berilgan narsa otlarini alifbo tartibida ma'noviy guruhlariga ajratish topshirig'i berilsa, bu mavzular bevosita “Fonetika” bo'limi bilan aloqadorlikda tashkil etilgan bo'ladi. Ona tilida mavzulararo bog'lanish o'quvchining tildagi atama va qoidalarining mohiyatini tushunishga va ularni almashtirib qo'llamasliklarini ta'minlaydi. Ko'pchilik o'quvchilar sifatdosh va sifatni, ravishdosh va ravishni, sifat bilan ravish so'z turkmini ajrata olmay qolishadi. Ularni farqlash uchun har birining berilgan qoidasi esga olinib, so'z birikmasi va gap tarkibida qo'llab sinf taxtasiga ular ishtirokidagi gaplarni alohida-alohida yozishlari topshirig'i berilsa, o'quvchilar aql-idroklarini ishga solib ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilar imkoniyatlari doirasida topshiriqni bajarishadi, so'ng o'qituvchi bu so'zlarning qanday hosil bo'lishini, ularni hosil qiluvchi qo'shimchalarni, ular gapda qanday ma'no ifodalayotganini izohlab beradi. Masalan, sifatdosh va sifat biri fe'lning vazifa shakli bo'lsa, ikkinchisi mustaqil so'z turkumi hisoblanadi. Sifatdosh fe'lning sifatga xoslangan shakli bo'lib, uni hosil qiluvchi qo'shimchalar lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha ekanligini aytish lozim. Sifat esa turg'un belgini ifodalab, u so'z yasash va yasaliş imkoniyatiga ega ekanligi bilan farqlash kerak. Misol: *qizil qalam - qizargan olma, tiniq suv - tingan anhor kabi*.

Ravishdosh va ravish fe'lga bog'lanib, ikkisi ham harakat-holatning belgisini bildirishi bilan bir-biriga o'xshaydi. Lekin ular sifatdosh va sifat kabi farqlanadi. O'quvchilarda til hodisalarini taqqoslash, tahlil qilishdan oldin, dastavval, ularga berilgan mavzulardagi qoidalar va ta'riflarni sodda va hayotiy misollar orqali

tushuntirib yetkazib berish lozim bo'ladi. Chunki har bir o'tilgan mavzuda egallangan bilimlar taqqoslash va tahlil jarayonida poydevor bo'lib xizmat qiladi. So'z turkumlarini, so'z yasovchi qo'shimchalar va shakl yasovchi qo'shimchalarni ham farqlash uchun ular haqida ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. So'z turkumlari berilgan mavzularda ularga xos so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar berib borilgan. So'z yasovchi qo'shimchalar so'zga qo'shilib uning lug'aviy ma'nosini, ba'zan turkumini o'zgartirish xususiyatiga egaligini, shakl yasovchi qo'shimchalar esa so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lashga yoki uning lug'aviy ma'nosiga biroz qo'shimcha yuklashi haqida alohida to'xtalib, farqlab berish kerak. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l so'z turkumlarining yasalishida asos va yasama so'z munosabatiga ham e'tibor qaratish kerak, ya'ni bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumi yoki bir turkum doirasida yangi lug'aviy ma'noli so'z hosil bo'lish hodisalarini tahlil qilish ham bolaning tilshunoslik dunyoqarashini kengaytiradi. Masalan, *anglamoq, gapirmoq, tasvirlamoq, fikrlamoq* kabi so'z larda otdan, *qizarmoq, ulg'aymoq, kengaymoq, qisqarmoq* kabi so'zlarda sifatdan fe'l so'z turkumi yasaloqatganligini o'quvchilar anglashlari lozim. O'quvchilarning ijodiy fikrlashida, yuqorida aytilganidek, ularning og'zaki va yozma savodxonligi nihoyatda ijobiy samara beradi. Darslikda berilgan rasmlil topshiriqlardan foydalanib, matn va hikoyalar tuzishi, bu matnni og'zaki va yozma shakllarda aniq, ravon, xatosiz bayon eta olishi bolaning ijodiy fikrlash qobiliyatiga egaligini ko'rsatadi. Ona tili darslari o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirishda yaxshi imkoniyatlarga ega. VI sinf darsligida "So'z turkumlari" bo'limi o'rganilar ekan, u so'z yasalishi, grammatika va fonetika bilan uzviy bog'langan. Chunki har bir so'z grammatika va so'z yasalish jarayonida ishtirok etishi mumkin.

Maktab ona tili kursining turli bo'limlari orasidagi o'zaro bog'lanishga amal qilish o'qituvchiga o'tilganlarni samarali, mukammal takrorlash va mustahkamlash imkonini beradi. Chunonchi, mustaqil so'zlarni o'rganar ekan, bunday so'zlarning sintaktik vazifalarini ham tahlil qilib borishsa, ham leksikologiyani, ham grammatikani baravar olib borgan bo'ladilar. O'qituvchi tomonidan tanlanadigan o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga va mavzu doirasiga muvofiqlashtirishi darsning ta'limiy maqsadini ro'yobga chiqarishda muhim omil bo'ladi. O'qituvchi o'quv imkoniyatidan kelib chiqqan holda darslik va qo'shimcha o'quv materiallaridan foydalanadi. Qo'shimcha topshiriqlarni berishda o'quv vositalarini ham hisobga olish juda muhim. Zamonaviy pedagogikada, albatta, zmonaviy texnikalardan foydalanish kerak. Lekin ularni noo'rin ishlatish o'quvchini chalg'ishiga olib keladi. Shuning uchun ona tili darslarida, o'ylaymanki, o'zbek tili lug'atlari bilan ishlash ko'proq foydaliroqdir. "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tili antonimlar lug'ati", "O'zbek tili sinonimlar lug'ati", "Morfem lug'at" va "Frazologik lug'at" lardan foydalanish

o'quvchilarning so'z boyligini oshirib, ularning yasalish asosi, ma'nodosh va zid ma'nolilari, iboralarning ma'nolari haqida atroflicha bilimga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalar keyinchalik, yuqori sinflarda ham yirik hajmli matn, ya'ni ijodiy insholar yaratishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI MASALALARI

Alimova E'zoza, Toshkent DPU talabasi

Pedagogika ilmi va amaliyotida ko'p zamonlardan beri ta'lim tarbiyadan ustuvor sanalib kelinayotganini bo'lajak hamkasblar talabalik yillarida o'zlashtirayotgan bilimlari asnosida payqagan bo'lishlari kerak. Yurt mustaqilligiga erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta'lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirila boshladi. Endilikda shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatini sog'lomlashtirish, ularga bilimlarni tayyor holda berishdan ko'ra mustaqil fikrlashga yo'naltirish va ta'lim jarayonida o'quvchilarni erkin ishtirokchi darajasiga ko'tarishning yangi-yangi yo'llari qidirilmoqda. O'qitishning asosiy ashyolari bo'lmish darslik, metodik qo'llanma, metodik tavsiyalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga ruhan sog'lom, aqlan barkamol, o'z fikri hamda qarashlariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ham ustuvorlik kasb etmoqda. Yoshlar tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirish o'rniga ma'naviy sifatlarining yetakchiligi, uning ko'ngil istaklari, ma'naviyat shakllantirishda milliy an'analarga tayanish lozimligiga diqqat qaratilmoqda.

Har qanday o'quv jarayonini tashkil etish ancha murakkabliklarga ega. Insoniyat o'qish va o'qitish tarixida juda ko'p shakl va usullarni ixtiro qilgan. Bunday izlanishlar uzluksiz tarzda davom etadi. Bu boradagi dastlabki ixtiro Suqrotning nomi bilan bog'liq. U yo'naltiruvchi savollarga tayangan holda o'rganuvchilarni yangi narsa, hodisalarning mohiyatini bilishga chorlagan. Shuning uchun ham bu usul suqrotona ta'lim usuli sifatida e'trof etilgan. Endilikda rivojlantiruvchi ta'lim tobora kengroq yoyilib bormoqda. Uning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdagi mustaqil, ijodiy faoliyatlarini kuchaytirishga qaratilgan. Tushuntiruvchi-illyustrativ ta'limda ko'rgazmalilikka urg'u beriladi. Bu erda ko'proq o'qituvchining bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda ko'rgazma va namoyish etiladigan ashyolardan foydalanishi hamda ular asosida o'rganuvchilarning amaliy harakatlarni bajarishi nazarda tutiladi. O'zbek tili va adabiyoti ta'limining samaradorligi ta'lim prinsiplariga rioya qilish bilan birga ta'lim metodlari va usullarini to'g'ri tanlashga ham bog'liq. Metod tushunchasining falsafiy ma'nosi hodisalarni kuzatish va ularni

ilmiy jihatdan tasnif qilish bo‘lsa, uning didaktika o‘rganadigan tomoni talabani bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirish va ularni amaliyotda qo‘llash demakdir.

Pedagogika fanlari doktori, metodist-olim A.Q.G‘ulomov ta‘lim metodlarini quyidagi turlariga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi:1. O‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar:— bilimlarni tayyor holda bayon etish metodi;— bilimlarni suhbat vositasida bayon qilish metodi;— bilimlarni muammoli yo‘l bilan bayon qilish metodi.2. Talaba faoliyati bilan bog‘liq metodlar:— reproduktiv (tayyor o‘quv material bilan ishlash) metod;— qisman izlanuvchanlik;— izlanishga asoslangan metodlariga bo‘lish mumkin.

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasining ta‘lim metodlari ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bilan bir qatorda kengayib, rivojlanib bormoqda. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda “Umumta‘lim maktablari uchun Davlat ta‘lim standartlari”ning qabul qilinishi ta‘lim sistemasiga muayyan inson shaxsini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan talablarni qo‘ydi. Yangilangan ta‘lim metodikasi umumjahon pedagogikasida samarali hisoblangan ongli verbal-kognitiv ta‘lim sistemasiga asoslangan holda rivojlantirilishi, interaktiv metodlar asosida takomillashtirilishi zamon talabiga mos, milliy me‘yorlariga uyg‘un bo‘lishi zarur. Yuqorida sanab o‘tilgan an’anaviy ta‘lim metodlarini chuqur o‘rganish, rivojlantirish va umumjahon ta‘lim metodlariga yaqinlashtirishga urinish quyidagi natijalarni beradi:1. Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi:— darslik va o‘quv qo‘llanmalariga asoslanish;— ko‘rgazmali didaktik vositalariga asoslanish (audio-video kassetalar, muayyan mavzudagi magnetofon yozuvlari, ona tilidan slayd-jadvallar, o‘quv kompyuter disketlari, dars mavzularini yoritish uchun mo‘ljallangan o‘quv rasmlari, portret, peyzaj (rang-tasvir), tayyor badiiy-ramziy, ma‘rifiy matnlar).2. Yo‘naltiruvchi ta‘lim metodi. O‘quvchi faoliyatini bosqichli, sistemali yo‘naltiruvchi (yozma va og‘zaki) topshiriqlar asosida jadallashtirish.3. Muammoli ta‘lim metodi.4. Ongli — verbal-kognitiv ta‘lim metodi (Kashfiyot ta‘lim metodi).

Yuqoridagi ta‘lim metodlariga asoslangan holda talaba faoliyatini quyidagicha ta‘riflash mumkin:1. Ongli kuzatish va xotirada saqlash metodi.2. Yo‘naltiruvchi topshiriqlar yordamida izlanish va xulosalar chiqarish, bahs va munozara metodi.3. Muammoni yechishga qaratilgan, maqsadli ijodiy faoliyat metodi.4. Mustaqil va ijodiy izlanish orqali kashf qilish (matn yaratish) metodi.

Talabalar yuqoridagi metodlar yordamida o‘zi egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi, amaliy-ijodiy tatbiq bilan shug‘ullanadi. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Sharqda X—XV asrlarda ijtimoiy - madaniy hayotda yuksalish, ilm - fanda taraqqiyot kuzatiladi. Bu davrda O‘rta Osiyoda yashab, ijod qilgan qomusiy olimlarimiz turli fanlar bo‘yicha erishgan yutuqlari bilan jahon madaniyati, ma‘rifati,

ilmu fan rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Markaziy Osiyoni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy, Abu Iso at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil Juijoniy, Marg'iloniy, Zamahshariy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulkan mutafakkirlar bebaho kashfiyotlari bilan o'z xalqlarining shuhratini olamga yoydilar. Ular ta'lim va ta'biya bobida ham o'chmas iz qoldirdilar. Chunonchi, buyuk mutafakkir Al -Xorazmiy "Sezgi orqalibilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqatdir", —deydi va bilim egallashda ijodiy faoliyatni asos qilib oladi.

Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi ta'lim sistemasida eng qadimiy va sinalgan usullardan biri hisoblanadi. Bu metod bilan ishlashda o'qituvchi ortiqcha toliqmaydi: oldindan tayyor, talaba uchun tushunarli holatga keltirilgan o'quv topshiriqlari va mashqlarni bajarishni tavsiya qiladi. O'quv-texnik vositalardan samarali foydalanadi. Xususan, o'zbek adabiyotini o'qitish nazariyasi hamda metodikasi tarixi haqida gapirilarkan, uni yaqin-yaqinlargacha ham, asosan, Oktyabr inqilobi bilan bog'liq holda talqin va targ'ib etilganini ta'kidlab o'tish joiz. Aslida, turkiy xalqlarda adabiyot o'qitish bilan bog'liq masalalar juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Bu muammoning boshi O'rxun-Enasoy yodgorliklarida o'z aksini topgan, deyish mumkin. Adabiyot va badiiy so'zning mohiyatiga kirish masalalari Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi hayotida har doim juda katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Masalan, O'rta Osiyoning ulug' mutafakkiri Abu Nasr Forobiy ovoz va nutqning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor berib «Ilmlarning kelib chiqishi» («Ixso ul-ulum») nomli risolasida badiiy asami ifodali o'qish, o'qiganini hikoya qilib berish zo'r san'at ekanini alohida ta'kidlagan.

Hozirgi kunga kelib esa o'zbek tili va adabiyotini o'qitishning ilmiy-tadqiqot metodlari qatoriga, ma'lumot yig'ishning aniq maqsadga yo'naltirilganligi; ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va ommalashtirish, ta'lim hujjatlarini tahlil qilish, o'qituvchi hamda o'quvchilar bilan individual suhbatlar tashkil etish kabilarni o'z ichiga oladigan kuzatish; sinalmagan pedagogik hodisalarni har xil sharoitlarda o'rganish maqsadida qo'yilgan ilmiy tajriba ko'rinishidagi eksperiment; ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, aniq sharoit va tartibda o'tkaziladigan, talabalarning ta'limiy hamda rivojlanish darajasini aniq o'Ichaydigan tekshiruv tizimi bo'lmish test; ma'lumotlarni oldindan maxsus tayyorlangan savollar va anketalar ko'magida yalpi tarzda yig'ish shaklidagi anketa so'rovnomalari; ta'lim jarayonining son ko'rsatkichlari aniqlanishiga yo'naltirilgan statistik tahlil; metodik merosni tanqidiy o'rganish; o'quvchi ijodi namunalarni o'rganish va hk.larni kiritish mumkin. Talabalar «Adabiyot o'qitish metodikasi» kursini o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodlarini to'la o'zlashtirsalar: adabiy ta'limning metod va usullari haqida to'liq bilimga ega bo'lishlari, har qanday badiiy matnni ham ilmiy, ham didaktik, ham o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tahlil eta olishlari,

adabiyot darslarini samarali tashkil eta bilishlari, o'quvchilar bilan professional muloqotga kirisha olishlari mumkin bo'ladi.

8-SINF ONA TILI DARSLIGIDA MAVZULARNING YORITILISHI VA ULARNING TANQIDIY TAHLILI

Mirzayev Farrux, QDPI talaba

Biz quyida Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne'matov, Muhabbat Abduraimova, Ra'no Sayfullayeva, Baxtiyor Mengliyev muallifligidagi amaliyotga tatbiq etilgan 8-sinf ona tili darsligini ko'rib chiqib, darslikning yutuq va kamchiliklarini, bo'limning tarkibiy qismlarini tahlilga olamiz hamda o'zimizning ilmimiz yetganicha umumiy xulosalarimizni berishga harakat qilmoqchimiz.

Biz kirish qismining o'zida mualliflarning darslik tuzish maqsad va niyatlarini anglagandek bo'lamiz. Eng xarakterli xususiyati o'quvchining so'zga bo'lgan mas'uliyatini oshirish va til insonning farovon va go'zal hayotining asosi ekanligi qayta-qayta ta'kidlab, tilning ahamiyati va inson hayotini bezaydigan xulq-atvorlar haqida A.Avloniyning hikmatli so'zlarini keltirib o'tadi. Jumladan: 1. Boshimizga kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, me'yordan ortiq so'ylaganimizdan kelur. 5. Hayo deb ishda, so'zda odobga rioya qilmoqni aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdir.

Albatta ,yuqoridagi hayotiy tajriba, hayotiy bilim va ilmlar hamda inson qalbiga kirib borish bu so'z orqali ekanligini tafakkur qilsak, yuqoridagi aforizmlar naqadar o'rinli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Darslikda yangicha an'ana sifatida kitobning boshidan oxirigacha davom etgan va bunga yuksak did bilan yondashilgan tomoni o'quvchining so'z boyligini oshirishga qaratilgan lug'atlar bilan ishlash o'ziga xos darsliklar uchun yangicha yondashuvdir.

Darslikning o'quvchini aniq lug'atlar bilan ishlashga chorlagan va mumtoz asarlardan olingan parchalar asosida turkiy tilning haqiqiy jozibasini va uning qudratini ko'rsatgan hamda shu bilan ona tiliga bo'lgan muhabbatni yanada oshirishga, unda o'lmas asarlar yaratilganini har bir darsda eslatib o'tishdan zerikmagan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, mumtoz asarlardan olingan parchalar insoniyat sivilizatsiyasida va butun sharqda turkiy tilning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish imkonini bergan. Bu mualliflarning katta yutug'idir. Ayniqsa, so'zga mas'uliyat hissini oshirib borish, nutq jarayonida qo'llangan so'zlarni tub ma'nisini bilib qo'llashga chaqirish kitobning boshidan oxirigacha bir maromda olib borilgani e'tiborga sazovordir.

1-bo'lim. O'tilganlarni takrorlash.

6-7- sinf darslarida o'tilgan mavzular ixcham shaklda takrorlangan va bilimlar mustahkamlangan. Jumladan: 7-mashq. Berilgan so'zlarni qanday so'roqqa javob bo'lishiga ko'ra jadvalga joylashtiring.

Kuz, biz, ertalab, o'tirmoq, o'ntacha, buyuk, bormoq, har kim, chopmoq, chiroy, uchala, foydalanmoq, uyqu, chiroyli, bugun, hamma, mardlarcha, befoyda, so'zlammoq, shirin, picha, foyda, uzun, mingta, har narsa, ohista, havo, oltov.

1-mashq.

Quyidagi izohlardan *viqor, kibr, g'urur, gunoh, iffat, harom xarish, hayo, odob, ma'naviy, ma'naviyat, ziyo* so'zlarining ma'nosini aniqlab lug'at daftaringizga ko'chiring:

1) vijdoni poklik, nomus; 2) mag'rurona va ulug'vor ko'rinish, salobat; 3) o'zini hammadan yuqori his etish; manmanlik, kekkayish hissi; 4) insonning o'z qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi; izzat-nafs; 5) odob-axloq doirasiga sig'maydigan ish, nojo'ya xatti harakat; ayb; 6) nopok, iste'molga yaramaydigan; 7) nojo'ya, noma'qul xatti harakatdan tiyilish hissi; uyat, sharm; 8) bilim, ilm, ma'rifat; 9) axloqqa, shaxsning ichki dunyosiga oid; 10) ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq, tarbiya, xushmuomalalik.

20-mashq.

Misollarni ko'chiring. Nuqtalar o'rniga tegishli olmoshlarni qo'yib, qaysi ma'no turiga mansubligini qavs ichida yozing.

21-mashq.

Quyida berilgan izohlardan *lapar, baxil, saxiy, insof, omonlashmoq, yo'ymoq* so'zlarining ma'nolarini topib, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling:

1) birovga hech narsani ravo ko'rmaydigan; sarf xarajatni yoqtirmaydigan;
2) to'y va yig'in, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo'lib birgalikda ijro etiladigan qo'shiq va raqs;
3) birovdan narsasi, iliq so'zi va mehrini ayamaydigan;
4) adolat va vijdon bilan ish tutish;
5) salomlashmoq; vidolashmoq; 6) biror narsaning sababini o'zicha taxmin qilmoq.

27-mashq.

Quyida ravish ma'no turlarining har biriga aralash holda 5 tadan misol berilgan. Ularni ma'no turi bo'yicha jadvalga joylashtiring:

Savol va topshiriqlar:

4. Quyidagi so'zlarni ikki guruhga ajrating: 1) ma'nosi aniq; 2) ma'nosi noaniq: *bormoq, nima, bu, ortiq, o'shanday, kitob, sariq, barcha, ular.*

5. *Anvar va Jahongir – o'rtoqlarim. Ular bilan birga dam oldik. Ular so'zining aynan shu gapdagi ma'nosi aniqmi yoki noaniq? Bu nima evaziga sodir bo'ldi?*

6. Nuqtalar o'rniga mos so'z qo'ying: ...gan ...lar ...magandan ...roq ...adi.

Bu so'zlarni tanlashingizga nima asos bo'ldi?

7. Yaxshi bola yaxshi o'qiydi gapidagi yaxshi so'zlari qaysi belgisi asosida farqlanadi?

Lo'nda qilib aytganda, TAKRORLASHDA aniq terminlar va topshiriqlar bilan ishlangan. 1-bo'limda kamchiliklarni ko'ra olmadik. Mashqlar va topshiriqlar o'quvchining yoshi, bilimi, ko'nikmasi, malakasi, individual xususiyatlar o'ziga xos tarzda inobatga olingan va hatto savol va topshiriqlardan ham umumli foydalanilgan. Yuqorida buni isbotini ko'rdik.

2-bo'lim. IJODIY MATN. INSHO VA UNING TURLARI.

Bu bo'limda ham mavzular har tomonlama to'liq ochib berilgan. Izohga deyarli hojat yo'q. Shunday bo'lsa ham ba'zi o'rinlarga to'xtalib o'tamiz.

42-mashq.

Berilgan rejadagi qaysi qism ortiqcha? Sababini bayon qiling.

HAMID OLIMJON – BAXT VA SHODLIK KUYCHISI

I. Kirish. Hamid Olimjon – o'zbek adabiyotining atoqli namoyandasi.

II. Asosiy qism:

1. Shoir she'riyatida baxtli muhabbat vasfi.
2. Hamid Olimjon she'riyatida Vatan madhi.
3. Shoir ijodida shaxs fojiasi tasviri.

III. Xulosa. Hamid Olimjon she'riyati mangu barhayot!

O'QUVCHNI ZIYRAK VA HAZRAT NAVOIY TA'BIRI BILAN AYTGANDA XURDADON QILIB TARBIYALASHGA YORDAM BERADI.

Bu bo'lim 46 va 48 mashqalarning tarkibiy qismi biroz o'quvchi va o'qtuvchida noaniqliklar keltirib chiqaradi.

46-mashq.

Quyida adabiy va ilmiy insholarning mavzulari aralash holda berilgan. Ularni ajratib yozing. Deya topshiriq berilgan. Mashqning 3- mavzusi "Men sevgan adib" deya nomlangan. Mayli uni adabiy mavzudagi inshoga olaylik. shartli ravishda.

48-mashq.

Berilgan mavzularda erkin mavzudagi insho yozish uchun qaysi sohalarga oid bilimlar zarurligini ayting va fikringizni sharhlang. DEYA TOPSHIRIQ BERILGAN

3- mavzuda "Bobur asarlari ohanrabosi" berilgan. Mening nazarimda shu joyda mavzular o'rnini almasha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lmaydigan bo'lsa, bunday noaniq mavzu berishni hojati yo'q edi.

3-BO'LIM

SINTAKSIS, OHANG VA TINISH BELGILARI

Bu bo'limda sintaksis o'zi nima degani, uni o'rganish obyekti va predmeti nima degan savolga kengroq javob berib ketishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'quvchining ongida uzilish bo'lmagan bo'lardi. So'zlarning bog'lanishidan so'z birikmasi va gap hosil bo'lishi yuzasidan bildirilgan fikrlar mavzuni aniq ochib berishga xizmat qilgan.

Nutqimizda gaplardan foydalanamiz. Gap tarkibidagi so'zlar o'zaro bog'langan bo'ladi. So'zlar bog'lanishi uchun:

1) ular mustaqil so'z turkumlariga mansub bo'ladi. Masalan, *kitob o'qimoq, maktabga bormoq*. Lekin *ukam uchun, telefon orqali* birikuvlari ikkinchi so'zlari mustaqil so'z bo'lmaganligi uchun so'zlarning bog'lanishiga misol bo'la olmaydi; *oyna* so'zining ma'nosi *sinmoq* so'zining ma'nosiga;

2) so'zlarning ma'nolari o'zaro mos bo'lishi lozim. Masalan, *mos*. Ammo *randalamoq, uzilmoq* so'zlariga mos emas. Shuning uchun nutqda ma'nosi mos bo'lmagan so'zlarni bog'lash xato bo'ladi;

3) so'zlarni bog'lovchi qo'shimchalar ham o'z o'rnida bo'lishi kerak. Masalan, *Toshkentda yashayman, ukamning daftari* birikmasida qo'shimchalar to'g'ri qo'llangan. Lekin *Toshkentga yashayman, ukamni* daftari birikmasida qo'shimcha noto'g'ri qo'llangan.

So'zlarning gapdagi bog'lanishi *sintaktik aloqa*, sintaktik aloqani o'rganuvchi bo'lim *sintaksis* deyiladi. Tovushlardan so'z va qo'shimchalar, so'z va qo'shimchalardan gap hosil bo'ladi. Gap bitta so'zdan iborat bo'lishi ham mumkin.

Sintaktik munosabatni hosil qiladigan vositalarni aniq qoida qilib bermay, balki mashq va topshiriqlarning ichida berilishi o'quvchidan yanada sergaklikni va hushyorlikni talab qiladi.

Misol uchun:

22-topshiriq. Tobe so'z hokim so'zga nima vositasida bog'lanishi asosida ularni uch guruhga ajrating:

- 1) qo'shimchalar yordamida bog'lanish;
- 2) ko'makchilar yordamida bog'lanish;
- 3) qo'shimcha va ko'makchilarsiz bog'lanish.

Biroq bu bo'limda ohang nima va uning nutqdagi ahamiyati hamda tinish belgisi nima va uning sintaksisga aloqasi haqida umuman aniq ma'lumot berilmaydi.

4-BO'LIM. GAP.

Yutuq tomoni:

83-mashq.

Matni qayta aytib berishga tayyorlaning. Undagi so'roq va buyruq gaplarni ham darak gap shaklida ifodalang, kabi topshiriqlar.

84-mashq.

Berilgan sodda gaplarni qo'shma gapga aylantiring. Kabi topshiriqlar mavzuni to'laqonli tushunishga yordam beradi.

Tanqidiy tomoni:

So'z yoki so'zlar vositasida anglashilgan fikr gap deyiladi, degan qoida beradi.

Bu , albatta, to'g'ri qoida ,biroq mutaxassis tilshunos va o'z ishiga yuksak mas'uliyat bilan yondashgan mutaxassis bunday to'ntoq va qo'pol hamda ilmiylik darajasi yo'q jumlaning tuzib qo'yishi, albatta, bizni biroz xafa qiladi. Bizningcha, bu qo'pol xatoni keyingi nashrlarda bir qator o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi va bu o'quvchining fanni muayyan darajada ilmiy tushunishga olib keladi.

5-BO'LIM. SODDA GAP SINTAKSISI

Yutug'i: Ushbu bo'limda berilgan qoidalar va ularni mustahkamlash uchun berilgan mashqlar hammasi tushunarli va o'quvchini ongli ravishda hamda mustaqil izlanishga chorlaydi, shuningdek, til hodisalarini teran anglab, bir-biridan farqlashga xizmat qiladi.

Misol: Tushirib qoldirilgan tirelarni qo'ying. Tire qo'llanmaydigan qaysi gap «ortiqcha»? Qatorning kesimga bog'liq umumiy xususiyatini aniqlab, «ortiqcha» uchinchi gaplarni toping.

112-mashq.

Qatorning kesimga bog'liq umumiy xususiyatini aniqlab, «ortiqcha» uchinchi gaplarni toping.

I. 1. Xazonrezlik payti. Hirot bog'lariga suv beradigan Hirirud daryosi va Injil anhorining qirg'oqlariga za'faron yaproqlar to'kilgan. (*P.Qodirov*) 2. Ilk bahor kunlarida Humoyun Hindikush tog'ining janubiy etaklariga yuzdan ortiq chodir tiktirdi. Ularning o'rtasiga ko'krakdor bir joyga ulkan saroparda o'rnatildi. (*P.Qodirov*) 3. To'qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi. (*O'.Hoshimov*)

II. 1. Erta bahor edi. Dam olish kuni edi. Kech turdim. 2. Ilk muhabbat bahor osmonidagi bulutga o'xshaydi. Oppoq. Pokiza. Shaffof. 3. Bola edim... Kuz edi... so'rida dars qilib yotibman. (*O'.Hoshimov*)

105-mashq.

Tushirib qoldirilgan tirelarni qo'ying. Tire qo'llanmaydigan qaysi gap «ortiqcha»?

I. 1. Kiyinishda oliftalikdan qochib, yoqimtoy bo'lishga harakat qiling: odob ko'rkamlik, isrofgarchilik esa oliftalik belgisi. (*Suqrot*) 2. Madaniyat bilan tashqi jilo butunlay boshqa-boshqa narsa. (*R.Emerson*) 3. Saxovat go'zallikdan ko'ra afzalroq. (*G.Geyne*)

II. 1. Maftunkorlik yashnab turgan go‘zallik. (*G.Lessing*) 2. Go‘zallik bu erkin qalb va mustahkam sog‘liq samarasi. (*L.Shefer*) 3.Ma’no yo‘q joyda go‘zallik bo‘lishi mumkin emas. (*E.Bule*)

III. 1. Samimiylik ham xuddi husn va aql kabi ehson. (*V.I. Kachalov*) 2. Ko‘p so‘zlash donolik belgisi emas. («*Qutadg‘u bilig*»dan) 3. Go‘zallik butun olamni qalbgga olib kiradigan kuch va iste’dodga ega. (*M.Servantes*)

Tanqidiy tomoni:

Fe’l kesim soffe’l hamda ravishdosh bilan ifodalanadi, degan qoida beriladi. Eslatma tarzida : guncha qo‘shimchasini olgan ravishdoshgina kesim bo‘lib kelishi mumkin. degan qoidani ham keltirib o‘tadi. Bundan ravishdoshning boshqa qo‘shimchasi kesim bo‘lib kelmaydi, degan xulosaga kelamiz. Biz bunga ham ko‘namiz.

Lekin 98-mashq.

Gaplardagi ajratilgan kesimlarni ikki guruhga ajratib ko‘chiring:

1) so‘z birikmasi bilan ifodalangan kesimlar: ...

2) ibora bilan ifodalangan kesimlar: ... shart qilib berilgan.

Mashqning 3-gapida –b-ib bilan tugagan so‘zlarni ham qora harfga olib kesim sifatida ko‘rsatadi.Bu ham yetmagandek mashqning talabi to‘laqonli bajarilmagan bir so‘zdan iborat kesimni ham mashq tarkibiga kiritib qo‘yilavergan.

3. Rangi quv o‘chib, yupqa lablari titrab, ko‘zlarining paxtasi chiqib ketdi. (*H.Nazir*) 4. Sabr shunday kuchli bir narsadirki, g‘azabni shijoatga, shiddatni halimlikka, kattalikni tavoze‘ga, yomonlikni yaxshilikka aylantirmaklikka quvvati yetar. (*Abdulla Avloniy*)

6-BO‘LIM : IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLAR

Yutug‘i:

Ushbu bo‘limga e’tibor beradigan bo‘lsak, u ikkinchi darajali bo‘lakning hol degan turi bilan boshlanadi. Bo‘limda berilgan qonun-qoidalar hamda mashqlar tushunarli,ularda g‘alizlik va noaniqliklarni o‘qituvchi bilan bemalol hal qilish mumkin , bu o‘quvchiga ham o‘qituvchiga ham yengil va qilayotgan ishidan mamnunlik kayfiyatini shakllantiradi. Agar dars ana shunday ruhda o‘tadigan bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga erishish osonlashadi.

Tanqidiy tomoni:

Barcha gap bo‘laklarining “Bilib oling” qismida maxsus aniq qilib berilgan misollar mavjud bu, albatta, yaxshi, lekin hol mavzusida holning ma’no turlari qisqartirilishi yetmagandek “Bilib oling ” qismida umuman misol berilmagan bu achinarli holat. O‘zi hol eng murakkab gap bo‘lagi , ammo bitta ham misol yo‘q. (Mashqlar bundan mustasno.)

Bizningcha, Bilib oling qismida misollar aniq harakat qilinsa, barcha uchun tushunarli, mashqlar tarkibidagi misollarni ham ba'zilarini ko'rib chiqish kerak, ularda yuqori darajadagi mavhumlik mavjud.

Misol, 3. Insonning haqiqiy fe'l-atvori mayda-chuydalarda: ular inson o'zini nazorat qilishdan to'xtaganda yuzaga chiqadi. Ushbu gapning sintaktik tahlili biroz noaniqliklar kasb etadi. (*Shopengauer*)

4. Inson o'zga kishi oldida ayblariga iqror bo'lgach, ularni darhol unutadi. Ushbu gapning vergulga qadar bo'lgan qismini murakkab hol olish kerakmi, chunki guncha qo'shimchasini olgan ravishdoshgina kesim bo'lib keladi, degan qoidani yuqorida keltirib o'tdik.

2) Mumtoz matn va lug'at bilan ishlash mavzusida berilgan topshiriqlarni 45 daqiqaga sig'dirib bo'lmaydi bizninch, agar shunday bo'lsa, nima uchun buncha topshiriq berdi ekan-a? Buni bilish uchun 4 yil institutda o'qish shart emas-ku!!!

Bunday holatlar yetarlicha uchraydi.

3) Yana bir narsa ,gap bo'laklari tartibi mavzusini aniq konkret qilib hamda to'laqonli yoritib berish mumkin edi. Mualliflar bundan foydalanmagan. Umuman, shu mavzudagi "Bilib oling" qismini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

7-BO'LIM. UYUSHIQ VA AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR, GAP BO'LAKLARI BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN BO'LAKLAR.

Ushbu bo'lim bizni eng ko'p darajada mushohada va muhokamaga chorlaydigan bo'lim desak adashmaymiz . Bizning aynan shu darslikni tanlashimizga ham qaysidir ma'noda 7- bo'lim sabab bo'ldi, desak haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Yutug'i: mashq tarkibidagi gaplar o'quvchida hayotning qadriga yetishni o'rgatadi.

Tanqidiy tomoni:

1) 182-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Ajratilgan bo'laklar bilan kursiv yozuvdagi bo'laklar bir-birining ma'nosiga qanday ta'sir qilayotganini aniqlang. Ular orasida tinish belgilari qanday qo'yilganini o'rganing. deb topshiriq berilgan. Ushbu mashqda aslini olganda umuman xatolik yo'q, lekin berilgan misollarda shu darajada mavhumlik borki ,nafaqat o'quvchi balki o'qituvchi ham biroz emas ancha tormozlanadi. Bizningcha, misollarni aniq va tushuntirishga qulay va o'quvchiga yaqin hamda soda misollarini berish dars faoliyatini yaxshi, samarali tashkil etishning garovidir, qolaversa, o'quvchi ham mavzuni o'zidan qoniqish hosil qilgan holda topshiriqlarni bajarishga olib keladi.

2) Odam ikki marta yashamaydi, lekin bir marta – mazmunli yashashni ham bilmaydiganlar ko'p. (*F.Ryukkert*) 3. Agarda razm solib qaralsa, aksariyat kishilar hayotining ko'p qismi bo'lmag'ur ishlarga, anchaginasini bekorchilikka, umrning yaxlit o'zi esa nokerak narsalarga sarflanadi. (*Seneka*) 5. Farosatsizlik, axloqsizlik

orqasida faqat huzur-halovatga mukkasidan ketganlarning, yengil yelpi fikrlovchilarning hayoti sariq chaqaga ham arzimaydi. (*I.Kant*)

170-mashq. Berilgan gaplardagi tushirilgan tinish belgilarini qo'yib gaplarni ko'chiring. Ushbu mashqni 90 foiz holatda qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

173-mashq. Ajratilgan bo'laklar nima maqsadda qo'llanayotganligiga ko'ra gaplarni ikki guruhga ajratib ko'chiring:

1) ta'kidlash uchun ajratilgan bo'laklar; 2) aniqlashtirish uchun ajratilgan bo'laklar. Aslida bu mashqdan ajratilgan bo'lakni o'zini topish muammo, holatga yetgan muallilarni maqsadi nima o'zi? degan savolni bexosdan o'zingga o'zing berib yuborasan kishi.

1. Darvoqe, o'tgan har bir lahza asli tarix, adabiyot esa, asosan, kechgan voqelik – hodisalar tasviri bilan ish ko'radi. 2. Ammo muallif bunda o'tmish umr sog'inchi yoxud odatdagi qo'msov – nostalgiyani maqsad qilgan emas, boshqa dard, muddaolar ham borki, kitobni o'qiganda anglaysiz.

174-mashq. Gaplarni o'qing. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo'yib, uyushiq va ajratilgan bo'lakli gaplarni ikki guruhga ajrating, tartib raqamlari asosida jadvalga tushiring.

2. Mamlakat to'la qiz, tangri mening peshonamga birorta oqila-yu fozilasini bitmagani g'alati!

Ushbu misolda qaysi biri bor deb ikkilanasan kishi.

190-mashq. She'riy misralardagi ajratilgan bo'lakli gaplarni mos ohang bilan o'qishni mashq qiling hamda tinish belgilarini qo'yib ko'chiring. 4. Turmushimiz ko'rib turibsan mana ketmas davlatimiz fe'limizga mos. Ushbu misolda qaysi biri bor deb ikkilanasan kishi.

Yana bir misol, 8-sinf darsliklarining 4 tala nashri ham kiritma va kirish so'zni bir-birida farqlamaydi. Bizningcha farqlashning vaqti keldi. (ammo 11-sinf darsligi bir-biridan farqlab qo'ygan.)

Umumiy xulosalar:

1. Darslikning yangi nashrlardan katta farqi bor: ilojining boricha o'quvchining lug'at boyligiga katta etibor bergan.

2. Lug'at bilan ishlash ko'nikma va malakani shakllantirib, o'quvchida so'zga bo'lgan mas'uliyatni oshirishgan.

3. Mumtoz matnlar bilan ishlash o'quvchini sabr-toqatli, mulohazali, atrofdagilarni eshitish ko'nikmasi va sharqona odobni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu - Ko'hna mumtoz adabiyotimizga sayr qilish imkonini o'z vaqtida bergan.

4. Mavzular va qoidalar ancha soddalashtirilib, o'quvchining tiliga yaqinlashtirilgan.

5. Sharq va g'arb faylasuflarining hayotiy va ilmiy jihatdan asoslangan fikrlarini mashq tarkibida berish bilan o'quvchida so'zga va axloq-odob qoidalariga e'tiqodni shakllantirishga harakat qilingan va bunga o'qituvchining mahorati bilan erishilgan.

6. Mashq topshiriqlarining ko'pi o'quvchida mantiqni, ya'ni voqea va hodisalar o'rtasida o'xshash hamda farqli jihatlarni mantiqiy jihatdan aniqlab, uning zakiytabligini oshirgan.

БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА КОГНИТИВ ТАЪЛИМ

Тўхтасинова Шохсанам,

Кўқон ДПИ БТМ ва БС талабаси

Мактаб таълими ўқувчининг келжагини белгилашда муҳим таянч бўлиши, ҳозирги кунда таълим жараёнига янада кенг сингиб бораётган замонавий омиллардан ҳисобланади. Чунки ўқувчининг келжаги мактабда у эгаллаган билимнинг нечоғлик пухта, мустаҳкам ва ишончли эканлигига боғлиқ. Мактаб келажакни белгилашда муҳим омил экан, демак шахсни камолга етказишда ўқувчидан ҳам кўра ўқитувчига катта масъулият юклайди. Мактаб мурғак қалбларга дастлабки ҳаёт саҳифаларини ўргатиб, уларни ҳар томонлама ривожланишига, камол топишига хизмат қилади. Шунинг учун ҳам инсон камолотидаги мактабнинг буюклигини эътироф этишда жадид маърифатпарвари Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Мактаб дунё иморатларининг энг муқаддас ва қадрлисидир. Мактабнинг чин ва ҳақиқий манзарасини билган миллатлар жонлари, моллари ила ҳиммат ва ғайратларини сарф этиб, миллатнинг тараққий ривожига ижтиҳот қилурлар”³²³- деган эди.

Бугунги кундаги таълим ислоҳотларидан кўзланган мақсад ҳам келажакимиз бўлган ёшларнинг баркамол ва етук инсонлар бўлишига эришиш борасида олиб борилаётган муҳим саъй-ҳаракатлар саналади.

Бинобарин одам борлиққа ва ундаги воқеликка ўзига хос тарзда, ўз савияси ва дунёқараши асосида ёндашса, ўқиган ва уққан билим ҳамда тажрибаларини амалда қўллай олса катта самараларга эришиши мумкин. Бу эса инсон фарзандини ёшлигидан илм ва унинг амалий муштараклигини билиши, унинг келгусидаги фойда ва зарарини тушунтириши орқали олиб борилиши ғоятда муҳимдир. Шунинг учун ёш қалбларни мактаб ёшидаёқ ўйлашга, мушоҳада юритишга жалб қилиш, бошқача айтганда, “оқ ва қора”ни тез англаб етишига кўмак беради. Айниқса бошланғич синфларда бу каби фикрлашга ундовчи савол ва топшириқлардан кўпроқ фойдаланиш, уларга кенг ўрин бериш билан ўқувчи дунёқарашига ижобий таъсир этиш масаласи

³²³ Баркамол авлод тарбияси.-Т.Академия,2005.6-б.

унинг долзарблигини белгилайди. Ўқувчига бериладиган ҳар қандай билимни тўлалигича гапириб, уни ёдлаб олишга ундаш ҳозирги кунда анчайин эскирган таълим турларидан саналади. Буни педагогикада репродуктив таълим деб юритилади. Хусусан, она тили машғулотларида оддий қоидалар, масалан от, сифат ёки сон каби сўз туркумлари бўйича ўқувчига қоидани ёддан айттириш, уни ёдлаб келишга ундаш, унинг олган билими мустаҳкам бўлганлигига кафолат бермайди. Чунки ўқувчи ўқитувчи айтган ёки китобда ёзиб қўйилган қоидани ёдлаб олса-ю, унга мисол келтириб тушунтириб бера олмаса, тилимиздаги сўзларни ёдлаб олиб айтадиган, тақлидчи тўтиқушдан ўзгача бўла олмайди. “Она тили машғулотларида ўқувчи нутқини ривожлантиришга қаратилган фойдали амалий ишлар ўрнига сон-саноксиз грамматик талқин, қоида ва таърифларни кўр-кўрона “ўзлаштириш”, яъни уларни қориларча ёдлаб олишдан нарига ўтилмади”³²⁴, – деганида А.Ғуломов ҳам айни репродуктив таълимни назарда тутди. Шунинг учун ҳозирги кунда ҳар қандай қоида ёки таърифни ўқувчига бериладиган фикрлашга чорловчи, муаммоли топшириқлар асосида ташкил этиш ёхуд ўқувчини маълум сўқмоққа солиб қўйиб, унинг давомида ўзи белгиланган манзил томон ета олишга ҳаракат қилишидек, қоидани ҳам ўзлари яратишга ундаш, унинг пухта ва самарали, ҳам бир умр ёдида сақлаб қола оладиган даражада билим олишига имконият беришни тақозо этади. Бу усулни когнитив таълим бериш деб юритиш мумкин ҳамда ўқувчи учун ҳам ўқитувчи учун ҳам анча қулай бўлиб, кам вақтда кўп нарсага эриша олиш имконини беради. Албатта, бунинг учун ўқувчини ўқитувчи олдиндан тайёрлаши ҳамда маълум эҳтиёжга яраша билим ва малакалардан хабардор қилган бўлиши ҳам мазкур таълимнинг муҳим жиҳатларидан ҳисобланади. Ўқитувчи бунинг учун ўзи аввало ўқувчиларга ёши ва ўзига хос индивидуал томонларини эътиборга олган ҳолда ёндашиши, иккинчи томондан унга ортиқча юк, босим бериб қийнаб қўймаслигини таъкидлаш керак. Агар иш ортиқча босимда ёки ундаги хусусиятга эътиборсизлик каби йўсинда олиб борилса, кутилган натижа келиб чиқмайди ва ҳатто ўқувчи томонидан ўқитувчига нисбатан ҳурматсизлик келиб чиқиши ҳам мумкин. Бу таълим турини фақат она тили эмас, барча фанлар доирасида ҳам қўллаш катта самара беради. Бироқ юқорида айтилганидек, когнитив таълимга ўтишдан олдин ўқувчи репродуктив таълим асосида қуроллантирилиши, аниқроғи, зарурий билимлар силсиласидаги маълумотлардан хабардор бўлиши шарт. Шундай бўлганда ўқувчи ўз захирасидаги билимлардан фойдалангани ҳолда ижодий фикрлашга, нотаниш масалаларни эркин тарзда ечимини топа олиш малакасига эга бўлиб боради. Бу эса уларнинг келгуси юқори синфларда ўтиладиган бунга нисбатан қийинроқ

³²⁴ А.Ғуломов. *Ona tili o'qitish metodikasi*. Т. 1964 23-б.

бўлган муаммоларни ҳал этишида ҳам бемалол қўл келиши учун йўл очади. Ўқувчиларни бошланғич синфларданок ижодий фикрлашга ўргата бориш уларни келгусида янги ва янги кашфиётлар, конструкторлик ишларини бажаришлари учун замин бўлиб хизмат қилади.

Ўқитишнинг когнитив таълим туридан фойдаланишда айрим тараққий этган мамлакатлардаги каби иш турларидан фойдаланиш, яъни ўқувчини берилган топшириқларга эркин жавоб бериш ҳамда жавобларида ҳаётий мисолларга боғлаб тушунтириш масаласи уларнинг фанга бўлган қизиқишларини янада ортишига имконият беради. Ўқувчини доимий такрорланаверадиган, зерикиш пайдо қиладиган жиҳатлардан холи қилади ҳамда янги билимни янгича усул орқали ўзлари келтириб чиқаришга ўрганиш билан машғулотга бўлган қизиқишлари янада ортиб боради, амалий аҳамиятини етарли ангалай олиши учун ёрдам беради.

CHET TILLARINI UQITISHDA INNOVATSION YONDASHUV METODIKASIDAN FOYDALANISH

M.T. Exsonova, QDPI talabasi

Kelajakni o'ylagan xalq, millat va davlat o'sib borayotgan yoshlarning ta'lim va tarbiyasiga e'tibor qaratadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak ham dunyoni titratgan, o'zining aytar so'ziga ega bo'lgan davlatlarda yoshlarni o'qitadigan va tarbiyalaydigan maxsus muassasalar bo'lgan. Bugungi XXI asr nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, shu kabi maxsus ta'lim muassasalarida tadbiiq qilinayotgan o'qitish tizimini respublikamizning chekka bir nuqtasiga yetkazish vaqti keladimi? Dunyoni aql idrok tafakkur boshqarayotgan hozirgi zamonda kadrlar masalasi birinchi o'rinda turibdi. Hozirgi kungacha davalitimiz rahbari tomonidan 6 ta farmon va qarorlar, Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa 21 ta qarorlar qabul qilindi. Natijada ta'lim sohasidagi huquqiy me'yoriy asoslar mustahkamlandi.

Pedagogning vazifalaridan biri yosh avlodni iste'dodini yaratish, uni rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirishda o'z xissasini qo'shishi lozim.

Ta'lim yo'nalishlaridan biri hisoblangan chet tillarini o'rgatish va o'rganishsiz hozirgi zamonaviy davrda tasavvur qilish mushkul. Albatta mamlakatimiz rahbari tomonidan 2012 yilning 10 dekabrda tasdiqlangan "Chet tillarni o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori chet tillariga bo'lgan e'tiborni isbotidir. Bu esa, o'z navbatida pedagog o'qituvchilarga o'z ustida ishlash, innovatsion yondashuv yordamida o'qitish jarayonini kengroq va batafsil tushuntirish metodlaridan foydalanishlari uchun turtki bo'ldi.

Innovatsiya – (inglizcha “innovation”) ya’ni, “in” -“yangi”, “vatsion” – “kiritish, tadbiq etish” demakdir. Bir so’z bilan aytganda innovatsiya – ta’lim jarayoniga yangilikni kiritish, qo’llashdir.

UNESKO tomonidan tan olingan pedagogik texnologiya oqimi 30-yillarda AQSHda paydo bo’ldi va 70-80 yillarda barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab oldi.

Ta’lim nazariyasi va amaliyotida o’quv jarayoniga texnologik hususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko’rilgan. Ular o’z ifodasini an’anaviy o’qitish uchun mo’ljallangan majmualar texnik vositalarning yaratilishida namoyon qiladi.

Mashhur marketolog Djorj O’shonessining “...kitoblar hech qachon tajriba o’rnini bosa olmaydi degan fikriga qo’shilish mumkin. Mahoratli oshpaz oshpazlik to’g’risida kitob yozishi mumkin, uni tayyorlash yo’liga amal qilib, huddi shunday chiqishni kutmaslik kerak, chunki uning mahorati bilan taqqoslab bo’lmaydi-berilgan qoidani ishlatib muhim ko’nikma va malakalarga ega bo’lish mumkin emas, ular faqat amaliyotda egallanadi va “qo’llaniladigan donishmandlik” deb ataluvchi amaliyotli donishmandlik bilan mustahkamlanadi, ya’ni vaziyat bilan muvofiqlikdagi donishmandlik”(Dj. O’shonessi, 2000)

Chet tilini o’qitishda qo’llanadigan usullar zamonlar o’zgargan sayin yillar davomida o’zgarib boradi. Shunga qaramay odamlarning manfaati va ularga qiziqishi va o’rganishi kerak bo’lgan har qanday narsa, usullar ham zamonga moslashib boradi. Hozirgi zamon o’qituvchilari eski usullardan emas, balki interfaol, innovatsion usullardan foydalanishi va uni o’quvchilarga taqdim etishi lozim. Hozirgi yoshlarni an’anaviy yo’nalishlarda emas ya’ni og’zaki tushuntirib, yozish emas, balki o’quvchilarni interfaol usulda jalb qilinib, ularni doimiy ravishda kuzatib borish kerak. Chunki O’zbekistonning yosh va navqiron avlodi ko’p imkoniyatlarga egadir.

Ushbu maqolada ingliz tilini o’qitishda kerak bo’ladigan turli xil usullardan foydalanish va shu bilan birga chet tili darslarini yanada qiziqarli olib borilishi kuzda tutilgan.

Masalan, deylik sinfda 15 nafar o’quvchi bor, bu esa o’qituvchi uchun 15 xil xarakterga ega bo’lgan shaxslarga nisbatan individual ravishda yondashish zarurligini anglatadi. Kuzatuv jarayonida 3 xil toifaga bo’laman: 1) tushuntirishning hojati yo’q, 2) qayta tushuntirish zarur, 3) birga shug’ullanish kerak.

Metod (yun. *metodos* — bilish yoki tadqiqot yo’li, nazariya, ta’limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o’zlashtirish, o’rganish, bilish uchun yo’l-yo’riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Chet tillarni o’rganishda ham bir necha metod va usullarni foydalanish samarali foyda beradi.

Chet tili o'qitish metodikasi, prof. Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandır.

Ta'lim berish usullarini tanlash.

Ta'lim berish usullarini tanlash va qo'llashda ko'pgina qo'yidagi didaktik omillarni e'tiborga olish muhim:

- **Maqsadni belgilash:** 1) ta'lim berish maqsadi; 2) pedagogik vazifalar; o'quv faoliyat natijalari.
- **O'quv axborot mazmuni hajmi va murakkabligi:** maqsad va ushbu o'quv fanini xususiyati, shu tariqa bu fanni shunchalik murakkab deb qabul qilingan.
- **Ta'lim berish usullarini o'quv axborotini egallashlariga ta'siri:** G. Mayyerga muvofiq, 72 soatdan (uch sutkadan) o'tganda, ma'lumotni eshitish orqali qabul qilingandan so'ng
 - tinglovchi xotirasida -10%;
 - ko'rish orqali- 20%;
 - ko'rib eshitish orqali- 50%;
 - ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada- 70%;
 - ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada, amaliy imkoniyatlarni qo'llanilganda- 90% axborot qoladi.
- **Ta'lim oluvchilarni o'quv imkoniyatlari:**

Tayyorgarlik darajasi, umumo'quv malakalarni shakllanganligi, faolligi, qiziqishi va yo'naltirilganligi, yoshi, ishlash qobilyati, o'zoga xos imkoniyatlari va qobilyatlari.
- **Vaqt sarfi:** 1) o'quv dasturda yil davomida o'quv faniga, uning alohida mavzulariga ajratilgan vaqt, shunchalik cheklangan bo'lishi mumkinki, bu esa ko'p vaqt oladigan usullarni maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llash imkonini beradi;
2) vaqt u yoki boshqa usulni tayyorlash va amalga oshirishda mehnat sarfini ketish nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi.

- Ta'lim berish sharoiti:

Ba'zi usullarni amalga oshirish uchun alohida sharoitlar talab etiladi: ta'lim berishning texnik vositalari, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, nagnitli yozuv taxtasi, maxsus jihozlangan xona va boshqalar.

- **Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi, jamoadagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari** (hamkorlik yoki so'zsiz bo'ysinishlik)
- **Ta'lim oluvchilar soni:** agarda u katta bo'lmasa, ta'lim berishni faol ta'lim usullarini qo'llab, jadallashtirish mumkin.
- **Ta'lim beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatlari:** ma'qul deb topilgan usullarni qo'llashni bilishi va uddalashi, talablarga mos shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Qo'shimcha omillar:

- *Mavzuni o'rganishni (mustaqil / ta'lim beruvchi rahbarligi ostida) tashkillashtirish yo'li: Qay tarzda?*
- *Didaktik vositalar: Qaysilari?*
- *Faollikni rag'batlantiruvchi usullar: Qaysilari?*
- *Nazorat va o'z-o'zini nazorat: Qaysilari?*

An'anaviy ta'limning innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limdan farqi:

An'anaviy ta'lim berish	Texnologik yondashuvga asoslangan ta'lim berish
Konseptual asoslar	
<p>Ta'lim oluvchiga yondashish bo'yicha nazoratli nasihatgo'y, egallab bo'lingan usul bo'yicha qayta tiklashli, ta'lim oluvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini bostiruvchi, qat'iy tashkil etilgan bo'ysinish asosidagi (avtoritar) ta'lim.</p> <p>O'rta ta'lim oluvchi imkoniyatlari, ularni o'zlashtirish va bilimlarni qayta tiklashlariga yo'naltirilgan ta'lim.</p> <p>O'rganish- eslab qolish vazifasi, dars berish esa- asosiy faoliyat.</p> <p>Ta'lim paradigmasi: ta'lim beruvchi-kitob-ta'lim oluvchi</p>	<p>Shaxsga yo'naltirilga ta'lim va ta'limga tizimli –harakatli yondashishga asoslanadi.</p> <p>Ta'lim oluvchi shaxs- ta'lim jarayonining markaziy egasi. Munosabatlarning insonparvarligi va erkinligi, o'qishga majburlashdan voz kechish.</p> <p>Tabaqalashtirish va individuallashtirish; umumiy ta'lim oluvchining aqliy rivojlanish darajasi va ushbu fanni ular tomonidan o'zlashtirilishini hisobga olish.</p> <p>O'rganish- aqliy rivojlanish, mustaqil egallash jarayoni va asosiy ta'lim oluvchilarning egallagan bilimlarini qo'llay olishlari; hususiyati bo'yicha muammoli, izlanuvchan, ijodiy.</p> <p>Ta'limning yangi paradigmasi, ya'ni: ta'lim oluvchi –kitob-ta'lim beruvchi</p>
Ta'lim oluvchining tutgan o'rni va vazifasi	
<p>Ta'lim beruvchi ta'siridagi bo'ysunuvchi ob'yekt.</p> <p>Bilim- birdan-bir maqsad</p> <p>Xato-jazolanadi</p>	<p>Mustaqil bilish faoliyatini olib boruvchi, ta'lim jarayonining teng huquqli subyekti.</p> <p>Bilim- shaxsiy muammolarni hal etish vositasi.</p> <p>Xato qilishga haqqi bor-xatolarda</p>

	o'rganadi.
Ta'lim beruvchining tutgan o'rni va vazifasi	
Kitob bilan birga, yagona tashabbuskor shaxs-bilish sub'yektini nazorat qiluvchi asosiy bilim manbai:boshqaruv organlarining rahbarlik buyruqlarining bajaruvchisi	Ta'lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatlari tashkilotchisi, ularning mas'ul maslahatchisi va yordachisi. Ta'lim oluvchilarning nafaqat BMK (Bilim, Malaka, Ko'nikma) nazoratini, balki ehtimoliy chetga chiqish o'z vaqtida to'g'irlash maqsadida ularning ta'lim berganlik tashhisini ta'milaydi.
Ta'lim berish va o'rganish usullari.	
Tayyor bilimlarni og'zaki bayon qilish orqali bildirish. Oddiydam umumiylikka induktiv mantiqqa, mexanik eslab qolishga, qayta tiklash (o'zgarishsiz qaytarish) bayoniga asoslangan, namina bo'yicha ta'lim berish. Natijada ta'lim oluvchilarni sustlashlikka, nutq faoliyati bo'shshishigacha olib keladi.	Muammolarni izlash, bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan, muammoli vaziyatlarni yaratish, faol bilishning ijodiy tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan faol ta'lim berish usullari.
Ta'lim berish vositalari.	
Ta'lim beruvchi so'zlari, ko'rgazmali va texnik vositalar. Murakkab (texnik) tilda yozilgan o'quv adabiyotlar, shu bois qabul qilishga murakkab; asosiy uy vazifasi uchun qo'llaniladi.	An'anaviy vositalar bilan bir qatorda-axborotli texnologiyalar, o'quv materiallar ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash uchun ishlatiladi.
Ta'lim berishni tashkillashtirish shakillari	
Ommaviy ta'lim berish: ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan ajralgan munosabatda; mustaqillikning yetishmasligi. Ta'lim beruvchi faqat pedagogik faoliyatni rejalashtiradi. O'zlashtirilgan BMK (Bilim, Malaka, Ko'nikma) nazorati.	Maqsadni belgilash: yakuniy o'quv natijalarining mezonli chelanuschidek, tashhisiy belgilangan maqsadlarni kafolatli erishishga yo'naltirish; olingan natijalar sifatini o'lchashning mezon va ko'rsatmalari mavjud. Nafaqat bashorat qiladi, balki pedagogik faoliyatini loyihalaydi va rejalashtiradi, shu bilan birga o'quv faoliyatining mazmuni va tuzilishini ishlab chiqadi,ta'lim oluvchilarni mustaqil o'quv-bilish faoliyatlarini bashorat qilinayotganlarida,

<p>Miqdoriy baho- baholash majburiylik vositasi hisoblanadi, ta'lim beruvchining ta'lim oluvchi ustidan hamkorlik qo'roli bo'lib xizmat qiladi: ta'limoluvchi faoliyatining yakuniy tahlili va baholanishi</p>	<p>rajalashtirayotganlarida va tashkillashtirayotganlarida ularning tashabbuslarini oshiradi va qo'llab-quvvatlaydi.</p> <p>Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan ta'lim jarayonini o'quv diologidek tuzadi; ularda mustaqillikka intilishni rivojlantirish uchun, o'zi mustaqil ta'lim olishga tayyorgarlik, o'z-o'zini bilishi, o'z-o'zini amalga oshirish va o'z-o'zini taqdim eta olish qobiliyatlari uchun sharoit yaratadi.</p> <p>Nafaqat BMK (Bilim, Malaka, Ko'nikma) nazorati, balki, ta'lim berilganlik, rivojlanish, tarbiyalanganlikning monitoringi.</p> <p>Ta'lim beruvchi umumiy natijani baholaydi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlikdagi mehnatlarini tahlil qiladi: ko'zlanayotgan natijalarga nima uchun erishilmadi yoki qisman erishildi.</p>
--	---

Alternativ(Muqobil) baholash usuli

Soha egalarining maqsadi shundan iboratki, ta'lim oluvchilarning kommunikativ qobiliyatini o'stirish va ularni an'anaviy usullardan emas balki, alternativ baholash usullari bilan olib borishi lozim. Muqobil (alternative) baholash o'quvchilarni o'zlashtirilmagan tomonlariga emas kuchli tomonlarga qaratilgan faoliyatdan samarali foydalaniladi. Bunday baholashning hususiyatlari quyidagilardan iborat:

- O'qituvchi va talaba ham savollarga to'g'ri javob beribgina qolmasdan o'zaro kommunikativ suhbat qilishga e'tibor qaratiladi;
- U aniq muayyan vazifalarga asoslanadi;

Muqobil (alternative) baholash usulidan foydalanilganda, tinglovchi o'zini va tashqi tomonlarni berilgan yangi ma'lumotlarni baholashda faol bo'ladi. An'anaviy baholash usuliga o'rgangan o'quvchilar bu muqobil baholash usuliga kunikishlari qiyin bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar asta-sekin alternativ baholash usullarini, bunda o'quvchilar bu baholash usuliga moslashishlari uchun vaqt ajratish va uni dars jarayonida foydalanib borishlarini tavsiya qiladilar. Ikkinchidan har bir o'qituvchi dars davomida shart-sharoiti mavjud o'quv xonasi ajratishi zarur bu zamonaviy ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. U yerda o'quvchi o'z xato fikrlarini tuzatilishidan,

o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan tanqid qilinishi va bironing fikrini ustidan kulishidan qo'rqmasdan gapirishi kerak. Talabalar har kim ham xato qilishi mumkiligiga, ularing xatolaridan o'rnak olib o'rganish mumkinligiga muqobil (alternative) usul orqali mustahkamlanib borishlari lozim. Uchinchi, o'qituvchilar shu usulni qay darajada o'quvchilarga yetkazib tushuntirib bera olganliklarini o'quvchilarni baholashga nisbatan o'zlarining fikrlari va tushunchalarini an'anaviy usullarni va muqobil (alternative) usullar to'g'risida qay darajada fikrlay olishlarini bilib olishlari kerak va shu bilan birgalikda muqobil (alternative) baholashning ahamiyatini aniqlanadi.

Interfaol (Interactive) usul

Interfaol (interactive)- suhbatli

Interfaol ta'lim berish- suhbat orqali ta'lim berish, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faol bo'libgina qolmasdan, ta'lim oluvchi va kompyuter o'zaro harakati amalga oshiriladi.

Interfaollik ta'lim berish tizimida umuman yangi hodisa, bunga binoan ta'lim beruvchi:

- O'qituvchi, o'quvchi va muassasa ma'muriyati o'rtasidagi shaxsiy uchrashuv yo'li bilan emas, balki ta'lim jarayonining barcha sub'yektlari bilan faol tarzda o'zaro harakat qilishi mumkin;
- Multimediali ob'yektlarni o'rganish jarayonida ularning mazmun mohiyatini, shakli, o'lchovini o'zgaruvchan boshqarish, eng ko'p ko'rgazmalilikka erishishda to'xtatish va xoxlagan joyida yana ishga tushurishi mumkin.

Interfaollik darajasi qancha yuqori bo'lsa, ta'lim berish jarayoni shuncha natijali bo'ladi.

Ta'lim usullarini ta'limiy maqsadlarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi (o'rgatish) va ta'lim oluvchini (o'rganish) hamkoriy faoliyati yo'li sifatida ko'rsatish ular xususiyati va o'quv faoliyati natijalari bo'yicha quyidagicha guruhlashtirish imkonini jadval ko'rinishida beradi:

Usullar guruhi	O'zaro bog'liq faoliyatni tashkillashtirish yo'li	Faoliyat mazmuni
1-guruh	Ma'ruza	Ta'limberuvchi: eng kam vaqt ichida katta hajmdagi o'quv axborotini yetkazadi va xotirada qabul qilish, anglash va yig'ishni tashkillashtiradi
	Hikoya	
	Tushuntirish	
	Yo'riqnomalar berish	
	Namoyish	
	Ko'rsatish	
2-guruh	Videosul	Ta'lim beruvchi: bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, yangi bilimlarni qidirish, namuna
	Kitob bilan ishlash	
	Laboratoriya usuli	

		bo'yicha harakatlarni bajarish malaka va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi.
	Mashq	Ta'lim oluvchilar: bevosita ta'lim beruvchining boshchiligida tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, tayyor namuna bo'yicha amaliy harakatlarni bajaradilar.
	Amaliy ish usuli	
3-guruh	Suhbat	Ta'lim beruvchi: faqat bilimning bir qismini ma'lum qiladi, ta'lim oluvchilarni bilimni izlab topish qadamlarini bajarishga yo'naltiradi, turli muammoli vaziyatlarda o'qish-o'rganish jarayonini tashkillashtiradi.
	Bahs	
	Aqliy hujum	
	Ta'limiy o'yin	
	Pinbord	Ta'lim oluvchilar: ta'lim beruvchining kuzatuv ostida mustaqil taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, xulosa qiladilar, baholaydilar va tahlil qiladilar, muammoli holatlarni hal etadilar va nostandart topshiriqlarni yechadilar.
	Insert	
Vaziyatlar usuli		
4-guruh	O'quv loyihalar usuli	Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi.
	Case study	Ta'lim oluvchilar: ular uchun yangi bo'lgan muammolarni yechish jarayonida bilimlarni mustaqil izlaydilar, kutilayotgan natijalarga erishishning yo'l va vositalarini o'zlari aniqlaydilar.

Videosul

Ko'rish usuli- axborotni ko'proq ko'rgazmali kodoskop, proyektor, kinoapparat, o'quv televideniya, shuningdek axborotni displey bilan aks ettiruvchi kompyuterlar bo'yicha qabul qilishga qaratiladi.

Laboratoriya usuli

Laboratoriya usuli- bu shunday usulki, bunda ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi rahbarligi ostida va oldindan tayyorlangan reja bo'yicha tajribalar o'tkazadilar yoki amaliy topshiriqlarni bajaradilar, shu jarayonda yangi bilimlarni qabul qiladilar va anglab yetadilar.

Insert

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.

Insert – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi. Shundan so'ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

Insert – matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol ko'zatish imkonini ta'minlovchi kuchli asbob.

Insert – o'zlashtirishning majmuali vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir.

Pinbord

Pinbord (inglizchadan: *pin*-mahkamlash, *board*- yozuv taxtasi) muozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

Ta'lim beruvchi:

- Taklif etilgan muammoni yechishga o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.
- Ommaviy to'g'ri aqliy hujumni tashkillashtiradi.

Ta'lim oluvchilar quyidagi g'oyalarni:

- Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko'p maqbul (sanmarali va boshqa g'oyalarni tanlaydilar va ularni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar ko'rinishida 2 so'zdan iborat bo'lmagan) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.
- Guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba) yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:
 - aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar;
 - tortishuvlarni aniqlaydilar;
 - g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilar bo'yicha aniqlaydilar;
 - shu belgilar bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka\ varaqlar).

Ta'lim beruvchi:

- Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Ta'limiy o'yin

Ishbilarmon va rol (holat) li o'yinlar muammoli topshiriqning bir turi faqat bunday holatda matnli material o'rniga, ta'lim oluvchilar tomonidan o'ynaladigan sahnalashtirilgan hayotiy holatlar ishlatiladi.

Loyihalar usuli

Loyihalar usuli- bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o'qitish usulini amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o'qitish usullaridan foydalanishiga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar.

Loyihalarda o'qitish nafaqat natijalar, jarayonining o'zi ham qimmatli.

Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin.

Vaziyatlar usuli

Vaziyatlar usuli- ta'lim beruvchining muammoli vaziyatlarni yaratishga va ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyatlariga asoslangan. U aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va keyingi qarorni qabul qilishdan tuzilgan.

Keys- stady.

Ta'lim berish vaziyati- **keys-stady** (*case* ingliz. – to'plam, aniq vaziyat, *study*-o'rganish) – bu usul, odatiy hayotni tashkillashtiruvchi vaziyatlarni yaratuvchi va ta'lim oluvchilardan maqsadga muvofiqroq yechim izlashni talab qiluvchi, hayotdan olingan odatiy vaziyatlarni tashkillashtirish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslanadi.

Keys- ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq yechim izlashga yunaltiruvchi bir guruh insonlar yoki alohida shaxslarni hayotiy tashkillashishidan olingan ma'lum sharoitlarini bayonli taqdim etishdan iborat.

- qo'shimcha axborotlardan, jumladan audio, video va elektron yetkazuvchilar va o'quv- uslubiy materiallardan iborat.

Keys ta'lim oluvchilarga tahlil qilish, tenglashtirish yo'llarini qidirish va muammoni yechish erkinligini beradi.

Keys ko'rib chiqishda ta'lim oluvchilar ta'lim olish jarayonini yaratadilar va jarayonda o'zaro harakatda haqiqiy fikr almashish holatlarini yaratadilar.

Keys topshiriq.

1. Yosh mutaxassis maktabda faoliyat ko'rsata boshladi. Uning maktabdagi pedagoglar jamoasi o'rganishidan shu narsa ayon bo'ldiki, mazkur jamoada birlik yuq. Ya'ni, ular maktab direktori va o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rin bosari tarafdorlaridan iborat ikki guruhga ajralishgan. Bunday vaziyatda yosh mutaxassis qanday yo'lni tanlash kerak deb o'ylaysiz?
2. Siz rahbarlik qilayotgan sinfdagi o'g'il bolalar bilan qizlar guruhi o'rtasida o'zaro kelisha olmaslik holati yuz berganligi ma'lum bo'lib qoldi. Ayting-chi, bunday vaziyatda siz qanday usulni tanlagan bo'lardingiz?
3. Yosh o'qituvchining darsini kuzatish maqsadida maktabdagi uslubiy Kengash a'zolari uning darsiga kirishdi. O'qituvchi darsni boshlanganligini o'quvchilarga bildirdi. So'ngra u dars ishlanmasini olish uchun sumkasini ochdi. Qaysi ko'z bilan ko'rsinki, sumkada dars ishlanmasi yo'q edi (esidan chiqarib dars ishlanmasini uyda qoldirgan). Ayting-chi, o'qituvchi bunday holatda vaziyatdan chiqishi uchun nima qilishi kerak?

Keys topshiriqlarning javobi

1. Yosh mutaxassis shoshmasdan har ikkala tomonning xatti-harakatini atroflicha o'rganishi va nihoyat, qaysi tomon adolatli bo'lsa o'sha tomonga qo'shilishi mumkin.
2. Har ikkala guruh bilan alohida-alohida suhbatlashishi va chiqisha olmaslik sabablarini aniqlashi, shu asosda tegishli chora-tadbirni amalga oshirishi kerak.
3. a) Bunday holatda o'qituvchi o'zini bosib olga holda darslik yoki qo'llanmaga asoslanish asosida mashg'ulotni davom ettirish lozim.
b) Agar yangi mashg'ulot mavzusi bo'lmasa, u holda darsni amaliy mashg'ulot shaklida tashkil etishi ham mumkin

Xozirgi kunda ta'lim sohasiga bo'lgan talablarni his qilgan tarzda bir to'xtanga kelish lozim. Buning uchun esa, yurtimizning "Oltin fondi" hisoblangan yosh avlodni o'stirib tarbiyalashda o'z xizmati va mashaqqatini ayamay ilm cho'qqilarini egallashda, qolaversa, globallashuv davrida iqtidorli yoshlarni jahon arenalariga chiqib ko'plab yuqori natijalarni egallayorganlari maqtovga sazovordir.

Shu bois xulosa o'rnida aytish joizki, yaqin kelajakda vatan ravnaqi yo'lida sodiq xizmat qiladigan intellektual savodga ega yosh kadrlar soni ko'payadi. Ushbu natijaga zamin yaratish pedagog o'qituvchilarning mehnatini talab qiladi. Mashhur bir jahon spikeri o'z chiqishida quyidagi so'zlarni aytib o'tgan "Zamon bilan hamnafas bo'lish uchun yurib turish kerak, o'zib ketish uchun esa, yugurish lozim" degan. Albatta bu majoziy ma'noda, lekin chuqur tahlil qilinsa, xozirgi innovatsion g'oya va fikrlar asosida vujudga kelgan yangi texnologiyalar davrida biz yoshlar ortda qolishga haqqimiz yo'q.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'lim berish bu bir ma'suliyat va vazifa talab etadigan yo'nalish va pedagog tom ma'noda psixolog bo'lishi auditoriyadagi tinglovchilarni xatti-harakatlari va boshqa jihatlarini tushunadigan soha egasi bo'lishi lozim deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Isamitdinov "Pedagogik mahorat asoslari". O'quv-uslubiy qo'llanma T., Navro'z – 2017, 64-67 b.
2. L. Golish, D. Fayzullayeva "Innovatsion ta'lim texnologiyalari". T., Iqtisodiyot – 2011. 1-qism 5 band 23-28, 47-50, 52-70 b.
3. J. Jalolov "English language teaching methodology". T., Fan va texnologiya – 2015, 16 b.

OTLARDA BIRLIK VA KO'PLIK MAVZUSINI O'RGATISH TAJRIBASIDAN

D.Meliqo'ziev, Qo'qon DPI talabasi

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasida ijobiy ishlar amalga oshirimoqda. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu albatta ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchi tomonidan darslarni axborot texnologiyalaridan foydalanib tashkillash va taqdimot shaklida tashkillash o'quvchilarda ona tili faniga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishi tabiiy. Biz quyida umumiy o'rta ta'lim maktablarining beshinchi sinfida o'tiladigan "Otlarda birlik va ko'plik" mavzusini o'rgatish bo'yicha uslubiy tavsiyamizni ishlab chiqdik.

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu	Otlarda birlik va ko'plik
Mavzuga doir	Kim? nima? Kimlar? Nimalar?shaxs, bola, buvijon, ota, qor, chana,

tayanch soʻzlar	dehqon, bogʻbon, kasbga oid soʻzlarga soʻroq berib, ularni farqlashni oʻrganish
Mavzuning qisqacha taʼrifi	Oʻquvchilarni birlik va koʻplikdagi otlar bilan tanishtirish, birlikdagi otlar bilan koʻplikdagi otlarni farqlash, mashqlarni toʻgʻri bajarish va husnixat asosida yozish malakasini rivojlantirish;
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<i>Metod:</i> “Blits-soʻrov”, „Charxpalak”metodlari <i>Shakl:</i> Jamoa, guruh bilan ishlash. <i>Jihoz:</i> Mavzuga oid rasmlar, videofilmlar, multimediyalar, tarqatmalar asosida. <i>Nazorat:</i> Oʻquvchilarni darsda faolligi kuzatilib, husnixatlari nazoratga olinadi. <i>Baholash:</i> Oʻquvchilar baholanib, ragʻbatlantirilib, reytingi dars oxirida eʼlon qilinadi.

Darsning maqsadi:

Taʼlimiy maqsad: oʻquvchilarni birlik va koʻplikdagi otlarhaqidagi nazariy maʼlumot bilan tanishtirish, birlikdagi otlar bilan koʻplikdagi otlarni farqlash, mashqlarni toʻgʻri bajarish va husnixat asosida yozish malakasini rivojlantirish;

Tarbiyaviy maqsad: oʻquvchilarda doʻstlik, hamjihatlik, kasblarga nisbatan mehr, sinf jihozlarini avaylab asrash kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi maqsad: birlikdagi va koʻplikdagi otlarni farqlash koʻnikma va malakalarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija:

Dars yakunida oʻquvchilar kim? nima? Kimlar? Nimalar? soʻroqlariga javob berish malakasiga ega boʻlishadi. Birlikdagi va koʻplikdagi otlarni farqlashni oʻrganadilar. Oʻquvchilarda doʻstlik, hamjihatlik, kasblarni sevish xususiyatlarini shakllanadi

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I bosqich: Tashkiliy qism	1. Salomlashish, yil fasllari haqida suhbat. 2. Oʻquvchilar davomati aniqlanadi. 3. Har bir oʻquvchining darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	Suhbat	3 daqiqa
II bosqich: Oʻtilgan mavzuni soʻrash va mustahkam- lash	Dars davomida rioya qilish lozim boʻlgan: husnixat bilan yozish, mashqlarni bajarishga faol qatnashish, dars shiori ishlab chiqish; Oʻtilgan darsni „Tezkor savol- javob” metodi orqali soʻrab baholash;	Munozara	5 daqiqa
III bosqich: Yangi mavzu bayoni	1. Yangi mavzu oʻtishga tayyorgarlik koʻrish; 2. Oʻqituvchi ot soʻz turkumi, haqida tushuncha beradi va birlikdagi hamda koʻplikdagi otlarni farqlashni koʻrgazmalar orqali tushuntiradi	Suhbat Musobaqa Suhbat	

	3.“Tarmoqli klaster” usuli orqali o`quvchilar bilimi tekshiriladi; 4. Mashqlar bajariladi;	Husnixat Og`zaki savol-javob	20 daqiqa
IV bosqich: Yangi mavzuni mustahkam- lash	Yangi mavzuni turli o`yinlar orqali mustahkamlanadi.,„Charxpalak” metodi orqali mustahkamlanadi.	Didaktik o`yin	7 daqiqa
V bosqich : Baholash. Dars yakuni	O`quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e`lon qilinadi va dars yakunlanadi. Rag`bat kartochkalari beriladi.	Og`zaki	3 daqiqa
VI bosqich: Uyga vazifa	223-mashq tushuntiriladi.	Tushuntirish	2 daqiqa

Darsning borishi:

1.Tashkiliy qism.

O`qituvchi sinfga kiradi. O`quvchilar bilan salomlashadi.Hamma o`quvchilar o`quv qurollari borligini tekshirib chiqadi.

O`qituvchi: Demak, hamma darsga tayyor. Bolajonlar, bizlar dars davomida nimalarga, qaysi qoidalarga rioya qilishimiz kerak?degan savoliga o`quvchilar quyidagicha javob berishlari mumkin: Biz ona tili darsida asosan husnixat bilan yozish va mashqlarni bajarishga faol qatnashishimiz kerak.

O`qituvchi: Bugungi ona tili darsimizning shiorini ayta olasizmi? degan savolga o`quvchilar beradigan javoblari shunday bolishi mumkin:Ona tili darsimiz- onam tili darsiz. O`zbek tilini chuqurroq- o`rganishdir burchimiz.

II. O`tilgan mavzuni so`rash va mustahkamlash.

O`tilgan mavzuni mustahkamlashda tezkor savol- javob usulidan foydalaniladi.Topshiriqni bajarish uchun sinf o`quvchilari uch guruhga bo`linadi va ularni quyidagicha nomlaydi:

DONOLAR

1)Ot deb nimaga aytiladi?
2) Shaxslarni bildiruvchi otlarga misol keltiring?
3)Kishilarning kasbini bildiruvchi otlarga misol keltiring?



**Soylar to`lib oqadi,
Qizlar chechak taqadi,
Xushbo`y hidlar sochadi.
Bu qaysi fasl?**

ZUKKOLAR


1) O`quv qurollarini bildiruvchi otlarga misollar keltiring?
2)Shaxsni bildirgan otlar qanday so`roqlarga javob bo`ladi?
3)Ot qanday so`roqlarga javob bo`ladi?



**Turnalar hoy turnalar
Pastlab uchingiz
Bizning ko`l va daryolar
Bag`rin quchingiz**

ZIYRAKLAR

1) Tabiat hodisalarini bildiruvchi otlarga misollar keltiring?
2) Transport vositalarini bildiruvchi otlarga misollar keltiring?
3)Kasbga oid otlar qanday so`roqlarga javob bo`ladi?



**Ishlaringiz „besh” bo`lsin!
Quvonch sizga yor bo`lsin
Hoy, bolalar ,bolalar,
Chamandagi lolalar**

III. Yangi mavzuning bayoni: O'qituvchi „Otlardagi birlik va ko'plik" mavzusi yuzasidan o'quvchilarga nazariy tushunchalar beradi:

Shaxs va narsaning nomini bildirib kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlar ot deyiladi. Otlar birlik shaklida (*o'quvchi, bulbul*) va ko'p shaklida (*o'quvchilar, bulbullar*) qo'llanadi.

Birlikdagi otlar kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladi. Ko'plikdagi otlar kimlar? yoki nimalar? so'rog'iga javob bo'ladi. -lar qo'shimchasi birlikdagi otdan ko'plikdagi ot hosil qiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Darsning bu bosqichida darslikdagi mashqlar bajartiriladi. Jumladan, 221- mashq shartiga ko'ra o'quvchilar ajratib ko'rsatilgan otlarga mos keladigan savol topib qo'yishlari talab etiladi.

1-topshiriq

1. **O'quvchi** topshiriqni to'g'ri bajardi.
2. **O'quvchilar** sayohatga tayyorgarlik ko'rdilar.
3. **Bulbullar** gulzorda sayraydi.
4. **Bulbul** qafasda yashay olmaydi.
5. **Qaldirg'ochlar** ilk bahorda uchib keladi.
6. Ayvonga **qaldirg'och** uya qurdi.
7. Men o'qigan **kitob** juda qiziq ekan.
8. Kutubxonada **kitoblar** saqlanadi.

2-topshiriq

Bir narsa va shaxsni bildirgan otlarni bir ustunga, birdan ortiq narsa va shaxsni bildirgan otlarni ikkinchi ustunga ajratib yozing.

N	Birlikdagi otlar	Ko'plikdagi otlar
1	O'quvchi	O'quvchilar
2	Bulbul	Bulbullar
3	qaldirg'och	Qaldirg'ochlar
4	kitob	kitoblar

3-topshiriq. Darslikda berilgan 222- mashq shartiga ko'ra ko'plikdagi otlarni birlikdagi otlarga aylantirib yozish topshirig'i beriladi.

Qo'shiq kuylar qizaloq,
Tinglar bog'lar, dalalar,
Ovozi sho'x qo'ng'iroq,
Qo'shiq nurday taralar
Kuylar – kuy
Bog`lar- bog`
Dalalar- dala

4-topshiriq

O'quvchilarga quyidagi jadvalni to'ldirishlar vazifa qilib beriladi. Unga ko'ra o'quvchilar jadvalning birinchi ustunida berilgan otlarni ko'plikdagi otlarga aylantirib ikkinchi ustunga yozib chiqishlari topshiriq qilib beriladi.

I-guruh

N	Birlikdagi otlar	Ko'plikdagi otlar
1	kitob	?
2	qalam	?
3	ruchka	?
4	qog'oz	?

II-guruh

N	Birlikdagi otlar	Ko'plikdagi otlar
1	?	olmalar
2	?	noklar
3	?	uzumlar
4	?	qovunlar

III-guruh

N	Birlikdagi otlar	Ko'plikdagi otlar
1	terak	?
2	chinor	?
3	archa	?
4	qayin	?

V.Baholash

Rag'bat kartochkalari orqali o'quvchilarning bilimlari baholalanadi. Baholash vaqtida o'quvchilarning shaxsiy munosabatlarini emas, balki bilimlarini, sayu-harakatlarini hisobga olish o'qituvchining diqqatida bo'lishi darkor.

VI. Uyga vazifa. 223-mashqni bajarib kelish topshiriq qilib beriladi.

VII.Darsni yakunlash. O'qituvchi tomonidan darsga xulosa qilinadi.

ИЖОДИЙ ФИКРЛАШ КЎНИКМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА ШАХС (ЎҚИТУВЧИ-ЎҚУВЧИ), ҚУРОЛ-ВОСИТА (ДАСТУР, ДАРСЛИК) ВА МЕТОД МУНОСАБАТЛАРИ

Нигора Абдурахмонова, Қўқон ДПИ магистри

Ўқувчиларнинг ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш мақсадида ўқитувчи ҳар бир дарсда - у хоҳ анъанавий, хоҳ ноанъанавий бўлишидан қатъий назар, оғзаки ва ёзма нутқни ҳосил қилиш, ўстириш, такомиллаштиришга хизмат қиладиган топшириқлардан ўринли фойдалана

билиши зарурки, бу мактаб таълими мақсад ва вазифаларини она тили фани асосида амалга оширишда етакчи ўринда туради.

Бугунги кунда ўқувчиларимизни маънавий етук қилиб тарбиялашнинг самарали усулларини топиш миллий педагогиканинг энг долзарб муаммоларидан биридир. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш жараёни эса кўп қиррали бўлиб, уни барча фанлар билан ўзаро боғлиқ тарзда ривожлантириб, такомиллаштириб бориш керак.

Маълумки, умумий ўрта таълим мактаб ўқувчилари учун тузилган она тили дарсликлари олдига қуйидагиларни амалга ошириш асосий вазифа қилиб қўйилган:

а) у ёки бу тил қонунияти ҳақида ўқувчига билим бериш, она тилининг бой имкониятларидан хабардор қилиш;

б) назарий билимни матн, машқ, топшириқлар асосида тушунтириш ва мустаҳкамлаш;

в) махсус вазифалар орқали ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини такомиллаштириш;

г) берилган ҳар бир вазифани бажаришда ўқувчини ижодий фикрлашга йўналтириш ва ижодий матн тузиш малакасини ҳосил қилиш;

д) берилган билимларнинг ўқувчи томонидан қай тарзда ўзлаштирилганини назорат қилиш.

Таълим ва тарбия бир-бирига узвий боғлиқ педагогик жараён бўлганидек, ўқувчиларга билим бериш ва уларни ижодий фикрлашга ўргатиш жараёнлари ҳам ўзаро боғлиқдир.

Ўқувчиларни ижодий фикрлашга ўргатишнинг асосий омилларидан бири уларни ўйлашга, фикр билдиришга, мантиқий хулоса чиқаришга интиштирувчи зарур билимлар беришдир. Бунинг учун ҳар бир дарсни ўқувчиларда ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантиришга мослаб йўналтиришга ҳаракат қилиш зарур. Шундай билим ва кўникма бериш керакки, натижада ўқувчи мустақил ижодий равишда гап, матн тузиб, иншо, баён ёза олсин, суратлар ва тасвирий фильмларни эркин шарҳлай билсин.

Ўқитиш жараёни маълум дарслик ва дастурларга асосланиб олиб борилади. Моҳир ўқитувчи баъзан ана шу дастур ва дарсликлардан маълум мақсадларни кўзлаб чекинади, ижодий ёндашган ҳолда уларни тўлдиради, қисман ўзгартиради. Бироқ бундай мураккаб вазифани ўқитувчи муайян қийинчиликлар билан амалга ошира олади.

Миллий истиқлол туфайли қарашларимиз, маънавий дунёмиз туб-дан ўзгармоқда. Бугунги она тили дарслари учун тавсия қилинадиган қўлланмалар, машқлар ва диктантлар тўпламлари ҳам тубдан янгиланяпти. Албатта, йиллар давомида ўқувчиларга сабоқ беришда қўлланиб келинган дарсликларнинг

илмий салоҳиятини инкор этмаймиз. Биз бугун мазкур илмий билимларни ўқувчига янги давр нуқтаи назаридан ёндашган ҳолда етказиш замон талабига, эҳтиёжига айланганини таъкидламоқчимиз.

«Мактабда она тили таълимига қўйилган муҳим талаблардан бири ўқувчиларни ўз фикрларини баён қилиш фаолиятига тайёрлашдир».³²⁵

Ўқувчини ўз фикрини изчил баён қилишга ўргатиш учун дарсликларда грамматик топшириқлар сирасида миллий кадриятлари-миз, маънавий ва моддий бойликларимиз, халқимиз тарихи, халқ оғзаки ижоди, ўлкашунослик, ҳайвонот ва табобат олами ҳақида қизиқарли матнлар кўп бўлиши керак. Бу билан биз фанлараро боғлиқлик ҳамда таълим ва тарбиянинг ўзаро алоқадорлиги тамойилларини ҳаётга татбиқ қилишни амалий таъминлашимиз мумкин.

Она тили дарслари фақат грамматик билим бериш, ёзма ва оғзаки нутқни шакллантириш билангина чегараланмайди. Ёшларда миллий ғурур, Ватанга муҳаббат ҳисларини тарбиялашда, уларнинг маънавий етук бўлиб етишишларида она тили дарсларининг тутган ўрнини унутмаслик лозим.

Агар ўқитувчи дарслик ва дастурларга ижодий ёндашиб, уни дарс давомида кундалик сиёсий ва долзарб мавзулардаги матнлар билан бойитиб борса, дарслик муаллифлари илгари сурган мақсадга биргаликда эришадилар.

Муаллифларнинг мақсадга эришиш йўлларини қуйидаги босқичлар билан белгилаш мумкин:

1. Ўқувчини топшириқ асосида мавзуга олиб кириш ва мавзу ҳақида маълум тасаввур ҳосил қилингандан сўнг қонидани баён қилиш.

2. Ўқувчини мустақил машқ ишлашга ўргатиш. Унга кичик топшириқлар бериш орқали мавзунини ўзлаштириш имкониятини яратиш.

3. Дарс машғулотида сўзларнинг маъноларига эътибор бериб, уларни ёзма ва оғзаки нутқда тўғри қўллаш кўникмасини ҳосил қилиш.

Тил таълими ўқувчилар тафаккурини, нутқ маданиятини ривожлантирувчи, мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантирувчи асосий омиллардан биридир. Она тили дарсларида «Лексикология» бўлими юзасидан берилган билимларни амалиётда ёзма ва оғзаки нутқда тўғри қўллай билиш ўқувчи тафаккури ва мантиқий фикр даражасини ривожлантиришга йўналтиради. Кичик ҳажмдаги матнлар ёрдамида мантиқий фикрлаш жараёнида умумий хулосалар чиқариш орқали грамматик таъриф яратишга ўргатилади. Машқлар ёрдамида олинган билимлар мустаҳкамланади. Ўз хулосалари орқали назарий билимни кашф эта билган, умумий кузатишларидан хусусий хулоса чиқара олган ўқувчи грамматик қонидани

¹ Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Она тили ўқитувчилари учун методик қўлланма. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 18-б.

ёддан билладиган, лекин уни амалиётга татбиқ этишга қийналадиган ўқувчидан кўра мустақамроқ билимга эга бўлади. Тўғри, ўқувчига аввал қондани ёдлатиб, шу қонда асосида машқларни бажариш ўқитувчи учун анча қулай. Зеро, бунга дарс учун ажратилган вақт ҳам етарли бўлади, ўқувчиларни баҳолашга ҳам эришилади. Лекин устоз шу ажратилган вақт ичида ўқувчига кейинчалик унутиб юборадиган қондалардан ташқари яна нима ўргатди? Инсоннинг доимий бойлиги бўлмиш луғат бойлиги, нутқ маданияти, ёзма ва оғзаки нутқни туза билиш малакаларини ярата олдими? Ҳар сафар ўқувчиларининг маъно ва грамматик жиҳатдан тўғри тузилган нутқлари устида фикр юритилар экан, унинг заминида ўргатувчи ва ўрганувчининг биргалиқда олиб борган оғир ва тинимсиз меҳнати борлигини унутмаслик даркор.

Дарсликларга рақобатлашадиган ёки уларга кўмакчи бўлиб хизмат қиладиган турли қўлланмалар, тавсиялар, ўқувчиларнинг ўз она тилининг имкониятларини чуқур англаб этишига ёрдам берадиган бошқа воситаларни ҳам дарс жараёнларига олиб кириш масалалари борки, булар ҳақида илмий ишимизнинг кейинги қисмларида батафсил тўхталиб ўтамыз. Она тилини ўқитиш шу фан бўйича ўқувчиларга турли назарий билимларни беришгина эмас, балки уларни амалиётга татбиқ қила билиш, мустақил қўллаш кўникмаларини узлуксиз тарзда шакллантириб боришини ҳам назарда тутлади.³²⁶

Бугунги кун дарс жараёнида ўқитувчи ва ўқувчи муносабати (дарсни ташкил қилиш, машғулот ўтказиш жараёнидаги ижодийлик) ҳамиша ана шу тарзда ташкил этилгандагина мустақил фикрлашга яхши шароит яратилади. Бу эса ўқувчиларда ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантиришнинг асосий шартларидан биридир. Аввало, уларда мустақил фикрлаш кўникмасини шакллантириш, вазиятлардан мустақил равишда ечим топишга ўргатиш, шахс сифатида етилишларини таъминлаш муҳимдир.

Демак, ўқувчи ҳар бир мавзунини, ундаги ҳар бир маълумотни мактаб дарсликларида, қўлланмаларда, кўргазмалар ва ниҳоят, ўқитувчи томонидан

³²⁶ Қосимова Н. Она тили таълими жараёнида ўқувчилар нутқини сўзнинг маънодошлари билан бойитиш. Пед.фан.номз...дисс. -Тошкент: 1998. 153 б.; Ҳамдамова М.З. 1,2-синф ўқувчиларининг оғзаки ва ёзма нутқини ўстириш тажрибасидан. Пед.фан.номз...дисс. -Тошкент: 1998. 160 б.; Дадажоновна Н.М. Ўзбек тили таълими жараёнида талабаларнинг нутқи устида ишлаш методикаси. Пед.фан.номз...дисс. -Тошкент: 1996. 130 б.; Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш. Пед.фан.номз...дисс. -Тошкент: 1998. 120 б.; Яминова С.Х. Ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш қобилиятини ривожлантиришда сценарийли ўқитиш усулидан фойдаланиш: Пед. фан. номз... дисс. -Тошкент: 1997. 198 б.; Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдалаланиш методикаси. Пед.фан.номз...дисс. -Тошкент: 2001. 128 б.; Бўронова Ш.М. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 5-синфларида ўзбек тили ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед.фан.номз...дисс. -Тошкент: 2002. 158 б.

айтилган фикрлар, қоидалар сифатида ўзлаштириб қолмасдан, бу ҳодисалар ҳақида ўзича фикр юритишга интилсин.

Маълумки, таълим тизимида, ҳеч вақт (айрим даврлардаги, тор мақсаддан келиб чиққан ҳолда «Қуръон» оятларини ёдлатишни ҳисобга олмасак) қоидаларни қуруқ ёдлатиш билангина чекланиб қолинган эмас. Шарқона таълим усулида ўқувчилар матн асосида шуғуллантирилган. Ҳамма даврларда ҳам, ўқитишнинг барча шаклларида билим бериш, ҳодисалар моҳиятини очиб бериш йўлидан борилган. Лекин баъзан қоидадан факт таҳлилига қараб бориш, сўнг мисол билан тасдиқлаш, далиллаш йўли (дедуктив метод)дан фойдаланишга аҳамият берилган ҳамда бошқа усулларга камроқ эътибор қаратилган. Албатта, ўқитишда услуб танлаш жуда мураккаб муаммо бўлиб, бу ўқитувчининг билим даражаси, тажрибаси, маҳорати, хуллас, шу шахс фаолиятининг турли қирралари, иккинчидан, ўқувчи шахсининг турли қирралари: уларнинг умумий тайёргарлиги, қобилияти, лаёқати, интилувчанлиги кабилар ва ниҳоят, учинчидан, умумий вазият яратилганлиги ёки, умуман, мавжуд шарт-шароит билан боғлиқдир. Булардан фақат биттасининг ҳисобга олиниши дарс жараёнига салбий таъсир кўрсатади, самарадорликни пасайтиради. Айнан битта омилнинг эътибордан четда қолдирилиши танланган усул қандай бўлишидан қатъи назар, ундан кутилган натижага эришиб бўлмайди. Шунини ҳам унутмаслик керакки, ўқувчиларга у ёки бу нарсани ёдлатишнинг ўзига хос яхши томонлари ҳам борки, бунда албатта, нимани кимга, қачон ва қанча ёдлатиш меъёрларини яна ўқитувчи шахси, шароит ва ўқувчининг имкониятларини ҳисобга олиш каби омиллар белгилаб беради. Бу омиллар ҳисобга олинмаса, акс ҳолат юз бериши мумкин.

Демак, она тили дарсларининг самарадорлиги мавзу характериға қараб иш тутиш, метод танлаш, дарсни ташкил этиш кабилар билан чамбарчас боғлиқдир. Барча мавзуларни, барча ҳодисаларни ўқувчига етказишда бир хилдаги шаблон йўлдан бориб бўлмайди. Уйга вазифа бериш, мустақил бажариш учун бериладиган топшириқлар ҳам ана шу талабдан келиб чиққан ҳолда амалга оширилиши муҳимдир.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKSIS O'QITISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Komiljonova Guluzra, Qo'qon DPI magistri

Boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar:

- 1) amaliy o'rganiladigan;
- 2) nazariy o'rganiladigan turlarga bo'linadi.

Sintaksis bilimlarni amaliy o'rganish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi va to'rtinchi sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda «Gap», «Darak gap», «So'roq gap», «Buyruq gap», «his-hayajon gap», «Sodda gap», «Qo'shma gap», «Gap bo'laklari», «Gapning uyushiq bo'laklari», «Undalma» mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidai turli mashqlar bajariladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksik, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustida ishlash markaziy o'rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O'quvchilar ona tili leksikasini ham gapni ham negizida egallaydilar. So'zning leksik ma'nosi va uning yo'llanish xususiyatlari so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'ladi.

Metodist olimi T.G.Ramzaeva boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo'nalishga bo'ladi:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning muhim belgilarini o'rgatish).

2. Gap strukturasi o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, yopiq va yig'iq gaplar ustida ishlash).

3. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.

5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish, (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish.

Ishning bu besh yo'nalishi bir-biriga o'zaro ta'sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o'rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi.

Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi.

O'quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug'iladi. U o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

«Gap» mavzusi barcha sinflarda o'rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O'quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi – gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning uyushiq bo'laklarini o'rganishga o'tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi,

tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar, Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi.

Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazish ma'qul.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda, gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga ko'ra 1- sinfda o'quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi.

2- sinfda esa o'quvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3- sinf gap ustida ishlashning yangi bosqichidir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadi. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim terminlari kiritiladi.

Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim) ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z) ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni (qo'shimchalar orqali bog'lanishini bilib oladilar.

4- sinfda gapning uyushiq bo'laklarini o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi bilim kengaytiriladi.

Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap bo'laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo'laklar) ga bo'linishini o'zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo'laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o'zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarning aniqlovchilik va to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Xullas, maktabda tilning barcha

tomonlarini bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishning yetakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til o'suvchan, bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan tomonlari mavjud bo'lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda ilmiy asos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashrapova T., Odilov I. Ona tili metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1984.
2. A'zamov A. "O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish" Toshkent – 2004 y.
3. Yo'ldashev J., Usmonov S. "Pedagogik texnologiya asoslari", T. O'qituvchi, 2004.
4. Karimova Q, Matchonova S va bosh. "Ona tili o'qitish metodikasi". Darslik. – Toshkent:Noshir.2009.
5. Qosimova K. "Ona tili o'qitish metodikasi", T – 1985-y.

BOSHLANG'ICH SINIF MEHNAT DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI

Nosirova Mohinur, Qo'qonDPI magistri

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo'ydi. Barcha sohalaridagi kabi ta'lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang'ich ta'lim darsliklari va metodik qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o'tamoqda.

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining "Kirish" qismida "Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi", - deb alohida ta'kidlangan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion (yangilik kiritish) texnologiyalar pedagogik va axborot texnologiyalarga qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri: bir vaqtda an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarning bilim olishlari, ularning onglarini rivojlanishiga va tarbiyalashga sharoit yaratib beradi, o'zi esa boshqaruvchilik,

yo'naltiruvchilik vazifalarini bajaradi. Bunday ta'lim jarayonining asosiy vazifasini o'quvchilar bajaradilar.

Innovatsion texnologiyalarda pedagogik jarayon hamda o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatida yangilik, o'zgarishlarni kiritishlari kerak bo'lib, uni amalga oshirishda, asosan, interaktiv jamoa bo'lib fikrlash usullaridan to'liq foydalaniladi. Bu esa ta'lim mazmunini tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Bu usullarni o'ziga xosligi shundaki, ular faqat o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bu faoliyat o'quvchilarga har bir mavzuni mukammal egallashlari uchun juda qulay, samarali usullardan biridir. Bunday usullarning o'ziga xos xususiyatlarini quyida e'tiboringizga havola etsak. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlashga, izlanishga, ijod etishga o'rgatish.
2. O'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda oshirib borish.
3. O'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish.

O'qituvchi ta'lim samaradorligini ta'minlashda, o'quvchilarni darsiga qiziqishini o'stirishda targ'ibotchi bo'lib hisoblanadi.

Bu jarayon o'z navbatida yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib kamol toptirib, uning ongini, dunyoqarashini, e'tiborini, ma'naviy xulq-atvorini tarbiyalaydi.

Noan'anaviy darslarni olib borishda dastlab o'qituvchi qiziqarli mavzu tanlab, ko'rgazmali qurollar, kartochkalar, rasmlar va texnika signallaridan foydalanadi. Asta-sekin noan'anaviy darslar mavzusi, mazmuni murakkabligiga qarab o'tiladi.

Noan'anaviy ta'lim mamlakatimizning barcha o'quv yurtlarida, jumladan, bog'chalarda, maktablarda, o'yingohlarda, o'rta maxsus o'quv yurtlarida keng tarqalib, uning turli jihatlarini pedagogik texnologiya hamda metodika fanlarida ishlab chiqarilmoqda.

Bugungi kunda pedagogik nazariya olib borilishi lozim. Bu nazariyaning nazariy hamda amaliy bilimlarini mukammal egallashda pedagogik texnologiya fani asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya ham fandir va u ta'lim doirasining barcha qatlamlarini qamrab oladi. Pedagogika fani jamiyat ehtiyoji va rivojlangan shaxs qiziqishiga hamohang tarzda tarbiya jarayoni qonuniyatlarini o'rganadi va uni izchil amalga oshiradi. Ana shu tarbiyaviy tizim, unda kechadigan jarayonlar, pedagogik texnologiya deb ataladi. Pedagogik texnologiya – bu amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizim loyihasidir.

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy va ma'rifiy rivojida texnologiya fanining o'rni favqulodda muhimdir. Chunki milliy hunarmandchiligimiz milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va

haqqoniy ko'zguvidir. Hadisi shariflarda "Kishining zeb-u ziynati, go'zalligi uning tilida va hunaridadir" deyiladi.

Bosh maqsadi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi bo'lmish milliy g'oyamizning kurashchanligini ta'minlashda mukammal ma'naviy va ma'rifat hal qiluvchi omil bo'lib, milliy hunarmandchiligimizga muntazam muhabbat, davlat tiliga barqaror ehtirom ana shu omilni shakllantiradi, unga kuch beradi, ko'lam baxsh etadi. SHuning uchun ham milliy g'oya targ'ibida millatning o'lmas ruhi bo'lgan milliy hunarmandchiligimizning yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Xullas, boshqa darslar kabi mehnat darslarida ham o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida noan'anaviy ta'lim usullarini takomillashtirish orqali yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishda o'z samarasini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzviylashtirilgan boshlang'ich sinf davlat ta'lim standarti. – 2010.
2. Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi. – Toshkent, 2010.
3. Vazirlar mahkamasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi qonunlari. Xalq ta'limi. 1997. – N=1
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" giqonun. Toshkent. – 1997.
5. Po'latov I. P Interfaol metod texnologiyasi // "Umumiy o'rta maktab, litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda pedagogika institutlarida o'zbek tili va adabiyoti fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Qo'qon: 2006. B. 17-18.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

To'xtasinova Gulhayo, Qo'qon DPI magistri

Pedagogik faoliyat - qadim zamonlardan beri ulug'lanib kelayotgan soha bo'lib, u kishidan yuksak mahorat, bilim-malaka, sabr-toqat, muomala madaniyatini talab etadi

Maktab esa bolalarning dastlabki bilim oladigan maskanidir, o'quvchilarning har bir fanni mukammal o'zlashtirishi ertangi kunning yetuk mutaxassisilari bo'lib yetishib chiqishida muhim o'rin tutadi. Shunday ekan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z ona tilini yetarlicha va chuqur o'rganib borishi talab etiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslari samaradorligini oshirish juda ko'p omillar bilan bog'liq. Ta'lim samaradorligini oshirishda esa albatta uning o'z qonun qoidalari bor. Jumladan: nimani o'qitish kerak? Qanday o'qitish kerak? degan savollarga o'qituvchining o'zini aniq maqsadi bo'ishi shart. Shundagina oldinda ilgari surilgan samardorlikka erishishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf ona tili darslari samaradorligini oshirishda o'qituvchi sodda va tushunarli usullardan foydalanishi kerak. Darslarda ilmiylik tamoyili bilan birga mavzuga oid o'yinlar, turli xil multimediali programmalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda

o'qituvchi o'quvchilarga kerakli jihozlarni imkon qadar yon atrofdan qidirishi kerak. Chunki, boshlang'ich o'quvchilari atrofdagi narsalarnigina eslab qoladi va tasavvur qilishi ham oson kechadi. Ba'zi, noan'anaviy dars o'yinlaridan namunalar keltirishimiz mumkin. Masalan: "Nazoratchi harf", "Keyingi bo'g'inni top", "Talaffuzda adashmang", "Belgilarni izohlang" kabi o'yinlar bunga misol bo'la oladi. 1. "Keyingi bo'g'inni top" o'yini uni o'quvchilarga jadval orqali tushuntirish mumkun.

Bog'-	---	
Pax-	ta-	---
---	shi-	na.
Daf-	---	

Shu kabi bu o'yinimizni davom ettiramiz . Bu o'yin orqali o'quvchilar ongini o'stirish, epchillik va to'g'ri fikirlashni o'rgatishimiz mumkun. 2- "Talaffuzda adashmang" o'yinini o'quvchilarga o'rgatishda. Doska orqali tushuntirish qulay usul. O'quvchilardan biri doskaga chiqarib, o'qituvchi tomonidan aytilishi boshqa yozilishi boshqa bo'lgan so'zlar aytiladi. O'quvchi so'zlarni eshitgan holda yozadi. Uni o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda tekshiradi. Shunday so'zlardan namunalar:

To'g'ri	Noto'g'ri
1. G'isht	1. G'ishd
2. Kitob	2. Kitop
3. Bog'cha	3. Boxcha
4. Shanba	4. Shamba.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darsi samaradorligini oshirishda, har xil yo'llarni o'ylab topish o'qituvchining ijodkorligi va ulardan to'g'ri foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktab ostonasiga qadam qo'ygan har bir o'g'il qiz qiziqishi orqali xohlagan fanlarni o'rganadilar. Bizning maqsadimiz ham huddi shu yosh avlodni o'zlarini yo'llarini topishga o'rgatish. An'anaviylikdan noan'anaviylikka o'tish innovatsion metodlarni har bir darsda qo'llash, o'z navbatida o'quvchilarni darsga bo'lgan muhabbatini uyg'otish. Shuningdek, ona tili Erkin Vohidovning "So'z latofati" kitobidan olingan ba'zi hikmatlardan foydalanish mumkin. Til-millatning bosh belgisi hisoblanadi. Til bor – millat bor. Til yo'q millat yo'q.

Bu kabi hikmatlar o'quvchilarda ona tiliga hurmat va muhabbat hissini oshiradi. Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini samaradorligini shirish o'qitish metodini to'g'ri tanlash, "Ona tili" fanining amaliy yo'nalishidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida o'quvchini o'ylashga, fikrlashga

undovchi o'quv topshiriqlarni ishga solish, o'quvchilarda bilish o'rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakillaridan foydalanish singarilar bilan bog'liq.

Xullas, yuqoridagi kabi usullardan foydalanish orqali o'quvchilarda so'z erkinligi, erkin fikirlash qobiliyati, berilgan imkoniyatlardan o'z vaqtda foydalanish, zamon bilan hamnafas bo'lgan holda yashash kerakligini singdirgan bo'lamiz. Zero, bizning yosh avlod Temuriylar, Navoiylar, Boburiylar avlodi ekanligini bilishi va buni o'z zamonasida isbotlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashrapova T., Odilov I. Ona tili metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1984-y.
2. A'zamov A. "O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish" Toshkent – 2004- y.
3. Yo'ldashev J., Usmonov S. "Pedagogik texnologiya asoslari", T. O'qituvchi, 2004-y.
4. Karimova Q, Matchonova S va bosh. " Ona tili o'qitish metodikasi". Darslik. – Toshkent: Noshir. 2009-y.
5. Qosimova K. "Ona tili o'qitish metodikasi", T – 1985-y.

O'QUVCHILARDA OMMAVIY MADANIYATNING SALBIY OQIBATLARINI OLDINI OLISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK OMILLARI

U.Hamdamova, Bog'dod tumani 46-maktab o'qituvchisi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohada tub o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, ta'limdagi islohotlar fikrimiz isbotidir.

Bugungi yoshlar prezidentimiz tashabbusi bilan zamonaviy mebel va jihozlar bilan bezatilgan, ko'rkam va shinam ilm dargohlarida bilim olishmoqda. Kelajak avlodning o'sib-ulg'ayishini ilhomlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bugungi kunda o'z faoliyatini jadal sur'atda amalga oshirmoqda. Bir-biridan go'zal (ta'lim) o'quv dargonlarida ta'lim olayotgan eng iqtidorli yoshlar dunyoning mashhur ilm markazlari bo'lgan AQSH, Angliya, Rossiyadagi ilmgohlarda bilim olish sharafiga muyassar bo'lib kelmoqdalar. Eng iqtidorli yoshlarni yanada ruhlantirish va rag'batlantirish maqsadida Navoiy, Beruniy, Ulug'bek nomidagi yoshlar stipendiyalari tashkil etildi. Shu bilan birga turli sohalarda tinmay izlanayotgan iste'dodli yoshlar uchun Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta'sis etildi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosda ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda rinsirlari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasida belgilab berilganidek, «Davlat ta'lim standartlari» umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim

standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir».

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Davlat ta’lim standarti to‘g‘risidagi Nizom»ga binoan umumiy o‘rta ta’lim, shu jumladan, boshlang‘ich ta’lim bosqichi uchun ham alohida-alohida davlat ta’lim standarti talablari va me‘yoriy ko‘rsatkichlari belgilab qo‘yildi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda ta’kidlanganidek: «Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshdan qabul qilinadi. «Boshlang‘ich ta’lim konsersiyasi»da e’tirof yetilganidek, olti yoshga to‘lgan har qanday bola aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan maktabda o‘qish uchun tayyor bo‘lganida, maktabning moddiy-texnik bazasi bunday bolalarga ta’lim berish uchun yetarli deb hisoblanganda hamda o‘qituvchilar redagogik va psixologik jihatdan olti yoshli bolalarni o‘qitishga tayyor bo‘lganda ularni maktabga qabul qilish mumkin. Buning uchun olti, yetti yoshli bolalar, maktabning moddiy-texnik bazasi hamda o‘qituvchilar redagogik va psixologik talablar asosida qat’iy diagnostika qilinishi shart».

«O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida»gi Nizomda ta’kidlanganidek: «Boshlang‘ich ta’lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq - atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishini ta’minlashga da’vat etilgan». Shu asosga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi.

Milliy mafkuraning yana bir muhim sharti - bu o‘zlikni anglashdir. O‘zlikni anglash deganda tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanimizni anglab etishni, shundan kelib chiqib, o‘zimizga xos, o‘zimizga mos jamiyat barpo etishdir.

Biz milliy g‘oya, milliy mafkura masalasi g‘oyat murakkab, serqirra muammo ekanligini anglab turibmiz. Shuning uchun yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo‘lida biz uchun birlashtiruvchi bayroq bo‘lishi millat, jamiyat va davlatning manfaatlarini o‘zida mujassam etishi lozim. Ana shu muhim masaladan kelib chiqib alohida milliy istiqloq mafkurasi Kontseptsiyasi ustida ishlashda amaliy masalalarga e’tibor berish zarur:

Bu ishni amalga oshirish uchun avvalombor aniq reja, aniq maqsadni belgilab olish lozim. Milliy mafkurani oddiy inson ongiga etkazish maqsadida uni

oddiylikdan murakkablikka qarab boradigan me'yorda yoritish, bosqichma-bosqich asosda ifodalash darkor.

Odamlarning bugungi qarashlarini inobatga olgan holda ularning bu masalani anglash, mohiyatini idrok eta olish darajasi va saviyasini o'zimizga aniq tasavvur qilishimiz kerak;

Bu muhim ishni boshlashdan avval jamiyatning mafkura tushunchasiga munosabatini aniqlab olish, barcha toifalarning qarashlarini qamrab olish, ularni ko'z o'ngimizdan o'tkazishimiz zarur;

Kontsepsiyaning sifati va kelgusidagi samarasi – ta'siri, avvalo, uning ustida ishlaydigan guruh a'zolarining tayyorgarlik darajasiga, ularning bu masalaning tarixi, ahamiyati, jamiyatimiz uchun zarurligini qay darajada tushunishiga bog'liqligini oldindan tasavvur qilishimiz kerak.

Demak, xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mam-lakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fukaroning yagona vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyatni his etib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analariga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylkni hayotimiz mazmuniga aylantirish — milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.—T.: «O'zbekiston», 1992, 46 b.
2. Abdullayeva Q. Va b. O'qish axborot vositalarii. (Bilim bog'i) 2-sinf. – T.: O'qituvchi, 2003 y., 192 6.
3. Adizov B. R. Boshlanqich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. 13.00.01. — pedagogika nazariyasi va tarixi.— T.:2003 y, 44 b.
4. Barkamol avlod orzusi // Qurbonov Sh., Sayidov Q, Ahliddinov R. //Xalq ta'limi. 1998. №6 4–196.
5. Boshlanqich ta'lim Kontsepsiyasi //Boshlanqich ta'lim, 1998, №6, 15-18 bet.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI IJTIMOY FAOLLIKKA O'RGATISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

M.Qodirova, Bog'dod tumani 46-maktab o'qituvchisi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy faollikka, muammolarni ijtimoiy faol ravishda hal qila bilishga o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Modomiki, shunday ekan, ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o'quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta'lim jarayonining ob'ekti bo'lib qolmasdan, ta'lim jarayonida o'qituvchining teng hamkoriga aylansin.

Hayot jumboqlarini, tabiat tug'dirgan muammolarni o'rganish, ularga tegishli javob topish istagi, yana ham to'g'rirog'i, baxt-saodatga erishish muammosi, insonning o'zini va olamni bilishga bo'lgan qiziqishi asrlar mobaynida fikrlashga, o'z fikrlarini mantiqiy asoslashga da'vat qilib keladi. Sharq allomalari asarlarida bu

muammoga alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas. Zero, ijtimoiy faol, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta'sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish ko'radi.

Sharq va g'arb olimlari bu muammoni o'zlari yashab o'tgan davr ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda echishga harakat qilganlar.

Inson tafakkurining beqiyos kengliklari «Qur'oni Karim» va «Avesto»da diniy asosda talqin qilingan bo'lsa, o'rta asrlarda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi qomusiy olimlar asarlarida ilmiy-badiiy usulda talqin qilingan.

Muammoning ildiziga teranroq nazar tashlash uchun, avvalo, «ijtimoiy faol», «ijtimoiy faollik» so'zlarining lug'aviy ma'nosiga to'xtab o'tish joiz. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «ijtimoiy faol» so'zi «jamiyat bilan hamohang, jamiyat hayotida faol» degan ma'noni anglatishi yozilgan. Unga ko'ra ijtimoiy faol fikrni birovga tobe bo'lmagan, hech qanaqa yot fikrlarga, o'zgalar fikriga qaram bo'lmagan holdagi ong mahsuli deyish mumkin.

G'azal mulkining sultoni, ma'rifatparvar davlat arbobi Alisher Navoiy asarlarida ham insonning o'z fikri, dunyoqarashiga ega bo'lishi, bilim olishi va olgan bilimlarini hayotda qo'llay bilishda inson tafakkurining o'rni katta ekanligiga alohida ahamiyat beriladi. Shoir «Mahbub-ul qulub» asarida bilim olib ijtimoiy faol mushohada yurita olmaydigan insonni «ustiga kitob ortilgan eshak»ka qiyoslaydi va «nodon» deb ataydi.

Ana shu ijobiy o'zgarishlar milliy pedagogikamizda ham o'z aksini topdi. Endilikda milliy pedagogikamizning maqsadi bilim berish va mutaxassis tayyorlash asosiy niyati bo'lgan mustabid tuzum pedagogikasidan farqli o'laroq, barkamol shaxs tarbiyasiga qaratilgan. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarga kishilarning demokratik jamiyatda erkin va ijtimoiy faol fikrlaydigan qilib tarbiyalanishi lozimligi qayd etilgan.

Pedagogika fanlari doktori Q.Yo'ldoshev esa milliy tarbiyashunoslikda samara keltiruvchi faoliyat bu - pedagogik hamkorlik, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati, deb ko'rsatadi.

Faylasuf olim A.Choriev «ijtimoiy faol shaxs» tushunchasini falsafiy jihatdan tahlil qilar ekan, u o'zida uchta komponentni: ijtimoiy faollikni, ijtimoiy faol ishlashni, ijtimoiy faol yashashni mujassamlashtirishini ta'kidlab o'tadi va ijtimoiy faollikning inson faoliyatiga ta'siri haqida shunday deydi: «... shaxs ijtimoiy faolligi, eng avvalo, uning fikrlash tarziga, fikr-mulohaza yuritish quvvatiga bog'liq bo'ladi. Xuddi shu qobiliyat tufayli inson o'zi ko'rgan, bilgan, eshitgan, atrofida sodir bo'layotgan hodisalar, voqealar, jarayonlarning mohiyatini, ularning to'g'ri

yoki noto‘g‘ri, chin yoki yolg‘onligini aniqlaydi. Aniqroq qilib aytganimizda, inson xuddi shu qobiliyati tufayli kundalik turmushimizda vujudga kelgan muammolar echimini topadi».

Kuzatishlarga qaraganda, ijtimoiy faollik, avvalambor, yangi savol, yangi muammoni ko‘ra bilish va qo‘ya bilish, so‘ngra uni o‘z kuchi bilan hal qilishda namoyon bo‘ladi. Yoki, ijtimoiy faollik o‘quvchilarning shunday faoliyatiki, unda eng yuqori darajadagi faollik, ijodkorlik, ijtimoiy faol hukm chiqarish va tashabbuskorlik namoyon qilinadi. Natijada o‘quvchilar shu jarayonda:

- bilimlarni ijtimoiy faol ravishda yangi vaziyatda qo‘llash;
- mavzularni o‘rganish davomida yangi muammoni ko‘ra bilish;
- bir muammoning bir nechta (alternativ) yechimlari bo‘lishi mumkin-ligini anglash;
- avval ma‘lum bo‘lgan muammolarni hal qilish usullarini kombina-siyalash;
- muammoni hal qilishning original usullarini topa bilish malakalarini egallay boradilar.

Demak,

yuqorida sanab o‘tilgan va boshqa shu kabi ishlarni bajarish davomida o‘quvchi faoliyatida ongli ijtimoiy faollik darajasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: bilish, fikrlash, eslab qolish yoki ma‘lum tushunchalar asosida yangi faktlar, hodisalar, voqealarni keltirish orqalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. — Toshkent: O‘zbekiston, 1998. —20-29 b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. — Toshkent: O‘zbekiston, 1998.- 31-61 b.
3. O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta‘lim kontseptsiyasi // Xalq ta‘limi.-Toshkent, 1992.- №2. - 9-18 b.
4. Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Ped. fan. nom. ... dis. - Toshkent, 2002.
5. Karimova V., Sunnatova R. Ijtimoiy faollik bo‘yicha mashgulotlarni tashkil etish yuzasidan uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: Sharq, 2000. - 193 b.
6. Ne‘matov H., G‘ulomov A., Ziyodova T. So‘z boyligini oshirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1997. -98 b.

O‘QITUVCHILARNING IMLOVIY SAVODXONLIK DARAJASI TAHLILI

N. Yulchiyeva, Bog‘dod tumani 46-maktab o‘qituvchisi

Orfografik malaka atamasi ta‘limda keng qo‘llanadi. “Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya‘ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongda harakat deb belgilaydi”³²⁷.

³²⁷ Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – B.165.

O'quvchi yozuv jarayonida barcha nutq birliklarini hech qiylanmay xatosiz yoza olsa, uning orfografik malakasi shakllangan bo'ladi. Lekin "orfografik" malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq-to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi)³²⁸.

Demak, orfografik malakani shakllantirish uchun ko'nikma ustida ishlash kerak. Ko'nikma esa olingan bilimlar bo'yicha ma'lum shartlar asosida mashqlar bajara olishdadir. Ma'lumki, bilim bo'lmasa, o'quvchi topshiriqni bajara olmaydi. Ko'rinib turibdiki, orfografik malaka shakllantirish bosqichiga o'qituvchi bilim va ko'nikma ustida ish olib borishi lozim. Mana shu bir-biriga bog'liq ishlar muayyan izchillikda olib borilmasa, imloviy savodxonlikni mukammal mashqlantirib bo'lmaydi.

Ma'lumki, imloviy savodxon kishi savodsizlikdan shartli to'liq savodxonlik darajasiga bir necha bosqichlardan o'tib keladi. Mana shu bosqichlarning asosi va boshi boshlang'ich ta'limdir. Boshlang'ich sinflarda orfografiyani o'qitish o'quvchilarga ona tilining yutuqlari, o'zbek tili grammatikasi qonunlari asosida to'g'ri yozuvni o'rgatishga, savodli, o'qimishli bo'lishiga yordam beradi. Ammo bu jarayon nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uni mukammal tashkil etish o'quvchidan chuqur nazariy bilim va amaliy tajribani talab etadi. Tabiiyki, ta'limning boshqa jarayonlari qatorida imloga o'rgatish jarayonida ham muayyan nazariy asoslar, amaliyotda izohlab chiqilgan tajribali usullar har doim qo'llanilmayapti, qo'llanilgan taqdirda ham ta'lim belgilab bergan umumiy hamda xususiy shartlarga rioya etilmayotir. Ana shu sabablar natijasida turlicha bo'lmoqda. Biz o'quvchilarning imloviy savodxonlik darajasini turlicha belgilamoqdamiz. Biz o'quvchilarning imloviy savodxonlik darajasini maktablarning boshlang'ich sinflar o'quvchilarining daftarlari misolida kuzatib, tahlil qilib chiqishga harakat qildik. Tahlil quyidagi reja asosida olib borildi.

1. "Ona tili" dasturidagi imloviy mavzular asosidagi savodxonlik darajasi.
2. Ta'limiy mashqlar asosida savodxonlik darajasi.
3. Nazorat diktantlari asosidagi savodxonlik darajasi.
4. Bayon, insholar asosidagi savodxonlik darajasi.
5. O'quvchilarning imloviy xatolari tasnifi.

Ma'lumki, fonetika grammatika imlo va nutq o'stirish dasturida imloning ayrim harflarining yozilishi bo'g'in ko'chirish, bosh harflarni qo'llash, shuningdek, ayrim qo'shimchalarni yozilishi haqidagi qoidalar ham muayyan tartibda berilgan. O'quvchilarning imloviy savodxonligini tekshirishda quyidagi mavzularni nazarda tutdik.

1-2- sinflarda:

³²⁸ Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B.171.

- a) unli harflarning yozilishi;
- b) undosh harflarning yozilishi;
- v) bo‘g‘in ko‘chirish;
- g) talaffuzda tushib qoladigan undoshlar;
- d) ketma-ket kelgan bir xil undoshlar;
- e) bosh harflar imlosi

3-sinflarda:

- a) o‘tilganlarni takrorlash bo‘yicha;
- b) so‘z yasovchi qo‘shimchalar imlosi bo‘yicha;
- v) bo‘lishsiz fe‘llar imlosi bo‘yicha

4-sinflarda:

- a) otlarning kelishiklar bilan turlanishi;
- b) otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi
- v) fe‘llarning tuslanishi

Bo‘lishsiz fe‘llar imlosini tekshirish

3- sinf ona tili dasturida bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar bo‘yicha umumiy grammatik tushuncha berilib, asosan, ma bo‘lishsiz fe‘l yasovchi qo‘shimchaniing vazifasini tushuntirib belgilangan: “Keldi, bordi, aytdi fe‘llari harakatning bajarilganligini” bildiradi. Bunday fe‘llar bo‘lishi fe‘llar deyiladi. Kelmadi, bormadi, aytmadi fe‘llari esap xarakatning bajarilmaganini bildiradi. Bunday fe‘llar bo‘lishsiz fe‘llar deyiladi. Bo‘lishli fe‘lga -ma qo‘shimchasini qo‘shish bilan bo‘lishsiz fe‘llar hosil bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, -ma qo‘shimchasining imlosiga doir boshqa ma’lumot ham, 286- mashqdan 291- mashqgacha (hammasi bo‘lib 6 ta mashq xolos) imloviy jihatga oid biror topshiriq ham yo‘q. Vaholanki, ayrim o‘zaklarga -ma qo‘shimchasi qo‘shilganda, shevada o‘zak oxiridagi ba’zi undoshlar tushib qoldi. Bolalar esa so‘zlarni aynan shunday xato shaklida yozib qo‘yishadi:

Bormadi-bomadi, olmadi-omadi, kelmadi-kemadi, qolmadi-qimadi kabi.

Biz aynan yuqoridagi so‘zlar ishtirok etgan matnlar asosida nazorat diktantlari olgan edik, o‘quvchilar biz nazarda tutgan so‘zlarni quyidagi tallaffuz qilishsa, shunday yozib qo‘yishdi. Bu holatni ham imloviy mashqlar tizimini ishlab chiqishda hisobga olib qo‘yishni belgiladik.

4-sinf o‘quvchilardagi imloviy savodxonlik darajasi tahlili:

1. Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishidagi imloviy savodxonlik. Maktabda tilni o‘rgatishda garmmatika bosh rolni o‘ynaydi, deb ta’kidlashadi uslubiyotchi olimlar. Grammatika o‘zlashtirilmasa, umuman til o‘zlashtirilmaydi. So‘z turkumlarining ma’lum grammatik kategoriyalari haqidagi elementlar, ma’lumotlar quyi sinflardayoq o‘quvchilarga berilmasa, bola so‘z birikmasi va gap tuzish malakasiga ega bo‘lmaydi. Jumladan, otlardagi kelishik

qo‘shimchalari haqidagi nazariy ma‘lumot va imoloviy masalarni mukammal o‘zlashtirish o‘quvchining og‘zaki va yozma nutqida katta ahamiyatga ega. O‘quvchiga kelishik ko‘shimchalari va har bir kelishikning so‘roqlarigina etarli emas, albatta. O‘quvchi kelishik qo‘shimchalari yordamida so‘zlarini bog‘lab birikma tuzatayotganda ergash so‘z tarkibidagi muayyan o‘zgarishlar yuz berishi tabiiy. Bu yana bir vazifa – imlo o‘rgatish vazifasini qo‘yadi. 4- sinfda otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishi, jumladan, birlikdagi va ko‘plikdagi otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishi, shuningdek kelishik qo‘shimchalari imlosi ustida ishlanib, o‘quvchilar darslikda berilgan turli shartlari natijasida ma‘lum darajada nazariy va imloviy savodxonlik darajasiga ega bo‘lmoqdalar.

Demak, har qanday malakani shakllantirishda, shubhasiz, tinimsiz mashq qilish talab etiladi. Jumladan, orfografik malakaning puxta shakllanishida metodikada tavsiya etilib kelinayotgan mashqlar hamda turli didaktik vositalarning benihoya o‘rni kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q., Yusupov M. Diktantlar to‘plami. Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 76 b.
2. Ashrapova T., Odilov I. Ona tili metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1984.
3. Boshlang‘ich sinf davlat ta‘lim standartlari. Boshlang‘ich ta‘lim, 2005. – №5. – B.5-33.
4. Mirzaev A. Diktant metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
5. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – B. 216.

1-SINF ONA TILI DARSLARIDA CHIROYLI YOZUV DAQIQALARINI O‘TKAZISHNING PSIXOLOGIK VA METODIK ASOSLARI

M. Siddiqova, Buvayda tumani 42-maktab o‘qituvchisi

Orfografik malaka - murakkab malaka. U o‘z ichiga yozuv, so‘zning tovush tomonini tahlil qila olish ko‘nikmasi, grammatik bilim asosida orfogrammani tanish, unga kerakli qoidani tadbiq etish va, nihoyat, bu orfogrammani to‘g‘ri yozishni oladi. O‘qish va yozish ko‘nikmasi takomillasha borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o‘quvchi ruchkani qanday ushlab, qanday yurgizish haqida o‘ylab o‘tirmay, so‘z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o‘qish va yozish malakasi harakatning o‘ylab o‘tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o‘qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O‘qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o‘quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

- o‘quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o‘stirishga katta e‘tibor berish kerak;

- fonematik eshitish³²⁹ qobiliyatlarini o‘stirish muhim. Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savod o‘rgatish davrida eshitish idrokini o‘stirish uchun xilma-xil mashqlar o‘tkazib boorish maqsadga muvofiqdir.

Nutq tovushlarini yozuvda ifodalash uchun harflarning roli kattadir. Hozirgi o‘zbek tilidagi 30 ta tovushni yozuvda ifodalash uchun 29 ta harfni ishlatamiz. O‘zbek tilidagi j harfi ikki tovushni ifodlashi nutqning tovush jihatidan sonini oshiradi.

Hozirgi o‘zbek adabiiy tilida unli fonemalar oltita:

Tovush	Harf
a	<i>a</i>
o	<i>o</i>
e	<i>e</i>
u	<i>u</i>
o‘	<i>o‘</i>

Unli fonemalar tilning harakatiga ko‘ra klassifikatsiya qilinadi. Shunga ko‘ra ayrim vaqtlarda tovushlarning aytilishi va yozilishida farq qiladi.

Masalan: *a* unlisi (muomila, munosibat, muhokima va b) i tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, ammo har vaqt muomala, munosabat, muhokama yozilishi kerak

o unlisi urg‘usiz bo‘g‘inlarda o–tovushi *a* tarzida aytiladi: kanstitutsiya, lekin konstitutsiya yoziladi.

u unlisi ba‘zan ikkinchi bo‘g‘inda *i* eshitilsa ham, *u* yoziladi: butun, tushuncha, usul yoziladi.

Undosh fonemalar jarangli va jarangsiz undoshlarga ajratiladi. Undosh tovushlar so‘zlash a‘zolarining faol ishtirokiga va ta’sirida paydo bo‘ladi. Undoshlarning muhim xususiyati ular orasidagi jarangli va jarangsizlikdir.

b, v, g, d, r, j, g‘, m, n, ng, y, l – jarangli

p, f, k, t, s, ch, sh, x, q, h – jarangsiz.

J- harfi o‘zbek yozuvida ikki tovushni belgilashga hizmat qiladi. Bu tovushlardan biri portlovchi b‘lib, uni talaffuz qilganda tilning uchi yuqori tish milkklariga yopishib zo‘r bilan aytiladi. J – portlovchisi nutqimizda juda ko‘p uchraydi : jon, majlis, Jahon, vaj. Lekin rus tilidan va boshqa jahon tillaridan olingan so‘zlarda sigg‘aluvchi qorishiq tovush o‘rnida aytiladi va yoziladi: jurnal, jyuri, garaj, tiraj mujgon.

S – yoki rus tili va Ovrupa tillaridan o‘tgan so‘zlardagi ajratilmas ts tovushi yangi imlo bo‘yicha quyidagicha yoziladi: Soy, sirk kabi so‘zlarda xat boshida kelsa bitta *s* shaklini, xat o‘rtasida unlidan so‘ng *ts* ikki harfni: militsiya, xat o‘rtasida

³²⁹ Fonematik eshitish – tovushni aniq talaffuz qilish, boshqa tovushlardan farqlash, bo‘g‘in yoki so‘zdan o‘sha tovushni ajrata olish ko‘nikmasi.

undoshdan so'ng bitta *s* shaklini: ssenariy, konsert va boshqa, xat oxirida unidan so'ng bitta shaklda yoziladi.

$X(x)$ va $H(h)$ tovushlari paydo bo'lish o'rniga ko'ra ham aytilishiga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi. $H(h)$ bo'g'zda paydo bo'lib, sirg'aluvchi va ma'no ayiruvchi tovush o'rnida yoziladi: *behi, hush, shohi, ham, hamma, ogoh..* $X(x)$ esa portlovchi, til orqa tovushi: *xulq, shox, xat, baxt, taxt, mix, axborot* kabi.

Demak, orfografik jarayon, ayniqsa boshlang'ich ta'limda, nihoyatda murakkab jarayondir. Bu murakkablikka muvofiq keladigan samarali usullarni belgilash va ularni amalga oshirishda o'quvchilarning individual va o'ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olish va ta'lim jarayonini muayyan tizimda, muayyan strukturada tashkil qilish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdumannotov A. Boshlanqich sinf o'quvchilarida axloqiy xislatlarni shakllantirishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish. // Pedagogikaning dolzarb muammolari, 1-qism, Samarqand, 1998, 61-62 b.
2. Barkamol avlod orzusi // Qurbonov Sh., Sayidov Q, Ahliddinov R. //Xalq ta'limi. 1998. №6 4-196.
3. Boshlanqich ta'lim Kontsepsiyasi //Boshlanqich ta'lim, 1998, №6, 15-18 bet.
4. Ibroximov I., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1997.– 439 6.
5. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'z.R.FA. Fan. 2000. - 128 b.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALA YECHISHGA O'RGATISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

N.Rodjiyeva, Bog'dod tumani 40-maktab o'qituvchisi

Masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Matematikada masalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiiq qilishning mutloqo tabiiy yo'lidir.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan masalalar yechishning u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonidagi muhim o'rnini ta'kidlab, dasturda shunday deyiladi: «Natural sonlar arifmetikasi, nolni o'rganish maqsadga muvofiq masalalar va amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan, uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan bog'lanadi».

Sodda masalalar o'quvchilarni matematik munosabatlar bilan tanishtirishning muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Sodda masalalardan ulushlar, qator geometrik tushunchalar va algebra elementlarini o'rganishda ham foydalaniladi.

Sodda masalalar o'quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo'ladigan bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yechilishi uchun bir nechta o'zaro bog'liqamallarni bajarish talab qilinadigan masalalar *murakkab masalalar* deyiladi. Sodda masalalar kabi murakkab masalalar ham, bilimlarni o'zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Sodda va murakkab masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib, odatda, o'z ichiga «yashirin ma'lumotlarini» oladi. Bu informatsiyani qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Psixologiya kursidan ma'lumki, tafakkurning rivojlanishi shaxsning ijodiy aktivligi orqali aniqlanadi. Chunonchi, masalalarni mustaqil yechishni tashkil qilish o'qituvchiga o'quvchilarning mumkin bo'lgan aqliy qobiliyatlari zaxiralaridan foydalanish imkonini beradi. Bundan masalalarning yana bitta, favqulodda muhim funksiyasi kelib chiqadi. Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi.

Bolalarga zamonaviy tarbiya berishda ham matnli masalalarning o'rni katta. Masalalar o'quvchilarning fikr doiralarini kengaytirishga yordam beradi, ularni o'z shahrining, qishlog'ining, jamoa xo'jaligining hayoti bilan, kishilar mehnatlari bilan tanishtiradi. Yangi texnikani ishlab chiqarishga hisobiga yoki mehnatni yaxshi tashkil qilish hisobiga mehnat unumdorligini orttirish, mustaqil davlatimiz kishilarining farovonligini oshirish, hukumatimizning bolalar haqida, ularning o'qishlari va dam olishlari borasidagi g'amxo'rliqi kabi muhim muammolarni ularning kuchlari yetadigan materiallarda tushuntiradi.

Masalalar ustida ishlanar ekan, tizimli ravishda va rejali asosda o'quvchilarning xususiy malakalarini takomillashtirishni ham o'ylab ko'rish kerak, chunki bunday xususiy malakalardan, masala yechishning umumiy murakkab malakasi tarkib topadi.

Turmushda sonlar bilan bog'liq bo'lgan cheksiz ko'p hayotiy vaziyatlar vujudga keladiki, bu sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarish talab qilinadi. Bular masalalardir. Masalan:

1. Rahimda 15 ta daftar bor edi, akasi unga yana 2 ta daftar berdi. Rahimning daftarlari nechta bo'ldi? (3-masala, 96 bet, 1-sinf).

2. Yengil mashina yo'lda soatiga 56 km tezlik bilan 4 soat yurdi. Mashina qancha masofani bosib o'tdi?

3. Magazinda ikki bo'lak chit sotildi. Birinchi bo'lak uchun 1800 so'm, ikkinchi bo'lak uchun ikki marta ko'p pul berishdi. Ikkinchi bo'lak uchun qancha pul berishgan?

Ta'lim maqsadlarida ko'pincha abstrakt vaziyatlardan foydalaniladi va «mavhum masalalar» deb ataluvchi masalalar hosil qilinadi. Masalan:

4. 8 ni hosil qilish uchun 12 dan qaysi sonni ayirish kerak?

Biz bir nechta arifmetik masalalarni ko'rib chiqdik. Ularda qanday umumiylik bor?

Avvalo har bir masala berilgan (ma'lum) va noma'lum (izlanayotgan) sonlarni o'z ichiga oladi. Masaladagi sonlar to'plamlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini xarakterlaydi, munosabatlarni ifodalaydi yoki berilgan mavhum sonlar bo'ladi. Masalan, 1-masalada 15 soni daftarlar to'plamining sonini xarakterlaydi. 2-masalada 56 soni miqdor uzunlikning qiymatidir. 3-masalada 2 soni ikki sonning munosabatini: ikkinchi va birinchi bo'lakdagi chitning bahosini ifodalaydi. 4-masalada 12 va 8 mavhum sonlar berilgan bo'lib, bular mos ravishda kamayuvchi va ayirmadir.

Har bir masalada shart va savol bo'ladi. Masala shartida berilgan sonlar orasidagi va berilgan sonlar bilan izlanayotgan son orasidagi bog'lanish ko'rsatiladi, bu bog'lanishlar tegishli arifmetik amallarni tanlashni belgilab beradi. Savol esa qaysi son izlanayotgan son ekanligini bildiradi. Masalan, 2-masalaning sharti: «Yengil mashina yo'lda soatiga 56 km tezlik bilan 4 soat yurdi», uning savoli: «Mashina qancha masofani bosib o'tdi?».³³⁰

Masalani yechish - bu masala shartida berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog'lanishni ochib berish va bu asosda arifmetik amallarni tanlash, keyin esa ularni bajarish hamda masala savoliga javob berish, demakdir.

Yuqorida keltirilgan masalalarning yechilishini ko'rib chiqaylik.

1-masala sharti daftar to'plamlari birlashmasi amalini aniqlaydi. Masala savoli mazkur to'plamlar birlashmasi sonini topishni talab qiladi. To'plamlarning birlashmasi amali masala yechilishi uchun zarur bo'lgan berilgan sonlarni qo'shish amaliga mos keladi: $15 + 10 = 25$. Masala savoliga javob: Rahimda 25 ta daftar bo'lgan. 2-masala shartidan mashinaning tezligi va uning harakat vaqti ma'lum. Mashina bosib o'tgan yo'lni topish talab qilinadi. "Bu kattaliklar orasidagi mavjud

³³⁰ Xalillayev A., Xudoynazarov E. boshlang'ich sinflarda masala yechishga o'rgatish metodikasi.(metodik qo'llanma), Urganch, 2010

bog'lanishdan foydalanib masalani yechamiz: $56 \cdot 4 = 224$. Masala savoliga javob: mashina 224 km yo'l yurgan.

3-masalani yechish uchun «ikki marta ko'p» ifodasining ma'nosini bilishdan (tushunishdan) foydalaniladi: $1800 \cdot 2 = 3600$. Masala savoliga javob: ikkinchi bo'lak 3600 so'm turadi.

Ko'rib turibmizki, hayotiy vaziyatlardan arifmetik amallarga o'tish turli masalalarda berilgan sonlar va izlayotgan son orasidagi turli bog'lanishlar bilan belgilanar ekan.

Masalalarning turlari (klassifikatsiyasi) haqidagi masalaga to'xtalamiz.

Hamma arifmetik masalalar ularni yechish uchun bajariladigan amallar soniga qarab, sodda va murakkab masalalarga bo'linadi. Yechilishi uchun bitta arifmetik amal bajarilishi zarur bo'lgan masala *sodda masala* deyiladi. Yechilishi uchun bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta (ular bir xil yoki har xil amal bo'lishlaridan qat'iy nazar) amalni bajarish zarur bo'lgan masala *murakkab masala* deyiladi.

Sodda masalalarni qanday amal yordamida yechilishiga qarab (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish bilan yechiladigan sodda masalalar) yoki ularning yechilishi davomida shakllantiriladigan tushunchalarga bog'liq ravishda turlarga ajratish mumkin. Murakkab masalalar uchun ularni ishga foydasi tegadigan qilib bunday ma'lum gruppalariga klassifikatsiyalashning yagona asosi yo'q. Biroq metodik mulohazalar bo'yicha turli-tuman murakkab masalalar majmuasidan ba'zi gruppalarni yo matematik strukturasiqa qarab (masalan, yig'indini songa bo'lish lozim bo'lgan masalalar) yoki yechish usuliga qarab (masalan, o'zgarmas miqdorning qiymatini topish usuli bilan yechiladigan masalalar), yoki konkret mazmuniga qarab (masalan, harakat bilan bog'liq bo'lgan masalalar) ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Matematikaning boshlang'ich kursida sodda masalalar va asosan 2-4 amalli murakkab masalalar o'rgatiladi.

Masala - savollar deb ataluvchi mashqlar arifmetik masalalar bilan yaqin bog'lanishda bo'ladi. Savollarda ham masalalardagidek masala sharti (unda sonlar bo'lishi ham mumkin, bo'lmasligi ham mumkin) va savol bo'ladi. Biroq, masala-savolini hal etish uchun masaladan farqli o'laroq berilgan sonlar bilan izlanayotgan son orasidagi tegishli bog'lanishni aniqlash yetarli bo'lib, arifmetik amallarni bajarish zarur emas. Masalan: Ikki qishloqdan bir vaqtning o'zida, bir-biriga qarab velosipedchi va mototsiklchi yo'lga chiqib, ular 36 minutdan so'ng uchrashdilar. Ularning har biri uchrashguncha yo'lda qancha vaqt bo'lgan?

Matematikani o'qitish umumiy sistemasida masalalar yechish samarali mashq qilish turlaridan biridir. Masalalar yechish bolalarda avvalo mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish, ularning dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega. Masalan, agar biz o'quvchilarda qo'shish haqida to'g'ri tushuncha shakllantirishni istasak, buning uchun bolalar

yig'indini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to'plamlarni birlashtirish amalini bajarib yechishlari zarur. Masalan: quyidagi masala berilgan: «Qizchada 4 ta rangli va 2 ta oddiy qalam bor. Qizchada hammasi bo'lib nechta qalam bor?» Masala shartiga muvofiq ravishda bolalar, masalan, 4 ta cho'p qo'yadilar, keyin bu 4 ta cho'p yoniga yana 2 ta cho'p surib qo'yadilar va hammasi bo'lib nechta cho'p bo'lganini sanaydilar. So'ngra masalani yechish uchun 4 ga 2 ni qo'shish kerakligi va 6 hosil bo'lishi oydinlashtiriladi. Shunga o'xshash masalalarni ko'plab yyechib, bolalar qo'shish amali haqidagi tushunchani asta-sekin egallab boradilar. Masalan, amalning noma'lum komponentasini (noma'lum qo'shiluvchi, kamayuvchi va h. k. ni topish) topishga doir masalani yechayotib, bolalar arifmetik amallarning komponentalari va natijalari orasidagi bog'lanishni o'zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev. M. Va b.q. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T., 2016-y 312-b.
2. Bikbayeva N., Girfanova K. «Matematikadan og'zaki mashqlar» 3-sinf T., 1999.
3. Ahmedova. M, Abdurahmonova. N, Jumayev. M "Umumtalim maktablarining birinchi sinflari uchun darslik", "TuronIqbol", T., 2010-yil
4. Xalillayev A., Xudoynazarov E. Boshlang'ich sinflarda masala yechishga o'rgatish metodikasi.(metodik qo'llanma), Urganch, 2010-y.
5. Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2012 – 2018-yillar

INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARDA GRAMMATIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.

Ahmedova Gulsaraxon, Rasulova Mahfuzaxon
Uchko'prik tumani 1-IDUMI oliy toifali o'qituvchilari

Grammatik o'yinlarni tashkil qilish ham bir qator metodik omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Bu usulni dars jarayoniga tadbiiq etar ekan o'qituvchi har bir mavzuga, uning mazmuniga ijodiy yondashishi zarur. Yana bir muhim tomoni grammatik o'yinlarni uyushtirishda sinf o'quvchilarining xususiyatlari ham hisobga olinishi kerak. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, qaysi sinfda o'qishi va o'rganilgan mavzularni hisobga olish va mashg'ulot mazmunini ana shu ko'rsatkichlarga qarab tuzish grammatik o'yinlarning samarali uyushtirilishiga ijobiy ta'sir qiladi. O'rganilayotgan grammatik tushunchalarni tez va mustahkam o'zlashtirib olish imkonini beradi. Grammatik o'yinlar grammatikaning qaysi

bo`limi yuzasidan o`tkazilishiga qaramay, ular tasodifan bo`limasligi kerak. O`qituvchi unga ham darsga tayyorgarlik ko`rganday puxta hozirlik ko`rishi lozim.

Har qanday grammatik o`yin uyushtirilar ekan unga bolalar tayyor bo`lishlari kerak. Aks holda bola bajarilishi rejalashtirilgan ishning mazmunini tushunmagan holda unga kirishadi. O`zi lozim ko`rgan yo`nalishda ishga kirishadi. Bu holat o`quvchining intellektual holatini o`stirmaydi. Bolani chalg`itib qo`yadi. Agar o`yinga bir necha bor shunday kirishilaversa, bunday mashg`ulot zerikarli bo`lib qoladi va oqibatda bolaning bilish faoliyatiga aks ta`sir qiladi. Uning oldini olish maqsadida o`quvchilarga beriladigan har bir topshiriqning mazmuni to`liq tushuntirilishi, o`xshash misollar bajarib ko`rsatilishi, namuna berilishi lozim. Grammatik o`yinlar bolalarning bilim darajasiga qarab murakkablashtirilishi yoki soddalashtirilishi mumkin. Buni o`qituvchining o`zi belgilaydi. Bolalarga fonetikadan so`zning oxiriga bir tovush qo`shib yangi so`z hosil qilish o`yini o`tkazilganda so`zga qo`shilgan tovushni so`zning tarkibi bo`yicha tahlil qilish topshirilsa o`yin murakkablashadi. Berilgan so`zlar ishtirokida gap tuzish o`yini o`tkazilganda ishni qaysi so`zdan boshlab ko`rsatilsa o`yin soddalashadi. O`yinni soddalashtirish yoki murakkablashtirishni o`qituvchining o`zi o`ylab ko`rishi lozim. O`yinga bir-ikki nafar bolaning faol qatnashishi bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Unga o`quvchilarning aksariyat qismi, iloji bo`lsa hammasi faol qatnashishi kerak. Chunki o`yin bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi. O`yinlarni bolalar jamoa bo`lib bajarar ekan, uning barcha a`zolari faol qatnashgandagina ko`zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu mashg`ulotda barcha o`quvchi bir maqsad yo`lida harakat qiladi. Hamma g`olib bo`lishga intiladi. Bunday holat har bir o`quvchining ma`suliyatini oshiradi.

Javob berayotgan o`quvchi o`z guruhining ishonchini oqlashga harakat qiladi. Noto`g`ri javob bersa, bolalar oldida o`zini noqulay sezadi. Ayrim hollarda o`zini o`zi koyiydi. Keyingi o`yinlarga puxta hozirlik ko`radi. Bunday mashg`ulotlar bolalarni ko`proq o`qishga chorlaydi. G`oliblik nashidasini birgalashib surishga undaydi.

O`yinda kimdir mag`lubiyatga uchraydi. Bu tabiiy hol. Shuning uchun o`yin bellashuvlar bolalarni yana bir xislatga - mag`lubiyatni tan olishga o`rgatadi. Bu esa bola tarbiyasida juda muhim. Ba`zan o`quvchilar orasida o`z mag`lubiyatini tan olmay, kimdandir kamchilik axtarishga, hakamlarni “sotilgan”likda ayblashadi.

Maktab hayotida bunday voqealar tez-tez uchrab turadi. Bunday holatda o`quvchiga yotig`i bilan tushuntirishdan zerikmaslik lozim. Bir-ikki marta shunday munozaradan keyin o`yin mashg`ulotlarini to`xtatib qo`ymaslik kerak.

Bu o`yinni bir so`z turkumi doirasida o`tkazish ham mumkin. Ot so`z turkumiga oid atoqli va turdosh otlar o`rtasida, rang-tus sifatlari va maza-ta`m sifatlari orasida ham o`tkazish mumkin.

O`z so`zingni top o`yini

Sinf o`quvchilari ikki guruhga bo`linadi. Ha bir guruhdagi bolalar berilgan matndan o`qituvchi bergan topshiriqqa oid so`zlarni tanlab oladi. Birinchi guruhdagi o`quvchilar matndagi ot so`z turkumiga oid so`zlarni, ikkinchi guruhdagilar sifat so`z turkumiga oid so`zlarni tanlab yozadi. Buning uchun o`qituvchi so`zlar yozilgan ko`chma doska yoki kartonni bolalarga ko`rsatadi. Har ikkala guruh ham ishga tushib ketadi, Qaysi guruh o`quvchisi tez va to`g`ri bajarsa o`sha guruh g`olib hisoblanadi va rag`batlantiriladi.

So`zlar: Kartoshka, shirin, parta, baland, olma, katta, qora, kichik, tuzli, o`rik, ko`rkam, nordon, kitob, yoqutday, daftar, ko`k, bodring, achchiq, paxta, pilla, taxir, qalam, ruchka, do`ppi, bo`r, totli.

1-guruh
Ot so`z turkumiga oid so`zlar

2-guruh
sifat so`z turkumiga oid so`zlar

1. kartoshka
2. parta
3. olma
4. o`rik
5. kitob

1. shirin
2. baland
3. katta
4. qora
5. kichik

- | | |
|------------|-------------|
| 6. daftar | 6. tuzish |
| 7. bodring | 7. ko`rkam |
| 8. paxta | 8. nordon |
| 9. pilla | 9. yoqutday |
| 10. qalam | 10. ko`k |
| 11. ruchka | 11. achchiq |
| 12. do`ppi | 12. taxir |
| 13. bo`r | 13. totli |

Agar o`quvchilar o`yinni to`g`ri bajarishsa har bir guruh o`n uchtadan so`z topishadi.

O`quvchilarda so`zning lug`aviy ma`nosiga qarab ma`lum turlarga ajratish ko`nikmasini shakllantirilishi uchun ushbu o`yin o`tkaziladi. O`qituvchi sinfning oldingi qismidagi stolga 15-20 kartochka yozib qo`yadi. O`quvchilar xattaxtaga chiqariladi. Ular har bir xattaxtaga o`qituvchi tomonidan yozib qo`yilgan mavzulardan birini tanlaydi.

1. Polizga oid so`zlar
2. Sinfga oid so`zlar
3. Sportga oid so`zlar.

O`quvchilar kartochkadagi so`zlarni o`qib, o`zlariga keraklilarini tanlab oladi. Bunday o`yin o`quvchilarni so`zning asosiy belgisiga qarab turlarga ajratishga o`rgatadi.

1. Polizga oid so`lar: qovun, sabzi, bodring, karam.
2. Sinfga oid so`zlar: kitob, xattaxta, parta, bo`r, daftar, jurnal.
3. Sportga oid so`zlar: futbol, o`yingoh, yugurish, to`p, zarba, gol.

G`alaba cho`qqisi o`yini

Bu o`yinni o`tkazish uchun ikki o`quvchi xattaxtaga chiqariladi. Ularning har biriga bittadan unumli so`z yasovchi qo`shimcha beriladi. O`quvchilarning berilgan yasovchi qo`shimcha yordamida belgilangan miqdorda so`z tuzishi va xattaxtaga yozishi talab qilinadi. Bu o`yinni ot, sifat, fe`l so`z turkumlari o`tilganda uyushtirish mumkin. Ot so`z turkumini o`rganish jarayonida o`yinni quyidagicha uyushtirish mumkin.

G`alaba cho`qqisi.

-zor qo`shimchasi.

10. uzumzor

9. bog`zor.

8. limonzor

7. shaftolizor

6. sholizor

5. olmazor

4. o`rikzor

3. bedazor

2. gulzor

1. lolazor

-dosh qo`shimchasi.

10. elkadosh

9. vatandosh

8. qishloqdosh

7. maktabdosh

6. uyadosh

5. kursdosh

4. o`lkadosh

3. yo`ldosh

2. sinfdosh

1. sirdosh

Bo`g`inlardan gap tuzish o`yini.

Bu o`yinni uyushtirishda o`quvchilarga bo`g`inlar beriladi. Tavsiya etilgan bo`g`inlar ishtirokida so`z va gaplar tuziladi. Ushbu o`yinni uyushtirishda bo`g`inlar majmuasini butun sinfga tavsiya etish ham mumkin. Bolalarning qiziqishlarini oshirish maqsadida o`quvchilarni ikki guruhga ajratib har bir guruhga alohida bo`g`inlar beriladi. Qaysi guruh topshiriqni tez bajarsa o`sha guruh g`olib hisoblanadi. Bo`g`inlar albatta tartib bilan emas, aralash holda berilishi lozim. O`yinni soddalashtirish maqsadida ga`ni qaysi bo`g`indan boshlash alohida rangda ko`rsatiladi.

Topshiriqlar.

I.

Ish ishtaha ochar

II.

Bilim baxt keltirar.

III.

Maktab –bilim o`chog`i.

IV.

Ona bilan bola- gul bilan lola.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. Ziyodova “O’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish”, T. “Oqituvchi”, 2001.
2. Yusupova Sh, Rejapova D. Integratsiyalashgan darslar tshkil etish metodikasi. Andijon. 2007
3. Musayev U. Integratsiya darajalari // Xalq ta’limi. – 2002. - № 6.-B. 5-6.

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSALARI TARBIYALANUVCHILARNING NUTQIY MULOQOTLARI XUSUSIDA

N. Nosirova, Qo’qon shahar

MTB tasarrufidagi 28-DMTT metodisti

Ijtimoiy hayotga endi kirib kelayotgan go’dak kelajakda o’zining mustaqil o’rnini topishi, ruhiy kechinmalarini to’g’ri yo’lga solishi, qolaversa, jamiyat uchun foyda keltiradigan inson bo’lib etishida uning lisoniy axloqi katta ahamiyatga ega. Lisoniy axloqning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo’luvchi muomala madaniyati, nutq odobi, kommunikativ salohiyat har bir insonning maktabgacha yosh davrida shakllanadi va rivojlanadi. Bolalarning ona tili lug’at tizimi imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o’z fikrlarini so’zlar vositasida erkin, ravon va silliq tarzda ifodalashlariga erishishni ta’minlash ushbu tajribaviy kuzatuvning bosh maqsadini belgilaydi.

Kattalar tomonidan bolani muloqotga jalb etish unda muomala madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bolaga qaratilgan nutq uning xulq-atvorini tartibga solib turuvchi, bajaradigan vazifalarini rejalashtirishga undovchi vositadir. Bolaning odobi dastlab uning tilida, tili orqali nutqiy xulqida o’z aksini topadi. Go’daklik davridan boshlab, odob doirasidagi muomala madaniyatini o’zlashtirgan insonga nutqiy muloqotni egallagan shaxs sifatida qaraladi. So’zlashuv odobi o’z tabiati va mohiyatiga ko’ra ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Jamiyatga xos qonuniyatlar tarbiya jarayonidagi muomala odobining poydevoridir. Muomala odobi jamiyat tomonidan qabul qilingan ma’naviy, umumbashariy va milliy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi.

Lingvistik kommunikatsiya (nutqiy muloqot) jarayonida fikr almashish hodisasi har bir insonda, ongli mavjudotda asosan verbal usul bilan, ya’ni so’z orqali amalga oshadi. Shunday ekan, o’z-o’zidan nutqiy odat, nutq madaniyati, nutqiy axloq yoki

nutqiy xulq, muloqot xulqi, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ salohiyat hamda lisoniy qobiliyat tushunchalariga izoh berish maqsadga muvofiqdir.

Mashhur olim S.I.Ojegovning fikricha, nutqiy odat va nutq madaniyati tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Yuqori nutq madaniyatiga erishish uchun so'zlovchida bilim va malakalar etarli bo'lishi bilan birga, o'z fikrini til birliklari yordamida to'g'ri, aniq va ifodali etkazib bera olish mahorati ham bo'lishi lozim³³¹. Muloqot xulqi yoki nutqiy xulq termini taniqli o'zbek tilshunoslarining asarlarida ham tilga olinadi. Xususan, S.Mo'minov bu atamani xalqaro terminga aylangan "kommunikasiya" va muloqot shakllarining bir uzvi sifatida muomala tarzi, usuli ma'nosida qo'llaydi³³².

Nutqiy muloqot nazariyasida kommunikativ kompetensiya muhim markaziy tushunchalardan biriga aylanadi. Kommunikativ qobiliyat muloqot aktining ajralmas qismi ekan, unga nutqiy xulq tushunchasi bilan bog'liq holda yondashish nutqiy muloqot nazariyasi masalalariga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shu maqsadda biz 5-6 yoshli bolalarnutqi ustida tajribaviy kuzatuv olib bordik³³³. Sinov jarayonida "Zumrad va Qimmat" haqidagi ertak qahramonlari tasvirlangan suratlardan material sifatida foydalandik. Tajribada Qo'qon shahridagi 28-son maktabgacha ta'lim muassasasining o'n nafar tarbiyalanuvchisi ishtirok etdi. Bolalar bilan savol-javob usuli asosida interaktiv suhbat o'tkazildi.

Biz bolalar bilan muloqot jarayonida ularning o'ziga xos, boshqalarnikiga o'xshamaydigan javoblari, mavhum tushunchalarni izohlashlari, turli nutqiy vaziyatlarda o'zlarini tutishlariga alohida e'tibor qaratdik. Masalan, "Xasis odam qanday bo'ladi?" tarzida berilgan savolga *pulga berilgan bo'ladi*, – deb javob berdi. Qolgan barcha bolalar: *yomon odam*, – deb javob berishdi.

Bolalarning qaysi ertaklarni bilishlari, ularni kimdan eshitganliklari va qanday ertak qahramonlarini yoqtirishlari, o'zbek xalq maqollari ma'nolarini tushuntirishlari, tez aytish va topishmoqlarni bilishlari bilan qiziqdik. Bundan

³³¹ Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. - М.: Высшая школа, 1974. - 287 с.

³³² Мўминов С.М Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. док. ...дис. - Тошкент, 2000. - Б. 22.

³³³ Tajriba Qo'qon shahridagi 28- maktabgacha ta'lim muassasida o'tkazilgan.

maqsad bolani o'rab turgan nutqiy muhit va oilaviy sharoitda uning muloqot xulqiga bo'lgan e'tibor hamda lisoniy qobiliyatning qay darajada shakllanganligini aniqlashdan iborat.

Bolalar “Sholg'om”, “Zumrad va Qimmat”, “Oltin tarvuz” kabi ertaklarni bilishlari, ularni asosan bog'cha tarbiyachilari hamda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining kanalida namoyish etilgan “Bolajon” ko'rsatuvi orqali ko'rib, eshitganliklarini aytdilar. Ikki nafar bolaning buvisi va bobosi tungi uyqu oldidan ertak aytib berishi, uch nafar bolaning tez aytishlarni bilishi kuzatildi. Jumladan, Fayozbek Yusupov *fil fili oldida fantan* tarzidagi tez aytishni nutqda to'g'ri ifodalashga harakat qildi. Mustafu Azizov nutqida tez aytish quyidagicha aks etdi: ***Oq choynega ko'k choyne, ko'k choynega oq qopqoq.***

Ko'rinadiki, bu o'rinda tez aytish bola tomonidan buzib ifodalangan. Aslida “Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq” bo'lishi lozim. Soliha Muhammadjonvaning tez aytish bilan topishmoqni farqlamasligi uning bergan javobidan aniqlandi: ***Qat-qat qatlama, aqling bo'lsa tashlama.***

Bolalar keltirgan tez aytishlar ularning nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda bolaning xotirasi shakllanadi. Talaffuz moslashtirilgani uchun bolalar tomonidan aytilayotgan misollar o'ziga xos tarzda aks etadi.

Bola tafakkurining shakllanish davrida ikki muammo: yaxshilik va yomonlik o'rtasida tanlov jarayoni kechadi. Bola kattalar yordamida ulardan birini tanlaydi. Kattalar uchun bu tushunchalar bir qarashda sodda tuyuladi. Biz masalaga psixolingvistik nuqtai nazardan yondashar ekanmiz, bu holatni bolaning lug'at zaxirasi bilan bog'laymiz. Chunki so'z boyligi kam bo'lgan bolalarda aynan shu holat kuzatiladi:

- Dunyoda qanday odamlar bor?
- ***Yaxshi, yomon.***
- To'polonchi bola qanday bo'ladi?
- ***Yomon.***
- Kishilar qanday bo'lishlari kerak?
- ***Yaxshi.***

Tajriba jarayonida bolalardan “Zumrad va Qimmat” ertagi qahramonlari tasvirlangan rasmlarga qarab, uni soʻzlab berish soʻraldi. Chunki ertak asosida savol-javob oʻtkazilganida, bola undagi qahramonlarning dialoglarini xotirada saqlab qoladi. Bu esa kitobda tasvirlangan suratlar yordamida ertak qahramonlarining soʻzlarini qayta hikoya qilib berishda qulayliklarni yuzaga keltiradi. Tinglangan ertak mazmunini rasmlar vositasida soʻzlab berish bola monologik nutqining rivojlanib borishiga muayyan darajada yordam beradi. Bu boradagi amaliy izlanishlar jarayonida quyidagi holatlar kuzatildi:

Muhammadsafo Rahmatullayev ertakni rasmlar yordamida soʻzlab berishda undagi vaqealar ketma-ketligini toʻgʻri, aniq ifodalashga intildi. Lekin Mustafo Aliyev ham Zumrad va Qimmat haqidagi ertak voqealarini ketma-ket, aniq tushuntirishga bir oz qiynaldi, uning nutqida *anaqa* soʻzi koʻp takrorlandi.

Bu borada olib borilgan tajribaviy kuzatuv natijalari shuni koʻrsatdiki, bola 5 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan davrda biron-bir ertak yoki maqol yuzasidan fikr yuritishda deduktiv (fikrning umumiylikdan xususiylikka yoʻnalishi) hamda induktiv (fikrning xususiylikdan umumiylikka yoʻnalishi) usullardan foydalanadi. Bunda bola asosan ijtimoiy muhitga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda fikrlashga harakat qiladi.

Bir nutqiy vaziyatda yuqori salohiyatli bola boshqa vaziyatda oʻz lisoniy qobiliyati hamda nutqiy xulqini toʻliq namoyon qilmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda bola bilan muloqotga kirishuvchi shaxs tomonidan voqelikka nisbatan individual yondashilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, hozirgi kunga qadar tilshunoslikda maktabgacha yoshdagi oʻzbek bolalar nutqining fonetik, grammatik hamda kommunikativ xususiyatlari umumlingvistik va sociolingvistik jihatdan muayyan darajada tadqiq etilgan. Biroq maktabgacha taʼlim muassasasi tarbiyalanuvchilari nutqi leksikasining sosiopsixolingvistik xususiyatlari yuzasidan yirik tadqiqot amalga oshirilmagan.

МУҲДАРИЖА

1. **Kirish so‘zi. Atadjanov M.Y.** - Qo‘qon DPI rektori.
ILM-MA‘RIFAT – KELAJAK POYDEVORI.....3
2. **Bozorov O.** - Qo‘qon DPI professori, filologiya fanlari doktori.
FALSAFIY METODOLOGIYA VA TIL NAZARIYASINING DOLZARB
MUAMMOLARI.....5
3. **Iskandarova Sh.** - FarDU professori, filologiya fanlari doktori.
O‘ZBEK TILIDAGI “SHAXS” ARXISEMALI SPORTGA OID
BIRLIKLAR.....9
4. **Uluqov N.** - NamDU professori, filologiya fanlari doktori.
ROBIDDIN IS‘HOQOV SHE‘RLARINING AYRIM FONOSTILISTIK
XUSUSIYATLARI.....2
5. **Nabiyeva D.** - ADU f.f.d., professor,
Nurmanova D. - ADU f.f.n., dotsent.
O‘ZBEK TILIDA UNDOSHLAR ZIDLANISHINING
MO‘TADILLASHUVIGA SINERGETIK YONDASHUV.....16
6. **Berdialiyev A.** - Xo‘jand DU professori, f.f.d.
HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA TARIXIY O‘ZAKKA AYLANGAN AYRIM
LUG‘AVIY BIRLIKLAR HAQIDA..... 20
7. **Do‘simov Z.** - f.f.d., Urganch DU professori.
NOMLAR – XALQ TILINING ENG QADIMGI YODGORLIKLARI
SIFATIDA.....23
8. **Hakimov M.X.** - F.f. d., professor v.b.,
Gaziyeva M. - FarDU (PhD) doktori.
NUTQIY AKT STRUKTURASI.....26
9. **Saidov Yo.** - BuxDU f.f.d., professori.
XORAZMIY «MUHABBATNOMA» ASARINING TILI XUSUSIDA.....30
10. **Shukurov R.** - QDPI f.f.n., dotsent.
SIFAT ANTONIMLAR.35
11. **Madrahimov I.** - Qo‘qon DPI f.f.n., dotsent.
LINGVISTIK HODISALAR TALQINIGA DOIR.....36
12. **Abduvaliyeva D.A.** - JDPI, f.f.b.f.d.(PhD).
ALISHER NAVOIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO‘LLANGAN
FORSCHA-TOJKCHA SO‘ZLAR.....39
13. **Mahmudova S.I.** - O‘zDSM instituti f.f.n., dotsent.
FILOLOGIK FANLAR VA OLIY TA‘LIM: MAQSADLAR
UYG‘UNLIGI.....43
14. **Bozorov O.O.** - Qo‘qon DPI f.f.n., dotsent.
MIQDOR O‘ZGARISHLARINING SIFAT O‘ZGARISHLARIGA
AYLANISHI ASOSIDA TIL TOVUSHLARINING SHAKLLANISHI.....46
15. **To‘xtasinova O.Y.** -Qo‘qon DPI f.f.n., dotsent.

	OKKAZIONAL SO‘ZLAR VA UNGA YONDOSH HODISALAR XUSUSIDA.....	50
16.	Akramov Sh.T. - QDPI dotsenti. KESIM – GAP VA UNING TASHKIL ETUVCHILARI XUSUSIDA.....	52
17.	Turdaliyeva D.S. - FarPI (PhD) doktori. BORLIQNI ESTETIK IDROK ETISH MAHORATI.....	55
18.	Ganiyeva D. - TATU f.f.n. dotsent. GRAMMATIK SHAKLLAR VA MAZMUNYIY SINKRETIZM.....	58
19.	Ermatov I. R. - GulDU (PhD) doktori. TERMINOLOGIYA TIZIMIDA DUBLETLIK MUNOSABATI HAQIDA..	61
20.	Rahimova M. - Qo‘qon DPI (PhD) doktori. SO‘ZNING BELGILIK XUSUSIYATLARI.....	64
21.	Gaziyeva M. – FarDU (PhD) doktori. NUTQIY AKTNING SEMANTIK TURLARI XUSUSIDA.....	66
22.	Mo‘ydinov Q. - O‘TAU (PhD) doktori. SUD NUTQI LEKSIK BIRLIKLARINING MA‘NOVIY MUNOSABATLARI.....	70
23.	Babaxanova D.A. - NamDU f.f.n., dotsent. OLMOSH USLUBIYATI.....	73
24.	Шамсиева М.Б. Базовый докторант (PhD) НУУз. БИЛИНГВИЗМ ИЛИ ДВУЯЗЫЧИЕ В ЛИНГВИСТИЧЕСКОМ ИНТЕРПРЕТАЦИИ.....	77
25.	Saparova K.O. - Doctor of Science, Associate Professor UzGUMYA PROVERB AS AN OBJECT OF LINGUISTIC ANALYSIS.....	80
26.	Jamoliddinova D. - QDPI f.f.n., dotsent. ASQAD MUXTOR ASARLARIDA QO‘LLANGAN TERMINLAR BADIYATI.....	82
27.	Kilichev N. R. - Qoraqalpoq DU. TURKIY TILLARDA QOLMOQ/ QALBIO‘/ GALMAK FE‘LI SEMALARI QIYOSIY TAHLILI (O‘ZBEK, QORAQALPOQ, TURKMAN TILLARI MISOLIDA).....	83
28.	Norbayeva Sh. - Urganch DU dotsenti, (PhD). XORAZM SHEVALARI LEKSIKASIDA O‘ZLASHMA QATLAM BOSQICHLARI.....	86
29.	Hasanova D.O. -Qo‘qon DPI f.f.n., dotsent. O‘ZBEK TILIDA ”SHAXS TILI” TUSHUNCHASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	90
30.	Toirova G. – BuxDU (PhD) doktori. “O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUS”NI YARATISHNING TEXNOLOGIK JARAYONI XUSUSIDA.....	92
31.	Uluqov N. - NamDU professori, f.f.d. Yunusova B - NamDU mustaqil tadqiqotchisi. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI ULTONTUZ ANTROPONIMI XUSUSIDA.....	95
32.	Abduvaliyeva D. - f.f.f. (Phd).	

- Xoldorova SH.** - JDPI magistranti.
SIROJIDDIN SAYYIDNING METAFORALARDAN FOYDALANISH MAHORATI.....98
33. **Hasanov A.** - QDPI dotsenti,
Artikova M. magistrant.
BADIY MATNNING ASSOTSIATIV MAYDONI (ABDULLA QAHHOR HIKOYASI MISOLIDA).....100
34. **Zokirova S.M.** - (PhD) doktori,
Usmonova O.J. - FarDU talabasi.
ORFOGRAFIYA XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR.....105
35. **T.Yusupova,** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti.
INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM METODI YORDAMIDA TASHKIL ETILGAN DARSLARDA FOYDALANILADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI.....108
36. **Boboxonova D. A.** - NamDU dots., f.f.n.,
Yoqubjonov M.R. - NamDU talabasi.
SINONIMLAR VA ANTONIMLAR USLUBIYATI.....115
37. **Toirova G.** - BuxDU dotsenti,
Zaripova A. - BuxDU talabasi.
NUTQIY MULOQOTNING YAKUNIY BOSQICHI HAQIDA.....118
38. **Yuldashev F.** - O‘zDJTU katta o‘qituvchisi.
AFORIZMLARNING LUG’AVIY-QIYOSIY TAHLILI.....120
39. **M. Ergashova** - QDPI, f.f.n., dotsent,
M. Mamatqulova - magistrant.
A.ORIPOV DOSTONLARI TILIDA ESKIRGAN LEKSEMALAR.....122
40. **Karimova Y.** -JDPI dotsenti, f.f.n.,
Narziyeva S. – JDPI magistranti,
MOHIYAT VA TALQIN (SH.BO‘TAYEVNING “QORA SOVUQ” HIKOYASI MISOLIDA).....126
41. **Mamajonova M.N.** - QDPI katta o‘qituvchisi.
TILSHUNOSLIKDA MIQDORIYLIKNING IFODALANISHI.....128
42. **Turdimatova Sh.T.** - Xujand DU izlanuvchi-tadqiqotchisi.
KIYIM-KECHAK MA’NOSIDAGI FUNKSIONIMLARGA MERONIM MAQOMIDA TOBE AYRIM SO‘ZLAR HAQIDA.....133
43. **Jumayeva F.** - JDPI katta o‘qituvchisi, f.f.d.(PhD).
MORFEMALARNING SEMANTIK TAHLILI.....135
44. **Hasanova D.** - f.f.n.dots.,
A’zamova Sh. - QDPI talabasi.
TILSHUNOSLIKDA TERMINLARNING YASALISHI.....140
45. **Abduvaliyeva D.** - f.f.b.f.d.(PhD),
Botirova R. - 4-bosqich talabasi.
PAHLAVON MAHMUD RUBOIYLARI SO‘Z BOYLIGINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....143

46. **Abdurakhmonova N.** - Tashkent, state university of Uzbek language and literature. **Kholmatova Sitara**, student.
BRIEF OUTLOOK ON CREATION OF UZBEK THESAURUS BY SKETCH ENGINE TECHNOLOGY.....145
47. **Rasulova Sh.X.** - Nosir Xisrav nomidagi Boxtar DU o'qituvchisi (Tojikiston).
ABU ABDULLOH RUDAKIY SHE'RIYATINING O'ZBEKCHA TARJIMASIDA QARINDOSHLIK VA YAQINLIK MA'NOSIDAGI LUG'AVIY BIRLIKLAR HAQIDA.....147
48. **Ahmedova H.** - Q'oqon DPI katta o'qituvchisi.
USLUBIY ME'YORLAR - NUTQ MADANIYATINING AJRALMAS BO'LAGI SIFATIDA.....150
49. **Yunusova Z. U.** - Tadqiqotchi (Tojikiston).
O'RTA UMUMTA'LIM MUASSASALARI DARSLIK VA QO'LLANMALARIDA FONETIKAGA OID ATAMALARNING SINXRON-QIYOSIY TAHLILI (O'ZBEK VA TOJIK TILLARI FONETIK TIZIMIGA MANSUB ATAMALAR MISOLIDA).....153
50. **Xoldarova I.** - (FarDU katta o'qituvchisi).
XALQ MAQOLLARI VA GENERATIV LEKSEMALAR.....157
51. **Alimova K.X.** - Toshkent davlat agrar universiteti katta o'qituvchisi.
MATN PSIXOLINGVISTIK TUSHUNCHA SIFATIDA.....160
52. **Yunusova Z.** - O'zDJTU katta o'qituvchi.
"HURMAT" KONSEPTINING IFODALANISHIDA NUTQIY ETIKETNING O'RNI.....163
53. **Nizomiddinova D.** - Qo'qon DPI katta o'qituvchisi.
Muhammadjonov G. - talaba
ETNOTOPONIMLAR MA'NOSINI O'RGANISHGA DOIR.....165
54. **Tillayeva M., Z.Qurbonova** - Urganch DU
ONOMASTIK NOMLARNI TO'PLASH USULLARI VA NOMLAR KARTOTEKASINI TASHKIL QILISH.....169
55. **Teshaboyeva F.** - QDPI stajyor-tadqiqotchisi
BADIY MATN TAHLILIDA AFORIZMLARNING O'RNI.....173
56. **Каримова В.В.** - преподаватель КГПИ.
СУППЛЕТИВИЗМ ЛЕКСИЧЕСКОГО ПЛАНА И ЕГО ОТНОШЕНИЕ К ЯВЛЕНИЯМ ГИПОНИМА И ГЕТЕРОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ (НА МАТЕРИАЛЕ ТЕРМИНОВ РОДСТВА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА).....176
57. **Komilov J. K.** - ToshTU Qo'qon filiali
HOZIRGI O'ZBEK TILIDAGI GRAFIK MULOQOTDA QADIMGI BELGILARNING AHAMIYATI.....182
58. **Minniqulov I.** - O'zDJTU
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHART KONSTRUKSIYALAR "RUXSAT SO'RASH" DIREKTIV NUTQ AKTI SIFATIDA.....186
59. **Muqimova G. R.** - BuxDU mustaqil izlanuvchisi
MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDAGI AYRIM METAFORALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....188

60. **Abdullayeva N.** - ToshIQXMMI Buxoro filiali o'qituvchisi
ANGLIYA VA AMERIKA ADABIYOTIDA "UNIVERSITET ROMAN"NING RIVOJLANISHI VA UNDA TALABA OBRAZINING ROLI.....190
61. **Burxonova M.** - FarDU tadqiqotchisi
UNDALMA VA UNING INTONATSIYASI.....193
62. **Xojayeva M.** - ToshDO'TAU o'qituvchi
TURISTIK MUNOZARALARDA GID-EKSKURSOVODLAR NUTQINING AHAMIYATI XUSUSIDA.....197
63. **Sayidova G.** - Bux.DU doktoranti
NAVOIY ASARLARIDAGI O'XSHATISHLARNING AYRIM LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI199
64. **Fazliyeva A.J.** - NamDU o'qituvchisi
MONOLOGIK NUTQ VA UNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....202
65. **Inomiddinova O.** - o'qituvchi
SAIDA ZUNNOVANING OMONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI.....204
66. **Solixodjayeva X.** – NamDU o'qituvchisi
O'ZBEK TILIDAGI GEORTONIMLARNI IFODALOVCHI PERIFRAZALAR XUSUSIDA.....206
67. **Achilova S.** - QDPI o'qituvchisi,
Rayimova SH.- QDPI talabasi.
TO'G'RI TALAFFUZDAN NUTQ MADANIYATI SARI.....209
68. **Gapparova M.T.** - NDPI o'qituvchi,
Shavkatova Z.Sh. - 1-kurs talabasi.
SINONIMLAR – CHET TILLARINI O'RGANISHDAGI ASOSIY QUROL.....212
69. **Usmonova S.** - o'qituvchi,
To'rajonova X.- QDPI talabasi,
Valijonov B. - QDPI talabasi.
MANSAB NOMI BILAN ALOQADOR OYKONIMLAR.....213
70. **Абдуманнонов Х А.** – АГУ.
ФРАЗЕОГРАФИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: (ОПЫТ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ).....217
71. **Imomaliyeva M.** - Qo'qon DPI o'qituvchisi.
METAFORA NUTQ BEZAGI.....221
72. **Bekiyeva M. J.** - AndTI mustaqil tadqiqotchisi.
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR SEMANTIKASIDA MILLIY MADANIYATNING O'ZIGA XOSLIGI.....225
73. **Hakimova D.** - FarDU tadqiqotchisi.
"QUTADG'U BILIG"DA QO'LLANGAN DINIY TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....227
74. **Khaydarova Ch. J.** - Kokand University, a teacher,
Nazirova U. Y. - Kokand University, a teacher.

- FEATURES OF THE TRANSLATION OF PROVERBS AND SAYINGS AS STABLE METAPHORICAL EXPRESSIONS.....230
75. **Babanazarova S.** - Independent researcher of Tashkent State Uzbek language and literature University named after Alisher Navoiy.
LINGUISTIC CONCEPTUALIZATION OF THE WORLD IN COMPARISONS.....232
76. **Nishonov I.A.** - AndMBI.
GRAPHIC MEANS AS A TYPE OF PRAGMATIC INTENTION.....234
77. **Inamova M.** - English language teacher at Faculty of Foreign Languages, ASU.
PROBLEMS WHICH MAY ARISE WHEN LEARNING IDIOMS AND SUGGESTED WAYS FOR SOLVING THEM EFFECTIVELY.....236
78. **Yuldashev O.** - NamDU tayanch doktoranti .
GEMERONIMLAR ONOMASTIK BIRLIK SIFATIDA.....241
79. **Rajabov O'.** - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi.
IMMANUIL KANT HAYOTI VA IJODI – TA'LIM -TARBIYANING O'ZIGA XOS METODI SIFATIDA.....244
80. **Abdusalomov F.A.** Ichki ishlar akademiyasi o'qituvchisi.
BUYRUQ – TILSHUNOSLIKNING OBEKTI SIFATIDA.....247
81. **Kurganov A.M.** - Ichki ishlar akademiyasi o'qituvchisi.
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HARBIY TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....252
82. **Jumaboyev F.** - Kokand SPI.
LOCAL VALENCY AND ITS SEMANTIC CORRESPONDENCE IN EVENTUALITY.....254
83. **Burxonova D.** – преподаватель КГПИ.
ВЫРАЖЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ «РОДИТЕЛИ МУЖСКОГО ПОЛА» И ЕГО ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ МИКРОСИСТЕМЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ.....257
84. **To'xtasinova Z. QDPI.**
GRADATSIYANING PRAGMATIK MOHIYATI VA SHE'RIYATDA QO'LLANILISHI.....260
85. **Tillayeva M., S.Matyaqubova** - Urganch davlat universiteti.
MAQOLLAR HAMOHANGLIGI (O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIGA QIYOSAN).....262
86. **Usmonova S.** - QDPI o'qituvchisi,
X.Mamasharipov - QDPI talabasi.
SO`X TUMANI TOPONIMLARI.....265
87. **Karimova V.V.** - QDPI o'qituvchisi ,
Valiyeva M.H. - talaba.
O'ZBEK TILIDAGI AYRIM QARINDOSHLIK ATAMALARINING SINXRON –TIPOLOGIK TALQINI.....268
88. **Mamajonova M.** - QDPI o'qituvchisi,
A.Nabijonova - talaba.

TOHIR MALIK QISSALARIDAGI JARGONLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	27
2	
89. Usmonova S. - QDPI o'qituvchisi, Shamsiddinova S. QDPI talabasi. DIALEKTIZMLARINING NASRIY ASARLARDAGI O'RNI (TOG'AY MUROD ASARLARI MISOLIDA).....	274
90. Turdaliyeva M.Q. – FarDU magistranti. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “ONA” KONSEPTI VERBOLIZATORINING TURLI TIL SATHLARI ORQALI IFODALANISHINING QIYOSIY TAHLILI.....	277
91. Rahimjonova N. -Qo'qon DPI magistranti. OBRAZ YARATISHDA PRAGMATIK OMILLAR.....	279
92. Abdunazarova O. - NamDU magistranti. NUTQ MADANIYATI VA USLUBIYATIGA DOIR TERMINLARNING TUZILISHI.....	282
93. Usmonova S. - Qo'qon DPI o'qituvchi, Jo'rayeva Y. - Dang'ara t. 14-maktab o'qituvchi, Mahmudjonova M. - QDPI talabasi. ANTROPOYKONIMLAR.....	286
94. Shermatova Gulnoza - ADU magistranti. SINTAKTIK ZAMON KATEGORIYASI HAQIDA.....	289
95. Xursanaliyeva I. - Qo'qon DPI magistranti. TILDA O'XSHASHLIK VA SINONIMIYA.....	291
96. Muhammadmusayeva G. - Qo'qon DPI magistranti. TILDA FARQLILIK VA ANTONIMIYA.....	294
97. Abdunazarova O. - NamDU magistranti . NUTQ MADANIYATI VA USLUBIYATIGA DOIR TERMINLAR TUZILISHI.....	297
98. Mirzayev S. - Qo'qon DPI 1-bosqich magistranti. TASVIRLOVCHI VA NOMLOVCHI LEKSEMALAR MUNOSABATI...302	
99. Mengliyeva M. B. - O'zMU. HARAKAT TARZINI “MA'NODAN SHAKLGA...” TAMOYILI ASOSIDA O'RGANISHGA DOIR.....	305
100. Rahmatullayeva N. - NamDU magistranti. O'ZBEK TILIDAGI TO'Y BILAN BOG'LIQ ETNOGRAFIK LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	308
101. Zaripova R. - Sirdaryo viloyati Guliston shahri 5-umumta`lim maktabi o'qituvchisi. “JAYRON” SHE'RIDA LEKSIKOLOGIK VOSITALAR YORDAMIDA EKSPRESSIVLIKNING HOSIL QILINISH USULLARI.....	311
102. Qo'shoqova G.Y. - Xorazm viloyati Yangiariq tumani 19-maktab o'qituvchisi. TILDA NEOLOGIZMLAR HOSIL BO'LISH HODISASI.....	313
103. To'xtasheva X. - O'zb. tumani 20-maktab o'qituvchisi., Fazliddinova Z. - 1-maktab o'qituvchisi.	

ADABIY TIL UMUMXALQ TILINING OLIY SHAKLIDIR.....	315
104. Solixodjayeva X. - NamDU o'qituvchisi. O'ZBEK TILIDAGI GEORTONIMLARNI IFODALOVCHI PERIFRAZALAR XUSUSIDA.....	318
105. Шамсиева М.Б., базовый докторант (PhD) НУУз. БИЛИНГВИЗМ - СУЩНОСТЬ ДВУЯЗЫЧИЯ.....	320
106. Yuldashev O. - NamDU tayanch doktoranti. GEMERONIMLAR ONOMASTIK BIRLIK SIFATIDA.....	323
107. Toshpo'latov A. I. - NamDU 4-kurs talabasi. DIALOGIK NUTQNING AYRIM PSIXOLINGUSTIK XUSUSIYATLARI.	325.
108. Sultonova M. - FarDU talabasi. BADIY MATNDA IFODALANGAN METAFORALARNING LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	328
109. Rahimjonov R. H. - NamDU talabasi. OMONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATI.....	330
110. Ziyatova N -Navoiy DPI talabasi. FRAZEMALARNING LINGVOKUTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	332
111. Nu'monova D. - NamDU talaba. ANTONIMIK MUNOSABATLARNING BADIY MATNDAGI O'RNI....	334
112. Turg'unova N. -Qo'qon DPI, talaba. ARABCHA LUG'AVIY O'ZLASHMALARNING QO'SHMA SO'ZLAR HOSIL QILISHDAGI AYRIM MULOHAZALAR.....	336
113. Nu'monova D. - NamDU talaba. TILSHUNOSLIKDA LINGVOSTATISTIK TADQIQOT.....	338
114. Xakimova M. - O'zDJTU. TIL VA MADANIYAT LINGVOMADANIY TADQIQOTNING TARMOG'I.....	341
115. Iminjanov B. X. - AndDU talabasi. NOM KO'CHISHI HODISASI FUTBOLCHILARNING LAQABLARI TALQINIDA.....	343
116. Hakimova K. - ADU talabasi. OT SO'Z TURKUMIDA SON KATEGORIYASINING LEKSIK- SEMANTIK USUL BILAN IFODALANISHI.....	345
117. Gapparova M.T. - NDPI o'qituvchisi., Abduraxmonova N. Sh. - 1-kurs talabasi. TILDA SINONIMIK MO'JIZALAR.....	348
118. Alijonov H. - QDPI talabasi. TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARI MASALASI (MAKTAB DARSLIKLARI MIQYOSIDA).....	349
119. Muhammadjonova M. - QDPI talabasi. TOG'AY MUROD ASARLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	351
120. Xamidova M. X. - Andijon davlat universiteti talabasi. "QUTADG'U BILIG" ASARIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI.....	355
121. To'raxonova B. O'zDJTU.	

	FILOLOGIYANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHIDA MUQADDAS MATNLARNING AHAMIYATI.....	359
125.	Махбуба Тожибоева, ҚДПИ, ф.ф.н., доцент. АРАБИЙ СЎЗНИНГ ПОЭТИК НУТҚҚА ХОСЛАНИШИ.....	362
	<u>О‘ЗБЕК ТИЛИНИ О‘ҚИТИШ МЕТОДИКАСИДАН МАЪРУЗАЛАР</u>	
1.	Jumaniyozova M.X. - UrDU f.f. n., dotsent. BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARINING FONETIK-GRAMMATIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMIY O'YINLAR.....	367
2.	Zokirova S.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Boqijonova G. - FarDU talabasi. DIKTANT HAQIDA DASTLABKI TUSHUNCHALAR.....	371
3.	Умарова М. - доцент КГПИ, Валиева М. - студентка. ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ ИГР В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ.....	373
4.	Rahmonov G'. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O'QUVCHILAR TAFAKKURINI O'STIRISHDAGI MUHIM VOSITASI SIFATIDA.....	378
5.	Zokirova S.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), M.Sotvoldiyeva - FarDU talabasi. TURLI KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANGAN HOLDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH.....	382
6.	Odilov S. - QDPI katta o'qituvchisi. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI NUTQ ODOBIGA O'RGATIB BORISH YO'LLARI.....	385
7.	Ergashova M. - f.f.n., dotsent, Jumaboyeva Sh. - talaba. ALISHER NAVOIYNING "TIL VA NUTQ BIRLIKLARI" HAQIDAGI QARASHLARI.....	387
8.	Usmonova S. - Qo'qon DPI o'qituvchisi. "O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI" MODULINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	394
9.	Saidov R.T. - UzSWLU, teacher of English teaching methodology department. PRINCIPLES OF CHOOSING MATERIALS FOR TEACHING READING.....	401
10.	Davlatova S.E. - UzSWLU, teacher of English teaching methodology department. BEGINNING AND ORGANIZING THE BUSINESS LETTER.....	408
11.	Jo'rayeva R. - Qo'qon DPI o'qituvchisi. UNDOV SO'ZLAR MAVZUSINI O'QITISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH.....	412
12.	Nazarova G. - KSPI teacher.	

- USING COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING IN THE CLASSROOM AND ITS PREFERENCE.....418
13. **Ataxojayev T.** - A senior teacher of the chair of the English language and literature of KSPI.
TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO THE AT RISK STUDENTS AND MOTIVATION STRATEGIES..... 421
14. **Алибеков Б.С.** - Акад МВД Р.Уз.
ВОЗМОЖНОСТИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ424
15. **Jo'rayeva R.** - Qo'qon DPI o'qituvchisi.
NUTQNING USLUBIY SHAKLLARI MAVZUSINI O'QITISH.....428
16. **Мамаджанова М.Р.** - АндМИ.
ИГРОВАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....432
17. **Rahmatullayeva D.Sh., Yusupova Yu.** (talaba) QDPI
UNDOV SO'ZLAR MAVZUSINI LOYIHA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QITISH.....435
18. **Usmonova S.** - QDPI o'qituvchisi,
Nabiyeva H. - QDPI talabasi,
Rahimov S. - QDPI talabasi.
"LOYIHA TEXNOLOGIYASI" ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINI TASHKIL ETISH.....440
19. **Gapparova M.T.** - NDPI o'qituvchisi, Nizomova M.X. 1-kurs talabasi.
CHET TILLARNI O'RGANISH VA O'RGATISH JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....442
20. **Rahmatullayeva D.Sh.** - QDPI o'qituvchisi.
RAVISH SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA KEYS-STADI METODIDAN FOYDALANISH.....443
21. **Хатамова З.Г.** - преподаватель КГПИ.
ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....448
22. **Sodiqova M.** - QDPI magistranti.
BOSHLANG'ICH SINFDA ONA TILI TA'LIMI VA DARS MODULLARI.....451
23. **To'xtasinova G.** - QDPI magistranti.
BOSHLANG'ICH TA'LIMNING YANGI MODELLARIDA ONA TILI TA'LIM MAZMUNINI UYG'UNLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....452
24. **Radjabova K.B.** - Xalq ta'limi a'lochisi, Navoiy shahar 11-AFCHO'IM o'qituvchisi.
ONA TILI DARSLARIDA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISH.....453
25. **Azizbekova M.** - Qutfiddinova G. Qo'qon, 32- maktab o'qituvchilari.
ONA TILI DARSLIKLARIDA BAYON VA UNING TURLARI.....456
26. **Jo'rayeva R.** - Furqat tumani 33-maktab o'qituvchisi.

- ONA TILI TA'LIMIDAGI INTERFAOL USULLAR.....457
27. **Allazarova S. R.** - Xorazm Qo`shko`pir tumani 46-maktab o`qituvchisi.
MAKTAB O`QUVCHILARI QO`SHIMCHALAR MAVZUSINI SAMARALI
O`ZLASHTIRISHIDA INTERFAOL O`YINLARNING O`RNI.....460
28. **Islomova N.** - Toshkent Shayxontohur tumani 132-maktab o`qituvchisi.
INTERFAOL USULLAR ASOSIDA O`QUVCHILARNING DARS
JARAYONIDAGI FAOLLIGINI OSHIRISH.....463
29. **Madrahimova D.** - Dang'ara tuman 13-maktab o'qituvchisi.
ONA TILI TA'LIMIDA O`QUVCHILAR TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISH.....465
30. **Rafiqova N.** - Dang'ara tumani 32-maktab o'qituvchisi.
ONA TILI DARSLARIDA IJODIY FIKRLASH KO`NIKMASINI
SHAKLLANTIRISH467
31. **Baxriyeva N. A.** - Buxoro davlat universiteti.
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY
RIVOJLANTIRISHDA NUTQ USTIDA ISHLASH.....471
32. **Ahmedova Z.** - Furqat tuman 33-maktab o'qituvchisi.
TA'LIMiy O'YINLAR ASOSIDA RANG-TUS BILDIRUVCHI SIFATLARNI
O'TISH METODIKASI.....474
33. **Yunusova N.**- Furqat tuman 33-maktab o'qituvchisi.
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NUTQ VA NOTIQLIK
MASALALARI.....478
34. **Xojimatova Yu.** - Bog'dod tumani 46-maktab o'qituvchisi.
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....480
35. **Miryusupova O.** - talaba.
SO'Z VARIANTLARI VA UNGA YONDOSH HODISALARNI O'TISHDA
O'YIN TEXNOLOGIYASI.....483
36. **Teshayeva M.** - Buxoro davlat universiteti talabasi.
BIZ YO'QOTAYOTGAN "MILLIY ALIFBO".....486
37. **Rahimov S.** - Qo'qon DPI (talaba).
ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASH
KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH.....489
38. **Alimova E.** - Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI
MASALALARI.....493
39. **Mirzayev F.** - QDPI talaba.
8-SINF ONA TILI DARSLIGIDA MAVZULARNING YORITILISHI VA
ULARNING TANQIDIY TAHLILI.....496
40. **To'xtasinova SH.** - Qo'qon DPI talabasi.
BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOGNITIV TA'LIM.....504
41. **Exsonova M.T.** QDPI talabasi.
CHET TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV
METODIKASIDAN FOYDALANISH.....506
42. **Meliqo'ziyev D.** - QDPI talabasi.

	OTLARDA BIRLIK VA KO'PLIKNI O'RGATISH TAJRIBASIDAN.....	516
43.	Abdurahmonova N. - QDPI magistranti. ИЖОДИЙ ФИКРЛАШ КЎНИКМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА ШАХС (ЎҚИТУВЧИ-ЎҚУВЧИ), ҚУРОЛ-ВОСИТА (ДАСТУР, ДАРСЛИК) ВА МЕТОД МУНОСАБАТЛАРИ.....	521
44.	Komiljonova G. - QDPI magistranti. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKSIS O'QITISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI.....	525
45.	Nosirova M. - QDPI magistranti. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MEHNAT DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYANING AHAMIYATI.....	527
46.	To'xtasinova G. - QDPI magistranti. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	529
47.	Hamdamova U. - Bog'dod tumani 46-maktab o'qituvchisi. O'QUVCHILARDA OMMAVIY MADANIYATNING SALBIY OQIBATLARINI OLDINI OLISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK OMILLARI.....	531
48.	Qodirova M. - Bog'dod tumani 46-maktab o'qituvchisi. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI IJTIMOY FAOLLIKKA O'RGATISH - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	534
49.	Yulchiyeva N. - Bog'dod tumani 46-maktab o'qituvchisi. O'QITUVCHILARNING IMLOVIY SAVODXONLIK DARAJASI TAHLILI.....	536
50.	Siddiqova M. - Buvayda tumani 42-maktab o'qituvchisi. 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA CHIROYLI YOZUV DAQIQALARINI O'TKAZISHNING PSIXOLOGIK VA METODIK ASOSLARI.....	539
51.	Rodjiyeva N. - Bog'dod tumani 40-maktab o'qituvchisi. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALA YECHISHGA O'RGATISHNING NAZARIY - METODIK ASOSLARI.....	541
52.	Ahmedova Gulsaraxon, Rasulova Mahfuzaxon. INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARDA GRAMMATIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	545
53.	N.Nosirova. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARI TARBIYA- LANUVCHILARNING NUTQIY MULOQOTLARI XUSUSIDA.....	550